

87(4)
D-99

D.A. PO' LATOVA,
G.M. RO'ZMATOVA

G'ARB FALSAFASI TARIXI

TOSHKENT

27/4
p-99

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

D. A. PO'LATOVA, G.M. RO'ZMATOVA

G'ARB FALSAFASI TARIXI

(O'quv qo'llanma)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

UO‘K: 1(1-15)(075.8)

KBK 87(4)

P 99

**P 99 D.A. Po‘latova, G.M. Ro‘zmatova. G‘arb falsafasi
tarixi. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 516 bet.**

ISBN 978–9943–11–928–4

O‘quv qo‘llanma davlat oliy ta’lim standartlari, 5120800 – Sharq falsafasi va madaniyati hamda 5120500–Falsafa ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari asosida fanning namunaviy o‘quv dasturiga mos ravishda tayyorlangan. Mazkur o‘quv qo‘llanmadan shuningdek, falsafa fanidan tahsil olayotgan barcha talabalar, soha magistrant va ilmiy izlanuvchilari, fan o‘qituvchilari hamda falsafa tarixini mustaqil o‘rganmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur qo‘llanmada «G‘arb falsafasi» fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, tushuntiruvchi nazariy matn, jadval va organayzer shaklidagi konsultativ materiallar, bilimlarni sinab ko‘rish uchun savollar, tahlil etish uchun G‘arb faylasuflarining hikmatli fikrlari, prezentsiya va bahs-munozara uchun mavzular, mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar, xrestomatik material, glossariy, shuningdek adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

**UO‘K: 1(1-15)(075.8)
KBK 87(4)**

Mas’ul muharrir:

E.M. Izzetova – falsafa fanlari doktori

Taqrizchilar:

M.Q. Qodirov – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

R.R. Karimov – falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978–9943–11–928–4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

KIRISH

XXI asarning zo'ngri o'n yilligi xalqimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr mobaynida davlatimiz turli sohalarda olib borayotgan muhim bishohotlardan biri ta'lim tizimiga taalluqlidir. Uning bo'sh maqadi yuqori malakali mutaxassislarini mustaqil tilirovchi shaxs, komil inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Tilborinidan havola etlibayotgan ushbu o'quv qo'llanmani yaratishdan maqad ta'lim tizimi milliy dasturining asosiy g'oya-hirdan kelib chiqib, milliy va rivojlangan xorijiy mamlakatlar ilmiy tajribasi namumalaridan soydalaniłgan holda falsafa va uning tarihi ni o'rjanayotgan talabalarga G'arb falsafasi tarixining rivoji, hozirgi holati, insoniyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy fikr tareqiyotiga qo'shigan hissasi haqida ilmiy bilim va tushunchalar berish bilan birga, ularda falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qila olish, ular haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish, G'arb falsafasi bilan Shaxq talasfasasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni to'g'ri anglat yetish, ularni qiyoslay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur o'quv qo'llanmada Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlariida falsafiy, tabiiy-ilmiy fikrlarning yuzaga kelishi va rivojlandishdan boshlab to XXI asrgacha – deyarli ikki yarim ming yil davomida G'arb falsafasining asosiy oqimlari, maktablari ularning xususiyatlari tarixiy davrlar bo'yicha yoritib berilgan.

Mavzularga oid vazifalarda mashhur olim, faylasuflarning murshididan olingan hikmatli so'zlarning berilishi talabalarining dunyoqarmahini kengaytiradi, falsafa tarixini chuqurroq o'rghanish-lariiga yordam beradi, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning strukturasi va mazmuni fan dasturiga muvofiq bo'lib, 6 bo'limdan tashkil topgan. Birinchi

bo'lim «G'arb falsafasi» o'quv kursining predmeti va vazifalari, ikkinchi bo'lim Qadimgi davr Yunon-Rim falsafasining tahliliga bag'ishlsangan. Unda ilk antik davr falsafasi: Milet falsafiy maktabi, Geraklit, Pifagor va pifagorchilar ittifoqi, Empedokl va Anaksagor falsafasi; antik davrning klassik falsafasi: sofistlar va Suqrot falsafasi, Levkipp va Demokritning atomistik falsafasi, Platon va Aristotel falsafasi; Qadimgi davr Ellin-Rim falsafasi: Epikur va Lukretsiy Kar falsafasi, stoiklar va skeptiklar, neoplatonizm ta'limotlarining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

O'quv qo'llanmaning uchinchi bo'limida O'rta asr G'arbida ilk xristian falsafasining shakllanishi; to'rtinchi bo'limda Uyg'onish davri falsafasi; beshinchi bo'limda G'arbiy Yevropada yangi davr falsafasi: XVIII asr ingliz va fransuz ma'rifatchiligi va falsafasi, XVIII-XIX asr boshida nemis klassik falsafasi; oltinchi bo'limda XIX-XX asrlarda G'arb falsafasi tahliliga bag'ishlangan. So'nggi bo'limda neokantchilik, pozitivizm, "hayot falsafasi", pragmatizm, ekzistensializm, freydizm va neofreydizm kabi yo'nalishlar va ularning ta'limotlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Yangi avlod o'quv adabiyotlariga, shuningdek butun oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan kelib chiqib, o'quv qo'llanmada qamrab olingan mavzular G'arb falsafasi tarixi doirasida talabalarga nafaqat bilim berish, balki bu mavzular ustida fikr-mulohaza yuritish, mustaqil ishlash va yana yangi bilimlarni qidirib topish ko'nikmalarini shakllantirishga ham yo'naltirilgan.

Ushbu maqsadga erishish uchun har bir mavzuning o'quv maqsadi, unga tegishli tayanch tushunchalar, nazariy matn, jadval va organayzer shaklidagi konsultativ materiallar, bilimlarni sinab ko'rish uchun savollar, tahlil etish uchun G'arb faylasuflarining hikmatli fikrlari, prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar berilgan. Mavzular bo'yicha berilgan testlarni yechish talabalarga olgan bilimlarini sinab ko'rishga imkon beradi.

Talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari bilan birga ularning axloqiy madaniyatini ham shakllantirish maqsadida

O'urbay taylasuflarining ijtimoiy-axloqiy nuqtayi nazardan qadriyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatli fikrlari tanlab olishga alohida o'tibor qaratildi.

O'quv qo'llanma so'ngida keltirilgan glossariyda har bir mavzuya oid tayanch tushunchalarning izohi, ta'rifi bayon qilin-gan. Mazzur o'quv qo'llanma talaba yoshlarning falsafa tarixini qiziqib o'riganishlariga, chuqur o'zlashtirishlariga, ularning fal-safiy fikrlash madaniyatini shakllantirishga yordam beradi deb umid qilamiz.

1-BO'LIM

«G'ARB FALSAFASI» O'QUV KURSINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda «G'arb falsafasi» fanining predmeti, uning tuzilishi haqida, G'arb falsafasi tarixiy rivojining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari haqida bilim va tasavvurlar hosil qilish. Ularda turli falsafiy maktab va konsepsiyalarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

G'arb falsafasi, Sharq falsafasi, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, naturfalsafa; ontologiya, gnoseologiya, ijtimoiy falsafa; monizm, dualizm, plyuralizm; materializm, idealizm, obyektiv va subyektiv idealizm; panteizm, deizm, dialektika, metafizika, sinergetika.

Asosiy savollar

1. G'arb falsafasi jahon falsafasining yo'nalishlaridan biri sifatida.

2. G'arb falsafasi tarixining rivojlanish davrlari.

3. G'arb falsafasining asosiy yo'nalishlari.

Bashariyat ma'naviy madaniyatining eng qadimgi va murakkab tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan falsafa, insonning o'zini o'rabi turgan olamni mantiqiy tushuntirib berishga, undagi narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi, genezisi va keyingi rivojining mohiyatini ochishga yo'naltirilgan bo'lib, insonning olamga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi bilimlar tizimini tashkil etadi. Falsafiy fikr taraqqiyotiga nazar tashlar

ekanmiz, uning qariyb 2,5 ming yillik tarixi davomida rang-burong shakllarda, yo‘nalishlarda namoyon bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz.

Qadimiy sivilizatsiyalar bag‘rida shakllangan ilk falsafiy g‘oyalari sivilizatsiyalar rivoji davomida, undagi o‘zgarishlarni aks etirgan holda rivojlanib, mukammallahib bordi. Falsafiy o‘timotlar bir-biridan faqat tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan emas, balki qaysi sivilizatsiyaga xosligi bilan ham ajralib turadi. Chunki u, har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy bayoti, shu davrgacha erishilgan ilmiy bilimlar potensialiga mosulanadi. Shu bilan birga, dunyoqarashlik xarakteriga ega bo‘lgan falsafiy g‘oyalarda jamiyat xususiyatlari bilan bog‘liq qandriyattar va ideallar o‘z ifodasini topadi.


Shunday qilib, qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari bag‘rida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan Sharq va G‘arb falsafasi shakllandi va rivojlanib bordi (1-ilova).

I-ilova



Falsafa mioddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalarida, bir-biridan alohida turli sivilizatsiyalarda: Qadimgi Misr, Bobil, qidimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistonda shakllandi. Ularning hamman ulsonaviy-mifologik dunyoqarash asosida yuzaga keldi. Doshqa imdudlarda falsafa nisbatan kechroq vujudga kelib, yuqoridaqgi falsafiy qarashlarga asoslanib ravnaq topdi (2-ilova).

Ilk falsafiy fikrlar shakllangan qadimgi sivilizatsiya o'choqlari



Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan bo'lgan Misr, Bobilda miloddan avvalgi to'rt ming yillikning oxiri va uch ming yillikning boshlarida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan¹.

«G'arb falsafasi» fan sifatida G'arb falsafasini qadimdan to hozirgi davrgacha davom etgan tarixiy rivojining asosiy bosqichlarini, uni insoniyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ilmiy o'rganishdan iborat. Unda Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi va rivojlanishidan boshlab XXI asrgacha, deyarli ikki yarim ming yil davomida G'arb falsafasining asosiy oqimlari, maktablari, ularning xususiyatlari tarixiy davrlar bo'yicha yoritib beriladi.

Qadimgi davrda falsafa barcha nazariy fikrlarni, ma'naviy hayotning hamma tomonlarini qamrab oluvchi fikrlash tizimi sifatida paydo bo'lgan. Shu ma'noda **filosofiya** yunoncha filosevaman, sofiya – donolik, so'zlaridan olingan bo'lib, unga donolikni sevish, donishmandlik bilan shug'ullanish deb qaralgan.

Haqiqatga erishish yo'llari, ishonch va e'tiqod masalalari, adolat mezoni, yaxshilik tamoyillari, go'zallik qoidalari, davlat tizimi kabi masalalarni donolik darajasida tadqiq qiluvchilarni **faylasuflar** deb atab kelganlar. Hozirgi kunda ham o'z sohasining

¹Qarang: Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 21.

yukusak bilimdonlarini faylasuflar deb atashning ma’nosи ham ana shunda.

Falsafa donishmandlik haqidagi ta’limot ekan, u holda donishmandlikning o’zi nima? Qadimgi yunon faylasufi Diogendan (taxminan mil.av. 400-325y.) «Donishmand kim?», deb so‘rashganda, u: «Haqiqiy donishmand xudodir, biz donishmandlikni sevguchilarimiz», – degan. Demak, donishmandlikni sevguchilar donolik tafakkuri bilan dunyoni, o’zligini bilishga intiluvchilardir. Sog’rot (mil.av.470-399y.) o’z-o’zini yerga urish – tubanlashish, o’zligini anglash, o’zligini yuqori tutish esa donishmandlikdir, degan edi.

Demak, insonni tubanlik, razillikdan yuksaklikka, insoniy barkamotlikka ko’taruvchi barcha narsalar donishmandlikdir. Donishmandlik o’zligini, o’z mohiyatini bilish orqali dunyoni inson, insoniyat, insoniylik ko’zgusi bilan anglab yetishdir.

Falsafiy tafakkur dunyoni nazarij jihatdan tahlil qilib inson va uning dunyoga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Falsafa jamiyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning boshqa shakllaridan o’z qonun-kategoriyalari, o’rganish ustullari bilan qolaversa, aql kuchining salohiyati bilan farq qiladi.

Qurb falsafiy tafakkuri o’z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o’tgan (3-ilova).

Qadimgi dunyo mutafakkirlari tabiat hodisalarining kelib chiqishi, mohiyatini tushunib olishga intilganlar. **Naturfalsafa** falsafiy tafsikurning birinchi tarixiy shakli bo‘lgan. Bu davrda falsafa barcha bilimlarni o’z ichiga olgan.

Antik davr falsafasida Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel, Epikurlarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-axloqiy ta’limotlari yetakchi o’rin egallaydi.

Ondimigi davrdan keyin falsafiy-ijtimoiy, axloqiy fikrlar o’rtalama vujudga keldi. O’rtalama asr sxolastik falsafasida, ayniqsa, X-XIV asr davomida ikki asosiy oqim – **nominalizm** va **realizm** o’rtasida keskin kurash davom etdi. Bu ikki oqim o’rtasidagi kurashning asosiy masalasi – umumiy tushunchalar «universaliylar»ning mohiyati masalasi edi. Realizm oqimi tarafdforlarining ta’limotiga ko’ra, umumiy tushunchalar – «universaliylar» real

mavjud bo‘lib, ular mustaqil g‘oyaviy mohiyat sifatida jismlarga, insonlarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olam ikkilamchi umumiy tushunchalarning shakliy ifodasidir.

3-ilo va

G‘arb falsafasi rivojining asosiy davrlari

Qadimgi davr Miloddan avvalgi 1 ming-yillikning o‘rtalari va milodiy 476-yillar
O‘rta asr davri 476 – XIV asr o‘rtalari
Uyg‘onish davri XIV asr o‘rtasi – XVII asr boshlari
Yangi va eng Yangi davr: XVII asr – XXI asr
Yangi davr boshlari XVII asr – 1688-yil
Ma’rifatparvarlik davri 1688-1789-yillar
Nemis mumtoz falsafasi 1770-1850-yillar
Zamonaviy falsafa XIX – XXI asrlar

XIV-XV asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlariada yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘rta asr tuzumi ustidan g‘alaba qozonishda jamiyatdagi ilg‘or kuchlar – sanoatchilar, savdogarlar va bankirlarning tabaqalari shakllana boshladi. Yangi tuzumning rivoji tabiatni o‘rganishga bog‘liq bo‘lgan. Tabiat ilmining manbai taraqqiyot zaminiga aylangan edi. Ana shu tarixiy sharoitda mazkur tuzum madaniyatiga qarshi o‘z kashfiyotlari va asarlari

bilan kurash olib borgan insonparvar, tabiatshunos olimlar g'oyaviy maydonda o'z o'rinalarini topa bordilar.

XVII-XVIII asrlarda maxsus bilimlar va uning usullari vujudga kelishi bilan falsafa shug'ullanadigan masalalar doirasi chegaralangan bo'lsa-da, uning asl falsafiy masalalari chuqurlashib, boyib bordi. Falsafaning o'ziga xos vazifasi aniqlandi.

Yangi davr falsafasi oldida yangi vazifalar turardi. Bu vazifalardan biri – falsafaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini aniqlashdan iborat edi. Agar avval, falsafa va tabiatshunoslik o'rtasida aniq farq bo'limgan bo'lsa, endilikda falsafa bilan birgalikda, tabiiy fanlar ham rivojlandi. Naturfalsafadan ayrim, tabiiy-ilmiy fanlarning (mexanika, astronomiya, fizika) ajralib chiqishi tabiatshunoslikning ham, falsafaning ham rivojlarsi uchun katta ahamiyatga ega edi. Yangi davr faylasuflari bilishning umumiyligi usulini ishlab chiqish masalasiga katta ahamiyat berdilar.


XVIII asr fransuz falsafasi falsafiy tafakkur tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U insoniyatning ma'naviy ravnaqi tarixida, him-tan va aqliy kamolotining burilish nuqtalaridan biridir. Ingliz ma'rifatparvarlari Yevropadagi boshqa mamlakatlardagi kabi chuqur ildiz otgan diniy mafkuraga qarshi chiqishdi va birinchi navbatda eski ijtimoiy tuzum bilan bog'liq bo'lgan barcha bid'atlariga qarshi qattiq kurash boshladilar.

XIX usrga kelib esa zamonaviy falsafiy maktablarning asosini tashkil etgan ko'plab falsafiy ta'limotlar shakllandi. Xususan, nemis klassik falsafasi falsafa tarixini o'rganishning nihoyatda murakkab qismi bo'lib, uni alohida mas'uliyat bilan o'rganish zarurdir. Chunki u o'zidan keyin shakllangan falsafiy fikrlar rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Falsafaning rivojlanish tarixi bosqichlarida qator yo'nalishlar shakllangan. Ularning orasidan bir qancha asosiy maktablar va yo'nalishlarni ajratib olish mumkin (4-ilova).

Materializm – bu shunday ta'limotki, unga ko'ra birinchi ibtido yisatida moddiy borliq, materiya (tabiat) olinadi. Vakillari Demokrit, Milet maktabi faylasuflari, Didro, Golbax, Feyerbax, Marks va boshqalar.

Dastlabki ibtido bo'yicha falsafiy ta'limotlarning sifatiy tasnifi



Idealizm – bu ta'limotga ko'ra, birinchi boshlang'ich sifatida g'oya, ruhiy borliq nazarda tutiladi. Idealizm o'z o'rnida ikki katta oqimga bo'linadi. *Obyektiv idealizm* vakillari olamning asosiga mustaqil boshlang'ich ilohiy ruhiy ibtidoni qo'ysalar, *subyektiv idealizm* namoyandalari butun borliqning mavjudligini inson ruhiyatiga, ongiga bog'lab tushuntiradilar. Obyektiv idealizm vakillari – Pifagor, Platon, Gegel va boshqalar; subyektiv idealizm vakillari – J.Berkli, D.Yum va boshqalar. (5-*ilova*).



Monizm – bu falsafiy ta'limotga ko'ra, borliqda yagona moddiy yoki ruhiy ibtidoning mavjudligi tan olinadi. Shunga ko'ra, moddiy monizm (vakillari – Demokrit, Didro, Golbax, Marks) yoki ruhiy monizm (vakillari – Platon, Pifagor, Gegel) farqlanadi.

Dualizm – bu falsafiy ta'limotga ko'ra, borliq ikki ibtido: moddiy va ruhiy ibtidoning o'zaro birligidan tashkil topgan. Dualizm vakillari – Aristotel, R.Dekart, I.Kant va boshqalar.


Plyuralizm – bu falsafiy ta'limotga ko'ra, borliq uch va undan ortiq ibtidoning o'zaro birligidan tashkil topgan. Plyuralizm vakillari – Empedokl va boshqalar (6, 7-*ilovalar*).

Panteizm – bu ta'limotga ko'ra, Xudo butun borliqni yaratgan va unga singib ketgan (N.Kuzanskiy, J.Bruno, Shelling, Gegel va b.).

G'arb falsafasida materializm, idealizm va dualizmning shakllanishi



Antik davr falsafasida ibtidoning tasavvur qilinishi



Deizm – bu ta’limotda Xudo dunyoni o’z qonunlariga ko‘ra yaratgan, lekin keyin uning ishlariga aralashmaydi (Dekart, Nyuton, Lokk, Volter, Russo, I.Kant, M.Lomonosov).

Borliq falsafasi haqida fikr yuritganda, unga oid bo‘lgan bir qancha terminlarning mazmunini ham bilish muhimdir. Masalan:

Kosmos – qadimgi yunon tilida kosmos «tartib» ma’nosini anglatgan. Tartib xaosga qarama-qarshi qo‘yilgan.

Kosmologiya – dunyoning tuzilishi haqidagi ta’limot.

Kosmogoniya – dunyoning kelib chiqishi haqidagi ta’limot.

Kosmogenet – dunyoning shakllanishi va tuzilishi jarayoni.

Borliqning mohiyatini, ya’ni olamdagi narsa va hodisalarining paydo bo‘lishi, o‘zgarishi va rivojlanishini qanday tushuntirilishi ga qarab falsafiy ta’limotlarda dialektik, metafizik va sinergetik usullar farqlanadi. Falsafa tarixida bu tushunchalarining qo‘llanibiga qarab ma’nosini o‘zgarib borgan.

Dialektika:

• So‘zning lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra – yunonchadan olingan bo‘lib, «dbhs yuritish san’ati» sifatida qo‘llaniladi, bu Yangi davrgacha davom etadi.

• Yangi davrga kelib, nemis mumtoz falsafasida bu terminning ilkinchi mazmuni paydo bo‘ldi va u, aynan borliq aloqalar; uning shakllanishi va rivojining eng umumiy qonuniyatları haqidagi ta’limotni anglatu boshladi. Dialektik bilish usuli quyidagi muhim namoyillarga asoslanadi:

a) barcha narsa va hodisalar o‘zaro sababiy aloqador;

b) olandagi barcha narsa va hodisalar uzluksiz, abadiy harakatda, rivojlanishda bo‘ladi. Rivojlanishning manbaini esa borliqning o‘ziga xos bo‘lgan ziddiyat tashkil etadi.

Shu ma’noda dialektika metafizikaga muqobildir. Uning yirik namoyandalari – Shelling, Gegel, Marks, Bergson.

Lekin taraqqiyotning o‘zi turlicha talqin qilinadi: «yopiq aylana shaklidagi rivojlanish» (Shelling, Gegel) va doimiy ilgarilanma, ya’ni oldinga qarab intilish (Marks, Bergson).

Metafizika:

- So‘zning lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra – yunonchadan olingan bo‘lib «tabiatdan keyin». Dastlab metafizika deganda Aristotel falsafasi tushunilgan.

- O‘rta asrlardan boshlab metafizika deganda, butun falsafa tushuniladigan bo‘ldi, ya’ni

Metafizika = falsafa

- Yangi davrga kelib, «metafizika» tushunchasi falsafiy bilish usuli sifatida qo‘llanilib, unga ko‘ra dunyoning o‘z-o‘zidan abadiy rivojlanishi inkor etilgan, ya’ni

Metafizika = antidialektika

Sinergetika:

- So‘zning lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra – yunonchadan olingan bo‘lib, «hamkorlik» demakdir.
- XX asrning 70-yillarida shakllangan bu ta’limot o‘z-o‘zini tashkil etishning umumiy qonuniyatlarini va tamoyillarini o‘rganadi.

Falsafa tarixida olamni bilish masalasi ham juda muhim bo‘lgan.

Agnostitsizm – bu falsafiy oqim dunyoni bilish mumkinligini butunlay inkor etgan (8-ilova).

8-ilova

Dunyoni bilish masalasi

Agnostitsizm Dunyoni bilib bo‘lmaydi	Relyativizm Dunyoni qisman bilish mumkin va u subyektiv xususiyatga ega (haqiqat doimo nisbiydir)	Dunyoni bilish mumkin
---	--	----------------------------------

8-illovaning davomi

Qadimgi davr Antik davr skeptitsizmi – Pirron, Sekst Empirik	Sofistika	Dunyoning oliv mohiyatlarini xotirlashga ko'ra bilish mumkin – Platon. Dunyoni hissiy va aqliy bilish orqali mushohada qilish mumkin – Aristotel.
O'rta asr	Tabiat (yaratilgan dunyo)ni bilib bo'ladi, lekin yaratuvchini umuman bilish mumkin emas.	Tabiat (yaratilgan dunyo)ni bilib bo'ladi, lekin Yaratuvchini umuman bilish mumkin emas. Yaratuvchi va u yaratgan dunyoni intellektual intuitsiya orqali bilish mumkin – Nikolay Kuzanskiy.
Uyg'onish davri Renessans skeptitsizmi - Monten		
Yangi davr D.Yum I.Kant	Pozitivizm Pragmatizm	Dunyoda bilib bo'lmaydigan narsaning o'zi yo'q, lekin hali bilinmagan narsalar bor – K.Marks, F.Engels.

Shunday qilib, miloddan avvalgi VII-VI asrlardan shakllana boshlagan falsafiy tasakkur har bir davrda olamning yaxlit manzarasini yaratish bilan bog'liq dunyoqarash xarakteridagi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ygan. Ushbu muammolarning yechimi ko'p jihatdan sivilizatsiya rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib, B.Rasselning falsafiy tafakkurga bergen quyidagi ta'rifini keltiramiz: “Barcha ilmlar qanchallik aniqlikka ega bo'lmasin ular aqidalardan iborat. Din va ilm o'rtasida falsafa mavjuddir. Mavjud barcha savollarga ilm-fan javob bera olmagan, bu savollarga yuz yilliklar davomida din (teologiya) vakillari javob bergen. Olam ruhiyat va moddiyatga bo'linadimi? Agar olam ikki qismga bo'linsa: ruh nimayu, modda nima? Ruh moddaga bo'ysunadimi yoki o'zi alohida mustaqil kuchga egami? Borliqni yagona sababchisi bormi? Borliq qandaydir yo'nalishga qarab rivojlanadimi? Tabiat qonunlari haqiqatan ham mavjudimi yoki biz faqat uni tartibli o'zgarishlarigagina ishonamizmi? Inson o'zi kim? Sayyoralarni tadqiq etuvchi zotmi yoki shu sayyoradagi mavjud mayda, ikkinchi darajali, kuchsiz, suv va uglevod aralashmasidan tashkil topgan zarrami? Yoki u Gamlet qiyofasidagi qahramonmi? Balki inson bir vaqtning o'zida ham kuchsiz mavjudot, ham qahramon timsolidagi mavjudotdir? Mehr-oqibat abadiymi yoki u halokat sari to'xtovsiz ilgarilayotgan borliqdagi o'tkinchi tizim hisoblanadimi? Yuqoridagi bunday savollarga laboratoriya sharoitida javob topib bo'lmaydi. Shuning uchun bu savollarni tadqiq etish faylasuflarning vazifasidir².

1-bo'limga oid topshiriqlar

O'z bilimingizni sinab ko'ring va savollarga javob bering:

1. «Falsafa» nima? U qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Ilk falsafiy fikrlar shakllangan qadimgi sivilizatsiya o'choqlari qayerlarda joylashgan?
3. Falsafiy fikr rivojida muayyan jamiyatda shakllangan qadriyatlar va ideallar o'z ifodasini topadimi?
4. Falsafani Sharq va G'arb falsafasiga bo'lish to'g'rimi? Nima uchun?
5. Sharq falsafasining G'arb falsafasidan farqi bormi?
6. «G'arb falsafasi» fani nimani o'rganadi?

² Qarang: Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 9.

7. G‘arb falsafasini o‘rganish nima uchun kerak?
8. G‘arb falsafasi rivojini qanday davrlarga bo‘lish mumkin?
9. Kim ilk bor o‘zini «faylasuf» deb atagan?
10. Naturfalsaфа haqida nimalar bilasiz?
11. Materializm qanday ta’limot?
12. Idealizm-chi?
13. Idealizmning qanday shakllari mavjud?
14. Falsafadagi substansiya muammosini qanday tushunasiz?
15. Monizmning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?
16. Dualizm qanday ta’limot?
17. Panteizm qanday g‘oyaga asoslanadi?
18. Ateizm-chi?
19. «Dialektika» so‘zining ma’nosini bilasizmi?
20. «Dialektika» qanday ta’limot? Uning asosiy tamoyillarini sanab bera olasizmi?
21. «Metafizika» so‘zining ma’nosini bilasizmi?
22. «Metafizika» qanday ta’limot? Uning asosiy tamoyillarini sanab bera olasizmi?
23. «Sinergetika» so‘zining ma’nosini bilasizmi?
24. «Sinergetika» qanday ta’limot? Uning asosiy tamoyillarini sanab bera olasizmi?
25. Agnostitsizm qanday ta’limot?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Insonga ko‘proq uning savoliga qarab hukm chiqar, javobiga qarab emas (Volter).
2. Falsafa javob bera olmaydigan savollar boshqacha qo‘yilishi kerak (Gegel).
3. Aqlni takomillashtirish uchun yod olish emas, doimo mushohada yuritish zarur (Dekart).
4. Haqiqatni o‘rgana turib, uch xil maqsadni ko‘zlash mumkin: haqiqatni ochish – uni izlayotganimizda; isbot qilish –

uni topganimizda; va nihoyat, yolg'ondan ajratish – uni tahlil qilayotganimizda (Blez Paskal).

5. O'tmish va hozir – bizning vositamiz, maqsadimiz esa – kelajak (Blez Paskal).

6. Tasodifiy kashfiyotlarni faqat puxta tayyorlanganlar ochadi (Blez Paskal).

7. O'z hayot mazmunini bilmaydigan insonlarga achinish kerak (Blez Paskal).

8. Faqat birgina tafakkurga, dono ustoz sifatida umrbod ishonish mumkin (Pifagor).

9. Qissa ham, inson hayoti ham uni uzunligi uchun emas, balki mazmuni uchun qadrlanadi (Seneka).

10. Qancha yashasang ham, doimo o'qish kerak (Seneka).

11. Ruh-doimo yuqoriga timsollarga qarab intiladi (Sitseron).

12. Tarix – hayat ustozidir.

13. Falsafa – qalb shifokoridir (Sitseron).

Prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular

1. Insoniyat sivilizatsiyalari rivojida falsafiy tafakkurning o'rni.

2. «Nur - Sharqdan!» g'oyasining mazmun-mohiyati va uni G'arb falsafasini o'rganishdagi ahamiyati.

3. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari.

4. Falsafiy dunyoqarash va uning asosiy yo'nalishlari.

5. Dialektika, metafizika va sinergetika olamni bilish usullari sifatida.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Rasselning falsafaga bergen quyidagi ta'rifini izohlang: “Hayot va olam konsepsiyasini biz “falsafa”deb bilamiz. Va uni biz ikki omil orqali o'rganamiz: birinchisi, axloqiy va diniy tamoyillarni o'zida aks ettirgan, ikkinchisi esa o'zida keng miyosli ma'noni qamrab olgan “ilmiy” omildir. “Falsafa” esa ana shu yuqoridagi ikki mustaqil omilni o'zida mujassamlashtirgan

fan sohasidir. “Falsafa” so‘zi tor va keng manolarda qo‘llaniladi. Men bu atamani keng ma’noda tushuntirishni taklif etaman. Falsafa tushinishim bo‘yicha, teologiya va ilm o‘rtasidagi oraliq fandir. Teologiya bu hali oxiriga yetmagan bahs va munozaralardan iborat bo‘lib, ilm-fan esa undan farqli o‘larоq urf-odatlar va kashfiyotlarning egasi inson tafakkurining mahsulidir”³.

2. Falsafiy bilim strukturasiga oid krossvord tuzing.

3. Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro aloqadorligiga oid falsafiy manbalarni topib, ularni o‘rganing. Shu mavzuda esse yozing.

TESTLAR

1. Falsafa tarixi nimani o‘rganadi?

- A) Falsafiy dunyoqarash tizimini o‘rganuvchi fan
- B) Buyuk donishmandlarning fikrlarini o‘rganuvchi falsafaning tarkibiy qismi
- C) Donishmandlik tarixini o‘rganadi
- D) Turli tarixiy davr va sivilizatsiyalarda falsafiy g‘oya-larning rivojlanishini o‘rganuvchi falsafiy fan

2. Dunyoqarash nima?

- A) ilmiy bilimlar tizimi
- B) dunyo va inson haqidagi qarashlar, g‘oyalar tizimi
- C) hayotiy tajriba natijasi
- D) kundalik va ilmiy bilimlar majmuini

3. Dunyoqarashning tarixiy shakllari qanday?

- A) diniy, ilmiy, afsonaviy
- B) gnoseologik, akseologik, falsafiy
- C) afsonaviy, diniy, falsafiy
- D) afsonaviy diniy, ratsional

³Carroll Russell R. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 9.

4. Falsafiy tafakkurning birinchi tarixiy shakli

- A) naturfalsafa
- B) panteizm
- C) materializm
- D) idealizm

5. Falsafaning asosiy bahs mavzusi nima?

- A) tabiat va jamiyat muammosi
- B) inson hayoti muammosi
- C) «inson va dunyo» muammosi
- D) dunyoviy muammolar

6. Quyidagi keltirilgan iboralardan qaysi biri «falsafa» tushunchasiga mos keladi?

- A) donishmandlikni sevish
- B) donishmandlik to‘g‘risidagi ta’limot
- C) madaniyatning asosi
- D) nazariy dunyoqarashning shakli

7. Falsafa nima?

- A) falsafa – dunyoqarash
- B) falsafa – tabiat, jamiyat, inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan
- C) falsafa – fan
- D) falsafa – bilishning metodologiyasi.

8. Qaysi falsafiy oqim olamni bilish mumkinligini inkor etadi?

- A) agnostitsizm
- B) neotomizm
- C) materializm
- D) obyektiv idealizm

9. Qaysi fikr agnostitsizmga tegishli?

- A) bilish jarayoni cheksiz
- B) hech bir ilmiy nazariya to‘liq emas

- C) inson hech qachon tabiat sirlarini oxirigacha bila olmaydi
D) hech bir fan mutlaq haqiqatni aks ettira olmaydi

10. Materiyaning ongga munosabati masalasi qaysi doirada ko‘riladi?

- A) falsafaning asosiy masalasi
B) mantiq
C) dialektik bilish metodi
D) etika

11. «Filosofiya» atamasini birinchi bo‘lib kim qo‘llagan?

- A) Platon
B) Aristotel
C) Demokrit
D) Pifagor

12. Gnoseologiya nimani o‘rganadi?

- A) bilish haqidagi ta’limot
B) inson haqidagi ta’limot
C) jamiyat haqidagi ta’limot
D) borliq haqidagi ta’limot

13. Ontologiya nimani o‘rganadi?

- A) bilish haqidagi ta’limot
B) inson haqidagi ta’limot
C) borliq haqidagi ta’limot
D) jamiyat haqidagi ta’limot

14. «Odisseya», «Illiada», «Algomish» kabi xalq eposlari dunyoqarashning qaysi shakliga tegishli?

- A) falsafiy
B) diniy
C) badiiy
D) alsonaviy

15. Insonning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan, olam haqidagi eng umumiy tasavvurlar, g‘oyalari, qarashlar, baholar tizimi

- A) mafkura
- V) dunyoqarash
- S) fan
- D) dunyoni tushunish

16. Quyidagi fikrlarning to‘g‘risini aniqlang.

- A) materializm – falsafiy oqim bo‘lib, unga ko‘ra narsa va hodisalarning asosida moddiylik yotadi. Moddiylik- birlamchi.
- B) materializm – moddiyunchilarning harakat tamoyili bo‘lib, moddiy olamning cheksizligini e’tirof etadi
- C) materializm– moddiy qadriyatlarga asoslanadi
- D) materializm, bu– narsa va hodisalarga to‘g‘ri, ratsional yondoshish.

17. Quyidagi fikrlarning to‘g‘risini aniqlang.

- A) idealizm – materializmga muqobil yo‘nalish bo‘lib, ruhiyat olamining cheksizligini e’tirof etadi
- B) idealizm – ma’naviy qadriyatlarga asoslanadi
- C) idealizm, bu- narsa va hodisalarga to‘g‘ri, ratsional yondoshish.
- D) idealizm – falsafiy oqim bo‘lib, unga ko‘ra narsa va hodisalarning asosida g‘oyaviy, ruhiy asos, ideallik yotadi. Ruhiy asos – birlamchi, moddiylik esa – ikkilamchi.

18. Falsafaning boshqa fanlardan farqi ...

- A) olamning ayrim, muhim tomonlari haqida tasavvur beradi
- B) insoniyatning tarixiy tajribasiga tayanadi
- C) olam haqida yaxlit tasavvur va bilimlarni beradi
- D) to‘g‘ri tafakkur qonunlariga tayanadi.

19. Falsafiy bilishning asosiy yo‘nalishlari qanday?

- A) ontologiya, gnoseologiya, falsafiy ontropologiya, sotsiologiya, etika, estetika, logika

- B) ontologiya, etika, estetika, aksilogiya, germenevtika, dialektika
- C) ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, etika, estetika, logika
- D) ontologiya, gnoseologiya, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, etika, estetika, logika.

20. Monizm qanday ta'limot?

- A) dunyodagi rang-barang narsalar va hodisalar bir substansiyadan iborat
- B) «monizm» - yunonchada monos – bitta, yagona degani
- C) butun dunyoning rang-barangligi bir xil moddiy sababga bog'liq
- D) butun dunyoning rang-barangligi bitta ilohiy sababga bog'liq.

21. Dualizm qanday ta'limot?

- A) «dualizm» - lotinchada dualis – ikki yoqlama degani
- B) butun dunyoning rang-barangligi bir necha moddiy sababga bog'liq
- C) butun dunyoning rang-barangligi faqat ilohiy sababga bog'liq.
- D) dunyodagi rang-barang narsa va hodisalar ikkita –moddiy va rubiy substansiyadan iborat

22. Monizmning qanday turlari mavjud?

- A) obyektiv va subyektiv
- B) dialektik va metafizik
- C) materialistik va idealistik
- D) utsional va irratsional.

2-BO‘LIM

QADIMGI DAVR YUNON-RIM FALSAFASI

1-bob. ILK ANTIK DAVR FALSAFASI

1.1. Milet falsafiy maktabi

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda ilk antik davr yunon falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish. Ularga Milet maktabi namoyandalarining falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari haqida atroflicha va chuqur bilim berish. Talabalarda yunon falsafasini boshqa qadimiy falsafiy ta’limotlar bilan qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Asotiriy (mifologik) dunyoqarash, sodda dialektika, gilozoizm, Milet maktabi: Fales, Anaksimandr, Anaksimen, apeyron.

Asosiy savollar

1. Qadimgi Yunonistonda mifologiya va tabiatshunoslikning dastlabki elementlari.
2. Fales – Milet maktabining asoschisi.
3. Anaksimandr, Anaksimen ta’limotida dastlabki ibtido muammosi va sodda dialektika.

Dastavval diniy-falsafiy fikrlar, meloddan deyarli uch ming yil avval Misr va Bobilda o‘ziga xos yo‘nalishda, amaliy xarakterda, hukmron afsonaviy tasavvurlar an’analarga bog‘liq holda shakllana boshlagan. Ma’lumki, dastlabki olam haqidagi tasavvurlarning shakllanishida tabiyot ilmlari – astronomiya,

matematika, tibbiyotga oid bilimlar muhim rol o'ynadi va ular jomiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ehtiyojlariдан kelib chiqib rivojlandi.

Yangi davr ilm-fanida ahamiyatli bo'lgan ko'plab g'oya va konsepsiynlar ildizi Qadimgi Yunon-Rim ilm-faniga borib tajalndi. Insoniyatning madaniy hayotidagi antik va o'rta asr davrlarida ilm-fanga bo'lgan munosabatga e'tibor berilmagan, yuqoridaqgi ikki davrni mustaqil hodisa sifatida tadqiq etish ilmiy infokurimiz uchun muhim ahamiyatga ega⁴.

Qadimgi Misr va Bobilda olamning paydo bo'lishi va uning to'rilishi to'g'risida dastlabki sodda tasavvurlar yuzaga keldi. Hamma narsalarning asosida moddiy element suv yotganligi to'g'risidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin. Shuning bilan birga, qadimgi Misr va Bobilda shakllangan olam to'g'risidagi tasavvurlar, bilimlar kichik Osiyoga hamda qadimgi Yunonistonda falsafiy ta'limotlarning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Qadimgi yunon falsafasi ilohiy bilimlar, mifologiya, san'at bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi. U davrda mifologiya ta'lafanining g'oyaviy manbai, materiali vazifasini o'tagan. Faqat ilminiatik davrda, ya'ni miloddan avvalgi III asrda bir necha sohalar, matematika va tibbiyot fanlariga oid bilimlar alohida ajralib chiqsa boshladi. (1, 2-ilovalar).

Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O'rta dengiz qirg'oqlaridagi Milet va Efes shaharlari Sharq hamda G'arb xalqlari o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlarda muhim rol o'ynadi. Shuning uchun ham, ilk yunon falsafasi aynan Milet va Efes shaharlarida shakllana boshladi.


Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limot miloddan avvalgi VII va VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan. Bular ioniyalik Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Adabiyotlarda yozilishicha, **Milet maktabi** faylasuflarini ioniyalik faylasuflar nom deb atashgan. Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Ioniya tumani yuzaga kelgan barcha falsafiy ta'limotlarni ioniya hukmfaudi deb atashgan (3-ilova).

⁴ Cioran Copelston F. A History of Philosophy. - Vol.1. Greece and Rome. - N.Y., London, 2003. - P. 14.

Antik davr falsafasining vujudga kelishi

Davri	Vaqti	Mazmuni
Asotiriy (mifologik)	Miloddan avvalgi XVIII-IX asrlar	Olimpiyaliklarga va olimpiyaliklar davri afsonalari
Falsafadan oldingi davr	Miloddan avvalgi IX-VII asrlar	Gomer, Gessiod orfiklarning yetti afsonaviy donishmandlar haqidagi asarlari, aforizmlari (gnomlari)
Falsafa	Miloddan avvalgi VI asrdan boshlangan	Fales ta'limotining shakllanishi

Ilk antik davr falsafasining xronologik chegaralari



Milet maktabi

Ismi	Yashagan davri
Fales	Taxm. mil.avv. 625-547 yy.
Anaksimandr	Taxm. mil.avv. 610-546 yy.
Anaksimen	Taxm. mil. avv. 588-525 yy.
shogirdlari	Mil.avv. 496-yillar, Miletning forslar tomonidan ishg‘ol qilinishiga qadar.

Ioniya qadimgi yunon dunyosida ijtimoiy va madaniy jihatdan yetalchi o‘rinni egallab kelgan. Iqlimi yumshoq, yeri serunumligi tufayli qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan hamda dengiz bo‘yida, savdo yo‘li chorrahasida joylashganligi uchun ham hunarmandchilik va savdo-sotiqtan ancha rivojlangan edi. Ioniyaliklar Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqni yaxshi yo‘lga qo‘yanligi tufayli ilm-fan va madaniyat tez ravnaq topa boshlagan edi. Ioniyadan chiqqan faylasuflar ayni chog‘da savdogar, sayyoh, siyosiy arbob va har tomonlama barkamol tabiatshunos edilar. Ular tabiatdagi doimiy o‘zgarishlar ichidan o‘zgarmas umumiyligi ibtidoni izlab topishga intildilar. Fales olamning asosiga suvni, Anaksimandr (cheksiz gazsimon modda) «apeyron»ni, Anaksimen havoni qo‘yan.



Hayoti: Yunon falsafasining asoschisi **Fales** miloddan avvalgi 624-547-yillarda yashagan bo‘lib, u matematika, astronomiya, meteorologiya, fizika ilmlari taraqqiyotida ko‘p xizmat qildi.

Asosiy asarlari: «Birinchi boshlang‘ichlar haqida», «Quyoshning tutilishi haqida», «Teng harakat haqida», «Dengiz astrologiyasi».

Ta’limot: Qadimiy Yunonistonda «yetti dononing biri» hisoblanib shuhrat qozongan Fales Misrdagi bilim va tajribani

o'rganib, elementlar geometriyani assoslagan. Bobilliklarning astronomik tasavvurlariga asoslanib, Quyosh tutilishini hisoblash usulini ishlab chiqdi va tushuntirib bergen. Lekin u yerga boshqa samoviy jismlarga nisbatan eng yaqin – yulduzlar, eng uzoq – Quyosh joylashgan degan xato tasavvurga ega bo'lgan.

U borliqning negizini suv tashkil etadi, deb hisoblagan. Chunki u suvning o'simliklar, hayvonot va insoniyat hayotida hal etuvchi ahamiyatini yaxshi tushungan. Fales dengizning kema, savdo-sotiqlari, daryo, masalan, Nilning, dehqonchilikdagi muhim ahamiyatini kuzatar, mushohada etar ekan, ayniqsa, yomg'irning hayotbaxsh xislati uni hayratga solgan. Shuning uchun u hamma narsa suvdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana suvga qaytadi degan g'oyani ilgari surgan.

Fales fikricha, suv – aqli va "ilohiydir". Dunyoda ruhlar, xudolar ko'p. Hamma mavjud narsalar ruhga ega. Uning gilo-zoizmi shundan iborat bo'lgan. Aynan xudo va ruhlar harakatning manbai hisoblanadi, chunki ular dunyoni harakatga keltiradilar, masalan, magnit ruhga ega, chunki u temirni o'ziga tortadi. Yer – suvda suzib yuradi, Quyosh va boshqa samoviy jismlar suvning parlanishidan ozuqa oladilar. Fales dunyoqarashiga o'sha davrda mavjud afsonalar ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Fales qarashlariga qadimgi teologiyadagi, suv shoirlar nazdida xudolar qasam ichgan predmetdir, degan fikr ta'sir etganini taxmin qiladi. Qanday bo'lishidan qat'i nazar, bug'lanish hodisasi suvning tumanga yoki havoga, muzlash hodisasi oxiriga yetkazilsa – suvning tuproqqa aylanishini yaqqol namoyish qiladi. Umuman olganda, Falesning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib barcha narsalarning asosi masalasini ko'ndalang qo'ydi, uni qanday hal etishi boshqa masala⁵.

Hayoti: Qadimgi yunon faylasufi *Anaksimandr* miloddan avvalgi 610-546-yillarda yashagan.

Asosiy asarlari: «Tabiat haqida», «Yer xaritasi», «Globus».

⁵ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.22



Ta'simoti: Anaksimandr ko'p dunyolar bor deb taxmin qilib, hayvonlarni quyosh ta'sirida namlikdan kelib chiqqan deb tushuntirishga uringan. Dastlabki hayvonlar avvalo suvda yashagan, so'ngra quruqlikka chiqib, hayot tarzini o'zgartirgan, deb faraz qilgan. U inson baliqdan paydo bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan.


Anaksimandr quyosh soatini ixtiro qilib, *gnomon* nomli astronomik asbob yasagan, osmon sferasi doirasi modelini tuzgan hamda birinchi bo'lib Yurmonistonning geografik xaritasini chizgan. Chuqur fikr egasi Anaksimandr hamma narsalarning boshlanishi «apeyron», ya'ni umumiy gazsimon modda, deb hisoblagan. U Fales, Anaksimen kabi muayyan moddani emas, balki umumiy «apeyron»ni barcha ahyolarning o'zagi deb hisoblagan. Anaksimandrnning ushbu fikri falsafiy tafakkur rivojida muhim qadam edi.

Anaksimandrnning apeyroni abadiy, doimo yosh, umumiy, cheksiz ibtidodir. Apeyronдан ikki bir-biriga zid juftliklar ajralib chiqadi: issiq va sovuq, namlik va quruqlik; ularning turli me'yoriy qo'shilishidan to'rt asosiy stixiyalar tug'iladi: Havo, Tuproq, Suv va Olov, bulardan butun dunyo tashkil topadi (4-ilova).


Dunyoviy borliq o'zidan dunyolarni paydo qilgan. U abadiy o'zgarishda bo'ladi va keyinchalik ularni o'z qa'riga tortadi, behisob dunyolarning yaratilishi va yemirilishi tarixi bilan tug'ilgan.

U shuningdek, yulduzlar, Quyosh va Oy halqalarining harakati orqali osmon va jismlarining bir kecha-kunduzlik harakati to'g'risidagi ta'simotni ilgari surgan. Yer dastlab suv bilan qoplangan bo'lib, osmon olovi ta'sirida suvning bir qismi bug'lanib, quruqlik paydo bo'lgan. Bu bug'lanishlar shamolning esishini belitrib chiqargan. Shamol Quyosh va Oy halqalarining aylanishi sababchisi bo'lgan. Xudolar olamning paydo bo'lishi, uning rivojlanishida ishtirok etishmagan. Fales kabi u ham jon moddiy degan, chunki joning harakati havoga o'xshashdir (5-ilova).

Anaksimandr kosmogoniyası



Anaksimandr kosmologiyası



Hayoti: Falesning do'sti, ioniyalik mutafakkirlardan biri **Anaksimenes** milodgacha 588-525-yillarda yashab ijod etgan.

Asosiy asari: «Tabiat haqida» – bizgacha yetib kelmagan.



Ta'limoti: Olamning, borliqning asosi havo deb hisoblagan. Dunyo cheksiz ko‘p, unda tug‘ilish va yo‘q bo‘lish doimiydir. Hamma vaqt nimadir tug‘iladi va nimadir yo‘q bo‘lib turadi, bu azaliy aylanishdir. Tabiat hodisalaridagi bunday o‘zgarish abadiydir. Uningcha, havoning quyuqlashuvi va suyuqlashuvi tabiiy hodisalarning asosidir: suyuqlashuv – tebranish *havoni* olovga, quyuqlashuv esa shamolga, bulutga, keyin suvga, yerga, oqibatda toshga aylanitiradi.

Borliq to‘g‘risida Anaksimandr ilgari surgan ta’limotni uning zamonodoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen fikricha ham, moddiy olam va undagi jism havoning quyuqlashishidan suv, yer, toshlar va h.k.dan tashkil topsa, siyraklasishidan esa olov paydo bo‘ladi. Yer yassi, u Quyosh va boshqa ayyoralar singari havoda suzadi. Harakatsiz yerdan farqli o‘laroq, ular koinot yordamida harakatga keladi. Fales singari Anaksimen osmon jismlari «yerning tabiatiga o‘xhash»dir, deydi. Osmon yoritgichlari deydi u, yerdan quyidagi tartibda joylashgan: yerdan namlik ko‘tariladi, ko‘tarilgan namlik siyraklashib olovga aylanadi. Yuqoriga ko‘tarilgan olovdan osmon yoritgichlari paydo bo‘ladi. Boshqa hamma narsalar ana shu moddiy unsurlardan paydo bo‘lgan.


F.Koplston fikricha, bu g‘oyaga turtki bergan hodisa nafas olish bo‘lsa kerak, chunki inson nafas olib tursagina hayot bo‘ladi, shundan kelib chiqib havo-hayotning zaruriy elementi degan xulosa chiqarish oson. Anaksimen inson bilan yaxlit tabiat orasida parallel o‘tkazadi: jonimiz havodan iborat bo‘lib bizni boshqargani kabi, nafas olish va havo butun dunyonи o‘rab olgan. Havo, shinday qilib, "Urstoff" (birlamchi element) bo‘lib, "ilgari mavjud bo‘lgan, hozirda va kelajakda mavjud bo‘ladigan narsalar, barcha xudolar va ilohiy elementlar paydo bo‘lgan, boshqa narsalar ulardan vujudga kelgan”.

U Anaksimandr singari harakatning abadiyligi haqida gapiradi. Harakat tufayli jismlar o'zgarib turadi. Anaksimen materiyaning yetti shakli haqida fikr yuritadi. Bular efir, olov, havo, shamol, bulut, suv, tuproq va toshlardir. Havoning siyraklashishi issiqlikni keltirib chiqarsa, quyuqlashishi esa sovuqlikni keltirib chiqaradi. Havoning quyuqlashishi va siyraklashishi to'g'risidagi ta'limot havoning moddiyilagini yana bir karra isbotlaydi. U jon haqida fikr yuritib, «Jon – bu havo. Jon, ya'ni havo tanamizni bamisol cheksiz havo bilan butun koinotni o'rab, saqlagani kabi saqlab turadi», – degan.

Anaksimen dastlabki element sanalmish havoning cheksizligi va olamning son-sanoqsizligi to'g'risidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Anaksimennenning kosmogonik ta'limoti o'ziga xosdir. Uning fikricha, son-sanoqsiz olamlar vaqt-i-vaqti bilan almashinib turadi, ya'ni olamlar paydo bo'ladi, so'ngra yemiriladi, keyin yana paydo bo'ladi, yana yemiriladi va h.k (6-ilova).

6-ilova

Anaksimen komogoniyasi



Anaksimen bиринчи bo'lib harakatsiz yulduzlar bilan sayyoralar o'rtasida farq borligi to'g'risida gapiradi. Osmoн jismlarining joylashish tartibi to'g'risida Fales va Anaksimandrga nisbatan to'g'riroq fikrni ilgari surib, Yerga nisbatan yaqinroq Oy, Quyosh, keyin yulduzlar joylashgan deydi. U Quyoshning tutilishi to'g'ri-

shuningdek, Oy, Quyosh bilan Yer o'rtasiga tushib qolganda Quyosh tutiladi, deb hisoblagan.

Anaksimen shuningdek, davrimiz ta'limotiga yaqin turgan ob-havo hodisalari to'g'risidagi fikrlarni ham ilgari surgan. U shuningdek, qor va do'l yog'ish to'g'risida ham fikr yuritgan. Buttadan paydo bo'lgan yomg'irsovugach, do'lga aylanadi. Havo-ning suv bilan aralashishidan qor paydo bo'ladi. Momaqaldiroq shamilning bulutlarni yorib o'tishi orqali sodir bo'ladi, deydi. Rang-barang yoymalar (kamalak) esa Quyosh ba'zan Oy nurlarining ich bulutga tushishidan paydo bo'ladi.

U stixiyali moddiyunchi, sodda dialektik faylasuf sifatida narsalarning sababchisi cheksiz havo, deb ta'kidlaydi. Lekin shu bilan birga, Anaksimen xudolarni mutlaqo inkor etmaydi. Xudolarning o'zlarini ham havodan tuzilgan, deydi. Anaksimen boshqa antik faylasuflar singari materiyaning ilohiyashgani to'g'risida fikr yuritgan. Anaksimen xudolarning tabiat bilan bir narsa de-yishi *panteizmdan* iboratdir. Bu haqida Sitseron shunday yozgan: «Xudo havo ekan, u paydo bo'ladi. Anaksimenneing havosi, Anaksimandrnning apeyroni singari ilohiyashgan, u o'lmas va yo'q bo'lmasdir». Shunday qilib, Milet maktabining namoyandalari borliq, harakatning mohiyati, yakkalik va umumiylilik o'rtasidagi aloqlar to'g'risidagi masalalarni ilgari surishga harakat qildilar. Lekin bu barcha masalalar **sodda dialektika** darajasida qo'yilgan va hal etilgan.

Shunday qilib, ioniyalik mutafakkirlar rang-barang dunyo hodisalarining birligini yo suvda, yo apeyronda, yo havoda deb tushuntirishga intilganlar. Ular tomonidan tanlangan ibtidolar moddiy asosga ega bo'lib, ruhlangan edi. Ayni vaqtida Fales ham, Anaksimandr ham, Anaksimen ham o'z davrida mashhur tabi-hunos bo'lganlar. Lekin falsafiy va tabiiy-ilmiy bilimlar bir butun ta'limot bo'lib, hali alohida ajralmagan holda mavjud edi. Garchand miletlik faylasuflar harakatning mohiyati to'g'risidagi masalani qo'ygan bo'lsalar-da, Aristotel aytganidek, harakatning manbaini ko'rsata olmaganlar.

Shunday qilib, Yunon shahar – davlatlari qadimdan savdo va sanoat markazi bo'lib kelgan. Ular tufayli madaniy taraqqiyotga

yo‘l ochilgan. Qishloq xo‘jaligi rivoji, hunarmandchilik, savdo munosabatlarining yaxshilanib borishi, tabiatni bilishga, fan taraqqiyotiga ehtiyojni kuchaytirdi. Buning oqibatida Yunonistonda fizika, matematika, adabiyot, falsafa fanlari vujudga keldi va taraqqiy etdi. Qadimgi yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy g‘oya va ta’limotlar shashubhasiz mamlakatdagi ijtimoiy kuchlar manfaatlari va qarashlarini ifoda etgan. Lekin shunga qaramay, ular ilgari surgan ilg‘or g‘oyalari bilan o‘zidan keyingi falsafiy ta’limotlar rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdilar.

1.2. Geraklit falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda Geraklitning ontologik, gnoseologik va ijtimoiy-axloqiy ta’limotiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish. Ularda Geraklit falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish, mavzuga oid falsafiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari


Logos, sodda dialektika, nisbiylik, borliqning oquvchanligi, garmoniya, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi.

Asosiy savollar

1. «Olov» - koinotning substansional ibtidosi sifatida.
2. Geraklitning sodda dialektikasi.
3. Geraklitning bilish nazariyasi.
4. Geraklitning ijtimoiy-axloqiy qarashlari.

Qadimgi yunon falsafasida juda ko‘plab maktablar, yo‘nalishlar mavjud bo‘lganligini hisobga olib, ularni o‘rganishda muayyan aniqlik bo‘lishi uchun quyidagi mantiqiy sxemadan foydalanish tavsiya etiladi (1-ilova).

Suqrotgacha bo‘lgan falsafa



Hayoti: Ioniyaliklarning dunyoqarashini davom ettirgan efeslik **Geraklit** (milodgacha 530–470-yillarda yashagan) – mashhur yunon faylasufi. Uning oilasi yirik aristokratlar tabaqasiga mansub bo‘lgan. Geraklit katta mavqe va mansablarga ega bo‘lish imkoniyatlaridan voz kechib o‘z hayotini ilmgaga bag‘ishlagan va olim sifatida jahonga tanilgan.


Ayosiy asarlari: Geraklit asarlaridan bizgacha faqat «Tabiat haqidagi» nomli kitobining 145 parchasi yetib kelgan.

Ta’limoti: Geraklit o‘z ta’limotida sodda dialektikaga asos solgan. Uning fikricha, hamma tabiiy hodisalarning negizi olov, barcha narsa olovdan paydo bo‘lgan, so‘ngra yana olovga qaytadi: «Hamma narsadan bir butun bo‘lgan olamni xudolardan ham hech kim va odamlardan ham hech kim yaratmagan. Balki qonuniyatli tarzda alungalanadigan va qonuniyatli tarzda o‘chadigan abadiy barhayot olov bo‘lib kelgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo‘ladi».

Geraklit olovning yerga, suvgaga, havoga aylanishini va aksini ta'riflab, dunyoni doimiy harakatda, o'zgarish jarayonida ko'radi (2-ilova).

2-ilova

Geraklit kosmogoniyasi



Geraklitning olami abadiy emas. «Pastga harakat» vaqtiga vaqtiga bilan «Yuqoriga harakat» bilan almashinadi. Olovning quyuqlashishidan barcha narsalar paydo bo'lsa, siyraklashuvni natijasida ular yana olovga aylanadi.

Geraklit to'xtovsiz o'zgarishlarning asosiy sababini tabiatdagi qarama-qarshiliklardan deb biladi. Narsalar doimo o'zaro bir-biriga o'tib, o'zgarib turadi. «*Sovuq issiqqa, issiq sovuqqa, ho'l quruqqa, quruq ho'lga aylanadi*». Uning fikricha, «*hamma narsa harakatda o'zgarishdadir. Bir daryo suvida ikki marta cho'milish mumkin emas, Chunki daryoda tinimsiz yangi-yangi suvlar oqib turadi*». «*Dengiz suvi ham toza, ham toza emas. U baliqlarga davo, hayotbaxsh bo'lsa, insonlarga ichish uchun yaramaydi va zararlidir*». «*Eng kelishgan maymun inson zotiga nisbatan xunukdir*». Masalan, tabiat insonni qarama-qarshi jinslardan, erkak ham ayollardan tuzgan, demak, qarama-qarshiliklarning kurashidan yaratgan, bir xil jinslardan emas. San'at asarlari ham xuddi tabiatga o'xshash qarama-qarshiliklardan, turli ohanglardan, bo'yoqlardan tashkil topadi. Rassomilar qora, qizil, sariq, oq bo'yoqlarning tabiiy aralashmasidan foydalanishadi. Musiqada yuqori, quyi, turli ovozlardan ohang, kuy, ashula hosil bo'ladi.

Geraklitning yuqoridagi fikrlari stixiyali, sodda dialektikaning chiqur ifodasidir. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, harakat, o‘zgarish haqidagi g‘oyalarida olamdagи barcha narsa va hodisalurga nisbiylik nuqtayi nazaridan qarash zarurligini aniq ifoda etadi.

Geraklitning ko‘p gaplari lo‘nda va zaharxandalidir, ba’zan – erfahmlidir. Masalan, uning Xudoga munosabati, din tilidan foydalanishiga qaramay, panteistik bo‘lgan. mulohazalari noaniq, tushunarsiz, – shu sababli u Qorong‘i (nodon) degan laqab olgan. Altidan, buni u ataylab qilgan; uning asarlarida mana bunday mulohazalarni uchratamiz: “Tabiat yashirinishni yaxshi ko‘radi”, “Orakuli Delfada turgan Xudo hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaydi, lekin uni yashirib o‘tirmaydi ham, buni u belglar bilan qiladi”. O‘zining insonlarga yo‘llagan maktubida aytadi: “Odamlar uni ilk bor eshitganda, xuddi uni umuman eshitmaganday, tushunmaydilar”⁷.

Geraklit dialektikasi to‘xtovsiz o‘zgarishlardan iborat. Harakat moddiy olam doirasida asosan dastlabki unsurlar olov, havo, suv va tuproqning aylana harakatidan iborat. Shunday qilib, Geraklit olamda turg‘unlik va harakatsizlikni inkor etadi. Chunki turg‘unlik va osoyishtalik o‘limning xususiyatidir, deydi. U hamma narsa harakatda deb biladi.

Harakat hayot jarayonining eng umumiy xarakteristikasini tushkil etadi. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga taalluqlidir. Harakatning umumiyligi to‘g‘risidagi tezisi abadiy harakatdagi jismlarga ham tegishlidir. Abadiy harakat bu abadiy o‘zgarishdir. Aristotelning guvohlik berishicha, Geraklit shunday degan: «*Quyosh nafaqat har kuni yangi, balki Quyosh to‘xtovsiz yungilarih turadi*». Hamma narsa doimo o‘zgarib turadi. Vujudga kelish faqat qarama-qarshilikning birligi bilan bo‘lishi mumkin. Geraklitning tushunishicha, *vujudga kelish har bir narsaning bir holatdan ikkinchi holatga to‘xtovsiz o‘tib turishi orqalidir*.

Shunday qilib, Geraklit fikricha, hayot va o‘lim, kun va tun, yozishlik va yomonlik – bu qarama-qarshiliklar doimo birgadir. Geraklit yerning atmosferada bug‘lanishi va uni suv sifatida yerga

⁷ Yangi Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 p 25

qaytishini va hatto borliq yoki yo‘qlik, umumiylilikning birligi hamda o‘ziga xosligini narsalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar birligining misoli tariqasida keltiradi. Qarama-qarshiliklar, Geraklit fikricha, doimo o‘zaro kurashadi.

Geraklit ta’limotiga ko‘ra, tabiatdagi narsa va hodisalarning turli-tuman bo‘lishining sababi, olovning abadiy harakatidan va o‘zgarishlaridandir. Olov shuningdek, inson ongi paydo bo‘lishining sababidir.

Geraklit ta’kidlaydiki, barcha narsalarning harakatda va to‘x-tovsiz o‘zgarishda bo‘lishi ularning mavjudligiga ziddir, chunki harakatdagi har bir narsa mavjud va ayni vaqtning o‘zida mavjud emas. Geraklitning bu ta’limotiga Aristotel e’tiroz bildirib shunday deydi: «Bir narsa bir vaqtning o‘zida ham mavjud bo‘lishi va bo‘lmasligi mumkin emas».

Geraklit fikricha, qarama-qarshilik hamma narsada mavjud, qarama-qarshiliklar bирgalikda mavjud bo‘ladi va ular o‘rtasida doimiy kurash davom etadi. Bu o‘z navbatida harakatning sababidir. Ular o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik esa nisbiydir.

Bu qonun **Logos** qonunidir. Geraklitning logosi obyektiv olamning qonunidir. U tartib va o‘lchov tamoyilidir. Logos olovning boshqa ko‘rinishidir. Uning fikricha, kishilar ruhiyati va ongi ularning tanasiga bog‘liq. Inson ongi olovning o‘zgaruvchan holatidir yoki olovning bir ko‘rinishidir. Geraklit ongning o‘ziga xos xususiyatini tushunmay, ongni materiya bilan bir narsa, deb tushungan.

Hissiyotimiz uchun olov modda bo‘lsa, aql uchun olov logos, ya’ni aqlli so‘zdir. Olovning logos ko‘rinishi aqlli va ilohiydir. Barcha kishilar uchun umumiy bo‘lgan bu qonun ilohiydir, deydi u. Geraklitning «insonlar qonuni» yagona qonun Logosdan ozuqa oladi. U ilohiy, o‘z xohishiga ko‘ra hukmronlik qiladi va o‘ziga bo‘ysundiradi. Kishilar u bilan doimo munosabatda bo‘lishlariga qaramay, ularning ko‘pchiligi bir-birlaridan logoslari (aqllari) bilan farq qilishadi.

Bu bilan Geraklit hissiy bilishni nomukammal bilim deb, aqliy bilimni esa hissiy bilimdan ustun qo‘yadi. Lekin Geraklit hissiy bilimni mutlaqo inkor etmaydi, balki joni dag‘al bo‘lgan, ya’ni

olov elementi kam bo‘lgan kishilarning tashqi hissiyotlari haqiqiy bilim bera olmaydi, deb uqtiradi.

Bundan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: «...*sabab tashqi hissiyotda bo‘lmay, balki bu hissiyotlarni qabul qilayotgan kishilarga bog‘liq*». Hissiyot – Geraklit fikricha, jismlarning tabiat haqida to‘liq va uzil-kesil bilim bera olmaydi. To‘liq bilimni faqat tafakkur bera oladi, deydi u. Geraklit 112-fragmentda tafakkur buyuk ustunlik va donishmandlikning mazmuni, haq gapirishi va tabiat ovoziga qulog solishi, unga muvofiq munosabatda bo‘lishi lozim, – deb yozgan.

123-fragmentida «Tabiat yashirinishni sevadi», degan g‘oyani ilgari surar ekan, tabiat ilmining naqadar murakkab ekanligini, tabiat sirlarini ochish uchun yuzaki bilimlar bilan kifoya-lanmasdan ko‘p mehnat qilish kerakligiga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, faylasuflar ko‘p bilimlarga ega bo‘lishi kerakligini ham alohida ta’kidlaydi.

Uning fikricha, oqillik, haqiqatan yiroq bo‘lgan barcha qarashlarni rad etishdir. Ko‘pchilikning haqiqiy bilimga ega emasligi olamni boshqaruvchi “logos”ni bilmasligidandir, deb hisoblaydi u. Garchand, barcha kishilarda haqiqatni bilish qobiliyati bor, imkoniyatda aql ato etilgan bo‘lsa ham. O‘zining bu fikrini 116-fragmentda quyidagicha ifodalaydi: «*Barcha kishilarga o‘zini bilish va fikrlash huquqi berilgan*». Geraklitning fikricha, «*Tabiatan quruq ong eng oqil va eng oliydir va aksincha, mast kishining joni ho ‘ldir*».

Kishilar tabiatan tengdirlar. Lekin ular real imkoniyatdan soydalanishda teng emas. Ko‘plari logos bo‘yicha yashash o‘rniga, o‘z fikrlariga tayanib yashaydilar. Bunday kishilarning hayoti bolalarning o‘yiniga o‘xshaydi. Ular o‘z xohishlarining qulidirlar. Baxt tananing farog‘atidan emas, balki to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash va tabiatga muvofiq harakat qilishdan iborat.

U zodagonlar oilasida dunyoga kelganligi uchun siyosiy qarashlari ham zodagonlarga xos edi. Uning siyosiy qarashlari «*Tabiat haqida*» asaridan keltirilgan ayrim parchalarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, 104-parchasida u o‘z qavmidan chiq-qan demokratik rahbarlar haqida shunday yozadi: «*Ularning aqli*

yoki fikrlashi qanday bilmadim? Ularda yaxshilikdan ko'ra yomonliklar ko'pligini bilmaydilar». Geraklit siyosiy qarashlarida hokimiyatning ozchilikni tashkil etgan «yaxshilar»ning qo'lida bo'lmog'i lozim, deb hisoblagan. U quldor aristokrat tabaqa manfaatlarini ifodalagan bo'lishiga qaramay, uning falsafiy ta'limoti jamiyatning ilg'or rivojlanishi yo'lida xizmat qilgan.

Shunday qilib, Geraklit Suqrotgacha bo'lgan antik falsafaning yirik namoyandasasi sifatida stixiyali sodda dialektikaga asos solar ekan, bu bilan jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi.

1.3. Pifagor va pifagorchilar ittifoqi

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda Pifagor falsafasi va uning maktabi haqida atroflicha chuqur tushuncha hamda tasavvurlar hosil qilish. Ularda Pifagorning ontologik, gnoseologik va kosmologik ta'limotini chuqur falsafiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Mavhum sonlar, akustika, miqdoriy mutanosiblik, matematika, abadiylik va o'zgaruvchanlik, pifagorchilar ittifoqi.

Asosiy savollar

1. Pifagorning borliq haqidagi qarashlari.
2. Pifagorning bilish nazariyasi.
3. Pifagorchilarning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari.

Pifagorchilar falsafasi miloddan avvalgi V-IV asrlarda quldor-aristokratlar va quldor-demokratlar o'rtasidagi siyosiy kurash keskinlashgan vaqtida shakllangan.



Hayoti: Uning asoschisi *Pifagor* miloddan avvalgi 571–497-yillarda yashab ijod etgan. Pifagor Samos orolida yashab, so‘ngra Italiyaning Kroton shahriga kelgan, hokim aristokratlar bilan birga quldor-demokratlarga qarshi kurashgan hamda ushbu siyosiy vaziyatda uning dunyoqarashi shakllangan. Pifagor hamda uning shogirdlari, tarafdorlari o‘z falsafiy ta’limotlari vositasida demokratiyaga asoslangan hokimiyat jamiyatdagi «tartib»ning buzilishiga olib keladi, deb isbotlashga intilganlar. Pifagor zolim shoh Polikrat bilan chiqisha olmay, Falesning maslahati bilan ilm olgani Misrga jo‘naydi. U yerda 22 yil Misr kohinlaridan ta’lim-turbiya oladi. Miloddan avvalgi 525-yilda Misr forslar tomonidan zabt qilingach, forslar ko‘pgina misrliklarni asir olib, Sharqqa qarab yo‘l oladilar. Ularning orasida Pifagor ham bo‘lgan. U Bobilga kelib, 12 yil davomida u yerdagi kohinlardan ta’lim oladi. Apuleyning ta’kidlashicha, Pifagor hind donishmandlaridan ham ta’lim olgan. Pifagor 34-yil muhojirlikda, Misr, Bobil va hatto Hindistonda ham yashagan. Yunonistonning Kraton shahriga kelib joylashib, o‘zining *pifagorchilar ittifoqini* tuzgan.

Asarlari: Diogen Laertskiy fikricha, Pifagor uchta asar yaratgan. Bular: «Tarbiya haqida», «Jamoa ishlari haqida» hamda «Tabiat haqida». Boshqa tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, Pifagor o‘z ta’limotini og‘zaki targ‘ib qilgan. Uning ta’limotini yozma ravishda targ‘ib qilgan izdoshi Filoley bo‘lgan. U miloddan avvalgi V asrda yashab, ijod etgan.

Ta’limoti: Pifagor ta’limotiga ko‘ra, olamning asosini «Son» tashkil etadi. Bir – umumiy, boshlang‘ich, muqaddas son, u barcha narsa va hodisalarning asosidir. Bir raqami, Xudoni, alohida nuqtalarni ifoda etadi. Ikki – o‘zaro qarama-qarshi tomonlarni, masalan, toq va juft, char va o‘ng, issiq va sovuq, nam hamda quruq va h.k.ni ifodlaydi. Tabiat – bu uchlikdir, ya’ni bir asos va ikki – qarama-qarshi tomonlarining birligidan tashkil topadi. To‘rt tabiatdagи to‘rt element – suv, havo, olov, yerning

aksidir. O'n – muqaddas son bo'lib, birdan o'ngacha sonlarning ilohiy xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.⁸

Xullas, pifagorchilar tabiat hodisalarining asosini materiya emas, son deb tushunib, uni ilohiylashtirganlar. Pifagor ilk bor tabiiy hodisalarga miqdoriy yondoshishi masalasini ko'targan, olamni bilishda mavhum narsalar haqida tafakkur qilish g'oyasini ilgari surgan. Xususan, handasa-geometriyaga jiddiy ahamiyat berib, Pifagor nuqtani – birga, chiziqni – ikkiga, yuzani – uchga, jismni – to'rtga qiyoslab, uchburchakning uch burchagi yig'indisi haqidagi teoremasini ($a+v+s=2d$) ishlab chiqqan.⁹ Shu bilan birga matematikaga oid bilimlarning rivojida Pifagorning sharq mutafakkirlaridan olgan gipotenuza kvadrati katetlar kvadratinining yig'indisiga teng, degan teoremasi muhim rol o'ynadi. Uning ta'limotiga ko'ra, olam uzluklidir: jismarning ustki qatlamlari yoppasiga chiziqlardan tashkil topgan bo'lib, chiziqlar cheksiz nuqtalari majmuidan iborat.

Pifagor va uning izdoshlari olamni bilish - olamni boshqarib turgan raqamlarni bilishdan iborat, deb hisoblaganlar (1-ilova).

1-ilova

Pifagorning borliq haqidagi ta'limoti

Matematika Muayyan bilim Reallik(mavjud narsa) Abadiylik

His-tuyg'ular Noaniq bilim Noreallik O'zgaruvchanlik

Demak, matematika aniq, haqiqiy mavjud, abadiy bilimlarni bersa, inson his-tuyg'ulariga asoslangan bilimlar noaniq, o'zgaruvchandir. Shu ma'noda Pifagorning borliq haqidagi ta'limoti uning bilish haqidagi ta'limoti bilan uzviy bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pifagorchilar Geraklit dialektikasiga nisbatan metafizik maqomda turganlar. Pifagor ta'limotiga ko'ra, chekli va cheksiz, toq va juft, birlik va ko'plik, o'ng va char, erkak va ayol, turg'unlik va harakat, to'g'ri va egri,

⁸ Qarang : Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 49.

⁹ O'sha joyda.

Yerup'lik va zulmat, yaxshi va yomon kabi qarama-qarshiliklar biri ikkinchisiga o'tmaydi, balki ular birgalikda, yonma-yon mavjud bo'lishadi. Lekin shu bilan birga, Pifagorchilarda stixiyali didaktika elementlari ham mavjud. Masalan, juft raqamiga bir nejumi qo'shilsa, toq raqam hosil bo'ladi.

Pifagorchilarning falsafasi ma'lum darajada ilmiy ahamiyatga ega. Ular birinchi bo'lib, Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarни miqdoriy jihatdan o'rganish g'oyasini ilgari surdilar-u, lekin miqdor bilan sifat o'rtasidagi bog'liqlikni inkor etdilar. Miqdor sifatsiz mavjud bo'lmasligini tushunib etmadilar. Pifagorchilarning fikricha, Yer olovsimon markaz atrofida aylanib, alohida balandlikka ega bo'lgan monoton tovush chiqaradi. Masalan, Oyning tovushi baland va o'tkir. Saturnning tuvushi eng past. Bu tovushlar birgalikda hamohang kuyni yaratadi. Buni, go'yo faqat nihoyatda nozik tinglash qobiliyatiga ega bo'lgan Pifagorgina eshitishi mumkin bo'lgan ekan.¹⁰

Pifagor diniy ta'limotining asosida jon yotadi. Uning ta'limotiga ko'ra, jon abadiy va bir tanadan ikkinchi tanaga ko'chib yuradi. Jon o'z tanasini tark etar ekan, inson hayotiyligi chog'ida qanday xattiharakat qilganiga qarab taqdirlanadi yoki jazolanadi. Pifagor va pifagorchilarning ta'limoti keyinchalik Eley maktabi namoyandalari tomonidan davom ettirildi va rivojlantirildi (2-ilova).

2-ilova

Pifagorchilar ittifoqining rivojlanish davrlari

Davri	Vaqti	Asosiy vakillari
Ilk davr	Mil.avv. VI-IV asrlar	Gippas, Alkmeon
O'rta (ellin) davr	Mil.avv. IV-I asrlar	Filolay
So'nggi (neopifagorchilik) davr	Milodiy I-III asrlar	Numeniy

¹⁰ Qurang : Russell B.AThe History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 50.

Pifagorchilarning musiqa, arxitektura, tasviriy san'at nazar-riyasi yaratishda ham tarixiy xizmatlari katta bo'lgan. Ular musiqa ohangida, tasviriy san'atda, haykaltaroshlikda, binolar qurilishida, umuman tabiatda go'zallikning asosini miqdoriy mutanosiblik tashkil etishi haqidagi g'oyalarni ilgari surganlar.


Shunday qilib, pifagorchilar olamning substansial asosi haqidagi ta'lilotlarida tabiatning *moddiy elementlardan emas*, balki muayyan tuzilmalar, shakllardan, umuman, *miqdoriy nisbatlardan tashkil topgan*, deb hisoblaganlar.

Pifagorchilar tabiat sirlarini matematika yordamida “ochib berilishi” mumkin, deb faraz qilishgan. Xususan:

1. Mutanosiblik to'g'risidagi ta'lilot matematika bilan musiqa o'rtaqidagi nomoddiy aloqani ochib beradi.
2. To'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari o'rtaqidagi nisbatni belgilaydigan $s^2=a^2+b^2$ shakliga ega bo'lgan Pifagor teoremasi nafaqat matematikada, shu bilan birga moddiy narsalarga ham qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi (3-ilova).
3. Osmon jismlarining doiraviy harakatlari bu jismlarning ham matematika qonuniyatlariga bo'y sunishini namoyish etadi.

3-ilova

Pifagor teoremasi: $s^2=a^2+b^2$



Pifagorchilar matematik tuzilmalar va nisbatlar hamma narsaning negizida yotadi, ya'ni *substansiya* bo'ladi, deb hisoblashgan.

Ular matematikani shu tarzda tushunishni asoslash uchun quyidagi dalillarni ilgari surishgan. Masalan, matematik



tushunchalar o‘zgarmas bo‘lgani holda, narsalar yo‘q bo‘lib ketaveradi. Binobarin, o‘z mohiyatiga ko‘ra matematika o‘zgarmas, aniq belgilangan bilimdir. Bundan tashqari, matematikaning muayyan aniq bilim ekanligiga matematik teoremlarning mantiqan isbotla-nishi dalildir. Umuman olganda, pifagorchilar matematika olamning barcha jumboqlariga kalit topishi mumkin, deb turaz qilishgan. Shu sababli, matematika ular uchun mistik tus kash etgan.

Pifagorchilar o‘zlarining tartibot haqidagi ta’limotlarini jamiyatga ham tatbiq etishgan. Ularning ta’kidlashicha, yunon aristokratik hokimiyati eng yaxshi tartibotdir. Yunon demokratiyasi esa, yaxshi tartibotning buzilishidir. Shunday qilib, ular jamiyatda yunon aristokratik hokimiyatining tarafdori bo‘lib kelishgan.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlarida pifagorchilar jamiyatning aniq tarbibili tuzilma asosida shakllantirish tarafidori bo‘lishgan. Yuksak intellektual va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan bilimdon kishilar alohida hurmat-ehtiromga va imtiyozlarga sazovor bo‘lishlari hamda jamiyatni boshqarishi kerak. Pifagorchilarning axloqiy ta’limotlari ham me’yor tushunchasiga asoslanadi. Binobarin, fazilat deganda, ular ehtiroslarning jilovlanishini tushunganlar. Ehtiroslarning me’yoridan oshishi esa, o‘z navbatida axloqsizlikni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, Pifagor va pifagorchilar ta’limotlarida muayyan mistitsizm g‘oyalari mavjud bo‘lishiga qaramay, matematika, geometriya, miqdoriy mutanosib munosabatlar, musiqa sohalarida ilmiy xizmatlari katta bo‘lgan.

1.4. Eley falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda Eley falsafasiga oid atroflicha va chuqur tushuncha va tasavvurlar hosil qilish. Ularda Eley falsafasi namoyandalari Ksenofan, Parmenid va Zenon ta’limotlarini qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Panteizm, metafizika, borliq va yo‘qlik, eklektika, aporiya, dixotomiya, harakat va harakatsizlik, uzluklilik va uzlusizlik, cheksizlik, yaxlitlik.

Asosiy savollar

1. Ksenofanning panteistik qarashlari.
2. Parmenidning borliq va yo‘qlik haqidagi ta’limoti.
3. Zenon aporiyalari.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda janubiy Italiyaning Eleya shahrida falsafiy ta’limotlar rivojlandi. Bu yerda yashab ijod etgan mutafakkirlar Eley maktabi nomi bilan shuhrat qozonganlar (1-ilova).

I-ilova **Eley maktabi**

Faylasuf	Taxminan yashagan davri
Ksenofan	Taxm. mil.avv. 565–473 yy.
Parmenid	Taxm. mil. avv. 540–480 yy.
Zenon	Taxm. mil. avv. 490–430 yy.
Samosli Meliss	Mil. avv. V asrlar.

Hayoti: Eley maktabning ilk vakili sayohatchi, shoir-mutafakkir **Ksenofan** (mil. av. 565–473-yillarda yashagan).



Asarlari: «Kolofonning asoslanishi», «Italian Eleyasiga surgun», deb nomlangan poemalari va satirik xarakterdagi «Sillalar» she’riy to‘plami.

Ta’limoti: U Geraklitning tabiat hodisalari ko‘p xilligi, harakat, o‘zgaruvchanlikning mutlaqligi haqidagi dialektik konsepsiyasiga qarshi chiqqan. Ksenofan olamni paydo bo‘lmagan, yo‘q bo‘lmaydigan, yagona, doim

bir qaror o'zgarmas borliq sifatida ta'riflaydi. U qadimiy Yunonistonda keng tarqalgan mifologik politeizmga asoslangan diniy o'tiqodlarni tanqid qilgan. Ksenofan fikricha, kishilar xudolarni o'zlariga o'xshash, monand qilib tasavvur qiladilar va tasvirlaydilar. Qadimgi afsonalardagi xudolar esa, insonlar o'yayotollarining mahsulidir, xolos. Agar ho'kizu sherlar va otlar odamlardek yozish, chizishni bilganlarida edi, ular ham xudolarni o'zlariga o'xshatib tasvirlashgan va bu xudolarni abadiy yashaydi deb tasavvur qilgan bo'lar edilar, degan.

Uning fikricha, yagona xudo mavjud, lekin u na qiyofasi va na sifatlari bilan insonlarga o'xshamaydi. Xudo Buyuk tafakkur egasi so'f aql sifatida sokinlikda muallaq holda mavjud bo'ladi va olamni qiyalmay boshqaradi. Ksenofanning fikricha, xudo hamma narsalarning dastlabki asosidir.

Xudo paydo bo'luman va ko'chma sifatga ega emas. Olam yaxlit va o'zgarmas. Xudo tabiat, koinotning aynan o'zidir.

Barcha paydo bo'luvchi narsalar halok bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, hamma narsa tuproqdan tashkil topgan va pirovard natijada yana unga aylanadi. Tug'iluvchi va o'lувчи har bir narsa *tuproq va suvdan* tashkil topgan. Bu ikki ibtido hayot manbaidir. Hatto jonlar ham tuproq va suvdan tashkil topgan. Ksenofan – pantheist bo'lgan. Bu masalada Ksenofan ta'limoti boshqa falsafiy maktablar ta'limotidan farq qiladi.

F.Kopleston shunday deb yozadi: «Aristotel o'zining "Metafizikasida", Ksenofan «olam to'g'risida gapirar ekan, Yagona bu – Xudo deb ta'kidlagan», deydi. Biroq uning monoteist bo'lishiga qaraganda monist bo'lishi ehtimoli ko'proq va uning «teologiyasi» talqini teistik talqinga qaraganda eleychilarining unga bo'lgan munosabatiga yaxshiroq muvosif keladi. Aslida biz uchun monoteistik teologiya – odatdagи narsa, lekin Qadimgi Yunonda uni nazarga ilishmagan»¹¹.

Ksenofan yerning evolutsion o'zgarishi to'g'risida fikr yuritgan. Qachonlardir yer suv bilan qoplangan, keyinchalik suvning bir qismi qurib, quruqlik hosil bo'lgan. Dengiz tubi bo'lgan joy

¹¹ Qurang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. p. 166.

keyinchalik tog‘ga aylangan. Shuning uchun yer borliqning asosidir, uning substansiyasidir.

Yer o‘z ildizi bilan cheksiz yoyilgan. Ikki ibtido: tuproq va suv koinotning asosini tashkil etgan. Osmon jismilar ham suvdan tashkil topgan. Suvdan bulutlar hosil bo‘ladi, bulutlardan esa barcha osmon yoritgichlari yuzaga kelgan.

Ksenofanning bilish nazariyasiga ko‘ra, bilimlar ikki xil ko‘rinishga ega. Biri – «mulohazalar bo‘yicha bilim», ikkinchisi – «haqiqatlar bo‘yicha bilimlar». Olam bilan bevosita aloqada bo‘lgan inson sezgilari orqali olingan birlamchi bilimlar o‘zgaruvchan va aldamchidir. Ular mulohazalarga tayanadi va shuning uchun ularni haqqoniy deb bo‘lmaydi. Aql yordamida olingan bilimlar ham har doim to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Ksenofan haqiqiy bilimlarning tadrijiy xarakterga ega ekanligi haqida fikr yuritar ekan, «Avval boshdan xudolar odamlarga barcha narsalarning sirlarini ochib bergen emas, biroq kishilarning o‘zlari asta-sekin ularni kashf etganlar», deb hisoblagan.



Hayoti: *Parmenid* (mil.av.taxminan 540–480-yillarda yashagan) Eley falsafiy maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri. U o‘z davrida yirik davlat arbobi sifatida ham obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan.

Asarlari: «Tabiat to‘g‘risida»gi she’riy qissa yaratgan. Lekin bu asar bizgacha to‘liq holda yetib kelmagan.

Ta’limoti: Uning fikricha, yakkayu yagona borliq mavjud, bu borliq yaratilmagan, yo‘q ham bo‘lmaydi, o‘zgarmaydi ham. Borliq olamning markazida harakatsiz joylashgan. U yaxlit sharsimon massadan iborat. Uning olam to‘g‘risidagi bunday tasavvuri borliqning moddiyiligidan dalolat beradi.

Yer, Parmenid fikricha, borliqning markazini tashkil etadi. Uning ba’zi g‘oyalari olam haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Oy o‘zidan nur chiqarmaydi. U faqat Quyosh nurini aks ettiradi, xolos, degan fikri o‘z davriga nisbatan juda ilg‘or bo‘lgan.

Dordiqni harakutsiz deb tushungan Parmenid, Geraklitning istiboti abadiy harakatda, harakat esa qarama-qarshiliklar asosida bo'ldi, degan fikriga qarshi edi. Parmenid fikricha, borliq harakatiz, o'zgarmas, paydo bo'lmaydi, yo'q ham bo'lmaydi. Shunday qilib, Geraklit stixiyali sodda dialektikaga asos solgan bo'lsa, Parmenid Qadimgi Yunonistonda olamni *metafizik* inhomiliga asos solgan.

Parmenid ilk bor falsafada borliq va yo'qlik masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, borliq bu – bor, mavjud mamlakalar, ular makonda o'zining muayyan o'mniga ega. Ularni belgilan qilish, bilish mumkin. Yo'qlik esa, mavjud bo'lmaslikdir. U mamlakonda muayyan o'rinni egallamaydi, inson sezgilariga ta'sir bo'lmaydi. U haqida fikr qilib ham bo'lmaydi.

Parmenid fikricha, «Fikr doimo jism haqidagi fikrdir. Fikr o'z jismdan (predmetidan), ya'ni borliqdan ajralgan holda bo'lishi mumkin emas. Fikr bu borliq demakdir. Yo'qlik to'g'risida fikr yuritish bo'lmaydi». Shu tariqa, u, borliq va fikr yagonadir, degan enlosuna keladi.

Shunday qilib, Parmenid fikricha, yo'qlik mavjud emas, abadiy olamda hech joyda bo'shliq yo'q, hech narsa bilan to'limagan makonning bo'lishi mumkin emas. Jismdan alohida makon yo'q. Olam yaxlit sharsimon massadan iborat. Olam bir butim, unda hech qanday ko'plik yo'q; ko'plik haqidagi fikr yuritish ham mumkin emas. Alohida, yakka-yakka jismlarning o'zi olamda yo'q. Parmenidning bu ta'limoti pifagorchilarning bo'shliq bor, degan fikriga qarshi qaratilgan edi. Albatta, pifagorchilarning bo'shliq to'g'risidagi fikri atomistik ta'limotni ilgari surʼan faylasuflarning mutlaq bo'shliq fikridan yiroqdir.

Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, jonli sharsimon olam to'henridan o'z ichiga havosimon bo'shliqni tortib, nafas oladi. Nafisada, olam alohida jismlarga bo'linadi va ular bir-biridan ajralib turadi. Parmenidning fikricha, olam yaxlit. Demak, unda hech qanday ko'plik yoki alohida qismlar yo'q. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hissiyotimizga ko'chgan ko'plik alohida yolg'on tasavvurlardir. Hissiyot orqali bilinadigan olam manzarasi haqiqiy emas. Haqiqiy bilimning manbai tafakkurdir.

Eley maktabi vakillari Geraklitning bilishda hissiyot a'zolaringning roli haqidagi «Tabiatga qulq solish darkor!» degan qoidasiga zid holda ko'zga ham, qulqqa ham ishonib bo'lmaydi, yolg'iz aqlga murojaat etish lozim, deb davo qilganlar. Ular olamni bilishda aqliy bilishni hissiy bilishga qarama-qarshi qo'yishgan.

Shunday qilib, Parmenid ta'limotiga quyidagicha yakun yasash mumkin. Agar miletliklar haqiqatni hissiyot va tajribadan topgan bo'lsalar, Parmenid aksincha, hissiy dalillarning aniqligini rad etdi. Har qanday empirik bilimlarni aslida yanglish bilim, deb hisoblab, borliqning mohiyatini borliqning o'zidan izladi.

Parmenid uchun borliq va tafakkur aynan bir narsa. Uning fikricha, aql harakatsiz, o'zgarmas narsalarni biladi, shuning uchun ham haqiqiy bilim manbai bo'lishi mumkin. Shunday qilib, u qadimgi Yunonistonda metafizika va ratsional falsafaga asos soldi. F. Copleston fikricha, Ksenofan haqida qanday o'y-fikrga kelmaylik, falsafiy jihatdan ham, tarixiy jihatdan ham olib qaraganimizda, shubhasiz, Eleylik Parmenid Eley maktabining haqiqiy asoschisidir.¹²



***Hayoti:** Zenon* (mil.av.490–430 yillarda yashagan) – Eley falsafiy maktabining yirik namoyandalaridan biri, siyosiy arbob, iste'-dodli muallim va notiq bo'lgan.

Asarlari: Mutafakkirning «Dixotomiya», «Axill va toshbaqa», «Yoy», «G'alla donasi» nomli aporiyalari bizgacha yetib kelgan.

Ta'limoti: Zenon – Parmenidning ta'limotini himoya qilgan va uni rivojlantirgan. Parmenidning g'oyalarini himoya qilishda o'zi ishlab chiqqan dalil-isbotlarga tayangan. Zenon o'z dalil isbotlarini juda mohirlik bilan qo'llagani uchun ham, keyinchalik, Aristotel uni «Dialektika»ning otasi, deb atagan. «Dialektika» deganda, Aristotel Zenonning muayyan fikrdan ichki qarama-qarshiliklarni topib, ularni bartaraf etish usulini yaratganligini nazarda tutgan.

¹² Qarang : Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. p. 201.

Zenon Parmenid singari, haqiqat qarama-qarshiliklarga duch natijali mumkin emas, degan fikrga ishongan. Zenonning ta'kid-fikricha, ko'plik bu qismlarga ega bo'lishlik va bo'linish xususiyatiga ega bo'lishlikdir. Bo'linuvchanlik xususiyati faqat ko'lumga ega ho'lgan narsalarga xos. Zenonning fikricha, borliq jamiy hajm va ko'lumga ega. Na ko'lam, na hajmga ega bo'lumga narsaning o'zi yo'qdir, deydi Zenon. U Parmenid singari borliqdan tashqarida biror-bir bo'shliqning mavjudligini butunlay inkor etgan. Faqat uch o'lchovga ega bo'lgan borliq mavjud.

Biroq Zenon ta'limotiga ko'ra, borliqdan alohida uch o'lchovga ega bo'lgan makon yo'q. Makon o'ringa ega bo'lib, u borliqdu joylashgan. Zenon makonni borliqdan ajralgan holda toshunadigan faylasuflarga qarshi chiqqan. U bo'shliqning yo'qligini isbotlash maqsadida shunday dalillar keltirgan. Agar borliqdan tashqarida qandaydir bo'sh makon bor, deb faraz qilinadi, unda quyidagi xulosalarga asoslanish kerak bo'ladi: hamma mavjud narsalar qandaydir makonda joylashishi lozim. Makon mavjud bo'lishi uchun, u ham boshqa ikkinchi makonda joylashishi kerak. Ikkinci makon joylashishi uchun uchinchi makon bo'lishi kerak va h.k. Buning esa bo'lishi mumkin emas, ya'nii borliqdan tashqarida o'rinni, makon alohida mavjud bo'lishi mumkin emas. Demak, borliqdan tashqarida bo'shliq yo'q.

Zenonning ko'lam to'g'risidagi ta'limotiga ko'ra, ko'p qismlardan iborat jism o'z navbatida bo'linishning oxirgi nuqtasiga ega bo'lishi kerak. Aks holda har bir qism bo'linuvchi xususiyatga ega bo'lسا, o'zi ko'plikka aylanadi. Unda o'sha qismning qismini munqashga to'g'ri keladi. Unda bo'linish cheksiz davom etishi mumkin. Shuning uchun Zenon bo'linishning chekli ekanini tan oladi. Demak, ko'plik bo'linishi uchun ko'pgina birliklar mavjud bo'lishi kerak. Ko'plik birliklar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Zenon o'zidan keyin ko'plikning muvudu emasligi to'g'risida 40 ta dalil-isbot qoldirgan. Bizgacha ulardan ikkitasi yetib kelgan. Birinchisi: agar borliq ko'plikdan iborat bo'lسا, unda u katta va kichik bo'lishi mumkin. Natijada u shunchalik kichik bo'lib, hajmga ega bo'lmasligi yoki shunchalik katta bo'lib, cheksiz bo'lishi mumkin.

Ikkinchisi: borliq ko‘plikdan iborat bo‘lsa, unda bir narsaning o‘zi cheklangan va cheksiz bo‘lishi kerak. Bu ikki isbot antinomiya shaklida tuzilgan.

Zenon harakatning mavjud emasliga to‘g‘risida to‘rtta **aporiya** yaratgan. Bular: «Dixotomiya», «Axill va toshbaqa», «Yoy» va «Stadiy».

«Aporiya» deganda, Platon va Aristotel «qarama-qarshi xulosalarning tengligi»ni tushunishgan. Xususan, Zenonning bo‘shliqning, ko‘plikning, harakatning mavjud emasligi haqidagi mulo-hazalarini aporiyalar deb atashgan.

Zenon aporiyalari haqiqatga nisbatan aytilgan muqobil fikrni rad etishga asoslanadi. Shu tariqa Zenon 1) bo‘shliqning mavjudligi, 2) ko‘plikning mavjudligi va 3) harakatning mavjudligi haqidagi fikrlarni rad etishga uringan.

Harakatlanuvchi jism butun masofani bosib o‘tishdan oldin xayolan uning yarmisini o‘tishi kerak. Masofaning yarmini o‘tishi uchun u yarmining yarmisini o‘tishi lozim. Bu holat cheksiz ravishda qaytarilaveradi, chunki makon cheksiz bo‘linuvchan ekan, so‘nggi bo‘linmas qismga erishish mumkin emas. Xulosa shuki, harakat cheksiz borliqning tabiatiga mos kelmaydi.

Zenon o‘z «dixotomiya»sida – ya’ni ikkiga bo‘lishga asoslangan argumentida harakat ziddiyatlari bo‘lgani uchun, aslida, uni yo‘q deb isbotlashga uringan. To‘g‘ri, u kishi sezib turgan harakat va ko‘plikni e’tirof etadi, biroq aslida haqiqatda olamda na harakat, na ko‘plik bor deb da’vo qiladi. Zenon «dixotomiya» - «taqsimlash», o‘rtadan bo‘lish qoidasida harakatdagi jism yo‘lning oxiriga borib yetishi uchun, u yo‘lning yarmini bosib o‘tishi kerak, ushbu yarim yo‘lni bosib o‘tishi uchun uning ham yarmini o‘tishi lozim. Xullas, shu tarzda taqsimlash cheksiz davom etadi. Buning natijasida A nuqtasidan V nuqtasiga qarab harakat qilmoqchi bo‘lgan obyekt nafaqat manzilga yetib bora oladi, balki o‘z o‘rnidan siljimaydi ham. Shu tariqa Zenon harakatning mavjudligini rad etgan. Bu o‘rinda Zenon harakatdagi uzluklik va uzluksizlikni ayrim-ayrim olib qaragan, vaholanki, harakat uzlukli bilan uzluksizlik birligini ifodalaydi.

Zenon harakatni rad etish maqsadida «**Axill va toshbaqa**» aporiyini keltiradi. Axill qanchalik tez yugurmasin, toshbaqa beldan yeta olmaydi. Zenon «dixotomiya» argumentini qo'llash orqali Axillning toshbaqaga yetib olishi uchun, u yo'lning yarmini bosib o'tishi kerak, ushbu yarim yo'lni bosib o'tishi uchun uning ham yarmini o'tishi lozim. Makonning cheksiz yarmiga bo'linishi olib yasida Axill va toshbaqa orasidagi masofo hech qachon 0 ga tengishlasmaydi, ya'ni Axill toshbaqaga yetib olmaydi, deb uchuniga keladi Zenon (2-ilova).

2-ilova

Zenonning “Axill va toshbaqa” aporiyasi

Axill Toshbaqa

L L' L"


Aslida, narsa harakati ayni paytda shu joyda ekanligini va shu joyda emasligini namoyish qiladi. Chunki olamda barcha narsalar timmsiz harakatda bo'lib, sukunat nisbiydir, sukunat harakatning alohida bir daqiqasidir, xolos. Harakatda ham uzluklilik, ham uzlusizlikning birligidadir. Bu qonuniyat obyektiv bo'lib, makro dunyoda ham, mikro dunyoda ham hukm suradi.

Zenon «Yoy o'qi» misolida ham harakatni rad etmoqchi bo'lган. Uchib borayotgan o'q har bir daqiqada o'ziga teng makonni ishg'ol qiladi. Demak, yoy o'qi ayni vaqtida makonda harakatsiz holatda. Vaholanki, harakatdagи buyumlar o'zlaridan kattaroq makonni egallashlari kerak. Shu tariqa Zenon borliqda barakatning bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga kelgan. Zenon sukulatni harakatdan ajratib, bir tomonlama qarab, uni mutlaqlashtirgan. Haqiqatda esa, harakatsiz sukunat, sukulatsiz harakat bo'lmaydi, ular dialektik birlikda, aloqada mavjud. yetakechi harakatdir, chunki sukulat nisbiy bo'lib, uzlusizlik va uzluklilikning dialektik birligidan tashkil topadi (3-ilova).

Zenonning "O‘q-yoy" aporiyasi



1 2 3 4 5 6 7 8 9 ...



1 2 3 4 5 6 7 8 9 ...

Zenonning «G‘alla donasi» haqidagi bahslari ham harakat mavjudligini inkor qilishga, moddiy dunyo to‘g‘risida inson his tuyg‘ulari va sezgi a‘zolari bergan ma’lumotlarga nisbatan ishonchhsizlik bilan qarashga asoslangandir. Zenon o‘z munozalarida dialektik uslubni inkor qilgani holda harakatning ziddiyatli xarakterini ochib bergan. Uning qarashlari keyinchalik mantiq, matematika ilmlarining, dialektik tafakkur qilish usulining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

1.5. Empedokl va anaksagor falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda Empedokl va Anaksagorning ontologik, gnoseologik ta’limotlari haqida atroflicha hamda chuqr tushuncha va tasavvurlar hosil qilish. Ularda Empedokl va Anaksagor falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyoslash, mavzuga oid manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

To ‘rt unsur, muhabbat-yovuzlik kuchi, gomomeriyalar, «nus», kosmogoniksikl, naturfalsafa.

Asosiy savollar


- 1 Empedoklning borliq haqidagi ta'limoti.
- 2 Empedoklning gnoseologik ta'limoti.
- 3 Anaksagorning borliq haqidagi ta'limoti. «Gomomeri-yular»

- 1 Anaksagorning gnoseologik ta'limoti.


Milodgacha V-IV asrlarda, xususan V asr 40-30-yillarida Perikl zamonasida yunon madaniyati, fani, falsafasi, san'ati rivojlandi. Aynan shu davrda falsafaning yirik vakillari Empidokl va Anaksagor yashagan, Levkipp, Demokrit o'zlarining atomistik mif tablарini yaratganlar. Suqrot hamda Platon o'z falsafiy ta'limotlarini ishlab chiqqanlar. Ulardan sal keyinroq Aristotel yashab, ijod etgan.

I-ilova

Ilk antik davr falsafiy maktablari



Hayoti: **Empedokl** (mil.av.490–430-yillar) Zenonning zamonodoshi, falsafiy qissalar muallifi, shoir, faylasuf, muhandis. Empedokl hayoti va faoliyati Sitsiliyadagi Agrigent shahrida o'tkan. Agrigent miloddan avvalgi davrdagi yunon shaharlari ichida savdo-sotiq nuqtayi nazaridan eng rivojlangan, ilg'or shaharlardan hisoblangan.



Asosiy asari: U o‘z falsafiy qarashlarini mashhur «Tabiat haqida» asarida bayon etgan.

Ta’limoti: U o‘z falsafiy ta’limotida ba’zi masalalar bo‘yicha Eley maktabi g‘oyalariga tayangan bo‘lsada, haqiqiy borliqning elementlari, miqdor masalasida ular bilan kelisha olmagan. Eley maktabining ta’limotiga ko‘ra, haqiqiy borliq yaxlit va o‘zgarmas, u na paydo

bo‘ladi va na yemiriladi, hatto ko‘plikka ham ega emas. Empedokl esa eleyliklarning ta’limotiga qarshi chiqib, olamning asosiga to‘rt unsurni qo‘yadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, tabiat jismalarning asosini tashkil etadi. Unsurlarning birikishi va ajralishi miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlarga bog‘liq. Lekin boshlang‘ich ibtidolar o‘z-o‘zicha o‘zgarmaydi.

Empedokl o‘z o‘tmishdoshlari g‘oyalarini yaxlit, bir butun tizimga solishga urindi. «U Parmenidning borliq mavjud va u moddiy, borliq hech qayerdan paydo bo‘lmaydi va hech qayerga yo‘qolmaydi, ya’ni u yo‘qlikdan paydo bo‘lishi mumkin emas va yana yo‘qlikka aylanmaydi, degan g‘oyasini qabul qilgan. Yoxud yo‘q narsadan nimadir paydo bo‘lishi mumkin emas va mumkin bo‘lmagan. Eshitilmagan narsadan nimadir paydo bo‘lishi uchun, mavjud bo‘lgan, o‘lgan, ya’ni u qayerga qo‘yilmasin, hamisha bo‘lgan.»¹³ Va yana: «..hech bir narsada bo‘s sh narsaning ham va nihoyatda to‘la narsaning ham o‘zi yo‘q», «Aks holda ular qayerdan paydo bo‘lgan bo‘lar edi? »¹⁴, deb hisoblagan.

Empedokl olamning asosiga to‘rt moddiy unsur: tuproq, suv, havo va olovni qo‘yadi. Empedokl olov va havoni erkak xudolar sifatida tuproq va suvni esa ayol xudolar sifatida talqin qilib, ularni bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yan.

Ba‘zan u bu to‘rtta unsurni tirik mavjudod deb qarab, **gilozoistik** (notirik narsalarni tirik deb talqin etish) ta’limotni ilgari surgan. Empedokl Fales singari butun tabiatni tirik va hatto ilohiy deb bilgan.

¹³ Qarang: Iqtiboslar quyidagi manbadan olindi: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.61

¹⁴ O’sha joyda.

Uning fikricha, moddiy unsurlar harakatlantiruvchi kuchlar jihat chumbarchas bog'liqdir. Barcha unsurlarga harakatlantiruvchi kuchlar **muhabbat va yovuzlik** xos. Unsurlarni birlashtiruvchi kuchni u muhabbat, do'stlik, garmoniya va hatto Afrodita desa, olarni bir-biridan ajratuvchi kuchni yovuzlik, nafrat kuchi deb hisoblagan.

Birlik va ko'plik masalalarini Empedokl Eley maktabi fal-safasidan va Geraklit falsafasidan farqli, o'ziga xos ravishda hal qilgan. Eleyliklar faqat bir butunlikni, yaxlitlikni e'tirof etganlar, ya'ni yaxlitlikni, fikrda bor desalar, ko'plik hissiy olam faqat hisoytimizda bo'ladi deganlar. Geraklit uchun yaxlitlik va ko'plik bir paytning o'zida mavjud, ya'ni hamma narsa bir narada va bir narsa hamma narsada namoyon bo'ladi.

Empedoklning fikricha esa, birlik va ko'plik, muhabbat va yovuzlik kabi qarama-qarshi kuchlar bir paytning o'zida emas, navbatma-navbat mavjud bo'ladi. U tabiat hayotini davriy jarayon uflatida tushunib, muhabbatni – ashyoviy jismlarni birlashtiruvchi kuch, yovuzlikni esa unsurlarni parchalovchi kuch, deb tasavvur qilgan.

Olamda navbatma-navbat muhabbat va yovuzlik kuchlari hukmronlik qiladi. Muhabbat hukmronlik qilgan davrda hamma narsalar birlashadi, tabiat esa sifatsiz sharga o'xshaydi. Unda alohida moddiy unsurlarning o'ziga xos xususiyatlari saqlanmaydi. Aksincha, yovuzlik hukmronlik qilgan davrda hamma narsa ko'plikka aylanadi, unsurlar esa o'ziga xos xususiyatga ega, alohida-alohida holatda bo'ladi.

To'rtta moddiy unsurlar ichida olov alohida maqomga ega. Uning fikricha, hamma narsaning asosini yovuzlik va muhabbat kuchlari tashkil etsa ham hamma narsa olovdan paydo bo'lib va yani olovga qaytadi. Bu yerda uning dunyoqarashiga Geraklit to'limotining kuchli ta'sir etkanligini ko'ramiz.

Empedokl tabiatdagi barcha narsalarning kelib chiqishini to'limotining kuchli ta'sir etkanligini ko'ramiz. U nafaqat noorganik tabiatdagi, balki organik tabiatdagi hodisalarни kuzatib, qiziqarli farazlarni ilgari surgan. Uning fikricha, jismlar to'rt unsurning teng mutanosibligi

asosida paydo bo‘ladi. Masalan, inson va hayvonlarning asablari tuproq va olov unsurlarining bir qismi va suv unsurlarining ikki qismining o‘zaro birlashuvidan tashkil topgan.

Dastlab, qorishib ketgan unsurlardan havo ajralib chiqib, atrofga yoyilgan. Keyin ulardan olov ajralib chiqqan. Borliqning eng yuqori qismini havo egallagani uchun olov gumbazsimon holatni tashkil etgan.

Empedokl kosmologiyasiga binoan, Yer atrofida ikkita yarim shar mavjud, ular aylanma harakatda bo‘ladi. Birinchi yarim shar faqat olovdan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchi yarim shar esa havo va olov qorishmasidan tashkil topgan. Empedoklning astronomik gipotezasiga ko‘ra, Quyosh tabiatan olovli emas, balki gumbazsimon osmon ostidagi kunduzgi yoritqich bo‘lib, Quyoshning suvda aks etgani kabi u olovning aksidir. Oy esa havodan tashkil topgan. Havo yuqorida quyuqlashib, do‘lga o‘xshash shaklga kirgan. Oy o‘zidan nur taratmay, balki Quyosh yog‘dusini aks ettiradi. Empedokl ham Quyosh, Oy tutilishini tabiiy qonuniyat sifatida tushuntirishga harakat qilgan.

Empedokl Geraklit singari olamning rivojlanishi davriy holatda deb bildi. Uning fikricha, olam paydo bo‘ladi va yemiriladi, lekin olamning paydo bo‘lishi dastlabki olovning boshqa holatga o‘tishi orqali emas, balki o‘zgarmas unsurlarning o‘rin almashishi orqali yuzaga kelgan o‘zgarish natijasida sodir bo‘ladi. Bunda hal qiluvchi rol olamni yaratuvchi ikkita kuchlarga taalluqlidir. Muhabbat, yovuzlik kuchlari Geraklitning to‘la mutanosiblik (garmoniya) va kurash g‘oyasini eslatadi.

Biroq Empedoklning kuchlari alohida-alohida, qarama-qarshi, ular birlasha olmaydilar. Har bir davrda mutlaq farq qiladigan qarama-qarshi holatlar mavjud, har bir davr to‘rt davrga bo‘linadi.

Birinchi davr – muhabbat hukmronlik qilgan davrda barcha unsurlar qorishib, yaxlitlikni tashkil etadi. Muhabbat hamma narsani birlashtirib, markazga joylashadi, harakat to‘liq sokin holatga keladi.

Ikkinci davr – yovuzlik chetdan yoki pastdan asta-sekin markazga yaxlitlik ichiga kirib, muhabbat birlashtirgan turli


unsurlarni bir-birlaridan ajratib, har birini, ya’ni olovni olov bilan, suvni suv bilan birlashtiradi va h. k.

Uchinchi davr – yovuzlik to‘la hukmronlik qilgan davr. U markazga joylashib, muhabbatni tashqariga siqib chiqaradi. Bu davrda borliq alohida-alohida joylashgan to‘rt unsurdan iborat bo‘ladi.

To‘rtinchi davr – muhabbat markazda hukmronlik qilayotgan yovuzlik ichiga kirib boradi va asta-sekin yovuzlikni siqib chiqarib, barcha unsurlarni birlashtiradi. Bu davrlar yana takrorlanaveradi. Empedokl fikricha, olam ikkinchi va to‘rtinchi davrda paydo bo‘lgan. U bizning dunyodan tashqarida boshqa dunyolar ham mavjud, degan g‘oyani ilgari surgan (2-ilova).

2-ilova

Empedokl kosmogoniyasি



Empedokl bilishni inkor etmadi. Lekin uning ta'kidlashicha, sezgilar bir-biriga monand bo'lmasa, ya'ni obyekt va subyektdan chiqadigan nurlanishlar bir-biriga mos kelmasa, bilim ham paydo bo'lmaydi. Inson olamni bilishda obyekt va subyektning g'ovaklaridan chiquvchi nurlar bir-biriga mos kelishi kerak. Hissiy a'zolarimizning g'ovaklari turlicha bo'lganligi uchun har bir a'zo o'ziga tegishli sezgisini qabul qiladi. Ya'ni ko'zimiz bilan ko'ramiz, qulog'imiz bilan eshitamiz. Ko'rish ko'z qorachi-g'imizda joylashgan olovning nurlanishi orqali sodir bo'ladi. Ko'z o'z tarkibida mavjud olov, suv va boshqa unsurlarni ma'lum miqdorini qabul qiladi. Ranglar unsurlardan taralib, ko'z g'ovaklariga urilib, ko'zda paydo bo'ladi. Asosiy ranglar to'rtta unsur singari to'rttadir. Oq, qora, qizil va sariq ranglardan iborat. Oq ranglar olov g'ovaklari orqali qabul qilinsa, qora rang suv g'ovaklari orqali qabul qilinadi. Agar ko'zning tarkibi shunchalik ma'lum bo'lsa, nega ko'z har xil ko'radi? Biri yaxshi, biri yomon ko'radi. Empedokl buni ko'zlarning joylashishiga bog'liq deydi. Birining ko'zida olov unsuri ko'p bo'lsa, ikkinchisining ko'zida esa suv unsuri ko'p bo'ladi. Olov unsuri ko'p bo'lgan maxluq tunda yaxshi ko'radi. Olamni bilishda hissiyotdan tashqari aql ham muhim rol o'ynaydi. Insonning ongi uning holatiga bog'liq, olgan tasavvurlari tanasining o'zgarishiga bog'liq. Kishining fikri bu qalbni yuvib turuvchi qondir.

Empedoklning fikricha, haqiqat mezoni sezgilar emas, balki to'g'ri fikrlashdir. To'g'ri fikrlashning asosida ma'lum darajada ilohiylik, bir qismida esa insoniylik yotadi. Ilohiylikni bilib bo'lmaydi, insoniylik esa o'tkinchidir. To'g'ri fikrlash hissiyotga tayanmaydi.

Empedokl fikricha, narsalarga o'zgarmas va o'zgaruvchi sifatlar xosdir. Moddiy unsurlarning o'zgarmas sifatlari ularning o'ziga xos asosiy xususiyatlaridir. O'zgaruvchan xususiyat esa ikki kuchning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Shu bilan Empedokl tabiatdagi tortishish va itarish kuchlari haqida taxminiy fikrlar ham aytgan. Shunday qilib, Empedokl tabiatdagi narsalarning o'zgarishini o'ta soddalik bilan tushuntirib berishga uringan.



U harakat kuchlarini materiyadan ajratib qo'yadi. Lekin bu kamchiliklarga qaramay, Empedokl o'z davriga nisbatan ancha ilg'or g'oyalarni ilgari sura olgan. Keyinchalik uning ta'lomit Anaksagor tomonidan yanada rivojlantirilgan.

Hayoti: Klazomenlik *Anaksagor* milav. 500–428-yillarda yashab, ijod qilgan faylasuf, matematik, tabiatshunos, muhandis. Anaksagor yashagan davrga kelib, Afina qoloq dehqonchilik davlatidan qudratli savdo va sanoat markaziga aylandi. Bu davr tarixga Afina quldarlik demokratiyasining «oltin yili» bo'lib kirgan. Lekin shunga qaramay, moddiyunchilik qarashlari, o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarni, xususan xudolarni inloq qiligan uchun, Anaksagor Afina sudi tomonidan o'lim jazofiga hukm qilingan. Do'sti Perikl uni bu o'limdan xalos qiladi. Lekin Anaksagor Afinadan ketishga majbur bo'ladi.

Asarlari: Uning mashhur asari «Tabiat haqida» deb nomlanadi.

Ta'lomit: U o'z falsafiy fikr-mulohazalarini ilgari surishda o'zidan oldin o'tgan naturfaylasuflarning, ayniqsa, Empedoklning ta'lomitiga tayangan bo'lsada, lekin o'ziga xos falsafiy g'oyalarni ilgari surgan.

Anaksagor Eley maktabining namoyandalari singari haqiqiy borliq paydo bo'lmaydi va yemirilmaydi, deb hisoblagan. Lekin paydo bo'lish va yemirilish paydo bo'lmaydigan va yemirilmaydigan jismlarning birikishi va ajaralishidan bo'lak narsa emas, deb hisoblagan. Bu haqida Anaksagor shunday degan: «*Paydo bo'lish* o'rniqa «*birikish*» va «*yemirilish*» o'rniqa «*ajralish*» devish to'g'ri bo'ladi». Shu bilan birga, Anaksagor Empedokl ilgari ko'plik va harakatning unsurlari to'rtta emas, balki elementlar behisob, harakatlantiruvchi kuch ikkita bo'lmay, balki bittadir, degan.

Anaksagor sifatiga ko'ra umumiy bilan o'xshash bo'lgan qismlar (zatralar)ni hech nimadan chiqib kelmaydigan dastlabki moddalar, deb tushunganman. Ular o'rtasidagi farqni oddiy misol

yordamida ifodalab berilsa, anglash qiyin emas. Masalan, oltinning bir bo‘lagini ikki qismga bo‘lsak, ularning har ikki qismi ham oltin bo‘lib qolaveradi (ya’ni qismlar ham sifat jihatidan bir butun bir xil holda saqlanib qoladi), shu sababli bu kabi yaxlitlikni o‘xshash deb aytish mumkin¹⁵.

Anaksagor o‘ziga qadar yashab ijod etgan boshqa faylasuflar kabi olamni tashkil etuvchi ibtidoni topishga harakat qilgan. Fales – suv, Anaksimen – havo, Anaksimandr – apeyron, Geraklit – olov, Empedokl – boshlang‘ich to‘rt unsur: tuproq, suv, havo, olov, deb tushungan bunday asosni Anaksagor eng mayda zarracha – «urug‘larga» qiyoslagan. Ushbu zarracha, ya’ni urug‘-larini u keyinchalik «gomomeriya» deb atab, ularning qo‘shilishidan olamdagи barcha narsalar paydo bo‘ladi, deb xulosa chiqqargan.

Olamni cheksiz, deb hisoblagan Anaksagor uni materiyaning turli elementlaridan – urug‘lardan hosil bo‘lgan deb faraz qilgan. Anaksagor oddiy elementar bo‘lakchalar, zarrachalarning qo‘shilishi «nus» (aql) asosida bo‘ladi. «Nus»(aql) tabiatning o‘ziga xos, uning ajralmas xususiyatidir.

Nus (aql) to‘g‘risidagi ta’limotiga ko‘ra, mavjud dunyoviy tartib aql faoliyati yordamida paydo bo‘lgan va paydo bo‘lib turadi. Nusga bilish va doimo harakatda bo‘lish xususiyati xos. U olamdagи go‘zallik va mutanosiblikning manbaidir.

Anaksagor birinchi bo‘lib, antik falsafada olamning asosini behisob mayda zarrachalar tashkil etadi degan g‘oyani ilgari surgan. U shuningdek, koinotning kattalashib borishini ta‘kiddagan. Uning fikrichi, harakatlantiruvchi kuch (aql) o‘z harakatini koinotning borgan sari katta qismlariga ta’sirini ko‘rsataveradi. Shunday qilib, nus (aql) tomonidan o‘rnataladigan tartib cheksiz yoyilib, koinotning ko‘lamini cheksiz ortib borishiga olib keladi. Ikkinci tomondan, har bir alohida zarracha – **gomomeriya** cheksiz ko‘p bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ularning bo‘linishi ham cheksiz davom etib, nihoyasini ko‘rish mumkin emas.

¹⁵ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.67

Anaksagor ilgari surgan «gomomeriya»lar haqidagi ta’limoti boyinchalik atomist faylasuflar Demokrit, Epikurlar ta’limotiga ko’tsatdi. Lekin ular eng mayda zarrachalar – atomlarni immas zarrachalar, deb hisoblashgan.

Anaksagor olamni bilish to‘g‘risida o‘ziga xos ta’limotni ibari surgan. U Empedoklning seziluvchi va sezuvchilar bir-birligiga monand bo‘lsa, bilish mumkin, degan fikriga qaramaqshи. Geraklitning «biz qarama-qarshilik orqali qabullaymiz», degan fikrini davom ettirdi. Anaksagor fikriga ko‘ra, sezish qarama-qarshiliklar tufayli sodir bo‘ladi. Aynan bir xil narsani sezish mumkin emas. Uning ta’limotiga ko‘ra, har bir sezgi a’zosi o‘ziga tegishli alohida qarama-qarshi narsalarni sezadi. Masalan, jismlarni ko‘z qorachig‘imizga ta’siri orqali ko‘ramiz. Qora rangni sezishimiz uchun u qarama-qarshi rangga tushishi kerak. Bunday aks etish kunduzi sodir bo‘ladi, chunki aks etishning sababi yorug‘likdir.

Anaksagor fikricha, inson sezgilarining sababini iztiroblanish tashkil etadi, ya’ni biror-bir narsani sezgi a’zolarining iztiroblanishi orqali his etish mumkin. U bilish jaryonidagi sezgilarning o‘mini juda sodda, mexanik tarzda tushungan bo‘lsada, bilish jarayonida aqlning faoliyatiga yuqori baho bergan. Oddiy moddiy zarrachalarni hissiyotimiz orqali emas, aqlimiz orqali fahmlab olamiz, ya’ni gomomeriyalarni ko‘rmasak ham, aqlimiz yordamida ularning borligini bilamiz, deb hisoblagan.

U inson aqlining taraqqiy etishida qo‘l mehnatining ahamiyati katta, degan fikrni ilgari surgan. Bu haqida Anaksagor bunday dejan: «Inson maxluqotlar ichida eng aqllisi, chunki uning qo‘llari mavjud».

Anaksagor falakiyot ilmi bilan ham shug‘ullangan. U o‘zining kosmogoniyasida ko‘kdagi jismlarning girdobli aylanishi tufayli yulduzlar, sayyoralar paydo bo‘lganligini isbotlashga intilgan. Anaksagor ta’limotiga ko‘ra, aynan girdobli harakat ko‘kdagi osmon jismlarini yerga tushib ketishdan saqlaydi. Oy o‘zidan nur taratmaydi, balki Quyoshdan olgan yorug‘lik tufayli nur sochadi. Oyning tutilishi Yer soyasidandir. U o‘z davrida Yerga tushgan meteoritni, Quyoshdan tushgan tosh deb tushuntirgan. U Quyosh

va yulduzlar cho‘g‘langan toshlar-jismlardan tuzilgan, deb taxmin qilgan.

Anaksagorning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari o‘zidan keyingi ilg‘or fikrlar rivojiga ijobji ta’sir ko‘rsatgan.

2-bo‘limning birinchi bobiga oid vazifalar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. «Antik falsafa» nima? U qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
2. Qadimgi yunon falsafasining o‘ziga xos asosiy xususiyatlari qanday?
3. Qadimgi yunon afsonalarida nimalar aks ettirilgan?
4. Qadimgi yunon falsafasining qadimgi afsonalardan farqi bormi?
5. Aristotel kimni «birinchi faylasuf» deb atagan?
6. Milet maktabi haqida nimalar bilasiz?
7. Fales ta’limotida dastlabki ibtido muammosi qanday yechim topgan?
8. Anaksimenneing kosmologik ta’limotiga ko‘ra, olamning markazida nima joylashgan?
9. Olov ibtidosini kim ilk bor olamning asosiga qo‘yan?
10. «Geraklitdan avval zardushtiylikning yozma manbai «Avesto»da olov olamning asosi deb qadul qilingan. Keyinchalik bu g‘oya Geraklit ta’limotining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan», degan fikrga qanday qaraysiz?
11. Geraklitning qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi haqidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?
12. Pifagor ta’limotiga ko‘ra, sonlar qanday ahamiyatga ega?
13. Pifagor va pifagorchilar ta’limotlariga ko‘ra, olamdagি va san‘atdagи go‘zallikning asosini nima tashkil etadi?
14. Pifagorning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlarining shakllanishiga Sharq madaniyatini yutuqlari qanday ta’sir ko‘rsatgan?

15. Eley falsafiy maktabining oldingi maktablardan farqi nimadan iborat?
16. Ksenofan Geraklit ta'limotiga qanday munosabatda bo'lgan?
17. Ksenofanning panteistik falsafasini qanday tushunasiz?
18. Aporiya nima?
19. Zenonning qanday aporiyalarini bilasiz? Ularning mazmun-mohiyati qanday?
20. Empedoklning borliq haqidagi ta'limotidagi evolutsionizm g'oyalarini qanday tushunasiz?
21. Empedokl kosmogoniyasida muhabbat va yovuzlik o'ttasida qanday nisbat mavjud?
22. Anaksagorning «Nus» haqidagi fikrlari nimani anglatadi?
23. «Gomomeriya» tushunchasini kim qo'llagan va u nimani bildiradi?
24. Anaksagorning gnoseologik ta'limotida, nima uchun aql yilgara nisabatan ustunlik qiladi?
25. Ilk antik falsafa rivojiga sharqda to'plangan tabiiy-ilmiy bilimlar, diniy-falsafiy g'oyalarning ta'sirini nimalarda ko'rish mumkin?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Falesning quyidagi fikrlarini qanday izohlaysiz?
 - Eng go'zal narsa nima?
 - Odam. Chunki, u Tangrining mahsulidir.
 - Eng tez narsa nima?
 - Aql. U hamma narsani ortda qoldiradi.
 - Hammadan donoroq narsa-chi?
 - Vaqt. Chunki yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlash-tiradi.
 - Hamma uchun eng umumiy narsa nima?
 - Umid. Chunki u hech vaqosi yo'qlarda ham mavjuddir.
 - Eng kuchli narsa nima?

- Zaruriyat. Chunki u hamma narsaning ustidan hukmronlik qiladi.
 - Eng qiyin narsa nima?
 - O‘zlikni anglash.
 - Eng oson narsa-chi?
 - O‘zgalarga maslahat berishlik.
 - Kimni baxtli sanash mumkin?
 - Jismoniy sog‘lom, ruhiy xotirjam hamda iste’dodini o‘stira olgan kishini.
 - Baxtsizlikka dosh berishning oson yo‘li nima?
 - G‘animlarning sendan-da yomon ahvolga tushib qolishiga guvoh bo‘lish.
2. Agar sendan ezbilik nima, deb so‘rasalar: amalda foydalilanilgan donishmandlikdir, deb javob ber (Pifagor).
 3. Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishi (Pifagor).
 4. Bilimlilik va donishmandlikni ayni bir narsa deb hisoblamang (Pifagor).
 5. Tabiat yashirinishni sevadi (Geraklit).
 6. Daryo suviga ikki marta tushish va oqish mumkin emas (Geraklit).
 7. Sezgilaringga ortiqcha ishonmay, fikr qil (Empedokl).

Prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular

1. Milet falsafiy maktabi va uning falsafiy tafakkur rivojida tutgan o‘rni.
2. Pifagor va Geraklit ta’limotlarining qiyosiy tahlili.
3. Zenon aporiyalarining falsafiy talqini.
4. Eley falsafiy maktabi.
5. Empedokl va Anaksagor falsafiy qarashlarini qiyosiy tahlili.
6. Anaksagorning bilish nazariyasi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Fales, Anaksimen va Anaksimandr ta'limotlari bo'yicha krogsvord tuzing.

2. Sharq falsafasini Geraklit ta'limotiga ta'sir qilgan jihatlarini toping va esse yozing.

TESTLAR

1. Nima uchun Aristotel ilk antik davr faylasuflarini «metafiziklar» deb atagan?

- A) fizikani yaxshi bilganlari uchun
- B) tabiatshunos bo'lganlari hamda olamning moddiy asosini topishga urunganlari uchun
- C) olamning tuzilishi haqidagi kosmogonik ta'limot yaratgani uchun
- D) dunyoqarashlarida sodda dialektika elementlari bo'lgani uchun

2. Gilozoizm qanday g'oyaga asoslanadi?

- A) moddiy olam to'rt unsurdan tashkil topgan
- B) hamma narsalar yaratilgan
- C) dunyo ilohiy juftliklardan yaralgan
- D) hamma mavjud narsalar ruhga ega

3. Falsafa qachon paydo bo'lgan?

- A) mil.avv. VII asr oxiri—VI asr boshlarida
- B) mil.avv. mil.avv. VIII asr oxiri—VII asr boshlarida
- C) mil.avv. mil.avv. VII asr boshlarida
- D) mil.avv. mil.avv. VI asr oxiri

4. Antik faylasuflardan kimlar gilozoizm g'oyasini ilgari surishgan?

- A) Parmenid va Zenon
- B) Geraklit va Anaksimen
- C) Fales va Empedokl

D) Pifagor va pifagorchilar ittifoqi vakillari

5. Quyidagi fikrlardan qaysi biri Gesiodga taalluqli?

- A) «Hamma narsadan avval xaos bo‘lgan»
- B) «Hamma narsaning yaratuvchisi okean»
- C) «Avval Yerda qotib qolgan suv va il bo‘lgan»
- D) « Sonlar narsalarning mohiyati»

6. Ilk qadimgi yunon afsonalari qachon yozilgan?

- A) mil.avv. VI asrda
- B) mil.avv. VIII asr oxiri–VII asr boshlarida
- C) mil.avv. VII asrda
- D) mil avv. V-IV asrda

7. Kim olamning asosini «apeyron» tashkil etadi, deb hisoblagan?

- A) Parmenid
- B) Anaksagor
- C) Anaksimandr
- D) Zenon

8. Metempsixoz bu ...

- A) ruhning kuchishi mumkinligini e’tirof etilishi
- V) ruhning abadiy emasligini e’tirof etilishi
- C) dunyoning yaratilganligi haqidagi ta’limot
- D) jon va tana haqidagi ta’limot

9. Ksenofan ta’limoti o‘z xususiyatiga ko‘ra...

- A) metafizika
- B) sodda dialektika
- C) sodda materializm
- D) panteizm

10. Qadimgi yunonliklarning ta’kidlashicha, Xudolar qayerda yashaganlar?

- A) Tartarda

10. Aksionaviy Olimp tog‘ida

- A) yorlurdan
- B) osmondu

11. Dunyoning asosini havo tashkil etadi, deb kim aytgan?

- A) Anaksimen
- B) Geraklit
- C) Anaksimandr
- D) Fales

12. Dunyoning dialektik rivojlanish qonunlariga ilk bor kim asos solgan?

- A) Fales
- B) Diogen
- C) Parmenid
- D) Geraklit

13. Falsafaga kim «borliq» va «yo‘qlik» tushunchalarini kiritgan?

- A) Sokrat
- B) Geraklit
- C) Parmenid
- D) Anaksagor

14. Pifagorga qaysi fikr tegishli ?

- A) «Bilim – kuchdir»
- B) «Kurash – barcha narsaning otasi»
- C) «Inson – barcha narsaning o‘lchovidir»
- D) «Sonlar hamma narsaning asosi»

15. Parmenid falsafasiga qaysi fikr tegishli ...

- A) «Borliq harakatsizdir»
- B) «Yer o‘z gardishi atrofida aylanadi»
- C) «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o‘zgaradi»
- D) «Sonlar narsalarning mohiyatidir».

16. Kim suvni moddiy olamning hirinchi asosi deb hisoblangan?

- A) Anaksimen
- B) Fales
- C) Levkipp
- D) Sokrat

17. Kim dunyoning asosiga 4 ta moddiy unsurni qo‘ygan?

- A) Anaksagor
- B) Demokrit
- C) Empedokl
- D) Fales

18. Falsafaga kim «nus» (aql) tushunchasini kiritgan?

- A) Anaksagor
- B) Anaksimen
- C) Anaksimandr
- D) Pifagor

19. Eley falsafiy mактабining namoyandalari kimlar?

- A) Ksenofan, Pifagor, Geraklit
- B) Ksenofan, Parmenid, Zenon
- C) Fales, Anaksimen, Anaksimandr
- D) Parmenid, Empedokl, Anaksagor

20. «Inson maxluqotlar ichida eng aqllisi, chunki uning qo‘llari mavjud», degan fikr kimga tegishli?

- A) Geraklitga
- B) Anaksagorga
- C) Anaksimandrga
- D) Falesga

Bob. ANTIK DAVRNING KLASSIK FALSAFASI

2.1. Sofistlar va Suqrot falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda sofistlar va Suqrot falsafasi bo‘yicha atroflicha va chequr bilim, tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish; ularda Suqrot falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish, tabiatiy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Sofistlar, gedonizm, mayevtika, ironiya, dialektika, baxt, sensualizm, axloqiy ratsionalizm, «inson-me’yor», demokratiya, aristokratiya, demos.

Asosiy savollar:


1. Sofistlar falsafasining shakllanishi.
2. Protagor ta’limoti.
3. Suqrot ijodida inson muammosi.
4. Suqrotning bilish nazariyasi.
5. Suqrotning axloqiy ratsionalizmi.
6. Suqrotchilar matabining falsafiy qarashlari.

Sofistlar ta’limoti: Qadimgi yunon faylasuflari uchun umumiylilik shundaki, ularning barchasi koinotni o‘rganib, uning yashirin sirlarini topishga harakat qilganlar. Koinotni jonli tabiatning, insonlarning ajralmas qismi deb qaraganlar. Shu tariqa sekin-asta inson haqida, uning koinotda, dunyoda tutgan o‘rnini haqida yangi fikrlar paydo bo‘la boshlagan, bir qator faylasuflar

inson muammosi bilan shug'ullana boshlashgan. Buning natijasida inson va uning ongi masalasi bilan shug'ullanuvchi alohida donishmandlar maktabi paydo bo'lgan. Ularning dastlabki asoschilari sofistlar edi. Sofistlar donishmandlik o'qituvchilari sifatida faoliyat ko'rsatishgan. (sofiya–donishmandlik demakdir). Protagor (mil. av. 490–420-yillar), Georgiy (mil. av. 480–380-yillar) ularning yirik vakillari hisoblanadilar (1-ilova).

1-ilova

Mumtoz antik davr falsafasining asosiy maktablari



Sofistlar inson hayoti, fikri, bilimi, bu bilimlarning ishonchli bo'lishi qoidalari haqida fikr yuritdilar. Ular insonlar o'rtasidagi axloqiy, huquqiy, siyosiy munosabatlarning shakllanishi haqidagi o'z ta'limotlarini ilgari surdilar. Odamlar bir-biriga munosabatda to'g'ri so'zlash, to'g'ri fikrlash qoidalarni tatbiq eta bilishi kerakligi haqida yoshlarga tarbiya berdilar. Sofistlar ritorika (so'z san'ati), grammatika, stilistikadan dars berdilar. Yoshlarni boshqalar bilan muloqotda, sud ishlarida, siyosatda qanday


bo'lishga, o'z fikrini aniq, to'g'ri, ishonarli qilib idoitalibqa o'rgatdilar. Maktablarda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishor ekan, ishontirish san'ati, fikrlash usullari, bilim o'sani mi bilan shug'ullanishni birinchi o'ringa qo'ydilar. Bilish nazariyasida inson his-tuyg'ularining roli, ularning bilimlari, buqqaq nisbiy nisbiyini ekanligini batafsil tahlil qildilar.



Bilishning sohibi (subyekti) inson ekanligi, inson bilimlarining roli, bunda inson aqli va irodasining ahamiyati haqidagi g'oyani maydonga tashladilar. **Protagor** butun borliq, barcha narsalar inson aqli ko'zgusidan o'tishi kerakligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha, inson barcha narsaning me'yordir. U inson va uning ongini ulug'lar ekan, har qanday narsa insonni qoniqtirsagina yaxshilik, ezgulikdir; insonni qoniqtirmasa, uning iztirobanishiga olib kelsa, bu yomonlik deb hisoblagan. Sofistlar yaxshi, yomon, foydali yoki foydasiz kabi funhunchalarning mezonini alohida shaxs va uning hissiy moyilligi bilan bog'liq holda tushuntirganlar. Bilish nazariyasida nisbiylik (relyativizm) nuqtayi nazarini himoya qilganlar. Huquq me'yorlari, davlat siyosati,adolat yoki adolatsizlik masalalariga ham nisbiylik nuqtayi nazaridan qaraganlar. Inson hamma narsaning me'yori ekan, davlat masalalari ham insonga bo'lgan adolatlilik yoki adolatsizlik me'yori bilan belgilanishi zarur, degan xulosa kelganlar.

Platon «Teetet» dialogida Protagorning alohida olingan fikrining hissiy idroki to'g'risidagi fikri talqinini ma'qullaydi. Buqrotning ta'kidlashicha, esayotgan shamol birimizga sovuq, borhqaga iliq bo'lib tuyuladi. Protagor fikricha, shamol kimgadir sovuq qotayotganligi uchun sovuq, kimgadir unday emasligi uchun – ilikdir. Bunda Protagor fikrining umuman inson uchun emas, muiyyan shaxs uchun bildirilayotgani shubhasiz. Protagor fikricha, sovuq kunda yomg'irdan uyga kirgan kishi uchun yomg'ir – iliq, issiq xonadan tashqariga chiqqan kishi uchun yomg'ir – sovuq tuyulsa, har ikkala mulohazani to'g'ri deb qabul qilish zarur. Uningcha, yomg'ir mening sezgi a'zolarim uchun

iliq, boshqa kishiniki uchun –sovuz. (Bir kuni sofistga geometriya qonunlari barcha uchun birdek emas deganlarida, Protagor shaffof sharoitda geometrik chiziqlar ham, aylanalar ham yo‘q, shuning uchun hech qanday qiyinchiliklar kelib chiqmaydi, deb javob beradi)¹⁶.



Hayoti: *Suqrot* (tax.mil.av.470–399yy.) sofistlar mактабида о‘qigan, keyinchalik ularни keskin tanqid qilgan. Suqrotning hayoti fojiali tugagan. Afina davlati sudi uni yoshlarni yangicha fikrlashga, eski an’analarni buzishsga, o‘tmish xudolariga itoat etmay, yangi xudolarga ishonishga chaqirishda ayblab, o‘lim jazosiga hukm qilgan. U Afinadan chiqib ketib, o‘lim jazosidan qutulish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, o‘z diyorini, do’stlarini tashlab ketmasdan o‘limni mardona kutib olgan.

Ta’limoti: falsafada inson muammosiga katta e’tibor beradi. Suqrot falsafasining asosiy mazmuni inson, uning ongi masalalariga qaratilgan. U inson qadr-qimmati, ma’naviyati, axloqi, go‘zalligini tahlil qilar ekan, shaxsning ongi, uning bilishi masalasiga alohida e’tibor beradi. Suqrot insonning o‘zligini bilishi falsafada muhim bo‘lib, falsafaning o‘rganish obyektnini tashkil etadi, deb ta’kidlaydi (2-ilova).

2-ilova

Suqrotning asosiy maktablari

Maktablар	Yirik namoyandalари
Megar mактаби	Megarlik Evklid
Eliido-yeritrik mактаби	Eliadalik Fedon
Kinik mактаби	Antisfen, Sinoplik Diogen, Kratet, Menedem
Kiren mактаби	Kirenlik Aristipp

¹⁶ Qarang:Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.87

Chumg o‘zingni bill!» degan mashhur hikmatli iborasi falsovi tarafida tanqiyotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki o‘zligini yerpa urish, tubanlashish, nodonlikdan boshqa narsa emas, o‘zligini bilish, o‘zini yuqori tutish donishmandlikdir, bujan edi.

Copleston yozishicha: Suqrot o‘ttiz yoshida ioniyaliklar kosmologiyasidan haffsalasi pir bo‘lib, insonni o‘rganishga tashabbi. U o‘zini qiyagan savolga javobni bexosdan Anaksagoring, tabiat qonunlarining va olamdagagi tartibotning birlamchi tababi Aqldir, degan fikridan topadi. Bundan quvongan Suqrot qidoy qilib Aql borliqdagi tartiblanganlikni yaratganligini bilish uqiddida Anaksagor ta’limotini o‘rganishga kirishadi. Lekin u Anaksagoring Aql tushunchasini girdobli harakatni tushuntirish uchun kiritganini bilgach, unga munosabati o‘zgaradi va turli qarashlar va ixtiloflar tufayli naturfalsafaning boshi berk ko‘chaga turib qolganini payqaydi, undan yuz o‘girib, boshqa tadqiqot premetiga murojaat qiladi.¹⁷

Suqrot ongning subyektiv tomoninigina emas, balki uning obyektiv mazmunini ham ko‘rsatib berdi. Inson o‘z ongining mazmunini, mohiyatini, o‘zligini bilish asosida boshqalarni, dunyoning mohiyatini, yashashning ma’nosini bilib boradi, deydi. Suqrot o‘z sikriy salohiyati bilan haqiqat, adolat haqidagi eski qarashlarni yangicha tahlil qildi. Uning fikricha, adolat davlat tizimi tomonidan olib boriladigan yaxshilikdir. Suqrot yaxshilik, adolat kabi tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qildi. Mutafakkir falsafasining asosida inson, uning hayoti, maqudi, adolatli jamiyat yotadi. U yaxshilik va yomonlikni odamlar bilan muloqot orqali suhbatlashish orqali aniqlash mumkin, deydi. Uning fikricha, falsafa bilimlarni sevish haqidagi ta’limot ekan, ana shu bilimlar inson axloqiy faoliyatini yoxsibiliden qaratish asosida namoyon bo‘ladi. Suqrot falsafasida axloqiy rationalizm asosiy o‘rinni egallaydi.

Inson haqiqatni qancha chuqurroq bilsa, u yomonlikka qo‘l urmaydi. Yomontik haqiqatni bilmaslik natijasida paydo bo‘ladi,

¹⁷ Chumg - Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland. 2003 p 96-97

deb ko'rsatadi. Demak, axloqiy kamolotning manbai ham bilim, ya'ni haqiqatni bilishdir. Yaxshi davlat arbobi, adolatparvar hukmdor ham bilimdon, donishmand bo'lishi kerakligini aytadi. Bilim va shu asosdagi yaxshilik insonni baxtli qiladi, deydi donishmand. Mana shu ruhda hamma shogirdlariga ta'lim va tarbiya beradi. Ularni yangicha fikrashga, yaxshilik qilishga undaydi.

2.2. Levkipp va Demokritning atomistik falsafasi

Mavzuning o'quv maqsadi:


Talabalarda Levkipp va Demokrit falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Demokritning atomistik ta'limotini olamning ibtidosi haqidagi boshqa ta'limotlar bilan qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Atom, bo'shliq, tasodif zaruriyat, «birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlar, ratsional bilish, evtyuma, me'yor, go'zallik.

Asosiy savollar:

1. Levkippning olamning asosi haqidagi falsafiy qarashlari.
2. Demokritning ontologik ta'limoti.
3. Demokritning bilish nazariyasi.
4. Demokritning axloqiy qarashlari.



Hayoti va ta'limoti: Levkipp miloddan avvalgi 500–440-yillarda yashagan deb taxmin qilinadi. Levkipp ta'limotiga ko'ra, atom bo'linmaydigan juda kichik, ko'zga ko'rinas zarracha bo'lib, mutlaq bo'shliqda harakat qiladi. Barcha narsalar shu zarrachalardan tashkil topgan bo'lib, olamdagи hech bir narsa yoki

Demokritning Demokrit bo'sil bo'lmaydi. Levkipp olamdagи narsalarning hammasi ma'lum obyektiv zaruriyat asosida kelib chiqadi deb ko'ldigan.

Hayoti: Abderda Levkipp ta'limotini davomchisi uni o'shatirib yuqori pog'onaga ko'targan qadimgi yunon faylasufi *Demokrit* miloddan avval 460–370-yillarda yashab, ijod etgan. Davlatni Frakiyadagi yirik savdo markazi Abder shahrida tuf'dean. Xushchaqchaq, o'tkir zehnli Demokrit Sharq mamlakatlariga – Hindiston, Bobil, Misrga sayohat qilib, ularning ur'odatlari, san'ati va adabiyoti, falsafasi bilan tanishib, o'z talimlarini boyitgan.

Asosiy asarlari: Demokrit ko'p asarlar yozgan, ammo ulardan tuf'pacha faqat ba'zi bir parchalar yetib kelgan. Demokritning eng muhim surʼi asari «Buyuk Diakosmos»dir. U o'z ishlarida falsafa, mantiq, matematika, fizika, biologiya, kosmologiya, ijtimoiy iurmush, psixologiya, axloq, pedagogika, filologiya, san'at kabi bilim sohalariiga doir o'z qarashlarini bayon qilgan.

Ta'limoti: Demokrit ta'limotiga ko'ra, olamning asosi **ikki boshlang'ich**: atomlar hamda bo'shliqdan tashkil topgan. Atom ba'limmaydi, eng kichik bu zarracha hech o'zgarmaydi, lekin qolmo harakatda bo'ladi. Ular ham son-sanoqsiz, ham abadiydir, atomlar bir-birlaridan shakli, katta-kichikligi, tartibi bilan ajralib turdi. Demokrit ularning hid, rang, maza singari xususiyatlari shartli, ular narsalar tabiatiga xos emas, deb faraz qilgan.

F. Copleston fikricha: Diogenning “Levkipp hayoti” asaridan mi'munki, u Zenon shogirdi bo'lgan. Unda yozilishicha, abderalik Demokritiga tegishli deb hisoblangan “Buyuk Diakosmos” asari aslida Levkipp qalamiga mansubdir. Bernet bu traktatning ba'zi qismi Demokritga, ba'zi qismi Gippokritga tegishli ekanligini va ulurni bir-birlaridan farq qilishning umuman iloji yo'q ekanligini qayd etib, ayni haqiqatni aytgan. Bu asar atomistik maktab yozuvchilarining jamoaviy mehnati bo'lsa kerakki, aslida biz kim qayni qamni yozganligin bila olmaymiz¹⁸.

¹⁸ Odatiga Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.72

Demokrit fikricha, atomlarning qo'shilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, atomlarning ajralishidan esa bor narsalar yo'q bo'ladi. Abadiy son-sanoqsiz atomlar bepoyon bo'shliqda harakatda, ular har tomonga intilib, bir-birlari bilan to'qnashadi va girdobli atom harakatini hosil qiladi, natijada ko'p dunyolar yo'qolib, ko'plari paydo bo'lib turadi. Hech nimadan hech nima hosil bo'lmaydi. Hamma narsa abadiy son-sanoqsiz atom bilan cheksiz bo'shliqdan iborat, ulardan behisob dunyolar paydo bo'lib turaveradi. Ushbu holat xudolarning xohishi, istaklari bilan emas, balki tabiiy zaruriyat yo'li bilan sodir bo'ladi. Sababsiz hech bir narsa, hech bir hodisa yo'q bo'lmaydi. Barcha narsa va hodisalar o'z sababiga ega va zaruriyidir. Insonlar hodisa yoki narsalarning sababini bilmaganlari uchun ham ularni tasodif deb hisoblaydilar.

Levkipp bilan Demokrit ta'limotlariga ko'ra, dunyo harakat-dagi atomlardan, materiyadangina iborat. Lekin shuning bilan bo'shliq ham bor, real mavjud. Chunki son-sanoqsiz atomlar cheksiz bo'shliqda turli yo'nalishda - yuqoriga, pastga, o'ng va so'l tomonlarga harakat qiladilar. Atomlardan – ushbu yagona **substansiyanidan** hamma narsalar kelib chiqadi, o'z navbatida ushbu atomlarga qaytadi. Demokrit fikricha, atomlar barcha narsa, hodisalarning sababchisi, asosidir. Ular bir sifatli, kichik zarrachalardir. Ko'zga ko'rinas bu zarrachalar yuqori va quyi harakatlari, bir-biriga urinishlari, birlashishlari, qo'shilishlari, tebranishlari, siqilishlari, ajralishlari va birga bo'lishlari tufayli murakkab jismlarni, shu jumladan, inson tanasining hissiyotini ham keltirib chiqaradi.

U shuningdek, Quyosh va Oy yaltiroq – tekis ham yumaloq atomlarning to'planishidan kelib chiqqan, olovli qattiq jismlardan hosil bo'lgan Oyda vodiylar, tog'lar, jarliklar bor, deb hisoblagan.

G'ayritabiyy kuchlarning mavjudligini inkor etib, Demokrit jon haqida materialistik ta'limotini yaratgan. Jon bu yumaloq, harakatchan, alangadek juda yengil atomlardan, ularning qo'shilishlaridan hosil bo'ladi deb tushuntirgan va jonne olovli, issiq, kishi a'zosidagi «o'tli boshlang'ich» deb hisoblagan. Shu sababli, Demokrit o'lim bu tana atomlarining jon atomlaridan tabiiy ajralishi, jon ham tana kabi o'ladi, deb aytgan.

Demokritning bilish nazariyasiga ko'ra, «fikran» va «chin-
tasi» mavjud sifatlar bor. «Chindan» mavjud sifatlar: atom va
bo'shliqdir. Ular atom va bo'shliqqa xos xususiyatlar: hajm, keng-
lik, be'lummaslik, harakat, shakldan iboratdir. «Fikran» mavjud si-
fatlarga rang, ta'm, hid, tovush, sovuq, issiq kabilar kiradi. Bu
«chindan» mavjud atom bilan bo'shliqqa xos emas.

Demokrit hissiy sezishni, hissiyotni bilishning birinchi bos-
qichi deb hisoblaydi, u insonda sezish, his, hissiyot, tuyg'u –
narsalardan chiquvchi yengil-nozik oqimlar, obraz, surat-idollar
eqimining havoga ta'siri tufayli inson ularni ko'radi, mana shu
idollarning kishi sezgi a'zolariga ta'siridan insonda his, sezgi,
tuyg'u paydo bo'ladi, deydi. Shu tarzda Demokrit, inson bili-
shining birinchi bosqichi kelib chiqishini izohlaydi. Demokrit bu
hissiy bilishni «qorong'i bilish» deydi. Chin bilish, haqiqatni
englash aql faoliyatidan boshlanadi. Aql orqali bilish – eng
yuqori, eng chuqur, eng to'g'ri bilishdir, deydi Demokrit.

Demokrit shubhasiz hissiy va aqliy bilishni birlikda ko'radi. U
o'z bilish nazariyasi bilan birlikda mantiq masalalarining muhim
qamalarini birinchi marotaba ishlab chiqdi, tushuncha, tasavvurni
izohlab berdi. Demokrit induktiv–mantiq, ya'ni xususiydan
umumiya ga ko'tarilish – umumiyl, nazariy bilimlarni yakka,
imprik axbortlardan olish uslubining asoschisi bo'ldi. Demokrit
bilishning induktiv usulini har taraflama asoslab, tabiat
hodisalarini tadqiq etishda taqqoslash hamda taxmin qilishning
muhim ahamiyatini qayd etgan, bilishda tajribaning o'rmini to'g'ri
ko'ratib bergen.

Demokrit diniy aqidalarni rad etib, xudolarga e'tiqod insonda
tabiatning dahshatli hodisalari ta'sirida paydo bo'ladi deydi.
Yashin, chaqmoq chaqishi, yulduzlarning uzilishi, so'nishi,
Oy tutilishi, yer qimirlashi kabi hodisalar kishilarda
qo'rquv tug'diradi. Demokrit xudoga, ilohiy kuchga sig'inish,
saqda etish mana shular natijasida kelib chiqqan deb taxmin
qilgan. Demokrit har qanday ilohiy mo'jizani rad etib, inson o'z
sog'lig'ini saqlashga o'zi qodir, kishi o'z ehtirosini chegaralab
o'z o'zini idora etsa, o'z sog'lig'iga oqilonqa munosabatda bo'lsa,
bozilikka rioya qilsa, doimo salomat bo'ladi, deb hisoblagan.

Demokrit ijtimoiy voqealarni naturalistik tabiiy nuqtayi nazardan tahlil etishga intilgan. Demokrit siyosiy faoliyatni ajoyib san'at deb bilgan. U savdogarlik, hunarmandchilikni rivojlan-tirishni qo'llab-quvvatlagan. Demokritning axloq qoidalari o'z zamoni uchun ahamiyatlari bo'lgan. U o'rta quvvatlar tomonida turib, mo'tadillik g'oyasini ilgari surib: «*Hamma narsada me'yor – go'zallikning asosidir. Ortiqchalik va kamu ko'stlik menga noma'quldir*», degan.

Faylasufning axloqiy qarashlari siyosiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqidir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat Buyuk qo'rg'onadir. Davlat manfaatlari, qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Hayotning maqsadi, deydi Demokrit, ruhning yaxshi joylashishidir. Bu maqsad yosh-qariga barobardir, farovonlik va zulm haqidagi tushuncha obyektiv va barcha kishilar uchun birdir. «*Bir kishiga bir narsa yoqimli bo'lsa, ikkinchi kishiga ikkinchi narsa yoqimli bo'ladi, biroq barcha kishilar uchun yoqimli va farovon, haqiqat bittadir*». «*Rohat – bu yuzaga keltiruvchi foyda alomatidir, rohatsizlik-ziyonlikdir*», – deydi Demokrit.

Ruhning yaxshi joylanishi baxt bilan aynan bir narsa emas, balki jonning hech narsadan qo'rqlay osoyishta va xotirjam yashashidir. «*Evy yumaga*» inson o'z rohatini o'tkinchi narsa bilan bog'lamagan taqdirdagina erishishi mumkin. Demokritning axloqiy ta'limotida inson ma'naviyatini harakatlantiruvchi kuch aqldir. Aql bilan yo'l tutgan inson baxtga erishishi mumkin, noto'g'ri harakat baxtsizlik keltirishi mumkin. Insonning barcha ahmoqona, xato xatti-harakatlarini ilmsizlikdan deb biladi. Insonni na jismoniy kuch va na boylik baxtli qiladi. Insonni faqat haqiqatni bilish va ko'p qirrali donolik baxtli qiladi. Donolik uch xil hosil keltiradi. 1. *Yaxshi fikrlash*. 2. *Yaxshi so'zlash*. 3. *Yaxshi harakat qilish*. Birinchisi ruhiy tetiklikni ta'minlaydi. Yaxshi fikrlash, demak, narsalar haqida to'g'ri hukm chiqarishdir. Ikkinchisi samimiylilik, haqqoniylididan iborat «*so'z ishning g'oyasidir*». Uchinchisi donishmandlik va ezbeglikni keltiradi. «*Kishi ezgu ish to'g'risida chiroyli gapiresh o'miga, ezgu ishlarga va xatti-harakatlarga intilishi kerak*. Natijada donishmand

«...aynali kishiga aylanadi, aksi esa chuqur, nodonlik mevasidir». *Demokritning ma’naviy tizimini aniqlovchi tamoyilni, yani kishilar o‘z ehtiyojlarini mo’tadil qilishlaridir. Me’yor hush – deydi Demokrit, – ezgu va baxtli hayat uchun zarurdir. Harcha go ‘zallik o’rtachalikdadir.*

Demokritning axloqiy qarashlari tarixan cheklangan. Masalan, uning qullarga munosabati salbiy bo‘lgan. Qullar, uning fikricha, ilgari surgan axloqiy qoidalardan mahrumdir. Uning axloqiy qoidalari jamiyatning erkin kishilarigagina taalluqlidir. Qul esa jonli quroldir.

Uning fikricha, o‘z dushmani oldida kuchli bo‘lgan kishi kuchli hisoblanmaydi, balki *o‘z xohishlarini tiya oladigan kishigina kuchlidir*. Shunday kishilar borki, shahar ustidan hukmronlik qiladi, lekin ayollari oldida qulga o‘xshab ta’zim qiladilar. Demokritning axloqiy qarashlari o‘z davridagi ijtimoiy, ma’naviy munosabatlarning umumlashmasidir.

Demokritning merosida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, odob-axloq, e’tiqod, vijdon va boshqa oljanob insoniy tuzilatlarni shakllantirishga oid qimmatli fikrlar mavjuddir. Ularning ba’zilari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

2.3. Platon falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda Platon falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Platon falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Platon Akademiyasi, «g‘oyalar dunyosi», «g‘oyalar piramidasи», dialektika, «Ideal davlat».

Asosiy savollar:

1. Platon falsafasining shakllanishi.
2. Platonning g‘oyalar dunyosi haqidagi idealistik falsafasi.
3. Platonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.



Hayoti: *Platon* miloddan avvalgi 427–347-yillarda yashagan. U Kodr deb atalmish shoh urug‘i naslidan kelib chiqqan hamda o‘zining kelib chiqishi bilan juda mag‘urlangan.

Asarlari: «Bazm», «Fedon», «Teetet», «Davlat», «Parmenid», «Sofist».

Ta’limoti: Platon uch marta Janubiy Italiyaga, Sitsiliyaga, Sirakuzga sayohat qiladi, u yerdagi pifagorchilar ittifoqi bilan hamkorlikda quldar aristokratiyasini quvvatlab ish ko‘radi, yana Afinaga qaytib keladi. Afinada afsonaviy qahramon Akademga bag‘ishlangan Parakda bog‘ida o‘z shogirdlariga dars beradi. Shu tarzda qadimgi faylasuflarning bosh muassasasi – Akademiya tashkil qilinadi.

Platon avval Kratildan, keyin Suqrotdan ta’lim olib, o‘z falsafiy tizimini asoslaydi. O‘zining mashhur dialoglarida o‘z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtayi nazarini bayon qiladi. Platon o‘zigacha bo‘lgan barcha falsafiy-idealistik fikrlarni jamlab, o‘zining yangi falsafiy ta’limotini shakllantiradi. Platon falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 1- ilovada keltirilgan.


Platon o‘zining tugallangan falsafiy tizimini bayon qiladigan asar *nashr etmagan* bo‘lsada, uning fikri yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi va oldida turgan muammolarni hal etishi davomida rivojlanib borgan¹⁹. Platon ta’limotiga ko‘ra, narsalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi mavjud. Narsalar dunyosi o‘tkinchi, vaqtincha, ko‘rimsiz, ammo g‘oyalar dunyosi doimiy, o‘zgarmas, chin go‘zal dunyo. Uning fikricha, narsalar g‘oyalar dunyosining soyasi, xira namoyon bo‘lishidir (2-ilova).

¹⁹ Qarang : Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p.127-128

Platon «Davlat» asarining VII kitobida bu haqida shunday bir tajribalash orqali o‘z nuqtayi nazarini bayon qiladi. Qorong‘u u o‘t, u g‘orda kishanlangan mahkum kishilar yotishibdi, ular hech qaysi tomonga aylana olmaydilar, shu holda g‘orning kichik bir tuynugidan tushgan so‘nar-so‘nmas yorug‘likdan ushbu tuyruk vonidan qo‘lida narsalari bilan o‘tayotgan shaxslarning soyasinigina kuzatadilar, ammo ko‘rinayotganlar kimlar ekanligini, ularning qo‘lida nimalar borligini aslo bila olmaydilar. Xuddi shunday bu dunyo, narsalar va g‘oyalar dunyosining, toza, pok, doimiy, abadiy go‘zal, so‘nib-so‘nmas, xira soyasidir, deydi Platon.

I-ilova

Platon falsafasining g‘oyaviy asoslari va ta’siri



Platon jonni tanadan mustaqil mavjud, alohida o'lmas ruhiy, ilohiy hisoblaydi. Jonlar dunyosi g'oyalar dunyosiga yaqin, shuning uchun ular vaqtı-vaqtı bilan ular – jonlar, narsalar dunyosiga, masalan, insonlar tanasiga kelib kiradilar hamda kishilar tanasida bo'lganlarida ular g'oyalar dunyosi soyasi bo'lgan narsalar dunyosini ko'rib avvalgi ko'rghanlari, huzurlanganlarini eslay boshlaydilar. Shu tariqa eslash – «xotirlash», ya'ni bilish hosil bo'ladi, deydi Platon.

2-ilova

G'oyalar piramidasи



Platon jonni ruhiy, ilohiy, doimiy, abadiy o'lmas deydi. U inson o'lqandan keyin jon ham o'sha yulduzlar dunyosiga qaytib, go'zal g'oyalar dunyosidan ta'sirlanishi mumkin yoki o'lgan odam tirikligida narsalar dunyosiga berilib dinni, xudoga ibodatni buzgan bo'lsa, uning joni yulduzlar olamiga qaytmaydi, jazolanib hayvondan-hayvonga o'tib azobda bo'ladi, deydi Platon.

Platon o‘z asarlarida, masalan «Davlat» kitobida qo‘llagan uslubini «dialektik» uslub deydi. Dialektikaga u shunday ta’rif beradi: «Dialektika kishilarni savol-javob bera bilishiga o‘rgatadi». Platoncha, dialektika savol va javob bera olish san’atidir. Uni surʼusam, nutqda qo‘llash muhim ahamiyatga ega, deydi u. «Adolat», «go‘zallik» va «qaramnlilik»ni ifodalash va tashviq etishda dialektikaning favqulodda muhimligini Platon qayd etgan. Platonning dialektikaga oid fikrlari mantiq ilmi rivojiga ham xizmat qildi. «Parmenid» kitobida Platon tushunchalar, umumiylik, shaffof, ayniyat va qarama-qarshilik, ko‘plik va yakkalik kabi masalalarni mistik ta’limoti ruhida ishlab chiqqan hamda shu tababdan dialektika vakili bo‘lib tarixda o‘z nomini qoldirgan.

Platon o‘z kitoblarida, birinchi navbatda, «Davlat» kitobida hokimiyat, uning shakllari, aholisi, tabaqa va sinflar to‘g‘risida ham gapiradi. Axloq-xulq nazariyasida Platon, aql-donolik, erk-botirlik, jasurlik, hissiylik-oqilonalik kishi xatti-harakatida namoyon bo‘ladi, deydi. Adolatlilik esa yuqorida zikr qilingan uch xislat – donolik, botirlik, oqilonalikning uzviy, mutanosib qo‘shilishidan tashkil topadi, deydi Platon.



Platon o‘zining «Ideal davlat» utopiyasida jamiyatda uch tabaqa: hokimlar-faylasuflar, harbiylar, dehqon va hunarmandlar bo‘lishini aytadi. Davlat hokimiyati oqsuyaklar-faylasuflar qo‘lida bo‘lishi shart. Harbiylar-yollanma qo‘riqchilar – davlat apparati xodimlari quldorlar hokimiyatini himoya qilishlari darkor. Dehqon va hunarmandlar davlatga hamma zarur narsa-mahsulotlarni tayyorlashlari lozim. Platon qullarni hatto odamlar qatoriga qo‘shmaydi, ularni ma’naviy hayotdan mahrum maxluqlar deb ataydi.

Platon yoshligida rassom, yozuvchi bo‘lish niyatida edi, keyinchalik u faylasuf sifatida kamol topgan. Shuning uchun ham u o‘z falsafiy kitoblarida ko‘p badiiy obrazlar, uslublarni qo‘llaydi. Sharq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasi tarixida ham Platon ta’limotining ta’siri katta bo‘lgan. Platon chuqur bilimli hakim sifatida yuksak darajada qadrlangan.

2.4. Aristotel falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda Aristotel falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Aristotel falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni hamda falsafiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Likey, peripatetiklar, «yaratuvchi sabab», «oxirgi sabab», «birinchi harakatlantiruvchi», harakat turlari, mantiq kategoriyalari, fanlar tasnifi, nazariy falsafa, amaliy falsafa, ijodiy falsafa.


1. Aristotel falsafasining shakllanishi.
2. Aristotelning borliq haqidagi falsafiy ta’limoti.
3. Aristotelning bilish nazariyasi.
4. Aristotel fanlarning tasnifi haqida.



Hayoti: Aristotel miloddan avvalgi 384–322-yillarda yashab, ijod etgan. U Stagira shahrida otasi Makedoniya shohi Alintin saroyida shifokor bo‘lib xizmat qilgan. Aristotel yoshligidan madaniyatli oilada tarbiyalanib o‘sgan hamda o‘n yetti yoshida Afinaga kelib Platon akademiyasiga o‘qishga kirgan, yigirma yilcha ushbu akademiyada ta’lim olgan. Platon bilan ko‘p masalalarda munozara qilgan, oqibatda Platon nuqtayi nazarini rad qilgan. Platon vafotidan so‘ng u akademiyani tashlab, Afinada o‘z maktabi – Likeyni tashkil qiladi. Miloddan avvalgi 343-yildan boshlab, Aristotel bir necha yil Iskandar Zulqarnaynning tarbiyachisi bo‘lgan. Aristotel falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 1- ilovada keltirilgan.

Asosiy asarlari: «Fizika», «Metafizika», «Jon to‘g‘risida», «Kategoriya», «Analitika», «Topika», «Organon». Aristotelning tabiiy-ilmiy qarashlari uning «Fizika», «Osmon haqida», «Meteorologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kitoblarida bayon qilingan.

Aristotel ta'limotining g'oyaviy asoslari va ta'siri




Ta'limoti: «Metafizika» – «Birinchi asar»ida Aristotel to‘rt xil sabab haqida fikr yuritadi: 1) moddiy sabab; 2) shakliy sabab; 3) yaratuvchi sabab; 4) maqsad sabab. Aristotel fikricha, modda, materiya har bir narsaning «so‘nggi» substrati – materialidir. Har bir narsa undan hosil bo‘ladi. Narsa tarkibiga kiruvchi materialdan, masalan, misdan haykal, kumushdan idishlar, loydan sopol yasaladi. Bu moddiy sababdir. Shakl ikkinchi sabab bo‘lib, har bir narsaga shakl ato qiladi. Agar shakl bo‘lmasa mis, kumush, loy qanday material holida bo‘lsa shunday qolaveradi. Aristotel fikricha, shakl faol sababdir. U shaklni hattoki borliqning ma’nosi ham deydi. Aristotel moddani passiv, faqat imkoniyat bo‘lib, u shakllanibgina ro‘yobga chiqadi deb hisoblaydi.

Agarda materiya va shakl «marsalar nimadan tuzilgan» degan savolga javob bersa, «yaratuvchi sabab» «nima qilinayapti» degan savolga javob qaytaradi. Masalan, ota bolaning sababchisidir, shunga o‘xshash nima qilinishi, nima qilinayotganini sababi, nima o‘zgarsa, nima o‘zgarganining sababidir. «Oxirgi sabab» – «maqsad» Aristotel tasavvurida «nima uchun» tabiat hodisalarining kelib chiqishini ifodalaydi. Shuning uchun har bir tabiiy hodisada Aristotel ichki azaliy maqsad – entelexiyani ko‘rdi.

2-ilova

Aristotel: birinchi harakatlantiruvchi va harakat



Aristotel tabiatni harakat va taraqqiyotda, imkoniyatni esa vogelikku aylanish jarayoni deb tasvirlaydi. Uning fikricha, butun olam o‘z harakatini – «birinchi harakatlantiruvchidan» oladi. Bu tiki keyingi o‘rta asr faylasuflari uchun g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qildi (2-ilova).

Aristotel olamni bilishda avvalo inson sezgisining roli to‘g‘risida gapirib, hamma seziladigan va sezgi uyg‘otadigan narsalar tashqarida mavjud, degan xulosaga keladi (3-ilova).

3-ilova

Aristotel: bilish bosqichlari haqida

<i>Bilish bosqichlari</i>	<i>Bilish predmeti</i>
1. Alovida narsa va xususiyatlarni <i>hissiy qabul qilish</i> .	Yagona shaffof narsalar.
2. <i>Tajriba</i> – bir predmet haqida takroriy xotiralar.	Alovida konkret narsalarning ko‘pligi.
3. <i>San’atkorlik</i> (ustalik) – ko‘p narsalarning mohiyatini bilish.	Ko‘plikdagi umumiylilik, ularning sabablari va maqsadi, ya’ni shakllari.
4. <i>Falsafa</i> (fan) – eng oliy birinchi falsafa, ya’ni metafizika.	Oliy shakllar, butun mavjudlikning birlamchi sababi va oliy maqsadi.

Aristotel nazarida ayrim sezgilar kishi dilida jam bo‘lib, takrorlanib umumiylikka yo‘l – tasavvurni hosil qiladi. Inson aqli ayrimlikdan xususiylikka o‘tishda, xususiylikdan umumiylikni topishda namoyon bo‘ladi. Demak, inson ayrim buyum va hodisalarning shaklini sezishdan, xususiylikka, so‘ngra aqli, nazariy bilim vositasida umumiylikni bilishga erishadi. Zotan narsalardagi, hodisalardagi umumiylikni bilish, sezishning ishi emas, balki aql, tafakkur, nazariy bilishning, fanning vazifasidir (4-ilova).

Aristotelning fandagi muhim xizmatlaridan biri shuki, bu uning harakat turlari va taraqqiyot shakllari to‘g‘risidagi nuqtayi

nazaridir. Uningcha, olti xil harakat, olti tur umumiy o'zgarish bor:

- a) mohiyatdagi o'zgarish: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish;
- b) tor ma'noda o'zgarish: 3) bir holatdan boshqa holatga o'tish – sifatiy o'zgarish; 4) ko'payish; 5) ozayish – miqdoriy o'zgarish; 6) joy almashuvi, hol o'zgarishi.

Aristotel mantig'ida, uning kategoriyalari haqidagi ajoyib ta'lomitlarida ko'p ma'no, chuqur mazmun bor. U kategoriyalarni birinchi marotaba quyidagicha tavsiflaydi: 1) mohiyat; 2) miqdor; 3) sifat; 4) munosabat – katta-kichik; 5) o'rinn; 6) vaqt; 7) holat, o'tirish, turish, yotish; 8) egalik; 9) ta'sirlanish; 10) iztiroblanish.

Aristotelning koinot haqidagi ta'lomi ham o'z vaqtida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Aristotel Oy va Yerning yumaloqligi to'g'risi la fikr yuritgan. U 500 ga yaqin hayvon turlarini o'rganib ularni qonli va qonsizlarga ajratgan.

San'at Aristotel fikricha, tabiatga taqliddir, biroq faqat taqlidgina emas, voqelikni obrazda qayta ishlash bilan falsafadan, tabiiy fanlardan, tarix ilmidan farq qiladi. Demak, Aristotel san'atni bilish vositali, voqelikni, hayotni, ijtimoiy turmushni anglash yo'li deb bildi va ta'rifladi.

Aristotel mo'tadillik, o'rta holchilik tarafdori bo'lib, o'ta boy va o'ta qashshoq bo'lishdan o'rtahollik yaxshiroqdir; hokimiyat, davlat ham quidorlarning o'rta tabaqasi tomonidan idora qilinishi kerak, degan g'oyalarni ilgari surgan.

Aristotelning axloqiy qoidalari uning iqtisodiy nuqtayi nazari bilan ulanib ketadi. Aristotel iqtisod fanining asosiy masalalaridan ayrboshlash, qiymat shakllari, ekvivalent formalari, mehnat, tenglik masalalari singari muammolarni tekshirgan. U mazkur masalalarni nazariji jihatdan yechishga harakat qilgan.

Aristotel ta'lomitining ilg'or tomonlarini rivojlantirishida Yaqin va O'rta Sharq, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston faylasuflarining xizmatlari kattadir. Al-Kindiy, al-Forobiy, al-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil kabi fan va adabiyotning mashhur arboblari asarlarini o'qib, tadqiq etib bunga to'la ishonch hosil qilamiz.

Aristotel: fanlar tasnifi haqida

FAN

PREDMETI

Falsafaga kirish

Mantiq

Tafakkurning shakllari va qonunlari

Nazariy falsafa

Birinchi falsafa
metafizika

Adabiy g'ayrihissiy shakllar –
nomoddiy ibtido va butun
mavjudlikning sababiyyati

Ikkinci falsafa
fizika

Tabiat, ya'ni moddiy va
o'zgaruvchan mohiyat (biologiyaga
ham taalluqli)

Amaliy falsafa

Axloq

Insoniy xulq-atvor va ularning
me'yorlari

Siyosat

Ijtimoiy-siyosiy faoliyat

Iqtisod

Iqtisodiy faoliyat

Ijodiy falsafa

Estetika

San'at

Ritorika

Notiqlik

2- bobiga oid vazifalar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. Antik davr muntoz falsafasining namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
2. Sofistika nima? Sofistlar kimlar?
3. Suqrot hayoti va ta’limoti haqidagi qaysi yozma manbalarda ma’lumot berilgan?
4. Levkipp va Demokrit atomni qanday talqin qilganlar?
5. Demokritning tasodif va zaruriyatga munosabati qanday bo‘lgan?
6. «Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlar haqidagi g‘oyalarni kim ilgari surgan? Ular o‘rtasidagi farq nimada?
7. Platon kimning shogirdi bo‘lgan?
8. Nima uchun Platon obyektiv idealizm asoschisi, deb hisoblanadi?
9. Platon «xotirlash», «eslash» deganda nimani nazarda tutgan?
10. Platon ta’limoti pifagorchilar ta’limotiga nimasi bilan yaqin?
11. Platonning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari uning qaysi asarida bayon etilgan?
12. Platon «dialektika» deganda, nimani tushunadi?
13. Platonning «ideal jamiyati» haqidagi nimalar bilasiz?
14. Aristotelning «Metafizika» asari qanday masalalarning tahliliga bag‘ishlangan?
15. Aristotel ta’limotiga ko‘ra, necha xil sabablar mavjud?
16. Aristotel bilishni qanday bosqichlarga bo‘ladi?
17. Aristotelning harakat va uning turlari haqidagi ta’limotini bilasizmi?
18. Aristotel o‘z mantiqshunosligida kategoriyalarni necha xil toifaga ajratadi?
19. Aristotel yaratgan fanlarning tasnifini bilasizmi?
20. Sharq falsafasida shunga o‘xshash fanlarning tasnifini yaratgan faylasuflardan kimlarni bilasiz?

21. Aristotel ijtimoiy-siyosiy ta'limotidagi «oltin o'rta bolatida bo'lish» tamoyilining mazmun-mohiyati nimada?
22. Aristotel insonga qanday ta'rif bergen?
23. Aristotelning «Platon mening do'stim, lekin haqiqat undan ustunroqdir», degan fikrini qanday izohlaysiz?
24. Demokrit, Platon va Aristotelning falsafiy ta'limotlari keyinchalik G'arbda va Sharqda falsafiy fikr rivojiga ta'sir ko'rsatganmi?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Inson barcha narsalarning: mavjud narsalarning mavjudligini va nomavjud narsalarning nomavjudligini belgilovchi omildir (Protagor).
2. Men bu odamdan ko'ra donoroqman. Sababi, har ikkimiz ham ba'zi bir joiz va zarur narsalarni bilmasak-da, u manmanlik qiladi, men esa manmanlikdan o'zimni tiyaman (Suqrot).
3. Ezgulik va ezgulikdan ayri tushgan har qanday bilim dog'ulikka aylanadi. Uni donolik, deb atash nojoizdir (Suqrot).
4. Ezgulik adolatsizlik qilmaslikkina emas, uni istamaslik hamdir (Demokrit).
5. Donishmandalar ham, johillar ham falsafa bilan mashg'ul bo'la olmaydilar. Donishmandlar bilan johillar oralig'idagi odamlarga haqiqiy faylasuf bo'la oladilar (Platon).
6. Kohinlar inson ruhi barhayot ekanini ta'kidlaydilar. Ruh Yerdagi hayotni tark etganidan so'ng, – buni odatda o'lim deb ataydilar, – yana qayta tug'iladi va hech qachon o'lmaydi. Shuning uchun inson hayotini taqvodorlikda, ezgulik bilan o'tkazmog'i darkor. Basharti ruh barhayot ekan, u qayta-qayta tug'ilaveradi. Yerda va o'zga olamlarda hamma ilmlardan, voqealardan boxabar bo'lib, komillashib boraveradi. Natijada olamda u bilmaydigan hech qanday ilm qolmaydi. Bu ilmlar insonning ezgulligi, saxovati va boshqa shu kabi yaxshi sifatlari evaziga yodiga tushadi.... Zero, izlamoq va bilmoq eslamoqning aynan o'zidir (Platon).
7. Hayrat –falsafaning ibtidosidir (Aristotel).

8. Hech narsa tasodifan sodir bo'lmaydi. Biz tasodif deb ataydigan hamma narsaning o'z sababi bor (Aristotel).
9. Xudbinlik o'zini sevish bilan emas, bu sevgining me'yori dan ortib ketishi bilan belgilanadi (Aristotel)

Prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular

1. Demokrit va Aristotel bilish nazariyalaridagi axloqiy ratsionalizm.
2. "Avesto"dagi axloqiy tamoyillar Demokrit evdemonizmining shakllanishiga ta'sir etganmi?
3. Platon va Aristotel falsafiy ta'lilotlarining qiyosiy tahlili.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Demokritning «*Hamma narsada me'yorilik – go'zallikdir. Ortiqchalik va kamu ko'stlik menga noma'quldir*» g'oyasi asosida ijodiy insho (esse)yozing.
2. Aristotelning "Metafizika" asarini konspekt qiling.
3. Forobiy va Ibn Sino yaratgan fanlar tasnifini o'rganining Ularni Aristotelning fanlar tasnifi bilan qiyoslang.

TESTLAR

1. Sofistlar kimlar?

- A) donishmandlikdan ta'lim beruvchilar
- B) Suqrot maktabi
- C) Protagor izdoshlari
- D) inson muammosi bilan shug'ullanuvchi mumtoz antik falsafa vakillari

2. Mumtoz antik falsafa vakillariga kimlar kiradi?

- A) Anaksimen, Anaksagor, Levkipp, Demokrit
- B) Protagor, Suqrot, Platon, Aristotel
- C) Fales, Anaksimandr, Anaksimen
- D) Ksenofan, Zenon, Parmenid

1. Qaysi bir fikr Protagorga tegishli?

- A) «O'z-o'zingni bil»
- B) «Moddiy olam atomlardan tashkil topgan»
- C) «Inson barcha narsaning me'yori bo'lishi kerak»
- D) «Olamni bilihni tabiatni o'rganishdan boshla»

4. Qaysi bir fikr Suqrotga tegishli?

- A) «O'z-o'zingni bil!»
- B) «Inson joni atomlardan tashkil topgan»
- C) « Inson barcha narsaning me'yori bo'lishi kerak»
- D) «Insonni bilihni tabiatni bilihdan boshla»

5. Levkipp va Demokrit fikricha, atom nima?

- A) olamning moddiy asosi
- B) ko'zga ko'rinnmas mayda zarrachalar
- C) mutlaq bo'shliqda harakat qiluvchi eng kichik, bo'linmas zarracha
- D) inson sezgilarining manbai

6. «Me'yor hissi – ezgu va baxtli hayot uchun zarurdir», degan fikrni kim ilgari surgan ?

- A) Demokrit
- B) Levkipp
- C) Protagor
- D) Suqrot

7. Demokrit fikricha ...

- A) dunyoviy harakatning manbai ilohiy zaruriyatdir
- B) olamda tasodif bo'lmaydi, barcha hodisalar sababli va zaruriydir
- C) olamda tasodif bilan birga zarurat ham mavjuddir
- D) inson hayoti tasodifiy hodisalar ketma-ketligidan tashkil topadi

8. Antik falsafa tarixida obyektiv idealizmga kim asos solgan?

- A) Platon
- V) Aristotel
- C) Suqrot
- D) Demokrit

9. Suqrot yoshligida qaysi maktabda tafsil olgan?

- A) milet
- B) pifagorchilar
- C) sofistlar
- D) eley

10. Platon fikricha go‘zallik, bu ...

- A) shakl va chiziqlarning mukammalligi
- B) go‘zal narsa va hodisalar o‘rtasidagi umumiylilik
- C) ruhning axloqiy kamoloti
- D) ezgulikka yo‘naltirilgan xatti-harakatlar

11. Aristotel ta’limotidagi eng asosiy kategoriya qaysi?

- A) harakat
- B) shakl
- C) hodisa
- D) mohiyat

12. Formal logikaga kim asos solgan?

- A) Aristotel
- B) Diogen
- C) Parmenid
- D) Platon

13. Mayevtika nima?

- A) olam to‘g‘risida umumiy muhokama yuritish
- B) pand-nasihat qilish
- C) haqiqatni aniqlash maqsadida suhbatdosh bilan qilinadigan muloqot
- D) tanqidiy fikr-mulohazalar

14. Aristotel ta'limotiga ko'ra inson, bu –

- A) ikki oyoqli patsiz maxluq
- B) ilyosiy maxluqot
- C) tik yuradigan mavjudot
- D) fikrلaydigan mavjudot

15. Davlatni faylasuflar boshqarishi kerak, deb kim binoqlagan?

- A) Pifagor
- B) Platon
- C) Suqrat
- D) Protagor

16. Platon o'z safarlari chog'ida kimlarning maktabida bilim olgan?

- A) pifagorchilar maktabida
- B) milet maktabida
- C) eley maktabida
- D) sofistlar maktabida

17. Peripatetizm qayerda shakllangan?

- A) maktabda
- B) akademiyada
- C) universitetda
- D) litseyda

18. «Peripatetiklar» kimlar?

- A) Platon izdoshlari
- B) Demokrit izdoshlari
- C) Aristotel izdoshlari
- D) Protagor shogirdlari

19. Barcha narsalar o'zini keltirib chiqaruvchi sababiga ega, sabablarning sababi - Xudodir, deb kim aytgan?

- A) Aristotel
- B) Platon

C) Demokrit
D) Suqrot

20. «Hech narsani bilmasligimni bildim» deb kim aytgan?

- A) Platon
- B) Demokrit
- C) Gorgiy
- D) Sukrot

3 bob. QADIMGI DAVR ELLIN-RIM FALSAFASI

3.1. Epikur va Lukretsiy Kar falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarga ellinizm davri falsafasi bo‘yicha atroflicha va chiqur tushuncha, bilim va tasavvurlar hosil qilish; ellinizm falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish, falsafiy munbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Ellinizm, stoitsizm, emanatsiya, epikurizm, neoplatonizm, skeplitsizm, spontan o‘zgarish, geotsentrizm.

Asosiy savollar:

1. Ellinizm davrining o‘ziga xos xususiyatlari va falsafiy maktablari.
2. Epikur falsafiy mакtabining tashkil etilishi.
3. Tit Lukretsiy Kar falsafiy dunyoqarashi.

Ellinizm davri makedoniyalik Iskandar vafotidan keyin miloddan avvalgi 323-yildan boshlanib 30-yillargacha bo‘lgan vaqt ni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrning boshlanishi quldarlik jamiyatining rivoji hamda Yaqin Sharq mamlakatlarining, xususan, Misr taraqqiyoti bilan bog‘liq. Shahar-davlatlar o‘rtasida Aleksandriya-Iskandariya muhim o‘rinni egalladi. U – ellinizm davrining yirik iqtisod, madaniyat, fan, san‘at markaziga aylandi. U yerda matematika, astronomiya, mexanika, fizika, geografiya, fiziologiya, meditsina, til va adabiyot nazariyasi, estetika, etikaga oid bilimlar rivojlandi; juda boy qo‘lyozmalarga ega yirik kutub-

xona ishlab turdi. Gipparx Quyosh, Oy, sayyoralar, yulduzlar katalogini tuzdi, Eratosfan esa Yer sharining aylanma uzunligini o'chadi, antik kosmologiyada geotsentrik nuqtayi nazar hukmronlik qilgan bir davrda Aristrax Samosskiy yerning Quyosh hamda o'z o'qi atrofida aylanishini aniqladi. Evklid va Arximedning ilmiy faoliyati ham shu zamonga to'g'ri keldi.

Falsafada kinik va skeptiklarning g'oyalarini ta'siri kuchayishiiga qaramay, stoiklar va epikurchilar ta'limoti keng tarqaldi.

Ellinizm davridagi falsafiy maktablar, ularning manbalari va asosiy namoyandalari 1-ilovada keltiriladi.

1-ilova

Ellin davri maktablarining tasnifi

<i>Manbalari</i>	<i>Falsafiy yo'nalishlar</i>	<i>Yirik namoyandalari</i>
Sofistlar Eleyleklar Demokrit Platon	Skeptiklik	Pirron Sekst Empirik (rimlik)
Geraklit Kiniklar	Stoikchilik	Kitionlik Zenon Seneka (rimlik) Mark Avreliy (rimlik)
Demokrit	Epikurchilik	Epikur Sekst Empirik (rimlik)
Suqrot	Kiniklik	Antisfen, Sinoplik Diogen, Kratet
Pifagor	Pifagorchilik, yangipifagorchilik	Filolay, Likon
Aristotel	Aristotelchilik (peripatetiklar)	Teofrast
Platon	Platonchilik	Arkesilay, Karnead, Afmalik Plutark
Platonchilik Pifagorchilik	yangi platonchilik	Plotin, Porfiriy, Yamvlix Prokl



Hayoti: Epikur miloddan avvalgi 341–270-yillarda yashab ijod qildi. Uning ilmiy faoliyati qadimgi dunyoning ellistik davriga to‘g‘ri keldi. Epikur Afina atrofidagi Target qishlog‘ida kambag‘al oilada tug‘iladi. Uning otasi qishloqda oddiy o‘qituvchi bo‘lgan. Epikur o‘z ota-onasiga mehribon, ukalariga saxiy, hamma kishilarga do‘sit, shogirdlari orasida katta hurmat qozongan. Shuning uchun ham, shogirdlari o‘z ustozi va uning ta‘limotini bekamu ko‘sit deb bilib, unga undoqat bilan qarab, ta‘limotiga qandaydir o‘zgarishlar kiritishni gunoh hisoblaganlar. U o‘n sakkiz yoshga kirganida Afinaga kelib bog‘ sotib oladi va o‘sha yerda maktab ochadi. Keyinchalik u «Epikur bog‘i» deb atala boshlagan. Epikur o‘zigacha bo‘lgan va o‘z davridagi fan yutuqlarini o‘rganib, Demokrit materializmini rivojlantirgan. Platon idealizmini qat‘iy rad etib, Aristotel falsafining ayrim qoidalarini tanqid qilgan. Epikur maktabi ellen davridagi ilg‘or falsafiy-ilmiy markazga aylangan. Epikur o‘zi tushkil qilgan maktabda shogirdlariga ma’ruzalar o‘qir, suhbatlar o‘tkazar, bahs-munozaralar tashkil qilgan.

Asosiy asarlari: U «Kanonika», «Metafizika», «Etika», «Fizika» nomli yirik falsafiy asarlar yozgan, lekin bizgacha hamma asarlari to‘liq yetib kelmagan.

Ta‘limoti: O‘z siyosiy qarashlarida Epikur chet el zulmiga, adolatsizlikka qarshi bo‘lgan. Uning dunyoqarashi fizika, kanonika, etikasida ifodalangandir.

Epikur fizikada tabiat hodisalari ustida fikr yuritib, tabiatning asosi, ildizini Demokrit aytganidek, o‘zgarmas, kichik, bo‘linmas moddiy zarra – atom, deb hisoblagan. Atom uning qarashida bo‘shliqda doimiy harakatdadir. Bir nima hech nimadan kelib chiqmaydi, bor, mavjud xilma-xil narsalar abadiy atomlarning turli-tuman qo‘shilishlaridan paydo bo‘ladi. Olam moddiy, u bo‘linmas va o‘zgarmas zarralardan, atomlardan tashkil topgan. Murakkab, olamdan boshqa hech nima yo‘q, bo‘lmaydi ham. Olamda bizning dunyoga o‘xshash yoki o‘xshamas dunyolar ko‘p, deydi Epikur.

Atomlar Epikur tasvirida kichik, bo‘linmas, o‘zgarmas zarra bo‘lib shaklga, og‘irlikka, ham uzunlikka ega. Shakli og‘irligi, uzunligi jihatidan atomlar bir-birlaridan farq qiladi, turli-tuman holda qo‘silib, ular rang-barang buyum, ashylarni hosil qilsa, ularning tarqalib ketishi natijasida tabiat narsalari, buyumlari, ashylari o‘zgarib turadi. Epikur Demokritga nisbatan *atom og‘irligi hamda hajmi* to‘g‘risida fikr yuritib olg‘a qadam qo‘ydi. Epikur atomlardan iborat narsa, ashyo, buyumlar hamda rang, ta’m, hid obyektiv mavjud deb hisoblaydi.

Epikur atomlarni xuddi Demokrit singari doim harakatda ko‘rdi, atom harakati yuqori, quyi, to‘g‘ri, egor yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Lekin atomlarda og‘irlilik borligi sababli ular ichki - o‘z-o‘zidan harakat orqali qo‘silgan. Demokritning atomistik ta’limotida bu haqida mulohaza yuritilmagan edi. Epikur atomlar o‘z-o‘zidan spontan harakatda deb, tabiatning barcha hodisalarini tabiatning o‘zidan tushuntirish kerakligi haqidagi fikrni birinchilar qatorida ilgari surgan. Epikurning bu g‘oyasi falsafada haqiqiy kashfiyot bo‘lgan.

Epikur o‘z kanonikasi – bilish nazariyasida moddiy dunyo, real olam, tabiat, konkret narsa mavjudligiga hech shubha qilmaydi. U obyektiv narsalardan, ularning sirtidan uzlusiz oqim chiqib turadi, ushbu oqimni inson payqay olmaydi, uning harakati havoda g‘oyat katta tezlikda bo‘ladi, inson tuyg‘ulariga oqim ta’sir etadi, insonda sezish hosil bo‘laveradi, sezish mazkur tasavvurga zid kelmaydi, sezish bizga tashqi olamning biz bilan ba’zi bir muvofiqligini vujudga keltiradi, deydi.

Epikur so‘zlarning qanday tashkil topganligi haqida ham fikr yuritadi. U: «Har bir buyum unga birinchi marta berilgan nom tufayli o‘z aniqligiga, ravshanligiga, yaqqol ko‘zga tashlanishiga ega bo‘ladi», -deydi.

Epikur olamning o‘zi narsa ham fazodan iborat, buni biz kishilarga sezish vositasida paydo bo‘luvchi qimmatli va sirga voqif tafakkurimiz isbotlab, dalillab beradi, deb aytgan edi.

Epikurning «Gerodotga Epikurdan salom» xatida juda qiziqarli satrlarni o‘qish mumkin. Agarda sezish yana buyum, predmet, ayrim narsalar obrazlarini hosil qilsa, fikr, tafakkur,

tushuncha Epikur nazarida, masalan, vaqt tushunchasi kecha vaUNDUZ, ularning qismlari orasidagi aloqa, bog'lanishni tasvirlaydi. Narsalar, buyumlar, muhit insonni ko'p narsaga o'rgatadi. Dotor, mavjud narsa, buyumlardan har xil joylar, ashyolar yasashga o'rgatadi, inson aqli ularni yana mukammallashtiradi, ixtiolar qiladi. Epikur buyumlarning nomini har bir xalqda, uning yashash sharoiti, joyi, hissiyoti, psixik xarakteriga muvofiq kelib chiqqanligini to'g'ri ko'rsatib beradi. Epikur sezish asosida, sezishni buzmay, sezishga qo'shilmagan holda paydo bo'lgan fikr, tushuncha va tafakkurning dunyoni, tabiat qonunlarini ochishda, tabiiy mavjud narsalardan insonga kerakli, zarur narsalar yasashdagi buyuk rolini ko'rgan, bilgan va ko'rsata olgan.

Epikurning «Pifoklga Epikurdan salom» xatida Yer, u bilan aloqada yoritgichlar cheksiz olamning bir bo'lakchasi, olamda bizning dunyo kabilar, o'xshash yoki o'xshamaslar son-sanoqsiz ko'p. Quyosh, Oy va boshqalar girdobli aylanib turgan, tabiiy, yoki shamol, yoki olov, yoki ham unisi, ham bunisining qo'shilishidan kelib chiqqan. Quyosh, Oy va boshqa yoritgichlar bizning sezishimiz darajasida yoki katta, yoki kichik bo'lishi mumkin. Bu yoritgichlarning aylanishi zaruriy, qonuniy harakat tufaylidir. Epikur Quyosh, Oy tutilishi borasida o'z mulohazalarini bayon qilgan. Ob-havoning oldindan aytish mumkinligini, bulutlarning tashkil topishi, bug'lanish-parlanish oqibatlaridanligini, chaqmoq, yashin, siklon-to'fonlar, zilzila sabablari haqida Epikur ilmiy taxminlar qilgan. Tabiat, tabiat qonunlarini inson sezgi va hissiyoti vositasida aql ko'zi bilan o'rgana borishni Epikur asoslashga harakat qiladi.

Shu munosabat bilan Epikurning jon haqidagi ta'limoti ham qimmatlidir. U Platonning jon haqidagi fikrlarini tanqid qiladi. Jon tanning nozik zarralaridan iborat bo'lib, butun organizmga yoyilgandir, u issiqlik bilan aralash shamolga o'xshaydi, birlari shamolga, boshqalari issiqlikka monand. Jonning yana bir alohida ixcham, nozik qismi organizmning hamma bo'laklari bilan aloqador holda his etish, sezish qobiliyatiga egaligidir. Sezgi jon quvvatining dalilidir. Shuning uchun sezishning bosh sababi nozik, ixcham, harakatchan atomlardan tashkil topgan jondir.

Shunga binoan ham ichki, ham tashqi sezishga inson har vaqt murojaat qiladi. Ushbu ta'limotga asoslanib Epikur jonni tan bilan birlikda ko'radi. U jonni sezish, his etish qobiliyatining manbai deb hisoblaydi, tana o'lishi bilan jon ham tarqaladi, sezish, his etish qobiliyati ham yo'qoladi.

Epikurning axloq-xulq nazariyasi ham qiziqarlidir. Moddiy dunyo va uni bilish g'oyasi uning axloqiy ta'limotining asosida yotadi. Mavjud moddiy dunyoda inson huzur-halovatli hayot kechirmog'i lozim, qiynalib, azoblanib yurmasligi kerak, degan qoidalar Epikur axloq va xulq nazariyasining o'zagini tashkil etadi. Ushbu maqsadga erishmoq uchun, uning fikricha, xudolardan, o'lim talvasasidan qo'rqlaslik kerak.

Epikur, shu nuqtayi nazardan turib, qariyalarga va yoshlarga falsafani o'rganishni tavsiya etadi. Hech kim yoshligida falsafani o'rganishni kechiktirmasin, qariligidan ham falsafa bilan shug'ullanishdan to'xtamasin. Chunki hech kimning pishmasligi yoki pishib o'tib ketgan bo'lishi mumkin emas. Yosh faylasuf mashg'uloti vositasida qarisa ham baxtli o'tgan chog'larini xotirlaydi. Qariya bir vaqtning o'zida ham yoshlik, ham qarilik davrini eslaydi, istiqbolidan, kelajagidan qo'rqlaslik baxtdir; baxt bilishda, ilmdadir.

Epikur tasavvurida ilm xudolardan qo'rqlashtan hamda o'lim vahimasidan ozod qiladi. Hamma yaxshi-yomon sezish, his etish-dadir, o'lim esa sezish, his etishdan mahrum bo'lish demakdir. Hayot va turmushdan boshqa, undan tashqarida hech qanday qo'rqlinch, dahshat yo'qdir. O'lim – vahimali, yomon. O'lim vahimasini kutib qayg'urish kerak emas, balki dadil bo'lish lozim. Epikur bu mulohazalari bilan Platon, platonchilarining jon, to'g'-risidagi, g'oyalar dunyosidagi huzur-halovat, go'zallik to'g'risidagi barcha fikrlarini inkor qiladi. U yolg'iz moddiy olam bor, unda inson huzur-halovatli turmush kechirishi mumkin; xudolar, o'lim vahimalaridan inson qutulishi kerak deb ta'lim beradi.

Epikur tomonidan fizikaviy nazariyaning tanlab olinishi amaliy maqsad, ya'ni aynan odamlarni xudo va oxirat oldidagi qo'rquvlardan ozod qilish va ularga qalb osoyishtaligiga erishicha yordam berish hisoblangan. Xudolarning mavjudligini inkor

qilmagan holda u xudolar insonlarning ishlariga aralashmasligini ko'rsatishni va inson xudolarni rahmini keltirishi hamda ulardan qumohlarini kechirishini so'ramasligi mumkinligini va turli shirk odatlarni jiddiy qabul qilmasliklari lozimligini ko'rsatishga hujrakat qilgan. Bundan tashqari, umrboqiylikni inkor qilgan holda u insonni o'limdan qo'rqish hissidan xalos qilishga unid qilgan. O'lim oddiygina so'nish, his qilish va qandaydir hissiyotlarning to'liq yo'qolishi bo'lsa, bizni oxiratda kutadigan fikrlar va jazo'lар yo'q bo'lsa, o'limdan nima uchun qo'rqish darkor? "O'limning bizga hech qanday aloqasi yo'q, chunki parchalanib ketgan narsa hech nimani his qilmaydi, his qilmaydigan narsaning esa bizga hech qanday aloqasi yo'q"²⁰.

Huzur-halovat baxt-saodatli turmushning boshi ham oxiridir. Inson o'z his-tuyg'ulari yordamida niima yaxshi yoki yomonligini ajrata oladi. Ammo aqli raso inson hamma yaxshini qabul etib hamma yomonni rad etavermaydi, u sharoit, muhit, joyga qarab, mo'tadillik, nisbiylikka qarab ish tutadi. Och bo'Iganda oddiy taom ham xuddi qimmat ovqat singari juda lazzatli, insonga jismoniy huzur bag'ishlaydi. Biz huzur-halovat, lazzatli hol deganimizda huzur-halovat, ichkilikbozlik, maishiy buzuqlikni, kayf-safoni, hashamatli hayotni emas, balki jismoniy iztirob hamda ruhiy tashvishlanishdan xaloslilik, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. Uning fikricha, barcha yaxshilikning boshi inson tafakkuridadir. Shuning uchun ham u, donolarning baxtsiz bo'lsang ham aqli bo'l, aqli bo'lgan beaql baxtlilikdan afzal, degan fikriga qo'shiladi. Epikur insonni moddiy dunyoda huzur-halovat, lazzatli turmush kechirishga, mo'tadil, oqil bo'lishga, bilim olishga, tabiat qonunlarini o'rganishga chaqiradi. Epikur qadimgi davrning ajoyib sotsiologи hamdir. U insonlararo munosabatlarda xususan, bir-biriga zarar yetkazmaslik va foydali tadbirli bo'lish haqida fikr yuritib, umumiy kelishish, tabiiy huquq g'oyasini birinchi bo'lib o'rtaga tashlaydi (2-ilova).

²⁰ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.p. 401

Epikur: xohish-istiklar turi va ularga munosabat

<i>Iistiklar turi</i>	<i>Misollar</i>	<i>Ularga munosabat</i>
Tabiiy va zaruriy	Oziq-ovqat, kiyim-kechakka bo‘lgan talab. Do‘stlik, fanlar bilan shug‘ullanish	Qondirish zarur
Tabiiy, lekin zaruriy emas	Xirsiy munosabat	Me’yorida qondirish kerak
Notabiiy va zaruriy emas	Cheksiz boylik, shirin taomlar va h.k. Shon-shuhrat.	Butunlay voz kechish zarur

Qadimiy Rimda, xususan milodgacha 146-yilda Yunonistonning Rim respublikasiga tobe etilganidan so‘ng, u yerda qadimiy yunon madaniyati, falsafasi, san’ati, adabiyoti keng ko‘lamda davom ettirildi va rivojlantirildi.



***Hayoti:** Lukretsiy Kar* milodgacha 99–55-yillarda yashab, ijod qildi.

Asarlari: O‘z dunyoqarashini «Narsalarning tabiatni to‘g‘risida» nomli poemasida yuksak badiiy mahorat bilan bayon qildi.

Ta’limoti: U Demokrit, Epikur ta’limotini mufassal tahlil etib, tushuntirdi. Shu bilan birga Lukretsiy Kar ular yaratgan atomistik nazariyani yanada rivojlantirdi.

Lukretsiy Kar ta’limotiga ko‘ra, materiya abadiy, u bir holatdan boshqa bir holatga o‘tadi, biror nima hech nimadan kelib chiqmaydi, ma’lumki urug‘dangina u yoki bu o‘simgilik yoki hayvon paydo bo‘ladi. Xuddi shuningdek, tabiatda to‘liq yo‘qolish bo‘lmaydi, masalan, atomlarning kichikligi tufayli biz ularni ko‘ra

olmaymiz, dengiz qirg'og'ida ko'yak nam bo'lib qoladi, quyoshda ko'yak qurib qoladi, biz namlikning o'tishini ham, namning qurish jarayonini ham ko'ra olmaymiz, uzuk ko'p taqilishi sababidan yupqalashadi, yo'lak qatnayverish jarayonida siyqalashib qoladi. Ammo bu jarayonni biz sezib, his etmaymiz. Zarralar, atomlar Epikur aytganidek, shakl, og'irlik, hajmga ega bo'lib, bo'shliqda doimo harakatdadir. Xususiyatlarni narsalardan ajratish mumkin emasligi, og'irlikni toshdan, issiqni olovdan, namlikni suvdan ajaratish mumkin emasligi kabitdir. Materiyaga vaqt xosdir. Vaqt narsalarning harakatidan va bo'shliqdan alohida bo'lmaydi va bo'la olmaydi. Materiya mayda zarra – atomlardan murakkabdir, atom na bo'linadi, na buziladi, materiya cheksiz bo'linavermaydi. Atomning abadiy, azaliy moddiy boshlang'ich ekanligi haqida Lukretsiy Epikur kabi fikr yuritadi.

Yer ham boshqa dunyolar kabi tabiiy sabablarga ko'ra paydo bo'lган. Yerda ham, ko'kda ham, suvda ham, nabotot, hayvonot olamida ham hamma hodisalar moddiy sababga ega. Lukretsiy tabiiy-ilmiy nuqtayi nazardan turib yashin, chaqmoq, yomg'ir, shudring, quyun, shamol, qirov, qor, do'l, zilzila, magnit kabi hodisalarning sababini tushuntirishga uringan.

Xuddi Epikur singari Lukretsiy Platon va platonchilarining idealistik ta'limotini tanqid qilgan. Tanadan alohida holda jon yo'q, hech qanday dunyoviy ruh yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, anamnezis nazariyasi puch, jon Epikur aytganidek, nozik, yumshoq tez harakatlanadigan atomlardan iborat. Hayotning, tiriklikning asosi ruhiyat: aql, ongdan tashkil topgan. Jon butun organizm va tanaga yoyilgan bo'lsa, ruh ko'krakning o'rtaсидадир.

Lukretsiy Demokrit va Epikur kabi sensualistik materialistik bilish nazariyasi asosida olamni, tabiat qonunlarini inson bilishi, tekshirib o'rganishi lozimligini isbotlaydi. Ijtimoiy, tarixiy hodisalar haqida ham Lukretsiy qiziqarli, sodda, ammo chuqur mulohazalar yuritadi. Lukretsiy Demokrit yo'naliشining qadimgi jamiyatdagi eng izchil, eng otashin vakili bo'lib, falsafa tarixida o'chmas iz qoldirgan, tabiyot ilmi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

3.2. Stoiklar va skeptiklar

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda stoiklar va skeptiklar falsafasiga oid atroficha va chuqur bilim, tushuncha hamda tasavvurlar hosil qilish. Ularda stoiklar falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Stoiklar va skeptiklar, agnostitsizm, ontologiya, kosmogoniya, ilmlar tasnifi, axloqiy me’yorlar.

Asosiy savollar:

1. Stoiklar va skeptiklar ta’limotining shakllanishi.
2. Stoiklarning ontologik qarashlari.
3. Stoiklarning bilish nazariyasi.
4. Stoiklar ilgari surgan axloqiy me’yorlar va ilmlar tasnifi.

Miloddan avvalgi III asrdan boshlab Qadimiy Yunonistonda, so‘ngra Rimda quldorlik jamiyatining inqirozi tobora kuchaya bordi, xuddi shu tarixiy sharoitlarda antik dunyo ma’naviy hayotida mistik- diniy qarashlar, astrologiya, demologiya singari g‘ayriilmiy nuqtayi nazarlar keng yoyilib, fanga qarshi xuruj kuchaya bordi. Falsafaning yangi-yangi oqimlari – stoiklar, skeptiklar oqimi vujudga keldi.

Skeptiklar stoiklarning mohiyat mazmuni tafakkur bilan birlashishi tufayli konkretlikni tashkil qiladi, degan fikriga qo‘shilishgan bo‘lsalarda, bunga shubha bilan qarashgan. Shuningdek, muayyan shaffoflikning haqqoniyligiga ham shubhalanishgan. Gegel o‘zining «Falsafa tarixi» asarida skeptiklarning bu ta’limoti barcha bilimlarni subyektivlashtirishga olib kelgan

deydi. Skeptiklarning nisbiy dialektikasi har qanday konkretlikni aniqlashda muayyan haqiqat mezoniga qarshi chiqqan.²¹

Garchand skeptiklar ta'limoti ko'p jihatdan bilish jarayonining murakkab muammolarini aniqlashga harakat qilgan bo'lsalarda, lekin obyektiv bilishga nisbatan umidsizlik bilan qarashlik va rad etishlik agnostitsizmga olib borgan (3-ilova).

3-ilova

Skeptikning mulohaza yuritish usuli

	Qudratli Xudo	Qudratsiz Xudo (ojiz)
Rahimdl Xudo	1.Dunyodagi hamma johillikni yo'qotishni istaydi va yo'qota oladi.	1. Dunyodagi hamma johillikni yo'qotishni istaydi, lekin yo'qota olmaydi.
Johil Xudo	2.Dunyodagi hamma johillikni yo'qota oladi, lekin xohlamaydi.	2. Dunyodagi hamma johillikni yo'qotishni istamaydi ham, yo'qota olmaydi ham.

Qadimiy Yunonistonda, miloddan avvalgi III asrda Rim respublikasida quldorlik jamiyatining ichki ziddiyatlari keskinlashdi, ayniqsa 138–132-yillarda Evn va Kleon, 104–102-yillarda Trifon

²¹ Qarang: Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Мысль, 1999. – С. 122.

(Slaviya) va 74–71-yillardagi Spartak rahbarligida o‘tgan qullar qo‘zg‘olonlari tarixda mashhurdir. Milodgacha I asrda Rim quldorlik respublikasi Rim monarxiyasi, imperiyasi bilan almashdi. Bu quldorlar davlati milodiy V asrgacha yashadi. O‘sha miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrgacha bu yerda muhim iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy voqealar, o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi, mafkura sohasidagi kurash keskinlashdi. Platon yo‘nalishi bilan Demokrit yo‘nalishlari o‘rtasidagi tortishuvlar ham chuqurlashdi, ham keskinlashdi, din bilan cherkov hamma joyda o‘z hukmronligini o‘tkaza boshladи.

Miloddan avvalgi IV asr oxirida Yunonistonda *stoiklar* ta’limoti shakllana boshladи. U ellistik davrda hamda keyingi Rim davrida keng tarqalgan falsafiy oqimlardan biriga aylangan edi. Stoiklar falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 4-ilovada keltirilgan.


Stoiklar tabiat falsafasiga ortiqcha e’tibor qaratmaganlar. Ular asosiy axloqiy talabdan kelib chiqqan holda «tabiatga muvofiq yashash»ni talab etishgan. Tabiat va dunyoning tartibi – logosga muvofiq yashashga, hayot kechirishga da’vat etganlar. Stoiklar ontologik qarashlarida falsafaning ikki tamoyilini tan olishgan.²²

Moddiy tamoyil asosiy talab hisoblanadi va ruhiy tamoyil – logos (xudo) barcha moddiylikka singib, konkret yakka-yakka jismlarni tashkil etadi. Bu aslida dastlabki dualistik tasavvurlarning ilk namunasi edi. Aristotel «birinchi mohiyat»ni yakkalikda tasavvur etgan bo‘lib, moddadan shaklni ustun qo‘ygan bo‘lsa, stoiklar aksincha, mohiyat sifatida moddiy tamoyilni muhim deb tan olganlar.


Stoiklar xudo tushunchasini panteistik ruhda tushunishgan. Logos esa ularning ta’limotiga ko‘ra, butun tabiatga singib, olamning hamma yerida mavjuddir. U (logos) zaruriyat qonunidek mavjud (5-ilova).

²² Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.1. Greece and Rome. - N.Y., London, 2003. – P. 147.


Stoiklar falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



Stoiklar kosmogoniysi



Stoiklar bo'yicha fanlar tasnifi



Stoiklarning bilish nazariyasi asosan sensualizmning antik shaklini eslatadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, bilishning asosini konkret, yakka-yakka holda olingen jismlar tashkil etib, ular hissiy qabullashni anglatadi. Bu yerda biz Aristotelning umumiylig va yakkalikka aloqador ta'limoti o'z ta'sirini ularga o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin.

Stoik – hayot mashaqqatlariga chidam, matonat bilan yashash ma'nosini bildiradi. Stoiklarning keyingi vakillari Mark Katon, Sitseron, Lutsiy Seneka, Mark Avreliy va boshqalardir.

Stoiklarda fanlar tasnifi ham o'ziga xos talqin qilingan (6-ilova).

Stoiklar ilgari surgan axloqiy me'yorlar inson faoliyatining cho'qqisi sifatida ezgulikni muhim deb biladi. Ezgulik, ularning fikricha, birdan-bir farovonlikdir. Ezgulikning ma'nosi oqilonqa yashashdan iborat. Ezgulik to'rtta fazilatda mujassamlashgan. Ular iroda qudrati bilan cheklangan oqillik, mo'tadillik, adolat va shuhratdir.

To'rtta ezgulikka qarama-qarshi to'rtta illat ro'baro' turadi. Oqillikka qarama-qarshi johillik, mo'tadillikka qarama-qarshi landovurlik, adolatga qarama-qarshi qo'rqoqlik, kamhafsalalik turadi. Biroq yaxshilik bilan yovuzlik, ezgulik bilan zulm o'rtasida qat'iy farq bor. Ular o'rtasida biridan ikkinchisiga o'tish holatlari yo'q (7-ilova).

7-ilova

Dunyoda johillikni mavjudligini oqlovchi argumentlar

Axloqiy	Johillik shuning uchun kerakki, donolar unga qarab o'z sabr-qanoatlarini, ezguliklarini chiniqtirsinlar.
Jismoniy	Xudo qudratli, uning irodasi doimo tabiat zaruriyati bilan to'qnash keladi, u ongsiz ravishda Xudoning istaklariga qarshilik qiladi.
Kosmologik	Qisman johil bo'lgan narsa, yaxlitlik uchun ezgulik bo'lishi mumkin.
Mantiqiy	Agar johillik bo'lmasanida, ezgulik ham bo'lmas edi.

3.3. Neoplatonizm

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda neoplatonizm falsafasi bo‘yicha atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; ularda neoplatonizm falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Neoplatonizm, mistitsizm, asketizm, yagona borliq, emanatsiya, ruhiy poklik, ekstaz.

Asosiy savollar:

1. Neoplatonizm falsafasining shakllanishi.
2. Plotinning yagona borliq haqidagi ta’limoti.
3. Plotinning emanatsiya nazariyasi.
4. Plotin etikasi.

Neoplatonizm (yoki yangiaflotunchilik) falsafa tarixchisi Diogen Laersiy va mantiqchi Porfiriy ta’kidlashicha, Platon va Aristotel asarlarida ko‘tarilgan falsafiy muammolarni o‘rganishni davom ettirdi va jonlantirdi.

Neoplatonizm inqirozga yuz tutgan quldorlik tuzumini aks etuvchi ta’limotdir. Uning rivoji milodiy III–V asrlarda Rim imperiyasining tanazzuli va xristianlikning keng tarqala boshlagan davriga to‘g‘ri keladi. Neoplatonizm antik davrdagi so‘nggi yaxlit falsafiy yo‘nalishdir. Bu ta’limotning asosini Platon idealistik falsafasidagi ko‘proq mistitsizmga yetaklovchi g‘oyalar tashkil etgan (8-ilova).

Neoplatonizmning asosiy vakillari

<i>Asosiy namoyandalari</i>	<i>Hayotiga oid ma'lumotlar</i>	<i>Asosiy asarlari</i>
Ammoniy Sakkas 175–242 yy.	Aleksandriyada dars bergen. Ota-onasi tomonidan cho‘qintirilgan, lekin o‘zi bid’atchi bo‘lgan.	Asar yozmagan.
Plotin 205–270 yy.	Likopol (Misr)da tug‘ilgan. 28 yoshida falsafani o‘rgana boshlagan. 11 yil Aleksandriyada Ammoniy qo‘lida o‘qigan; 40 yoshlarda Rimga ko‘chib o‘tadi va o‘z mifik tabini yaratadi, 25 yil u yerda dars beradi.	«Enneadalar» («To‘qqizliklar») «Hayvon va inson», «Fazilatlar», ««Baxt» haqida», «Dialektika haqida», «Go‘zallik», «Yovuzlik haqida», «Koinot», «Doiraviy harakatlar», «Bashorat», «Taqdir», «Mehr haqida»
Porfiriy 232–301 yy.	Tirda tug‘iladi, Plotinning shogirdi.	«Plotin hayoti» «Xristianlikka qarshi» «Aristotel kategoriyalariga kirish» Plotin asarlariga sharhlar.
Yamvlix 280–330 yy.	Siriyada yashagan va ishlagan. Antik politeizmni tikhailshga harakat qilgan. Matematika, astronomiya, musiqa nazarasi bilan shug‘ulangan.	«Pifagor hayoti» «Xudolar haqida» «Platoncha ilohiyot» «Timsollar haqida»

Prokl 410–485 yy.	Konstantinopolda tug‘ilgan, Aleksandriya va Afinada o‘qigan. Platon akademiyasining tinglovchisi bo‘lgan. Plotinning ta’limotini ijodiy rivojlantirib, mantiqiy nihoyasiga yetkazgan.	«Birinchi asoslar ilohiyoti» «Platon ilohiyoti haqida» Sharhlar
----------------------	---	---

Plotin (milodiy 205–270yy.) – neoplatonizmning asoschisi bo‘lib, qadimgi yirik faylasuflarning eng so‘nggisidir. Uning hayoti Rim tarixining ayanchli davriga to‘g‘ri keladi. U tug‘ilgan davrda armiya qudratli edi va amaldagi imperatorlarni pora evaziga taxtga o‘tkazar edi; shu bilan birga ana shunday yo‘l bilan ularni yo‘q qilardi. Bunday xatti-harakatlar esa chegara mustahkamligiga putur yetkazar edi. Bu esa shimoldan germanlar, sharqdan forslarni bosqinchilik harakatlariga yo‘l ochib berardi. Urushlar va epidemiyalar imperiya aholisining deyarli uchdan bir qismini qirilib ketishiga olib keldi, aynan shu davrda oshib ketgan soliqlar va kamayib ketgan zaxiralar dushman yetib borolmagan chekka hududlarda ham moliyaviy inqirozni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, madaniyatning o‘chog‘i sanalgan shaharlar aziyat chekdi; o‘ziga to‘q fuqarolar soliq yig‘uvchilardan qutulish maqsadida shaharni tashlab qochdilar. Plotin vafotidan keyingi davrdagina yana tartib o‘rnatildi, imperiya Diokletian va Konstantinlar ko‘rgan keskin choralar natijasida saqlab qolindi.²³


Plotinning fikricha, mavjudlikning asosini hissiyotdan, aqldan ustun turuvchi g‘ayritabiyy, ilohiy tamoyil tashkil etadi. Borliqning barcha shakllari unga bog‘liq. Plotin bu tamoyilni mutlaq borliq deb ataydi va uni aql bilan biliш mumkin emas; uni faqat qalban biliш mumkin, deb tushuntiradi.

²³ Qarang: Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010. – P. 221.

Plotin ta'limotiga ko'ra, xudo bиринчи va yagona borliq bo'lib, undan asta-sekin, bosqichma-bosqich avval aql, so'ngra ruh va undan keyin tabiat nurlanib chiqadi. Buni u, yorug'likdan qorong'ulikka, mukammallikdan nomukammallikka qarab boruvchi emanatsiya jarayoni sifatida tasavvur etadi (9-ilova).

9-ilova

Plotin kosmogoniyasи



«Yagona borliq bor, u Xudodir. Undan tashqarida hech narsa yo'q, u o'z-o'ziga nisbatan aynandir». Tabiatda, moddiy dunyoda yuz berayotgan hodisalar Plotin fikricha, g'oyalar dunyosining in'ikosidir. Barcha ruhlar yagona oliv ruhdan paydo bo'lgan. Inson ruhi ilohiy ruhga qaytishi uchun moddiy manfaatlardan butunlay voz kechib, axloqiy hayotni takomillashtirishi lozim. Uning eng yuqori cho'qqisiga ekstaz holatida erishish mumkinligini ta'kidlash bilan birga, Plotin asketizm, ya'ni tarkidun-yochilik g'oyalarini ilgari surgan bo'lsa-da, do'stlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat, ilohiy, muqaddas qadriyatlarni ulug'lagan. Plotinning shogirdlari Porfiriy va Longin uning topshirig'i bilan zardushtiylik ta'limotidagi ziddiyatlarni tanqid qiluvchi asarlar yozishgan.

Forobiy yangi platonchilikni Plotin ruhida rivojlantirgan.

3-bobiga oid vazifalar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. Qadimgi Ellin-Rim falsafasining namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
2. Stoiklar kimlar?
3. Ular qanday g‘oyalarni ilgari surganlar?
4. Epikur ta’limoti Demokritning atomistik ta’limotidan farq qiladimi?
5. Epikur spontan harakat deganda, nimani nazarda tutadi?
6. Epikur o‘zining «Gerodotga Epikurdan salom» xatida qanday falsafiy masalalar bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirgan?
7. Epikur o‘zining «Pifoklga Epikurdan salom» xatida qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
8. Epikur va Platonning jon haqidagi ta’limotlari o‘rtasida farq nimada?
9. Epikurning axloqiy qarashlari qanday g‘oyalarga asoslanadi?
10. Lukretsiyning atomistik ta’limoti Epikur ta’limotidan farq qiladimi?
11. Lukretsiyning Platon ta’limotiga munosabati qanday bo‘lgan?
12. Lukretsiy olamni bilish masalasida qanday nuqtayi nazarni yoqlab chiqqan?
13. Skeptiklar kimlar?
14. Stoiklar qanday panteistik g‘oyalarni ilgari surganlar?
15. Nima uchun stoiklar fanlar tasnifini tuxumga qiyoslaganlar?
16. Stoiklarning axloqiy ideali qanday tamoyillarga asoslangan?
17. Neoplatonizmning nazariy asosini qanday g‘oyalar tashkil etgan?
18. Neoplatonizm rivoji qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
19. Neoplatonizmning yirik namoyandalari kimlar?
20. Plotin ruhni qanday ta’riflagan ?
21. Plotinning emanatsiya nazariyasini qanday tushunasiz?
22. Plotin etikasi qanday tamoyillarga asoslangan?

23. Plotinning falsafiy ta'limoti keyinchalik Sharqda qanday
ta'limotlar rivojiga ta'sir ko'rsatdi?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Falsafa bilan shug'ullanishga hali erta yoki buning vaqtı o'tdi deguvchilar xuddi baxtiyorlik onlari hali yetib kelmadi yoki o'tib ketdi deguvchilar kabitidir. Shu bois falsafa keksalar uchun ham, o'spirinlar uchun ham birdek zarur. Keksalarga shuning uchun zaturki, falsafa tufayli ular o'tmishlaridan quvonadilar va ezgulikdan bahramand bo'lishadi. O'spirinlar esa falsafa tufayli keksa donishmandlar sifatlariga erishib, kelajakdan cho'chimaydilar (Epikur).

2. Insonlar yo hasad, yo ko'rolmaslik, yoki nafrat tufayli birbirining dilini og'ritadilar. Dono kishi esa aql-idrok ila bularning barchasidan ustun turadi. Donolikka erishgan odam hatto atayin urinsa ham buning aksini qilolmaydi (Epikur).

3. O'zingga bino qo'y may, dono, aql-zakovatli bo'lishga intil (Epikur).

4. Inson yo qo'rquv, yoki intihosiz va behuda ehtiros tufayli baxtsiz bo'ladi (Epikur).

5. Falsafaning kuchi shundaki, u qalblarga malham bo'ladi, behuda tashvishlarni bartaraf etadi, ortiqcha havaslardan xalos qilib, qo'rquvni haydaydi. Shubhali narsalarni qo'llab-quvvatlash-dan o'zini tiygan faylasuflar donolarcha yo'l tutadilar (Sitseron).

6. Adashish har bir insonga xos sifat. Ammo adashganlarning qaysarlik bilan o'z yo'lida davom etaverishi - aqlsizlik (Sitseron).

7. Donishmandlikni egallashning o'zигина yetarli emas, undan foydalana bilmоqlik ham joiz (Sitseron).

8. Ozod bo'lish uchun qonunlarning quliga aylanishga to'g'ri keladi (Sitseron).

9. Ezgulikning asosiy belgisi – harakat (Sitseron).

10. O'z burchini yayrab ado etuvchilargina emin-erkin yashaydilar (Sitseron).

11. Bir qarashda ulug'vor va ajoyib ko'ringan har qanday narsaning jozibasi ko'zimga vaqt o'tishi bilan ozaygandek ko'rnadi (Lukretsiy Tit Kar).

12. Vaqt ildamlagan sayin buyumlarning mohiyati ham o'zgara boradi (Lukretsiy Tit Kar).
13. Agar butun go'zal bo'lsa, uning bo'laklari ham go'zal bo'lishi kerak, zero, go'zal butun xunuk bo'laklardan tashkil topa olmaydi (Plotin).
14. Kimki iloh va go'zallikka tegishli hodisalarini mushohada qilmoqchi bo'lsa, avval ularga xos sifatlarni o'zida mujassam etishi darkor (Plotin).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. Demokrit, Epikur va Lukretsiyning atomistik ta'limotlari: umumiy va o'ziga xos jihatlari.
2. Epikurning axloqiy ratsionalizmi.
3. Plotinning jon va ruh haqidagi ta'limoti.
4. Platon va Plotin falsafiy ta'limotlarining qiyosiy tahlili.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. «Plotinning kosmogonik ta'limoti» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.
2. «Neoplatonizmning Ibn Arabiy tasavvufiy dunyoqarashiga ta'siri» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.
3. Stoiklar yaratgan fanlar tasnifini o'rganing. Ularni Aristotelning fanlar tasnifi bilan qiyoslang.

TESTLAR

1. Epikur o'zining «Epikur bog'i» nomli maktabiga qayerda asos solgan?
 - A) Afinada
 - B) Eleyada
 - C) Spartada
 - D) Peloponessda

2. Epikur borliq haqidagi ta'limotida kimning g'oyalarini diniom ettirgan?

- A) Aristotel
- B) Sukrot
- C) Demokrit
- D) Platon

3. Epikur ta'limotida «spontan harakat» tushunchasi nimani anglatadi?

- A) tabiatdagи har qanday o'zgarishni
- B) atomlarning tashqi ta'sir natijasida harakatini
- C) atomlarning oddiy o'rин almashishini
- D) atomlarning o'z-o'zidan harakat qilishini

4. Epikur borliq asosi deb nimani e'tirof etgan?

- A) suv, tuproq, havo, olovni
- B) atomni
- C) havoni
- D) olovni

5. Kim «Atom og'irlik, hajmga ega. Atomlardan tashkil topgan narsalar rang, ta'm, hid kabi obyektiv sifatlarga ega», deb hisoblagan?

- A) Aristotel
- B) Demokrit
- C) Suqrot
- D) Epikur

6. Stoiklar fikricha...

- A) do'stlik va bag'rikenglikni oliv insoniy sifatlardir
- B) barcha urf-odatlarni ochiq tarzda inkor etish kerak
- C) dono safsataga tetik holda javob beradi
- D) A va B javob to'g'ri

7. Epikur fikricha, yashashdan maqsad ...

- A) huzur-halovat, lazzatga yetishish

- B) logosni tushunish
- C) ijtimoiy burchlarni bajarish
- D) bekamu ko'st hayotga intilish

8. «Haqiqiy donishmand davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadi», degan g'oya kimga tegishli?

- A) materialistlarga
- B) peripatetiklarga
- C) stoiklarga
- D) idealistlarga

9. Tabiat bilan hamjihat bo'lib yashashga kimlar o'rgatgan?

- A) stoiklar
- B) atomistlar
- C) epikurchilar
- D) aflatunchilar

10. Epikur va Lukretsiy Kar qanday falsafaning namoyandalari bo'lishgan?

- A) panteizm
- B) idealizm
- C) mistitsizm
- D) materializm

11. Yolg'iz Xudo bilan ruhan birlashish, ya'ni «ekstaz» haqidagi g'oyani kim ilgari surgan?

- A) Epiktet
- B) Plotin
- C) Zenon
- D) Porfiriy

12. «Qo'rqinch va xavotir hissidan qutilish va xotirjam hayot kechirish uchun ma'rifatli bo'lish, tabiat va falsafani o'rganish orqali hayotda o'zining o'rnini to'g'ri belgilash kerak», deb kim aytgan?

- A) Seneka

11) Lukretsiy Kar

C) Demokrit

D) Sokrat

13. Plotinning asarlari keyinchalik qanday atalgan?

A) «Organon»

B) «Lutsiliyga maktublar»

C) «Tabiat haqida»

D) «Enneadalar»

14. «Boylik va hukmronlikka ega bo'lishni «qullikning yangi ko'rinishi» deb kim aytgan?

A) Epiktet

B) Mark Avreliy

C) Sokrat

D) Diogen

15. Dunyoning asosi va yaratuvchisi Xudo, deb kim aytgan?

A) Sokrat

B) Platon

C) Seneka

D) Plotin

16. Stoiklar falsafasining shakllanishiga kimning ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatgan?

A) Geraklit

B) Demokrit

C) Suqrot

D) Fales

17. Faylasuflardan kim «Yagona Xudoning mohiyati uch xil ko'rinishda (Ilohiy Ruh-Aql-Dunyoviy ruh) namoyon bo'ladi», deb aytgan?

A) Plotin

B) Seneka

- C) Platon
- D) Sokrat

18. Plotin falsafiy dunyoqarashining shakllanishiga kimning ta'limoti kuchli ta'sir kursatgan?

- A) Demokrit
- B) Aristotel
- C) Platon
- D) Sokrat

19. Plotinning ta'limotini ijodiy rivojlantirib, mantiqiy nihoyasiga etkazgan izdoshi kim bo'lgan?

- A) Filon
- B) Yamvlix
- C) Appoloniy
- D) Prokl

20. Seneka ta'limotiga ko'ra, hayotning ma'nosini nima tashkil etishi kerak?

- A) boylik ortirish
- B) mutlaq ruhiy xotirjamlikka erishish
- C) shonu shuhratga intilish
- D) odamlarga yaxshilik qilish

3-BO'LIM

O'RTA ASR G'ARB FALSAFASI

ILK XRISTIAN FALSAFASINING SHAKLLANISHI

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda o'rta asr falsafasi bo'yicha atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish. Ularda o'rta asr falsafasining o'ziga xos xususiyatlarini topish; shu davrga tegishli falsafiy manbalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar:

Apologetika, patristika, sxolastika, ilk xristianlik, skeptitsizm, nominalizm, realizm, universaliylar, «ikki haqiqat».


Asosiy savollar:

1. O'rta asr g'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Nominalizm va realizm o'rtasidagi bahs mavzusi.
3. O'rta asr falsafasida aql, iroda muammolari.
4. Foma Akvinskiy falsafasi.
5. Uilyam Okkam falsafasi.

Agar qadimgi falsafa quldarlik davrida paydo bo'lgan bo'lsa, o'rta asr falsafasi G'arbda feodalizm davrida vujudga keldi (V–XV asrlar) va G'arbda xristian dinining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan hamma narsaning yaratuvchisi, mohiyati tabiat emas, balki xudo, degan fikrlash tarziga asoslandi (1-ilova).

Xristian ta'lomitiga ko'ra, hamma narsaning yaratuvchisi xudo va hamma narsa uning xohishi bilan amalgalashadi. Ma'lumki, antik falsafa borliq, materiya (passiv), shakl (aktiv) birligidan boshlansa, xristian falsafasida har qanday narsa faqat bitta, yagona xudo tomonidan boshlanadi, yaratiladi. Narsalarning hammasi yaratganning mevasi deb ko'rsatiladi.


G'arbiy Yevropa O'rta asr falsafasining rivojlanish davrlari



Xudo mustaqil, hech narsaga bog'liq bo'limgan mohiyatdir. Buning mohiyatning manbai ham xudo.²⁴ Xristian falsafasining valillaridan biri *Avgustin Blajenniyidir* (354–430 yy.). U xudoni oly borliq, substansiya (mohiyat), oliy nomoddiy shakl, oliy expulikdir, deb tavsiflaydi. Xudo oliy borliq ekan, u hamma vaqt expulikni yaratadi; yomonlik borliq emas, ijobiy reallik emas, balki salbiy reallik, borliqning aksi, uning buzuvchisidir (2-ilova). Demak, shaytonning gapiga kirib gumon qilish, yomonlik qilish haqiqiy borliqqa qarshi bo'lib, uni buzishga olib keladi. Yomonlik xudoning mohiyatidan kelib chiqmaydi, degan g'oya ilgari surilgan.

2-ilova

O'rta asr falsafasida bilim va e'tiqodning o'zaro aloqadorligi masalasi



O'rta asr g'arb falsafasi o'ziga ikki manbani nazariy asos qilib oldi. Birinchisi, xristian dinidagi bashoratlar, uning ta'limoti bo'lsa, ikkinchisi, qadimgi yunon falsafasi ayniqsa, undagi g'oyaviy borliq to'g'risidagi idealistik qarashlar edi. Mana shu


²⁴ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 2. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. - P. 33.

ikki an'anaviy qarashlarni sintezlash asosida o'rta asr g'arb falsafasi vujudga keldi va shakllandi (3-ilova).

3-ilova

G'arbiy Yevropa sxolastikasining ilk davri (IX–XII asrlar)

Antik davr falsafasi



O'rta asr G'arb falsafasida borliq yoki mavjudlik bilan mohiyat tushunchalari o'rtasidagi farq masalasiga alohida e'tibor qaratilib, quyidagi savollar maydonga tashlandi:


Narsalar bormi? Uning o'zi nima? U qanday? U nima uchun mavjud? Bu savollarning birinchisi borliq, mavjudlikni aniqlashni turlab qilgan. Aristotel borliq, mohiyat to'g'risida fikr yuritgan bo'lisa-da, ularning farqiga e'tibor bermagan edi. O'rta asr faylasufi *Boesiy* (480–524 yy.) bu tushunchalarning farqini aniq ko'rsatib beradi. Uning fikricha, borliq, materiya (mavjudlik) va mohiyat bir xillik emas. U faqat yaratganning o'zi uchun oddiy substansiya sifatida borliqni tashkil etadi. Yaratilgan narsalar oddiy emas, balki murakkabdir. U yoki bu mohiyat mavjud bo'lishi uchun borliqda birgalikda ishtirok etishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, mohiyat yaratilgan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Narsalarning mohiyati tushunchada ifodalanadi (4-ilova). Biz uni aqlimiz bilan fahmlaymiz. Uning mavjudligini tajriba orqali bilamiz, aql orqali bila olmaymiz. Chunki u xudo irodasiga bog'liq, uni yaratganning o'zi biladi, yaratadi, deb hisoblagan. Demak, borliq (mavjudlik) fikrlashga tegishli bo'limgan xudo irodasining natijasi, ilohiy aqidaning namoyon bo'lishidir (5-6-ilovalar).

O'rta asr falsafasidagi yana bir o'ziga xos tomon – bu realizm bilan nominalizm ham, o'rta asr Sharq falsafasida ham mavjud bo'lgan. «Realizm» tushunchasi hozirgi davrda qo'llaniladigan ma'nodan butunlay boshqa ma'noni bildiradi. U lotin tilida (realis) mavjudlik, borliq degan ma'noni anglatadi. Realizm o'rta asrlardagi shunday ta'limotki, unga ko'ra, haqiqiy reallikni umumiy tushunchalargina ifoda etadi, ular universal xususiyatga ega. Ayrim olingan predmetlar, narsalar real emas, balki umumiy tushunchalarning hodisisi, xolos.


O'rta asr realizm ta'limoti yunon faylasufi Platonning mohiyat to'g'risidagi qarashlari bilan hamohangdir. Chunki u real borliq o'zgarmas, abadiy mustaqil g'oyalardan iborat, alohida narsalar o'tkinchi, o'zgaruvchan deb aytgan edi. O'rta asrdagi realizm ta'limotiga ko'ra, umumiy tushunchalar narsalardan oldin ilohiy fikr sifatida mavjud bo'ladi. Shuning uchun inson umumiy tushunchalarni bilish orqali narsalarning mohiyatini biladi, chunki bu mohiyat umumiy tushunchadan boshqa narsa emas.

Universaliylarning uch turdag'i mavjudlig'i




Shuning uchun bu oqimning yirik namoyandasasi *Anselm Konterberiyskiy* (1033–1109 yy.) inson bilishi faqat aql yordamida amalga oshadi, chunki faqat aqlgina umumiy fahmlash qobiliyatiga ega, degan edi. Bunday ta'lilotga qarshi nominalizm oqimi aqldan ko'ra irodani ustun qo'yadi. **Nominalizm** termini lotin tilida («nomen») nom, ism degan ma'noni anglatadi. Nominalizm ta'lilotiga ko'ra, umumiy tushuncha faqat nomni bildiradi. U mustaqil mavjud bo'lish ahamiyatiga ega emas.

Yevropa sxolastikasida nominalizm va realizm



Universaliylarning mavjudlik shakllari

Universaliylar rel holda mavjud




Umumiy tushunchalar yakka narsalar va hodisalarsiz mustaqil ahamiyatga ega emas. Yakka predmetlar va hodisalar bizning ongimizda aks etib, ularni mavhumlash va umumlashtirish asosida umumiy belgilarni topamiz. Bu belgilar bir butun jinsdagi narsalarga tegishli bo‘ladi. Masalan, biz «odam» tushunchasini olib qarasak, hamma odamlarga xos belgilarni, ya’ni onglilik belgisini topamiz. Bu belgi hamma odamlarga xos umumiy va uni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan belgidir. Shunday qilib, nominalizm ta’limotiga ko‘ra, umumiy tushunchalar narsalardan oldin emas, balki narsalar undan oldin paydo bo‘ladi. Nominalizm vakillari Rasselin (XI-XII asrlar), U.Okkam (1285-1340 yy.), I.Buridin (XIII asr oxiri va XIV asr boshi), Nikolay (XIV asr) va boshqalar.

Realizm ta’limotining yirik vakili xristian falsafasining asoschisi *Foma Akvinskiydir* (1225–1274 yy.) Akvinskiy diniy falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 7- 8- ilovalarda keltirilgan.

Nominalizm ta’limotini rivojlantirishda Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Ibn Sino, Forobiylarning xizmati katta. Ular ham Sharqda mavjud bo‘lgan «realizm» - kalom falsafasining qarashlari bilan doim bahslashib kelganlar. O‘rta asr nominalizmi Fr.Bekon, J.Lokk, D.Yumning empirik falsafasining paydo bo‘lishida ham asos bo‘ldi va tabiat fanlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta asr G‘arb falsafasidagi realizm esa sxolastik falsafaga asos soldi (9- ilova). XI asrlarga kelib, umumiy tushuncha taradidlari mantiq ilmini o‘rganish uchun o‘zlarida ehtiyoj seza boshladilar. Tushunchalar ma’nosi, ularning ahamiyati to‘g‘risida munozaralar qizib ketdi. Aristotel mantig‘i Boesiy tomonidan tarjima qilindi. Tushunchalar har tomonlama talqin etildi. Shu asosida teologiya «haqiqiy e’tiqod»ning mantiqiy asosini isbotlash uchun keskin munozaralar bo‘ldi. Dialektika haqiqatni topish vositasi sifatida qaraldi. Dialektika maktablarda o‘qtildi. Sxolastik dialektika turli oqimlarni vujudga keltirdi. XV–XVI asrlarda bunday muxolifat, bir tomonidan, gumanitar dunyoviy madaniyat sifatida, ikkinchi tomonidan, yangiplatonchilik naturfalsafasi shaklida namoyon bo‘ldi.

Foma Akvinskiy ta'limotining g'oyaviy asoslari va ta'sir doirasi



Foma Akvinskiy: xudo mavjudligining besh isboti

1. Kosmologik isbot

Har bir harakat qilayotgan narsa boshqa qandaydir biron narsa orqali harakatga keladi. Lekin bu harakatning davomi uzlusiz bo'lishi mumkin emas, Chunki birinchi "harakatga soluvchi" ham, u tufayli harakat qilayotgan narsa ham birinchi harakat qilayotgan narsa tufayli harakat qiladi. Birinchi harakatga soluvchining mavjudligi shu bilan belgilanadi. Bu – Xudodir.

2. Sababiy isbot

Dunyoda qator ta'sir qiluvchi sabablar bor. Biron narsa ta'sir qiluvchi sababchisisiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda, u o'zidan-o'zi ilgari bo'lib qolardi, bu mumkin emas. Demak, qandaydir birinchi ta'sir qiluvchi sabab borki, u Xudodir.

3. Ontologik isbot

Tasodif va zaruriyatning o'zaro munosabatidan kelib chiqadi. Bu o'zaro munosabatlar zanjirini ham uzlusiz tasavvur qilish mumkin emas. Tasodifiy narsa zaruriy narsaga bog'liq. Bu narsaning zaruriyligi esa, yo boshqa zaruriy narsaga bog'liq, yoki uning zaruriyligi o'zida mavjud. Oqibatda shu narsa aniqlanadiki, qandaydir birinchi zaruriyat borki, u Xudodir.


4. Dogmatik (mukammallahuv darajasi sifatidagi) isbot

Xudo borlig'ining to'rtinchı isboti birin-ketin keladigan, hamma yerda, hamma narsada mavjud bo'lgan kamolot darajalari ning mavjudligidir, eng oliv darajadagi kamolot darajasi borki, u ham –Xudodir.

5. Ilohiy (maqsadga muvofiqlik sifatidagi) isbot

Hamma narsalarning maqsadga muvofiq yaratilganligidir. Uning asosida butun tabiatda namoyon bo'ladigan foydalilik yotadi. Bu ta'limot bo'yicha, hamma narsa, hatto, foydasiz va tasodifiy bo'lib ko'ringan narsalar ham qandaydir maqsadga intilgan, biron ma'noga ega, biron foydasi bor. Demak, shunday bir ongli mohiyat borki, hamma tabiiy narsalarni maqsadga yo'naltiradi. Bu –Xudodir.

Yetuk yoki yuksak sxolastika



O'rta asr G'arb falsafasi diqqat e'tiborini shu davr Sharq falsafasidan farqli o'laroq, tabiatni emas, balki xudoni va inson ruhiyatini o'rganishga qarattdi. Tabiatni o'rganganda ham turli timsoliy, ramziy ma'noda o'rgandi. Dunyo inson uchun ezgulik bo'libgina qolmay, tarbiya, o'qituvchi hamdir. O'rta asr G'arb falsafasi vakillari, «inson kim?» degan savolni maydonga tashladilar va unga turlichay javob berdilar. Biroq turlichay javoblarning hammasi uchun umumiy tomonlar ham bor. Birinchisi, «inson xudoga o'xshash obrazda» degan Injil ta'limoti bo'lsa, ikkinchisi, inson to'g'risidagi Platon va Aristotel qarashlarini asos qilib olgan «inson aqlli hayvon» degan fikr edi. Unga ko'ra, insonda ustuvor aqlmi yoki maxluqlikmi, degan savol tug'iladi. «Aql nima-yu

maxluqlik nima?» degan savol ham paydo bo‘lgan. Eng asosiysi, inson xudoga o‘xshagan obraz, degan ta’rif to‘g‘ri deb qaralgan. Xo‘s, shunday ekan, xudoning qaysi xislati xudoning mohiyatini tashkil etadi. Inson boshqa mavjudodlardan farqli o‘laroq xudo dargohidan tushgan, yana o‘sha tomonga ketadi.

Demak, inson xudoning makonida yashashga qaratilgan zot, u butun tabiat ustidan hukmronlik qilish kerak, Inson tana va jon birligidan tashkil topgan bo‘lib, butun narsalarga hukmronlik qilishi uchun xudo unga hayotni bergen, degan ta’limot kelib chiqadi. Insonni boshqa yaratilgan narsalarning hukmdori, deb ta’riflangan. Xudo butun borliqning hukmdori bo‘lsa, insonga o‘zidan boshqa hamma yaratilgan narsalarning hukmdori, deb qaralgan. Demak, inson tashqi ta’sirga nisbatan erkin va ularga bo‘lgan munosabati ham erkin. Shunday qilib, aqli inson irodasi bilan erkin, deb ko‘rsatdilar.

Britaniyada tug‘ilgan *Pyer Abelyar* (1079–1142 yy.) o‘z aqliy qobiliyati bilan yoshligidanoq juda mashhur bo‘lgan. Uning Parij universitetida ilohiyotdan o‘qigan ma’ruzalar shu darajada mashhur bo‘lganki, hatto ayrim vaqtarda ularni tinglash maqsadida bir necha ming talaba yig‘ilgan.


Abelyar pozitsiyasi – mo‘tadil realizm. Uning fikricha, dastlab reallik xudo ongida mavjud bo‘lgan, keyin bevosita narsalarning o‘zida (lekin bu olam tashqarisida emas) va oqibatda odamlarning ongida mavjud bo‘lgan. Anselmga qarama-qarshi Abelyar «Men e’tiqod qilish uchun bilaman», -deydi. Tafakkurning haqiqatni topishdag‘i rolini ta‘kidlab, Abelyar doimo tafakkurga avtoritet (nufuz) sifatida murojaat qiladi. U ta‘kidlaydiki, shubha tadqiqotni taqozo qiladi, tadqiqot esa haqiqatga olib keladi. Uning fikricha, Isoning o‘limi xudoni qanoatlantirish uchun emas, balki odamlarga xudoning sevgisini yuqtirish uchun yuz berdi. Bu bilan esa odamlarga axloqiy ta’sir o‘tkazish va uning oqibatida o‘z hayotini xudoga bo‘ysundirish bo‘lgan. Bu qarash axloqiy ta’sir o‘tkazish nazariyasi deb ataladi.

Abelyarning yirik asari «Ha va yo‘q» 158 tasdiqdan iborat. Ular maxsus tartibda cherkov otalarining ayrim g‘oyalariga nisbatan «ha» yoki «yo‘q» deb bildirgan qarashlari edi. Shunday

qilib, Abelyar cherkov otalari orasida qarama-qarshilik mavjudligini, u esa ularni bartaraf eta olishini ta'kidlaydi-ki, garchi u umumqabul qilingan katolik ilohiyotini inkor qilmagan bo'lsa ham, uning usuli ruhoniylarning g'azabiga sabab bo'ldi. Chunki u huqiqatni anglashda tafakkurning rolini juda yuqori baholagan (10-ilova).

10-ilova


Abelyar: aqlning uch turi



Nominalistlar ma'lum darajada XVII–XVIII asr empiriklarning o'rta asrdagi hamda XIX–XX asrlar pozitivistlari va pragmatiklarining o'tmishdoshlari bo'lganlar. Nominalistlar ilohiy karomatni inkor qilmaganlar. Unga tafakkur ishtirokisiz ishonish kerak, deb ta'kidlaganlar, chunki ularning fikricha, cherkov ta'kidlagan narsaning haqiqiyligi, ishonchliligi aql bilan isbot qilinmaydi. Dominikan ordeni monaxlariga qarshi bo'lgan fransiskanlar ordeni monaxlari Akvinskiy ta'limotini tanqid qila boshladilar. Bu tanqid nominalistlar ta'limotining shakllanishiga olib keldi. Nominalizm XIV asrda sxolastikaning tanazzuli davrida ustunlikka erishdi.

Duns Skot (1266–1308 yy.) olamning paydo bo'lishini umumiylidandan yakkalikka, mavhumlikdan muayyanlikka o'tib borish shaklida tasavvur etgan. U alohida obyektlar maxsus individuallashtiruvchi harakat natijasida paydo bo'ladi, degan g'oyalari bilan nominalizm rivojiga yo'l ochib berdi (11-ilova). U shuningdek, falsafa bilan ilohiyot o'rtasida muayyan farq mavjudligini ham ko'rsatishga harakat qilgan (12-ilova).

Duns Skot ta'limoti bo'yicha individual obyektlarning shakllanishi



Falsafa va ilohiyot

	Falsafa	Ilohiyat
Tadqiqot predmeti	Borliq mavjudlik va hamma narsa sifatida, unga taalluqli bo'lgan va undan kelib chiqadigan narsalar.	E'tiqod
G'oyalarni asoslash usuli	Qat'iy isbotlanuvchi-namoyish qilinuvchi jarayon.	E'tiqod yo'li (nufuzga murojaat qilish orqali, ehtirosli iztiroblanish va h.k. orqali).

12-*ilovaning davomi*

Mantiq	Obyektiv mantiq	Ilohiyot mantig'i
Haqiqatga erishishning asosiy uslubi	Mavhumlashtirish	Intuitsiya
Asosiy maqsad	Bilim uchun bilish	Xalovatga erishish.

Uilyam Okkam (1280–1349 yy.) o‘rta asr falsafasida to‘liq nominalizmning shakllanishiga erishgan. Uning ta’kidlashicha, ilohiyot aqidalari aql yordamida isbot qilinmaydi. Ular faqat muqaddas kitoblar nufuzi tufayligina qabul qilinadi. Bu ta’limot e’tiqod va aqidani bir-biridan ajratadi va ilohiy karomat va aqlni sintez qilishni inkor qiladi. Okkam, shuningdek, obyektiv universaliylarni ham inkor etadi va ular faqat tafakkur tushunchalari uchun ismlardir, deb hisoblaydi. Bu ismlarni odam o‘z ongida ishlab chiqadi, deydi u. Uningcha, yakka odam guruhgaga nisbatan muhimroq va realroqdir. Okkam ratsional tarzda tashkil qilingan tashkilot sifatida cherkovning nufuzini inkor qilgan. Bu narsa bir asrdan keyin uning asarlari ga Lyuternning qiziqishini kuchaytiradi.


Royer Bekon (1214–1292 yy.) ham Okkam oqimiga mansub bo‘lgan. U inson johilligi sabablarini o‘rganar ekan (13-ilova), ko‘proq ilmiy tajribalarga e’tibor qaratgan. R.Bekon bilish turlarini ishlab chiqqan (14-ilova) va tajribaviy fanga asos solgan. Bu metod keyinchalik, XVII asrda Frensis Bekon tomonidan ishlab chiqiladi. Royer Bekon, shuningdek, fanlarning tasnifini, ularning predmeti va foydasini ham ko‘rsatib berishga harakat qilgan (15-ilova).

O‘rta asr falsafasida ***Ioann Skot Eriugena*** falsafiy qarashlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi (16-17-ilovalar). 1300-yildan boshlab, cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm ustunlik qila boshlagandi. Nominalizm alohida inson tushunchasi odamlar guruhini aks etuvchi umumiy tushunchaga nisbatan realroqdir, deb insonga e’tiborini kuchaytirdi. Bu e’tibor Uyg‘onish davri falsafasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi hamda tajribaviy usulning ahamiyatini tasdiqlashga imkoniyat yaratdi.

Insoniy johillik sabablari

Shubhali nufuzlarga ishonish
Ma'lum fikrlarga uzoq vaqt odatlanish
To'daning johil odatlari
Olimlarning hamma narsani bilishi niqobi ostidagi bilimsizligi


Rojer Bekon: bilish usullari haqida



Fanlar, ularning predmeti va foydasi

<i>Fanlar</i>	<i>Ularning predmeti va foydaliligi</i>
Umumnazariy fan Filsafा (metafizika)	Xususiy fanlar o‘rtasidagi aloqani aniqlaydi, ular uchun dastlabki munosabatni belgilaydi; o‘zi xususiy fanlar asosida tuziladi.
Amaliy fan Matematika	Tabiatni o‘rganadi. Son va kattaliklarni o‘rganadi; uylarni, shaharlarni qurishda, maydonlarni va vaqtini o‘lchashda, mashinalarni yaratishda kerak.
Mexanika (Amaliy geometriya)	Uning yordamida kelajakda uchish apparatlari yaratiladi, xuddi shunday karetalar, ulovsiz boshqariladigan aravalar, kemalar, eshkaksiz suzadigan qayiqlar yasaladi.
Optika (istiqbol)	Nurni va uning tarqalishini o‘rganadi; R.Bekonning o‘zi ochkini yaratgan; teleskop va mikroskop tamoyillarini ehtimol qilgan.
Astronomiya	Yulduzlarning tabbiy quvvatini o‘rganadi.
Og‘irlik haqidagi fan	Unsurlarni o‘rganadi, chunki ularda og‘irlikning yengillikdan farqi asosiy rolni o‘ynaydi.
Alkimyo	Jonsiz tuzilmalarni o‘rganadi, har qanday elementar solishtirmalarni tahlil qiladi; uning yordamida boshqa metallarni oltinga yoki kumushga aylantirish mumkin.
Biologiya (yer bilan ishlash)	Organik obyektlarni o‘rganadi, ya’ni o‘simliklar va hayvonot olamini o‘rganadi; hosildorlikni oshirish mumkin.
Tibbiyot	Inson organizmini o‘rganadi; uning sog‘ligini va kasalligini tahlil qiladi.
Tajribaviy fan Astrologiya	Turli fanlarning amaliy natijalarini ko‘rsatadi; astronomik kuzatuvlar asosida o‘tmish, kelajak va hozirgi hodisalarni o‘rganishga imkon yaratadi.
Magiya (afsungarlik)	Hayotiy eleksir yaratish imkonini yaratadi va h.k.lar.

Eriugena falsafasining ildizlari va ta'sir doirasi



Eriugena: to‘rt xil tabiat haqida

Birinchi tabiat: yaratuvchi va yaratilmagan tabiat

Xudo – har qanday ta‘rifdan va borliqda tashqarida turadi. Xudoga yetishib bo‘lmaydi. U o‘z-o‘zini anglaydi. U ko‘plikni, alohidalikni o‘zida qamrab oluvchi yagona reallikdir. Falsafiy tafakkurga u uchbirlik sifatida namoyon bo‘ladi. *Ota – Borliq, O‘g‘il – Logos, Muqaddas ruh – Hayot.*

Ikkinchchi tabiat: yaratilgan va yaratuvchi

Ilohiy aql, yoki Logos, uning o‘zi ham – *Xudoning o‘g‘li*, bu Xudo o‘zini yaratadi va o‘zini yaratgan dunyosida namoyon bo‘ladi. Bu yerda Xudo birinchi timsollarni yoki g‘oyalarni (tur va jinslarni), hamma mavjud narsalarning birinchi sabablarini yaratadi. Shu yerda birinchi mohiyatarni bo‘linishi sodir bo‘ladi, ko‘plik va alohidalikning iibtidosi boshlanadi.

Uchinchi tabiat: yaratilgan va yaratmaydigan

Moddiy va tanaviy narsalar duniyosi, g‘oyalarga monand yaratilgan dunyo. Lekin tanaviylik yoki moddiylik faqat hodisa sifatida mavjud. Biz narsa deb hisoblaganimiz, aqlga berilgan xususiyatlar yig‘indisidir: uzunlik, shakl, ranglar va h.k. Shundan narsalarning moddiyligi va ko‘pligi sarobdir, faqat umumiylik va yagonalik real tarzda mavjud.

To‘rtinchchi tabiat: yaratilmagan va yaratmaydigan

Xudo – oxirgi sabab va hamma narsaning maqsadi sifatida mavjud. To‘rtinchchi tabiat birimchiga aynan tengdir. Ular mohiyatan emas, balki harakat yo‘nalishiga qarab bir-biridan farq qiladi: birlikdan ko‘plikka qarab, ko‘plikdan birlikka qarab harakat qiladi.

Nominalistlar bilan realistlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik jiddiy muammolardan bo‘lib, sxolastikaning dastlabki davridayoq (1050–1150 yy.) ular o‘rtasida keskin kurash ketgan. Bu davrda Anselm va Bernard boshchiligidagi realistlar ustunlikka erishgancha. Sxolastikaning ravnaqi davrida (1150–1300 yy.) Foma Akvinskiyning mo‘tadil realizmi nominalizm ustidan g‘alaba qozondi.

3 - bo‘limga oid topshiriqlar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. O‘rta asr G‘arb falsafasi qaysi asrlarga to‘g‘ri keladi va nechta bosqichga bo‘linadi?
2. O‘rta asr G‘arb falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?
3. Gnostitsizm qanday g‘oyaviy ildizlarga tayangan?
4. Gnostikar qanday g‘oyalarni ilgari surishgan?
5. Apologetlar kimlar?
6. Kvint Septimiy Tertullian qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
7. Patristika davriming yirik namoyandalaridan Avreliy Avgustin qanday ta’limotga asos solgan?
8. Avreliy Avgustin o‘zining «Ilohiy sultanat haqida» nomli asarida qanday g‘oyalarni bayon etgan?
9. Esxatologiya nima?
10. Avreliy Avgustinning esxatologik ta’limotini bilasizmi?
11. Avreliy Avgustinning axloqiy nazariyasi qanday tamoyil-larga tayanadi?
12. Avreliy Avgustin baxt tushunchasini qanday talqin etadi?
13. Sxolastika nima?
14. Sxolastikaning yirik namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
15. Eriugena ta’limoti qaysi falsafiy oqimga tegishli?
16. Eriugena falsafa va teologiya hamda tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni qanday tahlil etgan?
17. Nominalizm va realizm oqimlari o‘rtasidagi bahs mavzusi qanday masalaga bag‘ishlangan?
18. Nominalizm vakillari kimlar?
19. Pyer Abelyar qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
20. Duns Skot falsafasi qanday xususiyatlarga ega?
21. O‘rta asrlar G‘arb falsafasida nominalizm va realizm o‘rtasidagi bahs keyingi falsafiy fikr rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
22. Foma Akvinskiy qanday falsafiy ta’limotni yaratgan?
23. Foma Akvinskiy ta’limotida bilim va e’tiqod o‘rtasidagi nisbat masalasi qanday hal etilgan?

11. Foma Akvinskiy ta'limotining tarixiy taqdiri qanday bo'lgan?

Oyndagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Biz hayotni yashayotganimiz uchun emas, uni angay olganimiz uchun sevamiz (Avreliy Avgustin).
2. Haqiqat va yolg'onni ajratish juda mushkul ish. Shu bois adashgan odamlardan ranjish yaramaydi (Avreliy Avgustin).
3. Menimcha, haqiqat yolg'iz Xudoga ayon. Inson ruhi ham haqiqatni bilishga qodir. Amмо buning uchun u zimiston tanadan chiqmog'i lozim (Avreliy Avgustin).
4. Olam yaralmasdan ilgari vaqt ham bo'lмаган. Uning yuralishi harakatni yuzaga keltirgan. Ana shu harakat onlari va olamdag'i o'zgarishlar – vaqt deb ataladi (Avreliy Avgustin).
5. Vaqtinchalik narsalarga bo'lган ishtiyoqni mangu narsalar ning mazasini tatib ko'rish yordamida so'ndirish mumkin (Avreliy Avgustin).
6. Tushunmoq uchun ishonmoq darkor (Avreliy Avgustin).
7. Zulm inson tomonidan sodir etiladigan va boshidan kechiradigan narsadir. Sodir etiladigani – gunoh, boshdan kechiriladigani – jazo... Inson o'zi istagan holda zulmni sodir etadi, istamagan holda uni o'z boshidan kechiradi (Avreliy Avgustin).
8. Toki johillik mavjud ekan, inson yovuzlikka qarshi biron chora topolmaydi (Rojer Bekon).
9. Garchi Aristotel sillogizm (ikki fikrni taqqoslab, ularning natijasi bo'lган uchinchi fikrni chiqarish)ni bilim manbai sifatida tan olgan bo'lsa-da, shunday holatlar bo'ladiki, oddiy tajriba har qanday sillogizmdan ko'ra yaxshiroq natija beradi (Rojer Bekon).
10. Umumiy tushunchalar, universaliylar hamma joyda va har doim mavjud. Rang alohida rangga nisbatan ustunroq. Insoniyat insonga nisbatan ustunroq. Sifat, u xos bo'lган kimsadan ustun, ilohiylik muqaddas insonlarga nisbatan ustun bo'lгани kabi Xudo alohida mavjudotlardan ustunroqdir (Foma Akvinskiy).
11. Qanday qilib molu dunyo, boylik orqali inson haqiqiy baxtga erishish mumkin, agar boylikka erishish uchun iztirob

cheksa? Boylikni yo‘qotish qattiq hayajonlantirsa, haddan ko‘plig esa aqldan ozdirsa? (Foma Akvinskiy).

Prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular

1. O‘rta asrlar G‘arb falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Avreliy Avgustin ta’limotida bilim va e’tiqod masalalari.
3. Foma Akvinskiy xudo mavjudligini isbotlashning beshta yo‘li haqidagi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. «Royer Bekonning Aristotel va Ibn Sino ta’limotiga munosabati» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.
2. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy ta’limotlarini qiyosiy tahlil eting.

TESTLAR

1. O‘rta asrlar G‘arb falsafasining xususiyatlari...

- A) gumanizm, individualizm
- B) materializm, idealizm
- C) dialektika, metafizika
- D) sxolastika, apologetika

2. O‘rta asrlar G‘arb falsafasida qanday yirik oqimlar shakllandi?

- A) materializm, idealizm
- B) realizm, nominalizm
- C) dialektika, metafizika
- D) gumanizm, individualizm

3. O‘rta asrlar G‘arb falsafasida «universaliylar» nimani anglatgan?

- A) butun borliqni yagona Xudo yaratganligini olamning
- B) olamning asosini harakatdagi atomlar tashkil etishini

- C) asosini tashkil etuvchi umumiylar tushunchalarni
D) tabiatdagilardan qanday narsalarining o'zgaruvchanligini

**4. Nominalizm va realizm o'rta sidagi bahs mavzusining
mazmun-mohiyati nimada?**

- A) umumiylar tushunchalarning tabiatini aniqlash
B) olamni imkoniyat va voqeylek aloqadorligida o'rganish
C) narsalarga xos sifatlarining sababini aniqlash
D) narsa va hodisalar harakatining sababini aniqlash

**5. O'rta asrlar G'arb falsafasida xristian sxolastlarining
falsafaga munosabati qanday bo'lgan?**

- A) falsafa va ilohiyot o'rta sidada hech qanday aloqadorlik yo'q
B) ilohiyot falsafiy tafakkur rivojiga xizmat qilishi kerak
C) falsafa ilohiyotning xizmatida bo'lishi kerak
D) falsafa va ilohiyot bir maqsadga xizmat qilishi kerak

6. Gnostitsizm qanday ta'limot?

- A) Zardushtiylikdan qabul qilingan yaxshilik va yomonlik o'rta sidagi kurash g'oyasiga asoslangan dualistik diniy-falsafiy ta'limot
B) barcha narsalarning ibtidosi olov, degan g'oyaga asoslanuvchi materialistik ta'limot
C) olamdagagi barcha narsalarni sezgilar va tajriba yordamida bilish mumkinligini e'tirof etuvchi ta'limot
D) xristianlikka tegishli diniy ta'limot

7. Kvint Septimiy Tertullian fikricha, oliy haqiqat, bu...

- A) tajriba
B) e'tiqod
C) sezgilar
D) tafakkur

**8. «Xudo barcha narsalarni belgilaydi va inson hayotini boshqaradi. Falsafiy tafakkur daxriylikka olib keladi, xolos»,
degan g'oya kimga tegishli?**

- A) Tertullian

- B) Plotin
- C) Aristotel
- D) Platon

9. «Xudo haqidagi haqiqatni aql emas, e'tiqod biladi. E'tiqod qilish uchun aqli bo'l, aqli bo'lish uchun esa e'tiqod qil» degan g'oya kimga tegishli?

- A) Tertullian
- B) Plotin
- C) Avreliy Avgustin
- D) Platon

10. Tertullian, Origen, Avreliy Avgustinlar Foma Akvinskiy qanday falsafaning namoyandalari bo'lishgan?

- A) idealizm
- B) diniy-sxolastika
- C) mistitsizm
- D) panteizm

11. «Mutlaq yomonlik yo'q, mutlaq yaxshilik bor. Hech qanday yaxshi ishlar qilinmayotgan yerda yomonlik yuzaga keladi, yomonlik – oliv maqsadlardan yuz o'girish, kibr-havodir. Kibr-havo Xudoga murojaat qilmaslikdan kelib chiqadi» deb kim aytgan?

- A) Demokrit
- B) Seneka
- C) Avreliy Avgustin
- D) Sokrat

12. Avgustinning qaysi risolasida tarix falsafasi masalalari o'ziga xos ravishda talqin etilgan ?

- A) «Illohiy sultanat haqida»
- B) «Baxtli hayot haqida»
- C) «Tartib haqida»
- D) «Monologlar»

13. O'rta asrlardagi realizm ta'limoti kimning g'oyalariga tayyungun?

- A) Sokrat
- B) Protagor
- C) Platon
- D) Aristotel

14. O'rta asrlar G'arb falsafasining qaysi bir namoyandası tabiiy mantiqni sxolastik mantiqqa qarama-qarshi qo'yadi; avtoritetlarga emas, aql va his-tuyg'ular yordamida to'plan-gan tajribaga ishonish zarurligi to'g'risida fikr yuritadi?

- A) Rojer Bekon
- B) Anselm Kenterberiyskiy
- C) Foma Akvinskii
- D) Eriugena

15. XIII asrda yashagan yirik mantiqshunos Raymund Lulliy mantiq ilmiga qanday ta'rif bergen?

- A) ilohiy bilimlarning haqiqatligini isbotlash ilmi
- B) haqiqatni yolg'ondan ajratishga yordam beradigan san'at
- C) to'g'ri tafakkur qonunlari va shakllari haqidagi fan
- D) inson tafakkurini rivojlantiruvchi san'at

16. Raymund Lulliy qanday mantiq ilmini rivojlantirgan?

- A) dialektik mantiq
- B) formal mantiq
- C) sxolastik mantiq
- D) obyektiv mantiq

17. Duns Skot ta'limotiga ko'ra, bilish nimadan boshlanadi?

- A) tajribagacha mavjud bo'lgan tug'ma g'oyalardan
- B) nufuzli, isbot talab etmaydigan bilimlardan
- C) aqliy mulohazalardan
- D) alohida buyumlarni hissiy idrok etishdan

18. Gnoseologiyaga «intensiya» tushunchasini kim kiritgan?

- A) Uilyam Okkam
- B) Duns Skot
- C) Rojer Bekon
- D) Anselm Kenterberiyskiy

19. Qaysi bir o'rta asrlar diniy-sxolastik falsafasi namoyandasining ta'limoti katolik cherkovining rasmiy aqidalariga asos qilib olingan?

- A) Foma Akvinskiy
- B) Anselm Kenterberiyskiy
- C) Rojer Bekon
- D) Eriugena

20. «Sxolastikaning oltin davri» qaysi asrga to'g'ri keladi?

- A) XIII asrga
- B) XI asrga
- C) III asrga
- D) XII asrga

4-BO'LIM UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda Uyg'onish davri falsafasiga oid atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar shakllantirish; Uyg'onish davri falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Uyg'onish davri, renessans, gumanizm, antropotsentrizm, panteizm, utopiya, ideal jamiyat, gelrotsentrizm, koinotning cheksizligi.

Asosiy savollar:

1. Uyg'onish davri falsafasining ijtimoiy va gnoseologik ildizlari.
2. Nikolay Kuzanskiyning panteizmi va kosmologiyasi.
3. Nikkolo Makiavelli – ideal jamiyat haqida.
4. Jordano Bruno koinotning cheksizligi va dunyolarning ko'pligi haqida.


G'arbiy Yevropada ***Uyg'onish davri***, ko'pchilik olimlarning e'tirof etishicha, XIV–XVI asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi (1-ilova).

XIV asming oxiri va XV asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida Yangi davr boshlanayotganidan darak beruvchi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, Italiyada yangi tuzumning birinchi belgisi – manufakturalar vujudga kela boshladi. Shahar, shahar madaniyati va

savdo rivojlandi, ishlab chiqarish sur'ati jadallahdi, texnikada kashfiyotlar bo'ldi, ishlab chiqarishga texnik vositalar kirib kela boshladi. Yevropada (Sharqdan keyin) kompas yaratildi va yangi dengiz yo'llari ochila boshlandi. Magelanning dunyo bo'ylab safari, Amerika va Hindistonda dengiz yo'lining ochilishi shular jumlasidandir.

I-ilo va

Yevropada uyg'onish davri falsafasining manbalari va yo'nalishlari



Yevropa mamlakatlariidagi bunday o'zgarishlar natijasida nafaqat iqtisod va siyosat, shu bilan birga fan va madaniyat,

shuningdek, falsafa o‘rtta asrda hukmron g‘oya bo‘lgan din ta’siridan qutula bordi va dastlabki Yevropa madaniyati shakllana boshladi. Bu davr madaniyatining asosiy mazmuni inson manfaatlari xizmat qilishga va uning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan edi. Shuning uchun bu madaniyatni yaratuvchi Yevropa ziyolilari tarixda gumanistlar, ya’ni **insonparvarlar** degan nom oldilar.²⁵ To‘g‘ri, inson hamma vaqt mutafakkirlar diqqat marказida bo‘lgan, faqat qadimgi davrda u koinotning bir bo‘lagi silatida o‘rganilgan, o‘rtta asrda «Xudo timsoli» sifatida talqin qilingan. Yevropa ziyolilari esa o‘z asarlarida muayyan insonning manfaatlari va huquqlarini himoya qilganlar. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:


1. Bu davrda qadimgi yunonlar ma’naviyati, turmush tarzi, sikrlash usullari qaytadan tiklandi, Renessans, ya’ni Uyg‘onish deyilishining asl sababi ham shunda.
2. Bu davr madaniyati, yuqorida aytiganidek, gumanistik xarakteri bilan ajralib turadi.
3. Bu davr falsafasi antisxolastik yo‘nalishda bo‘lgan va antropotsentrik xarakterga ega bo‘lgan.
4. Bu davrda tabiat talqiniga yangicha yondoshildi: u inson bilimlarining manbai sifatida o‘rganila boshlandi.
5. Inson tabiatni va jamiyat mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlar o‘zgardi.

Uyg‘onish davrining yirik vakillaridan biri *Nikolay Kuzanskiy* (1401–1464 yy.) bo‘lgan. Uning fikricha, Xudo eng oliv va mutlaq borliq bo‘lib, tabiatni va insonni yaratgan. Ayni vaqtida tabiat bir qancha xususiyatlari ko‘ra, eng avvalo, makondagi cheksizligi bilin Xudoga o‘xshashdir.²⁶ N.Kuzanskiy «Barcha narsalar Xudoda bo‘lgani kabi, Xudo barcha narsalardadir», degan iborasi orqali Xudo tabiiy olam narsalarida namoyon bo‘lishi va narsalar qaytadan Xudoda jamlanishi to‘g‘risidagi panteistik g‘oyani ilgari surgan (2-ilova).

²⁵ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol.1-9. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.

²⁶Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 2. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 233

Panteizmning asosiy turlari



N.Kuzanskiy o‘z qarashlarida gumanistik falsafaning asosiy muammosi hisoblangan inson masalasiga ham katta e’tibor bergen. N.Kuzanskiy falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 3- ilovada keltirilgan.

Mutafakkirning bilish borasidagi qarashlari bilish nazariyasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. U bilish hissiyotdan boshlanib, idrok qilish orqali aqlda yakunlanadi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. N.Kuzanskiy bilishdan maqsad abadiy va o‘z-garmas «ilohiy haqiqat»ga erishishdir,²⁷ degan o‘rta asr sxolastlaridan farqli o‘laroq, bilish jarayonini inson bilimlarining cheksiz takomillashuvi sifatida talqin etgan (4-ilova).

Yangi davr jamiyatga ham yangicha yondashuvni taqozo etar edi. Bunday qarashlar asosida individualizm yotgan: jamiyat bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan, mustaqil individrlar yig‘indisi sifatida tu-shunilgan.

Mashhur siyosatchi *Nikkolo Makaviellini* (1469–1527 yy.) uyg‘onish davrining birinchi sotsiologi deyish mumkin.²⁸ U


²⁷ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 2. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 236

²⁸ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol. 3. - N.Y., London, 2003. – P. 317.

xudbinlik (egoizm), moddiy manfaatdorlikni inson faoliyatining asosidir, degan g'oyani ilgari surgan. «Odamlar,-deb yozgan edi u, ota-onasining o'limini, yo'qotgan mol-mulkiga nisbatan tezroq unutadilar».

3-ilo va

Nikolay Kuzanskiy falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



Bilish bosqichlari

<i>Bilish turlari</i>	<i>Bajaruvchi vazifasi</i>
1.Hissiy bilish	Yakkalikni va yakuniylikni biladi
2.Tafakkur	Qarama-qarshilikni ajratadi
3. Aql	Qarama-qarshilikni birlashtiradi
4. Aqliy intuitsiya	Qarama-qarshiliklarning o'zaro mos kelishini bevosita mushohada qiladi

Makiavelli davlat mavjudligini din (cherkov)ga bog'liq deb tushuntirgan o'rta asr falsafasidan farqli o'laroq, davlat huquqiy tartibot muassasalari orqali qonunlar asosida boshqarilishi kerakligini aytgan.

Makiavelli «*Davlatpanoh*» deb nomlangan asarida davlatning kuch-qudratini qonun tashkil etishi lozimligini, bunga erishish uchun turli yo'llardan foydalanish mumkinligini bayon qiladi. «Qudratli davlat tuzmoqchi bo'lgan hukmdor bir qancha, sher va tulki xususiyatlariga ega bo'lishi kerak», - deb yozgan edi u.

Xalq manfaatlarini ifodalaydigan jamiyat qanday bo'lishi kerak? Ingliz gumanisti va davlat arbobi *Tomas Mor* (1478–1535 yy.) o'zining «*Utopiya*» asarida bu savolga javob berishga harakat qilgan. U xalqning azob-uqubatda yashayotganligini chuqr qayg'u bilan yozar ekan, buning asosiy sababini xususiy mulkdan qidiradi. Xususiy mulkni kishilik jamiyatining asosi deb bilgan Makiavellidan farqli o'laroq, T.Mor uni ijtimoiy zulmning bosh sababi deb ko'rsatgan.²⁹ «*Utopiya*»da tasvirlangan jamiyatning xarakterli belgisi unda xususiy mulkning yo'qligi hamda uning oddiy qo'l mehnatiga asoslanganligidir (5-ilova).


T.Mor g'oyalari italiyalik faylasuf va sotsiolog *Tomazo Kampanella* (1568–1639yy.) tomonidan rivojlantirildi. Kampanella italiyaliklarning Ispaniya zulmiga qarshi kurashiga boshchilik qiladi,

²⁹ O'sha manba. – P. 320.

biroq sotqinlik natijasida bu kurash mag‘lubiyatga uchraydi. Kampanella esa 27 yil qamoqda yotadi. U shu yerda 1602-yilda mashhur «*Quyosh shahri*» asarini yozadi³⁰. Bu asarida u odamlar jamaoa bo‘lib yashashi kerakligi, jamaoa manfaati uni tashkil etgan a’zolari manfaatidan yuqori turishi lozimligi haqidagi g‘oyalarni to bayon qiladi. «*Quyosh shahri*»da tasvirlangan jamiyatda ham Tomas Morning «Utopiya»sidagi singari xususiy mulk bo‘lmaydi, ammo mehnat bu yerda takomillashgan: qo‘l mehnati o‘rnini texnika egallagan, mehnat majburiyatdan ehtiyojga aylangan (6-ilova).

6-ilova

Utopik ta’limotlarning rivojlanish davrlari




³⁰ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol. 3. - N.Y., London, 2003. - P. 321.

Uyg'onish davrida turli sohalarda bo'lgan o'zgarishlar, xususan, kemasozlikning taraqqiyoti, harbiy sohadagi ixtiolar, katta-katta qurilishlar va boshqa tabiiy fanlarning rivojlanishiga turki bo'ldi, koinotni o'rganishda yangi kashfiyotlar qilindi.³¹ Polshalik olim *Nikolay Kopernik* (1473–1543yy.) yaratgan gelotsentrizm nazariyasini tabiatshunoslik rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. U o'zining «Osmoniy jismlarning aylanishi to'g'risida» nomli asarida Aristotel va Ptolomeylarning geotsentrik ta'limoti noto'g'ri ekanligini isbot qildi.

6-ilo va

Uyg'onish davri ijtimoiy falsafasi




³¹ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol. 3. - N.Y., London, 2003. – P. 417.

Yer o‘z o‘qi va quyosh atrofida aylanadi, degan g‘oya bilan bim olamida inqilob yasadi. Ruhoniylar N.Kopernikni bu kashfiyatiga ikki xil yondashdilar: 1) taqvimning o‘zgarishidan (1582-yil) manfaatdor bo‘lganlar unga ijobiy munosabatda bo‘ldilar;

2) bu kashfiyotni olam to‘g‘risidagi diniy qarashlarga zid deb bilganlar unga qarshi chiqdilar (7-ilova).

7-ilova

Dunyoning “germetik korpus” bo‘yicha yaratilishi




Uyg‘onish davri fani rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan yetakchi olimlardan yana biri **Jordano Bruno** (1548-1600 yy.) bo‘lib, u

Kopernikning kamchiliklarini tuzatdi va gelotsentrik ta'limotini rivojlantirdi. U olamning cheksizligini dalillar asosida aniq va ravshan isbotlab berdi.³²

Uning dunyoqarashi shakliga ko‘ra panteistik yo‘nalishda (xudo va tabiatni aynanlashtirish) bo‘lsa-da, mazmuni voqealikni real aks ettirishga qaratilgan edi.

8-ilova

Panteizmning rivojlanish davrlari



³²Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 2. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 214.

G‘arb falsafasida panteizm rivojining asosiy davrlari 8-ilovada berilgan.

Bilish masalasida J.Bruno N.Kuzanskiy g‘oyasini (sezgi, hissiy ijabul, aql) qo‘llab-quvvatladi. Biroq bu jarayonda hissiy bilish ahamiyatini to‘g‘ri baholay olmadi, ratsionalistik nuqtayi nazardan turib fikr yuritdi.

Uyg‘onish davridagi bu tabiatshunos olimlarning olam to‘g‘risidagi g‘oyalari o‘z davridagi hukmron diniy qarashlarga zid bo‘lgani uchun inkvizitsiya ularning asarlarini o‘qishni taqiqladi. O‘zlarini sud qilib, birini (N.Kopernik) osishga, birini (J.Bruno) o‘tda yondirishga hukm qildi.

G.Galiley esa go‘yo «adashganini» tan olib, o‘z fikridan qaytgan bo‘ldi. Biroq ularning g‘oyalari fan olamiga kirib borgan edi, endi uni hech qanday kuch, shu jumladan, inkvizitsiya ham to‘xtatib qola olmadi.

Bilish masalasida *Galileo Galilei* (1564-1642 yy.) gelotsentrizm g‘oyasini rivojlantirgan. U quyidagicha fikr yuritgan: fan din dan ajralishi, tabiat va inson fanning o‘rganish obyekti bo‘lishi kerak, uni matematika va tajriba orqaligina o‘rganish mumkin, bunda inson aqli hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xudoga ishonish va unga sig‘inish, insonning axloqiy xatti-harakatlari dinning obyekti bo‘lib, u Injil yordamida o‘rganiladi. G.Galiley tabiatni bilishning cheksizligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surgan. Bilishni hissiy tajribadan boshlansada, u haqiqiy bilimlarni berish uchun yetarli emas, deb hisoblagan. U sifatlarni ikki xil sifatlarga ajratgan hamda faqat matematik tahlil va deduktiv usul orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga yetib borish mumkin, deb ta’kidlagan.

G.Galiley ijodining tahliliidan shunday xulosa chiqarish mumkin: mutafakkir o‘zining ilmiy-falsafiy qarashlari bilan, bir tomon dan, uyg‘onish davridagi falsafiy fikrga yakun yasagan bo‘lsa, ikkinchi tomon dan, Yangi davr falsafasini boshlab berdi.

4-bo‘limga oid topshiriqlar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. Uyg‘onish davri G‘arb falsafasi qaysi asrlarga to‘g‘ri keladi?
2. Uyg‘onish davri G‘arb falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?
3. Renessans qanday g‘oyaviy ildizlarga tayangan?
4. Uyg‘onish davri gumanizmning o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
5. Uyg‘onish davri antropotsentrizmi antik davr antropotsentrizmidan farq qiladimi?
6. Kimlar Uyg‘onish davrining yirik gumanistlari hisoblanadi?
7. Dante Aligerining qaysi asarlarini o‘qigansiz?
8. Dante Aligerining Sharq falsafasiga munosabati qanday bo‘lgan?
9. Franchesko Petrarka qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
10. Pietro Pomponatssining Aristotel ta’limotiga munosabati qanday bo‘lgan?
11. Pietro Pomponatssi mo‘jizalarning tabiatи haqida qanday fikrlar bayon etgan?
12. Panteizm nima?
13. Nikolay Kuzanskiy panteizmi qanday xususiyatlarga ega?
14. Nikkolo Makiavellining ijtmoiy-siyosiy qarashlari qanday g‘oyalarga tayangan?
15. Nikkolo Makiavelli «Taqdir» konsepsiyasining mazmun-mohiyati qanday?
16. Uyg‘onish davri g‘arb tabiatshunos olimlaridan kimlarni bilasiz?
17. Ular falsafiy tafakkur rivojiga qanday hissa qo‘sghanlar?
18. Jordano Bruno koinotning cheksizligi va dunyolarning ko‘pligini qanday talqin etgan?
19. Galileo Galiley qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
20. G‘arb Renessansiga Sharq falsafasi, ilm-fani qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Inson toki tirik ekan, yoshidan qat'i nazar, fikrlash va hukm chiqarishga qodirdir. Uning umr yo'lida ezgulik va illat-larga ham, shon-shuhrat va sharmandalikka ham joy topiladi. Odatda, kuz oyining yoqimli va barakali bo'lishi uchun yozda mehnat qilib uning g'amini yeyish kerak. Xuddi shunga o'xshab, umr shomi - keksalik hayotning tussiz, mevasiz hasratli va befoyda qismiga aylanib qolmasligi uchun yoshlikda tinimsiz mehnat bilan uning poydevorini mustahkamlash zarur. Ana shunda keksalik osoyishtalik, mo'l-ko'lchilik va ezgulikdan kuch oladi, foydali va quvonchli o'tadi. (Franchesko Petrarka).
2. Insonning ko'ngli doimo bir xil taom tusamaydi. Shunday ekan, aql ham mudom bir tarzda oziqlanavermasligi joiz. (Franchesko Petrarka).
3. Kamyoblik har bir narsaning qadrini oshiradi. Agar har bir qarich yerda dur uchrasa ham oyoq ostida toptalishi turgan gap. Kamyoblik tufayli eng oddiy narsalar ham qimmatbaho xazinaga aylangan. (Franchesko Petrarka).
4. Maqsadim – qashshoqlikka yuz tutmay, isrofgarachilikka yo'l qo'ymay, o'zgalarga buyruq bermay, birov larga tobe bo'lmay yashash. (Franchesko Petrarka).
5. Maqsad vositani oqlaydi. (N.Makiavelli).
6. Zamon va axloqiy mezonlar o'zgaruvchandir. Shuning uchun zamonga peshvoz chiqqan kimsaning hamma orzusi ushaladi va u baxtiyor bo'ladi. Zamondan va vaziyatdan yuz o'girgan odam baxtsizlikka mahkum. (Franchesko Petrarka).
7. Insonning izlagani va topgani o'rtasidagi doimiy nomuovo-fiqlikdan kim bexabar? (Franchesko Petrarka).
8. Johillikdan qutulmoqni istasang, avval unga iqror bo'l... Har qanday falsafaning ibtidosida hayrat yotadi, tadqiqot uning rivoji, bilimsizlik esa intihosidir. (Monten).
9. Tabiatda hech narsa foydasiz emas. Hatto foydasizlikning o'zi ham foydalidir. (Monten).
10. Mo'jiza bizning tabiat borasidagi bilimlarimiz yetarli emasligi tufayli kelib chiqadi. U tabiatga xos sifat emas. (Monten).

11. Haqiqat haqida o‘zganing shohidligi yoki boshqa bir odamning nufuziga qarab fikrlash nojoizdir. (Monten).
12. O‘zini o‘zi anglayolmagan bu odamlarning Nil daryosidagi ko‘tarilish va qaytish sabablari haqidagi fikrlariga qanday qilib ishonay? (Monten).
13. Donishmandlikning eng muhim belgisi – doimiy xotirjamlik. (Monten).
14. Qo‘rroqlik – shafqatsizlikning onasi. (Monten).
15. Hech kim bor pulini o‘zgalarga ularshib bermaydi. Lekin har bir odam vaqtini va hayotini atrofdagilarga bo‘lishhib beradi.
16. Biz shu qadar isrof qiladigan, biroq xasislik qilsak shunchalar foydali va maqtovga munosib bo‘lgan hech bir narsa yo‘q.
17. Yo‘llarning mingtasi maqsaddan uzoqlashtiradi, faqat bittasi maqsadga yetkazadi. (Monten).
18. Menga ko‘pincha sen o‘z qarashlaring bilan olamni to‘ntarmoqchisan, deyishadi. Ammo aslida to‘nkarilgan olamni o‘z holiga qaytarishning nimasi yomon? (Jordano Bruno).
19. Xudo – cheksizlik ichra cheksiz. U har narsada va har yerda zohirdir. (Jordano Bruno).
20. Faylasuflik qilishni istovchi avvalo hamma narsaga shubha bilan qaramog‘i joiz. (Jordano Bruno).
21. Koinotning chegarasi bor-yo‘qligi masalasi hanuzgacha yechilmay qolyapti. Menimcha, insoniyat hech qachon buning tagiga yetolmaydi. (Galileo Galilei).
22. Men katta masalalar xususida uzoq bahslashib, hech narsaga erisholmagandan ko‘ra, arzimas narsalarga oid kichik bir haqiqatni kashf etishni afzal ko‘raman (Galileo Galilei).

Prezentatsiya va bahs-munozara uchun mavzular

1. Uyg‘onish davri g‘arb falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Uyg‘onish davrida tabiiy-ilmiy ta’limotlar rivoji.
3. Lenardo da Vinchi – Buyuk qomusiy olim.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1.«Uyg‘onish davri falsafasining ijtimoiy va gnoseologik ildizlari» mavzusida klasster tuzing.

2.«Nikolay Kuzanskiyning panteizmi va kosmologiyasi» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.

3.Nikkolo Makiavellining «Davlatpanoh» asarini o‘qib chiqib, «Nikkolo Makiavelli – ideal jamiyat haqida» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.

TESTLAR

1. Uyg‘onish davri falsafasi qanday g‘oyalarga asoslangan?

- A) antik falsafadagi gumanizm va antropotsentrizm g‘oyalariga
- B) xristian sxolastikasiga
- C) Platonning obyektiv idealizmiga
- D) Demokritning atomistik ta’limotiga.

2. Yevropada Renessans davri qaysi asrlarga to‘g‘iri keladi?

- A) XI –XVI asrlarga
- B) XI– XIV asrlarga
- C) XIV–XVI asrlarga
- D) XII – XIV asrlarga

3. Renessans davrining eng muhim xususiyati...

- A) realizmdan nominalizmga o‘tish
- B) panteizm falsafasini ishlab chiqish
- C) idealizmdan materializmga o‘tish
- D) o‘rta asr teotsentrizmidan antropotsentrizm va gumanizmga o‘tish

4. Panteizm qanday ta’limot?

- A) materianying ruhga nisbatan birlamchi ekanligini e’tirof etuvchi

- B) Xudoning barcha narsalarda mavjudligi haqidagi
- C) aql – bilishning asosiy quroli haqidagi qarashlarga asoslangan
- D) bilish jarayonida tajribaning hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etuvchi

5. «Mening sirim» traktatining muallifi?

- A) Franchesko Petrarka
- B) Piko dela Mirandolla
- C) Bokachcho
- D) Dante

6. Gumanizm uchun eng oliy qadriyat, bu –

- A) hayot, uning betakrorligi
- B) tabiat, uning go‘zalligi
- C) inson, uning baxt-saodati
- D) bilim va tajriba

7. Nikkolo Makiavelli ta’limotiga ko‘ra ...

- A) Inson faoliyatining asosini manfaat tashkil etadi
- V) Men fikrlayapman, demak, men mavjudman
- C) Inson – eng buyuk mo‘jiza
- D) Inson – barcha narsaning me’yori

8. Platon akademiyasi Uyg‘onish davrida qayerda qayta tashkil etilgan?

- A) Parijda
- B) Rimda
- C) Florensiyada
- D) Neapolda

9. «Illohiy komediya» asarining muallifi kim ?

- A) Dante Aligeri
- B) Nikkolo Makiavelli
- C) Mishel de Monten
- D) Franchesko Petrarka

10. Kimni «gumanizmning otasi» deb atashgan?

- A) Petro Pomponatssini
- V) Marsilio Fichinoni
- C) Nikkolo Makiavellini
- D) Franchesko Petrarkani

11. «Olamdagi barcha narsalar harakatlanadi va o'zgaradi; paydo bo'ladi o'zgaradi va halok bo'ladi. Bu harakatning doiraviy (siklik) xususiyatga ega bo'lganligining oqibatidir. Olamda tasodifiy hech bir narsa yo'q. Tasodif bo'lib ko'ringan narsa aslida qandaydir zarurat natijasidir. Inson tanlash imkoniyatiga ega, lekin bu har bir insonni o'rabi turgan tashqi muhiti va shaxsiy tabiatiga bog'liq bo'ladi», degan fikrlar kimning ta'limotiga tegishli?

- A) Franchesko Petrarka
- V) Petro Pomponatssi
- C) Nikkolo Makiavelli
- D) Marsilio Fichino

12. «Inson o'z baxtining ijodkor» («fortunae suae ipse faber»), degan g'oyani kim ilgari surgan?

- A) Piko della Mirandola
- B) Nikkolo Makiavelli
- C) Monten
- D) Franchesko Petrarka

13. Quyidagi fikrlardan qaysi biri Marsilio Fichinoga tegishli?

- A) Falsafa ilohiyotning xizmatkoridir
- B) Ilohiyat falsafiy tafakkur rivojiga xizmat qilishi kerak
- C) Falsafa va ilohiyot o'rtasida hech qanday aloqadorlik yo'q
- D) Falsafa ilohiyotning xizmatkori emas, lekin «opasi» dir.

Chunki falsafa ilohiyotni sayqallashtiradi

14. «Samoviy sferalar aylanishi» asarining muallifi kim?

- A) Galileo Galiley

- B) Jordano Bruno
- C) Nikolay Kopernik
- D) Leonardo da Vinchi

15. Kopernik, Kepler, Bruno, Galiey qanday ta'limotni asoslab berdilar?

- A) ratsionalistik
- B) geotsentrik
- C) empirik
- D) gelotsentrik

16. Gogengeym Paratsels qadimgi faylasuflar olamning ibtidosi deb hisoblashgan to'rt unsur – tuproq suv, havo va olovga yana qanday elementlarni qo'shgan?

- A) simob, tuz, oltingugurt
- B) yog'och va minerallar
- C) simob, tuz, efir
- D) yog'och, tuz va oltingugurt

17. «Reformatsiya» (ya'ni isloh qilish) tushunchasi nimaning tanqidiga tegishli?

- A) katolik cherkovining
- B) ingliz burjuaziyasining
- C) g'arb peripatetizmining
- D) nemis byurgerlarining

18. Mishel Monten antik falsafada ko'proq nimani qadrlagan?

- A) platonizm va aristotelizmni
- B) atomizm va gedonizmni
- C) hurfikrlilik va skeptitsizmni
- D) skeptitsizm va asketizmni

19. «Utopiya» atamasining ma'nosi...

- A) ideal jamiyat
- B) fozil davlat

- C) Buyuk orzu
- D) mavjud bo‘lmagan joy

20. Jordano Bruno falsafasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra...

- A) deizm
- B) panteizm
- C) kreatsionizm
- D) ratsionalizm

5-BO'LIM

5-bob. G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR FALSAFASI

5.1. Yangi davr falsafiy tafakkurining shakllana boshlashi

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda yangi davr g'arb falsafasiga oid bilim va tushunchalar hosil qilish; ularda yangi davr g'arb falsafasi namoyandalarining ta'lismotlarini qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:


Yangi davr falsafasi, sxolastika, sillogistika, bilish metodlari, antropologiya, substansiya, modus, birlamchi va ikkilamchi sifatlar, ijtimoiy kelishuv, metafizika, tug'ma g'oyalar, deduksiya, induksiya.

Asosiy savollar:

1. XVI–XVII asrlar falsafasining asosiy xususiyatlari, uning ijtimoiy va gnoseologik manbalari.
2. Frencis Bekon bilishning uslublari haqida. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
3. Rene Dekart metafizikasi.
4. Tomas Gobbs falsafaning predmeti haqida.
5. Benedikt Spinoza panteizmi.
6. Jon Lokk falsafasi. Uning bilish nazariyasi.
7. Gotfrid Leybnits monadologiyasi.

XVII–XVIII asrlar kishilik tarixida yangi bir bosqichni boshlab berdi va tarix solnomasiga «Yangi davr» nomi bilan kirdi (1-ilova).

Yangi davr falsafasining boshi (xronologik chegaralar)



Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega.

1. Bu davrdagi inqiloblar va xalq harakatlari natijasida bir qator Yevropa mamlakatlarida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bo'ldi.

Buning qonuniy yakuni o'laroq, Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlarda XVI–XVII asrlarda feodal munosabatlar bag'rida shakllana boshlagan kapitalistik ishlab chiqarish qaror topdi.

2. Geografik va ilmiy kashfiyotlar tufayli axborot ko'lami juda kengaydi (2-ilova).

2-ilova

Yangi davr g'arb falsafasining xronologik va geografik chegarasi

<i>Davr nomi</i>	<i>Davr</i>
Yangi davr boshi Yevropa falsafasi	1600-yildan – 1688-yil ikkinchi ingliz inqilobigacha
Yevropa va Shimoliy Amerika ma'rifatparvarlik falsafasi	1688-yildan 1789-yil Buyuk Fransuz inqilobigacha
Nemis klassik falsafasi	1770-yildan XIX asr o'rtasigacha
Zamonaviy g'arb falsafasi	1830-yildan hozirgi davrgacha

3. Bular (kapitalizm taraqqiyoti va axborotning ko'payishi) o'z navbatida fan rivojini taqozo etdi. Oldingi «Fan fan uchun» shiori «fan inson xizmati uchun» shiori bilan almashdi. Tabiatshunoslikda yangi kashfiyotlar qo'lga kiritildi (Nyuton, Leybnits va boshq.) (3-ilova).

3-ilova

Yangi davr falsafasining asosiy yangiliklari

<i>Yangiliklar</i>	<i>Falsafa</i>
Fanda <i>tajribaviy uslubning</i> falsafiy asoslanishi va rivoji	Frensis Bekon, Nyuton
Yangi ilmiy metodologiyaning ishlab chiqilishi	Frensis Bekon, Dekart, Nyuton, Lokk

<i>Iunyoni yangi mexanistik manzariasi asoslarining shakllanishi (Nyuton-karteziancha) va unga bog'liq bo'lgan deizmning rivojlanishi</i>	Dekart, Nyuton
<i>Ikki bir-biriga zid bo'lgan ratsional va hissiy bilish nazariyasining shakllanishi va rivoji</i>	Dekart, Spinoza, Lokk
<i>Ma'rifatparvarlik mafkurasining shakllanishi</i>	Lokk
<i>Ijtimoiy falsafa sohasida: a) jamiyatning ikki bosqichda rivojlanishi haqidagi ta'limotning shakllanishi (tabiiy holat va fuqarolik jamiyat); b) davlatning "shartnomalar" asosida kelib chiqishi haqidagi ta'limotning shakllanishi ("ijtimoiy bitim nazariyasi").</i>	Gobbs, Lokk

4. Bu davrda adabiyot, san'at va madaniyatda ham tengi yo'q asarlar yaratildi (Shekspir, Rembrant va boshqalar). Ularda inson muammosi, uning qudrati va go'zalligi kabi masalalar o'z aksini topdi.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ma'naviyatida bo'lgan bu burilishlar, tabiiyki, yangi davrdagi falsafiy fikrga ham ta'sir etdi

Angliyalik F.Bekon va fransiyalik R.Dekart yangi davrning birinchi mutafakkirlari edilar.

Frensis Bekon (1561–1626 yy.) – faylasuf, siyosatchi, davlat arbobi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan.

Asarlari: «Yangi Organon», «Axloqiy, iqtisodiy va siyosiy esse», «Yangi Atlantida»,



«Genrix VII ning tarixi», shuningdek, yakunlanmagan «Tamo-yillar va boshlang‘ichlar haqida».

Ulardan ikkitasi yirik falsafiy asarlar bo‘lib: birinchi kitobi «Yangi Organon»da (1620 y.) Bekon o‘zining fan va uning usullari to‘g‘risidagi qarashlarini bayon qilgan. Ikkinci kitobi «Yangi Atlantida»da (1627y.) uning jamiyat haqidagi fikrlari aks etgan. Frencis Bekon falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 4- ilovada keltirilgan.

Ta’limoti: Bekon fikricha, bilishning asosiy vazifasi tabiatdan inson manfaatlari yo‘lida foydalanishga hamda inson hayotini takomillashtirishga xizmat qilishi kerak. Bilishda u tajriba va eksperimentga katta e’tibor beradi. Barcha tajribalarni u ikkiga ajratadi:

1. Faqat bilim beruvchi, yo‘lni yorituvchi tajriba. Bunday tajriba yordamida qonunlar va narsalarning xossalari o‘rganiladi.

2. Samarali tajriba. Bunday tajriba insonga bevosita foyda keltiradi.

Bekon fan rivoji haqida fikr yuritar ekan, uni aql bilan bog‘-laydi va aqlni turli adashishlardan tozalash kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Uning ta‘kidlashicha, bilish yo‘lida 4 ta to‘siq – sharpa bor. Bular quyidagilar:

1. **Urug‘ sharpalari.** Inson tabiatini bilan bog‘liq bo‘lgan to‘siqlar. Inson tabiat to‘g‘risida o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fikr yuritadi: o‘zidagi ilohiylikni tabiatga ham ko‘chiradi.

2. **G‘or sharpalari.** Olimlarning subyektiv yondashuvi natijasidagi xatolar bilan bog‘liq. Kimningdir nazarida yaxshi hisoblangan narsa boshqa birov uchun yomon bo‘lishi mumkin.


3. **Bozor sharpalari.** Kishilar o‘rtasidagi so‘zlar vositasida olib borilgan fikr almashuv natijasida vujudga kelgan g‘ovlar.

4. **Teatr sharpalari.** Tanqidiy o‘rganilmagan, yolg‘on fikrlar tufayli paydo bo‘lgan to‘siqlar.³³

Yuqorida ko‘rsatilgan to‘siqlarni bilish – tabiatni o‘rganish jarayonida xatolarning oldini olish imkoniyatini beradi (5-ilova).

³³ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.3. - N.Y., London, 2003. – P. 298.

Frensis Bekon falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



Bekon: inson aqli xatolari

Urug' sharpaları	Inson aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiatini bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni noto'g'ri, buzib ko'rsatadi.
G'or sharpaları	Bu ayrim bir odamning o'ziga xos xususiyatlari natijasida yanglishishning kelib chiqishidir. Ular fikrlash usqining cheklanishi edi. Bu hamma narsalarni o'z nuqtayi nazari bilan ifodalash, o'zining tor doirali fikri bilan o'lchash natijasida vujudga keladi.

Bozor sharpalari	Bu ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq iboralarga tanqidiy yondashmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Massalan, u shuni ta'kilaydiki, real borliqni ifodalaymaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tasavvurni tug'diradiki, ular tafakkurga salbiy ta'sir qiladi.
Teatr sharpalari	U fanda nufuzli shaxslar fikriga taqlid qilish, xususan, qadimgilarning falsafiy tizimlaridagi fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish, ularga ko'r-ko'rona ergashishdir. Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan sanamlarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga egadir. Bekon bu sanamlarni va shu bilan birga o'rtasining sxolastik soxta fanlарini qoralab shunday deydi: «Bunday fanlarni yaratish – o'z tabiatiga tuhmat qilishga qaratilgan».

Bekon bilihda uslubning ahamiyatiga alohida to'xtalgan. «Shu paytgacha, – deb ta'kidlaydi u, – kashfiyotlar tasodifan bo'lgan. Tadqiqotchilar to'g'ri metod bilan qurollanganlarida edi, kashfiyotlar hoziridan ancha ko'p bo'lar edi». U eski dogmatik, sxolastik metodlarni tanqid qiladi va ularga muqobil tajribaga asoslangan **induktiv** metodni ishlab chiqadi³⁴. Haqiqiy metod, uning fikricha, tajriba orqali olingan ma'lumotlarni miyada qayta ishslash usuli bo'lib quyidagi bosqichlardan tashkil topadi³⁵:

1. Dalillarni kuzatib borish.
2. Dalillarni tasniflash.
3. Ularni keraksiz dalillardan tozalash.
4. Voqealarni tarkibiy qismalgarda bo'lish.
5. Dalillarni tajribada tekshirib chiqish.

³⁴ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.3. - N.Y., London, 2003. – P. 304.

³⁵ Qarang: Бэкон Ф. Новый органон или истинные указания для истолкования природы.// Бэкон Ф.С. В 2-х т. М.: 1972. –Б. 14.


6. Dalillarni umumlashtirish.

Bekon jamiyat hayotida fanning muhim ahamiyatini ta'kidlar ekan, «Bilim – kuchdir!» degan g‘oyani o‘rtaga tashlaydi va tabiat qonunlarini o‘rganishda ilmiy, ya’ni tajribaga asoslangan bilimlarga tayanilsa, tabiat insonga xizmat qiladi degan xulosaga keladi.

Uning fikricha, metafizika (falsafa) ning vazifasi shakllarni bilishdan iborat bo‘lsa, fizika harakatlanuvchi va moddiy sababni o‘rganadi. Bilish «tabiat va tajribalarni nisbatan to‘liq va to‘g‘ri tavsiflanishiga bog‘liq». Lekin bunday tavsiflar, uning fikricha, xilma-xil va juda rang-barang bo‘lib, agar ularni ma’lum bir tartibga tushirilmasa, aqlni adashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham Bekon «aql foydalanishi mumkin bo‘lgan tartibda alohida hodisalarining jadvali va tavsifini tuzish lozim» degan g‘oyani ilgari suradi va uch xil jadvalni yaratadi (6-ilova).

6-ilova

F.Bekon induktiv uslubining jadval ko‘rinishidagi tizimi



Birinchi jadvalda mavjud barcha narsalar tarixiy ketma-ketlikda, o‘zgartirish va ortiqcha tafsilotlarsiz tavsiflanishi nazarda тутилди.

Ikkinchisi jadval birinchisiga qarama-qarshi bo‘lib, unda muayyan ijobjiy hodisaga (hech bo‘lmaganda bitta) salbiy, ya’ni shu sifatlar xos bo‘lmagan hodisani keltirish kerak. Bu ikki jadvalni solishtirish natijasida mohiyatni bilib bo‘lmasada, hodisalar o‘rtasidagi tashqi aloqadorlikni anglab olish mumkin, deb hisoblagan Bekon.

Uchinchi jadval birinchi va ikkinchi jadvallarning qiyosiy tahliliga asoslanadi. Unda hodisalarining tabiiy sifatlari ko‘payib yoki kamayib borayotganligi haqidagi ma’lumotlar tahlil etiladi.

Bekonning bu g‘oyalari kamchiliklardan xoli bo‘lmasada, o‘z davrida tajribaga asoslangan induktiv bilish usulining rivojlani-shida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bekon ontologik qarashlarida peripatetizm nuqtayi nazarida turib, barcha narsalarni materiya va shakldan tashkil topgan deb hisoblagan.

Ijtimoiy qarashlarida u mutlaq monarxiya va kuchli markazlashgan davlatning tarafdori bo‘lgan. Bekonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning «Yangi Atlantida» nomli asarida bayon etilgan. Unda Bekon utopik davlat haqida fikr yuritgan. Bu mamlakat ko‘proq o‘scha davrdagi Angliyaga o‘xshab ketsada, undagi davlat boshqaruvida asosiy rolni «Solomon Uyi», ya’ni donishmandlar jamiyati o‘ynaydi. Fan ravnaqi va texnik kashfiyotlarning ko‘pligi atlantliklar hayotining farovon bo‘lishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Unda boy va kambag‘allar bo‘lishiga qaramay, u qashshoqlik va uning natijasida vujudga keladigan turli qusurlardan holidir.

Bekonning falsafiy qarashlari o‘zidan keyin g‘arb falsafasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Rene Dekart (1596–1650yy.) – fransuz faylasufi, matematik va tabiatshunos olim.

Asarlari: «Metod haqida mulohazalar», «Metfizik fikr-mulohazalar», «Dastlabki falsafa», «Aqlni boshqarish qoidalari».

Ta’limoti: U matematika (analitik geometriya), tabiatshunoslik sohasida bir qancha kashfiyotlar qilgan. Xususan, to‘g‘ri bur-chakli koordinatalar tizimi, optikada nurning sinish qonuni, mexanikada inersiya qonuni Dekart nomi bilan bog‘liq.³⁶ U o‘z tadqiqotlarida matematika metodini qo‘llagan. Dekart falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 7- ilovada keltirilgan.

Falsafiy fikr rivojida ham uning hissasi katta bo‘lgan. Dekart o‘z falsafiy qarashlarida **dualist** bo‘lgan. Uning fikricha, olam-

³⁶Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.4. - N.Y., London, 2003. – P. 63.

ning asosini – nomoddiy va moddiy substansiya tashkil etadi. Har ikkisini oliv substansiya – Xudo yaratgan. Lekin inson aqli uni bilishga ojizdir.

Substansiyalarning o‘zga xos xususiyatlari 7-ilovada keltililgan.

7-ilova

Ong va materiya

<i>Ong</i>	<i>Materiya</i>
Bevosita berilgan	Hissiyot va tasavvur orqali bilvosita ochiladi
Atribut (ajralmas xususiyat) – tafakkur	Atribut – ko‘lam (uch o‘lcham bo‘yicha: uzunlik, balandlik va kenglik)
Ko‘lamsiz, bo‘linmaydigan, qismlarga va muyyan shakliga ega emas.	Qismlarga bo‘linuvchan, muayyan shakliga ega, qismlar o‘z o‘rniga ega, harakatda mavjud.

Bilish masalasida Dekart quyidagicha fikrlaydi: bilish shubhadan boshlanishi kerak. Hamma narsaga shubha bilan qarash falsafiy fikrning asosini tashkil etishi kerak. Dekart bilishda sezgi bilan bir qatorda inson aqliga yuqori baho beradi va ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi o‘laroq **deduktiv** uslub tarafdoi bo‘lgan. Uning deduktiv usuli quyidagi qoidalardan tashkil topadi:

Birinchi qoida – bilishda hech qanday shubha qoldirmaydigan aniqlik va yaqqollikka erishish.

Ikkinci qoida – tadqiq etilayotgan muammoni yaxshi tushunib olish uchun necha qismga bo‘lish talab qilinsa, shuncha qismlarga bo‘lish.


Uchinchi qoida – oddiy narsalardan boshlab, asta-sekin eng murakkab narsalar tomon yuqorilab borish tartibida fikrlashga amal qilish.

To'rtinchi qoida – bilish jarayonida obyektning muhim jihatlarini nazardan qochirmsaslik, uni to'laligicha qamrab olishga intilish³⁷.

Bilishning vazifasi, Dekart fikricha, inson tabiatini yanada takomillashtirishdan iborat. Har qanday bilish, shubhadan boshlanadi. Shubhani u haqiqatga erishishdagi muhim va zaruriy bosqichdir deb hisoblagan. Hamma narsaga shubha bilan qarash mumkin. Lekin shubhaning bo'lishi uchun shubhalanayotgan inson ham mavjud bo'lishi kerak, degan xulosaga kelar ekan Dekart, o'zining mashhur tezisini ilgari suradi: «Fikrlayapiman, demak, men mavjudman» («Cogito ergo sum»).

8-ilova

Dekart falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



³⁷ Qarang: Декарт. Рассуждение о методе. М., 1950. -Б. 272.

Dekart ratsionalizmning yorqin vakilidir. Uning ta'limotiga ko‘ra, aql, ya’ni nazariy tafakkur hissiy bilim, jonli mushohadaga nisbatan bilimning yuqori bosqichi bo‘lib qolmasdan, balki mustaqil o‘ziga xos bilimning manbaidir. U bizning sezgi n’zolarimiz bilishga qodir bo‘lmasan bilimlarning ham manbaidir (9-ilova).

Dekart borliq haqidagi ta'limotida deizm nuqtayi nazarida turgan. Uning fikricha, olamda harakatdagi, ko‘lamga ega bo‘lgan va inson sezgilariga ta’sir etuvchi materiya mavjud. U butun borliqni egallagan bo‘lib, bo‘shliq umuman mavjud emas. Sodir bo‘layotgan hodisalar moddiy zarrachalarning o‘rin almashinishidan, ularning bir-birlariga bevosita ta’siridan, zarrachalar shakllarining o‘zgarishidan iborat.

9-ilova

Inson tafakkurida mavjud bo‘lgan g‘oyalar

<i>G‘oya turlari</i>	<i>G‘oyaning xususiyatlari</i>
Tug‘ma g‘oyalar	Inson tafakkuriga avvaldan berilgan.
Egallangan g‘oyalar	Tashqaridan keltirilgan, ular insondan tashqaridagi olamdir.
Yaratilgan g‘oyalar	Inson tomonidan shakllantirilgan g‘oyalar.

Yorug‘lik, issiqlik kabi inson sezgilarini orqali his qiladigan sifatlarni, Dekart narsalarga xos obyektiv sifatlar tarzida emas, balki ularning shakli va harakati ta’siri natijasida insonda paydo bo‘ladigan muayyan hissiyorlar; inson sezgilarining xususiyatlari tarzida tushungan.

Dekart o‘zining kosmologik ta’limotida birlamchi tabiat xaos holatida bo‘iganligini ta’kidlagan. Lekin Xudo dastlab bir turda bo‘lgan moddiy zarrachalarni girdob shaklidagi buhroniy harakatga keltirgan. Natijada materiya uch qismga yoki uch elementga ajralgan: eng yirik zarrachalar yer elementini tashkil

etgan, kichkina, dumaloqlari havo elementini, eng noziklari va maydalari barcha narsalarning tarkibiga kiruvchi – olov elementini tashkil qilgan. Materianing aylanma harakati natijasida eng qattiq va yirik zarrachalar uning markazidan chetlashgan, ulardan sayyoralar hosil bo‘lgan. Markazda olov elementining yengil zarrachalari qoladi. Ulardan Quyosh va yulduzlar paydo bo‘ladi. Sayyoralarining aylanishi yangi mahalliy girdobning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan va natijada muayyan tizim vujudga kelgan. Dekartning bu kosmologik ta’limoti tabiat rivojlanishiga ilmiy qarashni tayyorlashda katta ijobjiy rol o‘ynadi. Chunki uning kosmologik ta’limoti «ilohiy turtki» haqidagi tasavvurlarni inkor etmagan holda tabiiy hodisalarni tarixiy rivojlanuvchi qonuniy jarayon sifatida tushuntirishga asoslangan (10- ilova).

10-ilova

Qismlar va undan tashkil topgan jismlar

<i>Qism turlari</i>	<i>Jismlar</i>
Bo‘linuvchan, cheksiz kichik qismchalar	Quyosh va harakatsiz yulduzlar
O‘tkir, doirasifat, juda harakatchan	Samo
Katta, qirralarga ega, kam harakatchan	Yer, sayyoralar, kametalar


Dekart bilishda to‘g‘ri ilmiy uslubning buyuk ahamiyatiga ishongan. Dekart yozadi: «Har qanday uslubsiz biror haqiqatga erishishni orzu qilgandan ko‘ra, hech narsani orzu qilmagan ma‘qul». U to‘g‘ri uslubsiz bilishga intiluvchi kishini ko‘rga o‘xshatadi, garchi u ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lsa ham. Uning fikricha, insonda tug‘ma g‘oyalar mavjud bo‘ladi. Bu tug‘ma g‘oyalar hech qanday tajribaga aloqador emas. Masalan: mantiq va matematikaning asosi qonun-qoidalari insonda tug‘ma bo‘ladi.

Haqiqiy bilishning asosi va mezoni faqat soddalik, aniqlik va ravshanlikdir. Bundan ko‘rinadiki, Dekart fikricha, u faqat intellektga, ya’ni bevosita mulohazaga xosdir. «Yaxshi aqlga ega

bo‘lishning o‘zi kifoya emas, balki uni to‘g‘ri qo‘llay olish muhimdir». Shuningdek, u hamma odamlarda aqliy tafakkur qobiliyati bir xil bo‘ladi, lekin ularning intellektual darajalari o‘rtasidagi farq uslubiy fikrlashlariga bog‘liq bo‘ladi, deb hisoblagan.

11-ilova

Dekartning borliq va bilish falsafasi



Dekartning axloq falsafasi ham diqqatga sazovordir. (12-ilova).

Axloq qoidalari

Birinchi qoida	Mamlakatim qonunlariga va urf-odatlariga bo'ysunish, Xudo menga yoshlik chog'imdanoq ta'lim olish imkoniyatini bergani, mezonga to'g'ri keladigan qarashlar orqali hamma ishlarimda meni yo'naltirib turgani, meni hech narsada chetlash-tirmasdan, insonlar jamiyatida yashashim uchun sharoit yaratib bergani uchun dinga hurmat bilan qarash.
Ikkinchi qoida	Qat'iylik, sobitqadamlik, ishonch orqali tanlangan yo'lga sodiqlik, garchi ular shubha uyg'otsa ham.
Uchinchi qoida	Taqdirni emas, o'z-o'zimizni yengish, samoviy tartibni emas o'z xohish istaklarimizni yengish; o'z fikrlarimizdan tashqari hech bir narsa bizning irodamizga bo'ysunmasligiga ishonish.
To'rtinchi qoida	Butun hayot davomida aqlni charxlash, o'zi o'ylab topgan uslubga tayanib haqiqatga doimo intilish.

Dekartning falsafiy ta'limoti o'zidan keyingi davr falsafiy fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi.



Tomas Gobbs (1588-1679 yy.) – ingliz faylasufi. Yangi davr materializmining ilk namoyandalaridan biri. U ilg'or g'oyalari uchun Angliyadan quvg'in qilinadi. Avval Italiyada keyin Fransiyada yashaydi. Fransiyada u Bekonga kotiblik qiladi hamda uning g'o-yalarini chuqur o'rganadi va tartibga keltiradi. Gobbs dunyoqarashining shakllanishiga F.Bekon, R.Dekart bilan birga Galiley va Gassendining ta'limotlari kuchli ta'sir ko'rsatgan (13-ilova).

Asarlari: «Tabiiy va siyosiy qonunlar elementlari»; «Falsafa asoslari» trilogiyasi: «Tana haqida», «Inson haqida», «Fuqaro haqida»; eng mashhur asari «Leviafan yoki materiya, shakl, cherkov va fuqarolik davlati hokimiyati».


Ta'limoti: F.Bekon singari T. Gobbs ham insonning tabiatni bilishdan maqsad unga hukmronlik qilish hamda hayotini ko‘proq farovonlashtirishdan iborat deb hisoblagan. Lekin Gobbs F.Bekon singari tabiatni emas, jamiyatni o‘rganishga chaqirgan, olimlar inson va davlat tabiatini ko‘proq o‘rganishsa, fuqarolik urushlarining oldini olishlari mumkin deb hisoblagan.

Gobbs fikricha, dunyo moddiy jismlar majmuidan iborat. U ilk bor **materializmning mexanik konsepsiyasiga asos** solgan. Materiya, uning fikricha, yaratilmagan, yo‘q bo‘lmaydi ham. U abadiydir. Harakat materiyaning o‘ziga xos xususiyatidir. Materiya hech qanday birinchi harakat manbaiga muhtoj emas. Lekin harakatni u makondagi mexanik harakat shaklidagina tushungan. Harakat bir jismdan boshqasiga «turkkilar» orqali o‘tadi. Moddiy jismlar ko‘lamga ega. Lekin ko‘lam (makon), harakat va sukunat – aksidensiyalardir, ya’ni jismlarning sifatlari emas, balki «bizning jismlarni hissiy qabullah shakllaridir».

Bilishda u Dekart ratsionalizmiga qarama-qarshi o‘laroq, sezgilarning ahamiyatiga ortiqcha baho beradi: tashqi olamni hissiy qabullah (sezgilar) bilish manbaidir. Sezgi yordamida hosil qilingan «g‘oya» aql orqali qayta «ishlov»dan o‘tadi.

«Leviatan» asarida T.Gobbsning davlat to‘g‘risidagi qarashlari bayon qilingan. Uning fikricha, kishilik jamiyatining ikki xil holati mavjud: tabiiy va fuqarolik. Tabiiylik – bu insoniyatning dastlabki holati. Bunda kishilar shaxsiy manfaat, o‘z-o‘zini saqlash yo‘lida tabiatda bo‘lgani kabi bir-birini yo‘q qilishga harakat qiladi, kuchli yengadi, kuchsiz yengiladi, boshqacha aytganda, kishi kishiga bo‘ri bo‘lib, barcha-barchaga qarshi urushadi (yashash uchun kurash). Bunday vahshiylikning oldini olish uchun insonlar o‘z ixtiyorlari bilan tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash maqsadida davlat tuzadilar. Davlat shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatga bo‘ysundiradi va tartibsizlikka yo‘l qo‘ymaydi. Demak, davlat jamiyat a’zolarini bir maqsadga yo‘naltiruvchi, ular o‘rtasida tinchlikni saqlab turuvchi, umumiy manfaatni ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

Tomas Gobbs falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



T.Gobbsning xizmati shunda bo‘ldiki, unga qadar davlat Xudoning xohish-irodasiga bog‘liq deb tushuntirilgan bo‘lsa, Gobbs bunday qarashlarga barham berdi. U davlat inson manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berdi va Ma’rifatparvarlik davrida keng rivojlangan «ijtimoiy shartnoma» ta’limotining shakllanishiga zamin yaratdi.

T.Gobbs o‘zining axloqiy qarashlarida barcha uchun umumiy va universal «inson tabiati» mavjud, deb hisoblagan. Inson tabiatida o‘zini himoya qilish, o‘z ehtiyojlarini va huzur-xalovatini himoya qilishga intilish mavjud. Shundan kelib chiqib, inson

xohish-istiklariga mos keluvchi narasalar «yaxshilik», cheklash, zo'rlik, nafratni – «yovuzlik» deb baholagan. Jamiyatdagi fuqarolar o'rtasidagi tinchlik eng oliv ne'mat bo'lganligi uchun ham, fuqarolarning fazilatlari ularning tabiatidan kelib chiqadi deb hisoblagan.



Jon Lokk (1632–1704yy.) – ingliz faylasufi.


Asarlari: «Insonning bilishi haqida tajriba», «Davlat boshqaruvi haqida ikki risola» «Tarbiya to'g'risida mulohazalar».

Ta'limoti: F. Bekon ishlarini izchillik bilan davom ettirgan mutafakkirlardan yana biri bo'lgan. Gobbs, Yuqorida aytiganidek, Bekon qarashlarini tartibga solish bilan chegaralangan bo'lsa, Lokk uning bilim hissiyot dunyosi bilan chambarchas bog'liqligi to'g'risidagi g'oyalarini asoslab bergen. Lokk falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta'limotlarga ta'siri 14- ilovada keltirilgan.

Angliyada Lokk siyosatchi sifatida mashhur bo'lgan, chunki u o'z asarlarida 1688-yilgi burjua revolutsiyasining ikki hukmron sinf burjuaziya va yangi dvoryanlarning kelishishi bilan yakunlanganligi qonuniy jarayon ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Haqiqatan ham burjua demokratiyasining nazariyotchisi sifatida bir qator g'oyalarni ilgari surgan. Jumladan, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hukumatlariga bo'lish to'g'risidagi fikrni birinchi bor Lokk o'rtaga tashlagan. Ijro etuvchi hukumat, uning fikricha, xalq saylaydigan qonun chiqaruvchi hukumat, ya'ni parlament nazoratida bo'lishi kerak. Ko'rinadiki, Lokk xalqning saylash huquqi to'g'risida ham birinchi bo'lib fikr yuritgan. Bu g'oya keyinchalik fransuz ma'rifatparvari J.J.Russo tomonidan rivojlantirilgan.

Lokk insonlar o'z hayotlari davomida amal qiladigan ijtimoiy qonunlarni uch guruhga ajratgan (15-ilova).

Lokk falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



Lokk: ijtimoiy qonunlar

<i>Qonun turlari</i>	<i>Harakatlarni muayyan qonunlar orqali baholanishi</i>
Ilohiy qonunlar	Buzilishi: gunoh. Ijro etilishi: majburiy yoki burch.
Fuqaroviylar qonunlar	Buzilishi: jinoyat Ijro etilishi: "ayb emas".
Jamoa fikri tomonidan qabul qilingan qonunlar	Buzilishi: qusur Ijro etilishi: ezgulik

Lokk bilish masalasi ustida ham atroflicha fikr yuritgan va sensualizm tarafdori bo'lgan. «Insonning bilishi haqida tajriba» (1690-yil) nomli asarida u «tug'ma g'oya»lar haqidagi qarashlarni tanqid qiladi, har qanday g'oyaning yagona asosi tajribadir, degan

fikrini isbotlashga harakat qiladi. Tajriba, uning fikricha, ikki xil: ichki va tashqi bo‘ladi, har ikkisi o‘z manbaiga ega. Ichki tajribaning manbai – refleksiya bo‘lib, u fikrlash, his-hayajon va qhtiros bilan bog‘liq. Tashqi tajribaning manbai sezgi bo‘lib, u insondan tashqaridagi narsa-hodisalarining sezgi a’zolariga ta’siri natijasida vujudga keladi (16-ilova).

16-ilova

Lokk: bilish turlari

<i>Bilish turlari</i>	<i>Aniq bo‘lgan bilish obyektlari</i>
Intuitiv: aniq va yaqqol qabul qilish ikki g‘oyani bir-biriga mos kelishi yoki mos kelmasligi	Xuddi shunday biz o‘z mavjudligimizni bilamiz.
Namoyon qiladigan bilim: aql orqali isbotlash	Matematika; Xudo mavjudligi
Hissiy yoki tuyg‘u orqali	Tashqi narsalarning mavjudligi

Lokk narsa-hodisalarining sezgi a’zolariga ta’siri haqida fikr yuritar ekan, narsalarning sifatini ham birlamchi va ikkilamchi sifatlarga bo‘ladi. Zichlik, uzunlik, harakat kabilalar birlamchi sifatlar bo‘lib, narsalarning o‘ziga xosdir.³⁸ Rang, ta’m, ovoz kabilalar ikkilamchi sifat bo‘lib, narsalarning o‘ziga xosdek bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida ularda bo‘lmaydi: ularda sezgi uyg‘otish qobiliyati bor, xolos.

«Agar hamma narsa sezgilar orqali namoyon bo‘lsa, u holda inson biron-bir sezgi a’zosi bilan his qila olmaydigan xudo, jannat va do‘zax kabi tushunchalar qayerdan paydo bo‘lgan?» – degan savolga javob berishda Lokk ichki tajriba-refleksiyaga, ya’ni ichki o‘z-o‘zini anglashga tayangan.

³⁸ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy - Vol. 5. - N.Y., London, 2003. – P. 112.



Benedikt Spinoza (1632–1677 yy.) – niderlandiyalik faylasuf.


Asarlari: «Dekart falsafasining tamo-yillari», «Xudo, inson va uning baxti haqida qisqacha traktat», «Aqlni takomillashtirish haqida traktat», «Diniy-siyosiy traktat», «Siyosiy traktat», «Etika yoki geometrik tartibda aytilgan etika».

Bu davrda fan va texnika, san'at va madaniyat Yevropaning boshqa mamlakatlariiga qaraganda Niderlandiyada ancha rivojlangan. yangi davr falsafasining asoschilaridan hisoblanmish R.Dekart 20-yil davomida aynan shu yerda faoliyat ko'rsatgan, uning shogirdlari, xususan, Anri de Rui ustozini iżchillik bilan davom etirgan va bularning hammasi Niderlandiyada falsafiy fikr taraqqiyoti uchun yaxshi sharoitlar yaratgan edi. Spinoza taqvodor diniy oilada tug'ilib-o'sganligi, shu muhitda tarbiya topganligiga qaramay, keyinchalik u ilg'or ilmiy g'oyalar, ayniqsa, Dekart falsafasi bilan yaqindan shug'ullana boshlaganidan so'ng, ota-onasiga qarshi boradi va din bilan aloqasini uzadi. Spinoza falsafasining g'oyaviy assoslari va ozidan keyingi ta'limotlarga ta'siri 17-ilovada keltirilgan.

Spinoza R.Dekart izidan borgan va undagi dualizmni yengib, monistik g'oyalarni ilgari surgan. U substansiya, tabiat va xudo tushunchalarini teng ma'noda qo'llab, Dekartning deizmi o'miga panteizm g'oyalarni ilgari surgan (18-ilova).

Spinoza o'zining ontologik qarashlarida yagona substansiya va uning ichki, ajralmas xususiyatlari, ya'ni atributlari haqida fikr yuritar ekan, yagona substansiya deganda – tabiatni, uning muhim atributlari deganda esa – tafakkur va moddiylikni tushunadi. U substansiya haqidagi ta'limotida moduslar haqida fikr yuritadi. Moduslar deganda u, olamda mavjud alohida narsa va hodisalarni nazarda tutgan. Shu ma'noda inson ham moduslarning biridir.

Spinoza falsafasining g'oyaviy ildizlari va ta'siri




Spinoza fikricha, substansiyaning mavjudligi uning ichki zaruriyatidan kelib chiqadi. Olamda hech narsa tasodifan sodir

bo‘lmaydi. Tasodifni, u, sababini bilmagan narsa sifatida, subjektiv nuqtayi nazardan tushuntiradi. Tasodifning sababi aniqlanishi bilan esa, u zaruratga o‘tadi, deb hisoblaydi.

18-ilo va

Spinozaning borliq va bilish haqidagi ta’limoti



Bilish masalasida Spinoza Dekartning «tug‘ma g‘oyalar» haqidagi ta’limotiga qo’shilmasada, ratsionalist sifatida fikr yuritadi. Uning fikricha, bilish uch bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. Eng quyi bosqich – tashqi olamni hissiy bilishga asoslangan tasavvur. Bu tartibsiz bo‘ladi.
2. Ikkinci bosqich – isbotlar vositasida aqlga asoslangan bilish.
3. Uchinchi oliy bosqich – bevosita isbotsiz aqlga asoslangan bilish.³⁹

Demak, birinchi bosqich hissiy, ikkinchi va uchinchi bosqichlar esa intellektual bilishdir. Spinoza aqliy bilishga katta e’tibor

³⁹ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.4. - N.Y., London, 2003. - P. 235.

bargani holda hissiy bilishning ahamiyatini to‘g‘ri tushunib yetmaydi (19-ilova).

Mutafakkir «Etika» asarida inson masalasini o‘rtaga tashlaydi. Uning fikricha, inson o‘z faoliyatida yaxshilik qonunlariga yoki yomonlikdan nafratlanishga asoslanmaydi, balki u.o‘zini saqlab qolish va foyda olish yo‘lida harakat qiladi.⁴⁰ Demak, inson faoliyati yashash uchun kurashga qaratilgan.

19-ilova

Spinoza ta’limoti: bilish turlari

<i>Bilish turi</i>	<i>Manbasi</i>	<i>Xususiyati</i>	<i>Bilish obyekti</i>
Fikr	Boshqa odamlardan eshitish orqali bilamiz	Deyarli noadekvat bilim; (masalan: xudojo‘ylarga xos bo‘lgan Muqaddas Kitobga murojaat qilish)	Erkin obyektlar
Hissiy bilish	Hissiyot	Qisman noadekvat; noaniq, xira, “betartib timsollar”	Muayyan narsalar va hodisalar (olim, bu daraxt, bu yomg‘ir); umumiy tushunchalar (daraxt, inson, yog‘ayotgan yomg‘ir)
Ratsional bilish	Tafakkur	Adekvat; ilmiy bilim, matematika va fizikaga xos bo‘lgan, lekin boshqa fanlarga ham tegishli.	Miqdor, shakl va harakat g‘oyalari; g‘oyalari va ularning sabab-oqibatlari o‘rtasidagi zaruriy aloqalar.

⁴⁰ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.4. - N.Y., London, 2003. – P. 239.

Intuitiv bilish	Intuitsiya	Mutlaq adekvat; aniq va lo'nda bo'lgan bilim; Xudo= Tabiat substansiya-sidan kelib chiqadigan narsalarni ruhiyatini ko'ra bilish.	Narsa va hodisalarining mohiyati
-----------------	------------	---	----------------------------------

Spinozaning erkinlik to'g'risidagi qarashlarida jamiyatda fikr, vijdon, so'z erkinligi bo'lishi kerakligini e'tirof etsada, u mutlaq erkinlik bo'lishi mumkin emasligini,⁴¹ fuqarolar o'z erkinliklarini ongli ravishda cheklab, jamiyatda qabul qilingan qonunlarga bo'ysunishlari zarur, deb hisoblaydi. Erkinlik, Spinoza fikricha, anglangan zaruriyat bo'lib, inson ma'lum chegara doirasidagina erkendir.



XVII asrda Germaniyadagi falsafiy fikrning eng yirik vakillaridan biri *Gotfrid Leybnits* (1671–1716 yy.) edi. U o'z davrida Nyutondan mustaqil ravishda differensial va integralni kashf qilgan, hisoblash mashinasini, konlardan suvlni chiqarib oluvchi moslamani yaratgan.

Asarlari: «Teoditseya», «Monadologiya».

Leybnits dunyoning mexanistik manzarasini teologik nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Leybnits falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi falsafiy ta'limotlarga ta'siri 20- ilovada keltirilgan.

Leybnits falsafasining mohiyati uning monadalar haqidagi ta'limotida o'z ifodasini topgan. Leybnits cheksiz **ruhiy substansiylar** mavjudligini tan oladi. Ularni **monada** deb ataydi. Uning bu ta'limoti «Monadologiya» nomli asarida o'z ifodasini topgan⁴².


⁴¹ Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.4. - N.Y., London, 2003. -- P. 260.

⁴² Qarang: Copleston F. A History of Philosophy. - Vol.4. - N.Y., London, 2003. -- P. 269.

U monadalar mutlaq sodda, harakat qiluvchi kuch va mustaqillikka ega, har bir monada boshqa monadalardan farq qiladi, deb tu'kidlaydi. Leybnits ta'lomitiga ko'ra, monadalar moddiy emas, ular ko'lamga ham ega emas.

20-ilova

Leybnits falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri




Leybnits fikricha, materiya substansiya bo'la olmaydi. Chunki materiya ko'lamga ega va bo'linuvchandir. Monadalar esa bo'linmas va cheksizdir. Monadalar makonga ham ega emas, fizik nuqtalar ham emas. Ularning tabiatи sof ruhiy, ular harakatlantiruvchi kuchning markazidir. Monadalar «ilohiyot uchqunining» uzlusiz nijralib chiqishidan vujudga keladi. Ilohiy uchqun esa – birlamchi monada bo'lib, u har qanday borliqning oxirgi asosidir (21-ilova).

Leybnits ta'lomitiga ko'ra, monadalar o'z rivojlanish darajalariiga qarab bir-biridan farq qildi va quyidagi uch turda mavjud bo'ladi:

- 1) Sodda monadalar, jon monadalari, ruh monadalari. Sodda monadalar faqat xira tasavvurlarga ega bo‘ladilar.
- 2) Jon monadalari sezadilar va ma’lumotni qayta ishlaydilar.
- 3) Ruh monadalari tasavvurga ega bo‘lgan ongli mohiyatlardir.

Monadalar tashqi dunyoga qaratilgan «ko‘zgudan mahrum-dirlar». Leybnitsning ta’limotiga ko‘ra, har bir monada – o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan yagona va takrorlanmas bir dunyodir. Mutlaq reallik faqat monadalarda va ularning tasavvurlarida mavjuddir. Materiya – bu xira tasavvurlarning qorishmasidir.



Leybnits yasagan kalkulator.

Leybnits o‘zining bilish haqidagi ta’limotida empirizm va ratsionalizmdagi biryoqlamalikni bartaraf etishga harakat qilgan bo‘lsada, bilish jarayonida hissiy bilishning o‘rniga to‘g‘ri baho bera olmadi. U, shuningdek haqiqatning zarurligi va umumiyligini tushunish aqlga xos xususiyat ekanligini ta’kidlaydi.

Leybnits fikricha, *haqiqatning* ikki turi mayjud: biri – zarur (mantiqiy) haqiqatlar; ikkinchisi – aslidagidan boshqacha bo‘lishi mumkin bo‘lgan aniq haqiqatlardir. Aniq haqiqatlar empirik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ehtimollik darajalariga ega bo‘ladi, zaruriy (mantiqiy) haqiqatlarni esa «hatto Xudo ham o‘zgartira olmaydi». U aniq haqiqat masalasiga ham teologik nuqtayi nazardan yondoshib, «Xudo, marhamatli va aql-idrokli, har xil empirik holatlar orasidan eng yaxshi kombinatsiyani tanlab oladi»; zero, biz mumkin bo‘lgan dunyolarning eng yaxshisida yashaymiz, deb hisoblagan Leybnits. Shunday ekan, hayotda uchraydigan muhtojlik va azob-uqubatlar imkoniyatdagi muhtojlik va azob-uqubat-

larning eng kamidir. Shuning uchun u jamiyatda qandaydir o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq intilishlarga qarshi chiqadi.


21-ilova

Monadalar ierarxiyasi



Leybnits inson bilimlarining aniqligi, yakkaligi va ziddiyatsizligini haqiqatning mezoni sifatida qabul qiladi. Aristotel yaratgan Ayniyat, Ziddiyat va Uchinchisi istisno qonunlari to‘g‘ri tafakkur qilishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, har bir narsa o‘z asosiga ega ekan, haqiqatlarni tekshirish uchun ham yetarli asos zarur.

Shunday qilib, Leybnits mantiq ilmida to‘g‘ri tafakkurlashning to‘rtinchi qonuni - Yetarli asos qonuni yaratadi. U inson tafakkurini formallashtirish imkoniyatini beruvchi matematik mantiqqa ham asos soladi.



Isaak Nyuton (1643–1727yy) – Bu-yuk ingliz fizigi, astronomi, matematigi va faylasufi.

Asarlari: «Nur va ranglarning yangi nazariyasi», «Tabiat falsafasining matematik asoslari», «Optika» .

Ta’limoti: XVII asr oxirida uning boshchiligidagi yangi mexanistik oqim paydo bo‘ldi. Nyuton mexanikasining asosiy tushunchalari asosida olamning mexanistik manzarasi shakllandi. Unga ko‘ra, tabiat yagona yaxlit (soatga o‘xshash) mexanizm sifatida tushuniladi. Tabiatdagi barcha jismlar bo‘linmas mayda zarrachalar – korpuskulalar (atomlar)dan tashkil topgan bo‘lib, bo‘shliq (makon)da harakatlanadi yoki sukunatda bo‘ladi. Olam-dagi barcha hodisalar asosida butun olam tortishish qonuni yotadi. *Nyutonning butun olam tortishish qonuniga binoan*, ikki jism bir-biriga ularni tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yo‘nalgan, ularning massalari ko‘paytmasiga to‘g‘ri va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo‘lgan kuch bilan tortishadi.

Mayda zarrachalarning hamda ulardan tashkil topgan jismlar harakati mexanika qonunlariga bo‘ysunadi. (22-ilova).

Umuman, Nyuton tomonidan ishlab chiqilgan dunyoning tuzilishi haqidagi ta’limot shunday: koinot ayrim bir-biridan ajralgan, o‘zaro bir-biriga intiluvchi jismlardan iborat, ular mexanik bir-biriga ta’sirda bo‘ladi. Bu jismlarning harakati mustahkam mexanik sababiylilik xarakterda va mutlaq bo‘sh makonda sodir bo‘ladi.

Nyuton xurofot va fantaziyalar o‘rniga tabiatni tajriba asosida o‘rganadigan qat’iy ilmiy bilish usuli yaratilishining tarafdori bo‘lgan. Bunday ilmiy bilish, uning fikricha, ko‘plab tajribaviy bilimlarni induktiv usul orqali umumlashtirish asosida ilmiy qonunlarning o‘rnatalishiga hamda keyingi gipotetik-deduktiv

usulga tayanmog‘i lozim (23-ilova). Shu bilan birga, Nyuton o‘zining falsafiy mushohada qonunlarini ham ishlab chiqadi (24-ilova).

22-ilova

Nyuton: dinamika qonunlari

<i>Dinamika qonunlari</i>	<i>Yaratilish tarixi</i>
Birinchi qonun (inersiya qonuni). Har qanday jism unga jismlar ta’sir qilib, boshlang‘ich vaziyatni o‘zgartirmaguncha o‘zining nisbiy tinch yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatlari boshlang‘ich vaziyatini saqlaydi.	Galiley va Dekart bu qonun ustida ishlaganlar, Nyuton uni aniqlashtirgan
Ikkinchi qonun. Jismning boshqa jism bilan o‘zaro ta’sirlashish natijasida olgan tezlanishi unga ta’sir qilayotgan kuchga to‘g‘ri proporsional va uning massasiga teskari proporsional.	Galiley tomonidan ishlab chiqilgan.
Uchinchi qonun. Ta’sir har doim aks ta’sirga teng va qarama-qarshi yo‘nalgan yoki ikki jismning ta’siri bir-biriga teng va qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan.	Birinchi bor Nyuton tomonidan ishlab yaratilgan.


Shunday qilib, Nyuton ta’limotiga ko‘ra, dunyo tarixiy jihatdan o‘zgarmas, fizik dunyo tuzilishida rivojlanish g‘oyasiga hech qanday o‘rin yo‘q. Dunyodagi harakat mexanik xarakterga ega. Nyuton Quyosh atrofidagi sayyoralarning harakatini tahlil qilar ekan, “Quyosh sistemasi qanday qilib harakatga kelgan?”, degan savolni qo‘yadi. Sayyoralarning elipsoid harakatini u murakkab harakat deb hisoblab, uni oddiy harakatlarga bo‘lgan. Ulardan biri orbitaga oid. Nyuton ta’limotiga ko‘ra, bu harakatlarning har biri maxsus kuch tufayli sodir bo‘ladi.

Nyutonning butun mexanik konsepsiysi birinchi turki haqidagi metafizik falsafiy xulosaga asoslanadi. Lekin bu chek-

langanlikka qaramasdan u yaratgan mexanika tabiatshunoslikning katta yutug'i bo'lgan.

23-ilova

Nyuton: ilmiy bilim rivoji



Nyuton: falsafiy mushohada qoidalari

<i>Qoida mazmuni</i>	<i>Ontologik mazmuni</i>
1. Yaqqol bo'lib turgan tabiat hodisalarini tushuntirishda haddan ziyod sabablarni qidirishga hojat yo'q (Okkam nayzalari)	Tabiatning oddiyligi: tabiat hech narsani o'z-o'zidan qilmaydi, kam narsani qilish uchun ko'p narsani ishlatishning hojati yo'q; chunki tabiat sodda, ortiqchalikni yoqtirmaydi.
2. Yagona hodisalarni, imkonim boricha yagona sabablar orqali tushuntirishimiz zarur.	Tabiatning bir xilligi: tabiat turli hodisalardan o'zini bir xil tutadi: o'choqdagi olov, quyosh nuri, inson va hayvon nafasi, shunga ko'ra ularning sababi bir xil.
3. Tajribamiz doirasida jism-larning qadamma-qadam ko'payib borishi yoki kamayib borishini biz universal deb bilishimiz kerak.	Tabiatning bir xilligi.
4. Tajribaviy falsafada umumiy induksiya orqali chiqarilgan hukmni haqiqat deb bishimiz kerak yoki haqiqatga juda yaqin bo'lishi mumkin; tasavvurdagi qarama-qarshi farazlarning mavjud bo'lishiga qaramay, agar boshqa hodisalar hali aniqlanmagan bo'lsa.	Tabiatning bir xilligi va soddaligi.

5-bo‘limning 1-bobiga oid topshiriqlar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. Yangi davr g‘arb falsafasi qaysi asrlarga to‘g‘ri keladi?
2. Yangi davr g‘arb falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?
3. Frensis Bekonning o‘rta asr sxolastik falsafasiga munosabati qanday bo‘lgan?
4. Frensis Bekonning gnoseologik ta’limotiga ko‘ra, bilishning birdan bir to‘g‘ri yo‘li qanday?
5. Frensis Bekon tabiiy falsafaning vazifasini qanday tushunadi?
6. Frensis Bekon ishlab chiqqan induktiv bilish usuli qanday bosqichlardan iborat?
7. Rene Dekart qanday bilish usulini yaratdi?
8. Rene Dekart qanday falsafiy an‘anani rivojlantirgan?
9. Tomas Gobbsning ikkiyoqlama haqiqat haqidagi ta’limotining mazmun-mohiyatini bilasizmi?
10. Tomas Gobbs davlat va jamiyat haqida qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
11. Benedikt Spinoza substansiya haqida qanday ta’limot yaratgan?
12. Benedikt Spinozaning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari Tomas Gobbs ta’limotidan farq qiladimi?
13. Benedikt Spinoza panteizmi qanday xususiyatlarga ega?
14. Spinoza ta’limotida «modus» tushunchasi nimani anglatadi?
15. Jon Lokk inson bilimlari haqiqatligining mezoni sifatida nimaga tayanadi?
16. Benedikt Spinoza va Jon Lokkni Dekartning «tug‘ma g‘oyalari» haqidagi ta’limotiga munosabati qanday bo‘lgan?
17. Jon Lokkning ijtmoiy-siyosiy qarashlari qanday g‘oyalarga tayanadi?
18. Gotfrid Leybnits monadalar haqidagi ta’limotida qanday g‘oyalarni ilgari surgan?

19. Gotfrid Leybnits o‘z ta’limoti bilan falsafadagi qanday an’analarni rivojlantirdi?

20. Isaak Nyuton falsafiy fikr rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Bir narsaning asl mohiyatini bilish uning sababini bilish demakdir. (Frengis Bekon).

2. Tajriba haqiqat garovi. (Frengis Bekon).

3. Tabiat ustidan hukmronlikni «mo‘jiza» deb ataymiz. Ammo bu «mo‘jiza» odatda boshimizga faqat kulfat yog‘diradi. (Frengis Bekon).

4. Makkor odamlar ilmni nazar-pisand etmaydilar, soddadil odamlar undan hayratga tushadilar, donolar esa ilmdan foydalana biladilar. (Frengis Bekon).

5. Mutolaa insonni bilimdonlik sari, suhbat topqirlilik sari yetaklaydi. Yozish esa aniqlikni ta’minlaydi. (Frengis Bekon).

6. Inson o‘zi afzal ko‘rgan narsalarning haqiqatligiga ko‘proq ishonadi. (Frengis Bekon).

7. Har qanday o‘zgarish harakat demakdir. (Tomas Gobbs).

8. Insonning tabiatida urushqoqlikning uchta sababi muhrlangan: raqobat, ishonchsizlik, shuhratparastlik. (Tomas Gobbs).

9. Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o‘rganish joizdir. (Tomas Gobbs).

10. Ezgulik va illatlarni o‘lchovi umumiy mezon faqat davlatda mavjud bo‘ladi. Har bir davlatning qonunlari ana shu mezon vazifasini o‘taydi. (Rene Dekart).

11. Barcha fanlar bir-birlari bilan shu qadar chambarchas bog‘lanib ketganki, ularni bitta-bittalab o‘rganishdan ko‘ra, bir-varakiyiga o‘zlashtirish osonroqdir. (Rene Dekart).

12. Sen taqdiri azalni emas, avvalo o‘zingni yengishga harakat qil. Dunyoni tartibga solishga urunma, eng avval o‘z istaklarining boshqara bil. (Rene Dekart).

13. Biron bir haqiqat yo‘qki, uni butun insoniyat birdek qabul qilsa. (Jon Lokk).
14. Inson xatti-harakatlari uning fikrlari tarjimonidir. (Jon Lokk).
15. Insondagi yovuzlik va ezgulik ham, zararkunandalik va hojatbarorlik ham tarbiyaning mevasidir. (Jon Lokk).
16. Ehtimollik bilimdagi kemtikliklarni to‘ldiradi. (Jon Lokk).
17. Xudo bizga o‘lchovli aql-idrok va cheksiz iroda in‘om etgan. Ammo U bizni ne maqsadda yaratganidan bexabarmiz. (Benedikt Spinoza).
18. Qalblarni qurol bilan emas, mehr-muhabbat va olijanoblik vositasida zabit etish mumkin. (Benedikt Spinoza).
19. Har qanday aniqlik cheklash demakdir. (Benedikt Spinoza).
20. Biz bilimlarimiz yetishmasligi vajidan narsalarni tasodif deb bilamiz. (Benedikt Spinoza).
21. Tabiatda qusurli narsaning o‘zi yo‘q. (Benedikt Spinoza).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. Yangi davr g‘arb falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Yangi davrda tabiiy-ilmiy ta’limotlar rivoji.
3. Frencis Bekon va Rene Dekart bilishning ikki yo‘li haqida.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. «Yangi davr falsafasining ijtimoiy va gnoseologik ildizlari» mavzusida klaster tuzing.
2. «Benedikt Spinozaning panteizmi» mavzusida esse yozing.
3. «Jon Lokkning bilish falsafasi» mavzusida BBB jadvalini to‘ldiring.

TESTLAR

1. Yangi davr falsafasining asosiy xususiyati...

- A) Demokritning atomistik ta'lomitini asoslashga urunish
- B) xristian sxolastikasini tanqid qilish
- C) antik falsafadagi gumanizm va antropotsentrizm g'oyalarini rivojlantirish
- D) empirik va ratsional bilimlar asosida olamning yaxlit manzrasini yaratishga intilish

2. Yevropada Yangi davr qaysi asrlarga to'g'ri keladi?

- A) XIV–XVI asrlarga
- B) XVII–XIX asrlarga
- C) XIX –XX asrlarga
- D) XV – XVII asrlarga

3. Yangi davrda falsafa rivojiga ta'sir etgan eng muhim omil...

- A) realizmdan nominalizmga o'tish
- B) panteizm falsafasini ishlab chiqilishi
- C) fanlarning, eng avvalo tabiiy fanlarning shakllanishi
- D) idealizmdan materializmga o'tish

4. Frencis Bekon o'zining bilish falsafasida qanday g'oyaga asoslangan?

- A) ikki xil haqiqat g'oyasiga
- B) mutlaq haqiqat g'oyasiga
- C) aql – bilishning asosiy quroli haqidagi qarashlarga
- D) nisbiy haqiqat g'oyasiga

5. Frencis Bekon o'zining «Yangi Organon» asarida nimani inkor etgan?

- A) Foma Akvinskiy teologiyasini
- B) Platon dialektikasini
- C) Aristotel logikasini
- D) Nyuton kosmologiyasini

6. Frengis Bekon fikricha, fanlarning asosiy maqsadi, mazmuni va vazifasi:

- A) jamiyatga foyda keltirish va insonlarning hayotini yaxshilash
- B) tabiatni o'rganish, uning sirlarini kashf etish
- C) olimlar o'rtasidagi bahslarni hal etish va mutlaq haqiqatni topish
- D) har doim bilim va tajribaga asoslanish

7. «Men fikrlayapman, demak, men mavjudman» degan g'oya kimga tegishli?

- A) Frengis Bekon
- B) Rene Dekart
- C) Jon Lokk
- D) Benedikt Spinoza

8. Frengis Bekon qanday bilish usulini yaratgan?

- A) induktiv
- B) deduktiv
- C) mantiqiy
- D) tarixiy

9. Rene Dekart qanday bilish usulini yaratgan?

- A) mantiqiy
- B) tarixiy
- C) deduktiv
- D) induktiv

10. Falsafa tarixida Rene Dekart g'oyalarini davom ettiruvchi falsafiy oqim qanday ataladi?

- A) sensualizm
- B) kartizianlik
- C) realizm
- D) deizm

11. Tomas Gobbs Rene Dekartning qaysi ta'limotiga qarshi chiqqan?

- A) substansiya haqidagi
- B) «tug‘ma g‘oyalar» haqidagi
- C) atsidensiyaga oid
- D) deduktiv bilish usuliga oid

12. Tomas Gobbs qanday siyosiy boshqaruv tizimining tarafdori bo‘lgan?

- A) demokratiya
- B) monarxiya
- C) aristokratiya
- D) oligarxiya

13. Tomas Gobbsning «Leviafan» asari qanday masalalarning falsafiy talqiniga bag‘ishlangan ?

- A) ijtimoiy-siyosiy masalalarga
- B) ilohiyot va falsafa o‘rtasidagi munosabat masalalariga
- C) olamning substansial asosini o‘rganishga
- D) tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi oid

14. Jon Lokk ta’limotiga ko‘ra, har qanday bilishning asosini nima tashkil etadi?

- A) xotira
- B) fikr
- C) tajriba
- D) sezgilar

15. Jon Lokk ta’limotiga ko‘ra, inson erkinligi ...

- A) mutlaq va hech kimga bog‘liq emas
- B) boshqa insonlar erkinligi bilan cheklangan
- C) inson hayotining muayyan muhit sharoitiga bog‘liq
- D) davlat nazorati orqali cheklangan

16. Jon Lokk o'zining siyosat falsafasiga bag'ishlangan «Davlat boshqaruvi to'g'risida ikki risola» asarida nimani taklif etgan?

- A) ma'rifatli monarxiyani
- B) demokratik markazlashuvni
- C) hokimiyat boshqaruvini bo'linishini
- D) ijtimoiy shartnoma tuzishni

17. Spinoza «Etika» asarining «Xudo to'g'risida» bobida qanday g'oyani ilgari surgan?

- A) Xudo tabiatda mavjud va uning substansiyasidir
- B) Xudo substansiyadan mustaqil mavjud
- C) Xudo tabiatda mavjud va uning yaratuvchisidir
- D) Xudo va substansiya (tabiat) – yagona tushunchalar

18. Spinoza qanday boshqaruv usulining tarafdori bo'lgan?

- A) ma'rifatli monarxiya
- B) aristokratiya
- C) demokratiya
- D) mutlaq hokimiyat

19. G.V. Leybnits ta'lilotida «monada»:

- A) oddiy substansiya
- B) yagona substansiya
- C) obyektiv aksidensiya
- D) ideal modus

20. Matematik mantiq va yetarli asos qonunining asoschisi:

- A) G.V.Leybnits
- B) B.Spinoza
- C) J.Lokk
- D) R.Dekart

5.2. XVIII asrda Angliyada falsafaning rivoji

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda XVIII asr ingliz falsafasiga oid chuqur tushuncha va bilimlarni shakllantirish; ularda XVIII asr ingliz falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish, mavzu bo‘yicha falsafiy manbalarni tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Agnostitsizm, sensualizm, subyektivizm, tasavvur, taassurot, g‘oyalilar, tajriba, deizm.

Asosiy savollar:

1. Jon Tolland falsafasi.
2. Jorj Berkli ta’limotining g‘oyaviy-nazariy manbalari.
3. J.Berklining bilish nazariyasi.
4. David Yum sensualizmi va ijtimoiy-axloqiy qarashlari.



Jon Tolland (1670–1722 yy.) – ingliz faylasufi.

Asarlari: «Levitlar qabilasi», «Sirsiz xristianlik», «Sirenaga maktublar», «Panteistikon».

Tolland Angliya, Shotlandiya va Gollandiyadagi universitetlarda falsafa, ilohiyot, gumanitar fanlar bilan bir qatorda qadimgi tillarni ham o‘rgandi. 1691-yilda u o‘zining birinchi asari «Levitlar qabilasi» nomli kitobini chop ettirdi. Bu o‘tkir syujetli pamflet bo‘lib, unda u levitlar, ruhoniylarni qattiq tanqid ostiga oladi. 1691-yili Tolland o‘zining ikkinchi asari «Sirsiz xristian-

lik»ni chop ettiradi.⁴³ Bu asar Tollandni keng jamoatchilik orasida tanilishiga imkoniyat yaratgan bo'lsa, ruhoniylar tomonidan ta'qib ostiga olinishiga sabab bo'ladi. Asar birinchi marotaba taxallus ostida, ikkinchi to'ldirilgan nashrida uning asl nomi bilan chop etiladi.

1702-yilda asar uchinchi marotaba chop etilgan. Bir nechayillar davomida bu asar atrofida qattiq bahs-munozaralar davom etadi. Asarda Tolland ikki haqiqat (aqlga muvofiq haqiqat va e'tiqodga muvofiq haqiqat) haqidagi g'oyalarni tanqid qilar ekan, diniy e'tiqod faqat aqlga muvofiq keladigan haqiqatnigina tan olishi kerak, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, aqlga yod bo'lgan narsalar e'tiqod predmeti bo'lishi mumkin emas.

Muallifni ruhoniylar dahriylikda ayblab, asarini yondirishga, o'zini esa sudga tortilishini talab etishdi. Qamoqqa tushishini anglab yetgan olim vatanini tark etadi. 1707-yildan – 1710-yilga qadar Tolland bir qator Yevropa mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Dastlab Germaniyaga, keyinchalik Avstriya va Chexoslovakiyaga boradi. Chexoslovakiyadan Tolland Gollandiyaga o'tadi. Gaaga shahrida ikki yil yashaydi. Shundan so'ng u yana Angliyaga qaytib keladi. Ana shu yillarda Tollandning «Sirenaga maktublar», «Panteistikon» kabi asrlari chop etildi. Bu asarlarida Tolland Spinoza ta'limotini tanqid qilar ekan, harakat materiyaning ajralmas xususiyati ekanligi, sokinlik qarshilik ko'rsatuvchi harakatdan boshqa narsa emasligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Uning falsafasi deistik xarakterga ega bo'lgan.



Jorj Berkli (1685–1753yy.) – ingliz faylasufi.

Asarlari: «Ko'rishning yangi nazariyasi haqida tajriba», «Inson bilimining tamoyillari haqida risola», «Gilos va Filonus o'rtaasida bo'lib o'tgan uch suhbat», «Seyris».


Berkli Irlandiyada tavallud topgan. U Dublindagi Trinti kollejida matematika, falsafa, mantiq, mumtoz adabiyot kabi

⁴³ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 5. – New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 163.

fanlarni o'rgangan. Kollejni tugatgach, shu yerda dars bera boshlagan.⁴⁴ Berkli 1713-yilda missionerlik foaliyatini boshlash maqsadida Fransiya, Italiya, Shimoliy Amerika bo'ylab sayohatga chiqadi. Jorj Berkli 1729–1731-yilida Shimoliy Amerikaning Rod Aylend orolida missionerlar komitetini ochmoqchi bo'lgan. Lekin moddiy mablag'i yetarli bo'lmanidan yana ona vataniga – Angliyaga qaytib keladi. 1734-yildan to umrining oxiriga qadar u Irlandiyada yepiskop lavozimida xizmat qiladi. Berkli falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta'limotlarga ta'siri 1-ilovada keltirilgan.

1-ilova

Berkli falsafasining g'oyaviy asoslari va ta'siri



⁴⁴ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 5. – New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 202.

Berkli bir necha asarlar yozib qoldirgan. Bular: «Ko‘rishning yangi nazariyasi haqida tajriba», «Inson biliminining tamoyillari haqida risola», «Gilos va Filonus o‘rtasida bo‘lib o‘tgan uch suhbat», «Seyris» asarlaridir. U Dublin universitetining talabasi chog‘idayoq tabiiy fanlar bo‘yicha katta yutuqlarga erishganini mammuniyat bilan tilga oladi, Berkli o‘z falsafiy qarashlariga tayanib, kurtak otayotgan materialistik qarashlarga qarshi kurashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.⁴⁵

Berkli fikricha, mavjudlik o‘ziga xos ko‘lamga ega bo‘lishlik va hokazolar mavhumlikdir, ya’ni ular g‘oyalar emas, ular shunchaki noma’lum va keraksiz, xalq orasida kundalik ongda ishlataladigan oddiy so‘zlardir. «G‘oya deganda men har qanday seziluvchan yoki tasavvur qilinadigan narsani tushunaman (2-ilova).

2-ilova

Berkli: tashqi va ichki g‘oyalar haqida

<i>G‘oya turlari</i>	<i>Tashqi</i>	<i>Ichki</i>
Manbasi	Ongga tashqaridan keladi, ya’ni hissiyot organlaridan	Ongning ichida paydo bo‘ladi, ya’ni aql faoliyatining natijalarini ifodalaydi
Nomlanishi	Hissiyot	Fikrlar

Hissiy xayol qilinadigan narsalarning mavjudligi hissiy tasavvur yoki his etishdan sira farq qilmaydi. Jismlar ongdan tashqarida mavjud ular ongdan farq qiladi. Shuningdek, ong, o‘z navbatida, jismlardan farq qiladi, deb bilaman». U har qanday inson biliminining obyektlarini kuzatar ekan, ularni shunchaki g‘oyalar qilib ko‘rsatadi. Hissiyotimiz orqali qabul qilinayotgan yoki qabul qilayotgan shunday narsalar his-hayajonni va aql faoliyatini kuzatish orqali yoki pirovard oqibatda g‘oyalar dastlab qabul qilingan yuqoridagi usullardan biri bo‘lib, birikish, ajralish

⁴⁵ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 5. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 – P. 203.

yoki oddiy tasavvurlar orqali yuzaga keladi, deydi. «Men uchun chamasi ruhning mavjudligi tabiatdagi barcha hodisalarining birlashishidagi ortiqcha bo‘lgan o‘ta donishmand, oljanob va ulug‘ qudratdandir. His etilmaydigan qotib qolgan jismga kelsak, men his etmaydigan bironta narsa unga hech qanday daxli yo‘q va mening fikrlarim unga qaratilgan emas». ⁴⁶ U o‘z falsafiy qarashlarining shakllantirishda Jon Lokkning sensualistik ta’limotini tanqid qilishdan boshlagan edi. O‘z asosiga ko‘ra, Lokk va Berklining falsafiy tizimlari bir-biriga yaqin. Har ikkisi ham bilishda empirik asosdan kelib chiqadi, lekin turlicha xulosalarga keladilar. Agar Lokk tizimi asosan naturfalsafa sifatida shakllangan bo‘lsa, Berklining falsafasi diniy mohiyatga egadir.



David Yum (1711–1776 yy.) – ingliz tarixchisi, publisisti, iqtisodchi va faylasufi.

Asarlari: «Inson tabiat haqida», «Axloq va siyosat haqida esselar», «Inson bilishi haqidagi tadqiqot».


1734-yili Yum Fransiyaga jo‘naydi. U yerda 3 yil yashab o‘qishini davom ettiradi. Fransiyada o‘qib yurgan kezlarida Yum «Inson tabiat haqida» asarini yozadi. U uch kitobdan iborat edi. Bu asar 1738–1740-yili Londonda chop etiladi. Asarning birinchi qismi (1-kitob)da bilish nazariyasi masalalari bayon etilgan. Uning falsafa sohasidagi asosiy asari «Inson bilishi haqidagi tadqiqot» gnoseologik muammolarga qaratilgan. U bilimlarimizning tabiat haqidagi masalani sensualistik nuqtayi nazardan hal etar ekan, ularning manbalari haqidagi masala pozitsiyasi Lokk va Brekli pozitsiyalaridan farq qiladi. Yum ta’limotiga ko‘ra, tajribaviy bilim hissiy qabullashdan tashkil topgan bo‘lib, Lokk va Berkli «g‘oyalaringa» o‘xshashdir. Biroq Yum Lokkning tashqi olam – bu oddiy g‘oyalarning manbai, degan fikrini qabul qilmaydi. Ayni shu paytda Yum Berkli bilan bu borada bahs yuritadi. Berkli fikricha, «g‘oyalalar», ya’ni sezgilarning o‘zi reallikdir. Yumning ta’kidlashicha, biz tashqi

⁴⁶ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 5. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 – P. 224.

olamning mavjudligini sezgilarimizning manbai deb isbotlay olmaymiz (4-ilova).

3-ilova

Yum falsafasining manbalari va ta'sir doirasi



4-ilova


Yum: taassurotlar va g'oyalar haqida

<i>Qabul qilish</i>	<i>Darajasi bo'yicha</i>	<i>Tartibiga ko'ra</i>
Taassurotlar	Ongda juda yorqin va kuch bilan namoyon bo'ladi: bu hissiyotlar, iztiroblar, ehtiroslar va h.k.	Ongimizda birinchi bo'lib paydo bo'ladi.
G'oyalar	Tafakkurdagi va mulohazadagi kuchsiz timsollar	Ongimizda ikkinchi bo'lib paydo bo'ladi (taassurotlardan keyin).

Yum fikricha, bilish jarayonida biz sezgilarning manbalari bilan emas, balki faqat sezgilarimizning mazmuni bilan ish yuritamiz (5-ilova).

5-ilova

Yum: sabab-oqibat munosabatlari haqidagi tasavvurni shakllanishi



Shuning uchun ham biz dunyo obyektiv ravishda mavjudmi yoki mavjud emasmi, bilmaymiz. Barcha hissiy qabullashni Yum ikki turga: taassurotlar va g'oyalarga bo'ladi. Birlamchilari bu tashqi tajriba to'g'risidagi taassurotlar, ikkilamchilari esa ichki tajriba haqidagi taassurotlardir. Agar birinchisiga sezgilar taalluqli bo'lsa, ikkinchisiga esa xohish, ehtiros va boshqalar taalluqlidir (6-ilova).

6-ilova


Yum: sodda va murakkab taassurotlar

<i>Qabul qilish</i>	<i>Taassurotlar</i>	<i>G'oyalalar</i>
Sodda	Sodda taassurotlar	Sodda g'oyalalar
Murakkab	Murakkab taassurotlar	Murakkab g'oyalalar

Yum substansiya degan tushunchani inkor etadi. Substansiya – bu bamisoli sarob. U bizning ongimizda paydo bo‘ladi, deydi faylasuf (7-ilova).

7-ilova

Yum: umumiy nomlar tabiatи



Tashqi va ichki tajribalar haqidagi tasavvurlar oddiy g‘oya-larni yuzaga keltiradi, ularga xotira va tasavvurlarning shakllari taalluqlidir (8-ilova).

8-ilova

Yangi davr falsafasida “g‘oya” tushunchasining talqini (Dekartdan boshlab Yumgacha)

<i>Faylasuflar</i>	<i>“G‘oya” tushunchasining talqini</i>
Dekart	G‘oya – bu fikr, u inson ongida mavjud bo‘ladi, ba’zi bir g‘oyalar (xususan, fan qonunlari) tug‘ma bo‘ladi.
Lokk	G‘oya – bu inson tafakkurining har xil obyektlari (“tasavvur”, “tushuncha” va h.k.), hech qanday tug‘ma g‘oya yo‘q.
Berkli	G‘oya – bu inson tafakkurining har xil obyektlari (“hissiyot”, “fikrlar” va h.k.), hech qanday tug‘ma g‘oya yo‘q.

Leybnits	Hech qanday tug‘ma g‘oya yo‘q, lekin fundamental g‘oyalarni qabul qilishga tayyor bo‘lgan tug‘ma qibiliyatlar bor (“Men”, “ayniyat”, “borliq” va h.k.).
Yum	G‘oya – bu ikki turdag'i qabul qilishning bir turi, u inson tafakkurida mavjud bo‘ladi, ular taassurotning kuchsiz, xira timsolidir, tafakkurdagi va mulohazadagi (hissiyot)lar ular orqali tug‘iladi; hech qanday tug‘ma g‘oya yo‘q.

G‘oyalari bir-birlari bilan qo‘shilib, muayyan munosabatlarda bo‘lishi mumkin. Yum bunday munosabatlarning uch turi haqida fikr yuritadi. Bu turlarni u *assotsiatsiya* deb ataydi.⁴⁷ Yum assotsiatsiyalarni inson tabiatini uchun muhim deb biladi va ularni asoslar deb ataydi. Masalan, do‘stimning portreti, ayni vaqtida o‘zi bo‘lmasada, u bizda o‘zi haqida g‘oya tug‘dirishi mumkin. Bu portret va do‘stimiz haqida paydo bo‘lgan siymo bir-biriga o‘xshashdir. Lekin bunday assotsiatsiya ko‘pincha xatolikka olib kelishi ham mumkin. Ikkinchisi ko‘rinish, bu zamon va makonda assotsiatsiyaning yaqinligi to‘g‘risidagi masaladir. Misol uchun, qadrdon uy haqidagi taassurotlar va xotiralarda uzoqroq turganga qaraganda yaqinroq turganda yorqinroq ko‘rinadi. Uchinchi ko‘rinish, bu sababiyyat assotsiatsiyasi bo‘lib, u hayotda tez-tez uchrab turadi. Yum assotsiatsiya munosabat turlaridan biri bo‘lib, ular juda ko‘p degan xulosaga keladi. Lekin barcha munosabatlardan ichida sababiyyat munosabatlari asosiyidir. Shuning uchun u o‘zining asosiy diqqat-e’tiborini sababiyyat munosabatlarga qaratadi. Uning sababiyyat haqidagi ta’limoti gnoseologik ta’limotida markaziy o‘rin egallaydi (9-ilova).

⁴⁷ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 5. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.- P. 278.

Yum: “assotsiatsiya g‘oyalarining asosi”

<i>Asos turlari</i>	<i>Misollar</i>
O‘xhashlik	Rasm bizga o‘sha odam haqidagi xotiralarni esga soladi.
Makondagi o‘xhashlik Zamondagi o‘xhashlik	Langarni ko‘tarilishini ko‘rib, biz kemani suzib ketishini tasavvur qilamiz. O‘z maktabdagisi sinfimizni xotiraga olib, biz uni yonidagi sinflarni, koridorni va butun mакtab binosini xotiraga olamiz.
Sabab-oqibat munosabatlari	Olov haqida o‘ylab, biz zaruriy tarzda undan chiqadigan issiqlik va tutun haqida o‘ylaymiz.

5-bo‘limning 2-bobiga oid topshiriqlar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. XVIII asr ingliz falsafasi qanday nazariy manbalarga tayangan?
2. XVIII asr ingliz falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?
3. Kimlar XVIII asr ingliz falsafasining yirik namoyandalari hisoblanadi?
4. Jon Tolland o‘z asarlarida qanday falsafiy an’anani davom ettirdi?
5. Jon Tolland qanday asarlar yozgan?
6. Agnostitsizm nima?
7. Sensualizm qanday ta’limot?
8. Jorj Berkli va David Yum qanday falsafaga asos soldilar?
9. Jorj Berkli gnoseologik ta’limotiga ko‘ra, inson bilimining asosini nima tashkil etadi?
10. Jorj Berkli denga nisbatan qanday munosabat bildirgan?

11. Jorj Berkli qanday falsafiy an'anani rivojlantirgan?
12. Jorj Berkli sababiy aloqadorlik haqida qanday g'oyalarni ilgari surgan?
13. Jorj Berkli Jon Lokkning sensualizmiga qanday munosabat bildirgan?
14. David Yumning inson faoliyati davomidagi ikki xil munosabat haqidagi ta'limotining mazmun-mohiyatini bilasizmi?
15. David Yum agnostitsizmining mohiyati nimada?
16. David Yum tajribani qanday tushungan?
17. David Yum qarashlari qanday xususiyatlarga ega?
18. David Yum ta'limotida jamiyatni harakatlantiruvchi kuch nimada?
19. Gegel David Yum falsafasiga qanday munosabat bildirgan?
20. «Men bor, dunyo bor» g'oyasini ta'riflab bering.

*Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini
tushuntirib bering:*

1. Aqlga zid narsa imonga asos bo'lishi mumkin emas, Chunki aql orqali tushuniladigan narsagagina ishontirish mumkin. (Jon Tolland).
2. Biz sezgilar va fikrlar vositasida qabul qilishimiz mumkin bo'lgan biror narsaning mavjudligini inkor etmayman. Ko'zim bilan ko'rayotgan va qo'lim bilan ushlayotgan narsalarning ham haqiqatda mavjudligiga zarracha shubhalanmayman. Men mavjudligini inkor etayotgan yagona narsa bu – faylasuflar materiya yoki moddiy substansiya deb atayotgan narsa . (Jorj Berkli).
3. Idrok qilinmaydigan narsa mavjud bo'lmaydi. (Jorj Berkli).
4. Hissiz narsalarning idrok etilish-etilmasligidan qat'i nazar mutlaq mavjudligi haqida gapiradilarki, bu men uchun mutlaqo tushunarsiz bo'lib tuyuladi. Ularning mavjudligi idrok etilishdan iborat va ularning idrokdan yoki idrok etuvchi narsalar (jonzotlar)ning idrok doirasidan tashqarida qanday bo'lmasin mavjudligi mutlaqo mustasno.(Jorj Berkli).

5. Shu narsa haqiqatki, odamlar insoniyat tafakkuridan mutlaqo chetdagi muammolar, masalan olamlarning yaratilishi, aqliy olamning yoki ruhlar sultanatining tuzilishi haqidagi muammolarni muhokama qilish asnosida bekorga bahslashadilar va hech qachon aniq xulosaga kelmaydilar.(David Yum).

6. Sabab uchun bitta eng zarur narsa bor. Bu – oqibatga ega bo‘lmoqlik. (David Yum).

7. O‘zi haqida uzoq gapiradigan odamning maqtanchoqlikka chap berishi mushkul.(David Yum).

8. Rahmdillikka muhabbat va nafislik, ichiqoralikka esa dushmanlik va g‘azab omixta bo‘ladi.(David Yum).

9. Xudbinlik adolat qoidalarini tug‘diradi va bu qoidalarga amal qilishning eng birinchi sababi hisoblanadi.(David Yum).

10. Garchi tabiiy qobiliyat va axloqiy sifatlarning darajasi bir xil bo‘lsa-da, ular o‘rtasida bir farq bor. Tabiiy qobiliyatni sun’iy ta’sir etish yo‘li bilan deyarli o‘zgartirib bo‘lmaydi. Axloqiy sifatlar yoki uning oqibati natijasida yuzaga keladigan amallarni esa mukofot va jazo, rag‘bat yoki inkor vositasida o‘zgartirish mumkin. (David Yum).

11. Insonning hayoti tasodiflarga qanchalik boy bo‘lsa, u xurofotga shunchalik chuqur beriladi.(David Yum).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. XVIII asr ingliz falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.

2. Ingliz subyektiv idealizmining g‘oyaviy manbalari.

3. David Yum sensualizmi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. «Jon Tollandning falsafiy deizmi mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.

2. «Jorj Berkli va David Yum bilish haqidagi ta’limotlari: qiyosiy tahlil» mavzusida klaster tuzing.

TESTLAR

1. XVIII asr ingliz falsafasining asosiy xususiyati...

- A) subyektiv idealizm, agnostitsizm, skeptitsizm
- B) xristian sxolastikasini tanqid qilish
- C) antik falsafadagi gumanizm va antropotsentrizm g'oya-larini rivojlantirish
- D) empirik va ratsional bilimlar asosida olamning yaxlit manzarasini yaratishga intilish

2. XVIII asr ingliz falsafasining yirik namoyandalari...

- A) Jon Tolland, Jorj Berkli , David Yum
- B) Jon Tolland, Jorj Berkli , Jon Lokk
- C) Jorj Berkli , David Yum, Gotxold Lessing
- D) Kant, Berkli, Yum, Tolland

3. Jorj Berkli ta'limotiga ko'ra, narsalar ...

- A) bilimlarimiz majmuidan iborat
- B) obyektiv reallikdir
- C) subyektiv reallikdir
- D) sezgilarimiz majmuidan iborat

4. Jorj Berkli «mavjud bo'lish» deganda nimani nazarda tutadi ?

- A) sezgilar orqali idrok etishni
- B) ongimizdan tashqarida obyektiv mavjud bo'lishlikni
- C) tafakkurdagi tushunchalarda mavjud bo'lishlikni
- D) substansiyani uning sifatlari majmui bilan birga in'ikos etishni

5. Jorj Berkli nimaning mavjudligini inkor etgan?

- A) materiyani
- B) sezgilarni
- C) mantiqiy tafakkurni
- D) sababiy aloqadorlikni

6. Jorj Berkli ta'limotiga ko'ra, dunyoda qanday sabablar mavjud?

- A) obyektiv
- B) moddiy
- C) ruhiy
- D) tasodifiy

7. «Men bor, dunyo bor » degan g'oya kimga tegishli?

- A) Frensis Bekon
- B) Rene Dekart
- C) Jon Lokk
- D) Jorj Berkli

8. David Yum ta'limotiga ko'ra, taassurot va g'oyalar o'rtaida qanday aloqalar mavjud?

- A) mantiqiy
- B) sababiy
- C) cheksiz ijodiy
- D) tarixiy

9. David Yum ta'limotiga ko'ra, inson faoliyatida ikki xil munosabatlar bor: «g'oyalar o'rtaida» va ... ?

- A) «real narsalar o'rtaida»
- B) «tarixiy hodisalar o'rtaida»
- C) «mantiqiy xulosalar o'rtaida»
- D) «induksiya va deduksiya o'rtaida»

10. Agnostitsizm qanday ta'limot?

- A) bilish jarayonida tasavvurning rolini mutlaqlashtiruvchi
- B) bilish jarayonida sezgilarning rolini mutlaqlashtiruvchi
- C) bilish jarayonida aqlning rolini mutlaqlashtiruvchi
- D) olamni bilishni inkor qiluvchi

11. Sensualizm qanday ta'limot?

- A) olamni bilishni inkor

B) qiluvchi bilish jarayonida sezgilarning rolini mutlaqlash-tiruvchi

C) bilish jarayonida aqlning rolini mutlaqlashtiruvchi

D) bilish jarayonida tasavvurning rolini mutlaqlashtiruvchi

12. Ratsionalizm qanday ta’limot?

A) bilish jarayonida aqlning rolini mutlaqlashtiruvchi

B) bilish jarayonida tasavvurning rolini mutlaqlashtiruvchi

C) bilish jarayonida sezgilarning rolini mutlaqlashtiruvchi

D) olamni bilishni inkor qiluvchi

13. Jorj Berklining bilish nazariyasidagi asosiy tushunchalardan biri ...

A) materiya

B) harakat

C) «tug‘ma g‘oyalar»

D) g‘oyalar

14. David Yumning bilish nazariyasidagi asosiy tushunchalardan biri ...

A) materiya

B) substansiya

C) tajriba

D) «tug‘ma g‘oyalar»

15. Kimni Gegel «o‘zining falsafiy asarlaridan ko‘ra ta-rixiy asarları bilan ko‘proq tanilgan edi» deb hisoblagan?

A) Jorj Berkli

B) Jon Tolland

C) Jon Lokk

D) David Yum

16. Jorj Berkli bilish nazariyasining asosini qaysi ta’limot tashkil etadi?

A) J.Lokkning «birlamchi» va «ikkilamchi » sifatlar haqidagi

B) G.V. Leybnitsning monadalar haqidagi

- C) R. Dekartning «tug‘ma g‘oyalar» haqidagi
- D) Spinozaning substansiya haqidagi

17. David Yumning «Dinning tabiiy tarixi» asari qanday masalalarning falsafiy talqiniga bag‘ishlangan ?

- A) dinning paydo bo‘lishi va uning ijtimoiy vazifalariga
- B) ilohiyot va falsafa o‘rtasidagi munosabat masalalariga
- C) olamning substansial asosini o‘rganishga
- D) ijtimoiy-siyosiy masalalarga

18. David Yum ta’limotiga ko‘ra, jamiyat rivojining harakatlantiruvchi kuchini nima tashkil etadi?

- A) insonning o‘z hayotini muayyan muhit sharoitiga moslashtirish ehtiyoji
- B) moddiy boyliklarning o‘sib borishi bilan ehtiyojlarning qondirilishi
- C) insondagi o‘z ehtiyojlarini qondirish va foyda ko‘rish tuyg‘usi
- D) davlat boshqaruv tizimining mukammallahib borishi

19. D. Yum ta’limotidagi «tajriba» tushunchasi nimani anglatadi?

- A) inson bilimlari haqiqatligining mezonini
- B) insonlar o‘rtasidagi obyektiv munosabatlarni
- C) inson bilimlarining manbaini
- D) idrokni, ta’sirlanish va tasavvurlarning tartibga solinishini

20. Jorj Berkli va David Yum insonning olamni bilishi mumkinligi haqidagi g‘oyaga qanday munosbatda bo‘lganlar?

- A) metafizik
- B) dialektik
- C) skeptik
- D) idealistik

5.3. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi va falsafasi

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda XVIII asr fransuz falsafasi bo'yicha tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; XVIII asr fransuz falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosil tahlil qilish ko'nikmalarimi shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Deizm, manfaat, ijtimoiy kelishuv, tabiiy huquq, tabiiy tenglik, ijtimoiyadolat, geografik determinizm, davlatni boshqaruvs hakllari, «Enziklopediya».

Asosiy savollar:

1. XVIII asrda Fransiyada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.
2. Volterning falsafiy ta'limoti.
3. Monteskening ijtimoiy qarashlari.
4. Jan Jak Russining bilish nazariyasi, pedagogik qarashlari.
5. Deni Didro qomusshunos faylasuf.
6. Pol Anri Golbax falsafiy ta'limoti, bilish nazariyasi.
7. Gelvetsiy falsafasi.
8. Lametrining mexanistik materializmi.

Ilmiy-falsafiy fikr rivojida XVIII asr Yangi davrning ikkinchi bosqichi sifatida o'ziga xos o'ringa ega. Ilm-fan markazi bu davrda Fransiyaga ko'chadi, chunki XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida bu yerda ma'rifatchilik harakati keng quloch yoyadi. Fransuz ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. baynalmilal xususiyatga ega;
2. feodalizmga qarshi yo'nalishda bo'lgan;
3. dingga qarshi, antiklerikal xususiyatga ega;
4. fan kuchiga qattiq ishongan;

5. kelajakka ko‘tarinki ruh bilan qaragan.

Fransuz ma’rifatchiligi Amerika, Germaniya, Rossiya kabi mamlakatlardagi ma’rifatchilikka nisbatan ancha rivojlangan edi.




Arua Fransua Mari Volter (1694–1778 yy.) – fransuz ma’rifatchiligining asoschilaridan biri. Volter (uning taxallusi, asli ismi Arua Fransua Mari) 1694-yili 21-noyabrda Parijda notarius oilasida dunyoga kelgan.⁴⁸ U mashhur adib, publitsist, faylasuf, diniy muta-assibchilikka qarshi keskin kurash olib borgan mutafakkir.

Asarlari: «Falsafiy (yoki Angliyadan) maktublar», «Metafizika to‘g‘risidagi traktat», «Nyuton falsafasining asoslari», «Falsa lug‘ati», «Johil faylasuf». Volter lirik she‘r, poema, satira, hikoya, povest va dramalarida («Genriada», «Brut», «Orlean qizi», «Sezarning o‘limi») va boshqalarda o‘zi yashagan tuzumni, xristianlikni, katolik cherkovini qoraladi.

Ta’limoti: Volter falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 1- ilovada o‘z aksini topgan.

I-ilova

Volter falsafasining manbalari va ta’sir doirasi



⁴⁸Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 – P. 164.

Volter Didro asos solgan va boshqargan ensiklopediyada faol ishtirot etgan. Bir necha yosh ma'rifatparvarlar bilan muloqotda bo'lgan. Volter falsafasi **deistik** xarakterga ega bo'lган, ya'ni u olamni xudo yaratganligini tan olsada, olamning keyingi rivoji o'z tabiiy qonunlari asosida davom etadi deb hisoblagan. U fan va falsafani din ta'siridan uzoqlashtirishga harakat qilgan. Bid'at va xurofot, uning fikricha insonning ilmsizligi natijasida kelib chiqadi.

Olamda harakatlanuvchi materiyadan o'zga narsa yo'q. Materiya atomlardan tashkil topadi. Bilish nazariyasida Volter Dekartning tug'ma g'oyalariga qarshi chiqqan. Ayni bir paytda u Lokkning sensualizmini qabul qiladi va uni targ'ib qila boshlaydi. Shu bilan birga u hissiy manbalarga bog'liq bo'lman shashubhasiz haqiqatlarning mavjudligini tan oladi. Uning fikricha, biz faqat ruhiy hodisalar va qobiliyatga tayangan bilimga egamiz.

Demak, Volter determinizm pozitsiyasida turib, ongimiz hissiy a'zolarimizning tuzilishiga bog'liqligini isbot qilishga uringan. Tafakkurni materiyaning atributi deb tan oldi.⁴⁹

Volterning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari feodal tuzumiga qarshi qaratilgan edi. U fransuz burjua-demokratik g'oyalilar tarafdori bo'lgan. Volter jamiyatning farovonligini ma'rifatli va saxiy monarxning faoliyatida hamda burjua liberal islohotlarida ko'rghan.⁵⁰

Volter fikricha, shu vaqtgacha barcha insonlar, xoh eng ibtidoiy bo'lmasin, xoh xaroba mamlakatlarda yashamasin chumolilar, asalarilar va boshqa hayvon turlari singari jamoa bo'lib yashab kelganlar, biron-bir mamlakatda kishilar alohida-alohida yashaganlarini ko'rmaganmiz. Biron-bir ona o'z farzandini tarbiyalab, keyin ularni tashlab tan olmaganliklarini, biron kishi oila qurmay, biron-bir jamiyatdan tashqarida yashaganlarini bilmaymiz, Ba'zi bir ahmoq masxarabozlar miyalarini ahmoqona fikrlar bilan to'ldirib, go'yo inson dastlab alohida yashash uchun yaratilgan, jamiyat ularning tabiatini buzgan deyishga jur'at

⁴⁹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 – P. 168.

⁵⁰ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.– P. 165.

etganlar. Har bir mahluqning o‘z instinkti – tabiiy mayli mavjud. Insonning instinkti aql bilan mustahkamlangan bo‘lib, uni xudo oziq-ovqatga tortganidek jamiyatga ham tortadi.

Shunday qilib, jamiyat bo‘lib yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonlarni buzmaydi, balki jamiyatdan ajralish insonni insoniylikdan chiqarib qo‘yadi. Mutlaqo yakka yashagan odam fikrlash qobiliyatini ham unutgan bo‘ladi. U hayvon darajasigacha borib yetishi mumkin. Ozod bo‘laman, deb o‘zini dahshatli qulikka tushib qolganini bilmay qoladi.

Shunday qilib, Volter ongning oliy ko‘rinishi deb fan va san’atga tayangan sog‘lom falsafani tan oladi. U butun umidini ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga tayangan, falsafiy xulosalarga ega bo‘lgan ma’rifatli monarxlarga bog‘lagan. Volterning taraqqiyotparvar g‘oyalari Yangi davr ma’rifatparvarlarining mafkurasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.



Fransiyalik advokat *Sharl-Lyudovik de Sekondat* (keyinchalik baron de la Bred va de Monteske nomini olgan) (1689–1755yy.) – XVIII asrdagi eng buyuk siyosiy nazariyotchilardan biri bo‘lgan edi.

Asarlari: «Qonunlar ruhi», «Taab haqidagi tajriba», «Arzas va Ismeniya haqida Sharq qissasi», «Fors maktublari».


Ta’limoti: Monteske huquq fanini o‘rganib Bordo shahrida dastlab maslahatchi, so‘ng parlament prezidenti (rais)laridan biri lavozimida ishlaydi. Tezda Monteske hakamlarning qirol davlati zo‘ravonligiga munosib qarshilik ko‘rsata olmasliklarini anglab, o‘z xizmat burchidan soviy boshlaydi. Shundan keyin Monteske fizik tadqiqotlar bilan mashg‘ul bo‘ladi va «akademiya» deb ataluvechi mahalliy ilmiy jamiyatda bir necha ma’ruzalar qiladi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy-falsafiy masalalar tahsili bilan ham shug‘ullana boshlaydi va o‘z g‘oyalarini «Fors maktublari» deb nomlangan romanida ajoyib iboralarda ifodalaydi. Bu roman Gollandiyada anonim (muallif nomisiz) bosilib chiqadi. Lekin romanning muallifi Monteske ekanligi ma’lum bo‘lib, hurfikrlilar va feodal-mutlaq tuzumni tanqid qiluvchilar o‘rtasida katta adabiy

shuhrat qozonadi. Monteske Parijdagi hurfikrlilar klubini faol ishtirokchisiga aylanadi.

Monteske falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta'limotlarga ta'siri 2- ilovada o'z aksini topgan.

2-ilova

Monteske falsafasining manbalari va ta'sir doirasi



1728-yilda Monteske Fransiya akademiyasiga saylanadi. Hakamlik lavozimidan butunlay voz kechib, Monteske qo'shni mamlakatlar urf-odatlari, axloqi, qonunchiligi va siyosiy muassasalarini o'rganish maqsadida Germaniya, Avstriya, Italiya, Shveysariyaga safar qiladi, ikki yil Angliyada yashaydi. 1731-yilda Monteske vataniga qaytib kelib, Bordo shahri yaqinidagi o'z yerida ko'p vaqtini o'zining ijtimoiy-falsafiy risolasiga sarf qiladi. Bu risolaning 1734-yilda nashr qilingan kirish qismi «Rimliklarning buyuklikka erishishi va tanazzulining sabablari haqida mulohazalar» deb nomlanadi.⁵¹

⁵¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003.- P. 163.

«Qonunlar ruhi» deb nomlangan risolaning o‘zi 1748-yilda nashr qilinadi. Monteskening bir nechta keyingi asarları o‘limidan so‘ng nashr qilinadi. Uning mumtoz estetik ruhdagi «Taab haqidagi tajriba» asari 1757-yildayoq mashhur bo‘lib, «Enziklopediya»ga kiritiladi (3-ilova).

3-ilova

Monteske: qonunning asosiy turlari

<i>Qonun turlari</i>	<i>Kelib chiqishi</i>	<i>Amal qiliш sohasi</i>
Jismoniyligi (tabiiy)	Xudo tomonidan tabiat qonunlari sifatida o‘rnatilgan.	“tabiiy holat” (davlatgacha) va fuqarolik jamiyatni (davlat).
Ijtimoiy	Insonlar tomonidan ishlab chiqilgan.	Faqat fuqarolik jamiyatni (davlat).

Shuningdek, uning muhim asarlaridan yana biri 1783-yilda nashr qilingan «Arzas va Ismeniya haqida Sharq qissasi»dir. Bu asarda xalq farovonligi haqida qayg‘uruvchi, adolatli qonunlar o‘rnatgan, «hamma vaqt xalq haqida gapirgan shoh haqida, o‘zlarini haqida mutlaqo gapirmagan» faylasuflar yordamida mamlakatni boshqargan «ma’rifatli monarch»ning orzudagi timsoli tavsif qilinadi.

Shunday qilib, Monteskening «Fors maktublari» Fransiyadagi feodal-mutlaq tuzumning illatlari, chunonchi, qirol saroyining tizginsiz boylikka hirsi, buzuq zodagonlar tomonidan qirolning sovg‘alarga ko‘milib tashlanishi, xalq ommasini xonavayron qiluvchi adolatsiz soliq yig‘uvchilarning ochko‘zligi va hokazolar zaharxandalik bilan tanqid qilinadi. Bunday boshqarish usulining o‘z fuqarolarini gado va huquqsiz qullarga aylantiruvchi osiyoviy zo‘ravonlik boshqarish usuli (despotizm) bilan o‘xshashligini ko‘rsatish fransuz monarxiyasi sha’niga aytilgan jiddiy siyosiy ayblov edi. Romanda zo‘ravonlik hokimiyatiga qarama-qarshi qilib orzudagi jamiyat qo‘yiladiki, unda hamma fuqarolar jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etadilar, «har bir odamning

manfaati» «ijtimoiy manfaatlar» bilan mutanosib ravishda uyg‘unlashgan bo‘ladi (4-ilova).

4-ilova

Monteske: boshqaruv turlari

<i>Boshqaruv turlari</i>	<i>Hokimiyat xususiyati</i>	<i>Axloqiy asosi</i>
Respublika	Hokimiyat to‘lig‘ligicha xalqning qo‘lida bo‘ladi yoki uning bir qismi.	Ezgulik
Monarxiya	Hokimiyat bir kishining qo‘lida bo‘ladi, lekin u o‘rnatilgan qonunlar orqali hukmronlik qiladi.	Shan-g‘urur, oriyat
Despotiya	Hokimiyat bir kishining qo‘lida bo‘ladi, lekin u o‘z irodasiga ko‘ra, xohishicha boshqaradi.	Shan-g‘urur, oriyat

30-yillarga kelib Monteske Fransiya feodal-mutlaq tuzumini tanqidi va unga qarama-qarshi qilib ma’rifatchilik g‘oyalarini qo‘yishdan Rim imperiyasi vujudga kelgandan keyingi ikki yarim ming yillik davomida Yevropaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti haqida mulohazalar mavzusiga o‘tadi (5-ilova).

Monteske shunga ishonch hosil qiladiki, o‘tmishni bilmasdan turib, hozirgi zamonni bilmoq, xalqlarning kelajagi haqida asosli hukm chiqarinoq mumkin emas.⁵² Shunday qilib, Monteske

⁵²Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003 – P. 163.

ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda tarixiy yondashuvga intilgan. Tarixni yoritishda Monteske bir tomondan xristian bashoratchiligi (prvidensializm)ni inkor qilsa, ikkinchi tomondan, tarixga odamlarning injiq xohishlari tufayli yuz beradigan tasodifiy hodisalar majmuasi deb qarovchi qarashlarni inkor qiladi. U xalqlar hayotini tubdan o‘zgartirib yuboradigan voqealardagi soxta «g‘ayritabiyy» zaruriyatlar tufayli emas, balki tarixni haqiqiy, tabiiy-sababiy tushunish haqidagi ta’limotni ishlab chiqishga harakat qildi. Demak, uning fikricha, ham ruhiy, ham jismoniy sabablar mavjudki, ular har bir davlatda uning ravnaqi va tanazzulida, mustahkamlanishi va kuchsizlanishida «hamma tasodiflar bu sabablarga bo‘ysunadilar».

5-ilova

Monteske: ijtimoiy qonun turlari

<i>Oonun turlari</i>	<i>Amal qilish sohasi</i>
Xalqaro huquq	Xalqlar o‘rtasidagi munosabat
Siyosiy huquq	Boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o‘rtasidagi munosabat
Fuqarolik huquqi	Fuqarolar o‘rtasidagi munosabat

Monteske fikricha, qadimgi rimliklar qudratini manbai ularga xos bo‘lgan vatan manfaatini hamma narsadan yuqori qo‘yuvchi, uning himoyasi uchun o‘z-o‘zini qurbon qilishga qodir bo‘lgan ularga xos fuqarolik shijoatidir. Qadimgi rimliklarning bu ijtimoiy-ruhiy xususiyatini Monteske ulardagi siyosiy erkinlikning mavjudligi bilan, jamiyat boshqaruvining respublika shakli bilan uzviy bog‘liqligida deb bildi.

Monteskening fikricha, respublikaning qulashi, imperator zo‘ravonlik hokimiyatining o‘matilishi zaruriy ravishda fuqarolik jasoratining so‘nishiga olib keldi. Natijada bir necha asrdan keyin ilgari o‘zлari ustilaridan doimo g‘alaba qozonib kelgan varvarlarga qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘la olmadilar. Tarixni belgilovchi

ilohiy bashorat kabi g‘oyalar o‘miga real sabab-oqibat aloqalari qo‘yilgan.

Jamiyat hayotida turlicha dirlarning rolini ilohiyotchilik nuqtayi nazaridan tushuntirishdan voz kechgan holda, Monteske, Rim uzoq davom etgan mushriklik diniga e’tiqod natijasida odamlarning gunohlari sababli quladi, degan xristianlarning da’vosini inkor qiladi. Aksincha, Monteskening fikricha, mushriklik fuqarolik oljanobligiga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan davlatni mustahkamlagan. Bu narsani xristianlik o‘zining g‘ayri dunyoviy «muqaddas» davlat g‘oyalari bilan amalga oshira olmasdi. IV asrning boshlarida Rim saltanatida xristianlikning davlat dini maqomini olishi uni yaqin kelajakdagi halokatidan qutqara olmadidi. Vizantiyaning klerikallashuvini Monteske eng «xristianlashgan davlat»ning hamma «falokatlarining eng zaharlovchi» manbaidir, deydi.

Shunday qilib, buyuk fransuz ma’rifatparvar-faylasufi Monteskening ijtimoiy qarashlari G‘arbiy Yevropa falsafiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Monteskening tarixiy qarashlari «Rimliklar shuhrati va inqirozining sabablari haqida mulohazalar» (1734-yil) asarida bayon etilgan. Monteske tarixni teologik tushunishni inkor etib, tarixiy jarayonning obyektiv qonuniyatlarini haqidagi qoidani ilgari surdi. Monteskening «Fors maktublari» romani XVIII asr falsafiy janrdagi eng yaxshi asarlardan biridir. Unda fransuz mutlaq monarxiyasi, uning siyosiy hayoti, madaniyati, urf-odatlari chuqur kinoya va satira bilan keskin tanqid qilingan.



Jan-Jak Russo (1712–1778yy.) –faqat Fransiyaning emas, balki butun Yevropa ma’rifatchiligining buyuk namoyandasini bo‘lgan.

Asarlari: «Fanlarning axloqqa ta’siri», «Tengsizlik sabablari to‘g‘risida», «Yuliya yoki yangi Eloiza», «Ijtimoiy shartnoma», «Emil yoki tarbiya to‘g‘risida», «Tavba».

Ta’limoti: Russo jamiyatshunos (sotsiolog), siyosatchi, axloqshunos, ruhshunos (psixolog) va pedagog sifatida ma’rifat-chilik tarixida chuqur iz qoldirgan. Mutafakkirning jamiyat,

xususiy mulk, davlat to‘g‘risidagi qarashlari ham qimmatlidir. U bir vaqtlar insonlar teng yashagan ideal jamiyat bo‘lganini, unda hamma narsa barchaniki bo‘lganini, bunday jamiyat ortda qolganini afsuslanib yozadi. Kishilar o‘rtasidagi tengsizlik sababini xususiy mulkda deb biladi. Ibtidoiy odam alohida bir joyni o‘rab olib, uni «bu meniki» degan tushunchasining shakllanishi, Russo fikricha, xususiy mulkning vujudga kelishiga asosiy sabab bo‘lgan.⁵³

«Ijtimoiy shartnomasi» asarida J.J.Russo erkinlik va yuridik huquqlar tengligi, xalq va davlat o‘z vazifalari va burchclarini ko‘rsatgan holda bitim tuzishi to‘g‘risida fikr yuritgan. Shuni ta’kidlash kerakki, mutafakkirning o‘zi Fransiyadagi burjua revolutsiyasi muqarrarligini to‘la anglab yetmagan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari mazkur revolutsiyani tayyorlashda muhim o‘rin tutgan. O‘scha davrgacha bo‘lgan falsafiy qarashlardan jiddiy farq qilgan, ulardan ancha ilgarilab ketgan fransuz falsafasi ana shu fransuz ma’rifatchiligi bag‘rida va ayni vaqtida uning tarkibiy qismi sifatida shakllandi va taraqqiy etdi.⁵⁴ Bu davr Gelvetsiy (1715–1771 yy.), Golbax (1722–1789yy.), Didro (1713–1784yy.) Lametri kabi bir qator mutafakkirlarni falsafiy fikr maydoniga olib chiqdi.



Deni Didro (1713–1784yy.) – fransuz ma’rifatparvar–faylasufi «Ensiklopediya» asoschisi hamda muharriri.

Asarlari: «Tabiatni tushuntirish haqida fikrlar», «Materiya va harakatning falsafiy asoslari», «Fiziologiya elementlari» va boshqalar.

Ta’limoti: Deni Didroning materialistik falsafasiga binoan dunyo materiyadan iborat. Materiya esa abadiy, cheksiz, u molekulalardan hosil bo‘lgan. Materiyadan iborat tabiat doim o‘zgarishda, bu tabiiy o‘zgarishlar qonunli, sabablidir. Didro materiyaga harakat xosdir, harakatning

⁵³ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 80.

⁵⁴ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 83.

manbai o‘zida, tabiatda deb organik hamda noorganik tabiatni birlikda olib qaradi, ularni bir-biriga o‘tib turishini ham ko‘rdi. U ayrim tirik jonivorlar formalarining o‘zgarib turishini, ya’ni evolutsion harakatni muayyan darajada e’tirof qilgan desak bo‘ladi. Bu hol uning dunyoqarashida dialektika elementlari borligini namoyish qiladi. Didro jonivorlarni klassifikatsiyalash yo‘lida ham ishlagan, uningcha, kichik inert molekuladan tirik molekulagacha, mikroskopda ko‘rinuvchi jonivor-hayvonotlar, o‘simliklardan to hayvon va odamgacha – hammasi bo‘linishi mumkin.⁵⁵

Didro moddiy dunyoga, tabiatga his, sezish xos deydi. Lekin noorganik tabiatda u inert, yashirin, maxfiy holda bo‘lsa organik tabiatda aniq, ravshan, harakatda ko‘rinishini isbotlashga intiladi. U fikrlash, tafakkur insonga taalluqli ham taraqqiy topgan his sezishning ko‘rinishi deb hisoblaydi. Inson bilishi tabiatni tekshirish, o‘rganish, qonunlarini egallashga xizmat qilishini aytib olim-faylasuf his, sezish, fikr, muhokama, xulosa, murakkab ilmiy qoidalar tabiat hodisalari, real o‘zaro aloqalarining in’ikosi deb tasdiqladi va tabiat hodisalariga izchil mantiqan yondashdi.

Didro faqat naturfaylasuf bo‘libgina qolmay, balki dinga ham, cherkovga ham qarshi chiqqan. Xristianchilikka tanqidiy ko‘z bilan qaragan. U hatto Injilni ilohiy yaratilganligini shubha ostiga olgan. Uning fikricha, Injilning barcha kitoblari ruhoniylar tomonidan turli davrlarda yaratilgan. Mo‘jizalarga ishongan yerda sodir bo‘lgan mo‘jiza bu afsonadir, deydi faylasuf. U do‘zax va undagi azob-uqubatlar haqidagi fikrlarni qattiq tanqid qiladi. Didro diniy axloqqa qarshi keskin kurashib, uni inson ruhidagi faollikni yo‘qotadi, insonni taqdirga qullarcha bo‘ysindirishga xizmat qilaydi deb ta’kidlaydi. Faylasuf diniy axloqni tanqid qilish bilan chegaralanib qolmasdan, uni qo‘llab-quvvatlovchi mavjud tuzumni, uning qonunlarini ham keskin tanqid qiladi. Uning fikricha, insonning ma’naviy va axloqiy qiyofasini belgilaydigan narsa muhitdir. Shuning uchun axloqni buzuvchi mavjud munosabatlarni tugatish kerak. Inson tabiatan yovuz emas,

⁵⁵Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 41.

«yaramas tarbiya, yaramas odatlar, yaramas huquq insonni buzadi». Shuning uchun yovuzlikni yo‘qotishning birdan-bir yo‘li diniy axloqdan voz kechish bo‘lib qolmasdan, hayotni yangi asoslarda qayta qurish kerak, deb hisoblaydi, faylasuf. Dindan qutulishning yagona yo‘li ma’rifatdir.⁵⁶

Didroning jamiyat, uni qayta qurish haqidagi fikrlari o‘z davri uchun ilg‘or ahamiyatga ega edi. Uning fikricha, ilmiy darajada takomillashgan davlatning muhim asoslaridan biri hamma fuqarolarning qonun oldidagi tengligidir. Shu bilan birga tabaqlanish va xususiy mulk tugatilgan jamiyatda bu g‘oya amalga oshishi mumkin, deydi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari XVIII asr oxiridagi Fransiya inqilobining amalga oshishida muhim g‘oyaviy asos bo‘ldi.



Deni Didroning zamondoshi, hamkorি *Pol Anri Golbax* (1723–1789yy.) – fransuz faylasufi, «Ensiklopediya»ni tuzishda, nashr etishda faol qatnashgan.

Asarlari: «Tabiat sistemasi», «Cho‘ntak ilohiyoti», «Muqaddas yuqumli kasal», «Avliyolar rastasi», «Sog‘lom aql».

Ta‘limoti: Dunyoga har qanday, xususan, subyektiv idealistik qarashni qat‘iy rad qilib, Golbax tabiatning cheksiz hamda abadiyligini e’tirof qilgan.

Uning fikricha, borliqdagi barcha hodisalarining sababchisi faqat tabiatdir. Tabiat materiyadan iboratdir, materiya esa bordan yo‘q bo‘lmaydi, yo‘qdan bor bo‘lmaydi, u mangudir.⁵⁷ Materiyaga harakat xosdir, harakat materianing ajralmas xususiyatidir. Materianing dastlabki xususiyatlari kenglik, harakatchanlik, taqsimlanish, qattiqlik, og‘irlilik kabilardan iborat bo‘lib, zichlik, vazminlik, surat, rang kabilar materianing ikkinchi xususiyatlarini tashkil qiladi, deydi u.

⁵⁶ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 43.

⁵⁷ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 49.

Golbax dunyoga materialistik nuqtayi nazaridan turib materiya harakatini tahlil etdi va uning tasnifini yaratdi. Golbax harakat materianing tub atributi der ekan, ayni paytda materiya harakatini turlarga bo'ladi. Harakat turlarining muhimi materiya o'zgarishi deb biladi. Xususan, materianing fazoda o'z o'rmini doim o'zgartirib turishini alohida qayd qilar ekan, uning mexanik harakatini bosh harakat deb hisobladi. Bu esa Golbax materialistik qarashlarining mexanistik xarakterini ifodalaydi.

Golbax falsafasida inson masalasi muhim o'rinni egallaydi. Uning fikricha, insonni hech qanday g'ayritabiiy kuch, ruh yaratgan emas, balki inson tabiat mahsulidir. Inson tabiatda yashaydi, tabiat qonunlariga bo'ysunadi, tabiatdan mustaqil, tabiatdan tashqari yashay olmaydi. Inson ham tabiatdagি hamma narsalar kabi tabiat qonunlariga muvofiq mavjud bo'ladi.

Bizning barcha g'oyalarimiz, xohish-istiklarimiz, tabiat ato etgan mohiyat va sifatlarning zaruriy natijasidir. Zero, tabiat insonni bu dunyoga yalang'och va ojiz qilib yuboradi va bu dunyonin insonning istiqomat qiluvchi joyiga aylantiradi. Keyinchalik u terilarni kiyim sifatida kiyishga, asta-sekin pilla va ipaklarni yigirishga o'rgatadi. Odamlar rivojlangan boy tajribaga ega bo'lgan jamiyatda yashab, pirovard natijada boylikka ko'nikib, har kuni minglab yangi-yangi ehtiyojlarni o'ylab topadilar va ularni qondirishning minglab yangidan-yangi usullarini ixtiro qiladilar.⁵⁸

O'zimizni o'zgartirish borasida qilayotgan barcha ishlarimiz tabiatdan olgan dastlabki impulsning sabab va oqibatlar ketma-ketligidan iborat. Odamlar tabiatni o'rganmasdan turib, o'z xudolarini yaratadilar. Xudolar ularning birdan-bir umidlari va qut-qaruvchilariga aylanadilar. Inson tabiatdan va o'z kuchlari vositadan foydalangan holda baxtga erishish mumkinligini tushunmagan. Buni u qandaydir xayoliy mavjudotlardan qidirgan.

Uning fikricha, tabiat cheksiz sabab va oqibatlar ketma-ketligidan iborat. Tabiatda faqat tabiiy sabab va oqibatlar bo'lishi mumkin. Golbaxning ta'kidlashicha, tabiatda barcha narsalar zaruriy sabablar orqali yuzaga keladi. Tasodifiyatni u inkor etib, uning

⁵⁸Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. - P. 49.

sababini bilimsizligimiz oqibati, deb tushunadi. U shunday qilib, sababiyatni zaruriyat bilan tenglashtirib qo'yadi.

Insonda tanadan bo'lak hech qanday, alohida jon, ruh bo'lishi mumkin emas. Inson tabiatning har xil narsalaridan tashkil topgan, butun bir yaxlit mavjudotki, unda aqliy qobiliyat bor, unda til hamda idrok bor. Shu bilan u tabiatning boshqa qismlaridan farq qiladi. Insondagi his, hissiyot qobiliyati tabiatni – moddiy dunyonи bilishga, tabiat, moddiy dunyo qonunlarini o'rganishga, ulardan o'z manfaati yuzasidan foydalanishga imkon beradi. Insonda fikr, g'oya hissiyot negizidan kelib chiqadi, shu sababdan insonda hech qanday tug'ma fikr, g'oya bo'la olmaydi. Golbax Rene Dekart hamda uning izdoshlarining tug'ma g'oyalar haqidagi ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. Inson tabiatni, moddiy dunyonи sezish, his orqali anglab shunga muvofiq ma'lum fikr, g'oyaga ega bo'ladi. Hissiyot inson sezgi a'zolariga tabiat, moddiy dunyo ta'siri tufayli hosil bo'ladi.

Golbax falsafasi dinning keskin tanqidi bilan chambarchas bog'liqdir. U dinning kelib chiqishi masalasiga katta e'tibor beradi. Uning fikricha, din kelib chiqishining haqiqiy sabablarini bilish kishilarni din kishanlaridan ozod qiluvchi yo'lni topishga olib keladi. Golbax fikricha, tabiatning dahshatli va anglab bo'lmas kuchlari oldidagi qo'rquv hissi insonda qandaydir mo'jizaviy mavjudlar haqidagi tasavvurlarni uyg'otadi.⁵⁹ Ojizlik va jaholat insonni mutaassiblikka moyil qilib tarbiyalaydi, uni o'zları tomonidan o'ylab chiqarilgan g'ayritabiyy mohiyatlar oldida tiz cho'kishga, yordam va rahm-shafqat izlashga majbur qiladi. Demak, dinning kelib chiqishiga sabab qo'rquv va jaholatdir, deb hisoblaydi.

Golbax boshqa fransuz materialistlari singari dinga qarshi kurashning yagona quroli ma'rifat deb biladi. U jamiyatni tabaqalarga bo'linishini tanqid qilar ekan, barcha odamlarning qonun oldidagi tengligi g'oyasini himoya qiladi. Davlatni boshqarishning konstitutsion monarxiya shakliga xayriyohlik bildirib, u turli qarama-qarshi manfaatlarga ega bo'lgan insonlar

⁵⁹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 50.

jamiyatini qonunga izchil amal qilgan holda boshqarishga imkoniyat yaratadi, deb hisoblagan.



Klod Adrian Gelvetsiy (1715–1771 yy.) – 1789-yilda Fransiyada boshlangan inqilob tashkilotchilarining g‘oyaviy asoschilaridan edi.

Asarlari: «Aql to‘g‘risida», «Inson, insonning aqli, qobiliyati, tarbiyasi haqida» va boshqalar.

Ta‘limoti: Gelvetsiy moddiy dunyo va tabiatni materialistik nuqtayi nazardan tushuntirib, shu asosda jamiyat hodisalariga yondoshishga intildi⁶⁰. Uning eng qimmatli g‘oyasi insonga, inson f‘el-atvoriga, xulq-xarakteriga qarashida namoyon bo‘ladi. Uningcha, inson o‘zini o‘rab olgan muhit mevasi, inson f‘el-atvori, xulqi, xarakteri tug‘ma emas, balki muhit, tajriba, tarbiya natijasi, hosilidir. To‘g‘ri, ushbu materialistik qoidasi bilan Gelvetsiy inson, inson fe‘l-atvori, xulqi, xarakterini ilmiy tushuntirishga tirishdi, ajoyib ilg‘or-taraqqiy-parvar nazariyani maydonga tashlab, fan rivojiga yuqori hissa qo‘shdi⁶¹. Gelvetsiy hissiy taassurot, o‘zni sevish, kayflanib lazzatlanish, to‘g‘ri tushunilgan shaxs manfaati axloqining asosini tashkil qiladi, deydi. Insonlarning aqliy qobiliyatlarining tabiiy tengligi, fikri yutuqlarining sanoqsiz yutuqlari bilan birligi, insonning tabiiy yaxshi xulqliligi, tarbiyaning qudratliligi masalalari Gelvetsiy tizimining bosh momentlarini ifodalaydi. Demak, XVIII asrning 80-yillarigacha Fransiyada feodal tartib hukmron bo‘lib, inson tengligiga putur yetib, unda tabaqalar, xo‘rlik, qullik, jaholat hukm surar edi. Gelvetsiy, bu inson tabiiy holatiga zid ekan uni o‘zgartirish lozim degan amaliy, inqilobiy natija chiqarib o‘sha davr inqilobchilarigaadolatli kurashni tashkil etishlariga ilhom beradi, inqilobga boshchilik qilishlariga ma’naviy o‘tkir qurob bo‘ladi. Gelvetsiyning tarixiy xizmatlaridan yana biri shundaki, u Didro aytganidek, hamma bid‘atlarga, eski, o‘rtta asrchiilik

⁶⁰ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 35.

⁶¹ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 37.

an'analariga qarshi kurashdi. Shuning uchun reaksiyon ruhoniylar Gelvetsiyning «Inson haqida» asarini xristian diniga xi洛f topib, kuydirishga qaror qilganlar. Biroq u asar o'zining materialistik ruhi bilan progressga xizmat qilishda davom etdi.

Gelvetsiy falsafasi materiya va uning xususiyatlari haqidagi ta'limotida yaqqol aks etadi. Uningcha, har qanday haqiqiy falsafaning asosiy masalasi hech qanday kimsa tomonidan yaratilmagan, u cheksiz va abadiy tabiatning o'zidir. Inson esa uning bir qismidir. Materiyadan oldin makon ham, zamon ham bo'limgan. Uning o'zi hamma narsaning ilk ibtidosidir.

Dunyoning turli-tumanligini izohlashda u materiya va harakatning birlamchi ekanligi haqidagi ta'limotga suyangan. Aslida harakatdan mahrum bo'lgan materiya yo'q. Hamma narsa harakatda bo'ladi, o'sadi va o'ladi. Hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Gelvetsiy materiya va harakatning uzviy birligi g'oyasini ilgari suribgina qolmasdan, shu bilan birga materiya va ongning birligi g'oyasini ham ilgari suradi. Uningcha, ong materiyaning xususiyatidir. Narsalarning xususiyati ularning o'zisiz mavjud bo'liganidek, ong materiyadan ajralmasdir. Uning materiya va harakatning, materiya va ongning birligi haqidagi ta'limoti dunyoda g'ayritabiiy narsalarning mavjudligini inkor etuvchi xulosaga olib keladi. Tabiat va jamiyatning vujudga kelishi va rivojlanishi tabiatning o'zidan kelib chiqqan holda tushuntirilishi kerak.

Gelvetsiy ilmiy bilishni tashqi olamni inson ongida aynan aks etishi deb biladi. Hissiy timsol -bu shartli belgi emas, balki narsalarning nusxasidir. Sezgilar tashqi ashyolarning ta'sirisiz vujudga kelishi mumkin emas. U, insonga xos ikki kuch, ikki qobiliyat mavjud deydi. Birinchisi tashqi hodisalarning bizni sezgi a'zolarimizga ta'sir qilishi. Bu faoliyatning hosilasi deb ataladi. Ikkinchisi tashqi narsalarning bizga bo'lgan ta'sirini saqllovchi xususiyat. Buni xotira deyishadi. Bu davom etuvchi, lekin kuchsizlangan sezgilardan boshqa narsa emas. Gelvetsiy o'z bilish nazariyasida inson aqlining yengilish sabablari haqida to'xtalib, ularni inson his-tuyg'ularida dalillarni bilmaslikda, so'zlarning ma'nosini noto'g'ri tushunishda, deb bilgan.

Gelvetsiy haqiqat mezoni masalasini ilmiy izohlashga ko‘p hurakat qiladi. U bilish nazariyasiga amaliyot tushunchasini kiritish zarurligi haqida gapiradi. Lekin ilmiy hal qilib bera olmaydi.

Gelvetsiyning ilgari surgan ijtimoiy manfaatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligi haqidagi ta’limoti XVIII asr fransuz materialistik faylasuflari va undan keyingi davrlardagi faylasuflar tomonidan rivojlantirildi.

Faylasufning fikricha, din ma’naviyatga salbiy ta’sir qiladi. Gelvetsiyning axloqiy konsepsiysi rasmiy qonun sifatida qabul qilingan xristian ma’naviyatidan keskin farq qiladi. Har qanday diniy qarashlarga asoslangan ma’naviyat sog‘lom manfaatlar bilan aslo chiqisha olmaydi.

Faylasuf o‘z ijtimoiy-falsafiy qarashida din bilan axloq o‘rtasidagi munosabatda ruhoniylarning mavqeい katta, degan fikri ilgari suradi. Chunki barcha dinlarning ruhoniylari o‘zlarini ma’naviyatning birdan-bir qozisi qilib ko‘rsatishga harakat qiladilar. Shuningdek, ruhoniylar o‘ziga xos alohida guruh bo‘lib, o‘zlarining guruhiy manfaatlarini umumiy manfaatlardan yuqori qo‘yadilar. Bu bilan ular ma’naviyatga putur yetkazadilar. Umuman olganda, Gelvetsiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari xato va kamchiliklardan xoli bo‘lmasa-da, o‘z davrida jamiyat hayotida muhim rol o‘ynagan.



Didro, Golbax, Gelvetsiylarning hamfikr, hamnafas, hamkorlaridan biri *Lametri Jyulen Ofre* (1709–1751yy.) edi.

Asarlari: «Jonning tabiiy tarixi», «Odam-mashina», «Odam-o‘simlik», «Epikur sistemasi».

Ta’limoti: O‘zining ixtisosligi – shifokorliikka tayanib hamda zamonidagi ilg‘or tafakkurdan bahramand bo‘lgan Lametri o‘rta asr feodal mafkrurasiga, sxolastika va dinga qarshi fan-teknika, maorif, ilg‘or g‘oyalarning rivoji yo‘lida izchil kurash olib bordi.⁶²

⁶² Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. - P. 47.

Tabiat – yakkayu-yagona moddiy substansiyadir, u abadul-abad mavjud, u noorganik o’simligu- hayvonot dunyosidan iborat. Odam ham shu hayvonot dunyosiga mansub. Tabiatdagi narsalar muayyan ko‘lamga ega bo‘lib, doimo harakatda mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga hamma tabiiy narsalarga sezish, his etish xos. Ayrimlarida sezish, his etish qobiliyatni ko‘proq, ayrimlarida kamroq. Masalan, o’simliklarda, hayvonlarga nisbatan sezish, his etish kamroq bo‘lsa, odamlarda sezish, his etish hayvonlarga nisbatan ko‘proq. Xuddi shu miqdordagi farq aql-idrokda, o‘yifirkda ham namoyon bo‘ladi, deydi Lametri.

Jonni tanadan alohida mavjudligi haqidagi diniy, idealistik tasavvurlarni, ta’limotlarni Lametri keskin rad qilib, jon – bu insondagi sezish, his etish, fikr qilish qobiliyatidan iborat, deb hisoblagan. U odam tanasining holati, sog‘lomligi, quvvati uning joni bilan uzviy aloqador ekanligini tan olar ekan, inson abadiy mavjud tabiatni sezish, his etish asosida fikr qiladi, uning qonunlarini o‘rganadi va bu qonunlardan faoliyati davomida o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanadi deb hisoblagan. Lametrining materialistik dunyoqarash, xususan, uning «Odam-mashina» asarida o‘z aksini topgan. Undagi dinga bo‘lgan salbiy munosabati uchun u xristian ruhoniylari tomonidan quvg‘in qilingan. U Fransiyadan Gollandiyaga, keyin Berlinga ko‘chib yurishga majbur bo‘ladi. Ammo Lametri o‘z materialistik qarashini, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini doim targ‘ib qildi. Lametri materializmi uning zamondoshlariniki kabi mexanistik va metafizik xarakterda edi.

Lametrining dunyoqarashida jamiyat hodisalariga munosabat ma’rifatparvarlik ruhida bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot kishilar manfaatlari bilan belgilanadi, kishilar manfaati esa jamiyatdagi keng yoyilgan g‘oyalarga bog‘liq degan g‘oyaga asoslangan.⁶³ U xususiy mulkni yoqlagan, jamiyatni, davlatni ma’rifatli hokim boshqarsa, uning oqilona siyosati hammaga osoyishtalik beradi, deb umid qilgan. Lametri, Didro, Golbax, Gelvetsiylar singari XVIII asr 89-yil inqilobini g‘oyaviy jihatdan tayyorlashda muhim rol o‘ynagan.

⁶³ Qarang: Copleston F. History of philosophy. Vol. 6. - New York-London-Toronto-Sydney-Auckland, 2003. – P. 48.

XVIII asr fransuz faylasuflari ta'limotlarining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Tabiatni o'rganishga tizimli yondashganlar va materiyani ta'riflashga uringanlar.

2. Biliishda hissiy va aqliy tomonlar birligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surganlar.

3. Tabiat to'g'risidagi o'z qarashlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishga harakat qilganlar.

4. Feodalizm asoslarini tanqid qilib, huquqiy davlat (qonunlarga rioya qiladigan) o'rnatish zarurligini ko'rsatganlar.

5. Din ilm-ma'rifikat, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishini isbotlamoqchi bo'lганlar. Ateistik dunyoqarashning shakllanishiha yo'l ochib bergenlar.

Dastlabki davrda Ma'rifikat falsafasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat bo'ladi.

Odamlar o'z tabiatiga ko'ra yaxshidir. Ularning hayotiy maqsadi narigi dunyodagi rohat-farog'at emas, balki shu moddiy dunyodagi farovon turmushdir. Odamlar fan yordamida («bilim – kuch-qudratdir») shu maqsadga erishishi mumkin. Bunga nodonlik, bid'atlar va toqatsizlik katta to'siq bo'ladi. Ularni bartaraf etish uchun ma'rifikat (inqilob emas) zarur. Odam ma'rifikatli bo'lGANI sari o'z-o'zidan yanada axloqliroq bo'la boradi. Binobarin, olam ma'rifikat yordamida yanada olg'a harakat qiladi.

5 - bo'limning 3-bobiga oid topshiriqlar

O'z bilimingizni sinab ko'ring va savollarga javob bering:

1. XVIII asr fransuz falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?

2. Kimlar XVIII asr fransuz falsafasining yirik namoyandalari hisoblanadi?

3. Volter dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?

4. Volter qanday asarlar yozgan?

5. Volter jamiyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida qanday g‘oyalarni ilgari surgan ?
6. Volter bilish nazariyasida qanday an’analarni rivojlantirdi?
7. Monteske dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
8. Monteske o‘z ta’limotida qanday ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan?
9. Monteskening «xristianlashgan davlat»ga munosabati qanday bo‘lgan?
10. J.J. Russo ta’limotiga ko‘ra, xususiy mulk qanday paydo bo‘lgan?
11. J.J. Russo o‘zining «Ijtimoiy shartnomasi» asarida qanday falsafiy g‘oyalarni bayon etgan?
12. Deni Didro kim bo‘lgan?
13. Deni Didroning qaysi asarlarimi bilasiz?
14. Deni Didro qanday falsafiy an’analarni davom ettirgan?
15. Deni Didroning diniy axloqqa munosabati qanday bo‘lgan?
16. Golbax materiya va harakat haqida qanday falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan?
17. Golbax sabab va oqibatni, zaruriyat va tasodifni qanday tushungan?
18. Gelvetsiy qarashlari qanday xususiyatlarga ega?
19. Lametri inson haqidagi falsafiy fikrlarini qaysi asarida bildirgan?
20. XVIII asr fransuz faylasuflari xizmatlarining tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Ishonchsizlik – falsafa tomon qo‘yilgan birinchi qadamdir. (Deni Didro).
2. Narsalarni miyamdagidek emas, balki tabiatda qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilaman: ular men uchun o‘z xossasi va faoliyatiga ega bo‘lgan xilma-xil jismlardir. (Deni Didro).

3. Sizni tuxum oldin paydo bo'lganmi yoki tovuqmi, degan havol hayajonga soladimi, demak, siz jonivorlar avval qanday bo'lsa, hozir ham shundayligicha – o'zgarishsiz qolgan, deb o'ylaysiz. Qanday be'manilik. (Deni Didro).

4. Hamma narsa kuzatishga qurbimiz yetmay qolgan yerda tugaydi. (Deni Didro).

5. Iste'dod avloddan-avlodga o'tadigan zodagonlik unvoni emas. (Deni Didro).

6. Yaxshilarni mukofotlash bilan yomonlarni jazolagan bo'lamiz. (Deni Didro).

7. Hamma narsa foydaliliga qarab belgilanadi. (Deni Didro).

8. Inson o'zini tabiatning imtiyozli mavjudoti deb biliши учун hech qanday asos yo'q. Zotan, u tabiatning boshqa mahsullari kabi beqarorlikka mahkum etilgan. Uning soxta ustunligi zamirida faqat adashish yotadi. Inson o'zi makon etgan Yer kurrasи uzra fikran yuksaklikka ko'tarilib ko'rsin-chi. Shunda u odamzodga xuddi boshqa hamma mavjudotlarga qaragandek qaraydi. (Golbax).

9. Biz sababi o'zimizga noma'lum bo'lgan, bilimsizligimiz hamda tajribasizligimiz tufayli avvaldan ko'rib bo'lmaydigan narsalarni tasodifiy hodisalar deb atamiz. (Golbax).

10. Jamiyatlar ham tirik organizmlar kabi inqirozlar, aqlsizlik lahzalari, inqiloblar, hayotiy o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Ular ham tug'iladi, o'sadi, o'ladi, sog'lomlikdan bemorlik sari yuz tutadi va nihoyat, barcha inson zoti kabi bolalik, yoshlik, yetuklik, keksalik bosqichlaridan o'tib, o'limga ro'baro' bo'ladi. (Golbax).

11. Baxtli bo'lmoq учун davlatmandlikning o'zигина kifoya qilmaydi. Buning учун boylikdan foydalanishni ham uddalash kerak. (Golbax).

12. Vaqt – harakatsiz abadiyatning harakatlanuvchi timsolidir. Jamiyat birligini buzguvchi hamma narsa yaramasdir; insonni o'z-o'ziga qarama-qarshi qilib qo'yadigan har qanday aqida bo'limg'urdir. (J.J.Russo).

13. Agar siz bolalaringizning sho'xliklariga yo'l bermasangiz, unda hech qachon donishmandlikni dunyoga keltira olmaysiz. (J.J.Russo).

14. Haqiqiy tarbiya qoidalarda emas, mashqlardadir. (J.J.Russo).

15. Insonga ko‘proq uning savoliga qarab hukm chiqar, javobiga qarab emas.(Volter).

16. Inson harakat uchun yaralgan. Harakat qilmaslik va mavjud bo‘lmaslik inson uchun – bir xil narsadir.(Volter).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. XVIII asr fransuz falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.

2. Fransuz ma’rifatparvarlari tarbiya haqida.

3. XVIII asr fransuz ma’rifatparvarlarining ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. «Deni Didroning mexanistik materializmi» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.

2. «Lametri va Gelvetsiyning axloqiy qarashlari: qiyosiy tahlil» mavzusida klaster tuzing.

3. Jorj Berkli va Pol Anri Golbaxning gnoseologik ta’limotlarini qiyosiy tahlil qiling.

TESTLAR

1. XVIII asr fransuz falsafasining asosiy xususiyatlari...

A) ma’rifatparvarlik, mexanik materializm, qomusiylik

B) xristian sxolastikasini tanqid qilish

C) antik falsafadagi gumanizm va antropotsentrizm g‘oyalarini rivojlantirish

D) subyektiv idealizm, agnostitsizm, skeptitsizm

2. XVIII asr fransuz falsafasining yirik namoyandalar...

A) Kant, Golbax, Gelvetsiy, Lametri

B) Deni Didro, Jorj Berkli , Jon Lokk

C) Volter, Didro, Golbax, Lessing

D) Volter, Didro, Golbax, Gelvetsiy

3. Volter ta'limotiga ko'ra, inson ...

- A) siyosiy mavjudot
- B) tabiiy mavjudot
- C) ijtimoiy mavjudot
- D) aqlii mavjudot

4. Volter, Monteske ta'limotlariga ko'ra, jamiyatni kim boshqarishi kerak?

- A) faylasuflar
- B) ma'rifatli monarch
- C) ruhoniylar
- D) olimlar jamoasi

5. Monteske ijtimoiy qonunlarni asosiy uch turga bo'lar ekan, unga nimani kiritmagan?

- A) fuqarolik huquqni
- B) xalqaro huquqni
- C) siyosiy huquqni
- D) tabiiy huquqni

6. Monteske o'zining «Qonunlar ruhi» nomli asarida qanday g'oyani ilgari surdi?

- A) geografik determinizm
- B) ruhiy monizm
- C) ijtimoiy fatalizm
- D) Yevropacha gumanizm

7. Monteske fikricha, qaysi bir ijtimoiy boshqaruvi turining axloqiy asosini ezgulik tashkil etadi?

- A) respublika
- B) monarxiya
- C) despotiya
- D) demokratiya

8. Birinchi «Ensiklopediya »ning g‘oyaviy asoschisi hamda muharriri kim bo‘lgan?

- A) Russo
- B) Volter
- C) Deni Didro
- D) Frencis Bekon

9. Volter insonlarning o‘zaro tengligi haqida fikr yuritganida, qanday tenglikni nazarda tutgan?

- A) tabiiy
- B) siyosiy
- C) mulkiy
- D) ruhiy

10. Jan Jak Russo uchun insonlarning o‘zaro tengligi nimani bildiradi?

- A) tabiiy tenglikni
- B) siyosiy tenglikni
- C) mulkiy tenglikni
- D) ruhiy tenglikni

11. Jan Jak Russo ta’limotiga ko‘ra, ijtimoiy shartnoma orqali inson nimaga ega bo‘ladi?

- A) fuqarolik huquqiga
- B) cheklanmagan huquqlarga
- C) tabiiy huquqqa
- D) shaxsiy erkinlikka

12. «Insonni harakatlantiruvchi kuch – shaxsiy manfaat. Inson lazzatga intiladi va azobdan qochadi. Lazzat va azob faqat alohida individga xos egoistik tuyg‘udir» degan fikrlar kimning ta’limotiga tegishli?

- A) Gelvetsiy
- B) Volter
- C) Didro
- D) Russo

13. Gelvetsiy ta'limotiga ko'ra, jamiyatning maqsadi nimadan iborat?

- A) maksimal miqdordagi odamlarni boy qilish
- B) maksimal miqdordagi odamlar uchun eng ko'p baxt keltirish
- C) jamiyatning barcha a'zolarini tenglashtirish
- D) ijtimoiy adolatni o'rnatish

14. «Fors maktublari» asari kimning qalamiga mansub?

- A) Russo
- B) Volter
- C) Didro
- D) Monteske

15. Monteske orzudagi jamiyatni qanday tasavvur etgan?

A) fuqarolar jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etadilar, «har bir odamning manfaati» «ijtimoiy manfaatlar» bilan uyg'unlashgan bo'ladi

V) fuqarolar jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etadilar, «har bir odamning manfaati» «ijtimoiy manfaatlar»dan ustun bo'ladi

C) fuqarolar jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etadilar, «ijtimoiy manfaatlar» «har bir odamning manfaati»dan ustun bo'ladi

D) jamiyatni ma'rifatli monarx boshqarishi tufayli fuqarolarning jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etishlari shart emas

16. Qaysi bir faylasuf «moddiy dunyoga, tabiatga his, sezish xos» deb hisoblagan?

- A) Didro
- B) Monteske
- C) Russo
- D) Jorj Berkli

17. «Takomillashgan davlatning muhim asoslaridan biri hamma fuqarolarning qonun oldidagi tengligidir» degan g‘oyani kim ilgari surgan?

- A) Volter
- B) Monteske
- C) Didro
- D) David Yum

18. Golbaxning «tabiatda barcha narsalar zaruriy sabablar orqali yuzaga keladi, tasodifiyat bu bizning bilimsizligimiz oqibatidir», degan g‘oyasi falsafada qanday nomlanadi?

- A) geografik determinizm
- B) fatalistik determinizm
- C) dialektik determinizm
- D) dialektik materializm

19. Golbax ta’limotiga ko‘ra, har qanday bilihning asosini nima tashkil etadi?

- A) xotira
- B) fikr
- C) tajriba
- D) sezgilar

20. Lametri «Odam-mashina» asarida qanday falsafiy an'anani davom ettirdi?

- A) mexanistik materializm
- B) obyektiv idealizm
- C) subyektiv idealizm
- D) dialektik materializm

5.4. XVIII-XIX asr boshi nemis mumtoz falsafasi

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasining jahon falsafasi tarixida tutgan o‘rni haqidagi bilimni shakllantirish; XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy manbalarni tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Transdental falsafa, aprior, aposterior, antinomiya, kategorik imperativ, progress, regress, tezis, antitezis, sintez, ruh fenomenologiyasi, mutlaq ruh, biologik antropologiya.

Asosiy savollar:

1. I.Kant falsafiy g‘oyalarining evolutsiyasi.
2. I.Fixte va V.Shellingning falsafiy qarashlari.
3. G.V.Gegel falsafasining tuzilishi.
4. Gegel ta’limotining tizimi va uslubi o‘rtasidagi munosabat.
5. L.Feyerbax antropologizmi.



Immanuil Kant (1724-1804 yy) – nemis mumtoz falsafasining asoschisi bo‘lib, falsafiy fikr taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘targan mutafakkirdir (1-ilova).

Asarlari: *Taqnidgacha davr:* «Osmonning eng umumiy tarixi va nazariyasi», «Zilzila sabablari haqida», «Shamollar nazariyasi», «Fizik monadologiya», «Metafizik bilishning dastlabki prinsiplarini yangicha yoritish», «Go‘zallik va yuksaklik hissiyotlarini kuzatish» va boshq. *Taqnidiy davr:* «Sof aqlni tanqid», «Fan sifatida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan har

qanday metafizikaga prolegomonlar», «Amaliy aqlni tanqid», «Mulohaza layoqatini tanqid», «Axloq metafizikasi asoslari», «Boqiy dunyo siri».

1-ilova

Nemis mumtoz falsafasining asosiy oqimlari



Kant nemis xalqi va nemis falsafasi tarixidagina emas, balki insoniyat va jahon madaniyati tarixida buyuk siymo hisoblanadi. Kant falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 2-ilovada o‘z aksini topgan.

Kant birinchi bo‘lib bilish nazariyasini izchil va chuqr fikrlash asosida o‘rgandi. Bilish nazariyasining ontologik jihatdan asoslab berdi (3-ilova).


Natijada falsafada o‘ziga xos inqilob qildi. Kant bilish masalalarini o‘ziga xos qonuniyat asosida davom etadigan inson faoliyati sifatida o‘rgandi. U bilishda bilayotgan subyektning o‘ziga xosligiga asosiy omil sifatida qaradi. Chunki bilish usullari, modellar va jarayonlarning belgilovchisi ham o‘sha bilayotgan shaxsdir (4-ilova).

Kant bilish subyektning tizimini tahlil qilar ekan, unga XVIII asr faylasuflari singari yangilanishlarning sababinigina aniqlash nuqtayi nazaridan emas, balki haqiqiy, to‘g‘ri bilimlarning mohiyati nuqtayi nazaridan qaradi. U subyektning o‘zi ikki:

empirik va transsensual daraja, qatlamdan iborat, deb ko'rsatdi. Empirik qatlamga inson ruhiy holatining individual tomonini, transsensualga umuman insonga tegishli, umumiy tushunchalarni kiritdi (5-ilova).

2-ilova

Kant falsafasining g'oyaviy manbalari va ta'sir doirasi



3-ilova


Kant: insonning bilish qobiliyati

Bilish qobiliyati turlari	Xususiyatlari	Bilish sohasi
Hissiyot	His qilish qobiliyati, hissiy mushohada yuritish	Matematika (arifmetika va geometriya)
Mulohaza	Tushuncha qobiliyati va hukm	Nazariy tabiyotshunoslik
Tafakkur	Xulosa chiqarish qobiliyati, g'oya largacha boradi	Metafizika

Kant: hukm turlari


Turlari	Tahliliy (analitik)	Sun'iy (sintetik)
Tajribagacha (aprior)	1.Tahliliy va aprior	3.Sintetik aprior
Tajribadan keyin (apasterior)	2.Tahliliy apasterior	4.Sintetik apasterior

Kant: aql tomonidan uch shartsiz trastendental g'oyaning yaratilishi



Kantning fikricha, inson bilimining obyekтивлiği ana shu yakka shaxsdan yuqori turadigan subyekt transsendentalligi bilan muvofiqlashadi. Kant nazariy falsafaga asos soldi. Kantning fikricha, nazariy falsafaning predmeti narsalarni о'rganish emas, (tabiat, jamiyat emas), balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat (6-illova).

Kant: transtendental appersepsiya



Kant shu ma'noda o'z falsafasini transsensual falsafa, o'z metodini esa, XVIII asr ratsional dogmatik metoddan farqlab, tanqidiy metod deb ataydi. Uning aytishicha, o'z bilish qobiliyatimizni, imkoniyatlarmizni dastavval tanqidiy tahlil qilib chiqishimiz kerak. Ana shundagina bilishning tabiatini, imkoniyatini aniqlay olgan bo'lamiz. Shunday qilib, Kant ontologiya o'miga gnoseologiyani qo'yib, metafizik substansiya (borliqning mohiyati)dan subyektni tahlil qilishga, insonning bilish faoliyatini tekshirishga o'tadi.

Kant inson faoliyatini tekshirar ekan, inson ikki dunyoda yashaydi, sezgilar bilan his qiluvchi sifatida tabiat qonunlariga, zaruriyatga bo'ysunib, aqli bilan esa erkinlik asosida tafakkur qonunlariga, axloq qoidalariga itoat etib yashaydi, deb ko'rsatadi.

Tabiat dunyosi o'z sababi bilan emas, balki boshqa narsaning sababi bilan yashaydi. Erkinlik dunyosi o'z maqsadlarini amalga oshirib yashaydi. Bunda inson aqli va irodasi mavjud. Mana shu asosda erkinlik Kant fikricha, o'z maqsadini qo'yadigan, ongi faoliyatda bo'ladigan, o'z-o'ziga sabab, maqsadini amalga oshiradigan mustaqil dunyodir (7-ilova).

Kant bilish nazariyasini aql deb ataydi, aql dunyosi amaliy fahm-farosatga ham yo'l ochadi. Amaliy aql insonning axloqiy qadriyatları to'g'risidagi ta'limotni ham beradi. Kant inson hissiyoti orqali narsa va hodisalardan qoniqish hosil qiladi, bu qoniqish uni hatto fikrlashga boshlaydi. Inson axloqiy burch bilan,

yaxshilik qilish bilan baxtga erishish mumkin, deydi. Kant inson bilimining imkoniyatlarini ko'rsatar ekan, fanning bilishdagi ahamiyatiga katta e'tibor beradi. Kant so'zi bilan aytganda, e'tiqodga ham katta o'rinni beradi. Ishonch-e'tiqodgina inson jonining o'lmasligiga ishonish erkinligi asosida xudoning mavjudligini aqliy isbotlaydi, deydi.

7-illova

Kant: antinomiyalar

<i>Tezis</i>	<i>Antitezis</i>
1.Dunyo makondan cheklangan va zamonda boshiga ega.	1.Dunyo zamonda boshiga ega emas, makonda ham cheklanmagan.
2.Har qandan murakkab substansiya, sodda qismlardan iborat, umuman olganda, faqat sodda narsa mavjud va undan murakkab narsalar tuziladi.	2.Hech qanday narsa sodda narsalardan tuzilmaydi, dunyoda sodda narsa yo'q.
3.Sababiyat tabiat qonuniga ko'ra yagona sababdan iborat emas, ya'ni hamma hodisalar undan kelib chiqmaydi. Hodisalarni tushuntirish uchun yana boshqa sabablarni qidirish zarur.	3.Hech qanday erkinlik yo'q, hamma narsa tabiat qonuniga ko'ra amalga oshadi.
4.Dunyoga zaruriy tarzda yagona mohiyat xos.	4.Hech qayerda mutlaq zaruriy mohiyat yo'q, dunyoning ichida ham, dunyodan tashqarida ham.

Axloq falsafasini obyektiv qonunlar haqidagi fan sifatida Kant, matematika bilan tenglashtiradi: geometrik qat'iy qoidalarni, inson ularga o'zi to'la amal qilish-qilmasligi bilan hisoblashmagani holda shakllantirgani kabi, axloqshunoslik ham insonni imkoniyatlari bilan hisoblashmaydigan, balki nima axloqiy ekanligini ko'rsatadigan qoidalar taqdim etmog'i kerak.

Faylasuf huquq va axloq haqidagi fanlarni aqlning shak keltilib bo‘lmaydigan yoki qat’iy talablarga asoslangan nazariyalari sifatida olib qaraydi. *Qat’iy amr (imperativ)* subyektiv tasodifyi xatti-harakatni zaruriy qilib qo‘yadi. Inson doimo o‘z shaxsiy baxtiga yo‘naltirilgan mayllari natijasida qat’iy amr bilan qarama-qarshi kelib qolishi mumkin. Shu jihatdan inson doimo burch bilan mayl oralig‘ida turadi. U ixtiyor tufayli aynan ana shu o‘z burchini bajarishga erkin qaror qiladi, ya’ni qat’iy amrga bo‘ysunadi va faqat mana shu doiradagina o‘z mayllariga erk beradi. Qat’iy amrga amal qilish imkonini amaliy aqlning «*Sen qila olasan, chunki qilishing kerak!*» degan qonunni beradi. Axloqiy e’tiqod qandaydir ichki zo‘rlikka asoslangan tizim sifatida ish ko‘radi, usiz inson o‘zini ko‘zguda ko‘rsa dahshatdan sapchib tushadi. «Hakam insonning ichida» va axloqiy qaror pirovard natijada har bir insonning o‘zining ustidan hukm chiqarishi demakdir. Zero, inson u yoki bu muhim qarorni qabul qilar ekan, tashqi tartiblar emas, balki faqat burch amri nuqtayi nazaridan ish tutmog‘i lozim. Buning aksi ro‘y bermasligi uchun insonga o‘zini o‘zi nazorat qilsin, deb ajoyib nazoratchi – vijdon berilgan.

Vijdon insonning ikkiga bo‘linib yashashiga chek qo‘yadi: hammasini tushungan holda noto‘g‘ri xatti-harakat qilishi mumkin emas. Vijdon bilan bekinmachoq o‘ynab bo‘lmaydi, uni aytganningga ko‘ndira olmaysan. Uni uxlatib qo‘yish ham mumkin emas, ertami-kechmi uyg‘onadi-da, qilmishingga javob berishga majbur etadi.

Kantning axloqshunosligini «*burch haqidagi*» ta’limot ham deyish mumkin. U burchni ikki xili mavjudligini ta’kidlaydi: huquqiy burch va axloqiy burch. Huquqiy burchni bajarish uchun tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch, fazilatga, ya’ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog‘liq. Shu bois insonning axloqiy burchga muvofiq xatti-harakat qilish qobiliyatini Kant fazilat deb ataydi.

Axloqiy burchning o‘zini ham faylasuf ikkiga bo‘ladi: Insonning o‘z oldidagi burchi va boshqalarga nisbatan, ularning aybdorligi yoki hurmatga munosibliklariga qaratilgan burch. O‘ziga nisbatan, burch insondan o‘z-o‘ziga hurmatni talab etadi.

Uning ziddi - o‘z hayotiga qasd qilish, sog‘lig‘iga putur yetkazish, yolg‘onchilik, ochko‘zlik va soxta itoatkorlik – xushomadgo‘ylik. O‘zgalarga nisbatan burch, boshqa odamlarni hurmat qilishni talab etadi. Kant «dunyoning Buyuk axloqiy bezagi» deb atagan xayrehsonda, minnatdorchilikda, quvonchu g‘amni baham ko‘rishda, insonga muhabbatda aks etadi. Ularning muqobili – manmanlik, dilozorlik, hasad, ko‘rnamatlik va ichiqralik.

Kant axloqshunosligining cho‘qqisini – abadiy tinchlik g‘oyasi tashkil etadi. U har qanday urushga qarshi chiqib, urush kimningdir o‘z huquqini qo‘lga kiritish usuli bo‘la olmasligini ta’kidlagan.


Kantni ikki narsa haqida qancha ko‘p va uzoq o‘ylaganing sari qalbing tobora yangi hamda kuchayib boruvchi hayrat va ixlos bilan to‘lib-toshaveradi, bular -- «boshim ustidagi yulduzli osmon va mening botinimdagи axloqiy qonun», degan gaplari eng avvalo o‘ziga taalluqli edi.

Shunday qilib, XVIII asrlarda dunyoni bir butun deb qaragan qadimgi fikrlardan voz kechildi, bu dunyoni tabiat borlig‘i va insonlar dunyosiga bo‘lindi. Bu bo‘lishni Kant izchillik bilan amalga oshirdi. Kantdan keyingi nemis faylasuflari tabiat va madaniyatning o‘ziga xos taraqqiyotini izchillik bilan ko‘rsatib berdilar (8-ilova).


Tabiat sababiyat va zarururiyat qonunlariga bo‘ysunsa, madaniyat sohasi insonning ongli faoliyati orqali amalga oshiriladi, bunda maqsadga muvofiqlik tomoni hukmrondir. Shunga muvofiq bilimlarning ikki sohasi turlicha uslub bilan ish qiladi. Tabiat fanlarida tabiiy-ilmiy uslub, jamiyat sohasida ilmiy-tarixiy uslub mavjud bo‘ladi. Kant subyekt faoliyatini tarixiy o‘rganishni boshlab bergen bo‘lsa-da, uni oxiriga yetkaza olmadi (9-ilova).

«Donishmandlik bilishgina emas, u, dastavval, hayot faoliyati tarzidan iborat». «Haqiqiy faylasuf amaliy, hayotiy, donishmandlikning ustozidir», - deydi Kant. Haqiqiy faylasuf butun donishmandlik haqidagi ta‘limotga ega bo‘lish bilan birga, bu bilimlarni insonlarga yaxshilik qilishga qaratadi. Ana shundagina o‘zining bu dunyoda tutgan o‘rnini anglab olishi mumkin.

Qonunlarning mohiyati



Nemis mumtoz falsafasining xronologik chegaralari




Logan Fixte (1762-1814 yy.) – nemis falsafasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri. Fixte hunarmand to‘quvchi oilasida dunyoga kelgan. U bolalik va o‘smirlilik yillarini kam-bag‘allikda o‘tkazdi. Tasodifiy bir hol uning o‘rta maktabni tugatib, universitetga kirib o‘qishiga sabab bo‘ldi (10-ilova). *Asarlari*: «Har qanday bashoratning tanqidiy tajribasi», «Fan-larni o‘rganish asoslari», «Olimning mas’uliyati haqida muhokamalar», «Tabiiy huquq asoslari» va boshq.

Fixte falsafasining g‘oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 10- ilovada o‘z aksini topgan.

Mahalliy zamindor qishloqdan kelgan bu bolaning xotirasiga qoyil qoladi, ruhoniy o‘qigan duoning so‘zlarini hech yanglishmay, to‘la takrorlashidan hayratlanib, uni homiylikka oladi va o‘qishini davom ettirish uchun moddiy yordam berib turadi. Fixte avval Iena universitetida, keyinchalik Leypsig universitetining ilohiyot fakultetlarida ta’lim oladi.

Fixte falsafasining g'oyaviy manbalari va ta'sir doirasi




Fixte ilohiyot fakultetida o'qib yurgan chog'larida falsafa, adabiyot va huquqshunoslik fanlarini ham sevib o'rgana boshladи. Biroq zamindorning vafoti Fixtening universitetni tugutishi uchun ancha qiyinchilik tug'dirdi. Hatto bitiruv imtihonlarini topshirishga ham pul topa olmadи. Keyinchalik uni pastorlik lavozimiga tayinlashmoqchi bo'lganlarida, u bu lavozimdan voz kechadi. Sababi – universiteda o'qib yurgan chog'larida u hurfikrlikka mubtalo bo'lgan edi. U bir necha yillar davomida uyda dars berish bilan tirikchiligin o'tkaza boshladи. Fransiyada inqilob boshlangandan keyin u yana o'z vataniga qaytadi. 1791-yili Fixte Keninsberg shahriga kelib, Kant bilan suhabatlashish baxtiga muyassar bo'ladi. Oldiniga Kant uni sovuqqina kutib oladi. Bu hol Fixteni Kantning ma'ruzalaridan soviy boshlashiga olib keladi va uning ma'ruzalarini uyqu keltiradigan ma'ruzalar deb biladi. Kant Fixtening «Har qanday bashoratning tanqidiy tajribasi» nomli risolasini o'qigach, unga bo'lgan munosabati ijobji tomoniga o'zgara boshlaydi (11-ilova).

Fixtening bu asari Kantning ilohiyot to‘g‘risidagi fikri bilan hamohang bo‘lganligi uchun Kant uning keyingi asarini chop etishga yordam beradi, Fixte shundan so‘ng tez orada nemis ziyo-lilari o‘rtasida shuhrat va obro‘ga ega bo‘la boshlaydi. Fixte o‘z falsafiy qarashlarida ijtimoiy ongni o‘zgartirish, ijtimoiy ong orqali ijtimoiy borliqni o‘zgartirish masalasini ilgari suradi (12- ilova).


11-ilova

Fixte: “Men” va “Men-emas” dialektikasi



12-ilova


Fixte: Mutlaq va insoniy ong



Kant falsafasi uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishda yordam bermasligini bilgach o‘zining tanqidiy falsafasini yaratib, unga «Fanlarni o‘rganish asoslari» deb nom berdi (13-ilova).

13-ilova


Fixte: Tanqidiylik va aqidaviylik



1775-yilda Gyotening taklifiga binoan Fixte lena universitetiga professorlik lavozimiga tayinlanadi (14-ilova).

14-ilova

Fixte: Erkinlik faoliyat sifatida



Fixte 1805-1806-yillar Erlangen va Keninsberg universitetlarida ma’ruzalar o‘qidi. 1810-yili Berlin universitetining dekani lavozimiga tayinlanadi. Fixte tif kasaliga mubtalo bo‘lib, 1814-yili vafot etadi (15-ilova).

Yangi davrda erkinlikni tushunish masalasi

<i>Faylasuflar</i>	<i>Erkinlikni tushunish</i>
Spinoza	Dunyoda hamma narsa taqozolangan, shuning uchun ham haqiqiy erkinlik yo‘q. Lekin inson zaruratni anglaydi, borliq qonunlari orqali yashaydi. Erkinlik zaruratni anglashdir.
Russo	Inson erkin bo‘lib tug‘iladi, erkin bo‘lish – insonning tabiiy huquqidir . Insoniy jamiyat rivojlangan sari bir guruh odamlarni ikkinchilari tomonidan erkinligini cheklash sodir bo‘ladi. Adolatli qonunshunoslikning maqsadi – (ijtimoiy shartnomaga ko‘ra) har bir fuqaroning erkinligini ta’minlab berishdan iborat.
Kant	Inson zaruratga hodisa sifatida bog‘langandir (“biz uchun narsa”) boshqa hodisalar ichida. Inson transsensual mohiyat sifatida erkindir , ya’ni “narsa biz uchun”.
Fixte	Erkin bo‘lish – demak o‘z-o‘zini erkin qilishdir. Erkinlik – zaruratni bilish faoliyatidir, “Men” sohasini kengayishi “Men-emas” hisobidan, lekin yagona mutlaq hisobidan.




Fridrix Vilgelm Yozeф Shelling (1775-1854 yy.) – nemis falsafasining uchinchi yirik namoyandasidi.

Asarlari: «Transsensual idealizm tizimi», «San’at falsafasi».

Shelling seminariyani tugatib, Tyubingen ilohiyot institutiga o‘qishga kiradi. Biroq jamiyatda yuz berayotgan voqealar, fransuz inqilobining avj olishi ta’sirida yuzaga kelgan hurfikrlilik g‘oyalari uning qalbida falsafaga mehr uyg‘otadi. 1791-yili Shelling Kantning «Sof aqlning tanqidi» asari bilan tanishgach, falsafaga muhabbati kuchli ekanligi namoyon bo‘ladi. Shelling falsafasining g‘oyaviy asoslari va o‘zidan keyingi ta’limotlarga ta’siri 16- ilovada o‘z aksini topgan.


16-ilova

Sheliing falsafasining g‘oyaviy asoslari va ta’siri




Ayniqsa, 1794-yilda Fixtening «Fanni o‘rganish» asari bilan tanishgach, bu yangi falsafiy ta’limot xususida Shellingning «Umuman biron bir falsafaning imkoniy shakli haqida», 1795-yilda esa ««Men» falsafasining tamoyili haqida» asarlari chop etiladi (17-ilova).

Shelling: Transsensual idealizm



Tyubingen universitetini tugatgach, Shelling ruhoni xizmatkor bo'lishni istamay, Leypsigdagi zodagon oilasida uy saboqlarini bera boshlaydi. Bo'sh vaqtlarida esa u falsafa, matematika, fizika va tibbiyot fanlarini chuqur o'rganishga kirishadi. 1797-yilda Shelling «Tibbiyot falsafasi g'oyalari» asari orqali yangi shaffof falsafiy konsepsiya asos soladi. Shelling falsafiy qarashlarining o'zgarishida eng muhim voqeа «Transsensual idealizm tizimi» nomli asarining chop etilishi bilan bog'liq bo'ldi. Uning bu asari naturfalsafa fanini o'rganish g'oyalari sintez qilishga qaratilganligidan dalolat berardi (18-ilova).

Shelling: Ayniyat falsafasi



Fixte ilgari surgan «Men emas» ta'limotini to‘laroq xarakterlab berishni Shelling o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ydi. Chunki Fixte o‘zi ilgari surgan «Men emas» ta'limotiga ortiqcha e’tibor bermagan edi. O‘zi tahlil qilgan «Men»ga tabiatni qarama-qarshi qo‘ygan edi. Shelling dastlab Fixte maxsus e’tibor qaratmagan «Fanni o‘rganish» qismini ishlab chiqmoqchi bo‘ldi.

Kantning «Sof aqlning tanqidi» asarida va ayniqsa, kosmonik gipotezasida ilgari surilgan tabiat haqidagi idealistik talqini u o‘ylagan fikrga to‘g‘ri kelmas edi. Shellingning naturfalsafiy ta’limotining falsafiy manbai Leybnitsning monodologiya haqidagi ta’limotiga borib taqaladi (19-ilova).

19-ilova

Shelling ta’limoti rivojining asosiy davrlari


<i>Davr nomi</i>	<i>Xronologik chegaralari</i>	<i>Asosiy ishlari</i>
“Fixtecha”	1795-1796-yillar	Falsafaning imkoniy shakli haqida (1794) “Men” falsafaning tamoyili sifatida (1795) Aqidaviylik va tanqidiylik haqida falsafiy maktublar (1795)
Naturfalsafa	1797-1799-yillar	Tabiat falsafasi haqida g‘oyalar (1797) Olamiy jon haqida (1798) Tabiat falsafiy tizimiga birlamchi chizgilar (1799)
Transsensual idealizm	1800-1801-yillar	Transsensual idealizm tizimi (1800)

Ayniyat falsafasi (muvoqiqlik)	1801-1804-yillar	Mening falsafiy tizimimning bayoni (1801) Bruno yoxud narsalarning ilohiy va tabiiy ibtidosi (1802) San'at falsafasi (1802) Qomusiy fanlarning eng umumiy metodologiyasi (1803) Akademik ta'limotning metodi haqida ma'ruzalar (1803) Falsafa va din (1804)
Erkinlik falsafasi	1805-1813-yillar	Inson erkinligi mohiyatini falsafiy tadqiqi (1809) Shtutgartdagи muloqotlar (1804)
Intuitiv falsafasi	1814-1854-yillar	Afsona falsafasiga kirish Afsona falsafasi Intuitiv falsafa. (bu asarlar muallifning vafotidan so'ng chop etilgan)

Shellingning naturfalsafiy ta'limoti keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgan. U XVIII asr oxiridagi yangi tabiiy-ilmiy natijalarga javob tariqasida yuzaga keldi. Elektr haqidagi xabarlar, Volt kimyo sohasida yaratgan kashfiyotlar, magnitning tirik organizmga ta'siri kabilar katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Tabiat taraqqiyoti to'g'risidagi masalaning quyi maqomdan yuqori maqomga ko'tarilishi tabiatshunoslikda muhim voqealardan biri bo'ldi. Shak-shubhasiz ularni ishlab chiqish dunyoqarash nuqtayi nazaridan faylasuflarda katta qiziqish uyg'otdi (20-ilova).

Shelling: cheklilik va cheksizlikning munosabati

1. Mutlaq va cheksiz ayniyat



2. O'ziga xos g'oyalar.

Har biri hammasida bo'la
oladi.

3. Alohiba obyektlar mavjud
Ular tajribamizga shunday
berilgan.




Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831 yy.) – nemis mumtoz falsafasining yirik namoyandasasi.

Asarlari: «Ruh fenomenologiyasi», «Mantiq ilmi», «Huquq falsafasi», «Falsafiy fanlar qomusisi» va boshqalar.

Gegel falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta'limatlarga ta'siri 21-ilovada o'z aksini topgan.

Gegel falsafasining g'oyaviy manbalari va ta'siri




Agar Kant haqiqiy bilim bilan mifologiyani, san'atdagi bilimlarni qarama-qarshi qo'ygan bo'lsa, Gegel ular o'rtaqidagi farqni mutlaqlashdirishga qarshi chiqdi (22-ilova).

Bu zidlik tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Uning fikricha, bilimlar butun insoniyat tarixi sifatida namoyon bo'ladi. Bu falsafada fan ilmiy yoki noilmiyga ajratilmaydi, ularning hammasi ilmiy nuqtayi nazaridan o'rganiladi (23-ilova).

Agar Kantda haqiqat yoki xato fikrlar to'g'risida gap borsa, Gegelda haqiqatning nisbiyligi, o'z davri uchun haqiqatligi g'oyasi maydonga tashlanadi. Gegel haqiqatni tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot bilan bog'laydi.

Gegelning falsafiy tizimi



Gegel: mutlaqning rivojlanish davrlari va falsafa tuzilmasi


<i>Rivojlanish davrlari</i>	<i>Xususiyatlari</i>	<i>Falsafaning qismi</i>
Mutlaq g'oya	"O'zidagi borliq"	Mantiq
Tabiat	Noborliq yoxud "Boshqa uchun borliq"	Tabiat falsafasi
Ruh	"Borliq o'zida va o'zi uchun borliq"	Ruh falsafasi

Kant bilishni empirik va nazariy bilimlarga ajratsa, Gegel tarixning o'zi faktlardan (tarixiylik) va mantiqiylikdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Kant insonni gnoseologik nuqtayi nazardan o'rgangan bo'lsa, Gegel tafakkur taraqqiyotini -

ontologik (borliq) nuqtayi nazardan o‘rganadi. Butun madaniy-tarixiy jarayonni inson faoliyatining turli shakllarining namoyon bo‘lishi asosida qaradi. Natijada inson moddiy va ma’naviy madaniyatning yaratuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa XIX-XX asrlarda gumanitar fanlarda turli sohalarning shakllanishiiga olib keladi. XIX-XX asr insoniyatning umumiy (fuqarolik) tarixi asri bo‘lib qoldi. Natijada turli sohalarning tarixi paydo bo‘ldi. Bularning hammasi madaniyat haqidagi fanlar deb ataldi. Endi Gelelning dialektik uslubini ko‘rib chiqamiz (24-ilova).

24-ilova

Gegel: Mutlaqning rivojlanish davrlari



Agar Shelling intellektual (aqliy) intuitsiyani falsafiy tushunishning oliy shakli deb bilgan bo‘lsa, Gegel ratsional bilishga falsafiy fikrlashning asosi sifatida qaradi. Mutafakkir fikricha, uning asosiy vositasi mantiqiy tafakkur, asosiy shakli esa, tushunchadir. Biroq bu aqliy bilish Aristotelning formal mantig‘idan farqli o‘laroq, tafakkurning dialektik mantig‘idir. Gegel tushunchani eskicha usul bilan talqin etib bo‘lmaydi, uni yangi dialektik uslub bilan tushuntirish, uning rivojlanishini, shakllanish jarayonini qayta fikrlash kerak, deydi (25-ilova).

Gegel: ruh falsafasi tuzilmaviy elementlari

A. Subyektiv ruh	I.Antropologiya	1. Tabiiy jon
		2. Hissiy jon
		3. Harakatchan jon
	II.Fenomenologiya	1.Ong
		2.O‘z-o‘zini anglash
		3.Aql
	III.Psixologik	1.Nazariy ruh
		2.Amaliy ruh
		3.Erkin ruh
B. Obyektiv ruh	I.Huquq	1.Xususiy mulk
		2.Shartnoma
		3.Huquqni buzganlikka qarshi huquq
		1.Fikr va gunoh
	II.Axloq	2.Maqsad va ezzulik
		3.Ezzulik va yovuzlik
		1.Oila
	III.Axloqiylik	2.Fuqarolik jamiyatি
		3.Davlat
S.Mutlaq ruh	I. San’at	Batafsil 30-ilovada beriladi
	II.Din	
	III.Falsafa	

Gegel sof tushunchaning mavjud bo‘lishini uning subyektiv mavjudligidan farqlaydi, uning narsalar bilan mosligi haqida gapiradi. Demak, tushuncha dastlabdan qarama-qarshiliklarga aylanganligi va farqli asosida o‘z-o‘zicha rivojlanar ekan, u dialektika asosida boradi. Bu rivojlanish asosida qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi yotadi. Tafakkurning bu qonuni taraqqiyotning barcha sohalariga: tabiatga ham, jamiyatga ham

tegishlidir. Taraqqiyot, Gegel fikricha, ma'lum sxema asosida boradi: tezis (da'vo), antitezis (inkor), sintez (inkorni inkor) (26-27-28-ilovalar).


26-ilova

Gegel: Uchliklar

I. 1. Borliq

Birinchi uchlik (I): I. 2. Hech nima

I. 3. Shakllanish



Har bir inkor o'zidan ilgarigining ijobiy tomonlarini sintezlashtiradi. Masalan, bug'doy ekilsa, o'sib chiqqan poya uni inkor etadi, yangi boshoq poyani inkor etadi. Natijada yuqoridagi uchlik amalga oshadi. Gegel dialektikaning qonun va kategoriyalarini ishlab chiqdi.


Gegel o'zining sistemasini «Ruh fenomenologiyasi» (1806-yil) asarida beradi. Unda individual ong muammosi to'g'risida fikr yuritar ekan, obyekt bilan subyektning qarama-qarshiligidini yengish asosidagi taraqqiyot ong taraqqiyotidan iborat ekanligini yozadi. Bu taraqqiyot pastdan yuqoriga bosqichma-bosqich boradi. Individual ong, butun taraqqiyot bosqichi, uning yo'llari, ana shu asosda o'z tarixini bosib o'tadi (29-ilova).

Gegel: Uchliklar

II.1. O'zicha borliq

Ikkinchi uchlik (II) II.2. Cheklilik

II.3. Cheksizlik




Gegel: Uchliklar

III.1. O'zi uchun borliq

Uchinchi uchlik (III): III.2. Birlik va ko'plik

III.3. Itarilish/tortilish



Gegel: jahon tarixi, san'ati, din va falsafasining rivojlanish davrlari

<i>Jahon tarixi</i>	<i>San'at tarixi</i>	<i>Din tarixi</i>	<i>Falsafa tarixi</i>
Sharq jamiyati	Sharq san'ati	Sharq dini	
Yunon-rim jamiyati	Klassik san'at	Yunon dini	Antik yunon falsafasi
German-xristian jamiyati	Romantik san'at	Xristianlik dini	O'rta asr xristianlik falsafasi Zamonaviy nemis falsafasi

Jahon tarixi individual ongning bosib o'tadigan bir butun taraqqiyot bosqichlaridan iborat ekan. Gegel tarixiy jarayonni tarixchilar, filologlar, huquqshunoslar, dinshunoslar singari empirik faktiar asosida izohlamaydi, balki uning falsafiy tahlilini, mohiyatini olib beradi. Butun tarixni yuksak madaniyat darajasidagi ong, tafakkur salohiyati bilan talqin qiladi, uning taraqqiyotini «dunyoviy ruh» nuqtayi nazaridan qaraydi. Bunda subyekt bilan obyekt o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yo'l, tafakkur bilan borliq mutlaq aynanlikda qaraladi. Gegel o'zining «Logika»sida tushunchaning o'z-o'zicha rivojlanishini ko'rsatib beradi. Tushunchaning o'z-o'zicha rivojlanishi «mutlaq g'oyaga» intilib rivojlanar ekan, demak, uning har bir bosqichi nisbiy haqiqat sifatida namoyon bo'ladi. Mutlaq g'oya o'z nihoyasiga yaqinlashadi. Gegel buni tarixning yuksak cho'qqisi deb qaraydi. Bu uning cheklanganligi edi.



Ludwig Feyerbax (1804-1872 yy.) – nemis mumtoz falsafasining yana bir vakili.

Asarlari: «Gegel falsafasining tanqidiga doir», «Xristianlikning mohiyati», «Falsafani izoh qilish bo'yicha dastlabki tezislari», «Kelajak falsafasining asosiy qoidalari».

Feyerbax taniqli adliya xodimi oilasida tug'ilgan. Dastlab u diniy yo'lni tanlagan va shu yo'nalish bo'yicha o'qishga kirgan.

Biroq bir yildan keyin o'qishni tashlagan va Berlinga borib, u yerdagi universitetga o'qishga kirgan. Bu yerda Feyerbax anchagina obro'-e'tiborga ega bo'lgan Gegel ma'ruzalarini eshitgan va uning izidan borib gegelchilarga qo'shilgan. Falsafasining g'oyaviy asoslari va ozidan keyingi ta'limotlarga ta'siri 30- ilovada o'z aksini topgan.

Feyerbax ilk falsafiy asarlaridayoq Gegel ta'limotiga shubha bilan qaraydi va asta-sekin undan uzoqlasha boradi. Feyerbax XIX asrning 30-yillari oxirida yozgan «Gegel falsafasining tanqidiga doir» asarida tabiatni, materiyani g'oyaviylik asosida yotuvchi reallik sifatida talqin qiladi.

40-yillarda nashr etgan kitoblarida «Xristianlikning mohiyati» (1841-yil), «Falsafani izoh qilish bo'yicha dastlabki tezislar» (1842-yil), «Kelajak falsafasining asosiy qoidalari» (1843-yil). Feyerbax idealistik va diniy qarashlarni qattiq tanqid qiladi.

Feyerbax fikricha, tafakkurning borliqqa munosabati falsafaning bosh masalasi ekan, demak, falsafa inson mohiyati to'g'risidagi ta'limot bo'lishi kerak, chunki insondan boshqa fikrlovchi biron ta jonzot yo'q. Tafakkurning borliqqa munosabati masalasi esa faqat inson faoliyati jarayonida hal qilinadi. Feyerbax falsafasi insonga qaratilgan, shu bois u **antropologik falsafa** deyiladi. «Inson borliq va tafakkur birligining subyekti, asosi qilib olingandagina, bu birlikni haqiqiy deyish mumkin», -deb yozgan Feyerbax.


Ma'lumki, Gegel insondan tashqaridagi mutlaq g'oya – dunyoviy aql to'g'risida ta'limot yaratgan edi. Feyerbax insondan tashqarida mavjud aql to'g'risidagi qarashlarni, demak, Gegel va uning izdoshlarini tanqid qilgan.

Tabiatning mahsuli bo'lган inson aqliy faoliyatning real subyekti, degan g'oyaga tayangan Feyerbax olamni yaratuvchi, hamma insonni sezguvchi va bilguvuvchi ilohiy kuch – Xudoning mavjudligini inkor qilgan. Din, uning fikricha, insonni o'limidan keyin qutqarishga qaratilgan, ya'ni insonning narigi dunyosi to'g'risidagi ta'limot, falsafa esa, undan farqli o'laroq, insonning yashab turgan dunyosini, insonning yerdagi mohiyatini o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir, chunki narigi dunyoning o'zi yo'q.

Shu fikrdan kelib chiqqan Feyerbax falsafa din bilan emas, balki tabiat to‘g‘risidagi fanlar bilan yaqin aloqada bo‘lishi kerak, deb hisoblagan.

30-ilova

Feyerbax falsafasining g‘oyaviy asoslari va ta’siri



Shuni qayd etish kerakki, Feyerbax dinni tanqid qilish bilan bir qatorda yangi din yaratish g‘oyasini ilgari surgan. Dinni tanqid qilganda u butun olam ijodkori insondan tashqaridagi xudoni e’tirof etuvchi dinni nazarda tutgan. Yangi din to‘g‘risida fikr

yuritganda esa, insonga bog‘liq bo‘lgan, demak, inson yaratgan dinni nazarda tutgan. Shunday qilib, uning ta’limotiga ko‘ra, din yaratuvchi kuch emas, yaratiluvchi g‘oyadir. Inson uchun diniy e’tiqodning muhim ahamiyat kasb etishini tushungan Feyerbax, jamiyatda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni faqat insonning insonga bo‘lgan muhabbatiga asoslangan din orqali muvofiqlashtirish va boshqarish mumkin, degan g‘oyani ilgari surgan.

5-bo‘limning 4-bobiga oid topshiriqlar

O‘z bilimingizni sinab ko‘ring va savollarga javob bering:

1. XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi qanday xususiyat-larga ega bo‘lgan?
2. Kimlar XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasining yirik namoyandalari hisoblanadi?
3. XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasining asoschisi kim bo‘lgan?
4. Immanuil Kant dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
5. Immanuil Kant falsafasi asosida qanday falsafiy oqimlar tashkil topdi?
6. Immanuil Kantning bilish nazariyasi qanday g‘oyalarga asoslanadi?
7. Immanuil Kant ta’limotiga ko‘ra, “nazariy falsafa”ning vazifasi nimadan iborat bo‘lishi kerak?
8. Immanuil Kant o‘z falsafasini qanday atagan?
9. Kant antinomiyalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Kant ta’limotida “qat’iy imperativ” tushunchasi nimani bildiradi?
11. Kant “qonun”ni qanday tushungan?
12. Fixte dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
13. Fixte falsafasi asosida qanday falsafiy oqimlar tashkil topdi?

14. Fixte ta'limotida "Men" va "Men emas" tushunchalari nimani anglatadi?
15. Fixte erkinlikni qanday tushungan?
16. Shelling dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
17. Shelling falsafasi qanday falsafiy oqimlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan?
18. Shelling transsidental idealizmining mohiyati nimadan iborat?
19. Shelling ta'limoti rivoji qanday davrlarga bo'linadi?
20. Gegel dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
21. Gegelning falsafiy tizimining asosini qanday tushunchalar tashkil etadi?
22. Gegel o'z falsafiy ta'limotida qanday bilish usulidan foydalangan?
23. Gegel dunyoviy tarix, san'at, din va falsafaning rivojini qanday davrlarga ajratgan?
24. Lyudvig Feyerbax dunyoqarashi qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
25. Feyerbax yaratgan antropologik materializm falsafasining mazmun-mohiyati qanday?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Falsafa sohasini quyidagi savollar bilan chegaralash mumkin:
 2. Men nimani bila olaman? 2) Men nima qilmog'im kerak?
 - 3) Men nimaga ishonishim mumkin? 4) Inson nima? Birinchi savolga metafizika fani, ikkinchisiga axloq, uchinchisiga din va to'rtinchisiga antropologiya javob beradi. Yuqoridagi uch savol oxirisiga kelib taqaladi. (Immanuil Kant).
 3. ჰა iqodga joy berish uchun bilimlarimni siqishtirishimga to'g'ri keladi. (Immanuil Kant).

4. Og‘zimdan chiqayotgan hamma so‘zlar haqqoniy bo‘mog‘i kerak. Ammo bu, biz har qanday haqiqatni ochiq aytishga majbur-miz, degani emas. (Immanuil Kant).
5. Iztirob faoliyat istagini uyg‘otadi. (Immanuil Kant).
6. Fikrlarni emas, fikrlashni o‘rgatmoq kerak. (Immanuil Kant).
7. Insondagi qulaylikka moyillik hissi hayotda mavjud bo‘lgan har qanday yovuzlikdan ham yomonroqdir. (Immanuil Kant).
8. O‘z-o‘zingni idrok et, atrofingni o‘rab turgan hamma narsadan nigohingni uz va botiningga boq. Bu falsafaning o‘z shogirdiga qo‘yadigan birinchi talabidir. Bunda gap sendan tashqaridagi emas, balki faqat sendagi narsalar haqida boryapti. (Fixte).
9. Har qanday voqelik ta’sirchanlikdir, hamma ta’sirchanlik voqelikdir. (Fixte).
10. Inson zotiga mansub odamlar bir-birlariga o‘xshamaydilari. Ularning o‘xhash tomoni bitta. U ham bo‘lsa, barchaning pirovard maqsadi – mukammallik. (Fixte).
11. Men ko‘plab ajoyib fanlarni bilaman, ammo falsafadan ajoyibrog‘ini topolmadim. (Gegel).
12. Insonning burchlari to‘rt turga bo‘linadi:
13. 1)O‘z oldidagi burchi. 2) Oilasi oldidagi burchi. 3) Davlat oldidagi burchi. 4) O‘zga odamlar oldidagi burchi. (Gegel).
14. Inson bilim tufayligina barhayotdir. Bilim, tafakkur inson hayoti barhayotligi negizidir. (Gegel).
15. Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq visitatdir. Inson qanday harakat qilsa, o‘shandaydir. (Gegel).
16. Dunyoga aql ko‘zi bilan boqqan odamga dunyo ham oqilona qaraydi. (Gegel).
17. Falsafada javobsiz qolgan savollar boshqacharoq qo‘yilmog‘i kerak. (Gegel).
18. Xohish-istak tugagan joyda inson ham tugaydi. (Feyer-bax).
19. Baxtga intilish yo‘q joyda umuman hech qanday intilish yo‘q. (Feyerbax).

20. Aynan eng sodda haqiqatlarni inson hamma narsalardan keyinroq anglaydi. (Feyerbax).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi va uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Kantning axloq falsafasi.
3. Gegelning falsafiy triadasi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. «Immanuil Kantning subyektiv idealizmi» mavzusida ijodiy insho (esse)yozing.
2. «Kant va Fixtening bilish nazariyasi: qiyosiy tahlil» mavzusida klaster tuzing.
3. «Gegelning borliq haqidagi ta’limoti» mavzusida BBB jadvalini to’ldiring.

TESTLAR

1. XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasining asoschisi kim bo‘lgan?

- A) Feyerbax
- B) Gegel
- C) Gerder
- D) Kant

2. XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasining yirik namoyandalari...

- A) Fixte, Shelling, Nitsshe, Shopengauer
- B) Kant, Fixte, Shelling, Gegel, Feyerbax
- C) Kant, Fixte, Shelling, Golbax, Lessing
- D) Kant, Golbax, Gegel, Feyerbax

3. Kantning gnoseologik ta'limotiga ko'ra, inson ...

- A) bilish tafakkur yordamida tartibga solinadigan "ruhiy hissiyot"dan boshlanadi
- B) har qanday bilish hissiy tajribadan boshlanadi
- C) bilish empirik tajriba bilan tajribaning nohissiy asosini o'zaro birligidan tashkil topadi
- D) bilish sezgi a'zolarimiz xususiyatlarini hissiyotimiz orqali g'oyalar shaklida anglashdan iborat

4. Kant o'zining "Osmonning eng umumiy tarixi va nazarriyasi" nomli asarida ilk bor qanday ta'limotni ilgari surgan?

- A) sayyoralarning dastlab "tumanlikdan" paydo bo'lganligi haqidagi nebulyar gipotezani
- B) dunyolarning cheksizligi haqidagi gipotezani
- C) osmon jismlarining o'zaro uyg'unlikda mavjudligi nazarriyasini
- D) osmon jismlarining abadiyligi va cheksizligi g'oyasini

5. Kantning "Sof aqlning tanqidi" asarida qanday uslub bilishing tanqidi sifatida e'tirof etiladi?

- A) intuitsiya
- B) hissiy tajriba
- C) isbotlash
- D) birlamchi sezgilar

6. Kant ta'limotiga ko'ra, vaqt va makon?

- A) real bo'lmay, hissiy tajribagacha mavjud
- B) insonning olam to'g'risidagi bilimlarining mukammallahib borishini aks ettiradi
- C) alohida narsalarning ajralmas xususiyatlaridir
- D) substansiyaning abadiy real atributidir

7. Kantning "amaliy falsafasi" qaysi sohaga tegishli?

- A) ilmiy bilishga
- B) axloqiy xatti-harakatlarga
- C) axloq falsafasiga

D) huquqiy munosabatlarga

8. Kant ta'limotiga ko'ra, inson xatti-harakatlari axloqiy qadr-qimmatining oshib borishi nimaga bog'liq?

A) burch talabiga bo'ysunishiga

B) qabul qilingan qonunlarga mos kelishiga

C) insonda qoniqish hissini uyg'otishiga

D) insonparvarlik tamoyillari bilan bog'liqligiga

9. Fixte ta'limotiga ko'ra, inson bashariyatning Buyuk, oqil va ulug'vor an'analariga qo'shib, nimaga erishadi?

A) hurmatga

B) shuhratga

C) abadiylikka

D) oljanoblikka

10. Fixte ta'limotida tabiat nimani bildiradi?

A) obyektiv reallikni

B) "Men"ning begonalashgan natijasini

C) transsendent "U"ni

D) "Men-emas"ning muqobilini

11. Shelling ta'limotiga ko'ra, ong nimadan boshlanadi?

A) ongning «realiashgan tushunchalaridan

B) instinktiv «Men»ning anglanmagan faoliyatidan

C) ongning sof «ideallahsgan» faoliyatidan

D) dunyoga nisbatan faoliyatdan

12. Shelling ta'limotiga ko'ra, ongning zaruriy sharti nimadan iborat?

A) «Men» faoliyatining tashqi dunyoga nisbatan

B) insonlar o'rtasidagi doimiy muloqot mustaqilligi

C) dunyoviy ruh bilan o'zaro aloqadorligi

D) instinktiv «Men»ning anglanmagan faoliyati

13. Shelling ta'limoti ko'ra, dunyoning asosini nima tashkil etadi?

- A) mutlaq o'zlikni anglash
- B) anglanmaganlik
- C) cheksizlik
- D) atom

14. Shelling tarixda nechta davrni farqlagan?

- A) 7 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 3ta

15. Gegel olamning asosiga nimani qo'ygan?

- A) mutlaq «Men»ni
- B) mutlaq g'oyani
- C) mutlaq anglanmaganlikni
- D) mutlaq o'zlikni anglashni

16. Gegel «Ruh fenomenologiyasi» asarida bilish jarayonida bilayotgan va bilinayotgan o'rtasidagi qanday aloqadorlik mavjud deb hisoblagan?

- A) birining ikkinchisiga o'tishi
- B) ziddiyat
- C) aynanlik
- D) bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyat

17. Gegel «Ruh fenomenologiyasi» asarida turli dinlarni qanday tushungan?

- A) inson ruhining komillikka intilishi
- B) insonning ilohga bo'ysunishi
- C) insonning cheksiz tabiatga bo'ysunishi
- D) mutlaqning o'zligini anglashi

18. «Mantiq fani» asarida, Gegel qaysi g‘oyani asoslashga harakat qilgan ?

- A) mavjud baracha narsalar—realdir
- B) mavjud baracha narsalar— aqlga muvofiqdir
- C) aqlga muvofiq barcha narsalar – mavjuddir
- D) narsalarning aqlga muvofiqligi mavjudligi bilan aynan mos keladi

19. Gegel «Tarix falsafasi» asarida tarixni qanday talqin etgan?

- A) dunyoviy ruhning vaqtida rivojlanishi
- B) erkin insonning shakllanishi
- C) dunyoviy ruhning makonda rivojlanishi
- D) dunyoviy ruh haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi siftida

20. Feyrbax ta’limotiga ko‘ra, «Odamning yangi etikasi va dini» nimaga asoslanishi kerak?

- A) o‘zaro muhabbatga
- B) huquqqa
- C) davlatga
- D) Mutlaq g‘oyaga

6-BO'LIM

6-bob. XIX-XX ASRLARDA G'ARB FALSAFASI RIVOJI

6.1. Eng yangi davr g'arb falsafasining shakllanishi

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda zamonaviy g'arb falsafasi, uning asosiy oqimlari va o'ziga xos tomonlari haqida bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; XIX-XX asr G'arbiy Yevropa falsafasidagi turli konsepsiyalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Noklassik falsafa, ratsionallik, irratsionallik, inson falsafasi, an'anaviy va noan'anaviy falsafa.

Asosiy savollar:

1. XIX - XX asrda ijtimoiy-siyosiy hayot, fan-texnika taraqqiyoti va ma'naviy madaniyatdagи o'zgarishlarning g'arb falsafasida aks etishi.
2. XIX - XX asrlar g'arb falsafasining asosiy yo'nalishlari.
3. XIX - XX asrlar g'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlari.

Falsafa tarixida XIX-XX asr alohida o'rin tutadi. Bu davr falsafasi g'oyat murakkab va xilma-xil fikrlarga boy bo'lib, turlicha maktablar va qarashlarni o'z ichiga oladi (1-ilova).

XIX-XX asr g'arb falsafasining asosiy davrlari

Davrlar	Yillar	Asosiy hodisalar
Birinchi “antropotsentrik” davr	1830 – 1865-yillar	Nemis klassik falsafasining rivoji davom etadi (Shelling, Hegel, Feuerbach) taxminan 1850-yilgacha; Eskigegelchilikning shakllanishi, gullashi va so‘nishi; Yosh gegelchilikning shakllanishi, gullashi va so‘nishi; Klassik pozitivizmning shakllanishi, gullashi va so‘nishi (1830 – XIX asr oxirlari); “Hayot falsafasi”ning shakllanishi (Shopengauer – taxminan 1818 yy.); Klassik marksizmning shakllanishi; Kyerkegor falsafasi (1842-1855 yy.).
Ikkinci kognitiv davr	1865 – 1920-yillar	Neokantchilikning shakllanishi, gullashi va so‘nishi (1865-1920 yy.); Empiriokrititsizmning (maxizmning) shakllanishi, gullashi va so‘nishi; Neopozitivizmning shakllanishi (mantiqiy pozitivizm); Pragmatizmning shakllanishi; Markasizm-leninizmning shakllanishi; “Hayot falsafasi”ning gullashi (Nitsche, Bergson, Diltey, Shpengler); Fenomenologiyaning shakllanishi (Gusserl); Ruhiyat tahlili falsafasining shakllanishi va dastlabki rivoji (Freyd, Yung); Germenevtikaning rivoji (Diltey); Neotomizmning shakllanishi.

I-ilovaning davomi

Uchinchi lingistik davr	1920 – 1970-yillar	Neopozitivizmning gullashi va so‘nishi (mantiqiy pozitivizm); Pragmatizmning gullashi va so‘nishi; Marksizm-leninizmning rivojlaniishi; Neotomizmning rivoji; “Hayot falsafasi”ning rivoji va so‘nishi (Bergson); Ekzistensializmning shakllanishi, gullashi va so‘nishi; Fenomenologiyaning rivoji (Gusserl, Xaydegger, Sartr); Germenevtikaning rivoji va gullashi (Xaydegger, Gadamer); Strukturalizmning shakllanishi, gullashi va so‘nishi; Poststrukturalizmning shakllanishi va gullashi; Postmodernizmning shakllanishi.
To‘rtinch postmodern davr	1970- yildan hozirgi kungacha	Marksizm va marksizm-leninizmning so‘nishi; Ruhiyat tahlili falsafasining rivoji; Fenomenologiyaning rivoji; Germenevtikaning ravnaqi; Postpozitivizmning shakllanishi va rivoji (lingistik falsafa, analitik falsafa); Pragmatizmning ravnaqi; Poststrukturalizmning gullashi va so‘nishi; Postmodernizmning gullashi va so‘nishi.

Bu davrda insonlar hayotida, fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda misli ko‘rilmagan tarixiy voqealar

bo'ldi. Bular barchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, dunyoni yangicha chuqurroq o'rganish va bilimni hayotga tatbiq qilishga undadi (2-ilova).

2-ilova

XIX-XX asrlardagi fan yutuqlarining falsafaga ta'siri

<i>Boshqa fan va madaniyatdagi hodisalar</i>	<i>Fan va madaniyatga bo'lgan ta'sir</i>	<i>Falsafa rivojiga bo'lgan ta'sir</i>
<p><i>XIX asr.</i> Tabiiy fan sohasidagi kashfiyotlar va ular asosida qilingan texnik yangiliklar, inson hayotini sezilarli darajada farvonlashtirdi (temir yo'l, paroxod, avtomobil, aeroplani, telefon, radio, fotografiya, kino, grammofon va h.k.)</p>	<p><i>XIX-XX asrlar.</i> Yevropa madaniyatida ssientik kayfiyatni shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi; zamonaviy tabiiy-ilmiy metodologiyaning shakllanishiga turki bo'ldi va bu yagona ilmiy yondashuv deb hisoblandi.</p>	<p><i>XIX asr.</i> Klassik pozitivizm, marksizm va tabiiy-ilmiy materializmning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'r satdi (xususan, "vulgar" yoki fizilogik materializm).</p> <p><i>XIX-XX asrlar chegarasi</i></p> <p>Neokantchilikda "tabiat haqidagi fanlar"ni "ruhiyat haqidagi fanlar"ga (madaniyat) va ularning metodologiyasini qarama-qarshi qo'yilishiga olib keldi.</p> <p><i>XIX-XX asrlar</i></p> <p>Ratsionallikni rivojiga turki bo'ldi.</p> <p><i>XX asr</i></p> <p>Sistema haqidagi umumiy nazariyaning va strukturalizmning</p>

2-ilovaning davomi

		shakllanishiga va rivojiga turtki bo'ldi; neomarksizmning rivojiga yordam berdi.
Fanlar differentsiyasining umumiy jarayoni	Xususiy fanlarning rivojiga va "tor doiradagi mutaxassisliklarni" bir-birini tushunmaslikka olib keldi.	<i>XIX-XX asrlar</i> Irratsionalizmning rivojiga turtki bo'ldi.
<i>XIX asr – Biologiya</i> Tabiiy tanlanish tamoyiliga asoslangan Ch.Darvin evolutsion nazariyasining yaratilishi va keng yoyilishi; Mendel tomonidan vorisiylik qonunining ochilishi.	<i>XIX asr oxiri - XX asrlar</i> Fanda va butun madaniyatda tadrijiylik g'oya-sini tasdiqlanishiga olib keldi. Butun tirik tabiatning yagona ekanligi haqidagi g'oya shakllandı.	<i>XIX asr oxiri - XX asrlar</i> Ijtimoiy darvinizm oqimining va geosiyosatning shakllanishiga turtki bo'ldi. Bergsonning ("hayot falsafasi") ijodiy evolutsiya konsepsiyasini paydo bo'lishiga, T. de Shardenning evolutsionizmi va rus kosmizmining shakllanishiga turtki bo'ldi.
<i>XIX asr – Kimyo</i> Mendeleev tomonidan davriylik tizimi unsurlarini kashf qilinishi.	Tabiatning yagonaligi haqidagi g'oyani tasdiqlanishiga olib keldi.	Dialektika qonunlari tasdig'iga va tabiiy ilmiy materializmning, marksizmning shakllanishiga olib keldi.

<i>XIX asr – Fizika</i> Energiyaning saqlanish qonunini (Joul), elektromagnit maydonni (Maksvellning elektromagnit nazariyasi) kashf qilinishi, termodinamikanı rivoji.	<i>XIX asr oxiri - XX asrlar</i> Fizikada XIX-XX asrlar chegarasida umumiy krizisga olib keldi; tarixiylik tamoyilini tasdiqlanishiga turki bo‘ldi; “Davr millari” tushunchasining, “Koinotning isib ketishi” konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.	<i>XIX asr oxiri - XX asrlar</i> Falsafa “fenomenologik” to‘ntarilishga va “moddiylik” hamda “materiya” tushunchalarining differensiatisiyasiga olib keldi; Koinotning evolutsiya konsepsiysi rivojiga ta’sir ko‘rsatdi va “Ulkan portlash” nazariyasining shakllanishiga turki bo‘ldi.
<i>XIX asr – Matematika</i> Noevklid geometriyasining yaratilishi	<i>XX asr</i> Nisbiylik nazariyasining yaratilishiga olib keldi, unga ko‘ra makon noevelklid strukturaga egadir; intuitsiyali matematikani va noklassik mantiqni kelib chiqishiga turki bo‘ldi.	<i>XX asr</i> Fenomenologiya va mantiqiy pozitivizmning rivojiga ta’sir ko‘rsatdi.
<i>XIX asr – Tilshunoslik</i> Tilning milliy mentallik va dunyoning manzarasi bilan bog‘liqligini kashf qilinishi (Gumboldning til millat ruhini ifodalovchisi)	<i>XIX-XX asrlar</i> Tilga va umuman belgilarga qiziqishni ortishiga olib keldi; semiotikaning shakllanishiga olib keldi (belgilar haqidagi bilim).	<i>XX asr</i> Til masalalariga qiziqishning ortishi; Xaydeggerning ta’limotiga ta’sir ko‘rsatdi; Gadamerning germenevtikasiga va lingvistik falsafaning rivojiga, poststrukturalizm, postmodernizmning rivojiga

<p>haqidagi ta'limoti); til guruhlarining yagona negizdan kelib chiqqanligi haqidagi umumiy qonuniyatlarni ochilishi va “til oilalarining” mavjudligi (indoyevropa til manbalarini rekonstruksiya qilish)</p>		<p>ta'sir ko'rsatdi; strukturalizmning shakllanishiga turtki bo'ldi.</p>
<p><i>XIX-XX asrlar chegarasi – Fizika</i></p> <p>Fizikadagi umumiy krisiz; Radioaktivlikni kashf qilinishi; Elektron ixtirosi va atom murakkab tuzilmاسining parchalanishi;</p> <p>Xususiy va umumiy nisbiylik nazariyasi ning yaratilishi; Kvant mexanikasining paydo bo'lishi; Radioning kashf qilinishi.</p>	<p><i>XX asr</i></p> <p>Eski mexanistik (Nyuton-dekartcha) dunyo manzarasining yo'qolishi va yangicha fizika va astronomiyaning shakllanishi.</p> <p>Radio aloqaning yaratilishi, elektrning amaliy hayotda keng qo'llanishi.</p>	<p><i>XIX-XX asrlar oxiri</i></p> <p>Falsafada “fenomenologik” to'ntarilishga turtki bo'ldi: empiriokrititsizmning shakllanishiga turtki bo'ldi (pozitivizmning ikkinchi davri), pragmatizm, fenomenologiya shakllandi; neomarksizm rivojlandi.</p>

2-illovaning davomi

<p><i>Matematika va mantiq</i> Matematikada krizisga olib keldi (matematika negizidagi paradokslar aniqlandi); Mantiqiy paradokslarni aniqlanishi; Vasiliev tomonidan “tasavvuriy mantiq”ning yaratilishi; Frege ning psixologizmi va uning tomonidan mantiqiy semantikaning ishlab chiqilishi.</p>	<p>Matematika asoslari masalasini ishlab chiqilishiga turtki berdi, matematikada yangi yonalishlar paydo bo‘ldi. Noklassik mantiqning paydo bo‘lishiga olib keldi; umuman til va mantiq masalalariga qiziqish ortdi. Informatikaning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.</p>	<p>Neopozitivizmning (mantiqiy pozitivizm) va Gusserl fenomenologiyasining shakllanishiha ta’sir ko‘rsatdi.</p>
<p><i>Psixologiya va psixiatriya</i> Ong osti sohalarini tadqiq qilinishi; Z.Freyd tomonidan ruhiyat tahlili uslubining ishlab chiqilishi.</p>	<p>Ruhiyat masalalarning (XX asr boshlari) ilmiy ekanligini tasdiqlanishiha olib keldi, ruhiyat tahlili davolash uslubi sifatida keng yoyildi, jamiyatda “ruhiy inqilobga” olib keldi (1960-yillar); madaniyat va san’at sohasidagi ongsizlik masalasiha qiziqishning ortishiga</p>	<p>Ruhiyat tahlili falsafasi shakllandi (freydizm, neofreydizm, yungchilik); Ekzistensializm, postmodernizm, poststrukturalizmning rivojiga ta’sir ko‘rsatdi.</p>

	olib keldi (dadaizm, "syurealizm" va h.k.).	
<i>Lingvistika de Sossyur konsepsiysi</i>	Nazariy tilshunoslikning rivojiga olib keldi, semiotika, mantiq, (mantiqiy semantika) rivojlandi.	Strukturalizmning bevosa asosiga aylandi; neopozitivzm va postpozitivizmga ta'sir ko'rsatdi (lingvistik va mantiqiy falsafa).
<i>XX asr – umumiy hodisalar</i> <i>XX asrning birinchi yarmi.</i> Ilmiy kashfiyotlarni harbiy maqsadda qo'llanilishi (zaharlovchi moddalar, aeroplanelar va h.k.ni qo'llanilishi – Birinchi jahon urushi) <i>XX asrning ikkinchi yarmi.</i> Ilmiy kashfiyotlarni harbiy maqsadda qo'llanilishi (bosh-qariluvchi raketalar, atom bom-basi va b. – Ikkinchi jahon	<i>XX asr</i> Madaniyatdagi ssientik kayfiyatni so'ndirdi; bu esa o'z o'mnida inson ongi hodisasidagi va inson psixikasidagi irratsionallikka va ongsizlikka qiziqish ortdi. <i>XX asr</i> Madaniyatdagi ssientik munosabat susaya boshladi; mistikaning yangi to'lqini paydo bo'ldi. G'arb madaniyati uchun yangi noan'anaviy bo'lgan dinlarga murojaat qilishga olib keldi.	<i>XX asr</i> Irratsionalizmning, xususan Bergson va Shpenglerning "hayot falsafasi", Xaydegger va Yaspers ekzistensializmi rivojiga olib keldi. Irratsionallik xususan, Sartr va Kamyu ekzistensializmi g'oyalari va h.k. yanada kengroq rivojlandi; Sharq falsafasiga qiziqish ortdi.

<p>urushi); ishlab chiqarishning cheksiz rivoji natijasida kelib chiqqan ekologik krizis.</p>		
<p><i>XX asr – umuman fanda</i> Fanlar integratsiyasining kuchayishi</p>	<p>Qo'shimchalik tamoyilini umummetodologik tamoyilga aylanishiga olib keldi.</p>	<p><i>XX asr ikkinchi yarmi</i> Sinergetikaning paydo bo'lishga olib keldi, predmetlararo tadqiqotlar metodologiyasi ishlab chiqildi.</p>
<p><i>XX asr – Fizika va astronomiya</i> Dunyoning yangi manzarsi yaratildi (borovskiy-eynsh-teyncha); Yadro energiyasining ochilishi; To'ldiruvchilik tamoyili, noaniqlik tamoyili, antroplik tamoyili; “doppler effektining” kashf qilinishi va “galaktikaning torayishi va kengayishi”</p>	<p>Yadro energiyasiga ega bo'lindi, uni harbiy va tinchlik maqsadlarida qo'llanila boshlandi. Tabiat rivojidagi tarixiylik konsepsiysi tasdiqlandi; O'zgassivilizatsiyalarining izi mavjudligini teleskop yordamida qidirish ishlari boshlandi.</p>	<p>Borliqning uch miqyosiy darajalarini ajratilishiga olib keldi (mikrodunyo-makrodunyo-megadunyo); sistemalarning umumiylilik nazariyasini rivojiga ta'sir ko'r-satdi; subyekt va uning ongiga qiziqish ortdi, Koinotdagi insonning o'rni masalalari o'rganila boshlandi; kosmogoniya falsafasi ishlab chiqildi. “Kosmik tafakkur”ning rivojiga olib keldi va kosmizm ravnaq</p>

<p>hodisasi, “Ulkan port-lash” konsepsiyasining yaratilishi, raketa-sozlikning rivojlanishi.</p>		<p>topdi.</p>
<p><i>XX asr – Kimyo</i> Hayotning hamma sohalarida qo'llaniluvchi prinsipial yangi materiallar, shuningdek raketa yonilg'i-si yaratildi.</p>	<p>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi keskin ko'tarildi; Kosmonavtikaning yaratilishiga olib keldi.</p>	<p>Koinotda insonning o'rni va roli masalasini ko'ndalang qilib qo'yildi va rus kosmizmi rivojlandi.</p>
<p><i>XX asr – Biologiya</i> Genetika rivojlandi, DNK va RNK kashf qilindi, mutatsiyalar nazariyasi yaratildi.</p>	<p>Yer yuzida hamma narsaning qarindoshligi tasdiqlandi; klonlash-tirish imkoniyati yaratildi; Darvinning evolutsion nazariyasiga qo'shimchalar kiritildi.</p>	<p>Insonning ilohiy ke-lib chiqishi haqidagi konsepsiya o'zgartirishlar kiritildi.</p>
<p><i>XX asr – Tilshunoslik</i> Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik gipotezasi (tilning milliy mentallik bilan</p>	<p>Tarixiylik tamoyilini tasdiqlanishi sun'iy intellekt masalalari tadqiqotiga ta'sir ko'rsatdi.</p>	<p>Falsafa til masalalari ning rivojiga (femonenologiyaga, germenevtikaga, ruhiyat tahlili falsafasiga va postmodernizmga) ta'sir qildi</p>
<p>aloqasi va dunyo</p>		

manzarasi); Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning rivoji (komporativistika)		
<i>XX asr – Madaniyatshunoslik</i> Madaniyat rivoji haqidagi Shpengler konsepsiysi. Xeyzingning “madaniyat kelib chiqishining o‘yinlar nazariyasi”.	Madaniyatshunoslikning alohida mustaqil predmet shaklida paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatdi; Yevropa madaniyatiga xos bo‘lgan yevropamarkazchilikning engilishiga turki bo‘ldi; boshqa madaniyatlarga qiziqish ortdi. Madaniyatshunoslik, san’atshunoslik va tilshunoslikning rivojiga ta’sir ko‘rsatdi	Yevropa falsafasiga xos bo‘lgan yevropamarkazchilikni yengib o‘tishga yordam berdi; Sharq falsafasiga qiziqish ortdi. <i>XX asr asrning ikkinchi yarmi</i> Vitgenshteynning tilning o‘yinli nazariyasi shakllandi va umuman lingvistik falsafaga ta’sir ko‘rsatdi.
<i>XX asr – informatika</i> Kompyuterning yaratilishi.	Aqliy mehnat sharoiti sezilarli darajada o‘zgardi; ma’lumotlarni aloqasi, saqlanishi, qayta ishlash, tarqatish usullari qayta ko‘rib chiqildi.	Falsafada sun‘iy intellekt masalasini ko‘tardi; jon va aql aloqasi masalasi ko‘ndalang qilib qo‘yildi.

Tabiatshunoslik rivoji shunchalik ilgarilab ketdiki, mikro va makrodunyo jadal tadqiq etildi, koinot zabit etila boshlandi. Shu bilan birga, tabiatshunoslikning rivoji yangi-yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Bular ichida inson muammoosi, xususan, uning ichki dunyosi, borlig‘i, mohiyati va uning falsafiy tahlili kabi masalalar dolzarbligi bilan faylasuflar diqqat-e’tiborini jalb etdi (3-ilova).

Zamonaviy falsafaning asosiy tadqiqot obyektlari

<i>Falsafiy oqimlar</i>	<i>Asosiy tadqiqot obyektlari</i>
“Hayot falsafasi”; Kyerkegor falsafasi; Ekzistensializm; Falsafiy antropologiya	Yaxlit inson hayotining hamma ehtiroslari, kechinmalari, maqsadlari va ideallari.
Ruhiyat tahlili falsafasi; Poststrukturalizm; Postmodernizm	Insoniy psixika va undagi ongsizlik, (ratsional) onglilik bilan (irratsional) ongsizlik o‘rtasidagi munosabat.
Fenomenologiya; Mantiqiy pozitivizm; Lingvistik falsafa; Analitik falsafa; Strukturalizm; Germenevtika	Insoniy ong, uning til orqali namoyon bo‘lishi va tilning o‘zi hodisa sifatida
Klassik pozitivizm; Empiriokrititsizm; Pragmatizm; Neokantchilik	Insoniy tajriba (subyektivlik va intersubyektivlik) va ilmiy bilim metodologiyasi, uni asosiga tajribaning qo‘yilishi.
Marksizm	Insoniyatning umuminsoniy-tarixiy tajribasi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari


Ma’lumki, Gegel va uning Marks tomonidan qayta ishlangan ta’limoti XIX asr falsafiy tafakkuri rivojida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq bu ta’limot sovetlar davrida mutlaqlashtirildi, barcha fanlar va amaliyotning yagona metodologik asosi sifatida talqin qilindi. Falsafa tarixi materializm bilan idealizm o‘rtasidagi kurash deb qaraldi. Hodisalarни tushuntirishda sinfiylik, partiyaviylik, mafkuraviylik bosh mezon qilib olindi.

XIX-XX asr g‘arb falsafasi boshqa yo‘ldan ketdi. Bir tomonidan, falsafadagi borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an’anaviy masalalarga o‘zgartirish kiritib, ularni yangicha tahlil qildi.


Ikkinchidan, marksistik falsafaga o‘z munosabatini bildirib, bu falsafa yangi davrda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni izohlashga ojizlik qilayotganini ko‘rsatdi (4-ilova).

4-ilova

Zamonaviy g‘arb falsafasining g‘oyaviy manbalari



Zamonaviy g'arb falsafasi: xronologik chegaralar



O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov G'arb falsafasi haqida fikr yuritib: «misol uchun Z.Freydning nazoriy qarashlari, pragmatizm va ekzistensializm g'oyalari, N.Berdyayev va boshqalarning falsafasidan o'rgansak, foyدادан xoli bo'lmaydi.

Men g'arb falsafasida ham barcha muammolar yechilgan, demoqchi emasman. Biz ko'p masalalarda g'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilo-

hiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraklisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur»⁶⁴, - deb ta'kidlagan edi.

Uyg'onish davridan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda yanada ma'naviy yuksalish davom etdi. Bu davr falsafiy qarashlarida tabiat, jamiyat va insonga turli jihatdan falsafiy yondashishning o'ziga xos tamoyillari, ideallari va madaniy qadriyatlarini ishlab chiqilishi o'ziga xos holda nihoyasiga yetkazildi. Juda ko'pchilik adabiyotlar bu davr falsafiy yo'naliшlarini ham mumtoz falsafa deb ataladi. An'anaviy va noan'anaviy falsafaning farqi eng avvalo aql (intellekt) muammosida ko'rindi. Bu tasodifiy emas. Chunki aql muammosi yangi davr falsafasining markazida turadi. Yangi davr faylasuflari tafakkurni juda keng ma'noda tushunishgan va tabiat, jamiyat va insonning faoliyati ularga xos bo'lgan tafakkur bilan bog'langan. XIX-XX asrlar klassik falsafasida «individuallikdan tashqari ong» bilan bir qatorda «individuallikdan tashqari ong» sifatida amal qiluvchi inson ma'naviy madaniyati doirasidagi turli g'oyalar, tushunchalar, ideallar, normalar, qadriyatlar tahliliga va undan tashqaridagi ma'naviy faoliyat shakllari yordamida insonning dunyoni o'zlashtirishi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Xuddi shunday yondashuv «ilohiy» tafakkur haqidagi teologik, idealistik yo'naliшlarining qandaydir mutlaq ruh, oliv aqning dunyo taraqqiyotini boshqarishi haqidagi qarashlarning shakllanishiga asos bo'lgan.


Bu davrda fanning taraqqiyoti hamda aqning takomillashib borishiga ishonch hukmron bo'lgan. Shuning uchun klassik falsafada, nafaqat dunyo, bilish, uning usullari haqidagi, balki xudo, ishonch va diniy muammolar ham ratsionalistik ruhda talqin qilingan. Klassik falsafa namoyandalari bir butun borliq inson va uning umumiy mohiyati, jamiyat bilishning metodlari va uning umumahamiyatli tamoyillari, barcha davrlar va kishilar uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan axloq normalari va h.k.lar haqida munozara yuritishgan. Alohidalik, aniqlik haqidagi, masalan, alohida, muayyan kishilar, ularning erkinligi, huquqlari, fikrlari,

⁶⁴ Karimov I.A.Milliy istiqloj masfurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: O'zbekiston, 2000. 8-jild. -E.505-506.

Iztiroblari haqidagi masalalar, umuman inson, uning mohiyati haqidagi masalaga bo'yusundirilgan. Xullas, XIX asrning o'rtalarigacha ratsionalizm ruhi hukmron bo'lgan klassik va boshqa barcha falsafiy yo'nalishlarning belgilovchi xususiyatini tashkil etgan (6-ilova, 279-b.).

6-ilova

Nemis klassik falsafasi g'oyalarini zamonaviy falsafa tomonidan rivojlantirilishi



XIX asrning 40-50-yillaridan boshlab noklassik falsafiy yo'nalishlar yuzaga kela boshladi. Bu eng avvalo K.Marks va F.Engelsning falsafiy nazariyasidir. Ular klassik falsafaning

umumiyl ratsionalistik yo‘nalishini, uning fan va taraqqiyotga ishonch ruhini rivojlantirish bilan birga inson, bilish, jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi moddiyunchilik ruhidagi ateistik, utopik ta’limot yaratdilar.

Shu bilan birga bu davrda boshqa noklassik yo‘nalishlar ham paydo bo‘ldi. Ularga daniyalik S.Kyerkegor, nemis faylasuflari F.Nitsshe, O.Shpengler va boshqalar kiradi. XIX-XX asrlardagi klassik falsafani himoya qiluvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bularga XIX asrning 60-70-yillarida yuzaga kelgan neokantchilik, neogeigelchilik va neotomizm (Tomas - Foma Akvinskiyning lotincha transkripsiysi) kiradi.

Shu davr faylasuflari «metafizika»ning umumiyl, mavhum kategoriylariga qarama-qarshi yakka, real, muayyan tushunchalarni qo‘ydilar. Obyektiv dunyoning umumiyl qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», subyekt ongining hodisalarini tahlil qilishga o‘tdilar. Ular klassik falsafaning «haqiqat», «aql» kabi asosiy-fundamental tushunchalarini tanqid ostiga oldilar; falsafaning fan sifatida predmeti va vazifasini ham qaytadan ko‘rib chiqishni maqsad qilib qo‘ydilar. Umumiyl farovonlikka erishishda umumiyl ma‘rifiy axloq tamoyillariga qarshi alohida individning erkinligi, huquqi va g‘ururi haqidagi g‘oyalarini qo‘ydilar.

6.2. Neokantchilik

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda neokantchilik falsafasi namoyandalarining ong haqidagi ta’limotlariga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; neokantchilik falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy matnlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Neokantchilik, ongning dastlabki ma‘lumotlari, fiziologik yo‘nalish, Margburg maktabi, matematik tabiatshunoslik.

Asosiy savollar

1. Neokantchilikning vujudga kelishi, g'oyaviy manbalari va yo'nalishlari.

2. Ilk neokantchilik – O.Libman, Gelmgols, F.A.Lange ta'limotlari.

3. Neokantchilikning Marburg va Baden maktablari.


XIX asr o'rtaida Germaniyada o'ziga xos intellektual vaziyat vujudga keldi. Bunday vaziyat, bирinchidan, idealistik falsafiy tizimning buzilishi bilan, ikkinchidan, nazariy falsafaning rivojiga fizika, fiziologiya, meditsina kabi tabiiy-ilmiy fanlarning ta'siri kuchayib borayotganligi bilan bog'liq edi.

Germaniyada bu davrda kapitalistik munosabatlar rivoji yuqori cho'qqisiga yetib, ishlab chiqarish, harbiy texnika, xabar berish vositalari sohasida rivojlanish jadal sur'atlar bilan bormoqda edi. Albatta, bunday jarayon o'z vaqtida texnikaviy va tabiat fanlarining rivojini talab qilib qo'ymoqda edi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib G'arbning ko'pgina faylasuflari orasida Gegel falsafasi o'z ahamiyatini yo'qtgan edi. Shuning uchun ham bu olimlar uchun manba Kantning falsafasi bo'ldi (1-ilova).

Otto Libman (1840-1914 yy.) ilk bor «*Kantga qaytish!*» shiorini o'rta ga tashlagan faylasuf hisoblanadi. Uning fikricha, Kantning ta'limotini tiklash uning tarafdorlari fikrini qayta tiklash orqaligina mumkindir. Ana shu fikrni Libman o'zining «*Kant va epigonlar*» asarida rivojlantirdi (1865). Libman fikricha, Kant ta'limotining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, uning asosini «ong» tushunchasi tashkil etadi. Kant o'zining bilish sohasidagi tadqiqotlarini alohida individning yoki insoniyatning ongini tahlil qilishga qaratmagan, balki mavhum «ong» kategoriyasi ustida ishlagan. Demak, Libman fikricha, «ong» kategoriyasi dunyonи tushunishning birinchi sharti bo'lib, har qanday fan obyektining asosida yotadi. Ana shu ong dunyosi o'zining ichki - «immanent» shakllari orqali boshqariladi. Ya'ni kaleydoskop o'zining maydonidagi buyumlarni o'zida qanday aks ettirsa, ong ham butun borliqni o'z ichki qonuniyatlari orqali aks ettiradi.

Neokantchilik: xronologik chegaralar




Biroq Libmanning Kantdan farqi shundan iboratki, uningcha «narsa o'zida» hissiyotimizning obyektiv sababi emas, balki ongning ichki (immanent) g'oyasi bizning bilish dunyomizni o'ziga moslab tuzadi. Libman shunday fikr yuritadi: «Bahor guli mening ongim nuridan tashqari nima ham bo'lar edi? Hech nima!».

Libmanning keyingi ishlarida Kant falsafasining idealistik tomoni ko'proq rivojlantirildi. Kantning aprior tushuncha to'g'risidagi g'oyasi Libman qarashlarida kosmik, metakosmik mazmun oldi, dunyoning asosiy sababiga aylandi (2-ilova).

Libman Kantning falsafasiga qaytishni uning idealistik ontologiyasidan kelib chiqqan holda da'vat qilgan bo'lsa, ana shunday chaqiriq tabiatshunoslar tomonidan ham sodir bo'ldi. Bu asosan hissiyotning tashqi fiziologiyasi haqidagi ta'limotlarning rivoji orqali bo'ldi.

Neokantchilikning fiziologik maktabi:ong faoliyatining predmetlashishi

“Olma” – “predmeti” deganda – bizda qizillik, dumaloqlik, shirinlik hislarini chaqiradigan tuyg’ularni qabul qilamiz.



Mashhur fiziolog olim Iogann Myuller (1801-1858 yy.) tashqi hissiyotning o‘ziga xos energiyasi qonunini kashf qildi. Mazkur qonun bo‘yicha, hissiyot – bu narsalarning yoki tanalarning tashqi holatini, sifatini ongga yetkazuvchi mexanizm emas, balki hissiyot – bu tashqi sabablar ta’sir natijasida bizning asablarimiz orqali ongga boruvchi sifatlardir. Ana shu Myuller tomonidan kashf qilingan qonun XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlantirilib keng tarqaldi. Myuller qonuniga binoan, bir xil tashqi ta’sirlantiruvchilar ko‘zning to‘rsimon qobig‘iga ta’sir etib, nur (yorig‘lik) sifatida qabul qilinadi, terida esa issiqqlik hissiyotini uyg‘otadi. Va aksincha, turli ta’sirlantiruvchilar bir xil hissiyot uyg‘otishi mumkin. Xuddi ana shu kuzatish va umumlashtirish tabiatshunoslar o‘rtasida Kant bilish nazariyasining subyektiv-idealistik tomoniga katta qiziqish uyg‘otdi. Demak, ular bundan xato xulosa chiqardilar, ya’ni bizning hissiyotimiz, tajribamiz faqat bizning tuzilishimiz mahsulidir. Bizning ichki holatimiz tashqi ta’sirlantiruvchilar natijasida namoyon bo‘lishi mumkin,

lekin tashqi olam obyektlarining haqiqiy tabiatini haqida hech qanday ma'lumot bermaydi.

Neokantchilikning fiziologik idealizmi

Bu gnoseologik xulosa Kantning bilish nazariyasining fiziologik talqini asosida qabul qilindi. Buni yanada aniqroq qilib ko'r-satgan mashhur fiziolog Maks Fervorn bo'ldi. Uning fikricha, tashqi dunyo «aslida bizning sezgi a'zolarimiz orqali qabul qilinmaydi, ya'ni hissiyotimiz orqali dunyonи adekvat bila olmaymiz».

German Gelmgols (1821-1894 yy.). Neokantchilik harakatining vujudga kelishida alohida o'rin tutgan buyuk nemis fiziologi va fizigi German Gelmgols bo'ldi.

Biroq Gelmgolsning falsafaga qiziqishi katta edi. Tabiatshunos olim sifatida shug'ullangan muammolari uning e'tiborini bilish nazariyasiga qaratdi. Bu hissiyotning fiziologik sohasidagi tajribaviy tadqiqotlar, geometrik aksiomalarining tabiatini masalasi va noevklid geometriya fizikaning asoslari masalasi edi. Kantning tanqidiy falsafasini u fiziologik talqin qildi.

Ana shu tadqiqotlarda Gelmgols bizning tushunchalarimizning obyektlarga qanchalik mos tushishi masalasiga e'tiborini qaratdi. Lekin Gelmgolsning qarashlarida qarama-qarshiliklar mavjud edi. U, bir tomondan, fikrning «aprior qonuni»ni tan oladi va, ikkinchi tomondan, makon va zamonning «transsendent realligi»ni tan oladi. Bizning hissiyotimiz mazmuni tashqi predmetlarning ta'siriga bog'liq, boshqa tomondan, bu ta'sir faqat «belgilar» yoki «timsollar»dir. Bir vaqtning o'zida u ham agnostitsizmni, ham materializmni rivojlantirdi. Agnostik sifatida u hissiyotni tashqi hodisalarining belgisi sifatida qaraydi va shu orqali nafaqat o'xshashlikni, balki narsalar bilan bir xilligini ham inkor qiladi. Va shu yerning o'zida materialist sifatida u tushunchalar tashqi predmetlarning bizning asab tizimimizga ta'siri natijasida vujudga keladi, deydi.

Shunday qilib, Gelmgols g'oyani borliqdan, ongni tabiatdan ajratib qo'yadi, g'oya va u aks ettirayotgan obyekt ikki har xil

dunyoga tegishli, deydi. Kantga o‘xshab «hodisalar» bilan «narsa o‘zida»ni bir-biridan ajratib qo‘yadi.

Ana shu qarashni Gelmgols 1878-yilda o‘zining «Idrok faktlari» nomli mashhur ma’ruzasida asoslaydi. Gelmgols ta’kidlashicha, bizning hissiyotimiz tashqi ta’sirning xususiyatlari haqida xabar beradi. Hissiyot esa belgi hisoblanadi, lekin tasvir emas. Tasvirdan ma’lum ma’noda predmet bilan o‘xshashlik talab qilinadi. Belgidan esa predmet bilan bunday o‘xshashlik talab qilinmaydi. Shunday qilib, Gelmgols predmet bilan uni his qiluvchi subyekt tasavvurining o‘xshashligi haqida gnoseologik masalani o‘rtaga tashladi va uni salbiy hal qildi. Uning bunday qarashining mohiyati shundaki, har bir predmetning o‘zgarishi hissiyotda ham o‘zgarishga olib keladi.

Shunday qilib, Gelmgols Kantning tanqidiy falsafasini ayrim tomonlarini rivojlantirdi. Bilish nazariyasida esa taddiqot, tajriba o‘tkazish masalasida va matematik aksiomalarining tabiatini haqidagi masalalar bo‘yicha o‘zining mustaqil qarashlariga ega edi.

F.A.Lange va neokantchilikning fiziologik yo‘nalishi

Fridrix Albert Lange (1828-1875yy.) neokantchilikning rivojida muhim rol o‘ynadi. Lange Kantning hamma ta’limotini to‘lig‘icha qaytarmay, ayrim masalalarda uning chegarasidan chiqib ketdi.

Uning asosiy asari «Materializm tarixi va uning tanqidining hozirgi davrdagi ahamiyati» (1866). Bu asarda Lange o‘zining falsafiy qarashlarini bayon qilgan.

Bu nuqtayi nazar jangovor idealizmdan iboratdir. U Kant ta’limoti ahamiyatini cheklab ko‘rsatadi, ya’ni Lange fikricha, bizning tushunchamiz predmetlar bilan ifodalananmaydi, balki predmetlar bizning tushunchamizni ifodalaydi. «Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tajriba predmeti – faqat hodisadir, hech qanday «narsa o‘zida» emas.

Kant bu fikrini aqlni aprior sintetik mulohaza yuritish qobiliyatidan kelib chiqqan holda isbotlashga harakat qilgan. Lange esa bu masalada yangi nuqtayi nazarni ilgari surdi. Lange yozadi:

«bizning hamma tajribamiz ruhiy tuzilishimiz bilan asoslanadi, qanday his qilsak, shunday his qilishimizga, qanday o'ylasak shunday o'ylashimizga majbur qiladi, boshqacha tuzilishda esa xuddi o'sha predmetlar butunlay o'zgacha tasavvur qilinadi. Narsa o'zida esa hech qanday mavjudot tomonidan tasavvur qilinmaydi».

Shu nuqtayi nazardan Lange Kantning kategoriyalar to‘g‘risidagi ta’limotiga o‘zgartishlar kiritdi. Demak, kategoriyalar so‘aqlning mahsuli emas, balki bizning fiziologik, ruhiy tuzilishimizga bog‘liq va har qanday tajribadan tashqaridir. Shu ma’noda aprior holatlar zaruratdir va har qanday tajribadan tashqaridadir va insonning tuzilishiga bog‘liqdir.

Shundan kelib chiqqan holda, Lange metafizikanı inkor qilib pozitivismga yaqinlashadi. U pozitivistlar kabi «metafizikanı» inkor qilib, empirizmni tashviq qiladi va materializmni ham inkor qiladi. Lange uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa moddiylikdan tozalangan «tajriba»dir.

Zero, aprior kategoriyalarning yagona manbai bizning tuzilishimizga bog‘liq ekan, tajribadan tashqari ular o‘zining ahamiyatini butunlay yo‘qotadi. Shuning uchun ham biz hodisalar dunyosida turib, «narsa o‘zida» haqidagi xulosaga kela olmaymiz «Narsa o‘zida» hodisalarining narigi dunyosida turuvchi transsendent sababdir. «Narsa o‘zida» – faqat «chegara tushunchasidir».

Langening ta’limoti mantiqan mifologizmga borib taqaladi. Langening gnoseologik pozitsiyasi materializmga bo‘lgan munosabati bilan asoslanadi. Materializmni mexanik dunyoqarash sifatida talqin qilib, Lange tabiat haqidagi yangi fanlarni zarurat sifatida ko‘radi. Lekin bir vaqtning o‘zida materializmning falsafiy dunyoqarash ekanligini tan olmaydi. Lange fikricha, materializm faqat «hodisalar materializmi» sifatida mumkin, lekin falsafiy dunyoqarash sifatida butunlay mumkin emas.

Ijtimoiy hayot to‘g‘risidagi fikrlarini Lange o‘zining «Ishchi masala» (1865) nomli asarida bayon qiladi. Bu qarashlarida Lange darvinizm va maltuschilar ta’limotini rivojlantiradi. Lange butun dunyo tarixiy jarayonini sxematik tarzda aks ettiradi. Butun tarix, Lange fikricha, Darvinnинг «yashash uchun kurash» qonunidan

iborat. Uning mazmuni esa Maltusning «Yer yuzida insoniyatning ko‘payib ketishi» qonunida aks etganligini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, Lange falsafaga mifologik-irratsional elementlarni kiritadi. Bu bilan u «ratsional» kantchilikning irratsionalizmdan uzoqda emasligini ko‘rsatadi.

Neokantchilikning Marburg maktabi

German Kogen (1842-1918 yy.) – neokantchilikning Margburg maktabi asoschisi va rahbari. U Margburg shahri universitetida o‘qituvchilik faoliyatini boshlaganligi uchun ham bu maktab falsafiy adabiyotlarda shunday deb ataladi. U 1875-yil F.A.Lange vafotidan so‘ng falsafa kafedrasini mudiri lavozimini egallaydi. 1912-yilda Kogen istefoga chiqadi, Berlinga keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashaydi (3-ilova).

Margburg maktab vakillari Kogen va uning izdoshlari Kantning bilish nazariyasidagi ayrim g‘oyalardan yangi falsafiy tizimning asoslarini yaratishga harakat qildilar.

Kogen o‘zining ilmiy faoliyatini Kantning asosiy risolalarini talqin qilishdan boshlaydi.

1871-yilda «Kantning tajriba nazariyasi»;

1877-yilda «Kant axloqini asoslash»;

1883-yilda «Cheksiz zarralar tamoyili»;


1889-yilda «Kant estetikasini asoslash»;

1904-yilda «Immanuil Kant»;

1907-yilda «Sof aqlini tanqidiga sharhlar» asarlarini chop ettirdi.

Kogen faoliyatining ikkinchi davri uning shaxsiy falsafiy ta’limotini yaratish bilan bog‘liq. Aynan ana shu ta’limot neokantchilikning Margburg maktabi falsafasini tashkil qiladi. Shu davrda yaratilgan asarlarida Kogenga nafaqat Kant, Maymon va Fixtening ta’siri, balki Gegelning ham ta’siri sezilib turadi. «Sof bilish mantig‘i» (1902), «Sof hissiyot estetikasi» (1912) kabi asarlarda Kogen qarashlari kantchilarning qarashlaridan ko‘p jihatdan farq qiladi.

Kant va Marburg maktabi: transsensual mohiyat (ya'ni ongdan tashqarida joylashgan)



Kant falsafasini o'rGANAR ekan, Kogen undagi dualizmni olib tashlashga harakat qildi. Shu bilan bir qatorda, Kogen Kantning bilish jarayonida hissiyotning ahamiyati to'g'risidagi fikrlarini ham olib tashlaydi. Idealizm mantiqiylik nuqtayi nazaridan gnoseologik ta'lilot sifatida talqin qilinadi.

Bunday talqinni Kogen matematika va tabiatshunoslikni «transsensual» asoslash deb ataydi. Kogen fikricha, falsafa ongning borliqqa munosabati masalasidan emas, balki matematika, tabiiyatshunoslik, axloq kabi fanlarning tushunchalarini mantiqiy asoslash masalasidan kelib chiqishi zarur. Shuning uchun ham falsafaning birinchi va asosiy fani bu mantiqdir, aniqrog'i «sof bilishning mantig'idir». Uning maqsadi «falsafiy tizimni asoslashdan iboratdir». Falsafa nafaqat uslubiy jihatdan ilmiy bo'lishi kerak, balki predmeti jihatidan fan falsafasi bo'lishi kerak.

Kogen falsafiy ta'lilotida Kantning hissiy bilish to'g'risidagi fikrlari butunlay o'zgartirildi. Kant uchun makon va zamon hissiyot shakllari edi. Kogen uchun esa bunday bo'lishi mumkin

emas. Kant uchun makon va zamon 2 xususiyatga ega, ya’ni ular ham hissiyot olamiga, ham aprior bilish apparatiga tegishlidir. Bu tarning intuitiv, mushohadaviy xususiyati, aqliy bilish mantig‘iga, tushunchalar, kategoriyalarga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Kogen bo‘lsa, Kantga nisbatan bilishning hamma shakllarini idealizm asosida birlashtirishga harakat qildi. Bu vazifani bajarish uchun Kogen hissiyot bilan aql o‘rtasidagi farqni silliqlaydi. Kantning «narsa o‘zida»ni hissiyotga ta’siri to‘g‘risidagi doktrinasidan voz kechadi. Borliq Kogen uchun kategoriya orqali anglanadigan borliqdir.

Kogen nuqtayi nazaricha, falsafa «sof bilimning mantiqi» yoki fan falsafasidir. Agar Kant uchun makon va zamon – hissiyot shakllari bo‘lsa, Kogen uchun tushunchalar (kategoriyalar) edi. Bilim mavzusi «predmet» emas, balki predmet haqida tushunchadir. Shuning uchun u qandaydir obyektiv mavjud narsa bo‘lmadan, balki aprior qonunlar, tushunchalar va tafakkur shakllariga muvofiq bir qator omillarning tushunchaviy tahlili orqali aniqlanadigan narsadir.

Kogen idealizmi bilish nazariyasidan tashqari, tajribani va borliqni ham o‘z ichiga oladi. «Ong – transsensual nuqtayi nazardan o‘ylanadigan qonunning birinchi shakligina emas, balki uslublar yig‘indisi hamdir, jumladan, ilmiy tajriba va uning mazmuni hamdir».

Tajriba ilmiy bo‘lishi uchun turli mazmuniarni bir qonunga birlashtiruvchi qoidaga aylanishi kerak. Ana shu qonunlar va qoidalar yuqoridagi asoslardan kelib chiqishi lozim. Bu yerda Kogen birlik faqat ongda bo‘lishini ta’kidlaydi. Moddiylikda hech qachon birlik bo‘lмаган. Shuning uchun ham bilish predmeti «narsa» emas, balki predmet haqidagi tushunchadir. Borliq o‘zidan o‘zi kelib chiqmaydi, balki u dastlab fikrda paydo bo‘ladi. Agar fikr «birlamchi fikr» bo‘lsa, unda buni bilish – bilishning ibtidosini fikrdan qidirishni anglatadi. Shunday qilib, fikr faqat o‘zidagina, uning dastlabki fikrida mavjuddir. Ana shu dastlabki fikr butun borliqning ham asosi, ham boshlang‘ichidir.

G.Kogen – matematik tabiatshunoslik haqida

Cheksiz bilish jarayonida va borliqni yaratilishida Kogenning ideali – bu matematik bilishdir. Yangi tabiatshunoslik – matematik tabiatshunoslikdir va bu jarayon Kant davridan boshlangan edi.

Kogenda matematika fanlarning ideali ekanligi alohida ma’no kasb etadi. Shu jihatdan, Kogen matematika haqidagi ta’limotida markaziy o’rinni cheksiz zarrachalar to‘g’risidagi tushunchalar egallaydi. Matematikaning asosiy uslubi esa cheksiz zarrachalarni hisoblash uslubidir.

Mavjud narsaning ibtidosi hissiy qabul qilinadigan narsa bo‘lmasdan, balki fikriy ekanligi dalilini Kogen matematikadagi cheksiz kichik son tushunchasida ko‘radi. Mavjud narsaning asliy asoslarini (atomlar, molekulalar, efir, elektr energiyasi, magnetizm va hokazo) hissiy qabul qilinmaydigan narsalar tashkil etadi va fizika ularni *cheksiz kichik sonlar* vositasida tushuntiradi. Cheksiz kichik son orqali ashyo o‘ziga voqeylekni kasb etadi. Kogenning cheksiz *kichik son* haqidagi ta’limoti pifagorchilik g‘oyalariga asoslangan edi.

Kogen fikricha, fan haqiqatan buni isbotlaydi. Hamma moddalardagi sodir bo‘layotgan hodisalarini modda hodisasi sifatida fizika cheksiz zarrachalar harakatidan tushuntiradi, ya’ni hissiyot tomonidan qabul qilinmaydigan atomlar va molekulalarning tanalarini, shuningdek, vaznsiz esfirning to‘lqinsimon harakatini ham hissiyot tomonidan bilib bo‘lmaydi. Cheksiz zarrachalar tushunchasi borligi tufayli bu narsalar bizga ravshanlashadi, ya’ni fiziklar «materiya»si – his qilinmaydigan haqiqiylikdir, «...materia faqat gipoteza» «o‘z diqqat-e’tiboriga hissiyotni oladi, lekin uni hissiyotning shuuri ruhiy olami asosida tushuntirmaydi, balki matematika uslublari orqali tushuntiradi; hissiyotning shuurini matematika uslublari to‘g’rilaydi».

O‘z navbatida reallikning haqiqiy kategoriyasi – nafaqat matematikada, fizikada ham cheksiz zarrachalar tushunchasidir. Hamma fizik jarayonlarning boshlang‘ichi cheksiz zarrachalar harakati birligidan iboratdir. Cheksiz zarrachalar tushunchasisiz tabiat qonunini na asoslab, na tushuntirib bo‘ladi, fizik nazariya

ham, harakat ham bo'lmaydi. Vaholanki, harakat bu uzluksizlikdir, uzluksizlik esa makon va zamondagi cheksiz zarrachalar ning benihoya ko'pligini talab qiladi.

Hattoki, hissiyotning mazmuni ham, Kogen fikricha, fikrdan, ya'ni – matematik birlidjan iborat. Predmet ham o'zining realligini faqat son orqali ifodalaydi. Son bu fundamentdir. «Real predmetlar o'zining metodologik asosini matematika fanidan, ya'ni sondan topadi». Shuning uchun ham cheksiz zarrachalar tushunchasi ilk asos ahamiyatiga egadir.

Shunday qilib, Kogenning falsafiy qarashlarida pifagorchilik qayta tug'ilди. Lekin qadimgi pifagorchilikda sonlar ruhiy xususiyatga ega bo'lsa, Kogen tizimida esa, son – bu kategoriya, tushuncha. Pifagor ta'limotida sonlar borliqning asosini tashkil etadi, lekin bu sonlarni Pifagor tirik, ruhiy mavjudotlar sifatida tushungan. Kogenning son to'g'risidagi ta'limoti esa relyativistik funksionalizm ko'rinishini oldi. Uning fikricha, barcha tushunchalar nisbiy xususiyatga egadir. Fan taraqqiy ejaveradi va bu jarayonda fan tushunchalarining yangi xususiyatlari ochilaveradi. Shuning uchun ham fanning o'zgarmas asoslari haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Margburg maktabining axloqiy qarashlari

Kogen huquq va davlat haqidagi ta'limotga qaratilgan *sof iroda* axloqiga katta ahamiyat beradi.

Kogen uchun axloq – falsafiy fandir. Uning fikricha, «sof bilish mantig'i» matematikaga asoslansa, «sof axloq irodasi» huquq, davlat haqidagi ta'limotga asoslanadi. Kogenning axloqiy qarashlari «axloqiy sotsializm» ta'limotida namoyon bo'ladi. Axloqiy sotsializmnинг o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu jamiyatning «abadiy» harakatidir, lekin u amalga oshmaydi, ya'ni sotsialistik idealga erishish aslo mumkin emas.

Kogen axloq tushunchasini huquq tushunchasi orqali ochib beradi. Huquq sohasida esa davlatning ahamiyati mutlaqlashtiladi. Kogen uchun davlat – bu madaniyatning axloqiy tushunchasidir, «tarixiy taraqqiyot maqsadidir».

Shunday qilib, Kogen fikricha, sotsializm tushuncha bo‘lib, u hech qachon «predmet» bo‘la olmaydi. Xuddi shunday bilish predmetining fikriy, tarkibiy qurilish jarayoni ham cheksiz bo‘lib, hech qachon tugallanishi mumkin emas, sotsializm tomon bo‘ladigan harakat ham orzu sifatida «abadiy»dir. Ana shu ijtimoiy harakatning maqsadi uslubdir. «Harakat hamma narsa, maqsad – hech narsa» dir, deydi Kogen.

Paul Natorp (1854-1924 yy.) – neokantchilikning yirik namoyandasasi. Uning asarlari falsafa tarixi, mantiq, psixologiya va ijtimoiy pedagogika sohalariga tegishlidir. «Qadimgi davrda bilish masalasi tarixiga oid tadqiqotlar. Protagor, Demokrit, Epikur va Skepsis» (1884), «Demokrit etikasi» (1893), «Aflatun davlati va ijtimoiy pedagogika g‘oyasi» (1898), «G‘oyalar to‘g‘risidagi Aflatun ta‘limoti» (1903), «Dekartning bilish nazariyasi» (1882); mantiq bo‘yicha «Aniq fanlarning mantiqiy asosi» (1910) «Taqidiy uslub sifatida umumiy psixologiya» (1912), «Ijtimoiy pedagogika» (1899) shular jumlasidandir.

Natorp falsafaning uslubiy vazifasiningina tan olar ekan, u o‘z falsafasini «panmetodizm» deb ataydi. Kogenga ergashib Natorp ham fikr uchun hech qanday borliq yo‘qliki, uni o‘zini «fikrga qo‘yish» mumkin bo‘lmasin, deb hisobladi. Birinchi ibtido mantiqiy bo‘lib, «ifoda borlig‘i»dir. Fikrlash sezgida berilgan xilma-xil ma’lumotlarni yagonalik tartibiga keltiruvchi ikkilamchi bilim omilidir. Marburg maktabi asoschisi kabi Natorp ham mantiqiy-gnoseologik idealizmni asoslash uchun matematika va cheksiz kichik son tushunchasini jalg‘ etadi.

Nazariy falsafa, Natorp fikricha, «transsensual» mantiqdir. Lekin bilish mantiqdan boshlanmaydi. Mantiq aniq fanlar birligi va xilma-xilligining aprior shartidir. Masalan, matematika «sof tafakkurning» aprior shakllariga asoslanadi. Shunday qilib, Natorp fikricha, aniq fanlar funksional munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi. Demak, Natorp uchun son tushunchasi, jumladan, matematik operatsiyalar munosabatlar va funksional bog‘liqliklarga borib taqaladi. U matematikani idealistik tarzda talqin qiladi. Aniq fanlarning mantiqiy asoslarini tahlil qilib, Natorp matematika, mantiq fanlarining obyektiv materialistik talqinlariga qarshi chiqadi.

Keyinchalik Natorpdan Kant ta'limotidan uzoqlashish va Gegel g'oyalarini o'zlashtirish tamoyili ko'rindi. Masalan, Natorp «muvofig kelish qonuni» ni ifodalab unda mantiqiy rivojlanishni Gegearning inkorni inkor qoidasi orqali: *fikr-borliq-bilim* vositasida tushuntirib beradi.

Ernst Kassirer (1874-1945 yy.) – neokantchilarning yana bir vakili. Uning asosiy asarlari «Substansiya va funksiya haqida tushuncha» (1910), 4 jiddlik «Yangi davr falsafasi va fanida bilish masalasi» (1906-1920), «Simvolik shakllar falsafasi» (1923-1929) kabilardir.

E.Kassirerning falsafiy asarlarida tarixiylik, mantiqiylik, gnoseologik masalalar ko'tarilgan.

U matematika va tabiatshunoslik tushunchalarining tarixiga murojaat qilar ekan, mantiqiy narsa hissiy va tajribaviy narsadan oldin kelishini isbotlashga urinadi. Fan tushunchasi bu voqeylekning in'ikosi bo'lmay, balki «kusuli» dirki, uning yordamida «berilgan narsa» aprior ravishda tuzilgan munosbatlar va vazifalar «qatori»ga borib taqaladi. Keyinchalik Kassirer til, afsona, san'at, fan va din shakllariga «oxirgi, birlamchi voqeylek qatlami»ga kelib uriluvchi «ramziy shakllar» sifatida murojaat qilib yangi kantchilikning an'ana muammosidan uzoqlashadi.

Umuman, Kassirer o'zining falsafiy qarashlarida safdoshlari fikrlariga tayanib, neokantchilik yo'nalishiming rivojiga o'zining ma'lum hissasini qo'shdi. Kassirer estetik qarashlari AQSH da 1950-60-yillarda rivoj topadi.

Vilhelm Vindelband (1848-1915yy.) – Baden maktabining asoschisi. Vindelband falsafani umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar» haqidagi ta'limot sifatida ifodalaydi. Aynan qadriyatlar inson faoliyatini tabiiy jarayonlardan farqlaydi. Qadriyatlar tarixiy jarayonda madaniy hodisalar sifatida mujassamlanadilar va idrok qilinadilar. Shuning uchun falsafada tarix fanlarining uslubiy asoslarini aniqlash muhimdir. Vindelband ilmiy bilimlarni ularning mavzusiga ko'ra, tabiat haqidagi va «ruh» haqidagi fanlarga bo'lishdan voz kechdi. Fanlar o'rtasidagi asosiy farq mavzu sohasida emas, balki ularning uslublarida yashiringandir. Baden maktabining ushbu asosiy qoidasini Vindelband o'zining

«Tarix va tabiatshunoslik» deb nomlangan dasturiy nutqida quyidagicha ifodaladi: «Tajribaga asoslangan fanlar voqeysunyon bilishni goh tabiat qonuni shaklida keluvchi umumiyyadan, yoki tarixiy sharoit bilan cheklangan «birlikdan» qidiradilar. Ularning ba’zilari – qonunlar haqidagi fanlar mohiyati bo’lsa, boshqalari – voqealar haqidagi fanlardir, ularning birinchilari hamma vaqt bo’ladigan narsalardan ta’lim bersa, oxirgilar – bir marta ro’y bergen voqeadean hikoya qiladi. Birinchi holatda ilmiy tafakkur nomotetik fikr bo’lsa, ikkinchisi – *ideografik fikrdir*⁶⁵. Nomotetik fanlar qonunni taqozo qilinadiganlar sifatida kelib chiqsa, ideografik – alohida olingan xususiy holatni tasvirlovchi sifatida kelib chiqadi: birinchilari xususiydan umumiyyga o’tishga intilsa, ikkinchilari – xususiyda to’xtab qoladi. Vindelband fikricha, ideografik usul qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kungacha nazar-pisand qilinmay kelindi, holbuki, alohida olingan shaxsnинг ham, jamiyatning ham hayotiy voqealari faqat ularning yagonaligi va bir martaligi bilangina ahamiyatga va qadriyatga egadir.

Genrix Rikkert (1863-1936 yy.) – Baden maktabining yana bir vakili. U Vindelband qarashlarini rivojlantirib tabiatshunoslik usulini «umumlashtiruvchi», tarixiy bilish usulini esa «yagonalashtiruvchi», deb atadi. Ushbu farq voqeylek elementlarining (umumiyy va xususiy) bu fanlar orqali o’rganilishi uchun tanlab olingan qoidalardan va turli vazifalardan kelib chiqadi. Bu yerda shuni qayd etish lozimki, farq bu fanlarning obyektiv mazmuni taqozosidan emas, balki «istakdagи tabiatshunoslik» va «xohlovchi tarix» irodasidan kelib chiqqan. Baden maktabining asoschisi kabi Rikkert umumiyyning obyektiv mavjudligini inkor qilib, nominalizm nuqtayi nazarida turadi. Umumiyligi faqat tushunchalar mohiyatidir. Natijada Rikkert shunday xulosaga keladiki, tabiatshunoslik fan sifatida tushunchalar bilan ish ko’rsa, tarix esa voqeylek bilin ish ko’radi.

Tarixchi voqeylekni tahqiq qilib, «ikkinchi darajali narsa»dan «ahamiyatl» yoki «mohiyatili» jihatini alohida ajratib ko’rsatadi. «Mohiyatiy» yoki «ahamiyatga ega» bo’lgan narsa qadriyatli

⁶⁵ В.Виндельбанд. Прелодии. Сп(6), 1904, –Б.320.

demakdir. Qadriyatlar borliq bilan bir qatorda mavjuddir. Dunyo, deydi Rikkert, «voqeylek va qadriyatlardan tarkib topgandir»⁶⁶. Qadriyatlarni subyektga bog'liq bo'lgan baholash bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Qadriyatlar munosabatlар bilan bog'liq bo'lmasdan «subyekdan yuqori turuvchi» va «borliqdan yuqori» («transsendent») bo'lgan xususiyatga ega; bu «subyekt va obyektning orqa tomonida joylashgan butunlay mustaqil sultanatdir». Rikkert ma'naviy hayotning olti doirasi bo'lgan mantiq, estetika, mistika, axloq, erotika va dinga muvofiq keluvchi qadriyatlarning olti xilini (haqiqat, go'zallik, shaxsiyatdan yuqori turuvchi muqaddaslik, axloqiylik, baxt-saodat va shaxsiy muqaddaslik) ajratib ko'rsatadi.

Shunday qilib, neokantchilik falsafasi aniq fanlarning falsafiy asosini yaratishda o'ziga xos rol o'ynadi va keyingi, XX asr o'rtalarida falsafiy fikr taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shdi (4-ilova).

4-ilova

Germaniyadagi neokantchilik: asosiy oqimlar



⁶⁶ Г.Риккерт. О понятии философии. М.:«Логос», 1910. –Б.33.

6.3. Pozitivizmni vujudga kelishi va yo‘nalishlari

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda pozitivism falsafasi, uning asosiy yo‘nalishlari; fan va falsafa rivojida pozitivism g‘oyalarining ahamiyati haqida atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; pozitivism falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Pozitivism, neopozitivism, postpozitivism, pozitivlik, bilishning uch davri, fanlarning pozitivistik tasnifi.

Asosiy savollar:

1. Pozitivism rivojining asosiy bosqichlari.
2. O.Kontning pozitivistik falsafasi.
3. J.Millva G.Spenser pozitivizmi.
4. Neopozitivism va postpozitivism.

Pozitivism – g‘arb falsafasida juda keng tarqalgan yo‘nalish. XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan asos solingan. Demak, pozitivism dastlab Fransiyada, so‘ngra Angliyada va G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida rivojlandi.

Kontning birlamchi talqinida falsafa har qanday birinchi sababni qidirishdan, substansional va hissiyotdan tashqari mohiyatni qidirishdan voz kechishi shart. Ana shu izlanishlarni pozitivistlar keraksiz «metafizika» sifatida inkor etib, unga qarshi «xijobiy» bilimlar tizimini yaratishga intiladilar. Ular har qanday falsafiy spekulatsiyaga qarama-qarshi, munozarasiz va aniq dalillarga asoslanadigan bilimlarni targ‘ib qildilar. Ana shunday bilimni tizimga keltirishni O.Kont o‘z falsafasining asosiy vazifasi deb bildi.

Pozitivizm tarixi 3 davrga bo'linadi:

Birinchi davr – bu O.Kont, E.Littre, E.Renan, Roberti (Frangiyunda), D.S.Mill, G.Spenser, J.Lutis (Angliyada), Yu.Oxorovich (Polshada), G.Virubov, V.Lesovich, N.Mixaylovskiy (Rossiyada), K.Kattaneo, D.Ferrari, R.Ardigo (Italiyada) kabilarning ijod etgan davri.

Ikkinci davr – mexanizm va empiriokrititsizm davri deb ataladi.

Uchinchisi neopozitivizm va postpozitivizm davriga bo'linadi (1-ilova).

1-ilova

Pozitivizm: rivojlanish bosqichlari

<i>Davrlar</i>	<i>Xronologik chegaralar</i>	<i>Faylasuflar</i>
Birinchi – klassik davr	1830-yillardan – XIX asr oxirigacha	O.Kont, J.S.Mill, G.Spenser
Ikkinci – empiriokrititsizm yoki maxizm	XIX asr oxiri – XX asr boshi	E.Max R.Avenarius
Uchinchi – neopozitivizm yoki mantiqiy pozitivizm	1920-yillardan - 1950/1960-yillargacha	L.Vitgenshteyn, B.Rassel, M.Shlik, R.Karnap, F.Frank, U. Van O.Kuayn
Postpozitivizm – lingvistik falsafa, analitik falsafa	1960/1970-yillardan – hozirga qadar	K.Popper, K.Kun, I. Lakatos, P.Feyerabend

Davrlarga bo'lish asosan falsafaning asosiy masalasini qanday talqin qilinishiga qarab bo'lingan.

Pozitivizm dasturi o'zining yarim asrlik evolutsiyasida quyidagicha izohlanishi mumkin:

1. Bilish dunyoqarash va qadriyat sifatida har qanday falsafiy talqindan ozod bo'lishi kerak.

2. Hamma «an'anaviy», ilgarigi falsafa, ya'ni «metafizika», dogmatik ta'limotlar bevosita aniq, maxsus fanlar bilan almash-

tirilishi shart; (fanning o'zi – «falsafa») bilimlar tizimiga umumiy sharh berish yoki fanlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq etish va ularning tilini o'rghanish bilan qanoatlanishi lozim.

3. Falsafada «metafizika» ni yengish uchun o'rtacha yo'l tutish kerak, ya'ni materializm bilan idealizm o'zaro kurashidan, qarama-qarshiligidan yuqoriroqda turuvchi «uchinchchi» yo'lni, «neytral» betaraflik yo'lini topish kerak.

«*Pozitivism*» tushunchasini O.Kont quyidagi ma'noda ifodalagan:

Birinchidan, yolg'onchilikka qarshi haqqoniylig; ikkinchidan, keraksizlikka qarshi foydalilik; uchinchidan, shubhaga qarshi ishonchlilik; to'rtinchidan, noaniqlikka, mavhumlikka qarshi anqlik; beshinchidan, salbiylikka qarshi ijobiylilik va nihoyat oltinchiidan, buzg'unchilikka qarshi tuzuvchanlik ma'nolarida ishlataliadi.

Ogyust Kont (1798-1857 yy.) – pozitivismning asoschilaridan biri. U Monpel shahrida tug'ilgan, Parijdagi oliy politexnika maktabida o'qigan. O.Kont matematika, astronomiya va fizika fanlari bilan chuqur shug'ullangan. 1818-1824-yillarda Sen-Simonning shaxsiy kotibi bo'lib ishlagan. Kont ta'limoti fransuz ma'rifatparvarligi an'analari keng tarqalayotgan bir davrda shakllangan.

O.Kontning asosiy asari «*Pozitiv falsafa kursi*» deb nomlanadi (1830-1846-yillarda nashr qilingan). Yana boshqa mashhur asari «*Pozitivismning umumiy obrazi*» (1912-yilda nashr qilingan).

1848-yil inqilobidan keyin «*Pozitiv siyosat tizimi*» 4 jiddlik asarini chop ettirgan. Bu asarda u o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon qilgan.

Kont «Pozitiv falsafasi»ning asosiy g'oyasi – fan hodisalarining tashqi qiyofasini tasvirlab ko'rsatish bilan chegaralanishi kerak, degan talabdan iborat. Ogyust Kont ana shu g'oyaga asoslanib, «metafizika», ya'ni hodisalarning mohiyati haqidagi ta'limot bartaraf qilinmog'i lozim, deb da'vo qilgan edi. Kont keng tabiiy-ilmiy materialni sintezlashtirishga urindi, lekin bu urinish Kontning falsafiy pozitsiyasi tufayli fanni soxtalashtirishga olib keldi.

O.Kont ta'lomitiga ko'ra, inson bilimi, tafakkuri muayyan qonuniyat asosida rivojlanadi va uch bosqichni bosib o'tadi. Bularning birinchisi – teologik yoki yolg'on (xufyona); ikkinchisi – metafizik yoki mavhumlashgan; uchinchisi – pozitiv yoki ilmiy bosqich. (3-ilova).

3-ilova

Ogyust Kont: jamiyat va fan rivojinining uch davri

<i>Rivojlanish bosqichlari</i>	<i>Xarakteristikasi</i>
Ilohiy bosqich	Birinchi ilohiy davr inson aqli hodisalarini g'ayritabiyl kuchlarining, xudoning ta'siri bilan izohlashga uringan.
Metafizik bosqich	Metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko'ra, barcha hodisalarning asosini abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil etadi.
Pozitiv bosqich	Ilohiy va metafizik dunyoqarash o'rniga, Kontning fikricha, «pozitiv metod» keladi va bu metod «mutlaq bilim»dan (avvalo materializmdan va obyektiv idealizmdan) voz kechishni talab etadi. To'liq ma'noda fan paydo bo'ladi, u topilgan ilmiy faktlarni sharhlash va tasniflash bilan shug'ullanadi. Jumladan bu tasnif faktlarga xos bo'lgan xususiyatlarga asoslanadi; mutlaq bilimga ega bo'la olmaslikni tushunish shakllanadi.

Birinchi teologik davr inson aqli hodisalarini g‘ayritabiyy kuchlarning, xudoning ta’siri bilan izohlashga uringan.

Kontning fikricha, metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o‘zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko‘ra, baracha hodisalarning asosini abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil etadi.

Teologik va metafizik dunyoqarash o‘rniga, Kontning fikricha, «pozitiv metod» keladi va bu metod «mutlaq bilim» dan (avvalo materializmdan va obyektiv idealizmdan) voz kechishni talab etadi.

Kont o‘zining uch bosqichli sxemasidan fanlarni turkumlash hamda fuqarolik tarixini sistemalashtirish uchun foydalandi.

Kont ilk bor fanga «sotsiologiya» terminini kiritgan. Uning sotsiologik ta’limotini asosiy g‘oyasi – jamiyat tartiblarini inqilobiy yo‘l bilan o‘zgartirish befoyda deb da’vo qilishdan iborat (4- ilova).

4-ilova

Ogyust Kont: jamiyat rivojining uch davri

<i>Davrlar</i>	<i>Tarixiy davrlar</i>	<i>Xarakteristikasi</i>
Ilohiy davr	O‘rta asr Yevropasi	Jamiyatning butun a’zolari ijtimoiy qonunlarni ilohiy kelib chiqqanligini tan olishgan.
Metafizik davr	Reformatsiya va Ma’rifat davri (XVI-XVIII asrlar)	Ijtimoiy kelishuvni buzilishi, Chunki turli falsafiy ta’limotlar ijtimoiy tuzumning kelishtirib bo‘lmasi ligi haqida gapiradi.
Pozitiv davr	Zamonaviy davr (XIX asr)	Ijtimoiy kelishuvni qayta tiklanishi, bu jamiyat haqidagi pozitiv fan asosida sodir bo‘ladi.

Kontning fikricha, kapitalizm hukmron bo‘lgan jamiyat insoniyat tarixining evolutsiyasini tugallaydi. Kont yakka xudoga e’tiqod qilish o‘rniga abstrakt oliv zotga sig‘inishni ilgari suruvchi «yangi» dinni targ‘ib qilishni ijtimoiy uyg‘unlikni barqaror etish vositasi deb hisoblaydi.

Kont o‘zining yangi fanlar tasnifini taklif qildi. Bu tasnif F.Bekon bergan fanlar tasnifidan butunlay farq qiladi. Bekon o‘z tasnifini tafakkur, xotira, tasavvur tamoyillariga asoslanib bergan. Kontning tasnifi qo‘yidagi uch tamoyilga asoslanadi:

- 1) soddadan murakkabga qarab harakat qilish;
- 2) mavhumlikdan aniqlikka qarab harakat qilish;
- 3) qadimgi davr fanlaridan hozirgi zamon faniga qarab harakat.

Kontning fikricha, bu tasnifda fanlarning mukammalligiga va aniqligiga urg‘u berilgan (5-ilova).

5-ilova

Ogyust Kont: fan va uning metodlari tasnifi

Astronomiya	→ Fizika	→ Kimyo	→ Biologiya	→ Sotsiologiya
-------------	----------	---------	-------------	----------------

Kuzatuv	Kuzatuv Eksperiment	Kuzatuv Eksperiment	Qiyoslash	Qiyoslash
---------	------------------------	------------------------	-----------	-----------

Kontning tasnifida kamchilik mavjud. Ijtimoiy fanlarga deyarli o‘rin ajratilmagan, ayniqsa, tarix butunlay tushib qolgan. Sotsiologiya va axloq fanlari esa oxirgi o‘ringa tushib qolgan. Shuningdek, bu tasnifda mantiq va psixologiya fanlariga ham butunlay o‘rin berilmagan.

Kontning tasnif qilish usuli ijtimoiy fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan holda, ularga nisbatan mexanik tarzda yondashadi. Kontning tasnifini keyinchalik neokantchilar va «hayot falsafasi» vakillari tanqid qildilar.

Falsafaning predmeti, Kont fikricha, fanlarning eng umumiy xulosalari va usullarini birlashtirish, shu asosda o‘z uslubini yaratishdir. Falsafa fani, uning fikricha, aslida metodologiyadir.

Kont induksiya, deduksiya va gipoteza uslublarini yuqori baholaydi. Undan tashqari kuzatish, tajriba, solishtirish orqali tahlil qilish usullarini ham yuqori baholab, ularni ayrim fanlarda o‘ziga xos o‘rni borligini ta’kidlaydi. Bu usullarni barcha fanlarga bir xilda ishlatib bo‘lmasligini tasdiqlaydi. Masalan, fizika, kimyo fanlari – ko‘proq tajribaga asoslansa; biologiya – kuzatishga, solishtirishga asoslanadi, tarix esa qiyoslash orqali tahlil qilishga asoslanadi.

Kont sotsiologiya fanining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha, sotsiologiya jamiyat to‘g‘risidagi fan bo‘lib, ijtimoiy xodisalarни qiyoslash va tahlil qilish uslublariga asoslanadi. Kont ijtimoiy hayotda oila, tabiiy muhit, urushlar, madaniyat, san‘at, iqtisodiy ishlab chiqarish rivoji va boshqa jarayonlarni tahlil qildi. Shu bilan bir qatorda, sotsiologiya fanini miyaning fiziologik jarayonlarini o‘rganuvchi frenologiya faniga bog‘lab qo‘yadi. Keyinchalik fan rivoji frenologiyani sun‘iy va asossiz ekanligini isbotlaydi. Bu fan asta-sekin yo‘qolib ketdi.

Pozitivizm falsafasining rivojida ingliz olimlari Jon Styuart Millhamda Gerbert Spenserlar katta rol o‘ynadilar.

Jon Styuart Mill (1806-1873 yy.) – dastlabki pozitivizmning yana bir yirik vakili hisoblanadi. Jon Mill o‘z zamonasida juda keng ma’lumotga ega bo‘lgan, turli masalalar bo‘yicha o‘z mustaqil qarashlariga ega bo‘lgan faylasufdir. Millning otasi Jeyms Mill (1773-1836 yy.) ham faylasuf bo‘lgan. J.Mill dastlabki ma’lumotini gimnaziyaga bormasdan, o‘z otasidan oladi. 14 yoshida yunon va lotin tilidagi adabiyotlar bilan to‘liq tanishadi. 17 yoshida Ost-Indiya kompaniyasida ishlaydi. Jon Mill tez orada departament direktori lavozimigacha ko‘tariladi, 1857-yilgacha shu lavozimda ishlaydi.

J.S.Mill o‘zining falsafiy qarashlarida empirizm tarafdiri bo‘lgan, intuitiv bilimni inkor qilgan. Kontning pozitiv g‘oyasini qabul qiladi, lekin ijtimoiy-siyosiy qarashlarida unga qo‘shilmaydi. Ma’lum bo‘lgan asosiy asarlari orasida «*Mantiq tizimi*» (1843) ko‘p marotaba qayta nashrdan chiqarilgan, chunki bu asar XIX asrda an‘anaviy mantiq bo‘yicha eng yaxshi qo‘llanma bo‘lgan.

Bu asarida Mill yangi bilim faqat empirik yo‘l bilan olinishi mumkin, degan xulosaga keladi. J.Mill mantiqni psixologiyaning bir tarmog‘i sifatida talqin qiladi. Mantiq qonuniyatlariga psixologik tus beradi. Deduksiya uslubi, uning fikricha, hech qanday yangi bilim bera olmaysdi, har qanday xulosa xususiydan umumiyligka qarab boradi.

Matematika, J.Mill fikricha, empirik tarzda kelib chiqqan. Uning hamma aksiomalari kuzatish va umumlashtirishga asoslanadi.

Shunday qilib, yangi hamda umumiylar manbai induktiv malohazadir. Bekonning induktiv uslubiga tayanib, J.Mill induktiv uslubning to‘rt usulini ishlab chiqdi: 1) kelishuv uslubi; 2) farq qilish uslubi; 3) qoldiq uslubi; 4) yo‘ldosh o‘zgaruvchanlik uslubi. Induktiv mulohaza, J.Mill fikricha, insoniyat bilimining xilmashilligiga ishonishdan iboratdir.

Hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar biz tomondan uzoq kuzatishlar natijasida tasdiqlandi, ko‘pgina tasodiflar ham sababiy bog‘lanishlarini isbotlaydi, deydi J.Mill.

J.Mill hodisa sababini "o‘zgacha bo‘lgan hodisalar yig‘indisi oqibatidir, shuning natijasida mazkur hodisa albatta sodir bo‘ladi, deb tushuntiradi. Sabab to‘g‘risida J.Mill shunday deydi: "Ma‘lum dalillar asosida keyingi dalillar kelib chiqadi, bunga bizning ishonchimiz komildir. O‘zgarmas oldingi fakt sabab bo‘ladi, o‘zgarmas keyingi fakt oqibat bo‘ladi"⁶⁷.

Shunday qilib, J.Mill sabab, oqibat munosabatlari harakatlar ketma-ketligi tarzida hal qiladi, keltirib chiqaruvchi, shartlovchi, ishlab chiqaruvchi, yaratuvchi va hokazo munosabatlarni e’tiborga olmaydi.

Materiyani «doimiy hissiyot imkoniyati» sifatidagi mashhur pozitiv ta’riflash J. Millning qalamiga mansubdir.

J. Millning fanga bo‘lgan munosabati Ch.Pirs pragmatizmiga ta’sir qildi. U.Jeyms J.Millga yuksak baho beradi va o‘zining «Pragmatizm» asarini uning xotirasiga bag‘ishlaydi.

⁶⁷ Зотов А.Ф., Мельвегл Ю.К. Буржуазная философия середины XIX - начала XX века. – М., 1988. – С.50.

Diniy qarashlarida Mill g‘ayritabiylilikni fan doirasidan chiqib ketmagan shaklini tan oladi. Uning o‘limidan so‘ng «Din haqida uch lavha» (1874y.) nomli asari nashrdan chiqadi. Bu asardan ma‘lumki, u xudoni tan oladi, lekin uning imkoniyatini, ko‘lamini, qudratini cheklaydi. Negaki, xudo yovuzlikni bordaniga yo‘q qila olmaydi, deydi. Bu g‘oya pirovard natijada U.Jeyms tomonidan yanada rivojlantiriladi. Shuningdek, J.Mill qarashlari G.Spenser ijodiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Gerbert Spenser (1820-1903 yy.) – Angliyaning Darbi shahrida o‘qituvchi oilasida tug‘ilgan. Yoshligidanoq u Londonning Birmingem tyemir yo‘l qurilishida injener lavozimida ishlaydi. 1846-yilda Gerbert Spenser injenerlik faoliyatini tashlab, «Ekonomist» jurnali xodimi bo‘lib ishlaydi, yozuvchilikdan topgan daromadiga yashaydi. Gerbert Spenserning evolutsion g‘oyalari XIX asrning 30-yillarda shakllanadi. Spenserning yirik asari «*Sotsial statika*» 1850-yilda nashrdan chiqarildi. Bu asarda Spenser organik rivojlanishni ijtimoiy taraqqiyotga tatbiq qiladi. Taraqqiyotni «mukammal baxtga intilish ilohiy g‘oyasi» sifatida talqin qiladi. Bunday talqindan keyinchalik voz kechib, taraqqiyotning mexanistik talqiniga o‘tadi. O‘zining «Rivojlanish gipotezasi» nomli maqolasida Spenser barcha tirik jonzotlarni tabiiy yo‘l bilan kelib chiqishini qat‘iy ta’kidlamasa ham, ularni ilohiy kuch tomonidan yaratilishi g‘oyasini shubha ostiga oladi.

Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan Spenser mashhur biolog Beromning tabiatdagι barcha jonzotlarni bir turdan har xil turlar kelib chiqishi haqidagi g‘oyasiga tayanadi. Tabiatdagι barcha narsalarning asosida qandaydir bir sirli kuch yashiringanini tan oladi. Bu kuchni fan orqali bilib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, Spenser tabiat va jamiyatni tushunishda ruhiy jarayonlarni va ruhiy kuchni tan olmadı. Ruhiyat o‘rniga maxsus fanlarga xos bo‘lgan biologik va mexanistik kuchni kiritdi. Bu kuch asosida yotgan ilohiylikni bilib bo‘lmaydigan sir deb e’lon qildi.

1860-yilda Spenserning «Sintetik falsafa» nomli 10 jilddan iborat asari nashrdan chiqadi. 1862-yilda uning «Boshlang'ich asoslar» nomli asarida biologik, psixologik, axloqiy qarashlari berilgan. Undan tashqari, Spenserning «Aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya» nomli asari ham bor. 3 jildlik «Tajribalar» asari ham nashrdan chiqqan.

Bilish muammosi. Spenser o'zining «Boshlang'ich asoslar» nomli asarida bilish to'g'risidagi fikrlarimi ilgari surgan. Bu asarning «Bilib bo'lmaydigan asoslar» nomli bo'limida olamning kelib chiqishi, rivojlanishi va qanday kuch tomonidan yaratilganligi masalalari dinda ham, fanda ham o'z yechimini topa olmasligini ta'kidlaydi. Ularning zaminida, Spenser fikricha, inson tafakkuri anglamaydigan fikrlar yotadi. Olamning xudo tomonidan yo'qdan bor qilinganligi haqidagi diniy ta'limotni Spenser tanqid ostiga olgan. Panteizm ta'limotidagi olamning cheksizligi va doimiy rivojlanishda ekanligi haqidagi fikrlar olim uchun fan tomonidan isbotlangan dalillardir. ✓

Shunday qilib, Spenser ham din, ham fan tomonidan olamning asosida yotgan kuchni bilib bo'lmaydi, degan xulosaga keladi. Shuningdek, Spenser makon va zamon, harakat, bo'linuvchanlik, ong tushunchalari ziddiyatlarga to'la ekanligini ham asoslab beradi. Ichki ziddiyati bor narsa haqida biz «ha» ham, «yo'q» ham deya olmaymiz. Spenser shunday qilib, metafizik, agnostik xulosa keldi.

Spenser Kontning fanlar tasnifini bir oz o'zgartirib, kengaytirib o'zining fanlar tasnifini yaratadi. Spenser fanlarni uch turga bo'ladi:

1) mavhum fanlar: matematika, mantiq; 2) mavhum-aniq fanlar: mexanika, fizika, kimyo; 3) aniq fanlar: astronomiya, geologiya, biologiya, psixologiya, sotsiologiyaga bo'ladi.

Spenser makon va zamonni mavhum kuchning ko'rinishi deb hisoblaydi. Makon, zamon va mavhum kuchlar birgalikda materiyani tashkil qiladi.

«Materiya ziddiyatga to'la bo'lganligi uchun fan nuqtayi nazaridan aniq va mutlaq ma'lumotga ega bo'la olmaymiz. Biz materiya haqida faqat nisbiy bilimga egamiz», - deydi Spenser.

Makon va zamon, Spenser fikricha, nisbiy reallikdir, uning mavjudligi boshqa bir mutlaq, mavhum reallikning borligidan dalolat beradi. Narsalar makon va zamonda mavjuddir. Makon narsalarning bir-biriga nisbatan joylashishi, zamon esa narsalarni birin-ketin sodir bo‘lishidir.

Spenser biz his qilgan olamdan tashqari, his-tuyg‘ularimizdan tashqaridagi obyektiv olam ham mavjud, deydi, Spenser «Psixologiya asoslari» asarida Berkli, Yumning qarashlarini tanqid qiladi. Berklining «Gilos va Filonus o‘rtasidagi suhbat» asarini tanqidiy o‘rganib, Gilosning Filonusga bergen javoblariga yangicha ma’no kiritadi. Agar Berkliida Gilos va Filonus o‘rtasidagi suhbat butun borliqni inson his-tuyg‘ularining yig‘indisi, degan fikrga olib kelsa, Spenser talqinida bu suhbat boshqacha hal qilinadi, ya’ni moddiy olamni obyektiv mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Spenser fikrlar bizning ongimizga moddiy olam ta’sir qilganligi uchun paydo bo‘ladi, moddiy olamning inson organizmiga bir xildagi ta’sir qilishi bir xildagi fikrlar oqimini yuzaga keltiradi, deydi. Spenserning bu fikri materialistlarning fikr va sezgilarining in’ikos sifatidagi tasavvuriga o‘xshaydi, ya’ni bilishda in’ikos nazariyasini rad etmaydi. Umuman olganda, Spenserning falsafiy dunyoqarashiga XIX asrda tabiiy fanlarning rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatadi.

Spenser konsepsiyasining xarakterli xususiyati shundaki, uning fikricha, evolutsiyaning «o‘z chegarasi bo‘lib, u bundan oshib o‘tolmaydi». Bu chegara tizimlarning tengligidan yoki evolutsionlashgan tartibdan iborat bo‘lib, qachonki qarshilik ko‘rsatuvchi barcha kuchlar tenglashganda vujudga keladi. Spenserning o‘zi quyidagicha misol keltiradi: jamiyatdagi konservativ ya progressiv kuchlarni tenglashtirish zarurati uni o‘rganishning ijtimoiy ma’nosini yaqqol ko‘rsatib beradi. Biroq Spenser tenglikni mutlaq deb hisoblamaydi. Spenser fikricha, tenglikni o‘matish bilan o‘zgarishlar jarayoni tugamaydi, ertami yoki kechmi yana tenglik holatiga intilish boshlanadi. Muvozanat saqlovchi muntazam harakatdagi tartib odatda tashqi kuchlar tufayli yuzaga keladi, biroq qachonki o‘rnatilgan muvozanat eski tizim o‘rnini bosa olsa, shundagina kerakli natijani bera oladi.

Lekin vujudga kelgan holatni alohida tizim yo‘nalishidagi, qaytarilmaydigan holat deb hisoblab bo‘lmaydi. «Evolutsiya va tugallanish davrlari o‘zaro almashinib turadi. O‘tmishda bir qator shunday evolutsiyalar mavjud bo‘lib, ular hozirgi vaqtdagi evolutsiyaning ayni hisoblangan va kelajakda ham xuddi shunga o‘xshash evolutsiyaning qaytarilishini kutish mumkin». Shunday qilib, Spenser aylanma harakatning qadimgi qoidasiga qaytadi.

Spenserning farazi bo‘yicha, hayotning barcha murakkab oliv darajadagi ruhiy va ijtimoiy jarayonlari oxir oqibatda biologik qonunlar bilan yakunlanadi. Spenser ta’limotining o‘ziga xosligini XIX asrning 40-yillaridagi biologiya fani erishgan katta yutuqlar bilan izohlash mumkin. Ma’lumki, 1838-yilda G.Shleyden o‘simlik hujayrasini kashf etdi. 1839-yilda T.Shvann hayvonlar hujayralarining o‘ziga xosligini asoslab berdi, 1843-yilda A.Kelikker tuxumdan xuddi hujayradagidek katta hayvonlarning barcha a’zolari rivojlanib chiqishini ko‘rsatib beyd়ি.

Spenserning fikricha, hayot bu «ichki munosabatlarning tashqi munosabatlarga tinmay moslashishidan iborat». Spenserning biologiya va psixologiya sohasidagi ishlari o‘sha davrdagi fikr va kuzatishlar uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Spenser tabiiy tanlanish haqidagi Ch.Darvin ta’limotining o‘zigina organizm rivojlanishining barcha muammolarini hal qila olmasligini bilsa ham, lekin uni qo‘llab-quvvatlaydi.

Spenser sotsiologiyasining mohiyati – bu jamiyatning hayot jarayoniga moslashuvi, jamiyatning tirik organizm kabi tabiiy yo‘l bilan vujudga kelishi va rivojlanishidan iborat. Bundan shunday muhim xulosa kelib chiqadi: jamiyat va uning institutlarini har qanday sun’iy tashkil etishga urinishi yoki jamiyatni sun’iy yo‘l bilan qayta qurish - amalga oshmaydigan ish; Spenser «jamiyat o‘zicha rivojlanadi», «konstitutsiyalar yaratilmaydi, o‘zi yetishib chiqadi» kabi g‘oyalarni muntazam ilgari surgan.

Spenser tarixda Buyuk kishilarining hal etuvchi roli haqidagi fikrni butunlay inkor qiladi. Hatto monax ham o‘zi boshqa rayotgan jamiyatni o‘zgartirishga ojizlik qiladi. «U vaqtincha buzishi, boshqarishning tabiiy jarayonini tutib turishi yoki unga yordam berishi mumkin, biroq umumiy jarayon harakati ustidan

hukmronlik qila olmaydi». Buyuk kishilar jamiyat taqdirini belgilamaydilar, balki ular ham «Buyuk kishilar kabi ushbu jamiyat mohiyatining mahsulidirlar». Spenser fikricha, jamiyat strukturasi va uning siyosiy shakllari, jamiyat hayoti xususiyatlari va xalq xarakteri bilan yoki aniqroq qilib aytganda, uni tashkil etuvchi individuumlar bilan belgilanadi: «...Xalq xarakteri – bu birinchi boshlang'ich siyosiy shakl manbaidir». U o'z navbatida ushbu xalqning atrof-muhitdag'i shart-sharoit bilan o'zaro munosabati jarayonida vujudga keladi, o'zgaradi va yashash uchun kurashishga, yaxshiroq bir tarzda moslashishga qaratilgan kuch bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, Spenser sotsiologiyasining asosi o'zining nazariy mazmuni bo'yicha ziddiyatlidir. Bir tomondan, Spenser jamiyat rivojlanishini tabiiy sababiy bog'lanish jarayoni sifatida ko'rib chiqishga harakat qilib, tarixni Buyuk shaxslar hal qilishi haqidagi fikrga qarshi chiqadi, sotsial o'zgarishlarning hal qiluvchi omilini ayrim shaxslar ixtiyori va faoliyatidan emas, balki mamlakatning barcha odamlari harakatidan qidirish kerakligini tan oladi. U ta'kidlaydiki, «vassallar tomonidan sadoqat ruhi bo'lмаганда, feodal tizimi hech qachon mavjud bo'lmas edi».

Sotsiologiyada «yashash uchun kurash» tamoyilining keng tarqalishi yangi sotsiologik oqim «darwinizm sotsiologiyasi» uchun zamin tayyorlaydi.

Ijtimoiy evolutsianing yo'naliш va kelajagi haqida gapirar ekan, Spenser jamiyatni ikki xil turga ajratadi. Birinchisi davlat hokimiyatiga bo'ysunuvchi xarakterga ega bo'lgan harbiy tizimga asoslangan zo'ravonlik (despotizm), ikkinchisi – davlat hokimiyati huquqlari minimumga keltirilgan va shaxs ozodligi hamda faoliyatini ta'minlaydigan sanoat tizimidir. Spenser sotsializmga qarama-qarshi ijtimoiy evolutsianing kelgusi bosqichi sifatida jamiyatning uchinchi bosqichini tashkil etuvchi erkin iqtisodiy munosabatlarning yuzaga kelishi ehtimolini e'tirof etadi.

Pozitivizm falsafasi XIX asrning tabiiy fanlari rivojlangan davrda shakllandı. Bu fanlarning umumiyl usullari va xulosalarini birlashtirib yangicha talqin qilish asosida yangi pozitiv falsafa yaratildi. Bu falsafaning asosiy vazifasi fanlarning eng umumiyl

metodologiyasi bo'lishdir. Falsafaning din va mifologiya bilan bog'liq bo'lgan dunyoqarash xususiyati istisno etildi. Pozitivizm o'zining fanlar tasnifiga sotsiologiya va psixologiyadan tashqari boshqa ijtimoiy fanlarni kiritmadи.

Pozitivistlar falsafaning metodologiya sifatidagi vazifasini o'lon qilishdi. *Metodologiya* bu bilishning har xil usullarini ishlab chiqadigan nazariyadir. Bu nazariyani Spenser rivojlantirar ekan, jiddiy qarama-qarshiliklarga uchradi. Falsafada eng muhim masala hisoblangan olam asosida nima yotadi, dunyo qanday yaratilgan, degan savollarga aniq javob yo'qligini tak'kidlaydi. Shu masalada agnostitsizm pozitsiyasiga o'tdi. Fanning, jumladan falsafaning bilish doirasi cheklanganligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, pozitivizm bilishni ko'kka ko'targan bo'lsa-da, pirovard natijada o'zi boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Insonning bilish imkoniyatlarini chegaralangan deb hisobladi. Mutlaq haqiqat o'mniga faqat nisbiy haqiqatni tan oldi. Bundan tashqari, pozitivizm falsafasida ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda sodda biologik uslublarni qo'llash keng tus oldi. Ch.Darvinnning biologik turlarning rivojlanishi nazariyasini jamiyatning o'ziga xos qonunlarini e'tiborga olmagan holda tatbiq qilindi. Bu keyinchalik sotsial darvinizm oqimining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Inson hayotining ruhiy tomonlari soddalashtirildi, soxtalashtirildi. Ruhiy kuchni pozitivistlar mavhum, bilib bo'lmaydigan kuch deb atadilar. Uni inkor qilmasalar-da tushuntirib berish mumkin emasligini ta'kidladilar. Kishilik jamiyatining hayvonot olamidan sifat jihatdan farq qilishini ham tushuntirib bera olmadilar. Pozitivizm falsafasini o'rganar ekanmiz, bir narsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Agar falsafani faqat fan deb talqin qilinsa, uning dunyoqarash tomonlari nazarga olimmasa, falsafiy masalalar doirasi nihoyatda chegaralanib qo'yildi.

Neopozitivizm – yangi pozitivizm yoki mantiqiy empirizm – XX asr falsafasida eng ko'zga ko'ringan oqimlardan biri. U pozitivizm rivojida uchinchi bosqichdir. Falsafiy oqim sifatida yangi pozitivizm Vena to'garagi asosida yigirmanchi-o'ttizinchi yillarda shakllandi. Yangi pozitivizmning asosiy vakillari – *L.Vitgenshteyn* (1889-1951), *M. Shlik* (1882-1936), *R.Karnap*

(1891-1970), *O.Neyrat* (1882-1945), *G.Reyxenbax* (1891-1953), *B.Rassel* (1872-1970), *A.Ayer* (1910-1989) va boshqalar edilar.

Yangi pozitivismga muvofiq ilmiy bilimni ikki tabaqaga bo‘lish mumkin: *formal ilmlar* (matematika va mantiq) va *faktual ilmlar*. Birinchi ilmlarda bayon qilingan narsalar tahliliy yoki analitikdirlar, ya’ni tajribadan mustaqil bo‘lib, dunyo haqida ma’lumotlarga ega emas. Ularning haqiqiyligi mantiqiy jihatdan ifodalaniб, faqat ularni tashkil etgan atamalarning ma’nosigagina bog‘liqdir. Faktual ilmlar *sintetik bayonotlar* shaklida bo‘lib, dunyoviy hodisalarga asoslanadi. Ular tajribaviy «kuzatishga asoslangan gaplarga» tengdir.

Yangi pozitivistlar ilmiy bilimning tajribaviy asosida aniq (protokol uslubidagi) gaplar yotadi, deb hisoblaydilar. Ilmlarning barcha gaplari, ularning fikricha, *verifikatsiya* qilinishi (tasdiqlanishi) lozim edi. Verifikatsiya qoidasi Yangi pozitivism gaplarni fikriy barqarorligini o‘rnatuvchi metologik talab sifatida markaziy o‘rinni egallaydiki, uning mohiyatida har qanday fikriy ifodaning to‘g‘riligini tajribada tekshirish yotadi. Bunday tekshirishdan o‘tmaydigan barcha narsa, ilmlardan bartaraf etilishi lozim bo‘ladi.

Verifikatsiya qoidasiga muvofiq ravishda yangi pozitivistilar barcha metafizikani (an’anaviy falsafani) bema’ni deb e’lon qildilar. Yangi pozitivistcha talqinda falsafa fan tilining mantiqiy tahliliga aylanib qoldi. Uning vazifasi fan tilini be’mani, «soxta ilmiy» gaplardan tozalashda, deb qaraldi. Yangi pozitivizmning fanlar talqiniga xos xususiyati deskriptivizm (fanlarni vazifasini ta’riflash), uslubiy empirizm (nazariy bilimlarni baholashda tajribaviy tekshirishlar jarayonini *mutlaqlashtirish*), o‘ta induktivizm (ilmiy bilimning mantiqiy-uslubiy muammolarini hal etishda induktiv mantiqqa yagona vosita sifatida ishonish) va o‘ta so‘l ssientizm (ilmiylikka tayanish) dir.

Fundamental fanlarning eng muhim nazariy asoslari hissiy tajribaga tayanmasligi, ya’ni verifikatsiya qilib bo‘lmasligi aniq bo‘lgandan keyin XX asrning ikkinchi yarmida yangi pozitivism o‘z ta’sirini yo‘qota boshladi.

Postpozitivizm – neopozitivizmning parchalanishi natijasida shakllandi. Uning asoschisi «*tangidiy ratsionalizm*» ijodkori *Karl Popper* edi. *I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, D.Agassi, P.Feyerabend* kabi yirik g‘arb faylasuflari postpozitivizmning yirik namoyandalari hisoblanadi.

Agar mantiqiy pozitivism (neopozitivizm) asosiy e’tiborini ilmiy bilim strukturasini tahlil qilishga qaratgan bo‘lsa, postpozitivizm bilim o‘sishi va taraqqiyotini tushunishni asosiy muammo hisobladi. Shunga ko‘ra, postpozitivizm vakillari e’tiborlarini ilmiy g‘oyalar va nazariyalarning paydo bo‘lish tarixi, taraqqiyoti, almashinuvini o‘rganishga qaratdilar.

30-yillardayoq *Karl Popper* (1902–1988 yy.) yangi pozitivizmning iduktivizmi, ma’noning verifikatsiyachilik nazariyasini qattiq tanqid ostiga olgan edi. Uning fikricha, metafizikada aytilgan hukmlarni hissiy ma’lumotlarga tatbiq qilib bo‘lmasligi asosida uni rad etish, mantiqiy jihatdan fundamental fanlarning butun nazariy asoslarini rad etishga olib keladi.

Ilmiy va g‘ayri ilmiy bilimlarni ajratish mezonini sifatidagi pozitivistcha verifikatsiya qoidasini tanqid qilib, Popper nazariyani hech qachon tajribaviy jihatdan verifikatsiya qilib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Ilmiy haqiqatga erishish vositasi sifatida intuktiv mantiqni mutlaqlashtirishni ham Popper haqli ravishda tanqid qiladi.

Neopozitivistlarning verifikatsiya tamoyiliga qarshi Popper o‘zining falsifikatsiya qilish (soxtalash) uslubini tavsiya qiladi. Ilmiy usulning mantiqiy asosi sifatida Popper induktiv emas, balki deduktiv mantiqni qo‘yadi. Popper nazaridagi ilmiy nazariyalarni tanlash va tekshirishning umumiyligi tasviri quyidagicha ko‘rinishga ega: taxminlar o‘rtaga qo‘yilgandan keyin mantiqiy deduksiya yordamida ulardan qandaydir xulosalar keltirib chiqariladiki, ularni tajribada tekshirishdan o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Agar xulosalardan biri tasdiqlanib qolsa, biz ham taxminning haqiqiyligi haqida hukm yurita olamiz. Ammo agar ana shunday xulosalardan biri rad etilsa, undan shu narsa kelib chiqadiki, taxmin yolg‘on bo‘ladi.

Popper fikricha, ilmiy bilim asosan faraziy xususiyatga ega: «Biz bilmaymiz - biz faqat faraz qilishimiz mumkin». K.Popper bilimni o'zgaruvchan, rivojlanuvchi tizim sifatida ko'radi va ilmiy bilim o'sishi konsepsiyasini aratadi. Uning fikricha, ilmiy bilish o'sishi sinovlar va xatolar bilan amalga oshiriladi, ma'lum muammoli vaziyatda nazariyani tanlash uslubi fanni yanada ratsional etadi va uning taraqqiyotini ta'minlaydi. Fan o'sishining zaruriy vositalari sifatida til, muammoning qo'yilishi, yangi muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishi, raqobatdosh nazariylarning mavjudligi, muloqot jarayonidagi o'zaro tanqid kabilarni tushunadi. O'zining ilmiy bilim o'sishi modelini Popper quyidagi sxemada ifodalaydi: P1-TT-EE- P2, bu yerda P1-qandaydir boshlang'ich muammo, TT-taxminiy nazariya, ya'ni uning yordamida hal qilinadigan nazariya, EE-tanqid va eksperimental tekshiruvlar orqali nazariyadagi xatolarni bartaraf etish jarayoni, P2-yangi, chuqurroq muammo bo'lib, uni hal qilish va yanada informativroq nazariyani yaratish zarurligidir.

Popper «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» deb atalgan mashhur kitobning muallifi bo'lib, unda totalitar davlat tuzumlarini tanqid ostiga olib, ularga liberal qadriyatlarni qarama-qarshi qo'ydi.

Imre Lakatos o'zining «Isbotlash va rad qilish» asarida fanda tanqiddan va formalizmdan butunlay voz kechilmasa, u rivojana olmaydi, degan g'oyani ilgari suradi. I.Lakatos fikricha, fanning rivojini bir-biri bilan bog'liq nazariyalar majmui va ular ortida turuvchi tadqiqot dasturi ta'minlaydi. Uning ta'biricha, tadqiqot dasturi taraqqiyotning asosiy davrlari progress va regress - bosqichlar chegaralarining «to'lish nuqtasi» hisoblanadi. Yangi dastur eski dastur tushuntira olmagan narsaga aniqlik kiritishi va tushuntira olishi kerak. Ilmiy inqilob – asosiy ilmiy tadqiqot dasturlarining almashinuvi natijasida yuzaga keladi.

I.Lakatos o'zining ilmiy tadqiqot dasturi metodologiyasini «normativ tarixiy»lik deb ataydi va hech qachon fan taraqqiyotini tugallangan nazariya deb hisoblamaydi.

Tomas Kun ilgari surgan tarixiy-ilmiy jarayonning umumiy sxemasi o‘zida ikki davrni mujassamlashtiradi. Bu «normal fan»da paradigmalar va ilmiy inqiloblarning hukmronlik qilishi, paradigmalarning parchalanishi, muqobil paradigmalar o‘rtasidagi raqobat va, nihoyat, ulardan birining g‘alabasi, ya’ni yangi «normal fan» davriga o‘tish bilan xarakterlanadi. Kun fikricha, bir paradigmadan ikkinchisiga inqilob orqali o‘tilishi, taraqqiyotning oddiy modeli bo‘lib, u etilgan fanni xarakterlaydi. Bunda ilmiy taraqqiyot biologik dunyodagi rivojlanish singari o‘zida bir yo‘nalishli va qaytarilmas, ilgarilanma, jadal harakatni namoyon qiladi.

Stiven Tulmin esa o‘zining evolutsion epistemologiyasida nazariyalar mazmunini «o‘ziga xos tushunchalar populatsiyasi» sifatida o‘rganadi. U taraqqiyotning umumiy mexanizmini ichki va tashqi (ijtimoiy) omillarning o‘zaro ta’siri sifatida talqin qilar ekan, o‘z navbatida, ratsional komponentlarning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bunda u nafaqat ilmiy nazariyalar evolutsiyasini, balki muammolar, maqsad, tushuncha, metodlar va boshqa konseptual strukturalarni o‘rganishni ilgari suradi. U fan taraqqiyotini tahlil qilish uchun sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, fan tarixi kabi fanlardagi «ko‘pyoqlamalik»ni tatbiq qilgani holda ilmiy jarayonlarga har tomonlama aniq tarixiy yondashuvni talab qilish muhimligini ta’kidlaydi.

Pol Feyerabend bilim o‘sishi va shaxs kamolotiga teng kuchli bilim turlari yordam beradi, deb hisoblaydi. Faylasuf fikricha, fanning shunday nazariyasini yaratish kerakki, bunda albatta, tarix e’tiborga olinishi zarur. Bu o‘z navbatida, hozirgi zamon fan falsafasidagi sxolastikani bartaraf qiluvchi yagona yo‘ldir.

P.Feyerabend fanni soddalashtirish mumkin emas, aksincha, fan tarixini ham, ilmiy g‘oyalarni ham, ularni yaratuvchi tafakkurni ham qandaydir dialektik murakkab xaosda turli-tuman xatolar majmui sifatida o‘rganish kerak, deb xulosa qildi. Feyerabend fan ham, uning tarixi va falsafasi ham o‘zaro ta’sirda hamda birgalikda rivojlanishi kerak.

6.4. “Hayot falsafasi”

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda G‘arb falsafasining “Hayot falsafasi” yo‘nalishiga oid atroflicha va chuqur bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; “Hayot falsafasi” bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy matnlarni tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

«*Hayot falsafasi*», «*A ’lo odam*», «*Hokimiyatga intilish irodasi*», *abadiy qaytish ta’limoti*.

Asosiy savollar:

1. «*Hayot falsafasi*»ning vujudga kelishi va mohiyati. Ijtimoiy-tarixiy va g‘oyaviy-nazariy asoslari.
2. F.Nitsshe «*Hayot falsafasi*»ning yirik namoyandası sifatida.
3. Nitsshe falsafasi «*Hayot*» tushunchasi inson tabiatining hayotiy asosidir.
4. V.Diltey va G.Zimmelning «*Akademik*» hayot falsafasi.

«*Hayot falsafasi*» G‘arb adabiyotlarida turli ma’noda ishlatalidi:

- hayot mazmuni qadriyatları to‘g‘risidagi tasavvurlar yig‘indisi bir mukammal tizimga keltirilgan ta’limot;
- ijtimoiy-axloqiy, amaliy falsafa.

XIX asr oxirida «*hayot falsafasi*» mustaqil va muhim yo‘nalishga aylandi. Uning yirik namoyandalariga A.Shopengauer, F.Nitsshe, A.Bergson, V. Diltey G. Zimmel, O. Shpenglerlar kiradi. (1-ilova).

“Hayot falsafasi”: hayot va uni tushunish

<i>Faylasuflar</i>	<i>Hayotni tushunish</i>
Artur Shopengauer 1788-1860-yillar	Hayot – bu «hayotga bo‘lgan intilish»ning cheksiz juda ko‘p marotaba obyektivlashishidir. Bu ko‘r-ko‘rona, irratsional kuch boshqa kuchga muhtoj emas, borliqning birinchi asosidir.
Fridrix Nitsshe 1844-1900-yillar	Hayot – borliqning stixiyali shakllanishining namoyon bo‘lishidir; hamma tiriklik «hayotga bo‘lgan irodaga» ega, ular o‘z-o‘zini tasdiqlashga urinadi, ular o‘z mavjudligi uchun o‘z raqiblari bilan doim kurashadilar; makonni egallash iyeraxrik (pag‘onaviylik) tarzda sodir bo‘ladi, ular turli qadriyatlar bilan qurollanadilar; rivojlanishning eng yuqori bosqichida – insonda – bu kuch o‘z-o‘ziga murojaat qiladi, o‘shanda uning parchalanishi sodir bo‘ladi.
Anri Bergson 1859-1941-yillar	Hayot – bu qandaydir koinotiy kuchdir, «hayotiy jo‘shqinlikdir», uning mohiyati o‘z-o‘zini qayta-qayta ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi, unda har doim yangi-yangi shakllar yaratiladi.
Vilgelm Diltey 1833-1911-yillar	Hayot – inson borlig‘i shaklidir, bu borliq tarixiy-madaniy reallikda shakllanadi; madaniyatning har bir hodisasi «obyektiv ruhning» namoyoni bo‘ladi, ular tarixda harakat qiladi, unda inson mohiyati ochiladi, bu intuitiv shaklda egallanadi, lekin oxirigacha ochilmaydi, Chunki hayotning «oxirgi siri» qoladi. Unga cheksiz yaqinlashish mumkin, lekin to‘liq egallab bo‘lmaydi.

Georg Zimmel 1858-1918-yillar	<i>Hayot</i> – bu ijodiy shakllanish jarayonidir, u ratsional uslublar va vositalar orqali to‘g‘ri tushunilmaydi; u faqat ichki iztiroblarda egallanadi. Aynan ana shu unikal, o‘ziga xos hayot kechinmalari, madaniyatning turli shakllarida obyektivlikka ega bo‘ladi.
Osvald Shpengler 1880-1936-yillar	<i>Hayot</i> – ko‘r-ko‘rona stixiyali kuchning namoyon bo‘lishidir. Uning «uchqunlari» va «jo‘shqinligi» madaniyatni shakllantiradi, ularning har biri – tirik to‘liq organizmdir, ular rivojlanishning turli bosqichlarini bosib o‘tadilar. Umuminsoniy madaniyat yo‘q, faqat alohida, mustaqil madaniyatlar mavjud.

Fridrix Nitsshe (1844-1900 yy.) – «Hayot falsafasi» yo‘nalishining asoschilaridan biri. Reken shahrida ruhoni oilasida tug‘ilgan. Nitsshe 5 yoshga to‘lganda otasi vafot etadi. Otasi vafotidan keyin uning oilasi Naumburgga ko‘chib o‘tadi. 10 yoshli Nitsshe gimnaziyaga o‘qishga kiradi. 14 yoshda esa iqtidorli o‘quvchi bo‘lganligi uchun «Shulpfort» nomli mashhur internatda o‘qiydi. Mazkur internat «Ta’limotlar darvozasi» deb nomlanardi. Bu yerda ijtimoiy-gumanitar fanlar yuqori saviyada o‘qitilar edi. Nitsshe 1864-yilda 20 yoshda Bonn universiteti talabasi bo‘ladi. Ikki semestr o‘qiganidan so‘ng, Nitsshe o‘zining ustozи Richel bilan Leypsingga ketadi. Universitetda hali o‘qishni tugatmasdanoq, ustozи Richel tavsiyasiga binoan Bazel (Shveysariya) universiteti professor lavozimiga taklif etiladi.

1869-yildan 1879-yilgacha Nitsshe Bazel universitetida mumtoz filologiya professori lavozimida ishlaydi. Nitsshe bu davrdagi mashhur insonlar bilan tanishish sharafiga muyassar bo‘ldi. Shulardan biri o‘z zamonasining mashhur kompozitori Rixard Vagner edi.


1878-yildan Nitsshe og‘ir kasallikka uchraydi, uni juda qattiq bosh og‘rig‘i qiynaydi. Shu tufayli Nitsshe 1879-yilda 35 yoshida iste‘foga chiqadi. 1879-1889-yillarda u bir necha marotaba

yashash joyini o'zgartiradi. 1899-yilda og'ir ruhiy xastalikka uchraydi. Nitsshe o'ziga o'zi Iso, Dionis bo'lib ko'rindi. U 1900-yilning 25 avgustida vafot etadi.

Nitsshe falsafiy dunyoqarashining shakllanishiga ko'pgina ta'limotlar ta'sir ko'rsatgan. O'z navbatida uning g'oyalaridan juda ko'p faylasuflar ilhomlanlar (2-ilova).

2-ilova

Fridrix Nitsshe: g'oyaviy ildizlari va ta'siri



Yoshlik chog'larida Nitsshe A.Shopengauer asarlarini ayniqsa, «Dunyo: iroda va tasavvur sifatida» nomli asarini sevib o'qydi. Keyinroq zamondoshlari - F.Lange, E.Dyuring asarlari

bilan qiziqdi, jumladan E.Fon Gartman taddiqotlari ham uni qiziqtirdi. Klassik faylasuflardan u Aflatun, Fukidit, Diogen Laersiyarlarni yaxshi bilar edi. O‘z ta’limotini u Geraklit, Empedokl, Spinoza, Gyote ta’limotlariga asoslanganini aytadi. Russo va Lyuter falsafasiga Nitsshe o‘z pozitsiyasini qarshi qo‘yadi.

Falsafiy - tarixiy adabiyotlarda Nitsshe dunyoqarashi rivojini 3 davrga bo‘lib o‘rganiladi (3-ilova).

3-ilova

Fridrix Nitsshe: rivojlanishning uch davri

<i>Yillar</i>	<i>Xarakteristikasi</i>
1872-1873-yillar	A.Shopengauer va R.Vagnerning fikrdoshi.
1874-1880-yillar	Vagner va Shopengauer bilan kelishmovchilik; tabiiy fanlarga qiziqish va pozitivizmga qaysidir ma’noda yaqinlashish.
1881-1889-yillar	Vagner bilan do’stlikdan butunlay voz kechish; «Hukmronlikka intilish irodasi” haqidagi ta’limotni ishlab chiqilishi.

Faylasuf sifatida Nitsshening **ilk davri** 1871-1876-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Nitsshening quyidagi ishlari chop etiladi: «Fojianing musiqa ruhidan tug‘ilishi» va «Bevaqt qoralamalar» (1 va 2-qismlari). Nitsshe bu davrni “davr bilan munosabat” deb nomlaydi.

Ikkinci davr 1876-1879-yillarni o‘z ichida oladi. Bu davrda quyidagi ishlar chop etiladi: «Insonga xos, haddan tashqari insonga xos», «Turli-tuman fikrlar va hikmatli so‘zlar», «Yo‘lovchi va uning soyasi», «Insonga xos, haddan tashqari insonga xos» ikkinchi jildi, «Tonggi shu’la», «Quvnoq bilimlar». F.Nitsshe bu davrni "tanqidiy davr" deb ataydi.

Va nihoyat, **uchinchi davr** bu «buzg‘unchilik» davri, 1880-1887-yillar «Zardusht tavallosi», «Achchiq hikmat», «Yaxshilik va yomonlikning narigi tarafida», «Quvnoq bilimlar»ning 5-kitobi, «Axloqning kelib chiqishi», «Sanamlarning oqshomi», «Dajjal»

(«*Antixrist*»), «*ESSE NOMO*». Bu davr to‘g‘risida shunday deydi: «Endi boshim uzra na xudo bor, va na inson! Ijodkor ruhi nima qilishini o‘zi biladi. Sukut saqlab turish vaqtı o‘tdi: mening Zardushtim shunday deydi. Irodam, falsafam ham shunday yuqoriga ko‘tarildiki, uning orqasida men yangi yer ochdim, albatta, bu zaminni men qadamba-qadam ishg‘ol etib borishim zarur. O‘z ijodimning endi kunduziga yetdim» - deydi F.Nitsshe⁶⁸.

Nitsshe o‘z falsafasida birinchi o‘ringa axloq masalasini qo‘yadi. Falsafaning markazi inson, deydi. Falsafani mifologiya bilan uyg‘unlashtiradi. Inson o‘zining tug‘ilishida u bilan birga Buyuk ruhiy holat birga keladi. Har bir ruh yorug‘lik ma‘budi - inson uchun juda muhim. Inson nurga intilib yashaydi, deydi. Uningcha, Yunon ma‘budi Appolonda bashorat qilish qobiliyati bor. Insoniyat rivojlanishida pastga qarab ketish sodir bo‘lmoqda. Chunki inson nafs degan baloga chalingan. Dionis ma‘budini u nafs xudosi deb ataydi. «Fojianing musiqa ruhidan tug‘ilishi» asarida Nitsshe inson nafsga bo‘ysindi, deydi. U mifologik davrdan insoniyatga nafs meros bo‘lib qolganganligini ta‘kidlaydi.

Nitsshe bu asarda yunon san‘atidagi ikki ibtido asos haqida so‘z yuritadi. Zaminiy ibtido - bu yunon afsonalaridagi sharob, bog‘u-rog‘lar, o‘rmonlar ma‘budi - Dionis bo‘lsa, unga qarama qarshi bo‘lgan yorug‘lik, samoviy ibtido - Appolon ma‘buditir. Appolon yorug‘lik, san‘at, ijodiy ilhom, bashoratchilik xislatlariga egadir. Bu ikki bir-biriga zid asoslar hech murosaga kelmaydi, mutanosiblik holati yuz bermaydi.

Dionischilik musiqadagi yorug‘lik ruhiyatini vayron qilishga qaratilgan, insondagi shodu-xurramlikni ham o‘ldiradi. Bu asarida Nitsshe samoviy go‘zallik bilan zaminiy go‘zallik o‘rtasidagi ziddiyatni silliqlashtira olmaydi, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni topa olmaydi.

«Zardusht tavallosi» nomli asarini Nitsshe falsafa fanlari professori, nafis so‘z san‘ati mutaxassisasi sifatida emas, balki payg‘ambar so‘zi sifatida yaratdi. Mazkur asar mumtoz nemis

⁶⁸ Ильин Ф. Сочинения в 2 т. Т. 2. -М., 1990. -С.817.

falsafasi an'analari chegarasidan chiqib, ezoterik asar sifatida yaratildi. Nitsshe qalami orqali payg'ambar Zardusht so'zga kirdi.

Nitsshening «Zardusht tavallosi» asari boshqa asarlaridan butunlay farq qiladi. Bu asarda sharq falsafiy fikrining ta'siri bilinib turadi. Tabiat jonli mavjudot sifatida namoyon bo'ladi. Har bir daraxt, har bir xarsang tosh, dengiz, tog'lar, havo hayot chashmasi bilan yo'g'rilgan. Ular Zardusht bilan suhbat quradi, uning olamini bir qismimi tashkil qiladi. Zardusht o'zini tabiatdan ajratmaydi, uning o'zi tabiatning bir qismidir. Dengiz uning kayfiyatini his qiladi, uning xafaqonligiga sherik bo'ladi. Ana shu dengizda Zardusht orzu-umidlar sohilini qidiradi. O'z bolalarini qidiradi, zotan «umidlar bizning eng yaxshi bolalarimizdir», - deydi Nitsshe⁶⁹.

Nitsshe yuksak ruh haqida fikr yuritadi. Illohiy ruh har bir inson ruhining ustoziga aylanishi zarurdir. Zardusht o'z shogirdlarini tashlab ketadi. Uning shogirdlari o'z yo'llarini mustaqil topib olishlari zarur, o'zlarining yuksak ruhi bilan qo'shilishlari kerak.

Aynan illohiy ruh insonni ezbilik va yovuzlikning narigi tomoniga olib boruvchi yo'lni topishda yordam beradi. Bu olam xudo makonidir. Zardusht xudosi bu yuqorida turib, nazorat qilib turuvchi va insonlarni xatolari va gunohlari uchun jazolaydigan xudo emas. Zardusht xudosi butunlay o'zgacha xudodir. U har bir insonning ruhiy qalbida yashaydi. Insonning ruhiy qalbi bu xudo ehromidir.

Shuning uchun ham Zardusht so'zlaganda xalqqa «chin qalbimdan», -deb murojaat qiladi. Zardusht haloyiqqa qarata bunday deydi: «Men sizlarga a'lo inson haqida ta'limot keltirdim. Odam shundayin bir xilqatdirki, undan oshib o'tmoq kerak. Siz undan o'tmoq uchun nima qildingiz? ... Men shunday odamni sevamanki, ruh va qalbi ozoddir. Zotan, uninig aqli qalbining botinidir, qalbi esa uni halokatga yetaklaydi. Men shunday odamni sevamanki, uning qalbi limmo-limdir, shu bois u o'z-o'zini

⁶⁹ Нимоне Ф. Так говорил Заратустра. Соч. В 2 т. Т. 2. -М., 1990. -С. 234;

unutadi va bor mayjudotlarni o‘ziga jo etadi: ana shunday qilib, bor mayjudot uning halokatiga aylanadi»⁷⁰.

«Zardusht olimlar uyidan ketdi», - deb yozadi Nitsshe. Ular olamga hech qanday yangilik bermaydilar. Haqiqatni ochmaydilar. Ana shu haqiqatni Zardusht ham izlaydi. Uni o‘z qalbidan topadi. Haqiqat yo‘lida uchragan yolg‘on to‘siqlarni buzib tashlaydi. Kibru havoga aylangan axloq, ikkiyuzlamachilik, lagabardorlik, mag‘rurlik, gerdaganlik, xudbinlik haqiqatga to‘siq bo‘ladigan xilqatlardir. Jumladan qotib qolgan diniy aqidalar ham bu yo‘ldagi to‘g‘anoqdir.

Nitsshe insoniyatni yaqinlashayotgan o‘zgarishlarga tayyormi? - deb savol qo‘yadi. Uning fikricha, insoniyat bunday o‘zgarishlardan qo‘rqadi. Chunki eng katta o‘zgarish ularning o‘zlarida sodir bo‘lishi kerak. Inson o‘zini soflashi, poklashi zarur. O‘zini kibrli, xudbin, ikkiyuzlamachi axloq ruhidan tozalashi kerak, unday axloqdan butunlay voz kechishi lozim. Uning o‘zi axloqiy durdonaga aylanishi zarur.

Qalbning o‘zi inson harakatini nazorat qilishi kerak, chunki inson qalbi, vijdoni «eng oliy hakamdir, xudo ovozidir». Shunday qilib, qalb yangi axloq me’yori, o‘lchami bo‘ladi, deydi Nitsshe. Misol qilib, Iso payg‘ambarni, Buddani keltiradi, ular sokinlik va xotirjamlik dunyosidan bo‘ladilar. Nirvana holati ular uchun tabiiy holatdir.

Insonning ruhiy kamoloti uch davrni bosib o‘tadi – tuya, sher va bolalik. Birinchi davr – tuya davri, u qiyinchiliklar oldidagi sabr-qanoatni, chidamlilik, itoatkorlikni belgilaydi. Ikkinchi davr – sher davri esa inson erkin ruhini belgilaydi. Insonning erkin ruhi sherga o‘xshab kuchli, lekin yolg‘iz, uni insonlar fikri, axloqning hamma uchun qabul qilingan normalari qo‘rqita olmaydi. U oqimga qarshi suzadi, uning erkinligiga to‘siq bo‘lguvchi kishanlarni uzib, parcha-parcha qiladi. Insonlar ko‘pincha sharoitga moslashuvchilarga aylanib qoladilar, ular yangi jamiyat buniyodkori bo‘la olmaydilar. Insoniyatning odatiy oqimiga faqat erkin ruhga ega bo‘lgan insonlargina qarshi tura olishi mumkin.

⁷⁰ Nisshe F. Zardo’sht tavallosi // Tafakkur -1995. 1-son. -B. 95.

«... ruh dastlab tuya edi, keyin sherga aylandi, sher bolaga aylandi... Kuchli ruhiyat oldida ko'pgina qiyinchiliklar uchraydi, yengib o'tuvchi, kuchli ruhga taqlid qilsa bo'ladi: uning kuchi eng og'ir qiyinchiliklarga qaratilgandir. ...Chidamkor ruh eng og'ir qiyinchiliklarni o'ziga oladi: o'rgangan tuya misoli, o'z sahosiga shoshiladi. Lekin ana shu sahroda ikkinchi aylanish sodir bo'ladi. Bu yerda ruh sherga aylanadi, erkin ruhga aylanadi. Erkin ruh o'z sahosida hukmrondir. Lekin yangi qadriyatlarni sher ruhiyati yarata olmaydi. ...Go'daklik poklikning o'zidir»⁷¹.

Uchinchi davr – bu bolalik, go'daklik davri. Bu davrda sherga xos yolg'izlik ruhi o'rmini ilohiy shodonlik ruhi egallaydi. Inson o'z ichki olamida xudo ehromini ochadi, komil insonga aylanadi. Unda samoviy xislatlar bilan zaminiy xislatlar birlashadi.

Nitsshe falsafasida buddaviylik dunyoqarashining ta'sirini yaqqol sezish mumkin. «Dajjal» asarida Nitsshe buddaviylikni eng mukammal din safiga qo'shamdi. Bu din qotib qolgan aqidalaridan mustasnodir. Kristianlikdagi bo'ysunuvchanlik ruhiyati ham bu dinda uchramaydi. Budda komillikka erishishni targ'ib qiladi, ichki sokinlikka erishishni o'rgatadi. U iztirob chekishga undamaydi. Buddaviylik falsafasi, Nitsshe fikricha, iztirob falsafasi emas, aksincha, bu dunyoqarash inson qalbida shodlik olamini, sokinlik dunyosini, ruhiy xotirjamlikni ochadi.

Go'dak ongi fikrlar oqimi bilan to'imagan. Bola dunyoni qanday bo'lsa, shundayligicha, pokiza his etadi. Go'dak dunyoning har bir hodisasidan shodlanadi. Fikrlar oqimi inson ongini xaos holatiga, tartibsizlikka olib keladi, inson ongiga xira parda tortadi. Inson dunyoni fikrlari, his-tuyg'ulari orqali in'ikos etadi. Bunday hissiyot dunyoni buzib ko'rsatadi. Go'dak qalbida esa xursandchilik hukmron bo'lganligi uchun dunyo go'zalligini sezsa oladi. Hatto eng xaroba joydan ham bu qalb o'z diqqatini jalb qiluvchi go'zallikni topishga qodirdir. Uning uchun olam rang-barang jilolarda tovlanadi, jonlanadi.

Bola ongi markazida uning qalbi joy oladi. Bu bolani qaynoq energiya oqimi bilan ta'minlaydi, bolada hayotiy kuch jo'sh uradi.

⁷¹ Нидле Ф. Так говорил Зарагустра. –С. 197.

O‘zini butun olam, koinot bilan tenglashtiradi. Lekin ulg‘aygani sari insonda fikr yuritish faoliyati rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Bu jarayonning to‘xtovsiz davom etishi inson ongini fikrlar bilan to‘ldira boradi, ruh harakatiga esa tobora to‘siq qo‘yib boradi. Shu yo‘l bilan aqlii inson o‘z ruhiyati bilan aloqani uzadi va ilohiy hissiyotdan mahrum bo‘lib boradi, bolalik dunyosidan uzoqlashadi. Asta-sekin ruhiy hislar o‘tmaslashib, inson fikrlovchi robotlarga aylanib boradi.

Nitsshe ta’limoti ziddiyatlardan xoli emas edi. U insonning ruhiy, ma’naviy mohiyatini tushunishni istaydi. Nitsshe o‘z zamonasining axloqini qattiq tanqid qiladi. Axloq to‘g‘risida ungacha ko‘pgina faylasuflar fikr yuritishgan, muhokama qilishgan edilar. Lekin Nitsshening axloqiy qarashlari butunlay o‘zgacha xususiyatga egadir. U Kantning axloqiy imperativini butunlay inkor qiladi. Undagi «majburiy burch» tushunchasini butunlay qoralaydi.

Nitsshe ta’kidlashicha, har bir inson iroda erkinligiga ega. Erkin iroda eng yuksak qadriyatdir. Nitsheni xristianlik dinidagi insonning taqdir oldidagi itoatkorligi, bo‘ysunuvchanligi g‘azabga keltiradi. Insonning Xudo oldidagi itoatgo‘yligi manfaatli munosabatlarni yuzaga keltiradi. Dindorlar sajda qilishlari, qiyinchiliklarga ko‘nikishlari evaziga xudodan gunohlaridan kechishini so‘raydilar, uzoq yillar davomida xizmatlari evaziga mukofot kutadilar. Ana shunday manfaatli munosabat xristianlik axloqi asosida yotadi. Nitsshe bunday axloqqa iroda erkinligini qarshi qo‘yadi. Iroda erkinligi har qanday axloqiy normalardan yuqoriroq turadi.

Nitsshening bu fikrlariga yuzaki qaralsa, axloqiy nigelizm g‘oyasini ilgari surganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin chuqrarroq nazar tashlasak, bu fikrlardan butunlay o‘zgacha xulosaga kelamiz. Nitsshe axloqni tashqi «burch majburiyati» sifatida inkor etadi, uni ruhning ichki holati sifatida talqin qiladi. U qadimgi Rim tarixidan ko‘pgina misollarni keltiradi. Ularning shonshuhratlari, Buyukliklariga tasannolar aytadi. Ularni iroda erkinligi ruhiga ega bo‘lgan shaxslar deb ataydi. Ular kuchli irodaga ega bo‘lganliklari uchun hamma narsa ularga bo‘ysungan.

Nitsshe uchun inson ongi borliqdir. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, hukmronlik irodasi, bu, birinchi navbatda, o'z ustidan hukmronlik qilishni anglatadi. «Dunyoni boshqarishdan oldin, o'z-o'ziningni boshqarishni o'rganishing lozim», - deydi Nitsshe.

Zardusht – erkin ruh timsolidir. Hamma narsa unga bo'yusungan. Vahołanki, u o'zi ustidan hukmdorlik qila oladi. Zardushtning o'zi axloqdir. U insonlarni sevadi. Insonni komillik darajasida ko'rishni istaydi: «Men odamlarni sevaman. Men odamlarga tortiq olib boraman. Qarang, men sizlarga zabarmard haqida ta'limot berajakman. A'llo odam – zaminning mazmuni»⁷².

Shunday qilib, Nitsshening komil insoni «Yerga tushgan farsihtadir». U o'z qalbidagi ziyyosini insonlarga berishni istaydi. Donishmandlik va muhabbat Zardusht qalbida mujassamdir.

Hokimiyatga intilish g'oyasini Nitsshe o'zining «Hokimiyatga bo'lgan iroda» asarida chuqur tahlil qilib beradi (4-ilova).

4-ilova

Fridrix Nitsshe: «Hukmronlikka intilish irodasi» va uning namoyoni

<i>Inson tiplari</i>	«Hukmronlikka intilish irodasi»
Zaiflar	Erkinlikka nisbatan iroda sifatida
Kuchlilar	Yanada ko'proq hukmronlik irodasiga ega bo'lish, agar unga erisha olmasa, unda adolatga bo'lgan iroda (intilish) sifatida.
Eng kuchlilar	Insoniyatga muhabbat sifatida, bu boshqalarning irodasini bosish hisobiga sodir bo'ladi.

Davlatni boshqarishni, birovlar ustidan hukmronlik qilishni Nitsshe hokimlik irodasi deb tushunmaydi. Aksincha, davlatni qo'rqinchli mahluqqa o'xshatadi. Davlat inson erkin ruhini o'ldiradi, deydi. Samoviy inson nimaga intiladi, degan savolni o'rtaga tashlaydi, birovlar ustidan hokimlikkami yoki o'z insoniy xislatlari ustidan hokimlikkami? Agarda u boshqalar ustidan

⁷² Нийзим Ф. Зардўшт таваллоси // Тафакур -1995. 1-сон. -Б.93.

hokimlikka intilsa davlatning butun kuchini, qudratini o‘zida mujassam etgan bo‘ladi, zotan davlat hokimiyatning eng yuqori shaklidir.

Nitsshe uchun materiya va ruh o‘rtasida bo‘linish yo‘q. Hayotning o‘zi ruhning materiyaga singib ketganligidir. Ruhni materiyadan ajratib bo‘lmaydi. Bu ikki xilqat bir-biridan ajratilsa, o‘lim sodir bo‘ladi. Nitsshe uchun hamma narsa borliq, tirikdir, ruhiyatga egadir. Butun tiriklik ruhiyati ilohiy iroda bilan nurlangan, Chunki ruhiyatning yuksak holati – bu uning erkin irodasi. Hayotning har bir shakli shunday taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Hayot doimiy paydo bo‘lishdir. Shuning uchun ham tabiatda rivojlanishning juda ko‘p uslublari mavjud. Har bir shaklning o‘ziga xos rivojlanish uslublari bor. Ana shular tabiatning vujudga kelishini tashkil qiladi Nitsshe uchun hayot ong bilan ham aniqlanadi. Inson ongi o‘z-o‘zini anglashga intiladi, o‘z taraqqiyotini bilishni xohlaydi. Iroda – inson ichki ruhiyatini namoyon qiluvchi, ichki qobiliyatini ochuvchi shunday kuchdir. Nitsshe so‘zi bilan aytganimizda, «iroda vujudga kelishda faol rol o‘ynaydi; ma’nан o‘zligini namoyon qilishning o‘zi ham bu vujudlikka aylanishdir».

Bu yerda o‘rinli savol tug‘iladi, nima uchun taraqqiyot emas, balki vujudlikka aylanish jarayoni? Nitsshe fikricha, insonning yuqori rivoji qadimda o‘tib ketgan. U nemis, skandinav, yapon millatining yuqori tabaqa vakillarini misol qilib keltiradi. Aynan, ularda oljanoblik, ruhiyat erkinligi kabi xislatlar mujassam bo‘lgan.

Insoniyat taraqqiyoti hozirgi davrda, Nitsshe ta’kidicha, yuqoriga qarab emas, balki pastga qarab ketmoqda. Moddiy manfaatlar, hayvoniy instinktlar, ayniqsa, taqlid qilish instincti bizning jamiyatimiz insonlariga xos xususiyatdir. Taqlid qilish maymunlarda juda yaxshi namoyon bo‘ladi. Maymundagi, aynan shu xislatning o‘zi insonlarni maymunlarga o‘xshab ketayotganligini isbotlaydi.

Manfaatdorlik, xudbinlik ruhiyati tobora oljanoblik xislatlarini siqib chiqarmoqda. Shu xarakterlari orqali insonlar hayvonot olamidan ham battarroq vahshiylashib ketmoqdalar.

Nitsshening Zardushti esa, butunlay o'zgachadir, olijanob ruhiyatga, sof qalbga ega, ishi, so'zi, fikri bir bo'lgan, komilllik darajasiga yetishay degan inson siyemosidir.

Abadiy qaytish to'g'risida ham Nitsshe o'z fikrlarini bayon etadi. Abadiy qaytish ta'limotini tushunish uchun, uning chuqur mazmunini anglab yetish uchun buddaviylikdagi inkarnatsiya va reinkarnatsiya g'oyasini tahlil qilishimiz zarur. Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur. Ruh bilan materianing qo'shilishi moddiyat dunyosini yanada yuqori-roq darajaga ko'tarishi mumkin.

Demak, Nitsshening abadiy qaytish ta'limoti sharqning dunyoning aylanma harakati to'g'risidagi g'oyasini o'z ichiga olgan. Taqdir gardishi ham shu g'oyadan kelib chiqadi. Yerga tushgan ruh – inson ruhi sinovlar, iztiroblar, imtihonlar yo'lidan o'tadi. Yo'lda uchragan qiyinchiliklar, azob-uqubatlar inson ruhi g'uborlarini soflashga, inson tanasini poklashga yordam beradi, irodasini mustahkamlaydi, ruhiyatdagi oljanoblikni kuchaytiradi. Lekin buning uchun bиргина hayot yo'li yetarli bo'lmaydi. O'zining hayotiy evolutsion taraqqiyotini ruh turli holatlarda, turli vaziyatlarda notirik tabiatdan tortib, to tabiatning eng yuqori mavjudoti bo'lgan insongacha o'tishi lozim.

Inson tanasiga qo'ngan ruh ham dunyodagi barcha xalqlar taqdirini boshidan o'tkazishi kerak, quyi taqabidan tortib, yuqori tabaqagacha bo'lgan holatni boshdan kechirishi lozim. Agarda o'zining hayotida bir xalqqa mansub bo'lsa, keyingi hayotida boshqa xalqqa mansub bo'ladi, bir hayotida kambag'al bo'lsa, keyingi hayotida boy bo'ladi va hokazo. Chunki inson ruhi barcha xalqlarning hayot tarzi, hissiyoti, iztiroblari tajribasiga ega bo'lishi lozim. Xuddi bahordan so'ng yoz, yozdan keyin kuz, kuzdan so'ng qish kelishi takrorlanaverishi yoki kun bilan tunning almashinaverishi kabi inson ruhiyati ham qayta-qayta yerga tushaveradi.

Abadiy qaytish yana shuning uchun sodir bo‘ladiki, sof ruh o‘zining og‘ir yukidan xalos bo‘lishi kerak. Og‘ir yuk – bu fikrlar, yomon odatlar va adashishlar majmuasi. Shu og‘ir yuk bilan ruh tanani tark etadi, lekin o‘zining yuqori darajadagi ruhiyat bilan qo‘sila olmaydi, erkin irodaga aylana olmaydi, iroda zanjirlar bilan yerga bog‘lanib qoladi. U dunyoviy ruhiyat ummoniga sho‘ng‘iy olmaydi. Moddiyat dunyosi uni qo‘yib yubormaydi.

Hayot girdobida ruh har tomonga o‘zini uradi, girdobdan chiqib ketishga intiladi. Intilish ruhiyatga xos xususiyatdir. Bu xususiyat iroda deb ataladi. Irodasi kuchli insonlar hayotiy qiyinchiliklarni yengadi, ziddiyatlarni osonlikcha hal qiladi, oqimga qarshi suzishga o‘zida kuch topa oladi. Ana shunday kuch, Nitsshe fikricha, tarixiy shaxslarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular hayotga moslashmasdan, doim kurashadilar. Shuning uchun ham bunday shaxslarga jamiyatda yashash juda mushkuldir. Lekin ular o‘z notinch hayotlaridan nolimaydilar. Aksincha, hayot tufonlarini shodonlik bilan qarshilab oladilar. Jamiyatning ko‘pgina odamlari esa qiyinchiliklarga qarshi kurashmay, unga moslashadilar, rohat-farog‘atlarini o‘ylab, ikkiyuzlamachilik qiladilar. Dillari bilan so‘zлari bir-biridan ajralib qoladi.

«Dajjol» asarida Nitsshe kuchli ruhiyatga ega bo‘lgan inson hayot yo‘li to‘g‘risida yozadi. U doimo jamiyat fikriga qarshi turadi. Haqiqatan yiroq bo‘lgan olomon fikri ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarilgandi. Ana shu fikrning o‘zi ijtimoiy axloqdir. Bu axloq esa erkin ruh donishmandligidan yiroqdir, xuddi Osmon bilan Yer kabi bir-biridan ajralib qolgan. Erkin ruh samoga intiladi, olomon esa uni yerga qaytarmoqchi bo‘ladi.

Iroda kuchiga qarshi turuvchi yana bir kuch shubhadir. Aynan, shubhalanish va qo‘rquv iroda kuchini susaytiradi. Shubha esa tafakkur qurolidir. Falsafa tarixida shubha g‘oyasiga asos solgan faylasuf Dekartdir, uning mashhur iborasi «Hamma narsani shubha ostiga ol!» - ilmiy fanlarning shioriga aylangan edi. Shubhalanish ruhning kuch-quvvatini kesadi, qat’iyatsizlikka, ikkilanishlarga olib keladi. Shuning natijasida inson faolligi sustlashadi, vaziyatni o‘z hisobiga hal qila olmay qoladi.

Nitsshe intuitsiya haqida ham gapirib o'tadi. Kundalik hayotda qalb xotirasi intuitsiya orqali namoyon bo'ladi. Intuitsiya esa komil inson instinktlaridir. Intuitsiya instinktdan tashqari, ayrim insonlarda yuqori hissiyotlilik hamda uchraydi. Yuqori hissiyot nafaqat insonlarda, hayvonlarda ham uchraydi. Shuning uchun ham Nitsshe bunday hislarni instinktlar deb ataydi. Bu instinktlar nozik energiyaning bir turiga kiradi. Intuitsiya nozik energiyaning eng yuqori turidir. U yurak markazi energiyasidir. Nitsshe buddaviylikning ruh tarbiyasi haqida so'z yuritganida ana shu energiyani nazarda tutadi. «Buddaviylik, - deb yozadi Nitsshe, - doimiy komilikka intiluvchi din emas, balki komillik uning odatiy holatidir»⁷³.

Buddaviylik, Nitsshe fikricha, insonni yerdagи hayotidan, rohatlaridan ajratmaydi. Tanani ruhga qarshi qo'ymaydi. Tar-kidunyochilik – buddaviylikka emas, ko'proq xristianlikka xosdir. Buddaviylik uchun xohishlardan butunlay voz kechish ularni inkor qilishni anglatmaydi, balki xohishlar o'rniga hayratlanish, shodlanish hissiyotini ilgari qo'yadi. Buddaviylik xudbinlikni targ'ib qilmaydi. Lekin rahim-shafqat to'g'risida gapiradi. Rahim-shafqat ruh rivojidagi eng zaruriy va dastlabki qadamdir. Demak, insondagi samoviy xislatlar bilan insoniy xislatlar birga qo'shilib inson komillik darajasiga yetadi, shunda sansara gardishi to'xtaydi, inson taqdirning yuqoriq qatlamiga yo'l oladi.

Nitsshe inson to'g'risida fikr yuritar ekan, Darvinnинг insonning maymundan paydo bo'lgan, degan fikrini tanqid qiladi. Nitsshe buni o'ziga xos shaklda talqin qiladi. Uning fikricha, maymunda taqlid qilish odati bor. Inson ham shu ma'noda boshqa insonlarga taqlid qiladi. Insoniyat olomon shaklida yashaydi. Unda iroda kuchi yo'q. Inson ham oqimga qarshi borolmaydi. Inson ruhiy erkinligini tobora yo'qotib bormoqda. Maymunda ijodkorlik ruhi yo'q, insonda ham bunday kuch tobora so'nib bormoqda. Demak, ijodkorik ruhi sustlashganda, inson tubanlashib ketadi. Ruhiy poklikka esa inson faqatgina nafsni tiysagina erisha oladi. Bunday kuchni Nitsshe iroda kuchi, deb ataydi. Bu orqali tashqi muhitni ham o'zgartirib yuborish mumkin.

⁷³ Низим Ф. Антихрист. –М.: 1991. –С. 645.

Shunday qilib, Nitsshe har bir inson qalbida ilohiyot zarrasi bor deydi. Biz axloqni tushuncha sifatida emas, his-tuyg‘ular asosida qabul qilishimiz kerak. Biz qalb amri bo‘yicha yashashimiz kerak. Axloq miyada emas, balki, qalbda bo‘lishi kerak, deydi F.Nitsshe. Insonlarning qalbi ifoslaniib, berkilib qolgan. Lekin barcha iflos oqimlar musaffo okeanga borib quyiladi. Bu okean xudodir. Bu okean tubida inson o‘ziga panoh topadi. Har bir inson axloqiy dunyosining ichida o‘zini erkin his qilib, qaltis qadamlardan o‘zini tiyishi kerak, komillikka intilishi kerak. Komil inson bo‘lish uchun odamga beqiyos iroda kuchi zarur. Ko‘pchilik uni tushuna olmaydi. Vijdon amri bilan yashash kerak. Olamiy iroda har bir insonning qalbida bor, deydi Nitsshe. Qalb nopol bo‘lsa moslashish yuz beradi. Unda inson qalb amri bilan yashamaydi. O‘zini pokiza tutishga intilmaydi.

U Darvinnинг «moslashish» nazariyasiga qaytib, «kuch» tushunchasini kiritadi. Nitsshe fikricha, iroda mustahkam bo‘lsa, u moslashmaydi. Biz ko‘proq boshqalarning kamchiligini sezamiz, o‘zimiznikini esa anglamaymiz. Individual iroda birlamchi olamiy iroda bilan birlashadi. Lekin odamlar irodani mushaklar kuchi sifatida tushunadilar. Lekin hayvonot olamida sher zaiflarni ovlamaydi. Insoniy olam hayvonot olamidan ham vahshiylashib ketgan. Pul, mansab kuchi yuqori baholanadi. Nitsshe fikricha, hukmronlikka intilish insonlarning hayotiy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Bu ehtiyoj hozirgi jamiyatimiz uchun asosiy maqsadga aylanib qolgan. Eng moslashuvchi odam yuqori mansablarda ishlaydi. Aslida insonning iroda kuchini mustahkamlash kerak, deydi Nitsshe.

F.Nitsshe tartib to‘g‘risida ham o‘z fikrlarini bildiradi. Inson adashmasligi uchun qalbida tartib bo‘lishi kerak. Biz «Avesto»ga murojaat qilsak, odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo‘lsa, uyida ham pokizalik bo‘ladi. Inson, avvalambor, o‘z ichidagi yovuzlikni yengishi kerak. Shunda ong ham o‘zgarib, rivojlanib boradi, deydi Nitsshe.

Shunday qilib, Nitsshe falsafiy dunyoqarashi falsafa tarixida o‘ziga xos «hodisa» sifatida o‘rin tutadi. Uning insonning ruhiy borlig‘i, irodasi, hokimiyatga intilish to‘g‘risidagi g‘oyalari XX asr ijtimoiy hayotida katta rol o‘ynaydi.

V.Diltey va G.Zimmelning «akademik» hayot falsafasi

«Hayot falsafasi»ning Nitsshe talqinidan keyin G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida «akademik» hayot falsafasi oqimi vujudga keldi. Bu oqimning asoschisi *Vilgelm Dilteydir* (1833-1911 yy.).

Diltey pastor oilasida tug‘ildi, teologik ma’lumotni Geydelber va Berlin universitetlarida oldi. Falsafaga bo‘lgan qiziqishining ortishi uni teologiyadan chetlashishiga olib keldi, lekin diniy dunyoqarashi uning asarlarida sezilib turadi. Diltey bir necha universitetlarda professor lavozimida ishlaydi. 1882-yildan esa Berlin universitetida muqim ishlaydi. «*Ruh haqidagi fanga muqaddima*» (1894) «*Falsafaning mohiyati*» (1907) nomli Shleyermaxer va yosh Gegel ta’limotiga bag‘ishlangan maxsus asarlar ham uning qalamiga mansub.

Shuningdek, Diltey marksizm asoschilarining qarashlaridan ham, o‘sib kelayotgan sotsial-demokratlar harakatidan ham xabardor bo‘lib, ularga qat‘iy salbiy munosabatda bo‘lgan. Diltey Nitsshening ko‘pgina qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsada, lekin uning qadriyatlarni butunlay qayta baholash kerakligi haqidagi fikrlariga qo‘silmaydi, aksincha, qadriyatlarni qayta tiklashning tarafdori edi.


Diltey Kant, Gegel falsafiy ta’limotlari ruhida tarbiyalanadi. Uning ijodida mazkur faylasuflarning ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi (5-ilova).

Diltey o‘zining nazariy vazifasini «tarixiy tafakkur»ni tanqidiy tahlil qilib chiqishda, tarixiy ta’limotini uslubni yangi talqinini berishda hamda shu asosda tarixiy dunyoqarashning kelajagi va natijalarini ko‘rib chiqishda ko‘radi. Ana shu muammoni yechishda hayot falsafasi tushunchalari apparatidan foydalanadi, «hayot» falsafasini birmuncha rivojlantiradi. Lekin u Nitshedan farqli o‘laroq, ilm-fan ahamiyatini inkor qilmaydi. Aksincha, Diltey inson, jamiyat, tarix, madaniyat haqidagi fanlarni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot sohasi ruhiyat bilan, ruhiyat faoliyati va ong bilan bog‘liqdir (6-ilova).

V.Diltey ta'limoti: ichki va tashqi qabul qilishlar haqida

	<i>Tashqi qabul qilish</i>	<i>Ichki qabul qilish</i>
Fan turlari	Tabiiy fanlar	Ijtimoiy fanlar
Bizga berilgan bilish predmetlari	Tashqaridan va alohida	Ichidan va yaxlit
Bilish obyektlari	Bir ma'noli alohida elementlarning cheklangan soniga bog'liq.	Bir ma'noli alohida elementlarning cheklangan soniga bog'liq emas.
Bilish obyektlariga nisbatan	Gipoteza yordamida ular o'rtasidagi aloqani tuzish (konstruksiya qilish) mumkin.	Gipoteza yordamida ular o'rtasidagi aloqani tuzish (konstruksiya qilish) mumkin emas.
Tadqiqot metodlari	Biz tabiatni tushuntiramiz, ya'ni alohidagi holatlarga umumiyl qonun maqomini beramiz.	Ruhiy hayotga ega bo'lamiz, unda shaxsiy tajribaga tayanamiz.

V.Diltey: Ong tuzilmasi (ruhiyat)



Georg Zimmel (1858-1918 yy.) – Berlinda tug‘ilgan. «Hayot», Zimmel fikricha, ijodiy jarayonning vujudga kelishidir. Bu jarayonni aql vositalari bilan tushuntirib bo‘lmaydi, buni faqat ichki iztirob, intuitsiya orqali tushunish mumkin. Ana shu hayot iztiroblari madaniyatning ko‘pgina shakllari orqali obyektivlashadi. Zimmelning falsafiy qarashlarining shakllanishida Shopengauer va Nitsshe ta’limotlarining ta’siri kuchli bo‘lgan.

Keyinchalik, 1890-1900-yillarda u formal sotsiologiyaning asoschisiga aylandi. Uning asosiy asarlari: «*Falsafa tarixi muammolari*», «*Din*», «*Ijtimoiy differensiatsiya*», «*Hozirgi madaniyat konflikti*» (1918), «*Gyote*».

G.Zimmel hozirgi zamon «konfliktlar sotsiologiyasi»ning asoschilaridan hisoblanadi.

«Akademik» hayot falsafasida «hayot» tushunchasining talqini:

Diltey: «Hayot – bu iroda faktlari, ichki uyg‘onish hissiyotidir. Ular bizga bevosita hayot iztiroblari orqali berilgan».

Zimmel: «Hayot-hissiyot, tajriba, fikr harakatidir. Shu nuqtayi nazardan, olam-hayot tajribasidan kelib chiqadi.

Bilish jarayoni bu bizning ruhiy kuchlarimiz yig‘indisining ijodidir. Obyekt va subyekt esa «hayot tajribasi»ning tashkil etuvchi qismlaridir». Dilteyning ta’kidlashicha, «hayotiy tajriba» aqldan kelib chiqmaydi. «Hayot»ni aql hukmi asosiga qo‘yib bo‘lmaydi. Doimiy oqim, o‘zgarish, «ijodiy jarayon», «hayot» qonuniyatlarini, umumlashmalarni inkor qiladi. «Hayot» va «aql»ni tenglashtirib bo‘lmaydi.

Zimmel umumiyl qonun o‘rniga «individual qonun»ni, ya’ni taqdirni qo‘yadi. Taqdir faqat intuitsiya (ichki ovoz) orqali erishiladigan jarayon. Intuitiv bilish «tarixiy fan»larning, «ruh haqidagi fan»larning markaziy uslubidir. Diltey fan tarafdoi bo‘lganligi uchun, o‘z davridagi psixologiya, fiziologiya fanlarining erishgan

yutuqlarini tan olgan. Insonning ruhiy faoliyati asab tizimi faoliyati bilan bog'liq, deb hisoblaydi.

Tashqi olamning asosi nima, degan masala butun falsafa tari-xida o'zagrib borgan. Qadimgi davrda tashqi olam fakt sifatida berilgan, hech qanday shubhaga o'rinn yo'q (havo, suv, olov va h.k.) O'rta asrda olam xudo tomonidan yaratilgan, unga faqat ishonch hosil qilish kerak. Lekin Dekart o'zining uslubidan kelib chiqqan holda fizik dunyoning obyektiv realligini shubha ostiga oldi, ya'ni obyektiv dunyodan qanday qilib «Men»ga o'tish mumkinligiga shubhalanadi.

Berkilda vaziyat birmuncha o'zgardi. U materiya bu yolg'on narsalar, faqat mening hissiyotim yig'indisidan iboratdir, deydi. Myuller fikricha, «tashqi dunyo bizga bevosita berilmaydi. Hissiyot organlari o'ziga yaqin bo'lgan immanent (ichki) energiyani qabul qiladi. Gelmgols fikricha, hissiyotdan tashqari olam tasavvuriga biz anglanmagan xulosa orqali o'tamiz. Diltey fikricha, tashqi dunyoga ishonch tafakkurlash jarayonida vujudga kelmaydi, balki ichki intilish, iroda va hissiyot orqali paydo bo'ladi. Inson intilishi hayotda benihoya katta rol o'yndaydi. Inson, Diltey fikricha, intilishlar yig'indisi, «tizimidir». Ana shu intilishlar va qiziqishlar irodaviy harakatga chorlaydi va qarama-qarshilikka uchrab, bizda tashqi olam, obyektlar to'g'risida tasavvur uyg'otadi.

Tashqi dunyo realligi biz fikrlaydigan jarayonning natijasi emas, lekin biz uni irodaviy impulslarimiz, qiziqishlarimiz uch-raydigan to'siq sifatida bilamiz. Bilish jarayoni hayot tajribasidan kelib chiqadi. U transsensual olam, tafakkurlash faoliyatining natijasi emas. Ruhiyat haqidagi fanlar uslublari tabiat haqidagi fanlar uslubidan butunlay ajralib turadi.

Tabiat insonga begonadir. Tabiat hodisalari alohida fenomenlar sifatida bizga tashqaridan beriladi, ular o'z holicha «soqovdir» va hech nima demaydi. Tabiatni bilish uchun biz tasavvuriy simvollarga (belgilarga) murojaat qilishimiz kerak. Tabiat hodisalari sababiy bog'lanishini biz tafakkurimizda sintez oqibatida bilamiz, ya'ni ana shu sababli bog'lanish bizning ichimizda sodir bo'ladi. Lekin tabiat ruhiyat fanlari uchun asosdir.

Ruh haqidagi fanlarning predmeti hayotdir. Hayotni dunyodan emas, balki dunyoni hayotdan tushuntirish kerak.

Shunday qilib, Germaniyada «Hayot falsafasi»ga asos solindi. Bu oqimning asoschisi F.Nitsshe hayotni iroda erkinligi, ruhiyat, ruhiy kuch, xoqimiyatga intilish kabi tushunchalar orqali ochib berishga intilgan bo‘lsa, V.Diltey va G.Zimmel hayotni ko‘proq ruhiyat to‘g‘risidagi fanlar asosida izohlashga harakat qildilar. Ular Nitsshe falsafasini o‘zgartirib, uning qarashlariga tanqidiy yondoshib, ya’ni undagi hayotiy ruhini so‘ndirib, «akademik fan» holatiga keltirdilar. G.Zimmel sotsiologiya fani rivojiga katta hissa qo‘shti, jamiyatda «ziddiyatlar» kelib chiqishi va ularni hal qilish yechimlarini, uslublarini ishlab chiqdi. V.Diltey tarixni, madaniyatni o‘rganishda «germenevtika» usulini qo‘llash kerakligiga asos soldi. Keyinchalik bu uslub boshqa G‘arb faylasuflari tomonidan yanada rivojlantirildi.

6.5. Pragmatizm

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda pragmatizm falsafasi bo‘yicha atroflicha va chuqr bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; pragmatizm falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy matnlarni tavsiflash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Pragmatizm, pragma, shubha-ishonch ta’limoti, fan uslubi, «Pirs tamoyili».

Asosiy savollar:

1. Charlz Pirs - pragmatizm asoschisi.
2. Charlz Pirsning «haqiqat nazariyasi».
3. Uilyam Jeyms pragmatizmi.
4. Pragmatizmning axloqiy tamoyili.

XX asr boshlari va keyingi yillarda G'arb falsafasida pragmatizm ahamiyatli o'rinni tutdi. «Pragmatizm» tushunchasining etimologik kelib chiqishi yunoncha «pragma» so'zidan olinib, ish, harakat ma'nolarini anglatadi. Falsafa tarixida bu terminni ilk bor I. Kant o'zining «Sof aqlning tanqidi» asarida «pragmatik e'tiqod» sifatida ishlatgan.

Pragmatizm asoschisi *Charlz Sanders Pirs* 1839-yilda Amerikada tug'ilgan va shu yerda ijod qilgan. Pirs AQSH da faqatgina faylasuf bo'libgina qolmay, o'z davrida fanning astronomiya, matematika, kimyo, logika kabi sohalarini ham rivojlantirgan. Pirs semantika faniga ham asos solgan. U shuningdek, ramziy mantiq rivojiga ham katta hissa qo'shadi va matematikada topologiya sohasida Pirs-Listing nazariyasini kashf qildi.

Pragmatizm falsafasida Pirs Dekartning falsafiy qarashidagi «umumiyligi metodologik shubha» ta'lilotini atroficha tanqid qiladi. Bu tanqid Pirsning 1868-yili «Spekulyativ falsafa jurnalida» nasr qilingan ilk maqolalarida o'z aksini topgan.

Pirs Dekartning quyidagi uch asosiy tamoyilini: metodologik shubha, intuitsiya va haqiqat mezonining ravshan va aniq g'oyalalar sifatida namoyon bo'lishi haqidagi qarashlarini inkor qiladi. Dekart falsafasida asos qilib olingen umumiyligi shubhalanish ta'liloti haqiqiy bilimning mutlaq va ishonarli negizini yaratish uchun ilgari surilgan edi. Shuningdek, Dekartning bu uslubi nufuzli shaxslar fikriga ko'r-ko'rona ergashishga, xurofotlarga, keng tarqalgan omnnaviy fikrlarga, ko'r-ko'rona e'tiqodga qarshi qaratilgan edi. Dekart tashqi olamning obyektiv mavjudligiga hech shubha qilmagan bo'lsa ham, uning borligining mantiqiy asoslarini axtardi. Pirsning fikricha, har narsadan shubha qilish Dekart aytganidek, osonlikcha bo'lmaydi. Inson hayotida shubhalanmaydigan hodisalar va narsalar kam emas. Ularning borligidan shubhalanish hayotiy tajribaga to'g'ri kelmaydi.

Pirs tafakkurni Dekartdan boshqacha tushunib, uni insonning ichki ruhiy holatiga, ishonch va e'tiqodiga bog'laydi. Dekart uchun tafakkurda g'oyalarning mantiqiy bog'lanishi borliqdagi narsalarning bog'lanishini aks ettiradi. Fikr va tushunchalar narsalarning in'ikosidir. Pirs uchun fikrlarning mantiqiy bog'lanishi

o‘zining in’ikos sifatidagi ahamiyatini yo‘qotadi, u o‘z diqqatini g‘oyalarni bog‘lab turuvchi ichki qonuniyatlarga qaratadi (1-ilova).

1-ilova

Pragmatizm: ongning asosiy masalasi

Faylasuflar	Ongning asosiy vazifaları
Charlz Pirs 1839-1914- yillar	Muvafaqqiyatli harakatlarga to‘siq bo‘luvchi shubhani yo‘qotish.
Uilyam Jeyms 1842-1910- yillar	Maqsadga erishish uchun zaruriy vositalarni tanlash.
Jon Dyui 1859-1952- yillar	Muammoli vaziyatni hal qilish uchun vositalarni tanlash.

Pirs uchun g‘oyalar bog‘lanishining ichki qonuniyatları tashqi olamdagи obyektlarga emas, balki ulardan tashqaridagi «transsensual borliq»qa bog‘lanadi. Transsensual obyektning borlig‘ini isbotlab bo‘lmaydi, lekin biz uni borligiga ishonib, shunga asoslangan tarzda ish yuritishimiz kerak. Bizning fikrimizning to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanishi shu Transsensual obyektga borib taqaladi. Pirsning fikricha, hech qanday g‘oya narsalarни aks ettirib, ular haqida mutlaq bilim bermaydi. Uning uchun, g‘oyalar, fikrlar bilim emas, balki narsalar borlig‘ini ko‘rsatuvchi belgilardir. Belgilarning o‘zi ham talqin qilinishga va ularning ichki ma’nosini ochishga muhtojdir. Bu belgilarning ma’nosini ulardan yuqori dapajada turgan boshqa belgilar ochib beradi. O‘z navbatida bu yuqoridagi belgilar, ulardan ham yuqorida turgan boshqa belgilar tomonidan talqin qilinadi va bu jarayon cheksiz bo‘lib, uning na boshlang‘ich asosi, na oxirgi nuqtasi bordir. Shuning uchun ham Pirs boshlang‘ich bilimlarni tan olmaydi.

«Transsensual obyekt» belgilar orqali tushuntirilgan bilim jarayonidan chetda qoladi. Belgilarning mohiyatini ochib berish

masalasi keyinchalik Pirs tomonidan haqiqat, ishonch va bilim haqidagi ta'limotida hal qilindi.

Pirsning shubha-ishonch ta'limoti. Agar Dekart tafakkurni tashqi olamni aks ettirish qobiliyati, ongning in'ikos etish xususiyati deb tushungan bo'lsa, Pirs tafakkurni organizmning tashqi muhitga moslashish faoliyati deb tushundi. Biz uchun narsalarning ichki mohiyati ahamiyatga ega emas. Ularga biz qanday moslasha olishimiz va qanday foydalana olishimiz ko'proq ahamiyatga ega. Tafakkurni bunday tushunish psixologik ruhga egadir va uni e'tiqod bilan bog'lashga imkoniyat yaratadi. E'tiqod, Pirsning fikricha, harakat qilishning eng faol usulidir. E'tiqodning bunday talqinini Pirs XIX asrning mashhur ingliz ruhshunosi Bendan o'zlashtiradi.

Bilish jarayonida shubhani yo'qotish va e'tiqodni mustahkamlash Pirsning shubha-ishonch nazariyasining asosiy g'oyasi va tafakkurning asosiy maqsadidir. Ishonchga erishish natijasida inson tafakkuri xotirjamlikka erishadi. Bu ichki xotirjamlik tafakkurning asosiy maqsadidir.

E'tiqodga erishish va fikr yuritish jarayonida xotirjamlikka ega bo'lish Pirs ta'limotida asosiy o'rinni egallaganligi uchun uni fikrlar va tushunchalar moddiy borliqni aks ettirish va ettirmasligi qiziqtirmaydi. Tafakkurda xotirjamlikka ega bo'lish insonning ichki olami uchun eng e'tiborli haqiqatdir.

Shubha-e'tiqod nazariyasini asoslash uchun Pirs quntiliklilik usulini kiritadi. Inson ishongan narsasiga amal qilish uchun eng zarur bo'lgan xususiyat *tirishqoqlik*dir. Bunga ega bo'lgan insonlar o'z faoliyatida barcha maqsadlarga erisha olishgan. Ulariga qarshilik qilgan boshqa odamlarning fikr-mulohazalari ham ularni bu yo'ldan qaytara olmagan. Lekin inson jamiyatda yashar ekan, har xil fikr yurituvchi shaxslarning to'qnashuvining oldini olish uchun Pirs *nufuzli kishilar* fikrini ham muhim deb hisoblaydi. Masalan, o'rta asrlar davomida xristian cherkovi va boshqa diniy muassasalar bu usuldan keng foydalanishgan va odamlarni shu usul orqali birlashtirishgan.

Fan uslubi. Pirsning fikri bo'yicha, ishonch mustahkam kuchli dalilga asoslanishi kerak. Bunday dalil sifatida Pirs fan usu-

lini tahlil qildi. Pirsning fikricha, *fan* obyektning tahlil qilinishi va ta'riflanishi uchun zarur bo'lgan obyektiv reallikdir.

Bu reallikni qabul qilish, uning fikricha, keyinchalik obyektiv borliqdagi hodisalarini o'rganishda kerak bo'ladi. Lekin keyinchalik Pirs fanning obyekti bo'lgan borliqni *gipoteza* deb oldi. Oldingi o'zi tan olgan fan uslubiga o'zi qarshi chiqdi. Chunki Pirs butun borliqni emas, o'zi o'rganadigan ayrim obyektlarni tan oladi. Shuning uchun ham Pirs butun obyektiv borliqning mavjudligini fan tomonidan isbot qilish shart emas, deb hisoblaydi. Unga faqat ishonish kerak.

Ma'nolar nazariysi. «Pirs tamoyili». Tadqiqot jarayonida olim narsalarning obyektiv sifatlarini, xossalarni emas, balki ularning his-tuyg'ularimizga ta'sir qilishi va shularning natijasida paydo bo'lgan olimning subyektiv taassurotlarini o'rganadi. Olim o'zining his-tuyg'ulari doirasidan chiqib keta olmaydi. Aslida esa bu neokantchilikka qaytish va narsalarni «narsa o'zida» va «narsa biz uchun» ga ajratishdir. Harsalar haqida aniq bilimga ega bo'lish uchun ularni aks ettiruvchi g'oya va tushunchaning mohiyatini bilish zarurdir. Pirs in'ikos nazariyasini tan olmaydi. U tushunchalar va g'oyalarning mohiyati narsalarning obyektiv xususiyatlarini aks ettirmaydi, deb hisoblaydi.

Pirsning pragmatizmi shundan namoyon bo'ldiki, u g'oyalarning ma'nosini ularning obyektga amaliy ta'siri orqali ochib berdi. Shu amaliy ta'sir orqali insonga bilimlar foyda keltiradimi - yo'qmi, degan masala Pirsni birinchi navbatda qiziqtirar edi. Bundan ikki xulosa kelib chiqadi, birinchidan, amaliy ta'sir narsalarning borlig'ini emas, bizning taassurotlarimizdan iborat va ikkinchidan, bu taassurotlarimiz bizning his-tuyg'ularimizga bog'liqidir. Uning fikricha, bu g'oyaning amaliy isbotini olimlar o'tkazadigan tajribalarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, olimlar tajriba paytida narsalarning asl mohiyatlari va borlig'ini emas, balki bu obyektlar haqidagi o'zlarining hissiy taassurotlarini o'rganishadi.

Keyinchalik Pirs narsalarning obyektiv borlig'ini tan olmay, ularni his-tuyg'ularimiz mahsulining majmuasi, deb hisoblaydi. Bu bilan u Berklining subyektiv falsafasiga yaqinlashadi.

Haqiqat nazariyasi. «Biz ishongan narsa haqiqatdir». Bu pragmatizmning haqiqatga bergen umumiy ta’rifidir. Haqiqatni bunday tushunish unga nisbiy tus beradi va insonlarning ongiga, ishonchiga bog‘lab qo‘yadi. Pirs olim bo‘lganligi uchun haqiqatni mutlaq relyativ tushunchaga aylantirmadi. Uni olimlar jamoasining biron-bir tadqiqot masalasi bo‘yicha umumiy fikriga bog‘ladi. Shu yo‘l bilan Pirs haqiqat tushunchasiga umumiylig xususiyatlarini berishga harakat qildi. Biron-bir narsa haqida ayrim olimlarning fikri emas, balki *ko‘pchilik olimlarning umumiy kelishilgan fikri haqiqatdir*. O’sha davr fanida yangi geometriyaning paydo bo‘lishi, hujayraning kashf qilinishi, energiyaning saqlanish qonunining ochilishi natijasida u shunday xulosaga keldiki – fanda ham, ko‘pchilik olimlar tomonidan kelishilgan fikrlarda ham xato bo‘lishi mumkin. Natijada Pirs haqiqat ta’rifini berar ekan, bu ta’rifga yangi so‘zlarni kiritdi. *Haqiqat – bu cheksiz olimlar jamoasining kelishilgan fikri* dedi. «Cheksiz» iborasi haqiqatni ayrim katta guruh olimlarning fikrigagina emas, balki bir davrdan ikkinchi davrga o‘tganida ham cheksiz inson jamoasining fikrlariga bog‘ladi. Keyinchalik bu ta’rifga Pirs *maqsad* tushunchasini ham kiritdi. U haqiqatni maqsadga olib boruvchi faoliyatga bog‘ladi, ya’ni to‘g‘rifikr bizni noto‘g‘ri fikrga nisbatan maqsadga tezroq olib boradi, deb hisobladi.

U.Jeyms ruhiy pragmatizmi. Ch.Pirsning falsafiy merosini rivojlantirgan mashhur amerikalik faylasuf Uilyam Jeymsdir. U ko‘proq Ch.Pirs ta’limotining psixologik va diniy tomonlariga o‘tibor berib, ularni chuqurlashtirib, kengroq ommabop hayotiy falsafani yaratdi. Amerika badiiy adabiyotida Uolt Uitmen qanday o‘rin egallagan bo‘lsa, U. Jeyms falsafada shunday o‘rinni egalladi. U birinchi bo‘lib, sof amerikacha falsafaga asos soldi.

U. Jeyms (1842-1910) madaniyatli, o‘ziga to‘q oilada tug‘ildi. Uning otasi diniy mavzularda ko‘p asarlar yaratdi, akasi esa o‘z davrinining mashhur adabiyotshunosi edi. Jeyms bolalik davridan ko‘p snyohat qilib, natijada qarashlari g‘ayrimilliy (kosmopolit) xarakteriga ega edi, lekin bu tarbiya unga amerikacha ruhiyatni mijassamlashtirib, o‘z qarashlarida aks ettirishga xalaqt bermadi.

U Garvard universitetining tibbiy bo‘limini tugatib, shu maskanda anatomiya va fizioligiyan dars berdi. 1875-yilda ilk bor psixologiyadan dars berdi. 1879-yildan falsafadan ham o‘qituvchilik qila boshladi. 1890-yilda 2 jildlik «Psixologiya asoslari» asarini nashr ettirdi. Bu asar XIX asrning psixologiya sohasidagi eng mashhur asarlardan biri bo‘ldi.

Fan va din o‘rtasidagi ziddiyat. Jeymsning asosiy maqsadi rivojlanib kelayotgan tabiiy bilimlar bilan diniy e’tiqodni birlashtirish edi. Jeyms olim sifatida Darwin ta’limotining tarafdori edi, lekin Pirs singari fan rivoji diniy ta’sirdan tashqarida bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

1870-80-yillarda nashr etilgan maqolalarida Jeyms materializmga qarshi o‘z g‘oyalarni aks ettirgan. 70-yillarda Jeyms ruhiy inqiroz holatiga tushib qoladi. Bunga sabab shu davrda Yevropada keng tarqalgan insonga «mexanistik mavjudot» sifatida tushunish, mexanistik materialistik qarashlar edi. Jeyms diniy g‘oyalarda insonni xotirjamlikka olib keladigan yo‘lni ko‘rdi. Atrof-muhitni o‘rab turgan tasodiflar, qiyinchiliklar, odamlarning ichtiroblari diniy nuqtayi nazardan hammasi o‘tkinchi bo‘lib ko‘rinadi. U, foniylary dunyoda inson ruhiy poklanish uchun qiyinchiliklar sinovidan o‘tmog‘i lozim, deb hisoblaydi.

Xudoga bo‘lgan ishonchda Jeyms ayrim insonlarga tayanch nuqtasini beruvchi muhim zamanni ko‘rdi. Bu zamin insonga amaliy foyda keltirishini ta’kidlab o‘tdi. Jeymsning xudo haqidagi tasavvurlari aynan amerikacha xususiyatga ega edi. Boshqa xalqlar tasavvurida xudo Buyuk va qudratli bo‘lsa, uning tasavvurida xudo insonning hayotidagi hamrohi edi va insondan xudo ga qanchalik naf tegsa, xudodan insonga ham shuncha naf tegishi mumkin. Xudo va inson o‘rtasidagi munosabat o‘zaro manfaat-dorlik munosabatiga aylandi. Bunday munosabatda insonlarni bir-biriga birlashtiruvchi ruhiy kuch o‘rniga ularni bir-biridan ajratuvchi o‘zaro manfaat egalladi.

Jeymsning fikricha, ilohiyot olamini ko‘rib, his qilib bo‘lmasligini fan orqali isbotlab bo‘lmasligi tufayli uning mavjudligini biz gipoteza sifatida qabul qilamiz. Bu gipoteza odamlarga zarurdir. Uning yordami bilan har bir inson o‘z tayanch nuqtasiga ega

bo'ladi. Xudoga ishonch insonning individual ongida mavjud bo'lganligi uchun u boshqa onglardan ajratib qo'yilgan va mavhumdir. Haqiqiy reallik faqat ayrim insonlarning ongida mavjud, boshqa odamlarning ongi uchun bu reallik yopiqdir. Unda mavjud bo'lgan iloh ham ijtimoiy ong uchun bilib bo'lmaydigan, «o'zi uchun mavjud bo'lgan borliq»dir. Bu gumonlarni Jeyms insonlardagi e'tiqodga bo'lgan iroda orqali yo'qotadi. Har bir inson o'z faoliyatida e'tiqodga asoslangan holda faol harakatda bo'lishi kerak. Xudoga bo'lgan e'tiqod uning bor yoki yo'qligidan muhimroq masaladir. Xudoga bo'lgan ishonch insonning erkin irodasiga bog'liqdir, u esa o'z navbatida insonning erkin irodaviy harakatiga bog'liqdir. Jeyms xudoga bo'lgan ishonchni isbotlash uchun aqliy dalillarni keltipishga harakat qildi. E'tiqodning daliliy asoslari to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, ular insonga foyda keltirsa, shuning o'zi kifoyadir. Demak, Jeyms fikricha, e'tiqot erkinligi muhim ahamiyatga egadir. Agar inson biror narsaga e'tiqod qilib qarasa, u albatta, haqiqatga aylanadi, dalilga bo'lgan ishonch bu dalilni yuzaga keltiradi. Masalan, agar erkak ayolga muhabbat izhor qilib, o'z his-tuyg'usiga ishonsa, u albatta, o'zaro muhabbatga sazovor bo'ladi. Barcha ijtimoiy institutlar ularning a'zolarining ishonchiga asoslanadi, agar bu ishonch bo'limasa, bunday ijtimoiy muassasa o'z ichidan yemirliladi.

Jeymsning fikricha (xuddi Pirsdagidek), har bir faoliyatning natijasi unga bo'lgan ishonchga bog'liqdir. Jeymsning asosiy falsafiy g'oyalari uning «Psixologiya asoslari» asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, inson atrof-muhitga moslashadigan organizmdir. Lekin u, atrof-muhitni o'ziga moslashtirib o'zgartirish qudratiga ham egadir. Insondagi tafakkur uning faoliyatini qanday maqsadga qaratilganligi va maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan vositalari bilan belgilanadi.

Jeyms falsafasida ong maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib, individ oldida turgan maqsadlarga erishishiga yordam beradi. Birinchi his-tuyg'u sezgilardan, eng yuqori fikr yuritish qobiliyatigacha ong insonga kerakli bo'lgan narsalarni tanlab, ularni maqsadga muvofiq holda ishlatadi. Jeymsning butun fikrlari individga bog'langan va uning uchun tafakkur muhim xarakterga

ega. Jeyms tajribani ham ong sifatida tushunadi. Uning birinchi bosqichi sezgilardan boshlanadi, deb hisoblaydi. Butun borliq uning uchun tajriba elementlaridan tashkil topadi. U har xil darajadagi fikrlar oqimidan iborat.

Demak, borliq Jeyms uchun insondan tashqaridagi ongsiz reallik emas. *Borliqning* har xil shakllarida biz ong holatlарини ko‘ramiz. Shu holatlардан individual ong o‘zining maqsadiga mos ong shakllarini ajratib oladi va ulardan foydalanadi.

Inson tafakkurida mavhum fikr yuritish qobiliyati rivojlanar ekan, u o‘zining boshqa mavjudodlardan ajratadi. O‘z oldiga maqsad qo‘yib, uni ongli ravishda bajarishga intiladi. Insonning aqli uni butun borliqdan ajratib turadi va unga ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi. Har bir insonda fikrlar doirasi va oqimi individual shaklga ega. Shuning uchun odamlarning ongi bir-biridan ajralib turadi. Inson o‘zining individual ongi orqali boshqa onglarga ta’sir qilishi va o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Tajriba, Jeyms uchun individual ongning bir-biriga ta’siri, shu ta’sir natijasida har bir ongning o‘zi uchun foydaga erishishidir.

Jeyms fikricha, hissiyot bizga berilgan birlamchi narsadir. Tajribaning o‘zi reallikdir, ya’ni inson mayjud bo‘lgan borlikdir. Butun borliqni Jeyms tajribadagi his-tuyg‘ular majmuasi, deb hisoblaydi. Bu masalada uning fikrlari undan oldin o‘tgan Max va Avenarius ta’limotiga o‘xshab ketadi. Ular ham butun olamni tajriba elementlari va ularning yig‘indisi, deb anglashgan. Bunday qarashlar falsafada *radikal empirizm* deb ataladi.

Individning tajribadagi hissiyotlariga boshqa individlarning hissiyotlari qo‘shilsa tajriba doirasi kengayadi, u haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Bu his-tuyg‘ularning manbai tajriba jarayonida ochilmaydi. Biz bu haqida hech qanday ma’lumotga ega emasmiz. Jeyms tajribada uchta muhim qismni ajratdi. Bu – hissiy sezishlar, munosabat, oldingi haqiqatlar, ularning obyektivligi va tajriba tomonidan tasdiqlanishi.

Jeymsning fikricha, inson atrofidagi borliq passiv xarakterga ega. Inson o‘zining faoliyatida bu borliqni o‘zgartiradi. Masalan, bir parcha marmardan inson haykal yoki o‘zining maqsadiga muvofiq boshqa biron narsa yasashi mumkin. Demak, butun

borliq inson tajribalarining yig'indisidan iboratdir. Jeyms dunyoning birligi masalasini inkor etadi. *Dunyo* har xil tafakkur qiluvchi insonlarning tajribasi yig'indisidan iborat. Dunyo doimo o'zgaruvchi va rivojlanuvchi kuchdir.

Jeyms fikricha, haqiqat – bu ezgulik bo'lmasa ham, foyda keltiruvchi bilimdir. Lekin foyda keltiruvchi bilim odatda ezgulikka ham aloqador bo'ladi. G'oya o'z mohiyati bo'yicha na haqiqiy, na yolg'on bo'ladi. Lekin agar g'oya foyda keltirsa, u haqiqatga aylanadi. G'oyalarni ham qurol sifatida ishlatish mumkin. Jeyms g'oyalarning haqiqatligini tekshirib ko'rish lozim, degan masalani o'rtaga tashlaydi. Lekin buni o'ziga yarasha qiyinchiligi bor edi. Masalan, ma'lum bir g'oyalar faqat kelajakda foyda keltirishi mumkin. Biz esa ularni hozirgi zamonda tan olishimiz kerak. Muammo shundaki, bu g'oyalarni haqiqat ekanligini hozirda tekshirish mumkin emas.

Jemys shuning uchun ham g'oyalarni tekshirish lozimligi masalasiga bir oz tuzatish kiritdi, ya'ni har bir vaziyatda bunday imkoniyat bo'lavermasligi tufayli har bir fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini o'zimiz tekshirmsandan, buni tekshirgan shaxsning fikriga ishonch hosil qilishimiz lozim. Masalan, Hindistonda yo'lbarslar bor, degan tasdiqni u yerga borib kelgan odam aytса, biz uni haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilishimiz kerak.

Butun reallikni Jemys tajriba va tajribadagi sezgilar, deb tushunganligi uchun abstrakt tushunchalar yordamida fikr yuritish qobiliyatini ham u tajribaga bog'laydi. Agar biz tajribada qandaydir qiyinchilik va o'zgarishlarga uchrasak, eski tajribadan yangi tajribaga o'tish uchun bizlarga nazariyalar kerak bo'ladi. Demak, tushunchalar va qonunlar bir tajriba doirasidan ikkinchi tajriba doirasiga o'tuvchi ko'priq vazifasini bajaradi. Biz uchun haqiqat bo'lib, foyda keltiruvchi his-tuyg'u va fikrlar oqimi hisoblanadi. Ularning olamni to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirishi mumkinligi Jemys tomonidan umuman inobatga olinmaydi. Uning likricha, g'oyaning haqiqatligi uni foyda keltirishidadir.

Pragmatizmning axloqiy tamoyili. Pirs va Jemysning haqiqatning *faqat foyda* tomonini ochib berishi hozirgi zamon pragmatizmida rivojlantirildi. Masalan, Deyl Kornegining ko'pgina

mashhur asarlarida foyda tushunchasining ijtimoiy tomonlari talqin etiladi. Masalan, alohida bir shaxsning faoliyati faqat shu shaxsga emas, balki boshqa shaxslarga ham foyda keltirsa ijobiy baholanadi. Ayniqsa, tadbirkorlik sohalarida ikkala tomon ham o'zaro manfaatdor bo'lishi kerak. Ko'pchilik odamlarning manfaatdor bo'lishi tadbirkorlikning rivojiga va jamiyatning gullab-yashnashiga olib keladi. Deyl Kornegi bu yerda davlatning ham rolini ko'rsatib, davlat tadbirkorlarga yordam berishi, jamiyatning o'rta tabaqalarini manfaatdor qiluvchi iqtisodiy choralar, qonun va qoidalar orqali jamiyatni rivojlantirishi mumkin, deb hisoblaydi. Bu yerda u ayrim shaxslarning foydasi zaminida butun jamiyat foydasi ham yotadi, deydi. U foydaning axloqiy jihatlariga ham e'tibor beradi. Masalan, biron ta shaxsdan foyda topmoqchi bo'lsangiz, u shaxsga nisbatan samimiy va ezgu his-tuyg'ular orqali munosabatda bo'lsangiz, maqsadingizga erishishingiz mumkin. U psixologik munosabatlar zaminida axloqiy tamoyillar yotishini ochib berdi.

XIX asr oxiri - XX asr boshida rivojlangan pragmatizm falsafiy oqimi yillar davomida o'zgapib bordi. Individualizm ta'lilotidan ijtimoiy manfaat tomoniga o'tish hozirgi pragmatizmida yaqqol ko'rinoqda. Pragmatizmning o'ziga xos tomonlardan biri – e'tiqodning inson hayotidagi muhim o'mini ochib bergenligi bo'ldi. E'tiqod nafaqat dinda, bilish jarayonida ham insonlarga foyda keltirishini ko'rsatdi. Shubhaning salbiy tomonlarini ochib berdi. Diniy masalada pragmatizm xudoni insonga yaqinlashtrishga harakat qildi va uni qandaydir mavhum kuch sifatida emas, balki insonga yordam beruvchi ijobiy kuch sifatida ko'rsatdi.

6.6. Ekzistensializm

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda ekzistensializm falsafasi bo'yicha atroficha va chuqr bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; ekzistensializm falsafasi bilan boshqa ta'limalarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy matnlarni tavsiflash ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Ekzistensializm, «fenomen», inson borlig'i, «dasiyn», «chegara», «o'zi uchun borliq», erkinlik, begonalashish, hayotning mazmunsizligi.

Asosiy savollar:

1. Ekzistensializmning ijtimoiy-psixologik, falsafiy asoslari.
2. M.Xaydegger ekzistensializmi.
3. K.Yaspers ekzistensializmi.
4. J.P.Satr ekzistensializmi.
5. A.Kamyu asarlarida falsafiy qarashlarning evolutsiyasi.

Ekzistensializm falsafasi XX asr boshlarida Germaniyada yuzaga keldi. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy sharoit Birinchi Jahon urushidan so'ng ancha murakkab edi. Germaniya urushda qatnashgan asosiy davlatlardan bo'lib, bu urushda yengilishi munosabati bilan ichki siyosiy-iqtisodiy ahvol nihoyatda og'irlashdi. Mamlakatda ishsizlik, iqtisodiy tanglik avj oldi. Germaniyadagi ziyoli tabaqa vakillari ruhiy inqirozga yuz tutgan edilar.

Bunday sharoitda yangi falsafiy g'oyalarning shakllanishi uchun ehtiyoj va zamin mayjud edi. Ekzistensializm falsafasi aynan shunday sharoitda vujudga keldi. U ateistik va diniy yo'naliishlarda rivojlandi (1-ilova).

1-ilova

Ekzistensializm: ateistik va diniy

<i>Diniy</i>	<i>Ateistik</i>
N.Berdyaev, L.Shestov.	Sof ateistik: J. P.Satr.
G.Marsel,	Shartli ateistik: A.Kamyu,
K.Yaspers, M.Buber	M.Xaydegger

Uning nazariy va g'oyaviy asoslarini S.Kyerkegor va A.Shopenhauerning tushkunlik falsafasi, N.Berdyayevning romantik va

mistik qarashlari, F.Nitsshe va V.Dilteyning «hayot falsafasi» tashkil etadi. Badiiy adabiyotda ekzistensializmning shakllanishiga Kafka, Mark Avreliy, F.Dostoevskiy larning ijodi katta ta'sir ko'rsatdi (2-ilova).

2-ilova

Ekzistensializm: rivojining asosiy davrlari

Davrlar	Mamlakat	Faylasuflar
Birinchi jahon urushi oxiri	Rossiya	N.Berdyyayev, L.Shestov
Birinchi jahon urushidan so'ng	Germaniya	M.Xaydegger, K.Yaspers, M.Buber
Ikkinchchi jahon urushi davrida va undan so'ng	Fransiya	J.P.Satr, G.Marsel, A.Kamyu, S.De Bovuar, M.Merlo-Ponti
1940-1950-yillar	Ispaniya Italiya AQSH	X.Ortega-i-Gasset N.Abbanyano, E.Pachi, U.Louri, U.Barret, Dj.Edi


Ekzistensializm falsafasida «ekzistensiya» tushunchasi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. «Ekzistensiya» – «mavjudlik» degan ma'noni anglatadi. Bu tushunchaning shakllanishida neokantchilikning ham ta'siri bo'lgan. Ayniqsa, «ekzistensiya» tushunchasi Kantning «narsa o'zida» tushunchasiga o'xshab ketadi. Kant falsafasida «narsa o'zida» biz uchun sirli bir olam bo'lib qolganday va bu sirli olamga o'tish, ya'ni Kantning iborasi bilan «transendensiya» sodir bo'lishi qanday mushkul bo'lsa, ekzistensializm falsafasida ham inson borlig'ini bilish va shu borliqning ichki mohiyatini tushunish nihoyatda qiyin. Bu qiyinchilikning sababi nimada?

Ekzistensializm borliq va inson borlig'i masalasini ko'taradi va bu borliq insondan tashqarida bo'lganligi uchun inson bu borliqni idrok eta olmaydi va u haqida hech narsa deya olmaydi.

Biz bu yerda ingliz faylasufi Jorj Berklining qarashlariga o‘xshash mulohazalarga duch kelamiz. Berkli «butun olam mening his-tuyg‘ularim» - degan bo‘lsa, ekzistensializm ham inson o‘z his-tuyg‘ulari chegarasidan chiqib ketolmaydi, deb ta’kidaydi. Berklining bunday dunyoqarashi *solipsizmga* olib keldi, ya’ni bu olamda men dan boshqa hech narsa yo‘q degan falsafiy fikrni keltirib chiqardi. Solipsizm tuzog‘iga tutilmashlik uchun ekzistensionalizm falsafasining asoschilari insondan tashqaridagi borliq masalasini e’tibordan chetda qoldirishdi. Ular borliqqa emas, inson mavjudligiga diqqatlarini qaratdilar. Inson borlig‘ini «ekzistensiya» deb atadilar (3-ilova).

3-ilova

Ekzistensializm ta’limotida: ekzistensiya yo‘nalishi



Insonning mavjudligida hayotning mohiyati ochilmaydi. Biz «Inson borlig‘ining mohiyati nimada?» degan savolni o‘rtaga tashlay olmaymiz. Shuning uchun ham inson hayotining mavjudligi, mohiyati, mazmuni biz uchun sir bo‘lib qolaveradi. «Nega?» degan savol tug‘iladi.

Bu savolga javobni ekzistensialistlar insonning begonalashuvidan axtaradilar.

Dastlab, inson tabiat qo‘ynida yashar ekan, uni o‘zidan ajralmagan holda tabiatning bir qismi sifatida mavjud bo‘lgan. Lekin ko‘hna o‘tmishning bu davri uzoqqa cho‘zilmagan. Inson tafakkuri taraqqiyoti natijasida u sun‘iy tabiat yaratib, o‘zini tabiatdan

ajrata boshladi. Bu begonalashish jarayoni xususiy mulkning shakllanishi, shaharlarning paydo bo‘lishi natijasida nihoyatda kuchayib bordi. Inson aqli yaratgan fan va uning yutug‘i bo‘lgan texnika begonalashish jarayonining kuchayishiga olib keldi. Qachonlardir yagona bo‘lgan odamzod millatlar, elatlar va davlatlarga bo‘linib ketdi. Natijada inson, ham tabiatdan, ham kishilik jamiyatidagi o‘zaro qardoshlik aloqalaridan begonalashib qoldi. Bu begonalashishning *ikkinchi* bosqichi bo‘ldi.

Ekzistensialistlar fikricha, begonalashish jarayonining *uchinchi* bosqichi hozirgi zamonda davom etmoqda. Bu bosqichda inson o‘zining ichki olamidan, o‘zining hayotidan, mazmunidan ham begonalashib qolmoqda. Inson o‘zining botiniy tabiatini yo‘qotib, faqat zohiriyl tabiatda yashab, unga moslashib bormoqda. Inson tobora o‘zining ichki hissiyotlarini yo‘qotib jamiyat mashinasining bir zarrachasiga aylanib qolmoqda.

Demak, ekzistensialistlar fikricha, inson jamiyatda o‘zining qandaydir rolini bajarib boradi. Bu xilma-xil niqoblar ortida insonning asl qiyoferasi yashirinib yotadi. Bu asl qiyofera qachon ochilishi mumkin. Bu qiyofera zaminida yotgan inson mohiyati qachon yuzaga chiqadi? Bu masala ekzistensionalizmni nihoyatda qiziqtirib keldi. Ekzistensializm falsafasi inson o‘z hayotining mohiyati va ma’nosini anglashi uchun, u erkinlikka va erkin tanlash huquqiga ega bo‘lishi kerak, degan fikrlarni ilgari surdi. Lekin inson bu erkinlikni suiiste’mol qilib, bilim mevasidan tatib ko‘rdi va shu bilan gunohkor bandaga aylandi. Uning gunohi bilimga ega ekanligidir. Shu bilim orqali inson o‘zining fojiasiga o‘zi sabab bo‘ldi.

Demak, inson hayot mohiyatini bilishga emas, balki shu hayotda yashash, mavjud bo‘lishga intilishi kerak. Borliqdagagi barcha jarayonlar Sartr ta’limotiga ko‘ra, «narsa o‘zida» bo‘lib qolaveradi va biz ularning sirini ocholmaymiz. Hatto, ilm-fan ham narsa va hodisalarini faqat yuzaki hodisa sifatida o‘rganadi. Ularni harakatga keltiruvchi birlamchi kuchlarni va birlamchi sabablarni metafizika, deb atab, nazarga ham ilmadi. Natijada olamdagagi barcha voqeja va hodisalar inson tomonidan sir, maxfiy «shifrlarga aylanib qoldi. Bu sirlar, maxfiy shifrlar ichida insonning o‘zi ham katta bir sir bo‘lib qoldi.

M.Xaydegger ekzistensializmi. Xaydegger o'zining fenomenologik uslubini yaratib, inson borlig'i masalasini shu uslub orqali tushunishga harakat qildi.

Bu qanday uslub edi? M.Xaydegger fanga «fenomen tushunchasi kiritdi, bu tushunchani ochib berish uchun hodisa va mohiyat o'rtasidagi munosabatni yangicha talqin qiladi. Xaydegger uchun hodisa o'zidan oldingi boshqa bir vaziyat yoki narsaga bog'lanadi va undan kelib chiqadi.

Xaydeggerning «fenomen» tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va «mohiyat» tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi. Xaydegger inson borlig'ini o'rghanar ekan, uni boshqa borliqlardan ajratib oladi. Bu ichki borliqni, ya'ni mohiyatni «ekzistensiya» deb atadi. Demak, Xaydegger falsafasida «ekzistensiya» tushunchasi inson ichki borlig'inining mohiyatini aks ettiradi. Ichki borliqni o'rghanish uchun inson o'z ichki olamini eshitda bilishi niyoyatda muhimdir. Bu ichki olamda esa Xaydegger e'tiborini she'riyatga qaratdi. Negaki, she'riyatda insonning ichki olami niyoyatda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xaydegger qadimgi qo'lyozmalarni o'rghanish va ularning mazmunini insonning ichki olamidan kelib chiqib, asl mohiyatini ochib berishga katta e'tibor beradi. Bu uslubni u «germenevtika» deb atadi.

Xaydeggerdan oldin bu tushunchani Shleyermixer kiritgan bo'lib, qadimgi matnlarni o'rghanish, tablil qilish va falsafiy sharhlashni «germenevtika» deb tushuntirgan. Bu sohada Xaydegger o'ziga xos o'zgartirish kiritdi. Undan ilgarigi faylasuflar Shleyermixer, Diltey va boshqalar bu matnlarni lingvistik tahlil qilishga ko'proq e'tibor berishgan bo'lsa, Xaydegger o'z diqqatini bu tahlil ichida yashiringan ruhiyatni his «eshitishga» qaratadi. Xaydeggerning fenomenologik usuli Gusserlning uslubidan yuqoridaq ko'rsatilgan fikrlardan tashqari shu bilan farq qiladiki, qur'arda fikr oqimini tahlil qilish birinchi o'rinda tursa, Xaydeggerda bu fikrlar orqasida yashiringan fenomen-ichki ruhiy hissuyotni tahlil qilish asosiy ahamiyatga egadir.

An'anaviy ratsional falsafadagi haqiqatga bo'lgan qarash, Xaydegger falsafasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ldi. R.Dekart

haqiqatning asosiy mezoni uning ochiq va ravshanligi deb biladi. Xaydegger ham o‘zining «Borliq va vaqt» asarida shu fikrga qo‘shiladi. Keyinchalik, 1935-yilga kelib, uning fikri keskin o‘zgaradi va shu davrdan boshlab ijodining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Xaydegger «Gelderlin haqida»gi maqolasida haqiqat «qanchalar ochiq va ravshan bo‘lsa, shunchalar yashiringan va mavhumdir», - deydi. Shuning uchun ham Xaydegger borliq haqidagi haqiqatni ko‘proq mantiqiy tushunchalar bilan emas, balki she’riy metafora, obrazlar orqali his qilish mumkin, deb hisoblaydi.

Xaydegger o‘z falsafasiga «dasiyn» tushunchasini kiritadi. Bu tushuncha inson borlig‘i ma’nosini anglatadi. Borliqning boshqa turlaridan, Xaydegger fikricha, u tubdan farq qiladi. «Dasiyn» tushunchasi insonning moddiy borlig‘ini emas, aksincha, uning ongi borlig‘ini ifodalaydi.

Xaydegger inson borlig‘ini ta’riflash uchun, «kategoriyalar» tushunchasini kiritdi. Buning sababi inson borlig‘ining negizi «ekzistensiya», ya’ni «ichki mohiyat» bo‘lgani uchun bu borliqni ta’rif etuvchi tushunchalar ham bu ichki mohiyat bilan bog‘liq bo‘lib unga taalluqlidir. Shuning uchun ular kategoriyalar emas, balki «ekzistensillar»dir. «Ekzistensillar» tushunchasini Xaydegger «Gumanizm haqidagi xat»ida (1947) oolib beradi. Uni inson ichki borlig‘ini «ekstaz» holati deb ta’riflagan. «Ekstaz» bu ilohiy kuch bilan g‘ayritabiyy qo‘shilish jarayonidir.

Xaydegger falsafasida «o‘zlikni anglash» tushunchasi «ekzistensiya»ga bog‘lanadi. U insonning cheklangan borlig‘ining asosida yotadi. Inson borlig‘ining mohiyati Shu tushuncha orqali ham ochiladi. Boshqa mavjudodlar o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga ega emas. Bu qobiliyat faqat insonda mavjud bo‘lib, insonning borlig‘iga xos. Shuning uchun u muhim ahamiyatga ega Insonning hayoti va borlig‘i chegaralangani uchun Xaydeggerda o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini tushkunlik ruhi bilan sug‘orilgandir. Inson ongi tuzilishini uch bosqichga bo‘ladi: «dunyodagi borliq», Xaydegger bunda inson ongini dunyo bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. «Oldinga o‘tish» – inson ruhini borliqdan ajralishi va g‘oyalar sifatida shakllanishi. Bu shakllanishni Xaydegger «loyi-

ha» deb ataydi. «Borliq ichidagi mohiyat»ni ochish uchun narsalar va inson ongi orasidagi munosabatni tahlil qilish zarurdir.

Narsalarning borlig‘iga inson ongi katta ta’sir ko‘rsatadi. Inson borlig‘i narsalar borlig‘i bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir narsada insonning ta’sirini ko‘rishi mumkin. Masalan, muzej eksponatlari hozirgi zamonda mavjud bo‘lgan narsalar bo‘libgina qolmay, o‘tmishdagi davrni va o‘sha davrdagi egasi-ning ta’sirini ham o‘zida saqlaydi.

«Vaqt» tushunchasi Xaydegger falsafasida katta ahamiyatga egadir. Vaqtning o‘tmishdagi, hozirdagi va kelajakdagi xususiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi zamonni o‘tmishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tmish hozirgi davrni qanday yo‘nalishda o‘zgarishini, rivojini ko‘p jihatdan belgilaydi. Demak, o‘tmish hozirgi zamon bilan chambarchas bog‘liq. Kelajakning qanday bo‘lishi ham hozirgi davr o‘zgarishlariga bog‘liq bo‘lib, undan ajralmas holda shakllanadi va rivojlanadi. Insonning kela-jagi qanday bo‘lishi uning ijobjiy hayotiy faoliyatiga bog‘liqdir.

Xaydegger falsafasida katta muammolardan biri – bu yo‘qlik masalasidir. Bu g‘ayritabiyy «yo‘qlik» holati insonda ayrim «chegaradosh» vaziyatlarda sodir bo‘ladi. Bu hayot-mamot masalasi hal qilinadigan hayotiy vaziyatlardir. Inson o‘limga yuz tutgan daqiqalarda uni dahshat hissiyoti qamrab oladi. Dahshat insondagi his-tuyg‘ularni, uning uchun qachonlardir ahamiyatga ega bo‘lgan narsa va munosabatlar qadrini yo‘qotadi va ichki bo‘shliqni paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu ichki bo‘shliqda inson o‘zining asl-mohiyati - «ekzistensiya»sini va boshqa narsalarning sof borlig‘ini his qiladi. Aynan shu vaziyatda insonning asl mohiyati ochiladi va u iroda va ruh erkinligiga ega bo‘ladi.

Xaydegger fikricha, inson ichki mohiyatining ochilishiga yordam beruvchi vositalar tasviriy san’at va musiqadir. Aynan shu sohalarda inson tabiatida yashirinib yotgan ijodkorlik kuchlari yuzaga chiqadi.

Ijod qilish, yangilik yaratish inson tabiatidagi eng katta mo‘jizadir. Inson jamiyatda o‘z o‘rnini topaolmasa, bu ijodkorlik kuchini yuzaga chiqara olmaydi. Uning qalbida yashirinib yotgan marvarid, xuddi dengiz tubida yashirinib yotgan marvaridday o‘z

nurini hech kimga yog'dira olmaydi. Inson qalbi yashirin qolar ekan, undagi nur ham xiralashadi. Qalbi yashirin insondan tashkil topgan jamiyat esa yopiq jamiyatga aylanib qoladi. Bunday jamiyatda inson ijod qilishdan mahrum bo'lib qoladi. U faqat moddiy manfaatlarga intilib yashaydi. Uning moddiy manfaatlari va ehtiyojlari birin-ketin paydo bo'lib, hech vaqt tugamaydi. Bu manfaatlar ketidan intilgan shaxs hech vaqt o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Ekzistensial faylasuflar fikricha, hozirgi jamiyatdagi inson hayotga bo'lган qiziqishini tobora yo'qotib bormoqda. U tabiatning go'zalligini ham, boshqa insonlar kayfiyatini ham his qilmaydi. Inson faqat aqli bilan yashar ekan, aql uni faqat o'z manfaatlarini ko'zlashga undaydi. Natijada inson hayotidan *ezgulik o'rniqa faqat foyda axtaradi*. Bunday odamning ongi dasturlashtirilgan mashinaga, kompyuterga o'xshab qoladi. Inson ham kompyuterga o'xshab, ichki beg'ubor hissiyotlaridan mahrum bo'lib qoladi. Bunday odamlarga hayot zerikarli, ma'nosiz bo'lib tuyuladi. Yurakdagi bolalarga xos bo'lган samimiylilik va hayratlanish xususiyatlarini saqlab qolgan odamlar hayotning go'zalligini his qilishi mumkin.

Xaydegger fikricha, inson o'z qo'llari bilan yaratgan narsalardagina joziba, iliq saqlanadi. Inson bu narsalarni yaratishda ularga o'z mehrini, ruhiyatini beradi. Hozirgi zamonaviy sanoat mahsulotlari esa inson bilan bunday ruhiy aloqani yo'qotgan va natijada inson o'zi yaratgan moddiy olamdan ham begonalashib qolib, narsalardan faqat ehtiyojini qondirish obyekti sifatida foydalanadi.

Insonning asl qiyofasi faqat ayrim sharoitlarda yaqqol ochishi mumkin. Bunday sharoitlarni ekzistensionalistlar *chegaradosh vaziyat* deb ataydilar.

O'lim va hayot o'rtasidagi chegara, insonning ichki va tashqi olami o'rtasidagi va insonning mavjudligi va haqiqiy borlig'i mohiyati o'rtasidagi chegara nihoyatda murakkab bo'lib, bu tushunchani ochib berish uchun ekzistensionalistlar insonning ichki olamiga, erkinlik masalasiga diqqatlarini jalb etdilar.

J.P.Satr va A.Kamyu asarlarida insonning erkinligi, erkin tanlash huquqi asosiy muammolardan biridir. Sartr Ikkinchiji Jahon urushi davrida fashistlarga qarshi «Ozodlik» harakatida faol qatnashib nihoyat boy tajribaga ega bo'lgan. Bu harakatda vatanpar-

var qatnashchilar bilan bir qatorda sotqinlar ham bo‘lgan. Ularni bunday qilishga majburlagan holat o‘lim oldidagi qo‘rquvdir.

Sartrning fikricha, o‘lim muqarrar bo‘lgan holatda ham insonda erkin tanlash imkoniyati bor. Agar inson o‘z erkinligidan voz kechsa, bu o‘limdan ham og‘irroqdir, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, o‘lim haqiqatdir. O‘lim arafasida insonning ichki kechinmalarida keskin o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarish natijasida inson avval anglab yetmagan narsalari birdaniga o‘z-o‘zidan ravshanlashadi. Inson uchun yaxshilik va yomonlik ortida yotgan cheksiz olam ochiladi. Barcha narsalardagi ziddiyatlar birdaniga birlashadi.

K.Yaspers ekzistensializmi. Karl Yaspers 1883-yilda Oldenburg shahrida tug‘ilgan. Dastlab u huquqiy bilim oladi, tibbiyot sohasi bilan shug‘ullanadi. Huquqiy sohami «mavhum» deb hisoblaydi. Yaspers Berlin, Gettingen, Geydelberg shaharlari universitetlarida tibbiyot bo‘yicha tadqiqotlarini olib borib, tibbiyot va psixiatriyadan doktorlik unvoniga sazovor bo‘ladi.

Germaniyada fashistlar hokimiyatga kelgandan so‘ng uning professorlik faoliyati tugallandi. 1933-yildan so‘ng barcha ma‘muriy lavozimlarda ishlashdan mahrum etildi. Buning asosiy sabablaridan biri uning 1910-yilda turmush qurban, yahudiy millatiga mansub bo‘lgan rafiqasi Gertruda Mayerdan voz kechishdan bosh tortganligidir. 1937-yilda professorlik univonidan ham mahrum qilindi. 1938-yilda uning asarlari ham norasmiy man etildi. 1943-yilda bu man etish rasmiy tus oldi.

1948-yilda u Shveysariyaning Bazel shahriga ko‘chib o‘tadi. Bu yerda u 1961-yildan mahalliy universitet falsafa kafedrasida professor lavozimida ishlaydi. 1969-yilda shu yerda vafot etadi. Yaspersning psixiatriya, psixiatriya tarixi, falsafa va ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid asarlari jahon adabiyotida mashhur bo‘lib, jahonning 25 tiliga tarjima qilingan.

Yaspersning asosiy asarlari: «Umumiy psixopatologiya», «Psixopatologiya bo‘yicha maqolalar to‘plami», 3 jiddlik «Falsafa», «Kant», «Nitsshe», «Avgustin», «Mashhur insonlar (Suqrot, Budda, Konfutsiy)», «Martin Xaydeggerga taalluqli lavhalar», «Falsafa e’tiqodi», «Falsafiy tarjimai hol», «Illohiy voqeaga

falsafiy e'tiqod munosabati», «Aflatun», «Spinoza», «Stringberg va Van Gog», «Haqiqat to'g'risida», «Falsafa nima?», «Universitet g'oyasi», «Ilohiyatning mavhum belgilari», «Buyuk faylasuflar: Anaksimandr, Geraklit, Parmenid, Platon, Avliyo Anselm, Spinoza», «Qadimgi davrlardan xrestomatik metafizikasigacha», «Ayb masalasi-irqiy qirg'in kechirilmaydi».

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida Yaspersning asarlari noma'lum edi. Faqat 1991-yilga kelib, «Tarixning mazmuni va mohiyati» rukni ostida uning 3 ta asosiy asari nashr etildi. Keyinchalik ana shu rukn ostida «Vaqtning ruhiy holati», «Falsafiy e'tiqod» asarlari ham nashr etildi.

Yaspersning diniy qarashlari uning falsafiy ta'limotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ijodi ko'p jihatdan Xaydegger va Sartrning ijodiga yaqin.

Xaydegger dunyoqarashining ayrim tomonlariga o'xshashligiga qaramasdan, «dasiyn» tushunchasi bo'yicha Yaspersning inson borlig'i haqidagi fikrlari undan katta farq qiladi. Yaspers falsafasida «dasiyn» insonning asl mohiyati bo'lmay, balki predmetlashgan va begonalashgan inson borlig'idir. Insonning asl borlig'i esa «ekzistensiya»da namoyon bo'ladi, «dasiyn» esa uning alohida xususiyatidir.

Ekzistensiya inson ichki olamining obyekti emas, balki sababidir. Ekzistensiya o'z-o'zini belgilaydi va ilohiyot («transsendensiya») olamini bilish uchun kalitdir. «Ekzistensiya» va ilohiyat tushunchalarining mohiyati taffakkur, aqliy bilim orqali ochilmaydi. Aqliy tadqiqot ilohiyat olamini bilish uchun faqat zamin tayyorlaydi. Bu olamning o'zi narsalar, obyektlar mohiyati orqali «belgililar (shifr)» orqali namoyon bo'ladi. Insonning asl mohiyati uning faoliyati obyektlari orqali ochiladi. O'z faoliyati orqali inson asl ichki erkinligini ochadi. Ekzistensiyasiz «taffakkur va hayot cheksiz borliqda yo'qolib ketadi».

Agar fan tashqi olamdag'i obyektlarni o'rganib, shu bilim orqali inson taffakurini rivojlantirsa, ekzistensial falsafani bu yo'sindagi taffakkur rivoji qiziqtirmaydi. U obyektiv olamni fanga yaqin bo'lgan usullar, vositalar orqali o'rganmaydi. Shuning

uchun ekzistensial falsafa *tilga* murojaat qilib, undagi umumiylilik o‘rniga shaxsning individual xususiyatlariiga e’tibor beradi.

Insonning har kungi hayotida uning ichki mohiyati ochilmaydi. U faqat chegaradosh vaziyatlarda, ya’ni inson hayot va o‘limi hal qilinayotgan paytda yuzaga chiqadi. Demak, insonning borliq sirlari oddiy hayotda mavhum, yashirin bo‘lib, g‘ayritabiiy vaziyatda bu mavhumlikning asl qiyofasi gavdalanadi, yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yaspersning fikricha, o‘lim bilan bir qatorda parokandalik holatida ham inson mehr qo‘ygan narsalaridan ajralar ekan, bulardan ham ustun turadigan qadr-qimmat borligini his qiladi. Bu qadriyat moddiy boylik bo‘lmay, beqiyos cheksiz ummondir. Bu ummonni qalb xotirjamligi, ichki sokinlik deb ham atashimiz mumkin. Bu ichki sokinlik oldida hayot bo‘hronlari kuchsizdir. Ichki sokinlikning o‘zi Buyuk bir olamiy kuchdir. Yaspers fikricha, bu ichki sokinlik xotirjamlik olamiga inson esankiratib qo‘yadigan yo‘qotishlar, ajralishlar natijasida kirish mumkin. Bunday zarbalarga faqat qalbda yashiringan cheksiz xotirjamlik va ichki sokinlik dosh bera olishi mumkin. Inson yo‘qotish orqali butun borliqda mavjud bo‘lgan ichki sokinlikni birdaniga his qiladi. Agar inson qalbi yolg‘iz bo‘lgan bo‘lsa, endilikda bu ichki sokinlik orqali butun borliqqa tutashadi. Ekzistensiolizmdagi *chegaradosh vaziyat* masalasini faylasuflar aynan shunday ochib berdilar.

Tashqi olamdagagi obyektlarning belgi sifatidagi mohiyati faqat ekzistensial bilishda ochiladi. Yaspers fikricha, faqatgina ilohiy kuch tashqi obyektlar olamini undan ajratib, qolgan insonning ichki olami bilan birlashtiradi. Bu ilohiy kuch aqliy bilish o‘rniga ekzistensial qo‘rquv holatida ochiladi. Kundalik hayotda inson ilohiy kuchni his qilishga, bilishga qodir emas. Uning ongi hayotiy tashvishlar bilan band bo‘ladi. G‘ayritabiiy o‘lim va hayot o‘rtasidagi chegaradosh vaziyatda inson ilohiy kuchdan najot istab, unga intiladi. Demak, qo‘rquv orqali inson ongi ilohiy kuchga yaqinlashadi.

Borliq masalasini o‘rtaga tashlagan metafizika, ilohiy kuchga yaqinlashish yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning ichki erkinligi cheksiz bo‘lganiday, bu yo‘l ham cheksizdir. Inson ilohiy kuchning borligini ham tan olsa ham, tan olmasa ham bu masalani

o‘z oldiga qo‘yar ekan, inson ichki erkinligi va uning butun borlig‘i xudo bilan bog‘liq bo‘lib qoladi.

Insonning ichki erkinligi uning hayotiy yo‘li bilan chegaralangan bo‘lib, ekzistensiya tushunchasini ochib berolmaydi. Yaspers fikricha, ekzistensiya bu insonning ichki erkinligi emas, balki bu insonning xudo bilan bo‘lgan aloqasi, ichki erkinlik olamidan, ilohiyat olamiga sakrashidir. Ilohiy til orqali predmetlashadi va uning belgilarini biz g‘oyalarda, obrazlarda, miflarda, diniy tushunchalarda kuzatishimiz mumkin.

Yaspers foni va boqiy olamni bir-biridan ajratib, foni olam bizga obyektlar orqali, his-tuyg‘ularimizga berilgan. Boqiy olam esa, moddiy bo‘limganligi uchun biz uni his qilolmaymiz. Shuning uchun ham bizga bu olam sarobdir. Lekin biz uni inkor eta olmaymiz. U narsalarning ichki mohiyatida «belgi» sifatida yashiringan. Bilish jarayoni obyektlar moddiy olamining in’ikosidir. Lekin aqliy bilish hech qachon in’ikosni obyekt bilan tenglik sifatida tan olmaydi. Masalan, ko‘zgudagi inson aksi insonning o‘zidan farq qiladi. Demak, aqliy bilish obyekt va subyekt o‘rtasida farq bor deb hisoblaydi. Aksincha, ilohiy bilishda bu bo‘linish yo‘qoladi. Subyekt va obyektga ajralish ham ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Butun borliqni yaratgan Xudo subyekt sifatida barcha obyektlarning mohiyati, ekzistensiyasi sifatida mavjuddir. Masalan, Yaspers fikricha, Injildagi xudoning so‘zi va amali birdir va o‘zi yaratgan borliqda namoyon bo‘ladi. Bu borliqdagi xudoning mavjudligini inson o‘zining aqliy bilishi orqali tahlil qilolmaydi. Biz xudoning har yerda mavjudligini faqat chegaradosh vaziyatlarda qo‘rqish yoki ko‘tarinki ruhiy holatda his qilishimiz mumkin. Kundalik hayotimizda bu his-tuyg‘u yo‘qoladi va uning o‘rnini shubha egallaydi.

Shubhani yo‘qotish uchun inson bilimga intiladi. Insondagi bilimga intilish ehtiyojini Yaspers, fojiali deb hisoblaydi. Odam Ato bilimga intilib, bilim mevasidan totib ko‘rganligi uchun jannatdan haydalgan. Demak, haqiqatni bilishga intilish xudo tomonidan berilgan inson erkinligidan kelib chiqadi. Insonga xudo tomonidan berilgan erkinlik uni xato yo‘lga boshladi va insonning boshlang‘ich gunohiga sabab bo‘ldi. Lekin bu erkinlik xudo tomonidan berilganligi uchun ilohiyot olami ham bu xatoga sababchidir.

Inson qalbida azaldan ikki qarama-qarshi kuch kurashadi. Bu ezgulik va yovuzlik kuchlari – farishta va shaytondir. Bu ikki kuch o‘rtasidagi kurash doimo davom etadi. Bu kurash bor ekan, inson insonligicha qoladi. Lekin bu kurash natijasida inson ichki xotirjamligiga erisha olmaydi, baxtsizlikka, cheksiz iztirobga mahkumdir. Unga na yaqinlari, na do‘stu birodarlar, na sevgan odamlari, na boylik rohat bera oladi. Inson o‘z ichki olamida rohat topa olmaydi. Bu rohatni unga na o‘zi, na ilohiy kuch bera oladi. Insonning ichki olamidagi ziddiyat butun borliqqa xosdir. Bu ziddiyatdan chiqib ketish yo‘llari inson uchun mavhummdir. Inson barcha narsalarda ilohiy belgilarni topadi, lekin ular uning uchun mavhum bo‘lib qoladi. Bu vaziyatdan chiqib ketish uchun inson ziddiyatni bartaraf qiluvchi mutanosiblik, ya’ni garmoniyaga intiladi. Bu holatni musiqadan, mifologiyadan, san’atdan, arxetekturadan axtaradi. Lekin bu sohalarda ham belgilarni ochib berish mavhumlikni ravshanlashtirish uchun insonda ichki ekzistensial ruhiy ko‘tarinkilikka erishishi yoki tubanlashishi lozim.

Ekzistensial holatdan tashqarida butun olam inson uchun mavhumdir. Barcha tushunchalar, makon, zamon, o‘lim va hayot, haqiqat va nohaqlik, baxt va iztirob, yovuzlik va ezgulik v.h. insonlar uchun belgilarga aylanib qoladi.

Yaspers uchun inson borlig‘i tashqi borliqdan ajralgan. Bu bo‘linish barcha narsa va hodisalarga xos. Bu ajralishdan, begonalashishdan chiqib ketish yo‘llarini Yaspers xudoga bo‘lgan ishonch va undan qo‘rqish holatidan axtaradi. Shuning uchun Yaspers falsafasini biz diniy falsafa deb ataymiz. Yaspers o‘z davridagi rivojlangan aql, mantiqiy pozitivizmni tanqid qilgan. Uningcha pozitivizmning tushunchalari haqiqatga emas, balki fikr bo‘shlig‘iga olib keladi. Lekin Yaspersning o‘zi ham bu xatodan holi qolmadidi. U o‘zining falsafiy qarashlarida insonga xos bo‘lgan bilimga intilish uning erkinligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi. Bu esa insonning jannatdan haydalishiga va doimiy kurashga mahkum etadi. Demak, Yaspers inson tabiatida eng yuqori qo‘ygan xislatlardan biri bilimga intilishdir. Bu xislat esa uni baxtsizlikka olib keladi. Bilish jarayoniga tanqidiy yondashgan boshqa irratsional falsafiy yo‘nalishlar Yaspers qarashidan chetda

qolgan. Uning ta'limotida mo'jizaga o'ren yo'q. Insondagi eng Buyuk mo'jizaviy kuchga ega his-tuyg'u - muhabbat tuyg'usi uning uchun quruq belgiga, shifrga aylanib qolgan. Barcha mavhum va belgilarni, o'zining ichki nuri bilan yorituvchi ilohiy muhabbat xudoning insonga bo'lgan muhabbati va insonning unga bo'lgan muhabbati Yaspers e'tiboridan chetda qoldi. Ilohiy muhabbatni olamdag'i barcha ziddiyatlarni birlashtiruvchi, barcha mavhumliklarni ravshanlashtiruvchi mo'jizaviy kuch Yaspers falsafasida ochilmagan sir bo'lib qoldi.

Fransuz ekzistensializmi. Fransuz ekzistensializmi og'ir sharoitlarda shakllandi. Uning vakillari J.P.Sartr (1905-1980) va A.Kamyu natsizmga qarshi Fransiyaning «ozodlik» partizanlar harakatida qatnashishdi. Fashistlar bosqinchiligi natijasida Fransiya xalqi ko'pgina moddiy va ma'naviy talofatlar ko'rdi, minglab fransuzlar va boshqa slavyan xalqlar Ikkinchi Jahon urushi davrida ozodlik, erkinlik uchun hayotlarini qurban qildi.

Bu voqealarning guvohi bo'lgan ekzistensial falsafaning vakillari inson qadr-qimmati, hayot mohiyati, hayot va o'lim o'rtaсидаги chegaradosh vaziyat insonning ichki ruhiy erkinligi, irodasi va og'ir vaziyatda insonning erkin tanlash muammolarini ko'tarib chiqishdi.


Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda ekzistensializm faylasuflarining qarashlari rivojlanib yangi falsafiy fikrlar va g'oyalar paydo bo'la boshladи. Ekzistensializm evolutsiyasini, ayniqsa, A.Kamyuning qarashlarida kuzatishimiz mumkin. A.Kamyu ijodining ikkinchi bosqichlarida falsafiy qarashlari nihoyat muhim o'zgarishlardan o'tdi.

J.P.Sartr ekzistensializmi. Jan-Pol Sartr Parij shahrida 1905-yil 21-iyunda tug'ildi. 1980-yili 15 aprelda shu shaharda vafot etgan. 1924-1928-yillarda Ekol Normal Superior nomli kollejda tahsil olgan; 1929-yilda faylasuf dirlomini oladi. 1931-1933-yillarda Le-Gavr shahri gimnaziyasida o'qituvchilik qiladi. 1933-1943-yillarda Fransiya institutining mukofatiga sazovor bo'lgan. E.Gusserl, M.Sheler, M.Xaydeger, K.Yaspers asarlarini chuqr o'rganadi. 1937-1939-yillarda Parijdagi Paster litseyida o'qituvchilik qiladi. 1945-yildan boshlab erkin yozuvchilik faoliyatini bilan

shug‘ullanadi. J.P.Satr o‘zining akademik falsafiy usulidan voz kechib, keng ommaga mo‘ljallangan, tushunarli bo‘lgan adabiy asarlar yozishga o‘tdi. Oddiy, ravon, keng ommaga tushunarli bo‘lgan adabiy til Sartrning yozish uslubiga aylandi va u ko‘pgina mashhur asarlar yaratdi. Masalan, «Borliq va yo‘qliq qissasi», «Ozodlik yo‘li», «O‘sish davri», «Kommunistlar va dunyo» kabi maqolalarini yozdi. Uni bir necha asarlari uchun Nobel mukofotiga tavsiya qilishadi, lekin u bu mukofotdan voz kechadi. U 1945-yilda «Yangi davr» jurnaliga asos soladi. Bu jurnal Fransiyaning urushdan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynadi. Uning falsafasida ko‘p tushunchalar Xaydegger dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. O‘zining «Borliq va yo‘qlik» asarida Sartr Xaydeggerning «dasiyn» tushunchasiga yaqin «o‘zi uchun borliq» tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha Sartrning fikricha, inson ichki olami mohiyatini ochib beradi (4-ilova).

4-ilova

J.-P.Sartr: Ong tuzilmasi



Bu tushunchani yoritish uchun Sartr «faollik» tushunchasini ham o‘z falsafiy tizimiga kiritadi. Faollik tushunchasini ikki turga ajratadi: ishchan faollik, sust faollik. Butun borliqqa harakatning har xil turlari mansub bo‘lganligi uchun uni insondan tashqaridagi borliq deb hisoblaydi (5-ilova).

J.-P.Sart: borliq tiplari

<i>Borliqning tiplari</i>	<i>Borliqning xarakteristikasi</i>
«Borliq o‘zida»	Narsa borlig‘i shakllari, ular o‘zlari bilan aynanlikda olingan; bu borliq ongga muhtoj emas va unga qodir ham emas; ong ana shu dunyo bilan yonma-yon mavjud, lekin unga mutlaqo bog‘langan emas.
«O‘zi uchun borliq»	Ong dunyoni aniqlaydi (uni sharhlaydi) va bir vaqtning o‘zida uni o‘zidan ajaratadi; zotan u o‘zining mohiyati Hech nima ekanligini anglaydi, ya’ni mutlaq erkinlik va mutlaq imkoniyat; mening “Men”i hayot “loyihasini” erkin quradi, o‘z mohiyatini erkin belgilaydi.
«O‘zga uchun borliq»	Qachonki mening shaxsiyligimga (subyektivligimga) o‘zgalar suqilib kirsa, mening subyektimni o‘zining obyektiga aylantirsa, shunda mening borlig‘imda O‘zga paydo bo‘ladi va “o‘zi uchun borliq” “o‘zga uchun borliqqa” aylanadi. Zero, bunda mening “Men”i O‘zga loyihasining bir qismiga (elementiga) aylanadi (markaziga emas). Bu meni falajlaydi, O‘zga nigohi ostida “Men” uyatni, noqulaylikni, andishani his qiladi. O‘zganing mavjud bo‘lishi mening erkinligimni o‘g‘irlaydi. Insonlar o‘zlarining erkini saqlab qolish uchun, boshqalarning erkinligini olib qo‘yishga intiladilar. Bizning boshqalarning erkiga bog‘liqdir, ularning erki esa bizga. Shuning uchun ham men o‘zim bilan birga, boshqalarning erkli bo‘lishini tilashim kerak.

Inson o‘z faoliyatining asosida maqsad yo‘qligi va uni amalgaloshirishga intilganligi uchun insonning ichki olamidagi faoliyatni ishchan, aktiv faoliyat hisoblanadi. Ishchan faoliyatni Sartr erkinlik deb ataydi. Uni tabiatdagi erkinlikdan farq qiladi. Tabiatdagi erkinlik zaruriyatga bog‘liq bo‘lib, uni anglash natijasida shakllanadi. Insonning ichki olamidagi erkinlik esa, uning ichki mohiyatidan kelib chiqadi va faqat ayrim vaziyatlarda namoyon bo‘la-

di. Bu vaziyatlarni ekzistensialistlar chegaradosh vaziyat deb ataganlar. Bu o'lim va hayot o'rtasidagi chegaradir. Bunday vaziyatlarga biz hayotimizda nihoyatda kam tushib qolishimiz mumkin. Masalan, urushda qatnashish masalasi inson oldiga shunday chegaradosh vaziyatni qo'yadi. Bu vaziyatda inson tanlashga majbur bo'ladi: urushda qatnashish yoki qochoqlik qilish. Bu tanlashga ham inson, Sartr fikricha, erkinliik bilan yondashishi kerak. Demak, Sartr fikricha, erkinlik shunday chegaradosh vaziyatlarda insonga o'zining aktiv faoliyatini va asl ichki qiyofasini ochishga yordam beradi.

Urushdan keyingi yillarda Sartrning axloq mavzusiga bag'ishlangan asarlari Fransiya ziyyolilari o'rtasida norozilik va tanqidiy qarashlarga sabab bo'ldi. Bularga qarshi Sartr o'zining maqolalarida ekzistensionalizm falsafasining g'oyalari axloqiy qarashlarga zid kelmasligini tushuntirdi. Sartrning fikricha inson chegaradosh vaziyatda ham o'zining erkinligini yo'qotmaydi va bu yo'nalishda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladi. Ba'zan esa, bu harakatlar axloqiy prinsiplarga zid kelib qolish ham mumkin. Aynan shunday holatni ko'pgina tanqidchilar axloqsizlik deb atashgan. Jumladan, o'z zamonasining g'arb tad-qiqotchilari tomonidan Sartr ta'limoti axloqsizlikda ayblanganligi uchun u mas'uliyat tushunchasini erkin tanlash vaziyatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Sartr fikricha, insondagi mas'uliyat insondagi axloqiy-ma'naviy tushunchalarni inkor etish uchun emas, balki ularni tan olishga da'vat etadi. Lekin bu mas'uliyat tashqi hayotning zaruriylari va ehtiyojlari natijasida emas, aksincha, insonning ichki, aktiv faolligidan kelib chiqadi. Bunday mas'uliyat, Sartr fikricha, jamiyat hayotining ijtimoiy zaruriyatlariga, qonuniyatlariga ko'r-ko'rona bo'ysunishidan emas, balki ichki iroda erkinligi va aktiv faoliyatidan kelib chiqadi. Sartrning ekzistensialistik falsafiy qarashlari dinsizlik ruhiga ega bo'lgan. Shuning uchun ham Sartr insonning ichki olami, borlig'ini tashqi olamdan ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan. Ularni birlashtiruvchi ilohiy kuchni rad etgan. Bunday dunyoqarash natijasida Sartr uchun erkin ruh emas, balki shaxs erkinlikka mahkum qilingan bo'lib chiqadi. Masalan, Sartrning fikricha, birorta shaxs qamoqda

o'tirsa ham ichki erkinlikdan uni hech kim mahrum qila olmaydi. Unga hech kim erkin yashashni, fikr qilishni, erkin o'ylashni, qamoqdan qochish rejasini tuzishni man qila olmaydi.

Sartrning mashhur iborasi bo'yicha, «inson erkinlikka mahkum etilgan». Lekin bu erkinlik insonga baxt keltirmaydi. Insonning shaxsiy erkinligi boshqa odamlarning erkinligi bilan to'qna-shadi, natijada inson vaziyat paydo bo'lganda tanlashga majbur bo'ladi. Bu tanlashda shaxsning ichki dunyoqarashi yaqqol gavdalanadi. Mana shu ichki olamda inson o'zining mas'uliyatini his qilmog'i kerak. Shu mas'uliyatni amalga oshirishda uning o'zi erkin bo'lmog'i lozim.

Demak, Sartr fikricha, *erkinlik* mas'uliyatni his qilib, shu asosda tanlash jarayoni bilan bog'langan. Bu tanlash erkinligidir.

A.Kamyu ekzistensializmi. Albert Kamyu 1913-yilda Jazoirda tug'ilgan. U kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi. Bir yoshga to'lganda otasi vafot etadi. Onasining boy xonadonlarda oqsochlik qilib topgan puliga o'qiydi. Kamyu o'qigan mакtab o'qituvchisining sa'y-harakatlari tufayli Jazoir universiteti uning uchun stipendiya to'laydi. U yerda Kamyu falsafani o'rganadi. Ijod qilishni erta boshlaydi. Havaskor teatr tashkil qiladi.

1938-yilda Kamyu «Alje respubliken» yangi so'l gazetasida ishlay boshlaydi. Gazetani taqiqlab qo'yishgandan so'ng Kamyu Parijdagi "Paris Loire" tahririyatida ishlaydi. Fransiya bosib olingandan so'ng esa Jazoirga qaytadi. 1941-yil kuzda yana Fransiya ga qaytib borib, qarshilik harakatining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu yerda Sartr bilan tanishadi.

1942-yilda A.Kamyuning «Begona» nomli povesti nashrdan chiqadi. 1943-yilda falsafiy asari «Sizif haqida afsona» nashr qilinadi. 1944-yil avgustdagি qo'zg'olondan so'ng «Komba» gazeta-sida bosh muharrir sifatida ishlaydi. 1947-yilda Kamyuning mashhur «Vabo» romani chop etiladi. 1951-yilda «Isyonkor inson» nomli falsafiy asari nashr qilinadi, 1956-yilda yirik «Buzilish» asari nashrdan chiqadi.

Sovuq urush yillarida Kamyu ruhiy iztiroblar va tushkunlik holatini boshdan kechiradi. Umrining oxirgi yillarida ijodiy inqirozdan chiqib ketish yo'llarini topa olmaydi va 1960-yilda avto-

mobil falokatidan fojiali halok bo‘ladi. Kamyuning falsafiy qarashlari ziddiyatli bo‘lib, o‘zgarib, rivojlanib borgan. Uning dunyoqarashiga individualizm va hayotning ma’nosizligi haqidagi fikrlar xos bo‘lgan. Uning qarashlari ham falsafiy ham badiiy sifatida yozilgan. M.Xaydegger va K.Yaspersning qarashlaridan Kamyuning farqi shundaki, u borliq masalasini ko‘tarmaydi. M.Xaydegger borliqning mazmuni haqida gapiradi. Kamyu esa borliq masalasini chetda qoldirib, butun e’tiborini hayot mazmuni masalasiga qaratadi.

Kamyuning fikrlari, jamiyatda diniy e’tiqod susaygan davrda shakllandi. Xudodan ajralib qolgan insonning hayoti o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shunday vaziyatda insonning hayoti ma’nosiz degan fikr tug‘iladi. Kamyu falsafasining negizi individualizmdir. S.Kekegor falsafasida bu individualizm diniy qarashlarga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, Yaspers falsafasida esa individ transsendensiya orqali ilohiy kuch bilan bog‘lanadi. Kamyu va Sartrning diniy e’tiqod-nizliklari tufayli bu aloqa butunlay uzilgan. Inson hayoti butkul ma’nosiz bo‘lib qolgan.

Inson hayotining ma’nosizligi Kamyuning «Begona» asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu asarning qahramoni O‘rta Yer denizida yashovchi oddiy hayot kechiruvchi xizmatkor Merso hech narsaga qiziqmaydi va hech kimga mehr qo‘ymaydi. Hatto uning qariyalar uyida yashaydigan onasiga ham mehri yo‘qdir. Onasining vafotini Merso butunlay befarq qabul qilib, barcha zarur mafosimlarni befarqlik bilan bajaradi. O‘zi bilan yashaydigan ayloga ham hirsiy munosabatdan tashqari hech qanday his-tuyg‘usi yo‘q. Odamlar ichida Merso o‘zini begona deb hisoblaydi. Undagi yagona iliq munosabat faqat tabiatga nisbatan saqlanib qolgan. U tabiatni butun qalbi bilan yaxshi ko‘radi. Faqat shu his-tuyg‘u uni yinchashga da’vat etadi.

Kunlardan bir kuni Merso dengiz bo‘yiga hech qanday niyntsiz, o‘zi bilan qurol ko‘tarib boradi. Bu qurolni nima uchun tablatishni hech tasavvur qilmagan Merso favqulodda dengiz bo‘yida yurgan arab yigitini otib o‘ldiradi. Uning ustidan boshlangan sud jarayonida Merso bu xatti-harakatini hech qanday tabab bilan tushuntirib bera olmaydi. Kamyu odamlar o‘rtasidagi

mehr-oqibatning ko‘tarilishi va buning natijasida odamlar bir-biridan nihoyatda begonalashib qolishini va natijada har bir inson yolg‘izlanib qolishini yaqqol olib beradi.

Hikoyaning so‘ngida o‘limga hukm qilingan Merso oxirgi tava-ba-tazarrudan ham bosh tortadi. Barcha odamlar o‘limga mahkum qilingan ekan, yashashning hech qanday mazmuni yo‘qdir, deydi. Mana shu g‘oya Mersoning hayotiy tamoyilidir. Bu asarda Kamyu g‘arb jamiyatining fojiasini atroflicha yoritishga to‘liq erishgan.

Kamyu «Sizif haqida afsona» nomli falsafiy risolasida ma‘nosizlik (absurd) falsafasini oldinga surdi. Insonni qamrab olgan tabiat insonga qarama-qarshi va unga begonadir. Insonning ichki tuyg‘ulari va tabiatni o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘qdir. Kamyuning fikricha, mushukning olami – bu uning olami, insonning olami faqat uning olamidir. Ular o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik yo‘qdir. Na tabiatda, na insonda ruhiyat bordir.

Kamyu falsafasida tabiat jonsiz, har qanday his-tuyg‘uga begona, insonga yot bo‘lgan bir koinotdir. Agarda tabiatda inson his-tuyg‘u borlig‘ini payqaganda, tabiatni his qilganda inson o‘zining shu darajadagi tushkunligini va yolg‘izligini his qilmagan bo‘lar edi. Bu fikrlar orqali Kamyu «Hayot yashashga arziydimi yoki yo‘qmi?»- degan savolga keladi. Bu savolga Kamyu ijobjiy javob beradi. Insonga kuchni yashash uchun uning ichki olamidagi majburiyati beradi. Demak, hayot naqadar ayanchli va zerikarli bo‘lmasin, inson o‘zida his qilgan majburiyat tufayli yashashi shart. Bu majburiyat tashqi emas, balki ichkidir.

Kamyu o‘zining «Vabo» asarida bu fikrni rivojlantirib, insonning yashashdan maqsadi boshqa odamlarga ham yordam berishdir, degan xulosaga keladi. Bu asarda Kamyu O‘rta Yer dengizi bo‘yida joylashgan Oren shaharchasida sodir bo‘lgan fojiali voqealarni mohirona tasvirlaydi. Xotirjam va sokin shaharchanining aholisini dahshatii «vabo» kasalligi larzaga keltiradi. Sarosimaga tushgan shahar aholisi qayerdan najot izlashni, qanday davо topishni bilolmay qoldi. Shahardagi kasallikni boshqa yerga tarqalmasligi uchun, harbiy kuchlar shahar atrofini qurshab oladilar. Bu yerdan hech kim chiqib ketolmas edi. A.Kamyu bunday fojiali sharoitda ayrim kishilarning xarakterlarini mohirona olib beradi.

Doktor Riyo boshchiligidagi shifokorlarning bir guruhi «vabo» ga qarshi faol kurasha boshlaydilar. Ular kasallarga dori-darmon berib, o'layotganlarning oxirgi daqiqalarini yengillash-tirishga harkat qilar edilar. Bu shaharda vaqtincha ish yuzasidan to'xtagan muxbir Ramber chiqib ketishga harakat qiladi. Uni boshqa shaharda istiqomat qiluvchi qaylig'i kutar edi. U har kuni shaharda minglab odamlar o'layotganligini ko'rib, dahshatga tushar, bir kunmas bir kun bu fojia o'ziga ham yetib kelishdan qo'rqib yashardi. Ramberni bir tarafdan qaylig'iga bo'lgan muhabbatidan ayrilib qolish, ikkinchi tomondan, vabo oldidagi qo'rquv hissi qamrab olgan edi.

Ramber shahardan chiqib ketish uchun ko'p urinib, shaharni o'rab turgan harbiylar bilan kelishib qo'yadi. Lekin bir vaqtning o'zida Ramber doktor Riyo boshchiligidagi shifokorlarga ham yordam beradi. U har kuni, har soatda o'limning fojiali yuzini ko'rар va unga qarshi kurashayotgan odamlarning matonatidan hayratlanar edi. Ramber ayniqsa, doktor Riyoning xotirjamligi va shijoatkorligiga qarab, sekin o'zi ham qo'rquv holatidan xotir-jamlikka o'ta boshlaydi. Uning qalbidagi sokinlik fikrlarini o'zgartira boshlaydi. Hayot va o'lim o'rtasidagi chegaradosh vaziyatda Ramber dunyoqarashida keskin o'zgarish sodir bo'ladi. Ramber faqat o'z manfaatini ko'zlovchi xudbin shaxsdan, boshqa odamlar oldidagi mas'uliyatni his qiluvchi shaxsga aylanadi.

Ramber shahardan chiqib ketish fikridan voz kechib, doktor Riyo boshchiligidagi shifokorlarga yordam berish uchun shaharda qoladi. Ramber shifokorlardan, «sizlarga kasallik yuqishidan qo'rqmaysizlarmi?», - deb so'raydi. Riyo bu savolga javob berar ekan, bunday ehtimol borligini tasdiqlaydi. Ko'p vaqt o'tmas-danoq Riyo o'zi ham betob bo'lib, yotib qoladi. Lekin Riyodagi hayotiy kuch shu qadar kuchli ediki, u kasallikni yengadi. Ramber bu holatni taajjub bilan kuzatib, insonni har qanday xavf-xatardan qandaydir tushunib bo'lmaydigan mavhum kuch asrashiga iqror bo'ladi.

Bu qanday kuch? Tabiatning mavhum hayotiy kuchimi, insonning erkin irodasimi yoki ilohiy kuchmi? Bu savollarga Ramber javob izlaydi.

Nima uchun Ramber omon qoldi, dahshatli kasallikni o‘ziga yuqtirmadi? Bu savolning tug‘ilishi tabiiyidir. Savolga har xil javob berish mumkin. Masalan, Ibn Sino fikricha, ruhiy qo‘rquv tirik organizmga nihoyatda salbiy ta’sir qiladi. Agar insonda qo‘rquv o‘rniga mehr kuchliroq bo‘lsa, u har qanday xatarli vaziyatdan eson-omon chiqib ketadi. Ramber o‘z qaylig‘ini sevar va unga yetishish uchun intilar edi. Uning qalbidagi bu muhabbat o‘lim ustidan tantana qildi. A.Kamyu bu fikrni yangi yo‘nalishda rivojlanirdi. Ramber qalbida sevgilisi muhabbatidan ham ustun turuvchi odamlar oldidagi o‘z mas’uliyatini his qilish tuyg‘usi paydo bo‘ldi.

Fransuz faylasufi Anri Bergson bunday mehrni intellektual xayrixohlik, intuitsiya deb atadi. Aynan ana shu intuitsiya hissiyoti Ramber qalbida boshqa barcha hissiyotlardan ustun turdi. Uning hayotini yangi yo‘nalishga boshladi. Romanning bu g‘oya-sida A.Kamyuning dunyoqarashida katta o‘zgarishni ko‘rishimiz mumkin. Ko‘rinib turibdiki, Kamyuning falsafiy qarashlari uning hayoti davomida rivojlanib, o‘zgarib bordi. Bu o‘zgarish individualizm chegarasidan chetga chiqib, uning tor doiralarini kengaytirishga harakat qilganligida namoyon bo‘ladi.

Ekzistensializm falsafasi XX asr boshlari va o‘rtasidagi fojiali hodisalarни to‘g‘ri aks ettirdi va bu fojiadan chiqib ketish yo‘llarini axtaradi. Ekzistensializm faylasuflari Yaspers, Xaydegger, Sartr, Kamyu ilohiy kuchga, insondagi ruhiy kuchga oxirgi tayanch nuqtasi sifatida murojaat qilishga majbur bo‘lishdi.

6.7. Freydizm va neofreydizm

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda Freydizm va neofreydizm falsafasi bo‘yicha atrof-licha va chuqr bilim, tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish; freydizm va neofreydizm falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; falsafiy matnlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Ongsizlik, ruhiyat tahlili, ruhiy energiya, onglilik, arxetip, freydizm, Eros, Tanatos, «U», libido.

Asosiy savollar:

1. Ruhiyat tahlili oqimining vujudga kelishi. Z.Freydning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
2. Z.Freyd insonning hirsiy tabiatи haqida.
3. E.Frommning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
4. K.Yung va Z.Freyd inson haqidagi qarashlarining qiyosiy tahlili.

Ruhiyat tahlili XIX-XX asarlarda vujudga keldi. Uning asoschisi avstriyalik shifokor-nevrapatolog Zigmund Freyd bo'ldi. U asabiy kasallarni davolashning yangi uslubini taklif qildi, natijada bu uslub ruhiyat tahlili deb nom oldi. Freyd qarashlari XX asr davomida muayyan o'zgartirishlar bilan ijodiy rivojlantirildi (1-ilova).

Bu uslub asosida nevrozlarning hirsiy etiologiyasi haqidagi tasavvuri yotadi. Inson psixikasining ongsizlik qatlami ochilmagan material sifatida talqin qilinadi. Inson ongidan siqib chiqarilgan va anglanmagan fikrlarni onglilik sohasiga o'tkazish, bu tadqiqot usullari orqali tushlarni talqin qilish, kasallik sabablarini aniqlash, nutqiy o'xshatishlarning ma'nosini ochish, xato harakatlarni aniqlash bu uslubning asosiy xizmatidir. Bir so'z bilan aytganda, Freyd inson hayotining kam o'rganilgan sohasiga o'z e'tiborini qaratadi (2-ilova).

Asab kasalliklarini davolash uslubi sifatida vujudga kelgan psixoanaliz, tez orada inson haqidagi umumiy psichoanaliz ta'lomitiga aylandi. Chunki ongsizlikda uchraydigan konfliktlar haqidagi tasavvurlar, inson psixikasiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar Freyd tomonidan sog'lom inson shaxsiga ko'chirildi. Inson haqidagi ruhiyat tahlili haqida tasavvur shunday paydo bo'ldi. Eng umumiy ma'noda, ongsizlik Freyd tomonidan, nafaqat inson psixikasini rivoji nuqtayi nazaridan talqin qilindi, balki bu hodisa insonning mazmuniy, mohiyatiy, tabiiy, ijtimoiy, madaniy, tarixiy hayotiga ham tatbiq qilindi. Ongsizlik orqali, hattoki tarix rivojini ham

ochib berishga harakat qilindi, nafaqat tarix, balki sivilizatsiya masalalariga ham tatbiq qilindi.

1-illova

Ruhiyat haqida tasavvurlar evolutsiyasi

An'aviy idealistik falsafa

Inson tana va ruhdan tashkil topgan. Ruh – bu alohida ideal substansiyadir, borliqning ideal boshlang'ichiga yaqindir, ya'ni:

- Rlamiy Ruh (aflatun va yangi aflatunchilar);
- Olamiy Aql (Arastu va peripatetiklar);
- Xudo(ortodaksal xristianlik, musulmonlik, yevropa falsafasi) va b.

Klassik pozitivizm

Hech qanday mustaqil majud bo'la oladigan jin yo'q.
Lekin materianyan xususiyati bo'lgan ong mavjud.

Vulgar materializm

Ong faoliyati to'liqligicha tananing (materiya) xususiyati bilan aniqlanadi: "jigar – xuddi safroni ishlab chiqargandek, miya fikrini ajratib chiqaradi," (Karl Fogt).

Z.Freyd va freydizm

Inson ruhiyatga ega, u o'ziga ongni va ongsizlikni oladi. Ruhiyat faoliyatini (va undagi ongsizlikni) tananing moddiz obyekt sfatidagi xususiyati bo'lgan faqat jismoniylik, kimyoiylik va h.k. lar bilan tushuntirib bo'lmaydi, u o'ziga xos biologik (fiziologik) omillarga ham bog'lanadi.


Neofreydizm

Ruhiyat faoliyatida va ayniqsa undagi ongsizlikda, belgilovchi rolni biologik omillar emas, balki ijtimoiymadaniy omillar o'yndaydi.

K. Yung va yungchilar

Individual inson ruhiyatidagi ongsizlik, jamoaviy ongsizlikning nomoyonidir, u insondon tashqrarida real tarzda mavjuddir. U qandaydir ideal boshlang'ichdir – ya'ni "Yagona ruhdir".


Z.Freyd: ruhiyat tuzilmasi: «birinchi topika»



Zigmund Freyd (1856-1939yy.) yillarida yashab ijod qildi. Inson psixikasi tuzilishi va rivojlanishini o'rganuvchi oqim freydizm deb ataladi (3-ilova).

Z.Freyd ta'limoti: manbalari va ta'sir doirasi


Psixologlar va psixiatrlar, faylasuflar



Bu oqim XIX asrning oxirlarida shakllandi. Nevroz kasali mohiyatini Freyd yangicha talqin qilishga urindi. Keyinchalik Freyd va uning shogirdlari ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda psixoanaliz ta'limotini qo'llaydilar. O'z dunyoqarashining shakllanishida Freyd murakkab yo'lni bosib o'tdi. Inson psixikasida Freyd bir-biridan nisbiy mustaqil bo'lgan tuzilmani ajratadi: bular ong osti-*U* (id) ; ongli-*Men* (ego); oliy-*Mendan yuqori* turuvchi (super-ego) (4-ilova).

4-ilova

Z.Freyd:ruhiyat tuzilmasi: "ikkinci topika"



Agar bu tizim muztog' (aysberg)ga qiyoslansa, *U* – muztog'ning suvostidagi qismini, *Men* – muztog'ning suvosti qismini, *Oliy men* esa, ruhning arzimas oz qismini faqat muztog'ning cho'qqisini o'zida mujassamlashtiradi. Freyd nuqtayi nazaricha, inson xatti-harakati, intilishlari va xohishlari zaminida *U*, ya'ni ongsizlik yotadi. Id (*U*) lazzat qoidasiga tobedir. Boshqacha aytganda, bizning barcha ongsiz tamoyillarimiz lazzat olishga qaratilgan. Biroq *Menga U* dan hamma narsa kelib o'tmaydi. Bu o'tish o'ziga xos «tekshiruv»dan o'tadi. Ijozat beruvchi maqom vazifasini axloqiy normalar, an'analar kabi ijtimoiy-madaniy taqiqlar bajarishi mumkin. Shunday qilib, Ego (*Men*) tashqi zaruriyat bilan hisoblashib ijtimoiy normalarga rioya qilmas ekan, u, keyinchalik vijdon azobi, gunohkorlik hissi, ruhiy azoblanish ko'rinishlaridagi jazolarga duchor bo'ladi.

Inson xatti-harakati tashkiliy jihatining uch xil darajasini aks etgan: «*U* (Id) – *Men* (Ego) – *Mendan yuqori* (Super Ego)»

tizimida U (Id) – biologik, Men (Ego) – alohidalik, ya’ni shaxsiy va Menden yuqori (Super Ego) – ijtimoiy ideal mohiyatiga ega.

Freyd ta’limotiga ko‘ra, Id, Ego va Super Ego o‘rtasida murakkab ziddiyat kelib chiqadi. Uni bartaraf etishga qodir bo‘lgan «himoya mexanizmlari» vositasida: *istaklarni ongsizlik sohasiga siqib chiqarish, sublimatsiya yo‘li bilan erishish mumkin*. Sublimatsiyaning shakllaridan biri ijoddir. Freyd fikricha, bu uch tuzilma o‘rtasidagi ziddiyat nevroz kasalligiga sababchidir. Inson tug‘ilgandan boshlab, butun hayoti davomida uning barcha harakatlarining sabablarini Freyd ong ostida yotgan, anglanmagan hirsiy hissiyotlar, ya’ni «libido» orqali tushuntirdi. Yosh bolalardagi hirsiy hissiyot ota-onada tomonidan taqiqlangan, natijada bolalarda nevroz holati paydo bo‘ladi.

Jamiyatning axloqiy normalar tomonidan taqiqlangan bu hirsiy hissiyotlar natijada inson ongida boshqa shaklga kiradi, ularga xos bo‘lgan psixik energiya har xil nevroz kasalliklari orqali yuzaga chiqishga harakat qiladi. Bunday holatlar katta yoshdagi odamlarda ham uchrashi mumkin. Inson taqiqlangan hirsiy tuyg‘ularini ongli ravishda anglasa, uni davolash mumkin, deydi Freyd. Keyinchalik Freyd o‘z ijodiga yangi tushuncha «Tanatos» (Azroil - buzg‘inchi, o‘lim xudosi)ni kiritdi (5-ilova).

5-ilova

Z.Freyd: Eros va Tanatos

	<i>Eros</i>	<i>Tanatos</i>
Xarakter	Yaratuvchanlik	Buzg‘unchilik
Ifodalanishi	Hayotga va muhabbatga bo‘lgan intilish	O‘lim va agressivlikka bo‘lgan intilish
Rivoji	Bunyodkorlik	Buzg‘unchilik, o‘ldirish va o‘z-o‘zini o‘ldirish
Maqsad	Mutanosib hayot rivoji	Inson va butun tirik mavjudotni noorganik holatga qaytishi

Freydning fikricha, inson tabiatida ikki kuch hukmrondir. Birinchisi barcha narsalarni vayron etish tanatos ruhi; ikkinchisi esa, hayotga, xursandchilikka intilish kuchidir. Sof holatda hayotda bu kuchlar kam uchraydi. Ular asosan aralashgan holda jamiyatda mavjud bo'ladi. Bunday psixik xususiyatlar ijtimoiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Freydning fikricha, ongdan siqib chiqarilgan hamma narsa ongsizlikdir, lekin ongsizlik siqib chiqarilgan hodisalar bilan aynan bir narsa emas. Jumladan, ongsizlikning quyi sohalari bir-muncha mazmunliroqdir. Ko'pgina ilmiy tilda tushuntirib bo'lmaydigan hodisalar, ongsizlik sohasiga tushib qolgandir. Shuning uchun ham Freydning ta'kidlashicha, ongsizlikni tadqiq qilishdan voz kechmaslik zarur.


Freyd fikricha, «Men» aqlni va tafakkurlashni tashkil etsa, «U» esa hirsni namoyon etadi. «Men» va «U»ni obrazli ta'riflab, Freyd ularni otga va chavandozga qiyoslaydi. Ot – bu egarlanmagan hirslar, tuyg'ular, ongsizlik sohasidir, u chavondoz nazoratidan chiqib ketishga talpinadi. «Men» – bu chavondozdir, u butun kuchini ishga solib otni o'ziga bo'ysundirishga harakat qiladi. Lekin ot shunday yovvoyiki, chavandoz uni ba'zida egarlay olmaydi.

Freyd insonning axloqiy tomonlarini tahlil qilib, ongsizlik bu sohalarga ham tegishli ekanligini aytadi. Shunday insonlar uchraydiki, ularda vijdon va o'z-o'zini tanqid ongsizlik darajasida namoyon bo'ladi. Hattoki aqliy bilim ham ongsizlik darajasida bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim olimlar o'z kashfiyotlarini tushlarida ochganlar. «Oliy Men» yoki «Ideal Men», Freyd fikricha, inson tabiatini yuksak axloqiy tomonidir, u bolaning otasiga muhabbatida namoyon bo'ladi. Ana shu «Oliy Men» hamma dinlarning asosini tashkil etadi, xudo ota qiyofasida namoyon bo'ladi.

Psixoanaliz falsafasining XX asrdagi eng yirik vakillari *Alfred Adler* (1870-1937), *Karl Gustav Yung* (1875-1961), *Erix Fromm* (1900-1980) va boshqalar edi.

Karl Yung (1875-1961 yy.) – Freyd ta'limotini yangi yo'nalishda rivojlantirdi (6-ilova).

K.Yung ta'limotining manbalari va ta'sir doirasi



K.Yung o‘zining «Psixologik tiplar» nomli asarida inson ongi va ongsizlikka mansub bo‘lgan masalalarni falsafa tarixi, she’riyat, diniy, madaniy yodgorliklar yordamida ko‘rib chiqdi,

ularni yangicha talqin qilishga harakat qildi. Bu asar K.Yungning nihoyatda chuqur qomusiy bilimga egaligini namoyon qildi. Uning ruhiyat tahlili falsafiy mulohazalar va falsafiy dunyoqarash darajasiga ko‘tarilganligini yaqqol ko‘rsatdi.

Yung uchun Z.Freyd ta’limotidagi «libido» tushunchasi nisbatan kengroq va chuqurroq ma’no kasb etgan. Z.Freydnинг ta’limotida «Oliy Men» ota-onaga bo‘lgan munosabat bilan aynanlashtirilgan bo‘lsa, Yung libidoni faqat hirs bilan cheklamasdan, psixik energiya sifatida talqin etadi. Psixik energiyani koinot miqyosidagi energiya deb hisoblaydi. Butun koinotni qamrab oluvchi bu energiya hayotiy jo‘shqinlik, tiriklik jarayonidir. Bu fikrlarni asoslash uchun R.Yung qadimgi hind falsafasiga, Veda va Bxagavat Gitalarga murojaat qildi. Q.Yung butun olamni birlashtiruvchi timsol sifatida Braxmanni oldi (7-ilova).

Hayotiy kuch, jo‘shqinlikning manbaini Braxmandagi ruhiy energiya tashkil etadi. Bu energiyadan butun borliq – yulduzlar, sayyoralar, o‘simpliklar, hayvonot va insonlar yaratilgandir. Agar tabiatda bu energiya ongsiz bo‘lsa, inson ongida bu energiya o‘z-o‘zining anglash darajasigacha ko‘tariladi. Lekin bu darajaga hamma insonlar ham yetisha olmaydi. Buning uchun, Yung fikricha, inson o‘zining ichki olamiga kira olishi kerak. Bunday kirish uchun inson o‘zining yashirinib yotgan hissiyotlarini boshqara olishi lozim. Inson o‘zining «Men» idan voz kechishi lozim. Faqat shu taqdirdagina o‘zining chegaralangan tafakkuri zanjirlarini parchalab, o‘z ongini ilohiy ong bilan, Braxman ongi bilan birlashtira oladi. Buning natijasida inson ongi cheksiz kengayadi. Butun borliqqa ongi bilan singib ketadi. Bizga ongsiz bo‘lib tuyulgan borliqda qalb ko‘zi uchun Braxmanning oltinsimon nur-quyoshi ko‘rinadi.


K.Yungning fikricha, inson kuchi ham Braxmandan kelib chiqadi. Harakatchan ijodiy libido kuchini Braxmanning cheksiz va son-sanoqsiz shakllari tashkil etadi.

Koinotdagi va insondagi hayotiy kuch Yung fikricha, energiyadir. Bu kuchda quyi va yuqori, issiq va sovuq kabi ziddiyatlar bo‘lganidek, libidoda ham ziddiyatlar mavjud. Libidodagi ziddiyatlarni tahlil qilib, Yung bu hol Braxmanda ham mavjudligini

ko'rsatadi. Borliqning asoschisi bo'lgan Dunyoviy Ong o'zining ikki qarama-qarshi boshlang'ichga ajratadi, bular manas - aql va «vak» - so'zdir.

7-ilova

K.Yung: sinxronlik (uyg'unlik) tabiatı



Z.Freyd o'zining «Men va U» asarida ham aql va so'z o'rta sidagi ziddiyatni ochib berdi. Aql ongning eng yuzadagi o'z-o'zini anglovchi qatlami bo'lsa, so'z esa aqlni ongsizlik bilan bog'lovchi vositadir. So'z orqali ongsiz shakl ongli shaklga aylanadi. Bu jarayonni Z.Freyd inson psixologiyasi misolida ko'rsatgan bo'lsa, K.Yung aynan shu jarayonni butun borliq, koinot miqyosida tatbiq etadi.

Shunday qilib, K.Yung Z.Freyd fikrlarini umumlashtirib, koinot miqyosida talqin qiladi. Insonning ichki olami butun jahonni o‘ziga qamrab olishini hamda jahondagi barcha jarayonlar insonning ichki olamida ham davom etishini ko‘rsata oldi. Libido jismoniy kuch sifatida xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu shakllar afsona va misflarda obrazlar orqali ifoda etiladi. Bu obrazlar bir-biriga bog‘lanib ketib, yagona hayotiy oqimni tashkil etadi. Anri Bergson ham o‘z falsafasiga o‘xhash fikrlarni keltirib, bu oqimni «hayotiy jo‘shqinlik» deb atagan edi. K.Yung fikricha, ana shu hayotiy jo‘shqinlikka ijodkorlik kuchi xosdir.

Yungning ta’kidlashicha, inson taqdirini ham, dunyoviy tartib ham libido tushunchasi bilan aniqlanadi. Bu dunyoviy tartib koinotdagi yulduzlar va sayyoralarni boshqaradi va bu yuqori energiyadan quyi darajadagi energiya holatiga o‘tish jarayonidir. Shunday qilib, Yung fikricha, libido psixik energiya orqali ifoda etiladi va olamdagи umumiy tartib yo‘nalishini bildiradi. Bu tartib yunonlarda «nous, logos», xitoylarda «dao» tushunchasi orqali berilgan.


K.Yung libidoni axloqiy qonun deb ham ataydi. Uning fikricha, inson o‘z tabiatiga monand yashar ekan, u o‘zining ichki axloqiga binoan yashaydi. Insonning tabiatini hech qachon axloqni inkor etmagan, aksincha, u bilan mutanosiblikda mavjud bo‘lgan. Libido tushunchasi insonning ichki axloq qonuniyatlariga zid kelmaydi.

K.Yung fikricha, «Yuksak hayotiy yutuqlarga insonning xudbinligi orqali erishilmagan, zotan xudbinlik insonni hech qachon hayotning yuqori pog‘onasiga olib chiqmaydi». Xuddi shunday yakka insonning o‘z-o‘zini rivojlantirishi ham uni hayotning yuqori pog‘onasiga ko‘tara olmaydi. Bunga sabab insondagi ijtimoiy xususiyat kuchliligidadir. Demak, hayotiy yuksaklikka erishish libido qonuniyatları orqali yuz beradi. Jumladan, K.Yung o‘z xulosalarini qadimgi Xitoy falsafasidagi «dao» haqidagi manbalar bilan va qadimgi Hindistondagi ilohiy kitoblardan keltirilgan ilovalar bilan asoslaydi. Umuman olganda, uning psixologik holatlarga bag‘ishlangan tadqiqoti butun jahon falsafasini ruhiy jihatdan aloqadorligini isbotlab berishga qara-

tilgan. Nafaqat falsafaning, balki insonning ruhiy olami hamda butun borliqning ruhiy olami yagonaligini ham yaqqol namoyon etdi (8-ilova).

8-ilova

K.Yung: shaxsiy-individual ong va jamoaviy ongsizlik



E. Fromming muhabbat haqidagi qarashlari. Freydning shogirdi Erix Fromm psixonaliz ta'limotini rivojlantirishda ustozining faqat biologik va xirsiy uslubini olmay, balki ijtimoiy dalillarga asoslanishga ham harakat qildi. Fromm ta'limotida dinning kelib chiqishi sabablari Freyd fikridan o'zgacha, ko'proq inson ongida yotgan tabiiy ofatlar oldidagi qo'rquv va xudoga nisbatan bo'lgan muhabbat va hayiqish tuyg'ulariga asoslandi. Bu g'oyalar Frommnning «Iso aqidasi» nomli asarida aks etgan. Bu asarda, jumladan Fromm xristian dini kelib chiqishining ijtimoiy sabablarini ochishga harakat qilgan. Xudo, olim fikricha,

hokimiyatning manfaatlarini himoya qiladi, ikkinchi tomondan, ezligan xalqning tarafida bo‘lgan ilohiy kuch sifatida tasvirlanadi. Hukmronlar va xalq o‘rtasidagi ziddiyatlarni kelishtirish vazifasini olganligi uchun ilk xristianlik g‘oyasini taqdirlash shunday hal bo‘ldi (9-ilova).

9-ilova

E.Fromm: ekzistensial dixotomiya (ikkiga bo‘linish)

Inson tabiatning bir qismi sifatida uning qonunlariga bo‘ysunadi, ularni o‘zgartira olmaydi	Inson tabiat tashqariga chiqib turadi, o‘z dunyosini shaklantiradi (madaniyat)
Inson dunyo yaxlitligidan ajralgan, dunyo mutanosibligidan chiqib ketgan	Inson mutanosiblikka intiladi, shuning uchun ham doimo yangi shakkarni o‘ylab topadi va uni dunyo bilan mutanosib qilishga intiladi
Inson yakunlangan va o‘limga mahkum	Inson o‘z chegaralanganligini anglagan holda abadiy qadriyatlarni ta’kidlaydi va o‘zini ro‘yobga chiqarishni istaydi
Inson yolg‘iz, o‘zgalardan farqli ekanligini anglaydi	Inson jamoa bo‘lib yashashga intiladi.

Isoga sig‘inishning sabablaridan biri, deydi Fromm, inson qiyofasida ezligan xalqning taskin topishidir. Shuningdek, Fromm «Inson joni» degan asarida inson ruhiyatidagi mehr-muhabbat tuyg‘usiga katta e’tibor berdi. U muhabbatni bir necha turga ajratadi. 1) Ota-onaning farzandiga bo‘lgan mehri. Bu his-tuyg‘u manfaatdorlikdan xolis bo‘lib, beg‘arazdir. 2) Erkak va ayolning bir-biriga bo‘lgan mehri. Fromm bu mehrni o‘tkinchi deb hisoblaydi. Bunda hirsiy intilishlar katta ahamiyatga ega. 3) Xudoga bo‘lgan muhabbat. Bu muhabbatni dindorlarga xos deb hisoblaydi. Uni onalik mehriga o‘xshatadi.

Fromm ota mehridan, ona mehrini ajratadi. Ota o‘z farzandlariga bir xilda munosabatda bo‘lmaydi. U ko‘pincha

o'ziga o'xshashroq itoatkor fapzandiga muhabbatini beradi. Ona mehrini esa Quyosh nuriga o'xshatadi. U barcha farzandlariga barobardir. Quyosh yeri zaminni qanday isitsa, hayot ato etsa, ona ham barcha bolalaridan bir xilda iliq onalik mehrini ayamaydi. Ota mehri oydek ravshan, lekin sovuq bo'lsa, ona mehri quyoshdekk issiq va hayotbaxshdir. Onalik mehriga yana beg'arazlik xosdir, deydi Fromm. U ona farzandlarini qaysi biri ko'proq moddiy foyda keltirgani uchun emas, balki har bolasining barcha kamchiliklari bilan yaxshi ko'radi.

Frommning fikri bo'yicha, XX asr jamiyatida insonning begonalashishi masalasi asosiy masalaga aylanib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri, olimning fikricha, insonlar o'rtasidagi mehrning yo'qolishi va uning o'rnini moddiy manfaat egallashidadir. Bunday jamiyatda inson o'z qadr-qimmatini yo'qotib, qandaydir narsaga, mulkka aylanib qoladi. Masalan, oilada mulk munosabatlari yaqqol ko'rindi. Frommning fikricha, ibtidoiy davrdan boshlab erkaklar ayollarga nisbatan mulkchilik munosabatida bo'lishgan. Natijada ayolning his-tuyg'ulari, erkinligi poymol bo'lga. Hozirgi jamiyatga kelib, bunday munosabat faqat ayollarga emas, balki barcha odamlarga ham mulk sifatida qarash, ularning qadr-qimmatini faqat oilada yoki xizmatda keltiradigan foydasi orqali belgilash odat tusiga kirib qolgan. Natijada, deydi Fromm, insonning ichki olamidagi his-tuyg'ulari umuman e'tiborga olinmay qo'yildi. Altruistik munosabat o'mini egoizm egallamoqda. Lekin *egoizm*, ya'ni *xudbinlik*, deydi Fromm, inson tabiatidagi tuban hirsiy his-tuyg'ularni qanoatlantiradi. Natijada xudbinlik pessimistik holatga va hayotga bo'lga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Hayotga qiziqish, undan hayratlanish hissi yo'qolar ekan, insonning ongi ostida o'limga intilish (tanatos kuchi) zo'rayadi. Bu esa rivojlangan jamiyatda insonlarning o'z joniga qasd qilish, ya'ni o'zini o'ldirish hollari ko'payib borishida namoyon bo'lishini. Bunday salbiy ruhiy kuchlarni Fromm neofiliya deb ataydi. O'limga, jonsiz shakllarga qiziqqan shaxslarni esa *neofil* deb ataydi. Bunday holatdan chiqish yo'li, Frommning fikricha, jamiyatdagi insonlarning bir-biriga bo'lga

mehr-oqibatning yuksalishi - altruizm hissiyotining kuchayib borishdadir.

Altruist odam doim optimist bo'ladi. U hayotga qiziquvchan, xushfe'l, hayratlanish qobiliyatini yo'qtomagan shaxsdir. Bunday odamlarning ichki ruhiy holati faqat ijobjiy bo'lib, har qanday qiyinchiliklarga dosh berishga qodirdir. Jamiyatning inqiroz holatlarda bunday shaxslar odamlarga dalda berib, ruhiy ko'tarinkilik holatini jamiyatda ko'paytiradilar. Bunday shaxslarni Fromm jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuch, deb hisoblaydi.

Fromm va Freyd ta'limotlarini qiyoslar ekanmiz, Freydizmning qanchalar o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Freyd ta'limotida inson ruhiyatidagi asosiy kuch – bu buzg'unchilikka intilishdir. Bu kuchning asosi «libido», ya'ni ong ostida yashiringan, jamiyat tomonidan taqiqlangan, hirsiy xislatlardir. Ularni, Freyd, inson tabiatidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch deb hisoblaydi. Uning shogirdi Fromm esa, bunday qarashni tanqid qilib, inson ruhiy olamida ezgu his-tuyg'ularning ahamiyati nihoyatda katta, deb hisoblaydi. Inson tabiatidagi beg'araz mehr-tuyg'uni hayotga intilish bilan bog'laydi. Buni nafaqat madaniyat tomonidan berilgan, balki insonning botinida mavjud bo'lgan eng kuchli tuyg'u, degan xulosaga keladi.

6-bo'limga oid topshiriqlar

O'z bilimingizni sinab ko'ring va savollarga javob bering:

1. XIX-XX asr G'arb falsafasi qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?
2. XIX-XX asrlarda fan yutuqlari falsafaga qanday ta'sir ko'rsatgan?
3. XIX-XX asr G'arb falsafasining qanday yirik maktablari va yo'nalişlarini bilasiz?
4. Neokantchilik qanday falsafiy manbalar asosida shakllangan?
5. Otto Libman va German Gelmgols fiziologik idealizmining mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?

6. Kogen ta'limotiga ko'ra, falsafning bosh vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak?
7. Pozitivizm o'z rivojida qanday bosqichlarni bosib o'tgan?
8. Pozitivizm falsafasi qanday g'oyalarga asoslangan?
9. Djon Mill sabab va oqibat aloqadorligini qanday talqin qilgan?
10. Spenser o'zining ontologik va gnoseologik ta'limotida qanday nuqtayi nazarni ilgari surgan?
11. Spenserning fanlar tasnifi haqida nimalarni bilasiz?
12. Pozitivizm ta'limotiga qo'ra, falsafning bosh vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak?
13. Neopozitivizmning vakillaridan kimlarni bilasiz?
14. Postpozitivizmning vakillaridan kimlarni bilasiz?
15. Verifikatsiya tamoyilining mazmun-mohiyati qanday?
16. Falsifikatsiya tamoyilining mazmun-mohiyati qanday?
17. «Hayot falsafasi» qanday ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy-nazariy asoslarga tayangan?
18. «Hayot falsafasi» ning namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
19. Nitsshe qanday falsafiy g'oyalarni ilgari surgan?
20. «Akademik» hayot falsafasining asoschilari kim bo'lgan?

Quyidagi fikrlarning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering:

1. Falsafaning boshlanishi hayronlikdan emas, balki hayrat va qayg'udandir (Artur Shopengauer).
2. Mukammal davlatga asos solish uchun eng avvalo shunday mavjudotlarni yaratish kerakki, toki ular hamma yerda va har doim o'z manfaatlarini jamiyat farovonligi yo'lida qurbon qilishga qodir bo'lsinlar (Artur Shopengauer).
3. Har bir cheklash baxtga yo'llaydi. Ya'ni bizning nigohlarimiz, harakatlarimiz va shubha-gumonlarimiz doirasi qanchalik tor bo'lsa, shunchalik baxtiyormiz. Ular qanchalar keng bo'lsa, biz shunchalar ko'p azoblanamiz va xavotirga tushamiz. Chunki ular bilan birga bizning tashvishlarimiz, istaklarimiz

hamda xavotirlarimiz ham o'sib, ko'payib boradi (Artur Shopengauer).

4. Yolg'izlikni sevmaydigan odam – erkinlikni sevmaydi (Artur Shopengauer).

5. Axloqiylik majburiyatni keltirib chiqaradi. Keyinchalik u odatga aylanadi, undan so'ngroq esa u ixtiyoriy itoatkorlikka va nihoyat, tabiiy maylga aylanadi (Fridrix Nitsshe).

6. Shuhratparast odam uchun o'zgalarning fikri emas, balki o'zining boshqalar fikri to'g'risidagi mulohazasi muhimroqdir (Fridrix Nitsshe).

7. To'dada hech qanday yaxshilik bo'lmaydi, garchi ular ortingdan ergashsa ham (Fridrix Nitsshe).

8. Biz nimani izlaymiz? Xotirjamlik, baxtnimi? Biz qanchalar dahshatli va jirkanch bo'lmasin, haqiqatni izlaymiz (Fridrix Nitsshe).

9. «Nimaga yashash kerak? », degan savolga javob topa olgan bo'lsa – u holda u «Qanday yashash kerak? », degan savolni har qanday javobiga chidaydi (Fridrix Nitsshe).

10. Nima yaxshi? – Insondagi kuchga, hokimiyatga nisbatan bo'lgan iroda va qudratga nisbatan bo'ladigan his-tuyg'uni oshirib boruvchi hamma narsa.

Nima yomon? – Zaiflikdan kelib chiqadigan hamma narsa.

Baxt-saodat nima? – Kuch va hokimiyatning oshib borishiga nisbatan bo'lgan tuyg'u hamda yangi to'siqni bartaraf qilinganligi sezgisi (Fridrix Nitsshe).

11. Tarixiy ong har bir metafizik yoki diniy doktrina nisbiy ekanligini borgan sari ravshanroq ko'rsatmoqda. Qiyosiy tadqiqotlar barcha tarixiy qarashlar relyativ ekanligini namoyish etmoqda (Vilgelm Diltey).

12. Ilmiy bilish faqat hodisalarni tasvirlashi lozim, ularning kelib chiqishiari haqida savollar bermasligi kerak, chunki bu masalalarning yechimi yo'qdir. Shuning uchun fan «nima uchun?» degan ifodani «qanday?» so'zi bilan almashtirishga intilishi lozim. Yangi ijobiyl falsafaning vazifasi esa ilmiy bilimlarni tizimga solishdan iboratdir (Ogyust Kont).

13. Axloqning *utilitarizm* qoidasiga ko‘ra, xatti - harakatning axloqiy ahamiyati uning foydasi bilan belgilanadi, (*egoizm*) *xudbinlik* qoidasida esa xatti-harakat olinadigan huzur-halovat yoki yoqimsizlik nuqtayi nazaridan baholanadi, *altruizm* qoidasida esa barcha atrofdagi mavjudotlarni imkon qadar ko‘proq baxtsaodatga yordamlashishini taqozo etadi (Djon Stuart Mill).

14. Tajribaga asoslangan fanlar voqeysi dunyoni bilishni goh tabiat qonuni shaklida keluvchi umumiydan yoki tarixiy sharoit bilan cheklangan «birlikdan» qidiradilar. Ularning ba’zilari – qonunlar haqidagi fanlar mohiyati bo‘lsa, boshqalari – voqealar haqidagi fanlardir, ularning birinchilari hamma vaqt bo‘ladigan narsalardan ta’lim bersa, oxirgilar – bir marta ro‘y bergen voqeadan hikoya qiladi. Birinchi holatda ilmiy tafakkur *nomotetik* fikr bo‘lsa, ikkinchisi – *ideografik* fikrdir (Vindelband).

15. Bilim daraxti mevasidan «totib» o‘rgan madaniy davning taqdiri shuni tushunish zaruratidan iboratki, olamning ma’nosini tadqiqot yordamida ochiladi, u qanchalik barkamol bo‘lmasin, biz o‘zimiz shu ma’noni yaratishimiz kerak, «dunyoqarash» hech qachon rivojlanib borayotgan tajribaviy bilimning mahsuli bo‘la olmaydi va binobarin, bizni hayajonga soladigan yuksak ideallar barcha davr va zamonlarda boshqa ideallar bilan kurashgandagina o‘z aksini topadi, bizning ideallar biz uchun qanchalik tabarruk bo‘lsa, boshqa ideallar boshqalar uchun ham shunday muqaddasdir (Maks Veber).

16. Haqiqatni topishdan manfaatdor bo‘lgan va bir-birining dalil-asoslarini tinglashga tayyor tomonlar o‘rtasida har doim ratsional munozara o‘tkazilishi mumkin (Karl Popper).

17. Ijtimoiy nazariyaning vazifasi sotsiologik modellarni yasash va ularni deskriptiv yoki nominalistik *atamalarda*, boshqacha aytganda, *individlar*, ular dasturlarini, umidlarini, munosabatlarini va shu kabi atamalarni tahlil etishdan iborat (Karl Popper).

18. Nazariyaning ilmiy maqomining mezoni uning soxtalash mumkinligi va raddiyaligidir (Karl Popper).

19. *Mayjudlik mohiyatdan oldin keladi.* Boshqacha aytganda, «inson avvalo mavjud bo‘ladi, u uchrashadi, dunyoga keladi va

faqat shundan keyingina shakllanadi». Bu shunday ma'noni bildiradiki, inson oldindan berilgan tabiatga ega emas. Uning qandayligi mavjudligi bilan belgilanadi (Jan Pol Sartr).

20. Til hamma narsani qamrab oluvchi, dunyo talqinini oldindan payqab oluvchidir... dunyo biz uchun hamisha ham tilda talqin qilingan dunyodir... bu esa, tabiiyki, shunday ma'noni bildiradiki, ushbu til talqinining ichida boshlanadigan tushunchalarni tashkil bo'lish jarayoni hech qachon eng boshidan boshlanmaydi... O'z tabiatiga ko'ra tushunish – til hodisasidek (Xans Georg Gadamer).

Prezentatsiya va babs-munozara uchun mavzular

1. XIX-XX asr G'arb falsafasining o'ziga xos jihatlari.
2. F. Nitshening axloq falsafasi.
3. Z.Freydning psixoanaliz ta'lomit.
4. Germenevtika – ilmiy bilish usuli sifatida.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. «Postpozitivizm tomonidan fan falsafasi asoslарining rivojlantirilishi» mavzusida ijodiy insho (esse) yozing.
2. «Z.Freyd va E.Fromm ta'lomitlarining qiyosiy tahlili» mavzusida insert usulida jadval tuzing.
3. «Pozitivism» tushunchasiga klaster tuzing.
4. «Strukturalizm va uning ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojidiagi o'mi» mavzusida ijodiy insho (esse) yozing.

TESTLAR

1. Pozitivism falsafasining asoschisi kim bo'lgan?

- A) O. Kont
- B) K. Yaspers
- C) M. Xaydegger
- D) G. Spenser

2. Pozitivizmning qanday tarixiy shakllari mavjud?

- A) pozitivizm, neopozitivizm, postpozitivizm
- B) pozitivizm, «Hayot falsafasi», germenevtika
- C) neopozitivizm, neotomizm, neofreydizm
- D) pozitivizm, pragmatizm, strukturalizm

3. «Aynan sir, fanning oxirgi va dinning birinchi qadamidir» degan g'oya kimga tegishli?

- A) Z.Freyd
- B) A.Shopengauer
- C) O. Kont
- D) G.Spenser

4. «Biz nimaga urg'u berishimizga bog'liq ravishda haqiqatning butunlay turli-tuman ifodalari kelib chiqadi» degan g'oyani kim ilgari surgan?

- A) Uilyam Jeyms
- B) Karl Popper
- C) Ogyust Kont
- D) Zigmund Freyd

5. «Nazariyani hech qachon tajribaviy jihatdan verifikatsiya qilib bo'lmaydi», degan fikr kimning falsafiy qarashlariga tegishli?

- A) Karl Popper
- B) Gerbert Spenser
- C) Ogyust Kont
- D) Uilyam Jeyms

6. XX asrdagi falsafiy germenevtikaning eng yirik vakili va asoschisi kim?

- A) Ogyust Kont
- B) Shleyermixer
- C) Xans Georg Gadamer
- D) Tomas Kun

7. «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» deb atalgan asarning muallifi kim?

- A) Uilyam Jeyms
- B) Gerbert Spenser
- C) Ogyust Kont
- D) Karl Popper

8. Freyd ta'limotiga ko'ra, inson xatti-harakatlarining asosida nima yotadi?

- A) axloqiy qadriyatlar
- B) ilmiy bilish
- C) ongsizlik
- D) huquqiy munosabatlар

9. «Chegaraviy vaziyatlar» tushunchasi qaysi falsafiy ta'limotga tegishli?

- A) ekzistensializm
- B) pozitivizm
- C) germenevtika
- D) strukturalizm

10. Freyd ta'limotida insonning ruhiy kayfiyati asosini qanday qatlamlar tashkil etadi?

- A) «Men» va “Men-emas»ning muqobili
- B) «Men»ning begonalashgan natijasi va *Mendan yuqori* turuvchi (super-ego)
- C) transsident «U» va obyektiv reallik
- D) *Men* (ego), *U* va *Mendan yuqori* turuvchi (super-ego)

11. Ekzistensializmning eng mashhur vakillari kimlar?

- A) Yaspers, Xaydegger, Sartr, Freyd
- B) Yaspers, Xaydegger, Sartr, Kamyu
- C) Shleyermixer, Yaspers, Xaydegger, Kamyu
- D) Kont, Yaspers, Xaydegger, Sartr

12. «Tushunib olish mumkin bo'lgan borliq, til demakdir», degan g'oya kimga tegishli?

- A) Xans Georg Gadamer
- B) Karl Popper
- C) Ogyust Kont
- D) Uilyam Jeyms

13. Ekzistensializm ta'limotining asosini qanday muammolar tashkil etadi?

- A) inson hayoti, mutlaq o'zlikni anglash, intellekt va intuitsiya nisbati
- B) anglanmaganlik, insonning olamga bo'lgan munosabati, chegaradosh vaziyatlar, subyektiv qadriyatlar
- C) cheksizlik, uni bilish mumkin emasligi, hayot va o'lim muammoasi
- D) inson, hozirgi dunyodagi uning taqdiri, tanglik yuz bergan vaziyatlardagi xatti-harakati, e'tiqod, ozodlik, hayotning ma'nosи

14. «Istaklarni ongsizlik sohasiga siqib chiqarish, sublimatsiya yo'li bilan erishish mumkin. Sublimatsianing shakllaridan biri ijoddir», degan g'oyani kim ilgari surgan?

- A) Ogyust Kont
- B) Karl Popper
- C) Zigmund Freyd
- D) Uilyam Jeyms

15. Neopozitivizmning eng mashhur vakillari kimlar?

- A) I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerbend, P.T.Sharden
- B) K. Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerbend
- C) K. Popper, I.Lakatos, D.Merse , J.Marten , E.Jilson
- D) L.Vitgenshteyn, M. Shlik, O.Neyrat, B.Rassel , A.Ayer

16. Postpozitivizmning eng mashhur vakillari kimlar?

- A) K. Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerabend
- B) L.Vitgenshteyn, M. Shlik, O.Neyrat, B.Rassel , A.Ayer
- C) K. Popper, I.Lakatos, D.Merse , J.Marten , E.Jilson
- D) I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerbend, P.T.Sharden

17. «Psixoanaliz» ta'limotining asoschisi kim?

- A) Zigmund Freyd
- B) Maks Veber
- C) Ogyust Kont
- D) Uilyam Jeyms

18. Tomas Kun ta'limotiga ko'ra, ilmiy paradigmalarning almashinishi qanday yo'l bilan amalga oshadi?

- A) ilmiy maktablarning o'zaro hamjihatligi
- B) ilmiy bilimlarning tadrijiy rivoji
- C) ilmiy inqiloblarlar
- D) ilmiy bilimlarning dinamik rivoji

19. XIX asrning 60-70-yillarda shakllangan «Hayot falsafasi» ning muhim jihatlarini ko'rsating...

- A) pozitivizm, irratsionalizm va intuitivizm
- B) erkin insonning shakllanishi, dunyoviy ruhning vaqtida rivojlanishi
- C) dunyoviy ruhning makonda rivojlanishi
- D) volyuntarizm, irratsionalizm va intuitivizm

20. «Hayot falsafasi» ning yirik vakillari kimlar?

- A) K. Popper, I.Lakatos, D.Merse , J.Marten , E.Jilson
- B) L.Vitgenshteyn, M. Shlik, O.Neyrat, B.Rassel , A.Ayer
- C) F.Nitsshe , V. Diltey, G. Zimmel, O.Shpenglar, A.Bergson
- D) K. Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerabend

«G'ARB FALSAFASI» O'QUV KURSI BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM UCHUN XRESTOMATIK MATERIAL⁷⁴

Kirish

Hayot va dunyo konsepsiyasini «falsafa» deb bilamiz, uni ikki omil orqali o'rganamiz: birinchisi, axloqiy va diniy tamoyillarni o'zida aks ettirgan, ikkinchisi esa keng miqyosli ma'noni qamrab olgan "ilmiy" omildir. «Falsafa» esa ana shu yuqoridagi ikki mustaqil omilni o'zida mujassamlashtirgan fan sohasidir. «Falsafa» so'zi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Men bu atamani keng manoda tushuntirishni taklif etaman.

Falsafa tushunishim bo'yicha, teologiya va ilm o'rtasidagi oraliq fandir. Teologiya bu hali oxiriga yetmagan bahs va munozaralardan iborat bo'lib, ilm-fan esa undan farqli o'laroq urfdotlar va kashfiyotlarning egasi inson tafakkurining mahsulidir.

Barcha ilmlar qanchallik aniqlikka ega bo'lmasin ular aqidalardan iborat. Falsafaning ahamiyati din va ilm o'rtasida namoyon bo'ladi. Mavjud barcha savollarga ilm-fan javob bera olmagan, bu savollarga yuz yillar davomida din (teologiya) vakillari javob bergen. Dunyo ruhiyat va moddiyatga bo'linadimi? Agar dunyo ikki qismga bo'linsa, ruh nimayu, modda nima? Ruh moddaga bo'ysunadimi yoki o'zi alohida mustaqil kuchga egami? Borliqni yagona sababchisi bormi? Borliq qandaydir yo'nalishga qarab rivojlanadimi? Tabiat qonunlari haqiqatan ham mavjudmi yoki biz faqat uni tartibli o'zgarishlarigagina ishonamizmi? Inson o'zi kim? Sayyoralarni tadqiq etuvchi zotmi yoki shu sayyoradagi mavjud mayda, ikkinchi darajali, kuchsiz, suv va uglevod uralashmasidan tashkil topgan zarrami? Yoki u Gamlet qiyofasidagi qahramonmi? Balki inson bir vaqtning o'zida ham kuchsiz mavjudot, ham qahramon timsolidagi mavjudotmi? Mehr oqibat abadiymi yoki u halokat sari to'xtovsiz ilgarilayotgan borliqdagi o'tkinchi tizim hisoblanadimi? Donishmandlikdek eng

⁷⁴ Qurʼung: Copleston F. A History of Philosophy- N.Y., London, 2003.

oliy nemat bormi yoxud u faqat ahmoqlikni eng baland cho‘q-qisimi? Yuqoridagi bunday savollarga laboratoriya sharoitida javob topib bo‘lmaydi. Bunday savollarga javob berishni ilohiyot vakillari o‘z zimmalariga olishni istaydilar, lekin aql yordamida bu savollarga ularning javob berishlari shubhalidir. Shuning uchun yuqoridagi savollarni tadqiq etish faylasuflarning vazifasidir.

Nima uchun unda javob yo‘q savollarga vaqt ketkazib aniqlashtirishga harakat qilishimiz kerak? Balki bu savollarga tarix nuqtayi nazaridan javob qidirishimiz lozim.

Tarixchilarning bu boradagi javoblarini ko‘rib o‘tamiz. O‘sha paytda odamlar hayoti, ular mustaqil fikrlovchi, zulm nimayu, mehr nimaligini anglashdan iborat tabiatga bog‘liq va aloqador bir qancha muhim yo‘nalishdagи harakatlardan iborat bo‘lgan. Bu esa hozirgi kunimizga ta’sir etadigan o‘tmish bilan bog‘liq ekanligi haqiqatdir. Qaysidir davrni yoki millatni tushunishimiz uchun avvalo biz ularning falsafasini anglashimiz zarur, buning uchun biz qaysidir darajada faylasuf bo‘lmog‘imiz darkor. Bu esa sharoit bilan bog‘liq: insonlarning hayotiy shart-sharoitlari ularning falsafasi qanday ekanlididan yoki aksincha, ularning falsafasi shart-sharoitlari qandaylididan darak beradi. Bu asrlar davomida taraqqiy topgan meros bilan bog‘liq.

Yana bir fikr, fan bizning tushunchamiz darajasida mavjud, lekin bizning anglash darajamiz chegaralangan. Agar biz bu chegarani unutsak, juda ham ko‘p muhim narsalarni yo‘qotamiz. Ilohiyot esa boshqa tomondan aqidaviy e’tiqodga tayanib, biz anglay olmaydigan yoki aniq asoslarga ega bo‘lman qarashlarni, borliqdagi mavjud ishonchsiz tizimlarga javob axtaradi.

Miloddan avvalgi VI asrda falsafa Yunonistonda ilohiyotdan ko‘ra yaxshiroq rivojlandi. Antik davr yana o‘z tarixida xristianlikning vujudga kelishi va Rimning qulashi davrida ham yashadi. Xristianlik o‘z rivojining ikki yirik bosqichida XI asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda katolik cherkovi imperator Fridrix II (1195-1250) dan tashqari, ilohiyolashtirishni boshdan kechirdi.

PLOTIN

Plotin (mildodning 204-270-yillari) – neoplatonizmning asoschisi bo‘lib, qadimgi yirik faylasuflarning eng so‘nggisidir. Uning hayoti rim tarixining ayanchli davriga to‘g‘ri keladi. U tug‘ilgan davrda armiya qudratli edi va amaldagi imperatorlarni pora evaziga taxtga o‘tkazar edi; shu bilan birga ana shunday yo‘l bilan ularni yo‘q qilardi. Bunday xatti-harakatlar esa chegara mustahkamligiga putur yetkazar edi. Bu esa shimoldan germanlar, sharqdan forslarni bosqinchilik harakatlariga yo‘l ochib berardi. Urushlar va epidemiyalar imperiya aholisining deyarli uchdan bir qismini qirilib ketishiga olib keldi, aynan shu davrda oshib ketgan soliqlar va kamayib ketgan zaxiralar dushman yetib borolmagan chekka hududlarda ham moliyaviy inqirozni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, madaniyatning o‘chog‘i sanalgan shaharlar aziyat chekdi; o‘ziga to‘q fuqarolar soliq yig‘uvchilardan qutulish maqsadida shaharni tashlab qochdilar. Plotin vafotidan keyingi davrdagina yana tartib o‘rnatildi, imperiya Diokletian va Konstantinlar ko‘rgan keskin choralar natijasida saqlab qolindi.

Bular haqida Plotinning asarlarida deyarli so‘z yurilmaydi. U real hayotdagи qashshoqliк va buzg‘unchilik ko‘rinishlarini ifodalashdan qochib, farovonlik va go‘zallik olamiga yuz tutdi. Bu borada u boshqa martabali insonlar bilan hamfikr edi. Ularning barchasi uchun, ya’ni xristianlar uchun ham, majusiyalar uchun ham, bu dunyo rohatbaxsh hisoblanmay, faqat “U Dunyo”gina farog‘atga egadir. Nasroniy uchun “U Dunyo” samoviy podsholik bo‘lib, unga o‘limdan keyingina erishiladi; aflatunchi uchun bu abadiy g‘oyalar dunyosi bo‘lib, real hayot unga qarshi qo‘yiladi. Nasroniy ilohiyotchilar bu fikrga qo‘shilib, Plotin falsafasidan ko‘p narsani o‘zlashtiradi. Ruhoni Inge o‘zining muqaddas kitobida Plotin haqida so‘z yuritar ekan, xristianlik Plotin oldida qarzdor ekanligini alohida ta‘kidlaydi. “Aflatunchilik, - deydi u, - nasroniy ilohiyotining hayotiy asosini tashkil qiladi, hech shubhasiz, aytا olamanki, o‘zga falsafa u bilan silliq birlasha olmaydi”. “Nasroniylikni bo‘lib tashlamaguncha, - deydi u, -

undan aflatunchilikni ajratib olish imkoniyati mavjud emas". Uning ta'kidlashicha, muqaddas Avgustin Aflatun tizimiga "eng sof va a'llo falsafa" sifatida va Plotinga "tirilib kelgan Afiotun" sifatida ta'rif beradi. Agar u birmuncha kechroq yashaganida "bir nechta so'zlar va jumlalarni o'zgartirib, nasroniiga aylangan bo'lar edi". Ruhoni Inge fikricha, avliyo Foma Akvinskiy "Arastuga nisbatan, Plotinga yaqinroqdir".

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, Plotin shaxsiyati tarix uchun juda muhim, chunki u o'rta asr xristianligi hamda katolik teologiyasiga ta'sir o'tkazgan insondir. Tarixchi xristianlik haqida fitkr bildirayotganida shuni nazarda tutishi zarurki, xristianlik o'z tarixi davomida katta o'zgarishlarga duch kelgan va bir davrning ichida turli shakllarni o'ziga olgan. Sinoptik yevangeliya xristianligi metafizikadan deyarli xoli. Bu nuqtayi nazardan zamonaviy Amerikadagi xristianlik ta'limoti primitiv xristianlikka o'xshaydi; platonizm AQSHda keng tarqalgan fikr va tuyg'ularga yot bo'lib, ko'pchilik amerikaliklar o'zlarining yer yuzidagi majburiyatlariga, har kungi hayotdagi ijtimoiy o'zgarishlarga sodiqroq bo'lib, insonlarni ovutuvchi transsensual g'oyalardan yiroqdir. Zamonaviy xristianlik o'tmisht davr xristianligini tushuna olmaydi. Bizning ocherk tarixiy mazmunda bo'lganligi uchun, o'tgan asrlardagi e'tiqodlar bilan qiziqmoqdamiz va ushbu e'tiqodlarga nisbatan ruhoni Inge ta'kidlab o'tgan Aflatun va Plotinning ta'siri bilan hamnafas bo'lmaslikning iloji yo'q. Ammo Plotin falsafasi faqat tarixiy jihatdangina muhim emas. U, boshqa ko'plab falsafadan yaxshiroq tarzda nazariyalar turlarini ko'rsatib beradi. Falsafiy tizim ahamiyatini turli asoslar bo'yicha baholash mumkin. Eng birinchi va aniqroq dalil shundaki, qachonki biz yoki bu falsafiy tizimni haqqoniy deb hisoblasak, hozirda falsafani o'rganayotgan ko'pchilik Plotinning falsafiy tizimini aynan shunday talqin etishi mumkin. Bu holda ruhoni Inge istisno sifatida qabul qilinadi. Ammo haqiqat – metafizika erisha oladigan yagona yutuq emas. Metafizika go'zallikka ham erisha olishi mumkin va bu go'zallikni Plotinning metafizik tizimida topish mumkin; unda Dantening "Jannati"dagi yakuniy satrlarga

o'xshash shunday joylar borki, adabiyotda unga hech narsa tenglasha olmaydi.

Hayratomuz abadiy ajib dunyoga
Uning tomonidan ta'rif berilar.
Albatta, tasnifni yo'y mang ro'yoga,
Tasavvur shodasiga tekis terilar.
O'sha sof vijdonning sokin kuyini
Jo'r bo'lgan holatda birga kuylayman.
Feruza-ko'kish rang taxt sohibini
Ana shu kuy bilan obdon siylayman.

Falsafa shunisi bilan ham muhimki, u insonlar kayfiyatini yaxshiligidagi yoki alohida bir vaziyatlarda nimalarga ishonishini yaxshi ifodalab bera oladi. Xursandchilik va qayg'uning sodda tuyg'ulari falsafaning emas, balki eng sodda she'riyat va musiqaning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Faqat yaratgan haqidagi o'y-xayollar bilan chambarchas bog'liq hursandchilik va qayg'ugina metafizik nazariyalarni yuzaga keltiradi. Inson quvnoq pessimist yoki melanxolik optimist bo'lishi mumkin. Semyuel Batter birinchisiga misol bo'lsa, Plotin ikkinchisining yaqqol misolidir. U yashagan o'sha davrda baxtsizlik majburiy va odatiy bo'lgan bo'lsa, baxt, agar unga erishishni iloji bo'lsa, uni tuyg'ularga bog'liq taassurotlardan yiroq bo'lgan narsalar haqidagi fikrlardan izlash kerak. Bunday baxt o'zida doimo zo'r g'ayrat elementini mujassam etadi, u bolaning oddiygina baxtiga umuman o'xshamaydi. Boz ustiga, uni har kunlik hayotimizdan emas, fikr va tasavvur olamidan olishimizni inobatga olsak, u tuyg'ular olamini rad etishni yoki unga nafrat bilan qarashni taqozo etadi. Shuning uchun o'ta yuqori tuyg'ular olami mavjudligiga ishonch metafizik optimizmga bog'liq bo'lib, uni esa aslo instinkтив baxtdan rohat oladiganlar barpo etmaydi. Oddiy hayotda baxtsiz bo'lgan insonlar qat'iy tarzda nazariya olamida yuksak baxt topmoqchi bo'ladi, ular hayotida Plotin faxrli o'rinni egallaydi.

Uning sof intellektual qobiliyatini ham e'tirof etish lozim. U ko'p jihatdan Platon ta'limotini yoritib berdi; boshqalar bilan bir qatorda mana shu turdag'i nazariyani ketma-ketlikda rivojlantirdi.

Uning materializmga qarshi dalillari hamda ruh va tana mutanosibligi konsepsiyasi Aflatun va Arastu konsepsiyalariga qara-ganda aniqroq ko'rinishda.

Spinoza kabi u ham ajib taassurot uyg'otuvchi ma'lum bir axloqiy poklik va yuksaklik sohibidir. U doimo samimiy, unda o'ta talabchanlik yoki keskinlik mavjud emas, kitobxonga o'zi uchun muhim sanalgan ishonch haqida iloji boricha sodda tarzda tushuntirishga urinadi. U haqida nazariyotchi faylasuf sifatida qanday fikr yuritilishidan qat'i nazar – u inson sifatida hurmatga loyiq.

Plotin hayoti faqatgina uning shogirdi va Porfiriyning do'sti, semit, asl ismi Malk bo'lgan inson tomonidan yozib qoldirilgan biografiyasidan ma'lum. Ammo uning hikoyalari fantastik elementlar mavjudligi bois ishonchni to'la oqlamaydi.

Plotin o'zining makon va zamondagi mavjudligini e'tiborga loyiq deb hisoblamadi hamda tarixiy hayotiy tasodiflari haqida xohish bildirmay so'zлади. U Misrda tug'ilganligi, yoshlik davrida Aleksandriyada o'qiganligini va o'sha yerda 39 yoshigacha yashaganligini, ustozi esa neoplotonizm asoschisi Ammoniy Sakkas bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. So'ngra Plotin imperator Gordian III ning forslarga qarshi ekspedisiyasiga qo'shiladi, aytishlaricha, bundan maqsad Sharq diniy ta'limotini o'rganish bo'lgan. Hali yosh yigit imperator askarlari tomonidan o'ldiriladi, o'sha davrda bunday ishlar uchrab turgan. Bu voqeа mil. avv. 244-yilda, Mesopotamiyaga yurish vaqtida sodir bo'ldi. Shundan so'ng Plotin Sharq diniy ta'limotini o'rganishdan voz kechib, Rimga ko'chib boradi va o'qituvchilikni tanlaydi. Uning tinglovchilari orasida yuqori nufuzli insonlar ko'p bo'lgan, shu bilan bir qatorda imperator Gallien unga xayrixohlik qilgan⁷⁵. Plotin Aflatunning Kampanidagi "Respublika"sigi o'xshash respublika barpo etish loyihasini hamda shu maqsadda Platonapol deb nomlanishi kerak bo'lgan yangi shahar tuzilishini ishlab

⁷⁵ Gollienni Ye.Gibbon shunday ta'riflaydi: "U ko'pgina qiziqarli, ammo foydasiz fanlar ustasi edi: u topqir notiq, nozik ta'b shoир, mohir bog'bon, ajoyib oshpaz va eng uquvsiz shoh edi. Muhim davlat ishlari kutib turganda, u vaqtini Plotin bilan falsafiy subbatlar o'tkazar, yoki axloqisz ayshu-ishratlar bilan shug'ullanar, shuningdek, yunonlar misteriyasiga qabul qilishlari uchun tayyorlanar, yoki bo'lmasa, o'zi uchun Afinadagi Areopagidan joy so'rar edi" (X bo'lim).

chiqdi. Imperator dastavval bu loyihani qo'llab-quvvatladi, ammo keyinchalik uni rad etadi. Balki o'sha vaqtga kelib, bu hudud malyariyalashgandir, bu esa avval sodir bo'lman. 49 yoshigacha Plotin ijod qilmagan, shu yoshdan so'ng esa juda ko'plab asarlarga qo'l urgan. Uning asarlarini tartibga keltirgan va nashr ettirgan Porfiriy Plotinga nisbatan asl pifagorchi bo'lgan, uni ta'siri ostida neoplatonchilar maktabi qarashlarida Plotin fikriga zid qarashlar vujudga kelgan.

Plotin Platonni juda hurmat qilgan va Platonga odatda "U" deb murojaat qilgan. Umuman, u qadimgi allomalarni hurmat bilan tilga olgan, ammo bu hurmat atomistlarga nisbatan bo'lman. Stoiklar va Epikur bilan u qizg'in bahslashadi: stoiklar bilan materialistik qarashlari yuzasidan, epikurchilar bilan esa – ular falsafasining har bir elementi tufayli. Arastu falsafasi Plotin falsafasiga katta ta'sir o'tkazgan. Ko'p joylarda esa Parmenidning ta'siri sezildi.

Plotin Platonni doim ham to'laqonli tarzda ifodalamaydi. G'oyalari nazariyasi, mistik doktrinalar "Fedon" dialogida ("Davlat" IV kitob), "Bazm" asaridagi sevgi masalalari muhokamasi – bor-yo'g'i shular bilan Plotin o'zining "Enneadalap" kitobida Platon falsafasiga talqin beradi. Platonning siyosiy qiziqishlari, matematik iqtidori, alohida shaxslarga iliq va dramatik ta'rif berishi, jo'shqinligi Plotin asarida deyarli ko'rsatilmaydi. Karleyl aytganidek: "Platon Sionda o'zini erkin tutadi, Plotin esa o'zini tuyg'ularini chegaralay oladi". Plotin metafizikasi Muqaddas Uchlikdan boshlanadi: Yaratuvchi, Ruh va Idrok. Bu uchlik o'zaro teng emas (xristianlikdagi uchlik kabi), yuqorida – Yaratuvchi turadi, so'ngra – Ruh va eng oxirida Idrok⁷⁶.

Yaratuvchi biror tuman orasidagidek ko'rsatiladi. Uni ba'zan Xudo ham deb atashadi, ba'zan esa – Ezgulik deb nomlashadi, u borliqdan yuqoriroq qo'yiladi. Biz unga hech qanday fazilatlar bermasligimiz kerak, bir faqat "U mavjud" deyishimiz kerak (Bu

⁷⁶ Origen Plotining zamondoshi bo'lган ularni falsafa bo'yicha ustozlari bitta edi, u uchlikni shunday joylashtirib Plotin tarafдори bo'lган. Ammo vaqt o'tgach Origen ushbu fikri uchun dahriy deb e'lon qilingan.

Parmenidni eslatadi). Xudo haqida “Borliq” deb aytish xato bo‘lar edi, chunki u borliqdan ustunroqdir. Xudo butun borliqda mavjud. Yaratgan har bir narsada mavjud bo‘lishi mumkin: “Agar U hech qayerda bo‘lmasa — demak, u hech qayerda bo‘lmaydi”. Yaratganni ba’zan Ezgulik deb nomlashsada, biz shuni bilamizki, u Ezgulikdan ham, Go‘zallikdan ham oldinroq turadi⁷⁷.

Ba’zan Yaratgan Aristotelning Xudosiga o‘xshab ketadi: bizga — Xudo o‘zi yaratgan narsalarga muhtoj emas va ularni rad etib keladi, deb o‘rgatishgan. Yaratganni belgilab bo‘lmaydi va unga taalluqli narsalar haqida so‘z ketganda har qanday ta’rifdan ko‘ra sukutda haqiqat ko‘proqdir. Plotin ta’riflagan ikkinchisiga o‘tamiz, Plotin uni *nus* deb belgilab beradi. Bu so‘zni ma’nosini anglatuvchi inglizcha so‘zni topish juda qiyin. Oddiy lug‘at bu so‘zni “aql” deb izohlaydi, ammo bu aniq ma’no bermaydi, ayniqsa, bu so‘z din falsafasida ishlatilganda. Agar bir Plotin Idrokni Ruhdan ustun qo‘yadi desak, unda ushbu holatga noto‘g‘ri baho bergen bo‘lar edik. Plotin asarlari tarjimoni Makkenno “intellektuallik prinsipi” degan iborani qo‘llaydi, ammo bu omadsiz ibora bo‘lib, u diniy ehtiromga munosib obyektni ko‘rsatib bera olmaydi.

Ruhoniy Inge “Ruh” so‘zini ishlatadi, bu aynan mosroq so‘z deb qabul qilinadi. Ammo u intellektual elementdan ancha yiroqlashadi (bu Pifagordan keyin butun yunonlarda ahamiyatli bo‘lgan diniy falsafa uchun juda muhimdir). Matematika, g‘oyalar olami va barcha qo‘lda ushlab bo‘lmas narsalar to‘g‘risidagi fikrlar Pifagor, Platon va Plotin uchun qandaydir ilohiylikka ega: ular *nusni* faolligini tashkil etadi yoki uning faolligiga yaqinlashishni keltirib chiqaradi. Platon diniy ta’limotidagi aynan ushbu intellektual element xristianlarni, ayniqsa, Ioann Yevangeliyasini muallifini, Xristos va Logosning yakdilligiga ishonishiga olib keldi. Logos so‘zini ushbu holda idrok deb talqin etish mumkin, bu esa *nus* so‘zini “idrok” deb tarjima qilinishini oldini oladi. Ruhoniy Ingeni “Ruh” so‘zini qo‘llashini rad etmayman, ammo shu sharti bilanki, *nus* so‘zi “Ruh” so‘zida

⁷⁷ Fifth Ennead. Fifth Tractate, ch. 12.

bo‘Imagan intellektual ma’nosini yo‘qotmasin. Ammo men *NUS* so‘zini tez-tez tarjimasiz ishlataman. *Nus* – Yaratganning obrazi, u Yaratgan o‘z-o‘zini anglashi jarayonida vujudga kelgan va unga vahiy kelgan, bu vahiylik esa aynan *Nusdir*. Bu murakkab konsepsiya. Borliq o‘zini biron-bir qismlarisiz ham, - deydi Plotin, – o‘z-o‘zini anglay oladi: bu holda ko‘rvuch va ko‘rinuvchi yagona bir narsadir.

Platon Xudoni Quyoshga tenglaganidek, yorug‘lik taratuvchi va yoritilgan – aynan bir narsaning o‘zidir. Ushbu taxlitda fikrlab, nusni xuddi bir yorug‘lik sifatida ko‘ramiz, bu yorug‘lik tufayli esa Yaratgan o‘zini ko‘ra oladi. Biz o‘z xohishimizga ko‘ra esdan chiqarib qo‘yadigan Illohiy Idrokni anglay olishimiz mumkin. Illohiy Idrokni anglash uchun ruhimiz o‘zgarishi kerak (u Illohiylikka yaqinroq bo‘lgan hollarda): biz tanamiz va ruhimizni tanani shakllantiradigan qismidan voz kechib, “istak va impulsli tuyg‘ular va besamar intilishlardan” voz kechsakgina, undan qoladigan obraz aynan Illohiy intellekt obrazidir.

“*Unga ilohiy yaqinlar va undan ilhomlanadiganlar, hech bo‘maganda, shuni biladilarki, ular o‘zlarida qandaydir buyuklikni his etadi, ammo uni ifodalab bera olishmaydi; o‘zlarini hayojonlantiradigan imo-ishoralar va o‘zları chiqaradigan tovushlardan ular o‘zlaridan tashqarida bo‘lgan bir kuchni his etadi, bu kuch ularni boshqarib boradi: aynan shu tarzda, biz Illohiylik bilan birlashamiz, bu holda bizning ichimizda sof nus bo‘ladi; biz Illohiy Aqlni bilamiz, u Borliqqa va barcha narsalarga tartib beradi; ammo biz yana shuni bilamizki, boshqa quroq ham bor, u boshqalardan farq qiladi, u ancha oljanob prinsip bo‘lib biz Borliq deb biladigan barcha narsalardan oljanobroqdir; idrok, ong va tuyg‘udan yuqoriroq turadigan, ulardan to‘liqroq va buyukroq bir kuch bo‘lib, ular tomonidan chegaralanmaydi*” (*Enneads*, V, 3, 14).

Shunday qilib, bizlar “Illohiy tarzda ilhomlanganimizda va yaqinlashganimizda”, nafaqat nusni ko‘ramiz, shuningdek, Yaratganni ham ko‘ramiz. Shu taxlitda, Illohiylik bilan muloqotga kirishganimizda, biz ko‘rganlarimizni so‘z bilan ifodalay olmaymiz, bu holat keyin keladi. “Yaqinlashish vaqtida bizda

fikrlashga kuch bo'lmaydi; qoniqish hissi yo'q; fikrlash keyinroq keladi. Bizga vahiy kelganligini Ruh birdan yorishganda bilamiz. Bu Illohiylikdan kelgan yorug'lik va aynan Illohiylikning o'zidir. Biz Borliqqa ishonishimiz mumkin. U yorug'lik keltiradi, yorug'lik esa qiyomatning isbotidir. Shunday qilib, Ruh ushbu yorug'liksiz zulmatda qoladi, yoritilganda esa o'zi izlagan narsasiga erisha oladi va Ruh oldidagi haqiqiy maqsad shundaki, ko'proq o'ziga yorug'lik olish, Illohiylikni Illohiylik orqali ko'rishlik, ammo boshqa bir prinsipning yorug'ligi orqali emas, maqsad – Illohiylikni oddiy vahiylik orqali ko'rishlik, chunki Ruhning yoritilishi xuddi bir quyoshni quyosh nurlari orqali ko'rghanimizdek sodir bo'ladi. Ammo bunga qanday erishish mumkin? Hamma narsani bekor qil” (V.3, 17).

Plotin tez-tez “ekstaz” holatini his etib turgan: “Bu narsa ko'p sodir bo'ladi: tanamizdan chiqib o'zimizga kiramiz; barcha boshqa narsalardan tashqari bo'lib qolamiz va o'zligimizga nigoh qaratamiz; ajoyib go'zallikni ko'ramiz; so'ngra – yuqori tartib bilan muloqotga ko'proq ishonamiz; oliyhimmat hayot kechiramiz, iloh bilan o'xshashlikni olamiz; uni faolligi sababli uning ichida bo'lamiz, aql yetadigan barcha narsalarni anglaymiz. Ammo baribir intellektdan fikrlashga olib boruvchi lahma keladi va ushbu illohiylik bilan yaqinlashuvdan so'ng men o'zimizdan so'rayman, qanday qilib men endi bu lahzaga yeta oldim va qanday qilib Ruh mening tanamga kira oldi. Ruh hatto tana ichida ham o'zligini ko'rsatib. Illohiylikka erisha oldi” (IV, 8, 1).

Bu bizni Uchlilikning eng yuqori a'zosi – Ruhga olib keladi. Ruh nusdan quyi bo'lsada, barcha jonli narsalarni yaratuvchisidir: u Quyoshni ham, Oyni ham, yulduzlarni ham, barcha ko'rindigan narsalarni barpo etgan. U ikki qiyofalidir: nusga intiladigan ichki ruh va ichki dunyomizga qaragan ruh. Oxirgisi pastlovchi harakat bilan bog'liq bo'lib, unda Ruh o'z obrazini yaratadi, u o'z navbatida Tabiat va tuyg'ular olamining aynan o'zidir. Stoiklar Tabiatni Xudoga o'xshatishgan, ammo Plotin uni xuddi eng quyi sfera kabi qabul qiladi, xuddi Ruhni emanatsiyasi sifatida (ya'ni – Ruh yuqoriga nusga qarashni esdan chiqarishi) qabul qiladi. Bu

esa gnostik qarashlarga mos tarzda barcha ko'zga ko'rinaradigan narsalarni Yovuzlik deb talqin etadi; ammo Plotin bu qarashni yoqlamaydi. Ko'zga ko'rinarli olam juda go'zal va muqaddas ruhlar makonidir, u intellektual olamdan sal kamroq bo'lsada, yaxshiroqdir. Qizg'in bahsda (koinot va uni Yaratuvchisi – Yovuzlik degan gnostik qarashga nisbatan) va gnostik doktrinaning ayrim qismlarini, masalan, materiyaga bo'lgan nafrat, gnostiklar Platondan olishgan deb aytadi, ammo Platondan olinmagan boshqa qismlarni u noto'g'ri deb hisoblaydi. Gnostisizmga e'tirozları ikki xil. Bir tomonidan material olam barpo etayotgan Ruh bu ishni ilohiylik to'g'risidagi xotirasi bo'yicha amalga oshiradi, ammo xarob bo'lgani sababli emas. Tuyg'ular olami, deydi u, bu olamdek juda go'zal, u sezgi organlari his etadigan go'zallikni yaxshi his eta oladi.

"Intellekt qirolligidagi go'zal mutanosiblikni haqqoniy his eta olganlar tuyg'u orqali qabul qilinadigan tovush mutanosibligini ham his eta oladi, agar unda musiqiy iqtidor bo'lsa?

Geometriya yoki arifmetikaga qiziqadiganlar ko'zga ko'rinaradigan narsalarni tartibi, shakli, simmetriyasidan baha olishi sir emasku? Tasviriy san'at asarlariga ko'z tashlang: oddiy ko'z bilan qaraganlar bir narsani turlicha ko'rishadi, ular hayojonga tushadi, obyektlarni tanishadi, g'oyani anglashadi va shu orqali haqiqatni eslaydi, shunday his-tuyg'ular keladiki, ular muhabbatni dunyoga keltiradi. Demak, yuzaga chizilgan go'zal manzara aqlni shoshib qo'ysa, shubhasiz – hech kim hissiyotsiz, ahmoq bo'lmaydi, chunki har bir insonda bu go'zallik taassurot uyg'otadi, bu buyuklikdan kelib chiqqan buyuklik oldida lol qoladi. Bunday taassurot uyg'onmasligi faqat bu olam yaratilganiga ishonmaslik, go'zallikni ko'ra olmaslik holatidagina yuz berishi mumkin" (II, 9, 16).

Gnostik qarashga qarshi yana bir dalil bor. Gnostiklar fikricha, hech qanday Ilohiy Quyosh bilan ham, Oy bilan ham, yulduzlar bilan ham bog'liq emas, ular bir yovuz Ruh tomonidan yaratilgan qabul qilinadigan narsalar ichida faqat inson ruhigina qandaydir orombaxshdir. Ammo Plotin qat'iy ta'kidlaydiki, samimiy jismlar ilohiy jonzotlar tanalarining ko'rinishidir va ular

insonlardan yuqoriroq turadi. Gnostiklar “o‘z ruhini eng kichik mavjudot ruhini, agar u insonga taalluqli bo‘lsa, ilohiy, mangu deb e‘lon qiladi; ammo butun osmonlar va samodagi yulduzlar Abadiy Boshlanishga daxldor emas, ular o‘z ruhlaridan ko‘ra tozaroq va go‘zalroq bo‘lsa ham” (II, 9, 5).

“Timey” asarida Plotin fikrini qo‘llovchi muhim dalil bor, u ayrim cherkov otalari tomonidan, masalan, Origen tomonidan qabul qilingan. U yoqimli tuyg‘ularni ifoda etadi, (fazoviy jismlar tomonidan tabiiy yuboriladigan) hamda insonni jismoniy olamda yakka qilishdan asraydi. Plotin mistikasida go‘zallikka qarshi yot yoki yovuz narsa yo‘q. Ammo u oxirgi diniy ustoz bo‘lib, yuz yillar davomida bunday ta’rifga ega bo‘lgan yagona insondir. Go‘zallik va u bilan bog‘liq barcha rohatlar Iblisdan kelib chiqadi, degan ta’limot ham ko‘rib chiqilgan; majusiyalar ham xristianlar kabi ifloslik va badbasharalikni ko‘kka ko‘taradi. Yulian Murtad o‘z zamondoshlari bo‘lgan ayrim ortodoksal allomalar kabi o‘z soqolidagi bitlar bilan maqtangan. Plotinda bunday fikrlar yo‘q. Materiyani Ruh barpo etgan va u mustaqil reallik emas. Har bir Ruh o‘z vaqt-soatiga ega; ushbu vaqt kelganda, u pastga tushadi hamda o‘ziga mos tana ichiga kirib oladi. Bunga sabab Idrok emas, balki shahvoniy hirsga o‘xshash istakdir. Ruh tanani tark etganda, u boshqa tana ichiga kirishi kerak, agar u gunoh ishlar qilgan bo‘lsa, chunki adolat shuni talab qiladiki, u muqarrar jazolanishi kerak. Agar sen bu hayotda o‘z onangni o‘ldirgan bo‘lsang, kelgusi hayotingda sen ayol bo‘lib dunyoga kelasan va seni o‘z o‘g‘ling o‘ldiradi (III, 2, 13). Gunoh ish jazolanishi shart, jazo gunohkorning adashganligi sababli muntazam ravishda qaytalanadigan harakatlari orqali amalga oshiriladi. Hayotimizni o‘limizdan keyin eslay olamizmi? Javob mantiqan aniq, ammo bu javob zamonaviy teologlar javobiga mutlaqo zid. Xotiramiz hayotimiz bilan bog‘liq, ammo go‘zal va haqqoniy hayot abadiylikda. Shuning uchun Ruh mangu hayotga intilar ekan, u bora-bora xotirasini yo‘qotib boradi; do‘sstar, farzandlar, turmush o‘rtog‘i bular bari sekin-asta unitiladi; nihoyat, biz bu dunyodan hech narsani eslab qola olmaymiz va faqat intellekt qirolliginigina ko‘ra olamiz. Shaxsning xotirasi bo‘lmaydi (u ko‘rish taassuroti

orqali o‘zligini anglay olganligi uchun). Ruh nus bilan yaxlitlikka kirishib ketadi, ammo o‘z-o‘zini yakson etish hisobiga emas. Nus va individual Ruh bir vaqtning o‘zida bir-biriga bog‘liq ham bo‘ladi, buning aksi ham bo‘ladi (IV, 4, 2). To‘rtinchi Enneadada Ruh haqida so‘z ketganda, bir bo‘lim (7 traktat) mangu hayot masalasi muhokamasiga qaratilgan. Tana murakkab bo‘lganligi sababli, mangu bo‘la olmaydi, shunda agar u bizning o‘zimizning bir qismimiz bo‘lsa, bir to‘liq tarzda mangu bo‘la olmaymiz. Ruhning tanaga munosabati qanday? Aristotel (uni nomi aniq tilga olinmagan) aytishicha, Ruh tana shaklidir, ammo Plotin bu fikrni rad etadi, shu asosdaki, intellektual akt, agar Ruh tanani biron shakli bo‘lganda, umuman bo‘lmasdi. Stoiklar fikricha, Ruh materiyadan iborat, ammo Ruh birligi buni aksini isbotlaydi. Undan tashqari, materiya passiv bo‘lgani uchun u o‘z-o‘zini barpo eta olmaydi. Agar Ruh materiyani barpo etmaganda, u bo‘lmas edi va Ruh mavjud bo‘limganda materiya bir zumda yo‘q bo‘lib ketar edi. Ruh materialistik emas va u materialistik tana shakli ham emas, ammo u borliq. Borliq esa mangudir. Bu qarash Platon asarlarida berilmagn, ya’ni Ruh mangu, chunki goyalar mangudir. Faqat Plotingina bu narsalarga aniqlik kiritib beradi. Qanday qilib Ruh intellektual olamdan tanaga kira oladi? Javob quyidagicha: faqat ichki mayl sababli. Ammo ichki mayl vaqtı-vaqtı bilan u tuban bo‘lsada, qaysidir, ma’noda olijanob ham bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi holda Ruh “qat’iy tartibga ehtiyoj sezadi, uning namunasi esa intellektuallik prinsipida ko‘zga tashlanadi (nus)”. Ya’ni boshqacha qilib aytganda, Ruh borliqning ichki qirolligini ko‘radi va aynan shunga o‘xhash bir qirollik barpo etishga intiladi, ammo bu qirollik ichkaridan emas, tashqaridan ko‘rinsin, xuddi bastakor kabi u dastlab o‘z musiqasini xayolida, tasavvurida barpo etadi, keyin esa uni orkestr ijrosida eshitishni istaydi. Ammo Ruhning bu bunyodkorlik istagi ko‘ngilsiz natijalarga olib keladi. Ruh borliqning sof olamida yashar ekan, u boshqa ruhlardan ajralmaydi, ular ham o‘sha olamda yashaydi; ammo ruh tana bilan birlashishi orqali o‘zidan past bo‘lgan narsani boshqarishga majbur bo‘ladi va shu sababli u boshqa tanaga ega ruhlardan ajraladi. Ba’zi bir insonlar va ba’zi bir lahzalarni istisno

qilsak, Ruh tanaga birikkan holda qoladi. “Tana haqiqatni yashiradi, ammo “U yerda”⁷⁸ hamma narsa aniq va alohida holdadir”.

Platon doktrinasi kabi bu doktrinada ham olamni yaratish xato bo‘lgan degan fikrdan uzoqroq bo‘lish kerak deyiladi. Ruh o‘zini eng yuqori nuqtasida borliq olami (nus) bilan ehtiyojini qondiradi. Agar u doimo shu naqtada bo‘lsa, u barpo etishdan to‘xtab, faqat kuzatardi xolos. Bunyodkorlik akti shu asosda o‘zini oqlaydiki, barpo etilgan dunyo mantiqan mavjud barcha olamlardan yaxshiroq, ammo u abadiy dunyoning nusxasi xolos va u nusxaga xos go‘zallikka ega. Aniqroq bir tasdiq gnostiklarning traktatida (II, 9, 8) o‘z aksini topadi:

Agar sen nega Ruh Koinotni yaratdi desang, demak, nega Ruh bor va nega Yaratuvchi yaratadi, deb so‘ragan bo‘lasan. Savol o‘ziga mangulik boshlanishini oladi va keyinchalik borliqni o‘zgaruvchanligini namoyon etadi.

Bunday o‘ylaydiganlar shuni bilishi kerakki, tabiat ilohiyigini ulug‘lab, buyuk kuchlarga nisbatan shubha – gumonga bormasligi kerak.

Hatto Koinotni boshqarishda ham bunday shakkoklikka yo‘l qo‘ymaslik kerak, zero, u Intellektual Zot Buyukligini isbotlab beradi.

Bu “barcha” bizni hayotga kelgach – bu amorf tarkib emas, xuddi uning ichidagi tuban shakllar kabi tunda tug‘iladi va kunduzi uni hayotligidan bahra oladi. Koinot – tashkil etilgan, samarali, murakkab hayot bo‘lib, o‘z donishmandligini ko‘rsatadi. U holda, bu Intellektual Ilohnинг shakllangan obrazi ekanligini kim ham inkor eta oladi? Shubhasiz, bu nusxa original emas, ammo bu uning haqiqiy tabiatini, u bir vaqtning o‘zida ham ramz, ham reallik bo‘la olmaydi. Ammo bu noadekvat nasxa deyish ham noto‘g‘ri, jismoniy tartibni o‘z ichiga oladigan go‘zallikdan hech narsa tushirib qoldirilmaydi.

Bu shubhasiz, gnostiklarga yaxshi javob bo‘la oladi va bu javob Plotin prinsiplarini muqarrarligini isbotlaydi. Biroz

⁷⁸ Plotin “U yerda” degan so‘zni xuddi xristian kabi qo‘llaydi, masalan: “Mangu hayot, hayot mangu, ko‘z yoshsiz hayot faqat u yerda”.

o'zgargan holda bu muammo xristian teologlariga meros bo'lib qolgan: ular ham Yaratuvchanlikni shakkok fikrlarsiz tushuntirib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Ular fikricha, Yaratuvchiga olamni yaratgunga qadar nimadir yetishmagan. Aslida esa bu teologlarga Plotinga qaraganda qiyinroq bo'lgan, chunki u Aql tabiatini yaratuvchanlikni muqarrar qilgan degan fikrni ayta olgan, ammo xristianlarda esa olam Xudoning erkin istagi tufayli yaratilgan degan g'oya bo'lgan. Plotin abstrakt go'zallikni jonli tuyg'u bilan ifoda eta olgan. Yaratgan va Ruh orasidagi vositachi intellekt bo'lib, u juda chirolyi tarzda bu haqda yozadi:

"O'z rivojlanishida Buyuk bo'lgan narsa jonsiz idishda hattoki Ruh ko'rinishida ham paydo bo'lmaydi; u o'z haqida go'zallik bilan xabar beradi; Buyuk Qirol oldida dastlab quyi jonzotlar, so'ngra yuqoriroqlar, so'ngra Qirolga yaqinlar va a'yonlar, undan keyin esa uni shaxsiy a'yonlari va nihoyat Poshshoyi Olamning o'zi paydo bo'ladi, shunda barcha tiz cho'kadi, faqat U kelgunga qadar vahiy yetib kelgan va U kelguncha ketib bo'lganlar bundan mustasno" (V, 5, 3).

Intellektual Go'zallik to'g'risidagi traktatda bu tuyg'ular quyidagicha ifodalanadi (V, 8):

"Barcha xudolar go'zallik va orombaxshlikka egadir, uni bizlar so'z bilan ifoda etolmaymiz. Ularni nima bunday qila oladi? Idrok va faqat ularda mavjud bo'lgan Idrokgina..."

Hayot "u yerda" go'zal va bunday ilohiy mavjudotlar uchun haqiqat ham ona, ham boquvchi, ham yemak ham hayotiylik, ular hamma narsani jarayon sifatida emas, haqqoniy borliq sifatida talqin qilishadi hamda o'zlarini barcha narsalarda ko'radi, chunki barcha narsalar shaffof, zulmat yo'q va ziddiyat yo'q; har bir jonzot boshqasi uchun aniq va ravshan, eniga ham, bo'yiga ham; yorug'lik esa yorug'lik orqali o'tadi.

Har biri o'z ichida o'zligini saqlaydi, shu vaqtning o'zida har narsada hamma narsani ko'radi, shuning uchun hamma yerda hamma narsa bor, hamma narsaning o'zi hamma narsa, har bir narsani o'zi hamma narsa, yuksaklikning bepayon almashinuvdir. Ularning har biri buyuk, mayda narsa ham ulkan; "U yerda"

Quyosh barcha yulduzlarni qamrab oladi va har bir yulduz o‘z navbatida boshqa yulduzlar va Quyoshni qamrab oladi.

Borliqning ba’zi bir shakllari har bir jonzotda bo‘lsa ham, ular barchasi bir-birida namoyon bo‘ladi”.

Olamni mukammal emasligi, chunki u faqat nusxa bo‘lib, Plotin uchun ham, xristianlar uchun ham undanda og‘irroq yovuzlik bor – bu gunoh ishlar samarasi. Gunoh – iroda erkinligi oqibati, buni Plotin deterministlarga qarshi qo‘yadi, xususan, astrologlarga qarshi. U astrologiya ahamiyatini to‘liq inkor etmaydi, ammo u uchun chegara belgilashga urinadi, qolgan sferani esa erkin iroda bilan mutanosib bo‘lishini istaydi. Xuddi shu munosabatni u sehr-joduga ham qo‘llaydi: donishmand, deydi u, sehr-jodudan xolidir. Porfiriylar aytishicha, bir raqib faylasuf Plotinni sehr-jodu bilan aldamoqchi bo‘ladi, ammo Plotinning donoligi bu sehr-joduni raqibni o‘ziga qaytaradi. Porfiriylar Plotinning barcha izdoshlari kabi ancha irim-sirimlarga ishonuvchan bo‘lgan. Plotin esa o‘z davri uchun xos bo‘Imagan tarzda xurofotga berilmagan.

Endi esa Plotin ta’limotini yaxshi va yomon tomonlarini birlashtirsak, bu ta’limotni xristian teologiyasi tizimli va intellektual tarzdagina qabul qilgan. Avvalo, Plotin komil inson va orzu-umidlar uchun xavfsizlik boshpanasi strukturasini tuz-ganligini aytib o‘tamiz, boz ustiga bu konstruksiya ham axloqiy, ham intellektual intilishlarni o‘z ichiga oladi. III asrda va varvarlar bosqinidan keyingi asrlarda G‘arb sivilizatsiyasi o‘z halokati yoqasida turgan edi. Baxtimizga o‘scha davrda teologiya saqlanib qolgan aqliy faoliyatning yagona sohasi bo‘lgan o‘scha paytda qabul qilingan tizim butunlay irim-sirimga asoslangan deb bo‘lmaydi. U yashirin doktrinalarni ham saqlab qolgan, bu doktrinalar yunon fikriga asoslangan yutuqlar va axloqiy taqvodorlikni o‘ziga mujassam etgan. Bu g‘oya stoiklar uchun ham, platoniklar uchun ham umumiyligi bo‘lgan. Bu sxolostik falsafa paydo bo‘lishini imkonini berdi, keyinroq esa Uyg‘onish davrida Platon ta’sirini, shuningdek, boshqa qadimiy faylasuflar ta’sirini ham kuchaytirdi. Boshqa tomonidan esa Plotin falsafasini kamchiligi ham bor edi, u insonlarni ko‘proq o‘zligini anglashga

undardi (tashqi olamni o'rganishni orqaga surib). Biz o'z ichimizga nazar solsak, nusni ko'ramiz, u ilohiydir, tashqariga boqsak, biz tuyg'ular olamini nomutanosibligini ko'ramiz. Subyektivizmning ushbu turi o'sib borgan, uni Protagor, Suqrot va Platonning doktrinalarida ham uchratish mumkin. Shuningdek, stoiklar va epikurlarda ham. Ammo boshida u faqat doktrinal bo'lgan xolos, psixologik emas: uzoq vaqt u ilmiy qiziqishni o'ldira olmagan. Biz shuni ko'ramizki, mil. avv. 100 yillarda Posidoniy Ispaniyaga sayohat qiladi, shuningdek, Afrikaning Atlantika qirg'oqlariga sayohat qiladi. Maqsadi oqimni o'iganish bo'lgan. Sekin-asta subyektivizm inson tuyg'ularini qamrab oladi, xuddi uning doktrinalari singari.

Fan avvalgidek nufuzga ega bo'lmay qoldi, faqat ezgulik muhim bo'lib qoldi. Platon fikricha, ezgulik – aql erisha oladigan barcha narsalarni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan holdir. Keyinchalik ezgulikni faqat ezgulik irodasi deb qabul qiladigan bo'lishdi, uni jismoniy olamni tushunish yoki insonlar muassasalarini mukammallashtirishga intilish deb tushunishni rad etishadi. O'z axloqiy doktrinalarida xristianlar ham bu xatoga yo'll qo'ygan. Plotin falsafasi bir vaqtning o'zida ham boshlanish, ham yakundir: yunonlarga taalluqli jihatdan – yakun, xristianlikka nisbatan esa – boshlanishdir. Qoniqmaslik, najotsizlik hukm surgan qadimgi dunyo uchun uning doktrinasi qabul qilinadigan darajada edi, ammo kuchli ta'sirga ega emas edi.

Qo'polroq bo'lgan varvarlar dunyosi uchun bu yerda qaynab turgan shiddat uchun tartib va jilov kerak bo'lgan, uning ta'limoti orombaxsh hisoblangan, chunki yovuzlikni yengish uchun bo'shanglik emas, qahr zarur bo'lgan. Uning falsafasidan saqlanib qolgan barcha fikr va g'oyalar Rim imperiyasining oxirgi yillarda faylasuflar tomonidan meros qilib olingan.

XIX ASR FIKRI RIVOJI

XIX asrda intellektual faoliyat, o'tgan asrlarga nisbatan murakkab jarayonlarni boshidan kechirdi. Buning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, intellektual hayot chegarasi kengaydi. Intellektual faoliyat rivojiga Amerika va Rossiya sezilarli ta'sir ko'rsatdi, Yevropada ham hind falsafasi, qadimgi davr falsafasi va zamonaviy holat haqida ma'lumotga ega bo'lish o'tgan davrlarga qaraganda kengaydi. Ikkinchidan, XVII asrda yangi g'oyalarning manbasiga aylangan fan yuqori cho'qqilarga ko'tarildi, xususan, bu geologiya, biologiya va organik kimyo sohalarida ko'zga tashlandi. Uchinchidan, mashinasozlik rivoji jamiyat strukturasini o'zgartirib yubordi, bu insonning tabiatga va tabiiy muhitga nisbatan qudratini oshganligi haqida yangicha tasavvurni hosil qildi. To'rtinchidan, tafakkur, siyosat va iqtisod-dagi an'anaviy tizimlarga qarshi ko'tarilgan falsafiy, siyosiy norozilik, ta'limotlarni, tashkilotlarni inkor qilinishiga olib keldi. Vaholanki, ular hozirga qadar daxlsiz edi. Mazkur norozilik ikki shaklda namoyon bo'ldi: biri – romantik, boshqasi – ratsional (men bu so'zlarni keng ma'noda tushunaman) ko'rinishga ega edi. Romantik isyon Bayrondan o'tib, Shopengauer va Nisse Mussolini va Gitler qarashlarida aks etdi. Ratsional norozilik esa fransuz falsafiy inqiloblaridan boshlanadi, radikal ingliz faylasuflarida biroz yumshoqroq ko'rinishda ifodalanadi, keyin Marks ta'limotida chuqurlashadi, Sovet Rossiyasida o'z nihoyasiga yetadi.

Germaniyaning intellektual hukmronligi yangi omil sifatida rol o'ynadi. Kantdan boshlab Leybnisgacha, u nemis bo'lgani bilan doim lotin yoki fransuz tilida yozar edi, uning falsafasiga nemis fikri ta'sir ko'rsatmagan. Kantdan keyingi nemis falsafasiga nemis tarixi katta ta'sir ko'rsatgan. Nemis spekulativ falsafasidagi o'ziga xosliklar, kuchli millat ruhiyatini o'zida aks etadi, keyinchalik bo'lgan tarixiy tasodifiyatlar, uning tabiiy qudratidan ayirib qo'ydi. Germaniya ushbu qudrati uchun Muqaddas Rim imperiyasidan qarzdordir, lekin imperator qo'l ostidagilarini har doim ham nazorat qila olmas edi. Eng so'nggi

qudratli imperator Karl V bo'lgan. U Ispaniya va Niderlandiya ustidan hukmronlikni qo'lga olib o'z qudratiga erishdi. Reformatsiya va o'ttiz yillik urush nemis birdamligiga barham berdi, tarqoq knyazliklarga ajralib ketib, Fransiyaga qaram bo'lib qoldi. XVIII asrda faqatgina bir davlat – Prussiya Fransiyaga qarshi tura oldi. Shuning uchun ham faqat Fridrixga Buyuk deb nom berildi. Lekin Prussiya ham Napaleonga oxirigicha qarshi kurasha olmadi. Yenadagi urushda u taslim bo'ldi. Bismark davrida Prussiya qayta tiklanib, ilgarigi qahramonligiga ega bo'ldi (Alarixa, Buyuk Karl va Barbaros. Nemislar uchun Buyuk Karl fransuz emas, balki nemisdir). Bismark: "Biz Kanossuga qaytmaymiz!", - deb tarixni yangicha tushunishni anglatib qo'ydi.

Biroq Prussiya siyosiy munosabatlarda hukmronlik qilsa ham, g'arbiy Germaniyaga nisbatan madaniy jihatdan ancha qoloq edi. Shuning uchun taniqli nemis ma'rifatparvarlari, shu jumladan, Gete ham Yenadagi Napaleonning g'alabasidan afsuslanmadı. XIX asrda Germaniya iqtisodiy va madaniy jihatdan juda abgor ahvolda edi. Sharqiy Prussiyada krepostnoylik saqlanib qolgandi. Qishloqdagi aristokratlar tubanlik botqog'ida edi. Mehnatkashlar oddiy ma'lumot olishdan mahrum bo'lgan. G'arbiy Germaniya, boshqa tomonidan, antik davridagidek, Rim bosimi ostida edi; XVII asrdan boshlab fransuz qaramog'iga o'tdi. Fransuz inqilobiy armiyasi tomonidan bosib olindi, xuddi Fransiyadagidek liberal tashkilotlarga ega bo'ldi. Ba'zi bir knyazlar ma'lumotli bo'lib, san'at va fanning rivojiga homiylik qilgan, Uyg'onish davridagi knyazlarning qasrlariga taqlid qilganlar. Veymar knyazligi eng ko'zga ko'ringani edi. U yerdagi yirik gersog Getega homiylik qiladi. Ushbu knyazliklar Germaniyaning birlashishiga butunlay qarshi edi. Aks holda ularning mustaqilligi barbod bo'lardi. Shuning uchun ham ko'pgina yirik shaxslar vatanparvar bo'lmasan. Napoleon g'arbiy Germaniyadan ko'ra yuqoriroq madaniyatni olib kiruvchi shaxsga aylangan.

Nemis falsafasi adabiyot va san'atdan farqli ravishda, ko'proq Prussiya bilan bog'langandir. Kant Buyuk Fridrixga sodiq edi. Fixte va Gegel Berlinda professorlik qilganlar. Kantga

Prussiya uncha ta'sir ko'rsatmagan, chunki uning liberal ilohiyoti tufayli prus hukumati bilan aloqasi yaxshi emasdi. Lekin Fixte ham, Gegel ham Prussiyaning falsafiy nazariyotchilari bo'lган. Aynan ular nemis vatanparvarligining zamini Prussiyaga bog'langanini assosladi. Bu faoliyat nemis tarixchilar tomonidan davom ettirildi, aynan, Mommzen va Treychkelar orqali. Bismark, va-nihoyat, nemis millatini Prussiya hukmronligi ostida birlashishi kerakligiga ishontirdi. Bu bilan nemis madaniyatidagi ba'zi baynalmilal unsurlar g'alabasi ta'minlandi.

Gegelning o'limidan so'ng ko'p yil davomida akademik falsafa an'analarga sodiq bo'lib, o'z ahamiyatini yo'qotmadidi. Britaniyadagi empirik falsafa Angliyada asr oxirigacha hukmronlik qildi, Fransiyada esa uning ta'siri ancha ilgariroq tugatildi. Keyinchalik Kant va Gegel falsafasi Fransiya va Angliya universitetlarini egallay boshladi, bu falsafadan dars beruvchi o'qituvchilar tomonidan amalga oshirildi. Ilmlı omma bu harakatni qo'llamadi, chunki ilm ahli orasida ularning tarafдорлари deyarli yo'q edi. Akademik an'analarni davom ettiruvchi yozuvchilarining (Jon Styuart Mill – akademik falsafaning empirizm tarafдори, Lotse, Zigvart, Bredli va Bozanket idealistik nemis falsafasi pozitsiyasini davomchilar) fikrlari qo'llab-quvvatlansa ham, ular faylasuf emasdi. Akademik falsafa davrning qudratli tafakkuridan o'rin ololmay, chetda qoldi, masalan, XVI va XVII asrlardagidek sxolastik holatda edi. Bunday holatlarda falsafa tarixchisi nomutaxassislarga nisbatan professorlar diqqatini jalb qilolmadi.

Fransuz inqilobchi faylasuflarining aksariyat qismi fanni Russo qarashlari bilan bog'ladi. Gelvesiy va Kondorse ratsionalizm va entuziazm qorishmasining tipik vakillari edi.

Gelvesiy (1745-1771) "Tafakkur haqida" nomli asarini Sorbonnada hukm chiqarilib yoqib yuborilganligiga guvoh bo'ldi. Bentam 1769-yilda bu asarni o'qiboq, bor hayotini qonunchilik tamoyillarini ishlab chiqishga bag'ishlab, shunday dedi: "Bekon tabiat dunyosi uchun kim bo'lsa, Gelvesiy axloq dunyosi uchun shundaydir. Axloq dunyosi, o'z Bekoniga ega, lekin uning Nyutoni hali dunyoga kelishi zarur". Jeyms Mill Gelvesiy

ta'limotini o'zlashtirib, undan o'z farzandi Jon Styuartga ta'limtarbiya berishda foydalandi.

Lokkning *tabula rasa* degan tafakkur doktrinasiga amal qilib, Gelvesiy tarbiyada individuumlar orasidagi farq to'lig'ligicha turli sharoitga bog'liq ekanligini tahlil qilib beradi. Har qanday individuum o'z talantiga ega, ularning yaxshi xulqi ta'limning oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Daho, uning ta'kidiga ko'ra, muhitdan minnatdor bo'lishi kerak: garchi Shekspir brakon'er sifatida qo'lga tushmaganida, u jun sotuvchisi savdogar sifatida faoliyat yuritar edi. Gelvesiyning qonunchilikka qiziqishining asosi shundaki, o'spirinlikda uni boshqaruv shakllari, xulq va urf-odatlar turlari diqqatini jalb qilgan. Insonlar johil bo'lib tug'iladilar, aslo ahmoq bo'lib emas. Ularni tarbiya ahmoq qilib qo'yadi.

Gelvesiyning axloqiy qarashlari utilitaristik edi; u ezgulik qilishdan lazzatlanish kerak deydi. Dinda u deist va antiklerikal edi. Bilish nazariyasida Lokkning soddarroq versiyasini quvvatlaydi: "Lokk bilan qurollangan holda biz bilamizki, his organlarimiz g'oyalalar va tafakkurimizdan minnatdor bo'lishi kerak". Tabiiy hissiyotimiz, deydi faylasuf, bizning harakatimiz, fikrlarimiz, ehtiroslarimiz va ijtimoiyotimizning yagona sababidir. Bilish masalasida u Russodan butunlay ajraladi, chunki u bilishni yuqoriga ko'taradi.

Uning ta'limoti ko'tarinki ruhiyatda, chunki insonni yetulklikka erishishida mukammal tarbiya zaruratdir. Shunday ta'kid yuradi, garchi ta'lim yo'lida ruhoniylar to'siq bo'limganida, mukammal tarbiyaga erishish mumkin edi.

Kondorsening (1743-1794) qarashlari Gelvesiynikiga o'xshab ketadi, lekin unga ko'proq Russo ta'sir qilgan. Inson huquqlari, deydi u, faqat bir haqiqatga asoslanadi, aynan, inson hissiyotga ega mavjudotdir, u mulohaza yuritadi, axloqiy g'oyalarni o'zlashtiradi, shuning uchun ham ular hukmdor va unga bo'ysunuvchiga, yolg'onchilar va aldanganlarga bo'linmaydi. "O'z qoni bilan javob bergan bag'rikeng Sidney, Lokk o'z nufuzi bilan tasdiqlagan bu tamoyillarni keyinchalik Russo o'tkir aniqlik bilan, keng miqyosda, shiddat bilan rivojlantirdi". Lokk,

deydi u. birinchi bo'lib insoniy bilim chegaralarini ko'rsatib berdi. "Ana shunday uslubdan keyinchalik barcha faylasuflar foydalana boshladи, aynan uni axloqqa, siyosatga, ijtimoiy iqtisodga nisbtan ishlatdilar. Mazkur sohada xuddi tabiiy-ilmiy bilimlardagidek keng imkoniyatga erishdilar.

Kondorse amerika inqilobidan hayajonga tushadi. "Oddiy sog'lom tafakkurlovchi britaniya koloniysi aholisi shuni tushunishi kerakki, Atlantika okeanining narigi tomonida tug'ilgan ingлизлар, Grindvich meridianida tug'ilgan boshqa inglizlar kabi tabiiy huquqqa ega". Qo'shma Shtatlar konstitutsiyasi, uning fikriga ko'ra, tabiiy huquqlarga asoslangan. Amerika inqilobi inson huquqlarini butun Yevropaga, ya'ni Nevadan tortib Gvadalkviviragacha mashhur qildi. Fransuz inqilobi tamoyillari, "amerika amal qilgan tamoyillarga nisbatan, aniqroq, sofroq va chuqurroq edi". Bu so'zlar Robesperdan yashiringan holda yozilgan. Shundan so'ng u qo'lga olinib, turmaga tiqildi. U turmada vafot etdi, o'limining sababi aniqlanmadи.

Kondorse ayollarning teng huquqqa ega bo'lishiga ishongan. U Maltusdan ilgari aholining ko'payishi nazariyasining asoschisi bo'lgan. Lekin uning nazariyasi Maltusga nisbatan kamroq salbiy oqibatga ega edi, chunki u aholining tug'ilishini nazoratga olish zaruriyati haqida gapirgan. Maltusning otasi Kondorsening shogirdi bo'lgan. Shu tufayli Maltus Kondorse nazariyasi bilan tanishadi.

Kondorse Gelvesiyga nisbatan ko'proq optimist va entuziastdir. U fransuz inqilobi tamoyillariga kengroq amal qilinsa, butun ijtimoiy yovuzlik barham topishiga butunlay ishongan. Lekin yaxshiyamki, u 1794-yilga qadar yashamadi.

Fransuz inqilobchi faylasuflarining ta'limoti asta-sekin, radikal faylasuflar tomonidan yanada aniq shaklda Angliyada rivojlantirildi, uning asoschisi Bentam edi. Dastlab Bentam faqat huquq bilan shug'ullandi. Keyinchalik, yoshi ulg'aygan sari qiziqishlari kengayib, qarashlari keskinlashib bordi. 1808-yildan keyin u respublikachilar tomoniga o'tdi va ayollar tengligini himoya qilib, imperializmning dushmaniga aylandi va qat'iy demokratik pozitsiyani egalladi. Ba'zi bir qarashlarini Jeyms

Milldan meros qilib oldi. Ularning ikkisi ham tarbiyaning qudratiga shak-shubhasiz ishonar edi. “Uncha kam sonli aholining to‘la baxtli bo‘lishi” tamoyilimi qabul qilib Bentam demokratik hissiyotini tasdiqladi, lekin bu ta’kid inson huquqlari ta’limotiga oppozitsiyada bo‘ldi, chunki uning fikricha bu “mazmunsiz” edi.

Radikal faylasuflar ko‘p hollarda Gelvesiy va Kondorse kabi odamlardan farqlangan. Ular shijoatli, qat’iyatli bo‘lib, sevimli nazariyalarini mayda detallarigacha ishlab chiqqanlar va amaliyatga qo‘llaganlar. Ular iqtisodiy nazariyaga katta ahamiyat bergen, uni fan sifatida rivojlantirishga uringan. Bentam va Djon Styuart Milldagagi hayratlanishga moyillikni ushbu “fan” cheklab turardi, lekin Maltus va Djeyms Mill bundan mustasno edi. Ayniqsa, Maltusga tegishli bo‘lgan aholini ko‘payishi nazariyasiga ko‘ra, oylik maoshga yashovchi ko‘pchilikka, xuddi vaboden keyingi holatdek, kam ish haqi berilishi zarur, maosh hayotiy zarur ehtiyojlarga va oilasiga yetsa bas. Bentamchilar va ularning fransuz salaflariga xos bo‘lgan boshqa farqli jihatlar shundan iborat ediki, Angliya sanoatidagi tadbirkorlar va ishchilar o‘rtasida o‘tkir ziddiyat mavjud edi, bu ziddiyat tred-yunionizmga va sotsializmga olib keldi. Bu nizoli holatda bentamchilar ishchilar sinfiga qarshi, tadbirkorlar tomonida edi. Ularning so‘nggi vakili bo‘lgan Djon Styuart Mill otasi himoya qilgan tamoyillardan uzoqlasha boshladi, ulg‘aygan sari sotsializmga nisbatan dushmanona kayfiyatini yo‘qotib bordi. Klassik iqtisodiy nazariyaning mutlaq haqiqatligiga ishonchi sindi. Bu holat uming avtobiografiyasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, romantik–shoirlarning asarlari bilan tanishishdan boshlandi.

Dastlab bentamchilar mo‘tadil inqilobdan xalos bo‘lib bordi. Bu ularning ingliz hukumatiga ba’zi qarashlarining haqiqat ekanligiga ishontira boshlaganlardan keyin sodir bo‘ldi, bunga sotsializm va tred-yunonchilar o‘rtasidagi kuchayib borayotgan oppozitsiyaning ta’siri ham sezildi. An’analarga qarshi turuvchi insonlar ikki tipda namoyon bo‘ldi: ratsionalistik va romantik, zero, Kondorsega o‘xshagan odamlarga unisi ham bunisi ham tegishli. Bentamchilar deyarli to‘liq ratsionalist edilar, ularga qarshi isyon ko‘targan va mavjud iqtisodiy tartibni inkor qilgan

sotsialistlar ham ratsionalist bo'lgan. Bu intellektual harakatlar Marksga qadar yakunlangan falsafiy shaklga kirdi.

Romantizm nuqtayi nazaridan qarshi chiqish, ratsional qarshi chiqishdan farq qiladi, ularning ikkisi bevosita avval shakllangan bo'lsa ham fransuz inqilobiga va falsafasiga borib taqaladi. Bayronning romantikasi nofalsafiy libosda namoyon bo'lsa, Shopengauer va Nissheda aksincha ular falsafiy qobiqqa o'raladi. Ular irodani aql hisobidan ustun qo'yishga intiladi, muayyan uzundan-uzoq mulohazalarga chap berib, ma'lum turlarni ko'kka ko'taradilar. Amaliy siyosatda bu millatchilikning ittifoqchisiga aylanadi. Har doim bo'lmasa ham, tendensiyada u vogelikda namoyon bo'lgan; aqlga monandlikka u dushmanona munosabatdadir; va ilmdan tashqarida qolishga u doimo intiladi. Uning ba'zi bir shakllarini rus anarxistlarida uchratish mumkin, lekin Rossiyada oxir oqibat ratsionalistik qarshi chiqish g'olib keldi. Germaniyaning boshqa mamlakatlarga nisbatan, doimo romantizmga moyilligi bo'lgan, bu sof irodani hukumat darajasida antiratsional falsafa ko'rinishini ta'minlagan.

Hozirga qadar biz falsafiy qarashlarga ta'sir qilgan falsafa, adabiyot va siyosat sohasidagi an'analarga to'xtalib o'tdik. Lekin falsafiy qarashlarning boshqa manbalari ham mavjud, ya'ni bu aynan, fan va mashina ishlab chiqarish hisoblanadi. Mashina ishlab chiqarishning nazariyaga ta'siri Marksdan boshlanadi, bu tobora kuchayib boradi. Fanning ta'siri XVII asrdan boshlanadi, XIX asrda yangi shaklga kiradi. XVII asrda Galiley va Nyuton tabiiy fanda nufuz bo'lsa, XIX asrda Darvin shunday obro'ga ega bo'lgan. Darvin nazariyasi ikki qismidan iborat. Birinchi tomondan, evolutsion ta'limot mavjud edi, unda ta'kidlanishicha, hayotning turli shakllari bosqichli asosda bir umumiylashtirish qilingan, yangilik emas. Uni Lamark va Darvining bobosi Erazm himoya qilgan. Darvin ushbu ta'limotni asoslash uchun juda ko'p daliliy ashyolarni to'playdi, nazariyaning ikkinchi qismida evolutsiyaning sababini kashf qilishga urinadi. Bu bilan ta'limotni ommalashtirib, unga ilmiy tus beradi, ilgari uni hech kim bilmagan, lekin bu ta'limotni yaratuvchisi aslo u emas.

Darvin nazariyasining ikkinchi qismi yashash uchun kurash va moslashuvchanlarning yashab qolishidan iborat. Butun hayvonot va o'simlik olami tabiat unga berishi mumkin bo'lgan moslashish vositalaridan ko'ra jadalroq ko'payishi mumkin. Shu jumladan, har bir avlod o'zidan nasl qoldirgunga qadar halokatga uchrashi ham mumkin. Ularning qaysi biri yashab qolishini kim aniqlaydi? Muayyan darajada, shubhasiz, bu omadga bog'liq, lekin buning boshqa zarurroq sababi ham mavjud. Hayvonot va o'simliklar, odatda o'z nasliga mutlaq darajada o'xshamaydi, balki ba'zi bir belgilari orqali birmuncha yaxshiroq yoki yomonroq tomonga o'zgargan. Berilgan muhitda u yoki bu turlar yashab qolish uchun o'zaro raqobatga kirishadi. Muhitga ko'proq moslashganlari yashash uchun kengroq imkoniyatga ega bo'ladi. Oqibatda, tasodifyi ijobiy o'zgarishlardan so'ng har bir katta avlod o'rtasida yangi moslashuvchanlik kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, avloddan avlodga o'tgan sari kiyik tezroq yugura boshlaydi, mushuk o'z o'ljasiga yanada pusubroq hujum qiladi, jirafaning bo'yni yanada uzunroq bo'ladi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng bu mexanizm, Darvinga ko'ra, har bir uzoq tarixiy zanjirni o'zida mujassam qilishi mumkin, bir hujayrali tanalardan tortib to *homo sapiens* (aqli inson)gacha.

Darvin nazariyasining ushbu qismi biologlar tomonidan keng muhokama qilingan, unga zaruriy aniqliklar kiritilishi lozimligini ta'kidlaganlar. Lekin XIX asr tarixchisini aynan bu narsa qiziqtirmaydi. Tarixiylik nuqtayi nazaridan, falsafiy radikallarni darvinchilikni iqtisodiy ta'limotlarga ta'siri masalasi qiziqtirgan. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, erkin raqobat dunyosidagi evolutsianing harakatlantiruvchi kuchi biologik iqtisodiyotga borib taqaladi. Aynan Maltusni aholining ko'payishi haqidagi ta'limoti hayvonot va o'simlik dunyosiga tatbiq qilinganligi uchun Darvinni yashash uchun kurashda kuchlilarning tirik qolishi evolutsianing manbasi sifatidaga g'oyasini tug'ilishiga undagan.

Darvinning o'zi liberal edi. Lekin uning nazariyasidan kelib chiqqan oqibatlar an'anaviy liberalizmga zid kelar edi. Hamma inson tug'ilganda tengdir, lekin ular o'rtasidagi farq faqat

tarbiyaning natijasidir degan fikrni, bir tur ichidagi tug‘ma tabiiy farqlarni bo‘rttiradigan g‘oya inkor qilar edi. Agar Lamarkning tasdig‘icha yoki Darvining o‘yiga ko‘ra, orttirilgan belgilar nasliy bo‘lsa, Darvinni Gelvesiyga qarshi qo‘yilishi biroz yumshar edi. Zero, faqat tug‘ma belgilar nasliy bo‘lib, mohiyatiy belgilar bundan mustasno holda mavjud. Demak, insonlar o‘rtasidagi tug‘ma farqlar asoslovchi ahamiyatga ega bo‘jadi.

Darvin taklif qilgan evolutsiyaning maxsus mehanizmiga bog‘lanmagan holda, bu nazariyadan yana bir oqibat kelib chiqadi. Agar inson bilan hayvon umumiy naslga ega bo‘lsa, inson ham shu bosqichlardan o‘tgan bo‘lsa, uning chegarasidagi o‘zgarishlar uzoq davom etgan, uncha bilinmaydigan xususiyatga ega bo‘lgan. Shunday mavjudotlar bo‘lganki, ularni hayvonga yoki insonga mansubligini bilmaymiz. Shunda savol tug‘iladi: evolutsiyaning qaysi bosqichida insonlar yoki yarim inson ajodolar o‘rtasida o‘zaro tenglik bo‘jadi? Darroz yuradigan pitekantrop yetarli darajada tarbiyalangan bo‘lsa, Nyuton qilgan ishni bajara oladimi? Pildaun inson Shekspirdek she‘r yoza olarmidi, agar u brakon’erlik uchun sud qilingan bo‘lsa? Tenglikning qat’iyatlari tarafdoi ushbu savollarga ijobiy javob bera turib, insonsifat maymunlarni insoniy mavjudotlardek tenglikka ega deb hisoblashga majbur bo‘lardi. Nega biz insonsifat maymunlarga diqqat qaratayapmiz? Shuni ko‘ramizki bunda, u ustritsalar uchun saylash mumkinligiga qarshi dalil keltira olmaydi. Evolutsiya nazariyasi tarafdoi shuni ta’kidlashi shartki, nafaqat barcha insonlarning tengligi haqidagi ta’limot, balki inson huquqlarini ham biologik asoslardan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. Chunki ular inson va boshqa hayvonlar o‘rtasidagi farqlarni yaqqol ko‘rsatib qo‘yadi.

Liberalizmning boshqa jihatni ham mavjud, unda taraqqiyotga kuchli ishonch evolutsiyaning ko‘rsatkichlaridan biriligi ta’kidlanadi. Evolutsion hayotning qayerida ko‘tarinkilik (optimizm) bo‘lsa, liberallar uni quvvatlaydilar, chunki bu aqidaparast (ortodoksal) ilohiyotchilarga qarshi yangi dalillarni beradi. Marksning ta’limoti darvingacha yaratilgan bo‘lsa ham, uning o‘zi asarini Darvinga bag‘ishlamoqchi bo‘lgan.

Biologiyaning rivojini, insonlar tafakkuriga fanning ta'siri kuchayganligida ko'rishimiz mumkin, shuning uchun ham dunyoni tushuntirishga nisbatan mexanik kategoriylar emas, balki biologik tushunchalar ishlatildi. Hamma narsa rivojlanish jarayonida ko'rildi va bunda ichki rivojga xos bo'lgan maqsadni tasavvur qilish osonlashdi. Darwin ta'limotiga qaramasdan, insonlar tasavvurida evolutsiya jarayoni samoviy maqsadga ishonish mumkinligini oqladi. Organizm tushunchasi tabiat qonunlarini ilmiy va falsafiy ohib berish kalitiga aylandi; avtomatik konsepsiyaga asoslangan tafakkur XIX asrda eskirib qolgan ta'limot deb hisoblandi. Ana shu nuqtayi nazar hattoki nazariy fizikaga ham ta'sir ko'rsatdi. Siyosatda u tabiiy holda jamiyatni individga qarshi qo'yilishiga olib keldi. Bu esa qudratli davlat va unga bog'liq bo'lgan millatchilik bilan uyg'un holda mavjudlik mumkinligini oqladi. Uning asosida darvincha individga emas, balki millatga yo'g'rilgan kuchlilarning yashab qolish ta'limoti yotardi. Lekin bu yerda biz noilmiy qarashlar bosqichiga ko'tarilamiz, bu esa noto'g'ri anglangan ilmiy nazariyalarni keng ommaga yoyish orqali singdiriladi.

Dunyoni mexanik manzarasiga qarshi kurashayotgan biologiya bilan bir paytda, zamonaviy iqtisodiy texnika falsafiy qarashlar rivojiga to'siq bo'layotgan edi. Taxminan XVIII asrning oxiriga kelib fanga asoslangan texnika, tabiiy-ilmiy holatga qarshi, ijtimoiy fikrga katta ta'siri ko'rinxmayotgan edi. Hattoki uzoq vaqt davomida uning bevosita va bilvosita ta'siri ikkinchi darajali tus oldi. Falsafiy nazariyani yaratuvchilar ishlab chiqarishdan juda yiroq bo'ldi. Joylarda industrializm tug'dirgan xunuk holatlarga duch kelgan romantizm g'azabnok edi. Ilgari go'zallik hukmron bo'lgan joyda vulgar "pul qiluvchi" tadbirkorlik munosabatlari o'rin egalladi. Bu ularni o'rta tabaqaga nisbatan oppozitsiyada turishga majbur qildi, ba'zi hollarda bu proletariatni himoya qiluvchilari bilan ittifoqdosh bo'lishga chorladi. Engels Karleylni maqtagan edi, vaholanki u proletariatni ozod qilishga intilmagan, balki o'rta asrlardagidek ustalar sinfiga bo'ysunish kerakligini nazarda tutgan. Sotsialistlar industrializmni yoqlagan, lekin ular ishchilarni tadbirkorlarga bo'ysunishini

istamagan. Muammolarni hal qilishda industrializm ta'sirida bo'lgan, zero, bevosita muammoni hal qilishda ularning g'oyalariga murojaat qilmagan.

Dunyo xaritasini tasvirida mashina ishlab chiqarish zaruriy omilga aylanib, bunda inson qudrati oshganligi tasavvurini berdi. Bu tarixning ilk sahnasida boshlangan jarayonning jadallahuv edi, insonlarning yovvoyi hayvonlardan qo'rquviga qarshi dehqonchilik bilan shug'ullanish barham bergandi. Lekin bu jadallahuv shunchalik tez ediki, bu radikal yangi dunyoqarashni shakllanishiga olib keldi. Bu qarash zamonaviy texnikani yaratuvchi qudrat egalariga xos edi. Ilgari tog'lar, sharsharalar tabiiy hodisalar bo'lgan, hozir esa kerakli sharsharani hosil qilish uchun keraksiz tog'larni ham yiqitish mumkin bo'ldi. Ilgari cho'lu sahro va hosildor yerlar bo'lgan, hozir esa uni bo'stonga aylantirish istagi tug'ilsa, bu ish amalga oshiriladi, hosildor yerlar esa, aksincha, kaltabin optimistlar tomonidan cho'lu biyobonga aylantiriladi. Ilgari dehqonlar, ularning ota-bobolari qanday yashagan bo'lsa, ular ham shunday yashagan, nimaga e'tiqod qilgan bo'lsa, ular ham shunday e'tiqod qilgan. Butun boshli cherkov ham majusiy rasm-rusumlarni ildizidan yo'qota olmagan, chunki bu joylarda o'zining muqaddas ilohlari bo'lganligi tufayli xristianlik niqobi ostida bajarilgan. Endi bo'lsa, hokimiyat dehqonlarning bolasi maktabda o'qish uchun buyruq berishi mumkin, ularning tafakkurlash tarzini bir avlod darajasida o'zgartirishga qodir bo'ldi. Rossiyada bunga to'liq erishildi.

Demak, kim bevosita bu jarayonlarni boshqarsa va ularga daxldor bo'lganlar ham yangi qudratga ishonchi kuchayadi: birinchidan, inson qudrati va uning tabiat bilan to'qnashuviga, keyin insoniy mavjudotni boshqaruvchi hokimiyatiga; ular fan targ'iboti orqali, ayniqsa, ta'lim orqali odamlarning e'tiqodlarini va intilishlarini nazoratda ushlaydi. Buning natijasi o'zgaruvchanlikda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zgarmaslik mumkin bo'lmay qoladi. Tabiat – bu xomashyo. Ba'zi insoniyat irqi ham xomashyoga aylanadi, ular boshqaruvda ishtirok etolmaydi. Ba'zi bir eski tushunchalar mavjud, ular inson va uning qudratining chegaralariga; ulardan ikkisi asosiy – bu Xudo va

haqiqat (ular mantiqiy bir-biri bilan bog'lanmagan). Bunday tushunchalar yo'qqa aylanadi. Garchi ular ochiqdan-ochiq inkor etilmasada, o'z ichki ta'sir ahamiyatini yo'qotib boradi, faqat tashqi shakl sifatida saqlanadi. Bu dunyoqarash yangi hisoblanadi va inson unga qanday moslashuvini oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Bu dunyoqarash katta to'fonlarga olib keldi, boshqalari ham kelajakda uyg'onishi mumkin. Hozirgi kundagi bizning eng zaruriy vazifamiz, shunday falsafa yaratishdan iboratki, bu falsafa cheksiz insoniy qudratdan sarhush bo'lgan insonlarni chegaralay olsin, xuddi shunday himoyasizlik apatiyasini yo'qota olsin.

Agar zamonaviy insoniy munosabatlar xulqini aniqlamoqchi bo'lsak, imkonni boricha insonni tashqi omillar ustidan hukmronligini kamaytirish zarur, xuddi shunday insonni inson ustidan hokimiyatini ham bartaraf etish kerak.

GEHEL

Gegel falsafasi (1770-1831) Kantdan boshlangan nemis falsafasini yuqori cho'qqisi bo'ldi. Zero, Gegel Kantni doimiy tanqid qilgan bo'lsa ham, uning tizimi Kant falsafasi bo'l-maganida shakllanmasdi. Uning ta'siri Germaniyada juda kuchli bo'lgan, albatta, hozirda obro'si kamaygan. XIX asr yetakchi faylasuflari, nafaqat Amerikada, balki Buyuk Britaniyada gegelchilar bo'lgan. Sof faylasuflardan tashqari, ko'pgina protestant ilohiyotchilari uning ta'limotini qabul qilgan. Uning tarix falsafasi siyosat nazariyalariga katta ta'sir qilgan. Hammaga ma'lum dalil, Marks yoshligida Gegelning shogirdi bo'lgan, o'zining tizimida, yakunlangan shaklda, gegelchilikning asosiy qirralarini saqlab qolgan. Zotan, (mening fikrimcha) Gegelning ta'limoti yolg'on bo'lsa ham, ahamiyatini yo'qotmagan, Gegelning tarix falsafasi o'ziga xos falsafa turini tashkil qiladi, boshqalarda bu to'kis namoyon bo'la olmagan.

Gegel hayoti hodisalarga boy o'tgan. Yoshligida mistisizmga qiziqqan, ba'zi holatlarda uning keyingi ijodini "ziyolangan" mistisizmni intellektuallashgan shakli sifatida qabul qilish

mumkin. U dastlab Yenada falsafadan privat-dotsent sifatida ma'-ruzalar o'qidi ("Ruh fenomenologiyasi" asarini Yena urushidan bir kun oldin tugatgan, buni faylasufning o'zi ta'kidlaydi). Keyin Nyurenberg va Geydelbergda (1816-1818) va nihoyat, Berlin universitetida 1818-yildan vafotiga qadar professor lavozimida ishlaydi. Umrining so'nggi yillarida prussiyalik vatanparvar, mo'tadil davlat xodimi bo'ladi, o'zining falsafiy obro'sidan huzurlanadi. Lekin u yoshligida Prussiyadan hazar qilardi, Napoléondan g'ururlanardiki, Yenadagi fransuzlarning g'alabasidan shodlangan.

Gegel falsafasi juda murakkab. Shuni aytish shartki, uni tushunish, barcha buyuk faylasuflardan ham mushkulroq. Gegel falsafasi qirralarining tahliliga o'tishdan oldin, umumiy xarkteristikaga to'xtalib o'tsak foydadan holi bo'lmaydi.

Yoshlik chog'ida mistisizm bilan qiziqqan davrdan boshlab, Gegel yakkalikni noreal ekanligiga qattiq ishongan. Uning fikricha, dunyo qat'iy ravishda cheklangan qismlarning jamlanmasidan tuzilmagan, har bir atom yoki ruh to'liq o'z boshqaruviga ega. Ana shu yakuniy narsalarning mavjudligi bu illyuzya (sarob): uning ta'kidicha, hech nima shartsiz va to'liq real holatda mavjud bo'lmaydi, yaxlitlikdan tashqari. Lekin u Parmenid va Spinozadan shu bilan farqlanadiki, yaxlitlikni oddiy substansiya sifatida ko'rmaydi, balki murakkab sistema tipidek, ya'ni organizm sifatida ko'radi. Dunyo tashkil topgan alohida narsalar oddiy illyuzya emas. Ularning har biri katta yoki kichik darajada reallikka ega, ularning realligi yaxlitlikning bir qismida, haqiqiy ko'rulganda namoyon bo'ladi. Bunday qarashda, tabiiy ravishda, vaqt va makonning realligiga ishonmaslik yotadi. Chunki ular mavjud bo'lsa, birlik va ko'plikni tan olishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi, dastlab unga mistik "nurlanish"da ayon bo'lgan, ularni mantiqiy asoslash, keyinchalik kechki asarlarida ishlab chiqilgan.

Gegelning ta'kidiga ko'ra, butun mavjudlik aqlga muvofiq, hamma aqlga muvofiq bo'lganlar mavjud. Lekin u "mavjudlik" haqida gapirganda, empirik tushuniladigan mavjudlikni nazarda tutmagan. Unga ko'ra, hattoki qat'iy uqtirishicha, empirikkal dalil

bo‘lib ko‘ringan narsa aqlga muvofiq emas, unday bo‘lishi ham kerak emas; faqat ular yaxlitlikni bir qirrasi sifatida o‘zining xususiyatiga ega bo‘lgandagina aqlga monandlik sifatida baholanishi mumkin. Shunday bo‘lsa, aqlga monandlik bilan voqelikni aynanlashtirishni to‘g‘ri fikrga olib keladi, unga ko‘ra, “hamma bor narsa, to‘g‘ridir”.

Yaxlitlik, qanchalik murakkab bo‘lmasin, Gegel tomonidan mutlaqlik, deb ataladi. Mutlaqlik ruhiy. Mutlaq ko‘lam atributiga ega degan Spinozaning qarashi inkor etiladi, xuddi shunday tarzda tafakkur atributi ham qabul qilinmaydi.

Gegel ta’limotida metafizik dunyoqarash u yoki bu darajada ikki jihat bilan ajralib turadi. Ulardan biri – mantiqqa urg‘u berilishi; Gegelning ta’kidicha, reallik tabiatи faqatgina o‘z-o‘ziga qarama-qarshi bo‘lmaydigan mohiyatni tan olgandagina namoyon bo‘ladi. Boshqa farqli tomoni (u birinchisi bilan bog‘lanadi) uchlik harakatiga ega, u dialektika deb ataladi. Gegelning eng zaruriy kitoblaridan biri, uning ikki “Logika”sidir. Agar biz ularni to‘g‘ri tahsil qilsak, boshqa savollarni ham tushunib olamiz.

Mantiq tushunchasi Gegelga ko‘ra, metafizika so‘zi bilan aynan ustma-ust tushadi; bu odatiy mantiq tushunchasi talqinidan tubdan farq qiladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, real yaxlitlikni xarakterlovchi har qanday oddiy predikat, o‘z-o‘zini zidlovchisini namoyon qiladi. Juda qo‘pol misol sifatida Parmenidni olish mumkin. Unga ko‘ra, shar tuzilishga ega, faqat yagona yaxlitlik mavjud bo‘lishi mumkin. Hech nima shar ko‘rinishida namoyon bo‘lolmaydi, garchi u chegara bilmaydi, hech nima chegaraga ega bo‘lolmaydi, agar undan tashqari nimadir mavjud bo‘lmasa (hech bo‘limganda bo‘s sh makon). Shuning uchun ham, koinot yaxlitlik sifatida shar tuzilishida va o‘z-o‘zini zidlovchi bo‘lishi kerak (Bu mulohazani, noyevklid geometriyasi nuqtayi nazaridan ko‘rilganda, shubha ostiga olish mumkin, lekin u illyustratsiya bo‘ladi). Yana boshqa qo‘polroq illyustratsiyani olamiz, Gegel ishlatishi mumkin bo‘lgan juda qo‘pol illyustratsiya. Siz ziddiyatni ko‘rmagan holda, amakidir, deysiz. Agar siz koinotni amaki deganingizda edi, unda qiyin ahvolda qolardingiz. Amaki – bu inson, uning jiyani bor, jiyani – bu shaxs, u amakisidan alohida

mavjud; shuni hisobga olib, amakini butun reallik deb qolmaymiz.

Bu illyustratsiyani, dialektikaga nisbatan ham qo'llash mumkin, u tezis, antitezis va sintezdan iborat. Birinchidan, biz shunday deymiz: "Reallik – bu amaki". Bu – tezis. Lekin amakining mavjudligi jiyanning mavjudligini taqozo qiladi. Zero, mutlaqdan tashqari hech qanday reallik mavjud bo'lolmas ekan, biz jiyanning borligiga kafolat bersak, shunday xulosaga kelishimiz kerak: "Mutlaq – bu jiyan". Bu – antitezis. Lekin bunga qarshi e'tiroz ham mavjud, xuddi amaki – bu mutlaq, degan mulohazadek. Bulardan shunday fikrga kelamizki, ya'ni mutlaq – bu amaki va jiyandan tashkil topuvchi yaxlitlik. Bu – sintez. Lekin bu sintez ham qoniqtirmaydi, chunki inson amaki sifatida aka yoki opaga ega bo'lishi kerak, ular jiyanning ota-onasi bo'ladi. Jumladan biz shunday xulosaga kelamizki, koinotni kengaytirish uchun, aka va opani, ularning juftlarini koinotga kiritamiz. Shunday usul orqali, mantiq yordamida, har qanday mutlaqlik predikati haqida oxirgi dialektik xulosani berishimiz mumkin. Bu "mutlaq g'oja" deyiladi. Ana shu to'liq jarayonni kuzatib, reallikni yaxlitlik sifatida namoyon qila olmasa, u real haqiqat bo'lolmaydi.

Bu asoslovchi fikr an'anaviy mantiqda chuqur negizga ega, unga ko'ra, har bir mulohaza subyekt va predikatga ega. Bu fikrga ko'ra, har bir dalil qandaydir xususiyatga ega. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, munosabatlar real bo'lolmaydi, chunki ular bir emas ikki narsaga ega. "Amaki" bu munosabat, inson o'zi bilmagan holda amaki bo'lishi mumkin. Empirik nuqtayi nazardan inson amakilik daliliga ta'sir qilmaydi. Unda ilgari ega bo'limgan sifat mavjud bo'lolmaydi. Biz "sifat" deganda uni boshqa inson va narsalarga munosabatini emas, balki o'z holicha mavjud qiladigan zaruriyatlarni tushunamiz. Subyekt – predikat mantig'ida yagona yo'l ushbu qiyinchilikdan qutulish zarur, haqiqat esa faqat amaki yoki faqat jiyanning xususiyati emas, balki amakilik yoki jiyanlikdan tashkil topuvchi yaxlitlikdan iborat. Zotan, yaxlitlikdan tashqari, hamma tashqi narsalarga nisbatan munosabatga ega bo'lsa, bundan kelib chiqadiki, alohida narsalarga nisbatan to'liq

haqiqat bo‘lmaydi, voqelikda esa faqat yaxlitlik realdir. Bundan shunday dalil kelib chiqadi, ya’ni “A va B – bu ikki” subyekt-predikat mulohazasi emas, jumladan, an’anaviy mantiqda bunday mulohaza mavjud emas. Xulosalash mumkinki, dunyoda ikki narsa mavjud emas, shuning uchun ham yaxlitlik birlik sifatida ko‘riladi va real bo‘la oladi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar Gegelda yaqqol namoyon bo‘lmaydi, uning tizimida nazarda tutiladi, boshqa metafizik tizimlarda esa bu holni uchratamiz.

Gegelning dialektik metodini bir qancha misollar orqali ko‘rib chiqamiz, shunda uni tushunish birmuncha yengillashadi. Uning mantig‘ida mulohaza yuritish shunday fikrdan boshlanadi, “mutlaq bu sof borliq”. Shunday taxmin qilamiz, u shundayligicha mavjud, hech qanday sifatni unga tirkamaymiz. Zero, hech qanday sifatsiz sof borliq bu hech nima. Shunday ekan, biz “mutlaq bu hech nima” degan antitezisga kelamiz. Xuddi shu tezis va antitezisdan “borliq yagonaligi va shakllanuvchi noborliq” degan sintezga o’tamiz. Demakki, biz “mutlaq – bu shakllanish”, deb to‘liq xulosa beramiz. Bu bizni, albatta, qoniqtirmaydi, chunki shakllanishda qandaydir bir turki bo‘lishi zarur. Demak, bizning voqelikka munosabatimiz doimo ilgarigi xatolarimizni tuzatib borishimiz hisobiga rivojlanib boradi. Chunki hammasi mutlaq mavhumlikdan kelib chiqaveradi, u yaxlitlik sifatida doimiy cheklangan va yakuniy bo‘laveradi. Yakuniylik undan tashqaridagi kuch ta’siridagi cheksizlik bilan barham topmaydi, balki uning o‘zligidagi cheksizlik, o‘z-o‘zidan ochiladi.

Bu jarayon, Gegelga ko‘ra, natijani tushunish uchun zaruriy. Dialetikaning har keyingi darajasi, o‘zidan oldingi darajaning yechimi sifatida mazmun kasb etadi; ulardan hech biri adashib ketmaydi, unga yaxlitlikning bir qismi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham, dialektikaning har bir bosqichidan o‘tmay turib, haqiqatga yetib bo‘lmaydi.

Bilim yaxlitlik sifatida uchlik tarzida harakat qiladi. U hissiy qabullashdan boshlanadi, bunda u faqat obyekt haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Keyin, hissiyotning skeptik tanqididan o‘tib, sof obyektiv fikrga aylanadi. Va nihoyat, o‘zini anglash

bosqichiga ko‘tariladi, unda obyekt va subyektni farqi qolmaydi. Demak, o‘zligini anglash bilimning eng yuqori shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu Gegel sistemasidan o‘rin oлган, chunki eng yuqori bilim shunday bilimki, u mutlaqlilikka daxldor, mutlaq yaxlitlik ekan, undan tashqari bilinadigan hech nima yo‘q.

Mukammal tafakkurda, Gegelga ko‘ra, fikrlar oquvchan va aralash bo‘ladi. Haqiqat va yolg‘on odatiy o‘ylashlaricha, bir-biriga zid bo‘lmagan tarzda mavjud. Hech nima to‘liq yolg‘on emas, biz to‘liq bilgan narsa, butunlay haqiqat emas. “Biz muayyan bo‘lgan yolg‘onni bilamiz”, - bu ma’lum bir elementni mutlaq haqiqat deb olganimizda sodir bo‘ladi. Albatta, Gegel tizimida bunday holat inobatga olingan, “Sezar qayerda tug‘ilgan?”, degan savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bor, bu ma’lum holatda haqiqat sanaladi, falsafiy ma’noda emas. Falsafa uchun “haqiqat bu yaxlitlikdir”, hech qanday xususiylik to‘liq haqiqat bo‘lolmaydi.

“Tafakkur, Gegel ta’kidicha, – butun voqelikning haqiqiy anglanganligidir”. Bunda alohida shaxs butun borliq ekanligi tan olinmaydi. U xususiylik sifatida real emas, lekin uning voqeligi shunda namoyon bo‘ladiki, u reallikda butunning qismi sifatida ishtirok etadi. Aqli bo‘lib borgan sarimiz, bu ishtirok proportional tarzda ortib boradi.

“Mantiq”da yakunlangan mutlaq g‘oya, Arastuning Xudosiga o‘xshab ketadi. Bu fikr, o‘z-o‘zini fikrlovchidir. Mutlaq, o‘zidan tashqari fikrlay olmasligi ravshan, chunki voqelikni bilishdagi xususiy va xato yo‘llarimizdan boshqa narsani o‘zi yo‘q. Bizga aytiladiki, ruh yagona reallikdir, uning fikri o‘zligini anglashda namoyon bo‘ladi. Mutlaq g‘oyani ifodalovchi so‘zlar noaniq. Uollis (Wallace) ularni shunday tarjima qiladi:

“Mutlaq g‘oya. Subyektivlik va obyektivlik g‘oyalarining birligi sifatidagi g‘oya tushunchasidir, uning predmeti (Gegenstand) o‘zidagi g‘oya va o‘zi uchun obyekt bo‘la oladi, uni yagonaligini qamrovchi barcha narsani o‘zida jamlaydi”.

Nemischa manba juda murakkab⁷⁹. Gegel tasavvuridan ko‘ra ham, birmuncha mujmalroq. Mutlaq g‘oya bu sof fikrdir, u o‘z-

⁷⁹ Nemis matnidagi ta’rif shunday: “Der Begriff der Idee, dem die Idee als solche der Gegenstand, dem das Objekt sie Ist”. Holat faqat Gegelda uchramaydi.

o‘zini fikrlaydi. Bu Xudo davrlar davomida amalga oshiradigan barcha hodisalar; Vallomat, bu professor bo‘lgan xudo! Gegel davom etadi: “Bu birlik, mutlaq va to‘liq haqiqat, u o‘z-o‘zini fikrlovchi g‘oyadir”.

Gegelni Aflotun, Plotin yoki Spinozadan farq qiladigan, faqat o‘zigagini tegishli bo‘lgan falsafasini ko‘rib chiqamiz. Zero, yakuniy reallik vaqtidan tashqari bo‘lsa ham, vaqt bu sarob (illyuziya), u bizning yaxlitlikni ko‘ra olmasligimizning natijasida tug‘iladi, biroq vaqt jarayoni sof mantiqiy dialektika jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Aslida jahon tarixi, haqiqatan, kategoriya vositasida rivojlangan, Xitoyning sof borlig‘idan (Gegel u haqida o‘rnashgan joyidan tashqari deyarli hech nimani bilmagan) mutlaq g‘oyaga qarab, u asta-sekin namoyon bo‘lishga intiladi, ya’ni prusscha davlat shaklida. Men uning metafizikasidan tashqari hech qanday asosni ko‘ra olmayapman, ya’ni jahon tarixidagi dialektik o‘tishlar takrorlanadi. Bu tezisi faylasuf o‘zining “Tarix falsafasi”da rivojlantradi. Bu juda qiziq tezis edi, u imkoniyat ishlarida va inqiloblarda birdamlik va ahamiyatni ko‘rsatadi. Boshqa tarixiy nazariyalarga o‘xshab, uning talabiga ko‘ra, haqiqatparvar bo‘lish zarur, unda ba’zi faktlarning buzilishiga va johillikka ahamiyatli o‘rin qoladi. Gegel xuddi Marks va Shpengler kabi, ular faylasufdan so‘ng yashaganlar, ikkala fizilatga ham ega edi. Koinot sifatida tasavvur qilingan jarayon, bizning sayyoramizda amalga oshishi kerakligi qiziqarli, bu asosan O‘rta Yer dengizi hududida ahamiyatli. Agar voqelik vaqtidan tashqari bo‘lsa, unda jarayonning keyingi bosqichi o‘zida yuqori kategoriyalarni mujassam qiladi, koinot doimo Gegel falsafasini o‘rganadi, degan xudoga zid keluvchi fikri qabul qilmasak kerak, bu fikr o‘rinli emas.

Vaqt jarayoni, Gegelning fikriga ko‘ra, axloqiy va mantiqiy nuqtayi nazardan ham kamroq mukammallikdan ko‘proq mukammallikka qarab boradi. Haqiqatda esa ana shu ikki omil deyarli ajralmaydi, chunki mantiqiy mukammallik yaxlitlikka o‘sib o‘tadi, hech qanday og‘ishlarga uchramaydi. Bir-biridan mustaqil bo‘lgan qismlar birlashadi, xuddi inson tana a’zolari kabi yoki aqli ruh singari. Lekin bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tana

a'zolari yagona maqsad sari hamnafas harakat qiladi. Bu bir vaqtning o'zida axloqiy mukammallik ham bo'la oladi. Quyidagi bir qancha iqtiboslar Gegel nazariyasini tasdiqlaydi: "...Merkuriy, jon rahnamolari kabi g'oya dunyo va xalqlarni ergashtiradi, aynan aqli ruh va zaruriy iroda jahon hodisalarini birvarakayiga boshqargan va kelajakda ham boshqaradi: rujni va uning boshqaruvchilik rolini o'rganish, bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi". "Lekin falsafaga xos bo'lgan yagona fikr, aqlning oddiy fikridir, ya'ni olamni aql boshqaradi, shunday ekan, butunjahon tarixiy jarayoni aqlga muvofiq amalga oshgan. Bu ta'kid va tushuncha tarixning o'zi uchun asos bo'la oladi. Aql – degan iboradan foydalanamiz, uni Xudoga nisbatini belgilashga intilmaymiz – bu tafakkuriy bilim orqali isbotlanadi, aql – qanday substansiya bo'lsa, xuddi shunday qudratga ega; u o'z-o'zi uchun tabiiy va ma'naviy hayotda cheksiz mazmunga ega, bu mazmun cheksiz shaklda namoyon bo'lishi bilan tenglashadi. Aql – bu substansiyadir". "Aynan falsafa tomonidan isbotlanadi, jumladan, shunday isbot albatta, haqiqiy, abadiy va qudratli ibtido bo'ladi. U olam ichra ochiladi, olam ichra uning shon-shavkati va buyukligidan boshqa hech nima yo'q". "Aql dunyosida va o'zligini anglovchi irodada tasodifga o'rinn yo'q, lekin o'zligini biluvchi g'oya orqali yuzaga chiqadi". Bu "menga ma'lum bo'lgan natija, chunki men yaxlitlikni bilaman".

Yuqoridagi iqtiboslarning hammasi "Tarix falsafasi"dan olingan.

Ruh va uning rivojlanish jarayoni tarix falsafasining substansional obyekti hisoblanadi. Tabiat ruhiyati unga qarama-qarshi qo'yilgan ziddi orqali tushuniladi, aynan materiya haqida gap ketmoqda. Materianing mohiyati – og'irlilikda; ruhning mohiyati – erkinlikda. Materianing maqsadi, undan tashqaridagi ruhning markazi o'zining ichida. "Ruh o'z ichidagi borliqdir". Agar bu noaniq bo'lsa, quyidagi fikr orqali aniqlashadi: "Ruhning o'zi nima? Bu – o'zgarmas bir turli cheksizlik, sof ayniyat, ikkinchi fazada o'zidan ajraladi, ajralgan qismini o'ziga qarama-qarshi qo'yadi, aynan, o'zini mavjud bo'lishi uchun va o'z ichida mavjud bo'lishi uchun, eng umumiylikka qarshi qo'yiladi".

Ruhning tarixiy rivoji uch fazadan iborat: sharqiy, yunon-rimcha va nemischa. “Dunyo tarixi nazoratsiz tabiiy iroda haqidagi ta’limotdan iborat, u eng umumiy tamoyilga bo‘ysunadi va subyektiv erkinlikni hadya qiladi. Sharqda avval ham, hozirda ham faqat bir odam erkin bo‘lgan; yunon-rumoda esa bir qancha odamlar erkin bo‘lgan; nemis dunyosida esa barcha erkin”. Demokratiyani – boshqaruvchi shakl sifatida qabul qilish mumkin edi, unga ko‘ra, hamma erkin, lekin aslida bundan emas. Demokratiya va aristokratiya bir darajada ruhning rivojlanayotgan bosqichida deb bilish mumkin, unda ba’zilar erkin; despotizm – bu bittaning erkinligi, monarxiya bo‘lsa – “erkinlik”ni faqat so‘zdagina ishlatadi. Uning uchun (bunda biz unga qo‘shilamiz) qonunsiz erkinlik yo‘q. Lekin u buni aksini isbotlashga va tasdiqlashga intiladi, ya’ni qayerda qonun bo‘lsa, o’sha yerda erkinlik bor. Demak, “erkinlik” uning uchun oz ham emas, ko‘p ham emas qonunga bo‘ysunishdan iborat.

Shuni kutish mumkin ediki, ruhning zaminiy rivojida nemislarga buyuk qudratni tirkab qo‘yish mumkin: “Nemis ruhi, yangi dunyo ruhidir, uning maqsadi mutlaq haqiqatni amalga oshirishdan iborat, unda erkinlik cheksiz ravishda o‘z-o‘zini aniqlaydi, bu shunday erkinlikki uning mazmuni, o‘zining mutlaq shakli orqali namoyon bo‘lad”.

Bu erkinlikning juda nozik tipidir. U konsentratsion lager-larga o‘rin qoldirmasligiga kafolat bermaydi. U demokratiyani yoki erkin matbuotni⁸⁰ nazarda tutmaydi yoki oddiy qandaydir liberal shiorlardan Gegel nafratlanib, ularni inkor qilgan. Agar ruh o‘zi uchun qonun qabul qilarkan, uni erkinlik bilan amalga oshiradi. Bizning zaminiy qarashlarimizda, qonun chiqaruvchi ruh, monarxda o‘z aksini topgan, qonun beriluvchi ruh esa unga tobelarda namoyon bo‘ladi. Lekin mutlaq nuqtayi nazarida monarx va unga tobellar o‘rtasidagi farq, boshqa farqlarga o‘xshab, sarobdir (illyuziya).

⁸⁰Matbuot erkinligi, bu nimani xulosa shuni yozish emas. Bunday qarash juda qo‘pol va yuzaki. Masalan, hukumatni matbuotga topshirib bo‘lmaydi yoki xuddi shunday ulardan nafratlanuvchi politsiyaga ham.

Agar monarch liberal o‘ylovchi fuqarosini qamoqqa olsa, bu ruhning o‘z-o‘zini erkin belgilashi bo‘ladi. Gegel Russoni shuning uchun maqtaydiki, u eng umumiy iroda bilan hammaning irodasini ajratadi. Monarch eng umumiy irodani ifodalaydi deb, ta’kidlanadi, parlamentdagi ko‘pchilik esa – hammaning irodasini ifodalaydi. Bu eng qulay ta’limot hisoblanadi.

Nemis tarixi Gegel tomonidan uch davrga bo‘linadi: birinchisi – Buyuk Karlgacha, ikkinchisi – Buyuk Karldan Reformatsiyagacha, uchinchisi – Reformatsiyadan keyin. Bu uch davr Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh hukmronligiga monand farqlanadi. Menimcha, Muqaddas Ruhning hukmronligi qonli to‘qnashuvlardan, jaholatdan va dehqonlar urushini bostirilishidan boshlanishi juda g‘alati ko‘rinadi. Lekin u tabiiyki, bunday odatiy tasodifiyatga e’tibor qaratmaydi. Buning o‘rniga, u yanada chuqurroq kirib, Makiavellini maqtashga o‘tadi.

Gegel tarixni Rim imperiyasining qulashi davridan boshlab talqin qilishi nemis maktablarida jahon tarixini o‘rgatilishi tufayli edi. Italiya va Fransiyada ba’zilar nemislardan farqlanardi, ular orasida Tasita va Makiavelli ham bor edi. Ularni “vahshiyona” yurishlar sababchisi va cherkovning dushmanlari siftida ko‘rardilar, ular buyuk imperatorlar tomonidan boshqarilardi, keyin Reformatsiya dohiylari bu vazifani bajardi. XIX asrga qadar roman millati nemislarni madaniyatdan orqada qolgan, qoloq xalq deb hisoblardi. Germaniyadagi protestantlar, tabiiy ravishda, o‘zgacha fikrda edi. Ular kechki Rim tanazzulga uchragan, deb hisoblab, G‘arbiy Yevropani nemislар tomonidan istilo qilinishini Uyg‘onish davri tomon qo‘yilgan katta qadam dedilar. O‘rtasrillardagi imperiya va ruhoniylar o‘rtasidagi nizolarga keladigan bo‘lsak, protestantlar gibellinlar nuqtayi nazari tarafida edi. Bugunga qadar nemis maktablaridagi darsliklarda Buyuk Karl va Barbarossa bilan faxrlanadilar. Reformatsiya davrida Germaniyaning bo‘linib ketganligi va ojizligidan iztiroblanadilar. Prussiyaning asta-sekin o‘sib borishi Germaniyaning kuchayib borishidan dalolat beradi. Unda protestantlikning rahnamoligi ko‘rinadi. Avstriya va katoliklarning ta’siri susayadi. Gegel tarix falsafasi bilan shug‘ullanib, buyuk shaxslar Teodorix, Barbarossa,

Buyuk Karl, Lyuterlarni nazarda tutadi. U tarixni ularning qahramonliklari orqali talqin qiladi, bunga Napoleon tomonidan Germaniyaning kansitilishi ham sabab bo‘ladi.

Gegel Germaniyani shunchalik ko‘klarga ko‘tardiki, unda mutlaq ruhning to‘liq namoyonini ko‘rdi. Mutlaq ruh o‘z rivojida yakuniga yetdi. Lekin Gegelning ta’limoti bundan iborat emas edi. Aksincha, uning fikricha, Amerika kelajak mamlakatidir, ya’ni shimoliy va janubiy Amerika o‘rtasidagi urushning butunjahon tarixiy ahamiyati ulkan. Faylasufning nazaricha, hamma mohiyatiy hodisalar urush shaklida namoyon bo‘ladi. Amerikaning jahon tarixidagi o‘rni, juda nochor bo‘lmagan jamiyatni tashkil qila olishida, degan fikrni Gegel ilib olmaganida u bu g‘oya bilan qiziqmas edi. Aksincha, Amerikada hozircha, kambag‘al va boy sinflar ajralgan, haqiqiy davlat qurilmagan.

Gegelning millat haqidagi ta’limoti Marksdagি sinflar haqidagi qarashlar bilan bir xil rol o‘ynaydi. Tarixiy taraqqiyot tamoyillari milliy ruhda namoyon bo‘ladi. Har bir davrda muayyan bir millat mavjud bo‘ladiki, uning vazifasi, missiyasi dunyoni o‘zi erishgan dialektika bosqichlaridan olib o‘tishdan iborat bo‘ladi. Bizning davrimizda bu millat Germaniya hisoblanadi. Lekin millatdan tashqari biz jahon miqyosidagi tarixiy shaxslarga ham diqqat qaratishimiz lozim. Bu shunday odamlarki, ularga dialektik o‘tishlarning maqsadi ayon, ularning davrida bu maqsadlar ahamiyatga ega. Bu insonlar davr qahramonlari bo‘lib, ular odatiy axloqiy qoidalarga rioya qilmaslar ham bo‘ladi. Masalan, Iskandar, Sezar va Napoleon. Men shubha qilaman, Gegel uchun inson avvaldanoq jangovar istilochi bo‘lmasa, “qahramon” bo‘la oladimi.

Gegel tomonidan millatning rolini ko‘tarishi, “erkinlik”ning o‘ziga xos tushunishi, davlatning ahamiyatini ko‘klarga olib chiqishi bilan bog‘lanadi. Bu Gegel siyosiy falsafasining asosiy qirrasidir. U davlat falsafasini “Tarix falsafasi”da ham “Huquq falsafasi”da ham rivojlantiradi. U asosan metafizik ta’limoti bilan hamohangdir, lekin buning zaruriy sharoitiga to‘xtalmaydi. Ba’zi bir joylarda, masalan, davlatlararo munosabatlar ko‘rilayotganda, milliy davlat bilan faxrlanayotganida, shunday chuqurlashib

ketadiki, ta'limotidagi qismga nisbatan yaxlitlikni ustun qo'yilishida ziddiyat paydo bo'ladi.

Yangi davrda Reformatsiyadan so'ng davlat shon-shuhratı haqida gapirish boshlanadi. Rim imperiyasida imperator va davlat ilohiylashtirilgan, shuning uchun ham ular muqaddas sanalgan. Lekin o'rta asr faylasuflari, ayrimlarini inobatga olmagan holda, ekklesiast bo'lgan, shuning uchun ular cherkovni davlatdan ustun qo'yadi. Lyuter protestant knyazlarining xayrixohligida davlatning cherkov ustidan hukmronlik o'rnatishi uchun kurash olib borgan. Lyuterancha cherkov butunlay erastlancha bo'lgan. Gobbs siyosiy jihatdan protestant bo'lib, davlatning ustuvorligini rivojlantirgan, Spinoza ham bu g'oyani quvvatlagan. Russo, kuzatishimizga ko'ra, davlat boshqa siyosiy tuzilmalarga yo'l qo'ymasligi zarur, deydi. Gegel davlatning lyuterancha talqiniga ashaddiy qarshi chiqqan. Prusscha davlat eratiancha mutlaq monarxiya edi. Yuqorida aytilganlar yetarlicha dalolat beradiki, Gegel davlatni yuqori baholagan, bu bilan faylasuf juda chuqurlashadi.

Bizga aytishlaricha, "Tarix falsafasi"da, "Davlat, haqiqatan ham, mavjud axloqiy hayotdir", inson borlig'idagi bor ma'naviyat davlat tufayli mavjud. "Uning ma'naviy borlig'i biluvchining obyekti sifatida gavdalanadi, aqli ibtido, unga ko'ra, obyektiv, bevosita va mavjud borliqidir... Haqiqiylik eng umumiylilik va subyektiv irodaning birligidir, eng umumiylilik esa davlat, qonun, umumiylilik va aqlga monand ta'riflar orqali mavjud bo'ladi. Davlat ilohiy g'oyadir, u yerda mavjud". Davomi: "Davlat obyektiv o'zini anglovchi, o'zida namoyon bo'luvchi erkinlik... Davlat ruhiy g'oya sifatida insoniy iroda shaklida va uning hurligida namoyon bo'ladi".

"Huquq falsafasi"ning davlat haqidagi bandida xuddi shu ta'limot to'liqroq ifodalanadi: "Davlat axloqiy g'oyaning mavjudligidir, - yorqin axloqiylik ruhi sifatida o'zi uchun aniq, substansional irodadir, u fikrlaydi va o'zini biladi, o'zi bilganini bajaradi, chunki uni biladi". Davlat bu o'zi uchun va o'zidagi aqldir. Agar davlat faqat individuumlar manfaatiga xizmat qilsa (liberallarning ta'kidiga ko'ra), individuumlar davlatning a'zosi

bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Biroq u, individuumga butunlay boshqacha munosabatda bo'ladi; chunki bu obyektiv ruhdır. Individuum qanchalik obyektiv, haqiqiy va axloqiy bo'la olsa, shunchalik davlat a'zosi bo'la oladi, uning haqiqiy ma'nosi va maqsadi o'ziga xos yaxlitlikda ochiladi. Yolg'on davlat bo'lishi mumkin, degan fikr ham mavjud. Ular mavjud bo'ladi, lekin haqiqiy reallikka ega emas, aqli davlat esa o'z ichidagi cheksizlikdir.

Gegel davlatni shunday holatga erishishini xohlaydiki, muqaddas Avgustin va uning katolik salaflari cherkov uchun shunday talablarni so'raganlar. Biroq Gegeldan farqli ravishda, katoliklarning talabidagi aqlga muvofiqlikni ikki jihatni bor. Birinchidan, cherkov tasodifan tuzilgan geografik assotsiatsiya emas, bir tanaga jo bo'lgan yaxlit e'tiqodiy ta'limotdir, uning a'zolari yuksak roliga ishonganlar. U mohiyatidan, Gegel g'oya deb ataydigan, hodisaning o'zi edi. Ikkinchidan, faqat bitta katolik cherkovi mavjud, davlatlar esa ko'p. Har bir davlat, Gegel nazarda tutganidek, fuqarolari uchun shunday mutlaqlikka aylanadiki, bunda har xil davlatlar o'rtaida yagona falsafiy tizimni topish mushkulot tug'diradi. Darhaqiqat, shu o'rinda Gegel falsafiy talqindan voz kechadi. U tabiiy holatdan ham, gobbscha hammani hammaga qarshi urushi nuqtayi nazaridan chekinadi.

Agar yagona davlat mavjud bo'lsa, u haqida gapirish odati noto'g'ri fikrga olib keladi, chunki yagona dunyoviy davlat mavjud emas. Gegel uchun individuumning o'z davlatiga bo'lgan munosabati, uning burchi hisoblanadi, davlatlar o'rtaсидаги munosabatga axloqiy tus berishdan boshqa chora qolmaydi. Gegel buni tan oladi. Tashqi munosabatlarda, u aytadiki, davlat individuumga aylanadi, har bir davlat bir-biridan mustaqil bo'ladi. "Bu mustaqillikda ruh vogeligidagi o'zi uchun – borlig'i, o'z mavjudligiga ega bo'ladi, bu – birinchi erkinlik, xalqning eng yuksak g'ururidir". U qat'iyat bilan har qanday Millat Ligasiga qarshi chiqadi, chunki bu alohida davlatlarning mustaqilligini cheklaydi. Fuqarolarning vazifalari butunlay cheklanadi (bu davlatning tashqi munosabatlarga tegishli bo'lgan holatda), lekin real individuallikni va mustaqil, suverinitetni qo'llagan holda.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, urush to‘liq yovuzlik emas, uni to‘liq yo‘qotishga ikkilansha ham bo‘ladi. Davlatning maqsadi – nafaqat hayotni va fuqarolarning shaxsiy mulkini saqlashdan iborat, zero, ushbu dalilning o‘zi ham urushni axloqiy jihatdan yoqlaydi, uni mutlaq yovuzlik deb bo‘lmaydi yoki tasodif sifatida baholash mumkin emas.

Gegel shuni nazarda tutadiki, muayyan sharoitda millat urushdan qochishi mumkin. Bunda ko‘p ma’no bor. U dunyo miqyosida tuziladigan tashkilotlarga qarshi chiqadi, chunki ular urush vaziyatlarini oldini olishga intiladi, vaqtı-vaqtı bilan urushni bo‘lishi ezgulikka xizmat qiladi. Urush, uning aytishicha, bu shunday sharoitki, unda biz hoyu-havaslarning va narsalarning o‘tkinchilagini ravshan ko‘ramiz (bu ta’limot, hamma urushlar iqtisodiy sabab tufayli sodir bo‘ladi degan nazariya bilan qiyoslanishi zarur). Urush ijobjiy axloqiy ahamiyatga ega: “Urushning ahamiyati buyuk, chunki u tufayli xalqlarning axloqiy holatidagi shakllangan muqimlikka nisbatan befarqlikka zarba beriladi”. Tinchlik bu qotib qolishdir. Muqaddas ittifoq va kantcha dunyo Ligasi xatolikdir, chunki davlatlar hamdo‘stligiga dushman zarur. Davlatlar o‘rtasidagi nizolar faqat urush tufayli yechiladi. Zotan, davlatlar o‘zaro bir-biri bilan tabiiy holatda bo‘lganligi uchun, ularning munosabati huquqiy yoki axloqiy bo‘lolmaydi. ularning huquqlari shaxsiy irodasi orqali o‘z voqeligiga ega, har bir davlat manfaati uning eng oliv qonunidir. Axloq va siyosat o‘rtasida kontrast yo‘q, chunki davlat oddiy axloqiy qonunlarga bo‘ysunmaydi.

Gegelning davlat haqidagi ta’limoti shulardan iborat – agar uni qabul qilsak, har qanday agressiyani, har qanday ichki tiraniyani yoqlaganday bo‘lamiz. Uning ta’limotini kuchi shunda namoyon bo‘ladiki, nazariyasi metafizikasi bilan ziddiyatda bo‘ladi. Ana shu ziddiyat ostida har qanday shafqatsizlikni va xalqaro urushlarni oqlash tendensiyasi ko‘rinib qoladi. Inson o‘z mantig‘i orqali, afsus qiladigan xulosaga kelib qolsa, uni kechirish mumkin, lekin jinoyatni himoya qilish erkinligi uchun mantiqdan voz kechsa, uni hech qachon kechirib bo‘lmaydi. Gegelni mantig‘i shunday ishonchga olib keladiki, voqelik va ustuvorlik (unda bu

sinonimlardir) yaxlitlikda ko'proq namoyon bo'ladi, qismlarda emas, agar yaxlitlikni realligi va ustuvorligi yaxshi tashkillashgan bo'lsa, u yanada o'sib boraveradi. Bunda individuumlarning anarxik yig'indisidan davlatga moyillik berilishi oqlanadi, lekin boshqa tomondan, dunyoviy davlatlarni anarxik jamlangan davlatlardan ustun qo'yilishini ham ko'rsatadi. Davlatning ichida, Gegel falsafasiga ko'ra, individuumlarni ko'proq hurmat qilish kerak, chunki yaxlitlik unda Parmenidning Yagonaligiga yoki Spinozaning xudosiga o'xshatilmagan: bu yaxlitlikda individuallik yo'qolib ketmaydi, balki butun organizmga uyg'un holatda yanada imkammalroq voqelikka ega bo'ladi. Individuallikni inkor qiladigan davlat, gegelcha mutlaqlik modelining kichraytirilgan shakli emas.

Gegel metafizikasida davlat o'ziga xoslik sifatida, boshqa ijtimoiy tuzilmalarga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Davlatni cherkovdan ustun qo'yishida, uning protestantlik e'tiqodi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, gegeiga ko'ra, jamiyat yaxshi bo'lishi uchun, u shunday imkonи boricha organik (uyg'un) bo'lishi kerakki, unda cherkov va davlatdan tashqari boshqa tuzilmalarga ham zaruriyat tug'iladi. Gegelcha tamoyildan shunday xulosa kelib chiqadiki, jamiyat bilan uyg'un bo'lмаган har qanday manfaat qo'shimcha hamjamiyatlarni tashkil bo'lishiga olib keladi, bu o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Har qanday sun'iy tuzilma mas'uliyati cheklangan mustaqillikka ega bo'lishi kerak. Bunga e'tiroz bildirish mumkin, daxlsiz hokimiyat bo'lishi kerak va u davlatdan tashqarida hech qayerda mavjud bo'lolmaydi. Agar shunday bo'lsa ham, hokimiyatning daxlsizligi chegaradan o'tib ketsa, daxl qilish mumkin bo'lsin.

Bu Gegel falsafasini baholashimizda asosiy ahamiyatga ega. Yaxlitlik uning qismiga nisbatan yorqinroq reallikka yoki qadriyatga ega bo'la oladimi? Gegel bu savolga ijobiy javob beradi. Reallik haqidagi savol – metafizik xususiyatga ega. Qadriyat – axloqiy xususiyatga ega. Agar ular birga ko'rilsa, ularda farq yo'q, lekin men uchun ular alohida tadqiq etilgani yaxshiroq tuyuladi. Metafizik savoldan boshlaymiz.

Gegelning va boshqa faylasuflarning qarashlari shundan iboratki, koinotning har bir bo'lagiga, yaxlitlikning va boshqa bo'laklarning ta'siri, bog'liqligi juda chuqur, unda bir bo'lakning haqiqatligini, yaxlitlikdan o'rnini inobatga olmagan holda tasdiqlab bo'lmaydi. Zero, uning yaxlitlikdagi o'rni boshqa qismlar bilan aloqasiga bog'liq, uning yaxlitlikdagi o'rni haqidagi haqiqiy fikr, boshqa bo'laklarning ham o'rnini aniqlab beradi. Demak, faqat bitta haqiqiy fikr bor: yagonalikdagi haqiqatan tashqari, haqiqat yo'q. Xuddi shunga ko'ra, yaxlitlikdan tashqari hech qanday reallik mavjud emas, chunki har qanday bo'lak, u ajratib olinsa, o'z xususiyatini o'zgartiradi, shuningdek, o'zini o'zligicha to'liq namoyon qilolmaydi. Bu – metafizik ta'limot. Boshqa tomondan, qism borlig'icha butunga nisbatan ko'rilsa, unda mustaqilmasligi bilinib qoladi va haqiqiy, yagona vogelik sifatida butunning qismidek mavjud bo'lolmaydi.

Axloqiy ta'limotda ta'kidlanishicha, qadriyat bo'lakka nisbatan, yaxlitlikda katta darajada namoyon bo'ladi, agar metafizik ta'limot haqiqiy bo'lsa, u ham haqiqiy bo'ladi, lekin metafizik ta'limot yolg'on bo'lsa, u ham zaruriy tarzda yolg'on bo'ladi. Biroq ba'zi butunga nisbatan qo'llanilganda rost, boshqa qismga tegishlisida yolg'on bo'lishi mumkin.

U muayyan ma'noda, tirik tanaga nisbatan qo'llanilganda yaqqol to'g'ri, masalan, ko'z tanadan ajratilganda hech ma'noga ega emas; u o'zicha *disjecta membra* yig'indisi bo'ladi, hatto yaxlit sifatida olinsa ham; u tanaga ega bo'lgan a'zo bo'lsa ham hech qanday qadriyat bo'lolmaydi. Gegel fuqaroning davlatga nisbatan axloqiy munosabatini, analogik tarzda ko'zni tanaga munosabatida ko'radi: o'z o'rnida fuqaro yaxlit qadriyatning bo'lagidir, undan ajralsa, u befoyda, xuddi ajratib olingan ko'zdek. Biroq bu analogiya shubhali: ba'zi yaxlit axloqiy zaruratdan, hamma axloqiy zarurat kelib chiqavermaydi.

Yuqorida keltirilgan axloqiy masalalar ma'lum ma'noda kamchilikka ega, aynan, ular maqsad va vositalar o'rtasidagi farqqa diqqat qaratmaydi. Tirik tanada ko'z kerakli, ya'ni u vosita sifatida qadrli. Lekin u tanadan ayro olinganda ichki qadriyatdan mosuvo bo'ladi. Agar buyum vosita sifatida emas, balki o'z

holicha yuqori baholansa, ichki qadriyatga ega bo‘ladi. Biz ko‘zning ko‘rish vositasi sifatida baholaymiz. Ko‘rish maqsad yoki vosita bo‘lishi mumkin. U qachon bizga dushmanlar yoki oziqani ko‘rsatsa vosita bo‘ladi, go‘zal deb topgan narsamizga nazarimiz tushsa, maqsadga aylanadi. Davlat, ravshanki, vosita sifatida qadrli: u bizni o‘g‘rilardan, dushmanlardan himoya qilib, yo‘llar, mакtablar va boshqalarni bunyod etadi. U, albatta, vosita sifatida yomon ham bo‘lishi mumkin, masalan, adolatsiz urush olib boradi. Darhaqiqat, gegelga bog‘liq holda masala shunday qo‘yiladi, davlat maqsadga aylansa yaxshilik; fuqarolar davlat uchun mavjudmi yoki davlat fuqarolar uchun mavjudmi? Gegel birinchisini tasdiqlaydi. Lokkdan kelib chiquvchi liberal falsafa ikkinchisini ta‘kiddaydi. Bir narsa aniqki, davlat ichki qadriyatga ega bo‘la oladi, qachonki u o‘z hayotiga ega bo‘lsa va muayyan tarzda shaxslik xususiyati mavjud bo‘lsa. Ana shu nuqtada Gegel metafizikasi qadriyat masalasiga bog‘lanadi. Shaxs murakkab yaxlitlik sifatida yagona hayotga ega. Shaxslardan tashkil topgan oliy shaxs bo‘lishi mumkinmi, yagona hayotga ega, shaxslarning hayotiy yig‘indisiga ega bo‘ligan, xuddi a’zolardan iborat tana misoli? Agar Gegelning tasavvuricha, shunday oliy shaxs mavjud bo‘lsa, davlat shunday muvjudot bo‘la oladi, bizdan ustun bo‘ladi, tana yaxlitligi bilan ko‘zdan ustun bo‘lganidek. Agar biz ana shu oliy shaxsni metafizik maxluq deb olsak, jamiyatning ichki qadriyatlari, uning a’zolarining qadridan kelib chiqadi, davlat maqsad emas, vositaga aylanadi. Biz shu bilan axloqiy masaladan metafizik masalaga o‘tamiz.

Ko‘rilayotgan masala, Gegel falsafasining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan kengroq chegaraga ega. Bu savol tahlil qiluvchilarni do‘stlarga va dushmanlarga ajratadi. Misol keltiramiz. Tasavvur qilamiz, men aytaman: “Djon – Djemsning otasi”. Marshal Smesni “xolizm” deb atashlariga ishonuvchi Gegel va boshqalar, deydilar: “Bu iborani tushunish uchun, biz Djon va Djems kimligini bilishimiz kerak. Djonni bilish – bu uning butun xislatlarini bilishni taqozo qiladi, chunki ularni bilmasak, boshqalardan ajrata olmaymiz. Lekin uning hamma fazilati boshqa odamlarda va narsalarda bor fazilatlarni ham o‘z ichiga oladi. U

ota-onasiga, rafiqasiga, farzandlariga ma'lum munosabatda bo'ladi, u o'z mamlakatning yaxshi yoki yomon fuqarosimi? Bularning hammasini bilishimiz shart, uni "Djon" so'zi kimga nisbatan ishlatalayotganidan oldin bilishimiz kerak. Qadamma-qadam "Djon" so'zi ostida nima nazarda tutilayotganini ochib bersak, koinotni nazarda tutgancha ko'tarilamiz va bizning alohida ikki odam Djon va Djems haqidagi dastlabki mulohazamiz qandaydir koinot haqidagi ma'lumotlarga aylanadi".

Buning hammasi yaxshi, albatta, lekin dastlabki mulohaza ochiqligicha qolaveradi. Agar yuqoridagi mulohaza to'g'ri bo'lgan holatda ham, bilish qanday boshlanadi? Men bir qancha "A- ota 5" degan mulohazalarni bilaman, lekin yaxlit koinotni bilmayman. Agar bor bilim koinotni yaxlitlik sifatida bilishdan iborat bo'lganida, unda bilim bo'lmas edi. Shuning o'zi, qayer-dadir xato qilishimiz mumkinligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Darhaqiqat, "Djon" so'zini to'g'ri va aqlga muvofiq ishlatish uchun Djonga tegishli bo'lgan hamma narsani bilishim shart emas, uni o'zini bilsam bo'ldi. Shubhasiz, u munosabatlarga ega, ular koinotga yaqin yoki uzoq, lekin u haqida to'g'ri gapirish mumkin, agar shu munosabatlarni diqqatga olmasak, ya'ni shu predmetga bevosita tegishli bo'lgan narsalardan tashqari.

U Djemmini otasi ham bo'lishi mumkin, xuddi shunday Djemsni ham, lekin men uchun buni bilish zarur emas, men u Djemsni otasi ekanligini bilsam yetadi. Agar Gegel haq bo'lganida, biz "Djon – Djemsning otasi" mulohazasi orqali Djemmini ko'rsatmasdan turib nimani nazarda tutayotganini to'liq tiklay olmas edik. Biz shunday aytishimiz kerak: "Djon, Djemmini otasi, u Djemsni ham otasi". Lekin buning o'zi ham to'liq holda yetarli bo'lmas edi, biz davom ettirib, ularni ota-onalarini, bobokalonlarini ham keltirishimiz mumkin. Bu bizni bema'nilikka (absurdga) olib boradi. Gegel pozitsiyasi shunday: "Djon" so'zi, Djon haqidagi hamma haqiqatni o'z ichiga oladi". Lekin ta'rif sifatidagi bu mulohaza doiraga ega, chunki "Djon" so'zi muayyan aniqlovchi frazalarda uchraydi. Darhaqiqat, agar Gegel haq bo'lganida, hech bir so'z muayyan ahamiyatga ega bo'lmas edi, chunki biz boshqa so'zlarning mazmunini

bilishimizni taqozo qiladi, shunda biz hamma xususiyatni tiklay olamiz, bu nazariyaga ko'ra, so'z o'z belgilariga ega bo'lgan, belgilari bilan birga ma'noga ega bo'ladi.

Mavhum savol qo'yamiz: biz turli tiplar xususiyatlarini ajratishimiz kerak. Narsa xususiyatlarga ega, u boshqa narsalarning borligini nazarga olmaydi. Bunday tip *sifat* deb ataladi. Yoki u shunday xususiyatga ega bo'lishi mumkinki, boshqa narsalarning mavjudligini taqozo qiladi. Bunday xususiyat "turmushga chiqqanlik" bo'lishi mumkin. Yoki u bir narsa bo'lib, o'zini ketidan ikkinchi narsani ergashtirishi mumkin, masalan, "keyingi holat". Agar muayyan narsa sifatlar yig'indisidan iborat bo'lsa, u holda u "narsa sifatida ta'riflanishi mumkin va qandaydir sifatlarga ega bo'ladi". Sof mantiq asosida sifatga egalik, nisbiy bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyatlardan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Gegelning ta'kidiga ko'ra, agar narsa haqida yetarlichcha bilsak, uni boshqa narsalardan ajrata olsak, uning hamma xususiyatlarini mantiq yordamida keltirib chiqara olamiz. Bu xato edi, ana shu xatodan uning butun tizimi yaratilgan edi. Bu shunday haqiqatni namoyon qiladiki, aynan, qanchalik sizning mantig'ingiz nosoz bo'lsa, u olib keladigan oqibati shunchalik hayratlanarli bo'ladi.

«G'arb falsafasi» o'quv kursi bo'yicha yakuniy yozma ish savollari:

1. Milet falsafa maktabi.
2. Efesslik Geraklit – dialektikaning asoschisi.
3. Pifagor falsafasi.
4. Eley falsafiy maktabi.
5. Suqrot falsafasi.
6. Demokritning atomistik falsafasi.
7. Platon falsafasi va uning ijtimoiy-gnoseologik ildizlari.
8. Aristotelning axloqiy qarashlari.
9. Sofistlar qarashlarida borliq masalasi.
10. Ellinizm davrida yunon falsafasi.
11. O'rra asrlar g'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlari.

12. Nikolay Kuzanskiyning panteizmi va kosmologiyasi.
13. Nikola Makiavelli – ideal jamiyat haqida.
14. Jordano Bruno koinotning cheksizligi haqida.
15. F.Bekon bilishning uslublari haqida.
16. F.Bekonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
17. Rene Dekart metafizikasi.
18. Tomas Gobbs – falsafaning predmeti haqida.
19. Benedikt Spinoza panteizmi.
20. Jon Lokk falsafasi.
21. F.Bekonning induktiv metod haqidagi ta'limoti.
22. F.Bekonning inson aqli “qusurlari” haqidagi ta'limoti.
23. R.Dekartning uslub haqidagi ta'limoti.
24. R.Dekartning dualistik metafizikasi.
25. T.Gobbsning bilish nazariyasi.
26. T.Gobbsning ijtimoiy falsafasi.
27. B.Spinozaning substansiya, atribut va moduslar haqidagi ta'limoti.
28. B.Spinozaning axloqiy ta'limoti.
29. J.Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limoti.
30. J.Lokkning ijtimoiy falsafasi.
31. G.Leybnitsning monadologiyasi.
32. G.Leybnits ta'limotida mantiq masalalari.
33. J.Tolandning materiya haqidagi ta'limoti.
34. J.Berklining hissiyot haqidagi ta'limoti.
35. J.Berklining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
36. D.Yumning sababiyat haqidagi ta'limoti.
37. Volter deizminining o'ziga xos xususiyatlari.
38. Volterning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
39. J.J.Russoning falsafiy qarashlari.
40. J.J.Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
41. Lametrining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
42. Fransuz qomusini yaratilishida D.Didroning o'rni.
43. Gelvetsiyning jamiyatda dinning o'rni va roli haqidagi fikrlari.
44. Golbaxning «Tabiat tizimi» asaridagi falsafiy g'oyalar.

45. I.Kantning tanqidiy davrgacha bo‘lgan dunyoqarashi.
46. I.Kant aqlning aprior shakllari haqida.
47. I.Kantning axloqiy metafizikasi.
48. I.Kantning din falsafasi.
49. I.Kantning dialektik g‘oyalari.
50. I.Kantning falsafa tarixida tutgan o‘rni.
51. Fixtening ijtimoiy-siyosiy ta’limoti.
52. Shellingning ilohiyot falsafasi.
53. Gegelning falsafiy sistemasi va uning asosiy qismlari.
54. Gegelning tarix falsafasi.
55. Gegel dialectikasi.
56. G.V.Gegel dialectikasi va uning ahamiyati.
57. L.Feyerbax antropologizmi.
58. L.Feyerbaxning muhabbat falsafasi.
59. Feyerbax antropologiyasi va gnoseologiyasi.
60. Neokantchilik falsafasi.
61. XIX asrda pozitivizmning shakllanishi va rivoji.
62. A.Shopengauerning dunyoviy iroda haqidagi ta’limoti.
63. F.Nitsshening qadriyatlarni qayta baholash haqidagi ta’limoti.
64. F.Nitsshening «A’lo odam» haqidagi ta’limoti.
65. Kyerkegorning inson ruhiy rivoji haqidagi ta’limoti.
66. O.Shpenglerning ijtimoiy-siyosiy konsepsiysi.
67. O.Shpenglerning tarix falsafasi.
68. A.Bergson intuitivizmi.
69. E.Gusserl fenomenologiyasi.
70. M.Xaydeggerning borliq haqidagi ta’limoti.
71. K.Yaspersning tarix falsafasi.
72. Fransuz ekzistensializmining o‘ziga xos xususiyatlari.

**«G‘arb falsafasi» kursi bo‘yicha talabalarini
o‘z-o‘zini sinash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Falsafa tarixini o‘rganishni qanday uslublarini bilasiz?
2. Qadimgi G‘arb dunyoqarashini shakllanishida qadimgi Sharqning ta’siri haqida.

3. Qadimda bиринчи falsafiy maktab qanday shakllangan.
4. Qadimgi Yunon faylasuflari uchun dunyoning birligi, yaxlitligi nimada?
5. Dunyoni miqdoriy anglash deganda nimani tushunasiz?
6. «O'zingni bil!» iborasiga izoh bering.
7. «Inson hamma narsaning me'yori», degan fikrni izohlang.
8. «Taraqqiyot – kurashda», degan g'oyaga ta'rif bering.
9. «Inson «siyosiy hayvon» – bu kimga tegishli ta'rif, bu bilan faylasuf nima demoqchi?
10. Ruhning emanatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
11. Sxolastika nima?
12. Nominalizm va realizm qanday oqimlar?
13. Ratsionalizm nima?
14. O'rta asrda e'tiqod va tafakkur qanday talqin qilingan?
15. Renessans nima?
16. Antropotsentrizmga ta'rif bering?
17. F.Bekonning induktiv metod haqidagi ta'limoti.
18. F.Bekonning inson aqli "qusurlari" haqidagi ta'limoti.
19. R.Dekartning uslub haqidagi ta'limoti.
20. R.Dekartning dualistik metafizikasi.
21. Substansiya nima?
22. «Inson-mashina» degan fikr kimga tegishli? Uni izohlang.
23. T.Gobbsning bilish nazariyasi.
24. T.Gobbsning ijtimoiy falsafasi.
25. B.Spinozaning substansiya, atribut va moduslar haqidagi ta'limoti.
26. B.Spinozaning axloqiy ta'limoti.
27. J.Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limoti.
28. J.Lokkning ijtimoiy falsafasi.
29. G.Leybnitsning monadologiyasi.
30. G.Leybnits ta'limotida mantiq masalalari.
31. J.Tolandning materiya haqidagi ta'limoti.
32. J.Berklining hissiyot haqidagi ta'limoti.
33. J.Berklining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
34. D.Yumning sababiyat haqidagi ta'limoti.

35. «Tafakkur to'siqlari» haqida kim gapirgan?
36. «Men fikrlayapman, demak men mavjudiman», degan ibora bilan faylasuf nima demoqchi?
37. Volter deizmining o'ziga xos xususiyatlari.
38. Volterning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
39. J.J.Russoning falsafiy qarashlari.
40. J.J.Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
41. «Ijtimoiy kelishuv» nazariyasi haqida nima bilasiz?
42. «Jamiyatni manfaat boshqaradi», degan fikrni izohlang.
43. Lametrining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
44. Fransuz qomusini yaratilishida D.Didroning o'rni.
45. Gelvetsiyning jamiyatda dinning o'rni va roli haqidagi fikrlari.
46. Golbaxning «Tabiat tizimi» asaridagi falsafiy g'oyalari.
47. I.Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan dunyoqarashi.
48. I.Kant aqlning aprior shakllari haqida.
49. I.Kantning axloqiy metafizikasi.
50. I.Kantning din falsafasi.
51. I.Kantning dialektik g'oyalari.
52. «Transsendensiya» nima?
53. «Antinomiya» nima?
54. I.Kantning «qat'iy imperativi» nimani anglatadi?
55. Fixtening ijtimoiy-siyosiy ta'llimoti.
56. Shellingning "ilohiyot" falsafasi.
57. Gegelning falsafiy sistemasi va uning asosiy qismlari.
58. Gegelning tarix falsafasi.
59. Gegel dialektikasi.
60. Gegel falsafasida dialektik uslub bilan konservativ sistema o'rtasidagi ziddiyat nimadan iborat?
61. «Tezis, antitezis, sintez» ketma-ketligi nimani anglatadi?
62. «Ruh fenomenologiyasi» ning muallifi kim?
63. Muhabbat dinini yaratish vazifasini qaysi faylasuf qo'ygan?
64. L.Feyerbax antropologizmining mohiyati nimada?
65. Feyerbaxning gnoseologik ta'llimoti.
66. Neokantchilik falsafasi.

67. XIX asrda pozitivizmning shakllanishi va rivoji.
68. A.Shopengauerning dunyoviy iroda haqidagi ta'limoti.
69. F.Nitsshening qadriyatlarni qayta baholash haqidagi ta'limoti.
70. F.Nitsshening "A'lo odam" haqidagi ta'limoti.
71. Kyerkegorning inson ruhiy rivoji haqidagi ta'limoti.
72. O.Shpenglerning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi.
73. O.Shpenglerning tarix falsafasi.
74. A.Bergson intuitivizmi.
75. E.Gusserl fenomenologiyasi.
76. M.Xaydeggerning borliq haqidagi ta'limoti.
77. K.Yaspersning tarix falsafasi.
78. Fransuz ekzistensializmining o'ziga xos xususiyatlari.

**«G'arb falsafasi» o'quv kursi bo'yicha
referat mavzulari:**

1. Milet falsafa maktabi.
2. Efesslik Geraklit – dialektikaning asoschisi.
3. Pifagor falsafasi.
4. Eley falsafiy maktabi.
5. Suqrot falsafasi.
6. Demokritning atomistik falsafasi.
7. Platon falsafasi va uning ijtimoiy-gnoseologik ildizlari.
8. Aristotelning fanlar tasnifi.
9. Ellinizm davrida yunon falsafasi.
10. O'rta asr G'arb falsafasining o'ziga xos xususiyati.
11. Nikolay Kuzanskiyning panteizmi va kosmologiyasi.
12. Nikkola Makiavelli – ideal jamiyat haqida.
13. Jordano Bruno koinotning cheksizligi haqida.
14. F.Bekon bilishning uslublari haqida.
15. F.Bekonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
16. Rene Dekart metafizikasi.
17. Tomas Gobbs – falsafaning predmeti haqida.
18. Benedikt Spinoza panteizmi.
19. Jon Lokk falsafasi.

20. Kantning falsafa tarixidagi o'rni.
21. Gegel dialektikasi, uning ahamiyati.
22. Lyudvig Feyerbax antropologizmi.
23. Lyudvig Feyerbaxning muhabbat falsafasi.
24. F.Bekonning induktiv metod haqidagi ta'limoti.
25. R.Dekartning uslub haqidagi ta'limoti.
26. R.Dekartning dualistik metafizikasi.
27. T.Gobbsning bilish nazariyasi.
28. T.Gobbsning ijtimoiy falsafasi.
29. B.Spinozaning substansiya, atribut va moduslar haqidagi ta'limoti.
30. B.Spinozaning axloqiy ta'limoti.
31. J.Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limoti.
32. J.Lokkning ijtimoiy falsafasi.
33. G.Leybnitsning monadologiyasi.
34. G.Leybnits ta'limotida mantiq masalalari.
35. J.Tolandning materiya haqidagi ta'limoti.
36. J.Berklining hissiyot haqidagi ta'limoti.
37. J.Berklining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
38. D.Yumning sababiyat haqidagi ta'limoti.
39. Volter deizmining o'ziga xos xususiyatlari.
40. Volterning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
41. J.J.Russoning falsafiy qarashlari.
42. J.J.Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
43. Lametrining ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
44. Fransuz qomusini yaratilishida D.Didroning o'rni.
45. Gelvetsiyning jamiyatda dinning o'rni va roli haqidagi fikrlari.
46. Golbaxning "Tabiat tizimi" asaridagi falsafiy g'oyalari.
47. Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan dunyoqarashi.
48. Kant aqlning aprior shakllari haqida.
49. Kantning axloqiy metafizikasi.
50. Kantning din falsafasi.
51. Kantning dialektik g'oyalari.
52. Fixtening ijtimoiy-siyosiy ta'limoti.

53. Shellingning “ilohiyot” falsafasi.
54. Gegelning falsafiy sistemasi va uning asosiy qismlari.
55. Gegelning tarix falsafasi.
56. Gegel dialektikasi.
57. Feyerbax antropologiyasi va gnoseologiyasi.
58. Neokantchilik falsafasi.
59. XIX asrda pozitivizmning shakllanishi va rivoji.
60. Shopengauerning dunyoviy iroda haqidagi ta’limoti.
61. F.Nitsshening qadriyatlarni qayta baholash haqidagi ta’limoti.
62. F.Nitsshening “A’lo odam” haqidagi ta’limoti.
63. Kyerkegorning inson ruhiy rivoji haqidagi ta’limoti.
64. Shpenglerning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi.
65. Shpenglerning tarix falsafasi.
66. Bergson intuitivizmi.
67. E.Gusserl fenomenologiyasi.
68. M.Xaydeggerning borliq haqidagi ta’limoti.
69. K.Yaspersning tarix falsafasi.
70. Fransuz ekzistensializmining o‘ziga xos xususiyatlari.

TEST SAVOLLARI:

1. Falsafa qachon va qayerda fan bo‘lib shakllangan?

A) Miloddan avvalgi II ming yillikning 2-yarmida Markaziy Osiyoda.

B) Miloddan avvalgi III-ming yillik boshlarida Misrda.

* C) Miloddan avvalgi VI-V asrlarda, Yunonistonda.

D) Miloddan avvalgi VI-V asrlarda, Hindistonda.

2. Falsafada tabiat «g‘oyalar dunyosining» hosilasi degan ta’limot dastlab kim tomonidan asoslangan?

A) Zardusht. B) Demokrit. * C) Platon. D) Aristotel.

3. Qadimgi Yunonistonda materiya harakati inkor etiladigan falsafiy ta’limotning asoschisi kim?

A) Pifagor. *B) Zenon. C) Aristarx. D) Ptolomey.

4. Deizm falsafasining tub mohiyatini anglatuvchi belgi nimadan iborat?

A) Dunyoning ibtidosi deb «dunyoviy ruh»ning e’tirof etilishi.

B) Tabiat moddiy substansiyaning namoyon bo‘lishi deb e’tirof etilishi.

* C) Tabiat – «dunyoviy ruh»ning hosilasi ekanligini e’tirof etadi, lekin tabiatning keyingi rivojlanishi tabiiy qonunlar orqali ro‘y beradi deb hisoblovchi ta’limot.

D) Tabiat bilan «dunyoviy ruh»ning yaxlitligini e’tirof etuvchi falsafiy ta’limot.

5. Qadimgi yunon falsafasining eng umumiy va alohida xususiyati nimada?

A) Falsafaning alohida ijtimoiy ong bo‘lib shakllanganligida.

B) Turli falsafiy oqimlarning shakllanganligida.

D) «Falsafa – fanlarning fani» bo‘lib shakllanganligida

*G) «A» va «B» hollarda.

6. Aristotel falsafasining o‘ziga xosligi nimada ko‘rinadi?

- *A) Uning dualizmida.
- B) Metafizik uslubida.
- C) Uning materializmida.
- D) Uning obyektiv idealizmida.

7. Qadimgi yunon falsafasida atomlar nazariyasining asoschisi kim?

- *A) Levkipp-Demokrit. B. Epikur. C. Lukretsiy. D. Aristotel.

8. Pifagor ta’limoti bo‘yicha «tabiatdan oldin...» nima-ning mavjudligi e’tirof etiladi?

- A) Moddiy substansiya mavjud deb tushunilgan.
- B) Geometrik shakllar va matematik sonlar mavjud bo‘lgan.
- C) Vaqt va fazo mavjud edi deb tushunilgan.
- *D) Har qanday miqdorni ifoda etuvchi sonlar mavjudligi

9. Platon ta’limotidagi ideal jamiyatda davlatni kimlar boshqarishi zarur deyilgan?

- A) Buyuk lashkarboshilar.
- *B) Faylasuflar.
- C) Saylanib qo‘yiladigan xalq vakili.
- D) «B» va «C» hollarda.

10. Aristotel falsafasidagi «meddiy olam to‘rtta unsurdan tarkib topadi» deganda nimalarni ko‘zda tutgan edi?

- A) Yer, Quyosh, Oy, yulduzlar.
- B) Tosh, tuproq, suv, efir.
- * C) Yer, suv, olov, havo.
- D) Jism, harakat, fazo, vaqt.

11. Sharl Monteske fikricha, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni asosan qanday qonunlar orqali boshqarib turish mumkin?

- A) Diniy va axloqiy.
- B) Huquqiy va ijtimoiy.

- * C) Tabiiy va ijtimoiy.
- D) Falsafiy va biologik.

12. Fransua Volter qachon yashab, ijod qilgan?

- *A) 1694-1778-yillar.
- B) 1684-1775-yillar.
- C) 1714-1780-yillar.
- D) 1712-1778-yillar.

13. Jan-Jak Russo «Ijtimoiy shartnoma haqida» nomli asarida asosan qanday muammolarga o‘z diqqat e’tiborini qaratgan?

- A) Xalq ozodligi, tarbiya va jamiyatni inqilobiy o‘zgartirish.
- *B) Begonalashish, xalq suvereniteti, davlat va jamiyatning kelishuv nazariyasi, erkinlik masalasi, geografik determinizm.
- C) Xususiy mulk, tarbiya va jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy tenglik.
- D) Qonun ustuvorligi, xususiy mulk inkor etilishi, tabiiy va ijtimoiy tenglik.

14. Eten Kondilyak bilish nazariyasi uning fikricha, qanday nazariyaga asoslanadi?

- A) Sensualizm nazariyasiga.
- B) Intellektual intuitizmga.
- C) Kognitizmga.
- *D) Hissiyot nazariyasiga.

15. Jyulen Lametri: «Insonning ruhiy qobiliyati, bevosita tana va miyaning tuzilishiga bog‘liq. Ular aynan shunday tuzilishning natijasidir» – bu misralar orqali nimani ifodalamoqchi bo‘lgan?

- *A) Insonning moddiy yagonaligini.
- B) Bilish nazariyasini.
- C) Olamning birligini.
- D) Inson hissiyotini.

16. Gilosensizm iborasiga ta'rif bering:

- A) Lotinchadan olingan, hissiyot nazariyasi.
- B) Yunonchadan olingan, jonlilik tushunchasi.
- * C) Yunoncha – «gilo» materiya, lotincha – «sensus» hissiyot.
- D) Lotinchadan olingan, ruhiylik nazariyasi.

17. Deni Didro bilish nazariyasi asosida qanday metodologiya yotadi?

- A) Eksperimental bilim.
- *B) Hissiyot, tafakkur va tajriba birligi.
- C) Dialektika, metafizika, germenevtika.
- D) Induksiya, deduksiya, ratsionalizm.

18. Klod Adrian Gelvetsiy materializmining o'ziga xos tomoni nimada?

- *A) «Tabiatda faqat individlar bor, ular tana deb ataladi, materiya esa – bu faqat iboradir, hamma tanalarga xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisidir. Bu xususiyatga asosan harakat kiradi».
- B) Materializm va ateizm iboralarini inkor qiladi, ularni noaniqlikda ayblaydi.
- C) Materializm tushunchasi – bu fiksiyadir.
- D) Materializm bu – Bekon tipidagi metafizikadir.

19. Paul Ditrix Golbaxning falsafiy qarashlari qaysi asarida bayon etilgan?

- A) «Hayotning tanqidiy tadqiqoti».
- B) «Xristianlik dinining qisqacha lug'ati».
- C) «Iso payg'ambarning tanqidiy tarixi».
- *D) «Tabiat sistemasi».

20. XVIII asr fransuz «Qomus»ini yaratishga kim asos solgan?

- *A) Deni Didro.
- B) Sharl Monteske.
- C) Eten Kondilyak.

D) Jan-Jak Russo.

21. Sharl Monteskening «Qonunlar ruhi» asarida asosan qanday masalalar o‘z yechimini topgan?

A) Huquqiy tenglik, xususiy mulkchilik, geografik determinizm.

*B) Erkinlik, ozodlik, jamiyat-organik sistema sifatida, hokimiyat boshqaruvi, geografik determinizm, davlatchilikning boshqaruv shakllari.

C) Ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi.

D) Falsafiy dunyoqarashi.

22. Jan-Jak Russoning pedagogik qarashlari asosida qanday g‘oya yotadi?

*A) Barkamol shaxsni tarbiyalash.

B) Ma’naviy, jismoniy va aqliy tarbiya.

C) Bilimli shaxsni tarbiyalash.

D) Hurfikrlikni shakllantirish.

23. Gelvetsiy fikricha, insonni faoliyatga chaqiruvchi kuch nimada?

A) Ehtirosda.

*B) Ehtirosda, manfaatda va baxtga intilishda.

C) Boylikka ega bo‘lishda.

D) Farovonlikda.

24. Sharl Monteske fikricha, davlatni odil boshqarish qanday qo‘srimcha omillarga tayanadi?

A) Xalqni ozodlik ruhiyatiga.

B) Qonun ustuvorligiga.

C) Odil shoxga, adolatl qonunlarga, xalq ma’naviyatiga.

*D) Geografik sharoitga, hosildor yerga, hudud masshtabiga, iqlimga, aholi soniga.

25. Fransua Volter tabiiy din deganda nimani tushungan?

- *A) Butun insoniyat uchun yagona bo‘lgan axloq normalarini.
- B) Adolatlari qonunlarni.
- C) Ilmiy dunyoqarashni.
- D) Ilk xristianlikni.

26. Jyulen Lametri «inson-mashina» deganda nimani nazarda tutgan?

- A) Insonning mexnik mavjudot ekanligini.
- B) Inson biologik organizm ekanligini.
- * C) Inson yagona, butun ijtimoiy-biologik organizm ekanligini.
- D) Inson ruhiy va moddiy mavjudot ekanligini.

27. Inneizm terminiga ta’rif bering.

- A) Lotinchadan olingan, ruhiyat to‘g‘risidagi ta’limot.
- *B) Fransuzchadan olingan, tug‘ma degani, inson tafakkuridagi tug‘ma g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limot.
- C) Yunonchadan olingan, tiriklik to‘g‘risidagi ta’limot.
- D) Inglizchadan olingan, dastlabki bilimlar to‘g‘risidagi ta’limot.

28. Jan-Jak Russo ta’limotiga ko‘ra, ideal jamiyat tuzilishi qanday bo‘lishi kerak?

- *A) Kichik hududga ega bo‘lgan, qishloq tipidagi davlat.
- B) Kichik hududga ega bo‘lgan, parlamentar monarxiya.
- C) Xususiy mulkdan xoli bo‘lgan, qonun ustuvorligiga ega jamiyat.
- D) Teng huquqiylikka va odil, ma’rifatparvar monarxga ega, hududi kichik bo‘lgan jamiyat.

29. Klod Adrian Gelvetsiy fikricha, shaxsiy va umumiy manfaat uyg‘unligi nimada?

- A) Individ ehtiroslarini jamiyat farovonligiga bo‘ysundirishi.

*B) Erkin fuqoro mehnati orqali jamiyatga foyda keltirishi va moddiy ne'matni davlat tomonidan ehtiyojga yarasha teng taqsimlanishi.

C) Hammaning qonun oldida tengligida.

D) Har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lishda.

30. Klod Adrian Gelvetsiy fikricha, inson ongini rivoji qanday omillarga bog'liq?

A) Tabiiy muhitga.

*B) Mehnat faoliyatiga va mehnat quollarini inson tomonidan takomillashtirilib borilishiga

C) Insonning faolligiga, intilishlariga, manfaatiga.

D) Adolatli qonunlarga.

31. Paul Ditrix Golbax dunyoni materialistik tushunishni qanday ifodalagan?

*A) Dunyo substansional, hamma narsaning sababi, abadiy, yagona va Buyuk ustaxonadir.

B) Dunyo atomdan tuzilgan va abadiydir.

C) Dunyo molekuladan tuzilgan, unga harakat xos.

D) Dunyoni ruhiyati yo'q.

32. Fransuz faylasuflaridan kim Rossiya qirolichasi Elizaveta II ning maslahatchisi bo'ladi?

A) Jan-Jak Russo.

B) Eten Kondilyak.

* C) Deni Didro.

D) Fransua Volter.

33. «Materiya o'zida hayotbaxsh etuvchi harakatlanti-ruvchi kuchga ega, bu harakatning hamma qonunlarining bevosita sababidir» – ushbu iboraning muallifi kim?

A) Jan-Jak Russo.

B) Eten Kondilyak.

C) Deni Didro.

*D) Jyulen Lametri.

34. «Sistema – bu qandaydir san'at yoki fanning qismlarini shunday tartibli joylanishiki, unda har bir qism bir-biri bilan chambarchas bog'lanadi va oxirgi qismlar birinchisi tomonidan ochiladi. Bir qismda boshqa qismning mazmuni aks etishi tamoyillar deb ataladi...» - bu ta'rifning muallifi kim?

- A) Jan-Jak Russo.
- *B) Eten Kondilyak.
- C) Deni Didro.
- D) Fransua Volter.

35. «Olg'a, jasur Didro, qo'rmas D"Alamber... fanatlarga va ahmoqlarga qarshi... Ularning iflos deklamatsiyalarini yo'q qiling, sofizmiga tupuring, tarixni soxtalash-tirishlariga qarshi chiqing... Sog'lom tafakkurga ega bo'lgan insonlar, ularning qullariga aylanmasin, ularga qarshi kurashing: kelajak avlod, ularning erkinligi uchun sizdan toabad minnatdor bo'lg'ay» – bu misralar muallifi kim va unda qanday fikr ifoda etilmoqchi?

- A) Jan-Jak Russo, erksizlikka qarshi.
- B) Eten Kondilyak, bilimsizlikka qarshi
- C) Deni Didro, idealizmga qarshi.
- *D) Fransua Volter, rim-katolik cherkovi aqidalariga qarshi.

36. Jan-Jak Russo nima uchun ilmiy-texnika taraqqiyotini qoralaydi?

- *A) Insonlarni o'z ruhiyatidan begonalashtiradi
- B) Insonlarni tabiatdan uzoqlashtiradi.
- C) Insonlarni dangasa qilib qo'yadi.
- D) Hokimiyat bilan xalqni bir-biridan ajratib qo'yadi.

37. Eten Kondilyak o'zining qaysi asarida narsalar ta'sirida uyg'ongan hissiyotni narsalarning timsollariga va g'oyalariga aylanishini tahlil qilib bergen?

- A) «Sistema haqida traktat»ida.
- B) «Inson bilimini kelib chiqishi haqidagi tajriba»sida.

- * C) «Hissiyot haqida traktat»ida.
- D) «Hisoblash tili»da.

38. Jyulen Lametri fikricha, yerda hayot qanday paydo bo‘lgan?

- A) Xudo tomonidan yaratilgan.
- *B) Tabiiy yo‘l bilan, dastlab sodda organizmlar keyin murakkab organizmlar orqali.
- C) Xudo birinchi turtkini bergan, keyin o‘z qonuniyati bilan.
- D) Samoviy biologik jarayonlar orqali.

39. Deni Didro ongni qanday talqin qilgan?

- A) Idealistik.
- B) Deistik.
- * C) Materialistik.
- D) Dualistik

40. Sharl Monteskeni ijtimoiy-falsafiy fikrlari aks etgan asarlarini ko‘rsatib bering:

- A) «Taab haqida tajriba».
- B) «Arzas va Ismeniya haqida Sharqona risola».
- * C) «Fors maktublari», «Rimliklarning Buyukligi va yemirilishi sabablari haqida mulohazalar”, «Qonun ruhi».
- D) «Qomus».

41. Paul Ditrix Golbax fikricha insonda axloqiy qusurlarga qarshi kurashishning eng yaxshi yo‘li qanday?

- A) Tarbiyada.
- *B) Axloqiy jazoda.
- C Vijdon azobida.
- D) O‘z xatosini anglab yetishda.

42. XVIII asrda yashagan fransuz materialist faylasuflarini sanab bering.

- *A) Lametri, Didro, Gelvetsiy, Golbax.
- B) Monteske, Volter, Russo, Kondilyak.

C) Didro, Gelvetsiy, Volter, Russo.
D) Lametri, Golbax, Monteske, Kondilyak.

43. Deni Didro fikricha, hissiyot qanday paydo bo‘ladi?

- A) Tashqi ta’sir natijasida.
B) Ichki ta’sir natijasida.
C) Taassurotlar natijasida.

*D) Tashqi va ichki ta’sir natijasida uyg‘ongan taassurotlar natijasida.

44. Jan-Jak Russo fikricha, «fuqarolik holatiga» nimalar kiradi?

- *A) Tabiiy, fuqaroviy va axloqiy erkinliklar.
B) Huquqiy erkinlik.
C) Hurfikrlik.
D) Qonun ustuvorligi.

45. Sharl Mouteskening siyosiy konsepsiyasining asosiy qirrasi nimada?

- A) Siyosiy erkinlikda.
B) So‘z erkinligida.
* C) Hokimiyatning bo‘linishida.
D) Konstitutsion monarxiyada.

46. Eten Kondilyak fransuz «Qomusi»ga muqobil ravishda qaysi asarini yozadi?

- A) «Mantiq»ni.
*B) «Parma shaxzodasini o‘qitish bo‘yicha kurslar»ni.
C) «Hisoblash tili»ni.
D) «Hissiyot haqidagi traktat»ni.

47. Eng Yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

- A) XVIII – XIX – XX – XXI asrlar.
B) XX – XXI asrlar.
C) XIX – XX asrlar.

* D) XIX asr oxiri XX asr.

48. XIX-XX asr G‘arbiy Yevropa falsafasining asosiy oqimlari:

*A) Pozitivizm, «hayot falsafasi», tomizm, neokantchilik, neogegelchilik, pragmatizm, ekzistensializm, falsafiy antropologiya, germenevtika, neopozitivizm, modernizm, postmodernizm, strukturalizm, lingvistik pozitivizm, empiriokrititsizm, ruhiy tahlil, neorealizm.

B) Germenevtika, materializm, idealizm, agnostitsizm.

C) Empiriokrititsizm, postmodernizm, pragmatizm.

D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

49. XX asr ikkinchi yarmida rivojlangan falsafiy oqimlar:

A) Ekzistensializm, neomarksizm, freydizm, strukturalizm.

*B) Neotomizm, ekzistensializm, germenevtika, strukturalizm,

modernizm, poststrukturalizm, lingvistik tahlil, futurizm, falsafiy antropologiya, postmodernizm, pragmatizm, neofreydizm.

C) Diniy antropologiya, realizm, nominalizm, gumanizm.

D) Marksizm, neomarksizm, freydizm.

50. Eng Yangi davr G‘arb falsafasining diqqat e’tiborini jalb qilgan asosiy muammolar:

* A) Inson ruhiyati, borlig‘i, irodasi, hayot mazmuni, aniq fanlarga yangicha munosabat, madaniyat.

B) Dunyoning abadiyligi, hayotning asosi, bilish manbai.

C) Ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, praksiologiya.

D) Hayot-o‘lim masalasi.

51. Eng Yangi davr G‘arb falsafasining qo’llagan uslublari:

A) Ratsionalizm, induksiya, deduksiya.

B) Kuzatuv, solishtirish, analiz, sintez.

C) «A» va «B» bandlari to‘g‘ri.

* D) Irratsionalizm, ruhiy tahlil, lingvistik tahlil, germenev-tika, sinergetika.

52. Neokantchilik oqimining namoyandalari kimlar?

- A) E.Gusserl, M.Xaydegger, J.P.Sartr.
- B) Shiller, Gartman, Gegel, Feyerbax.
- C) F.Nitsshe, A.Shopengauer, I.Shelling.
- * D) O.Libman, G.Gelmgols, F.Lange, G.Kogen, P.Natorp.

53. Neokantchilik fiziologik yo‘nalishi namoyandalari falsafiy qarashlarining g‘oyaviy manbasi:

- A) Gegel dialektikasi va sistemasi.
- * B) I.Kantning bilish nazariyası.
- C) Aristotel dualizmi.
- D) Z.Freyd ruhiy tahlili.

54. Neokantchilikning qanday maktablari bor?

- A) Kiren, kinik, meger maktabi
- B) Akadem, Likey.
- * C) Fiziologik yo‘nalish va Margburg maktabi.
- D) Hamma javob to‘g‘ri.

55. Neokantchilikning fiziologik yo‘nalishi namoyandalari kimlar?

- * A) O.Libman, G.Gelmgols, F.Lange.
- B) Bredli, Bekon, Dekart, Lokk.
- C) Shiller, Gartman, Gegel, Feyerbax.
- D) E.Gusserl, M.Xaydegger, J.P.Sartr.

56. Neokantchilikning Margburg maktabi namoyandalari:

- A) E.Gusserl, M.Xaydegger, J.P.Sartr.
- B) O.Libman, G.Gelmgols, F.Lange.
- C) F.Nitsshe, A.Shopengauer, I.Shelling.
- * D) G.Kogen, P.Natorp, E.Kassirer.

57. Neokantchilik fiziologik yo‘nalishiga kim asos solgan?

- A) G.Gesse. B) Gegel. C) L.Feyerbax. * D) O.Libman.

58. Margburg maktabining asoschisi kim?

- A) G.Gesse. B) Gegel. C) L.Feyerbax. * D) G.Kogen.

59. Neokantchilikning shakllanishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?

- A) XVII asr oxiri.
B) XX asr o‘rtasi.
C) XIX -XX asrlar.
* D) XIX asr oxiri, XX asr boshi.

60. Margburg maktabi falsafasining boshlang‘ich tushunchasi:

- A) Illohiy son.
B) Materiya.
C) Ruhiyat.
* D) Cheksiz zarrachalarni ifodalovchi matematik son.

61. Pozitivizm qachon shakllandı?

- * A) XIX asrning 40-yillarida.
B) XX asrning birinchi yarmida.
C) XIX-XX asrlar.
D) XVIII asr oxiri.

62. Pozitivizm rivoji asosan necha davrga bo‘linadi?

- A) 5 davrga.
B) 4 davrga.
C) 2 davrga.
* D) 3 davrga.

63. Pozitivizm asoschisi kim?

- A) G.Gesse. B) Gegel. C) L.Feyerbax. * D) O.Kont.

64. Pozitivizm shakllangan mamlakatlar:

- A) Fransiya, Yaponiya, Hindiston.
- * B) Germaniya, Angliya, Rossiya, Italiya.
- C) O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston.
- D) Amerika, Xitoy, Yaponiya.

65. O.Kont taklif qilgan fanlar tasnifi:

- A) Metafizika, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar.
- B) Mantiq, matematika, ijtimoiy fanlar.
- * C) Matematika, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya, axloq, tarix.
- D) Hamma javob to‘g‘ri.

66. O.Kontning fanlar tasnifi qanday tamoyillarga asoslanadi:

- A) Induksiyaga.
- B) Deduksiyaga.
- C) Ruhiy tahlilga.
- * D) Soddadan murakkabga; mavhumdan aniqlikka; qadimgi davr fanidan hozirgi davr faniga qarab harakat.

67. G.Spenser taklif qilgan fanlar tasnifi:

- * A) I matematika, mantiq; II mexanika, fizika, kimyo; III astronomiya, geologiya, biologiya, psixologiya, sotsiologiya.
- B) Metafizika, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar.
- C) Mantiq, matematika, ijtimoiy fanlar.
- D) Matematika, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya, axloq, tarix.

68. Sotsiologiya fanining asoschisi kim?

- A) G.Gesse. B) Gegel. C) L.Feyerbax. * D) O.Kont.

69. G.Spenser o‘z ijtimoiy qarashlarida qanday tamo-yilga suyanadi?

- A) Gumanizmga.

- B) Ijtimoiy-biologik evolutsiya.
- C) Ijtimoiy darvinizm.
- * D) «B» va «C» bandlari to‘g‘ri.

70. «Hayot falsafasi»ning vakillari:

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- B) Fr.Bredli, Fr.Bekon, R.Dekart, J.Lokk.
- * C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- D) E.Gusserl, M.Xaydegger, J.P.Sartr.

71. Germaniyada «hayot falsafasi»ning asoschisi kim?

- A) G.Gesse.
- B) Gegel.
- C) L.Feyerbax.
- * D) F.Nitsshe.

72. F.Nitsshe falsafasida «hayot» qanday talqin qilinadi?

- A) Biologik jarayon sifatida.
- * B) Hayotiy oqim sifatida.
- C) Yashovchanlik sifatida.
- D) Tiriklik sifatida.

73. F.Nitsshe ijodi necha davrga bo‘linadi?

- * A) 3 davrga.
- B) 2 davrga.
- C) 4 davrga.
- G) 6 davrga.

74. «Hayot falsafasi»ning asoschisi F.Nitsshe qachon tavallud topgan?

- A) 1870-yilda.
- B) 1920-yilda.
- C) 1811-yilda.
- * D) 1844-yilda.

75. F.Nitsshe ijodining uchinchi davrida qanday asarlar yozgan?

- A) «Bevaqt qoralamalar», «Musiqani fojiya ruhiyatidan tug‘ilishi».
- * B) «Quvnoq bilimlar» (3 kitob), «Zardusht tavallosi», «Achchiq hikmat», «Dajjal», «Sanamlar oqshomi», «Axloqning kelib chiqishi», «ESSE NOMO».

- C) «Insonga xos haddan tashqari insonga xos».
- D) «Quvnoq bilimlar», «Tonggi shu’la».

76. «Hokimiyatga intilish irodasi» asarining muallifi kim?
A) G.Gesse. B) Gegel. C) L.Feyerbax. * D) F.Nitsshe.

77. «Endi boshim uzra na xudo bor va na inson! Ijodkor ruhi nima qilishini o‘zi biladi. Sukut saqlab turish vaqtি o‘tdi: Mening Zardushtim shunday deydi. Irodam, falsafam ham shunday yuqoriga ko‘tarildiki, uning orqasida men yangi yer ochdim, albatta, bu zaminni men qadamba-qadam ishg‘ol etib borishim zarur. O‘z ijodimning endi kunduziga yetdim!»- ushbu misralarning muallifi qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

- A) G.Gesse.
- B) Gegel.
- C) L.Feyerbax.
- * D) F.Nitsshe.

78. «Akademik» hayot falsafasining namoyandalari:

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- * B) V.Diltey, G.Zimmel.
- C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- D) E.Gusserl, M.Xaydegger, J.P.Sartr.

79. V.Diltey fikricha hayot nima?

- * A) «Hayot–bu iroda faktlari, ichki uyg‘onish hissiyoti. Ular bizga bevosita hayot iztiroblari orqali berilgan».
- B) «Yashash uchun kurashdir».
- C) «Ijtimoiy-biologik jarayondir».
- D) «Tiriklik manbaidir».

80. V.Zimmel «hayot»ga qanday ta’rif beradi?

- A) «Hayot–bu iroda faktlari, ichki uyg‘onish hissiyoti. Ular bizga bevosita hayot iztiroblari orqali berilgan».
- B) «Yashash uchun kurashdir».
- C) «Ijtimoiy-biologik jarayondir».

*D) «Hayot-hissiyot, tajriba, fikr harakati. Shu nuqtayi nuvardan olam hayot tajribasidan kelib chiqadi».

81. Pragmatizm oqimi qachon va qayerda shakllandi?

- A) XIX asr oxiri Rossiyada.
- B) XX asr o'rtasi Fransiyada.
- C) XX asr ikkinchi yarmi Germaniyada.
- * D) XX asrning boshlari AQSHda.

82. Pragmatizm oqimining asoschisi kim?

- A) G.Gesse.
- B) Gegel.
- C) L.Feyerbax.
- * D) Ch.S.Pirs.

83. «Pragma» so'zining ma'nosi nima?

- * A) Ish, harakat.
- B) Foyda, daromad.
- C) Boylik.
- D) Omad.

84. Pragmatizm oqimining namoyandalari:

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- B) V.Diltey, G.Zimmel.
- C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- * D) Ch.Pirs, U.Jeyms, D.Kornegi.

85. Pragmatizm falsafasining shiori:

- A) «Har narsaga shubha bilan qarash!»
- * B) «Hamma ishni ishonch-e'tiqod bilan boshlash!»
- C) «Manfaat - har narsadan ustun!»
- D) «Faqat foyda, daromad keltiradigan ishni bajarish!»

86. «Ekzistensiya» so'zining mazmuni qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan:

- A) Mohiyat.
- B) Mayjudlik.
- C) Inson botiniy olami.
- * D) Hamma javob to'g'ri.

87. Ekzistensializm falsafasining shakllanishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?

- A) XIX asr oxiriga.
- B) XX asr o‘rtasiga.
- C) XX asr ikkinchi yarmiga.
- * D) XX asrning ikkinchi choragiga.

88. Ekzistensializmning namoyandalari kimlar?

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- B) V.Diltey, G.Zimmel.
- C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- * D) M.Xaydegger, K.Yaspers, J.P.Sartr, A.Kamyu.

89. Germaniyada ekzistensializmga kim asos soldi?

- A) G.Gesse.
- B) Gegel.
- C) L.Feyerbax.
- * G) M.Xaydegger.

90. Fransiya ekzistensializmi vakillari:

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- B) V.Diltey, G.Zimmel.
- C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- * D) J.P.Sartr, A. Kamyu.

91. Fransuz ekzistensializmi diqqat e’tiborini qaratgan asosiy muammolar:

- * A) Erkinlik, erkin tanlash huquqi.
- B) Bilish masalasi.
- C) Borliq masalasi.
- D) Axloq masalasi.

92. A.Kamyuning falsafiy qarashlari qaysi asarlarda o‘z aksini topgan?

- A) «Buzilish».
- B) «Isyonkor inson».
- C) «Amerika madaniyati», «Falak gardishi».
- * D) «O‘zga», «Sizif haqida afsona», «Vabo», «Isyonkor inson».

93. A.Kamyu «O‘zga» va «Vabo» asarlarida qanday muammoni ko‘targan?

* A) Insonni jamiyatdan, insondan va o‘zidan begonalashish muammosini.

B) Bilish muammosini.

C) Borliq muammosini.

D) Axloq muammosini.

94. J.P.Sartr fikricha, inson ichki erkinligi qanday vaziyatda yuzaga chiqadi?

A) Iztirobda.

B) Hurramlikda.

C) Jahl chiqqanda.

* D) Hayot va o‘lim o‘rtasida tanlash holatidagi chegaraviy vaziyatda.

95. Freydizm ta’limoti qanday nomlanadi?

A) Germenevtika.

B) Irratsional.

C) Ratsional.

* D) Ruhiyat tahlili.

96. Z.Freyd ongui qanday darajalarga bo‘ladi?

A) Quyi, yuqori.

* B) I onglilik; II ong oldi; III ongsizlik.

C) Yuksak, o‘rtacha, anglangan «Men».

D) To‘g‘ri javob yo‘q.

97. Z.Freyd fikricha, «Olyi Men» nimani anglatadi?

* A) Hirsiy hissiyotni, ya’ni libidoni.

B) Ehtirosni.

C) Xohishni.

D) Istakni.

98. Z.Freyd ta’limotini davomchisi kim?

A) Ch. Pirs

- * B) K.Yung.
- C) K.Popper.
- G) J.Berkli.

99. K.Yung fikricha, «libido» nimani anglatadi?

- A) Ishqiy ehtirosni.
- B) Xudbinlikni.
- * C) Ruhiy energiyani.
- D) O‘z-o‘zini saqlashni.

100. Neofreydizm oqimining namoyandalari:

- A) Anri Avenarius, Bertran Rassel.
- B) V.Diltey, G.Zimmel.
- C) F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer.
- * D) Karl Yung, Erix Fromm.

MAVZULAR BO‘YICHA TEST SAVOLLARINIG JAVOBLARI

Bo‘lim №	Savol №																					
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
1	D	V	C	A	C	A	V	A	C	A	D	A	C	D	V	A	D	C	A	A	D	C
2.1	V	D	A	C	A	B	C	A	D	B	A	D	C	D	A	B	C	A	V	V		
2.2	D	V	C	A	C	A	V	A	C	V	D	A	C	B	V	A	D	C	A	D		
2.3	A	C	D	B	D	C	A	C	A	D	B	B	D	A	D	A	A	C	D	V		
3	D	V	C	A	C	A	V	A	C	V	D	A	C	A	V	C	D	A	A	A		
4	A	C	D	B	A	C	A	C	A	D	B	A	D	C	D	A	A	C	D	V		
5.1	D	V	C	A	C	A	V	A	C	V	D	B	A	D	V	C	D	C	A	A		
5.2	A	A	D	A	A	C	D	C	A	D	B	A	D	C	D	A	A	C	D	C		
5.3	A	D	C	B	D	A	A	C	B	C	A	A	B	D	A	A	C	B	D	A		
5.4	D	V	C	A	C	A	V	A	C	V	D	B	A	D	V	C	D	C	A	A		
6	A	A	D	A	A	C	D	C	A	D	B	A	D	C	D	A	A	C	D	C		

GLOSSARIY

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atama- ning o‘zbek tilida nomla- nishi	Atamaning ma’nosи
The doctrine of the eternal return	Учение о вечном возвращении	Abadiy qaytish ta’limoti	Bu g‘oyaning mohi- yati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo‘lgan abadiy bar- hayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo‘- ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo‘- shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o‘z ruhiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tishi zarur.
Absurd	Абсурд	Absurd	Kamyu «Sizif haqidá afsona» nomli falsafiy risolasida ma’nosizlik (absurd) falsafasini oldinga surdi.
Agnosticism	Агностицизм	Agnostitsi zm	Bilishni inkor qiluvchi ta’limot.
Antinomiya	Антиномия	Antinomi- ya	Isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo‘lgan haqiqatlar yoki qoidalar.
Apeyron	Апейрон	Apeyron	Anaksimen ta’limo- tida: olamning umu- miy moddiy asosini tashkil etuvchi no-

			muayyan mayda zar-rachalar.
Aporiya	Апория	Aporiya	Aynan bir narsaga nis-batan aytilgan qarama-qarshi xulosalarning «tengligi»ni, ya’ni chinligini isbotlovchi dalil.
Apologetika	Апологетика	Apolo-getika	So‘zning lug‘aviy ma’nosi himoya qilmoq demakdir, ya’ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir.
Aprior	Априор	Aprior	Tajribagacha bo‘lgan bilim.
Aposterior	Апостериор	Aposterior	Tajribadan keyingi bilim.
Arxetip	Архетип	Arxetip	Yungcha «архетип»лар inson holatining shakliy timsollaridir yoki majoziy andozalaridir.
Association	Ассоциация	Assotsiatsiya	Bilishdagi munosabat-asoslari.
Rational ethics	Рациональная этика	Axloqiy ratsionalizm	Bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo‘ladi.
«Superman»	«Сверх человек»	«A’lo odam»	Zaminning mazmuni, mukammal kuchli irodaga ega bo‘lgan inson.

Biological anthropology	Биологическая антропология	Biologik antropologiya	Insonni biologik mavjudot sifatidagi jihatlarini bo'rttirib o'rjanuvchi ta'lilot.
The primary quality	Первичные качества	Birlamchi sifatlar	Narsalarning mohiyatiy belgilari.
Alienation	Отчуждение	Begonala-shish	O'zgaga aylangan inson, har bir narsaga begona bo'lgan inson, «Begona» asarining bosh qahramoni Merso faqat o'zi uchun yashaydi, uning qalbida odamlarga bo'lgan mehr alangasi so'ngan.
Primary source	Первоисточник	Boshlang'ich ibrido	Substansiya, birinchi ibrido, asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.
Hedonism	Гедонизм	Gedonizm	Lazzatlanish, huzurlanish.
Hylozoism	Гилюзоизм	Gilozoizm	Hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.
Geocentrism	Геоцентризм	Geosentrism	Yer – olamning markazi, degan ta'lilot.
Homomeries	Гомомерии	Gom-omeriya	Anaksagor ta'lilotida: dunyoning mod-diy asosini tashkil etuvchi mayda zarrachalar -urug'chalar.
Humanism	Гуманизм	Gumanizm	Insonning dunyodagi o'rni, mohiyati va

			vazifasi, borlig‘ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.
Dasiyn	Дасийн	Dasiyn	Xaydegger o‘z falsafasiga «dasiyn» tu-shunchasini kiritadi. Bu tushuncha inson borlig‘i ma’nosini anglatadi.
Demiurg	Демиург	Demiurg	Eng oliv iloh, xudo desa ham bo‘ladi.
Determinism	Детерминизм	Determinism	Zaruriy shartlanganlik tamoyili.
Deduction	Дедукция	Deduksiya	Umumiydan xususiyga borish.
Deism	Деизм	Deizm	Xudo olamni yaratadi, lekin keyingi rivojiga aralashmaydi degan falsafiy ta’limot.
Deductive method	Дедуктив метод	Deduktiv metod	Umumiy bilimdan xususiy bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qaramaqarshi deduktiv metodni ilgari suradi.
Dialektika	Диалектика	Dialektika	Raqib bilan bahs-munozara yurita olish san’ati.
Wisdom	Мудрость	Donolik	Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal birligi.

Dualism	Дуализм	Dualizm	Nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mayjud.
Necessity	Необходимость	Zarurat	Olamdagi hamma narsa belgili asosda paydo bo‘ladi, obyektiv zaruratdan paydo bo‘ladi.
Ideal society	Идеальное общество	Ideal jamiyat	Xususiy mulksizlikka asoslangan xayoliy jamiyat modeli.
Social contract	Общественный договор	Ijtimoiy kelishuv	Jamiyatni shartnoma asosida paydo bo‘lganligi haqidagi ta’limot.
Social justice	Социальное справедливость	Ijtimoiy adolat	Jamiyatdagi adolat shakli.
Double truth	Двойная истина	Ikki haqiqat	Dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.
Secondary quality	Вторичные качества	Ikkilamchi sifatlar	Narsalarning tashqi sifatiyi belgilari.
Early Christianity	Ранняя христианства	Ilk xristianlik	Xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.
Induction	Индукция	Induksiya	Xususiyidan umumiyya borish.
Induction method	Индуктивный метод	Induktiv metod	Tajriba orqali olingan materiallarni miyada qayta ishlash usulidir.
The human being	Человеческое бытие	Inson borlig‘i	Inson borlig‘ini «ekzistensiya» deb atadilar.

Man - mechanism	Человек- механизм	Inson-mexanizm	Inson mexanika qoidalariga bo‘ysinuvchi mavjudot.
Human Philosophy	Философия человека	Inson falsafasi	Inson ma’naviy hayotining ichki qonuniyatlarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma’nosi, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning o‘ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobiy tomonga yo‘naltiruvchi ta’limot.
Ionion philosophy	Ионийская философия	Ioniya falsafasi	Ioniya tumanida yuzaga kelgan barcha falsafiy ta’limotlarni ioniya falsafasi deb atashgan.
Irrationalism	Иrrационализм	Irratsionallik	Obyektiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», subyekt ongingin hodisalarini tahlil qilishga o‘tdilar.
Nothingness	Небытие	Yo‘qlik	Borliqning muqobili, ya’ni mavjud bo‘lmaslik.
Categories	Kатегории	Kategoriylar	Eng umumiyl tushunchalar, mantiq tushunchalari.

Categorical imperative	Категорический императив	Kategorik imperativ	Kant axloqshunosligidagi «burch haqidagi» ta'limot.
Libido	Либидо	Libido	Inson tug‘ilgandan boshlab, butun hayoti davomida uning barcha harakatlarining sabablarini Freyd ong ostida yotgan, anglanmagan hirsiy hissiyotlar, ya’ni «libido» orqali tushuntirdi.
Logos	Логос	Logos	Geraklit falsafasida: qonun, moddiy dunyo qonuni.
Mayevtika, ironiya	Маевтика, ирония	Mayevtika, ironiya	Suhbat olib borish usullari.
Marburg school	Марбургская школа	Margburg maktabi	Neokantchilikning Margburg maktabi.
Mathematical science	Математическое естествознание	Matematik tabiatshunoslik	Cheksiz bilish jarayonida va borliqni yaratilishida Kogenning ideali – bu matematik bilishdir. Yangi tabiatshunoslik – bu matematik tabiatshunoslikdir.
Matter	Материя	Materiya	Moddiy asos.
Miletus school	Мильтская школа	Milet maktabi	Miloddan avvalgi VII asr oxiri - VI asr boshlarida vujudga kelgan, ularning vakillarini ioniyalik

			faylasuflar ham deb atashgan.
Mifology	Мифология	Mifologiya	Afsonalar va asotirlar haqidagi ta'limot. Qadimda falsafani manbasi, materiali vazifasini o'tagan.
Metafizika	Метафизика	Metafizika	Tabiatdan oldin, birinchi falsafa ma'nosida ham qo'llaniladi.
Method	Метод	Metod	Usul haqidagi ta'limot.
Love and hate	Любовь и ненависть	Muhabbat va nafrat	Empedokl ta'limotida barcha unsurlarni harakatga keltiruvchi kuchlar. Unsurlarni birlashtiruvchi kuchni u muhabbat desa, ularni bir-biridan ajratuvchi kuchni yovuzlik, nafrat kuchi, deb biladi.
Modus	Модусы	Moduslar	Narsalarning sifatlari.
Monada	Монадо	Monada	Birlamchi asoslar, ruhiy substansiyalar.
The world of things	Мир вещей	Narsalar dunyosi	O'tkinchi, yo'q bo'luvchi, o'zgaruvchan dunyo.
Relativity	Относительность	Nisbiylik	Hamma narsa o'zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukonat esa vaqtinchalik, nisbiydir.

Neoplatonity	Неоплатонизм	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik, ellin davrida rivojlangan oqim.
Neokantianity	Неокантинство	Neokantchilik	Kantn ta'limotinining qayta tiklanishi. Bu oqim mavhum «ong» kategoriyasi ustida ishlagan.
Physiologica l direction of Neokantianity	Физиологиче ское направление неокантинства	Neokantchilikning fiziologik yo‘nalishi	Asosan hissiyotning tashqi fiziologiyasi haqidagi ta’limotlarning rivoji orqali bo‘ladi.
Non-classical Philosophy	Неклассическая философия	Noklassik falsafa	XIX asrning o‘rtalaridan boshlab noan'anaviy (noklassik) yo‘nalishdagi bir qancha falsafiy oqimlar.
Nominalism	Номинализм	Nominalizm	Lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “nomina” – nom degan ma‘noni bildiradi. Nom, ism narsalardan keyin paydo bo‘ladi degan ta’limot.
Nous	Hoyc	Nous	Anaksagor ta’limotida: harakatlantiruvchi kuch (aql) o‘z harakatini koinotning borgan sari katta qismlariga ta’sirini ko‘rsatadi.
Fire	Огонь	Olov	Geraklit ta’limotida: olamning asosi,

			hamma tabiiy narsalarning negizi.
Fire, air, water, earth	Огонь, воздух, вода, земля	Olov, havo, suv va yer	Qadimgi falsafiy ta'limotlarda moddiy olamning asosini tashkil etuvchi to'rt element.
Consciousness	Созна- тельность	Onglilik	Onglilik bu hodisa- larning yuzaki qis- midir. Bizning butun tashqi, ichki taassu- rotlarimiz, hissiyot- larimiz ongimiz tomo- nidan anglanadi. Ular ichki ruhiy holatlar bilan bog'liqdir.
These conscious- ness	Данные сознания	Ongning dastlabki ma'lumot- lari	«Ong» kategoriyası dunyoni tushunishni birinchi shartidir va har qanday fan obyekting asosida yotadi.
Unconsciousness	Бессозна- тельное	Ongsizlik	Freydning fikricha, ongdan siqib chiqarilgan hamma narsa ongsizlidir, lekin ongsizlik siqib chiqari- lgan hodisalar bilan aynan bir narsa emas.
Panteizm	Пантеизм	Panteizm	Xudo har yerda mavjud degan ta'limot.
Patristika	Патристика	Patristika	Lug'aviy ma'nosi “ota”ni anglatadi, bu so‘z ko‘pincha hurmat ma’nosida g‘arbiy

			yepiskoplarga berilgan.
Pythagorean union	Пифагорейский союз	Pifagorchilar ittifoqi	Pifagorning shogirdlari va uning ta'lomtini davom ettirgan faylasuflar. Musiqa, arxitektura, tasviriy san'at nazariyasini yaratishda ularning tarixiy xizmatlari katta bo'lgan.
Pierce principle	Принцип Пирса	Pirs tamoyili	Tadqiqot jarayonida olim narsalarning obyektiv sifatlarini, xossalalarini emas, balki ularning his-tuyg'ularimizga ta'sir qilishi va shularning natijasida paydo bo'lgan olimning subyektiv taassurotlarini o'rganadi. Olim o'zining his-tuyg'ulari doirasidan chiqib keta olmaydi. Aslida esa bu neokantchilikka qaytish va narsalarni «narsa o'zida» va «narsa biz uchun» ga ajpatishdir.
Positivism	Позитивизм	Pozitivizm	G'arb falsafasida juda keng tarqalgan yo'naliш. XIX asрning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan asos solingan.

Positivity	Позитивность	Pozitivlik	Birinchidan, yolg‘on-chilikka qarshi haq-qoniylik; ikkinchidan, keraksizlikka qarshi foydali; uchinchidan, shubhaga qarshi ishon-chilik; to‘rtinchidan, noaniqlikka, mavhumlikka qarshi aniqlik; beshinchidan, salbiylikka qarshi ijobiylilik va nihoyat oltinchidan, buzg‘unchilikka qarshi bunyodkorlik ma’nlarida ishlatiladi.
Pragmatizm	Прагматизм	Pragmatizm	XX asr boshlarida AQSHda vujudga kelgan ta’limot.
Pragma	Прагма	Pragma	«Pragmatizm» tushum-chasining etimologik kelib chiqishi yunoncha «pragma» so‘zidan olinib, ish, harakat ma’nolapini anglatadi. Falsafa tarixida bu tepminni ilk bor I. Kant o‘zining «Sof aqlning tanqidi» asarida «pragmatik e’tiqod» sifatida ishlatgan.
Progress	Прогресс	Progress	Taraqqiyot haqidagi ta’limot.
Ratsionalizm	Рационализм	Ratsionalizm	Bilishda aqlni rolini oshirib ko‘rsatuvchi ta’limot.

Rationality	Рациональность	Ratsionallik	Kantdan Gegelgacha bo‘lgan yo‘l – bu insonning tanqidiy baholovchilik qibiliyati sifatida tushunilgan oliv aqlning gegelcha «ilohiy» aql aqidasiga o‘rin bo‘shatib berishi sifatida tushunilgan
Realizm	Реализм	Realizm	Lotincha so‘zdan olin-gan bo‘lib, «realis» – real mavjud degan ma’noni bildiradi. G‘oyalalar narsalardan oldin real holatda mavjud degan ta’limot.
Regress	Перреcc	Regress	Orqaga ketish.
Renessans	Ренессанс	Renessans	Uyg‘onish davri.
Psycho-analysis	Психоанализ	Ruhiyat tahlili	Bu ta’limot XIX-XX asrlarda vujudga keldi. Uning asoschisi avstriyalik vrach-nevropatolog Zigmund Freyd bo‘ldi. U asabiy kasallarni davolashning yangi uslubini taklif qiladi, natijada bu uslub ruhiyat tahlili deb nomlanadi.
Psychic energy	Психическая энергия	Ruhiy energiya	Ruhiy energiya tashkil etadi. Bu energiyadan butun borliq – yulduzlar, sayyoralar, o‘simliklar, hayvonot

			va insonlar yaratilgandir.
Sensationalism	Сенсуализм	Sensualizm	Bilishda sezgilarini rolini, ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi ta'lilot.
Skepticism	Скептицизм	Skeptitsizm	Yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ko'rib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalanyapman degan ma'nolarni bildiradi. Bu oqimning ko'zga ko'ringan vakillari – Pirron, Agripp, Ensidem, Sekst Empirik.
Elemental dialectic	Стихийная диалектика	Sodda dialektika	Geraklit ta'limoto misolida: hamma narsa harakatda, olam to'xtovsiz o'zgarishlardan iborat. Harakat moddiy olam doirasida asosan qarama-qarshiliklarning birligi va kurashidan iborat.
Natural materialists	Стихийные материалисты	Sodda materializm	Ioniyalik mutafakkirlar rang-barang dunyo hodisalarining birligini yo suvda, yo apeyronda, yo havoda deb tushuntirishga intilganlar.
Sophists	Софисты	Sofistlar	Donolik o'qituvchilarini sifatida faoliyat

			ko'rsatishdi. (Sofiya-donolik demakdir).
Stixiya	Стихия	Stixiya	Tabiatning ongsiz harakati.
Stoicism	Стоицизм	Stoitzm	Miloddan avvalgi IV asr oxirida Yunonistonda stoiklar ta'limoti shakhnana boshlandi. U ellistik davrda hamda keyingi Rim davrida keng tarqalgan falsafiy oqimlardan biriga aylangan edi. Ularning fikricha, falsafaning asosiy qismini mantiq tashkil qiladi.
Subjectivism	Субъектизм	Subyekti-vizm	Bilishda inson ongini, hislarini o'rnini ko'tarib ko'rsatuvchi ta'limot.
Number	Число	Son	Pifagor ta'limotida: dunyoning asosi, ular ilohiy qudratga ega. Matematika – matematik tushunchalar o'zgarmas bo'lgani holda, narsalar yo'q bo'lib ketaveradi.
Substansiya	Субстанция	Substansiya	Olamning asosi, negizi, yagonalikdan hamma narsa kelib chiqadi.
Sxolastika	Схоластика	Sxolastika	So'zning lug'aviy ma'nosi «maktab»,

			«o‘qiydigan joy» kabi-larni anglatadi. Sxolastlar deb, Buyuk Karl saroyidagi, saroy maktablaridagi o‘qituvchilarni hamda dinni o‘qitishda falsafadan foydalangan o‘rta asr ilohiyot-chilarini ataganlar.
Impression	Впечатление	Taassurot	David Yum falsafasidagi asosiy tushunchalardan biri.
Law of nature	Естественные право	Tabiiy huquq	Insonni tug‘ilgandan yashashga bo‘lgan huquqlari.
Natural equality	Естественное равенство	Tabiiy tenglik	Insonni tug‘ilgandan hamma insonlar teng degan ta’limot.
Tanatos	Танатос	Tanatos	Keyinchalik Freyd o‘z ijodiga yangi tushuncha «Tanatos» (Azroil - buzg‘inchi, o‘lim xudosi)ni kiritdi. Bu nuring taqiqlangan hir-siy hissiyotlapni chegapalashga olib keldi.
Representation	Представление	Tasavvur	Jorj Berklining bilish nazariyasidagi asosiy tushuncha.
Transcenden-ta-lism	Трансцендент альная философия	Transsen-dental falsafa	Nemis faylasufi I.Kantning falsafasi.

«I»	«Оно»	«U»	Tushunchasiga esa onglilikni tashkil etuvchi ongsizlik kiradi.
Renaissance	Эпоха возрождения	Uyg'onish davri	Yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlar ga ega bo'lgan g'oya viy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.
Universals	Универсалии	Universalilar	Umumiy tushunchalar haqidagi ta'lilot.
Utopiya	Утопия	Utopiya	Hayoliy jamiyat haqidagi ta'lilot.
Scientific method	Научный метод	Fan uslubi	Pirsning fikri bo'yicha, ishonch mustahkam kuchli dalilga asoslanishi kerak. Bunday dalil sifatida Pirs fan usulini tahlil qildi. Pirsning fikricha, fan obyektning tahlil qilinishi va ta'riflanishi uchun zarur bo'lgan obyektiv reallikdir.
Positivist science classification	Позитивистическая классификация науки	Fanlarning pozitivistik tasnifi	Kontning tasnifi qo'yidagi uch tamoyilga asoslanadi: sodda dan murakkabga qarab harakat qilish; mavhumlikdan aniqlikka qarab harakat qilish; qadimgi davr fanlardan hozirgi zamon faniga qarab harakat.

Fatalistic determinism	Фаталистический детерминизм	Fatalistik determinizm	Taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo‘ladi, degan ta’limot.
Fenomen	Феномен	Fenomen	Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan mohiyatni ochib beradi va “mohiyat” tushunchasini o‘z ichiga qamrab oladi.
Freydizm	Фрейдизм	Freydizm	Inson psixikasining tuzilishi va rivojlanishini o‘rganuvchi oqim freydizm deb ataladi.
Remember	Воспоминание	Xotirlash	Haqiqiy dunyodagi hayotini eslash.
The syclical movement	Циклическое движение	Davriy harakat	Olamda turli davrlar, bosqichlarning navbatma-navbat o‘rin almashishi, aylanma harakati.
The form	Форма	Shakl	Borliq ma’nosи, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.
The doctrine of faith and doubt	Учение о сомнении и вере	Shubha-ishonch ta’limoti	Pirs tafakkurni organizmning tashqi muhitga moslashish faoliyati deb tushundi. E’tiqod, Pirsning fikricha, harakat qilishning eng faol usulidir. Bilish jarayonida

			shubhani yo‘qotish va e’tiqodni mustahkam-lash Pirsning shubhaishonch nazariyasining asosiy g‘oyasi va tafakkurning asosiy maqsadidir.
Evtyuma	Эвтиюма	Evtyuma	Ruhning qulay joylashishi, me’yoriylik.
Ellinizm	Эллинизм	Ellinizm	Bu davr makedoniyalik Iskandar vaftidan keyin miloddan avvalgi 323-yildan boshlanib 30-yillargacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi.
Ekzisten-sializm	Экзистенциализм	Ekzisten-sializm	Ekzistensializm falsafasi XX asr boshlarida Germaniyada yuzaga keldi.
Ekzistensiya	Экзистенция	Ekzis-tensiya	«Mavjudlik» degan ma’noni anglatadi.
Emanatsiya	Эманация	Emanat-siya	Evrilish, nurlanish.
Epikurizm	Эпикуризм	Epikurizm	Epikur ta’limotini davom ettiruvchilari, shogirdlari, salaflari.
Freedom	Свобода	Erkinlik	Ishchan faoliyatni Sartr erkinlik deb ataydi.
Eros	Эрос	Eros	Yaratuvchanlik kuchi, muhabbat quvvati.
The world of ideas	Мир идей	G‘oyalalar dunyosi	Haqiqiy, abadiy, o‘zgarmas dunyo.

Inanity	Бессмыс-ленность	Hayotning mazmunsizligi	Hayotdan ajralib qolgan insonning hayoti o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shunday vaziyatda insonning hayoti ma’nosiz degan fikr tug‘iladi.
«Philosophy of life»	«Философия жизни»	«Hayot falsafasi»	Hayot mazmuni qadriyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar yig‘indisi bir mukammal tizimga keltirilgan ta’limot.
«Will to Power»	«Воля к власти»	«Hokimiyatga intilish irodasi»	Hokimiyatga intilish g‘oyasini Nitsshe o‘zining «Hokimiyatga bo‘lgan iroda» asarida chuqr tahlil qilib beradi.
«Being for itself»	«Бытие для себя»	«O‘zi uchun borliq»	«O‘zi uchun borliq» tushunchasi inson ichki olami mohiyatini ochib beradi.

ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
5. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
6. Karimov I.A. To'la asarlar to'plami. 1-24 jildlar. – T.: O'zbekiston, 1996-2016.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

Ilmiy va o'quv adabiyotlari:

O'zbek tilida

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. (Tuzuvchi va ilmiy muharrir Q.Nazarov, mas'ul muharrir M.Baratov). – T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004.
2. Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. – T., UzMU, 1998.
3. Yo'ldoshev S. va boshqalar. Yangi va eng Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar). – T.: Sharq, 2002.
4. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: Sharq, 2003.
5. Kamyu A. Begona. – T., 1999.

6. Pulatova D.A., Rozmatova G.M. Falsafa tarixi: G'arb falsafasi. –Т.:TDSHI,2013.
7. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –Т.: Sharq,1992.
8. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. –Т.: Sharq,2002.
9. Falsafa. Qomusiy lug‘at. –Т.: Sharq, 2004.
10. G'arb falsafasi.Tuzuvchi va mas.muharrir: Q.Nazarov. – Т.: Sharq, 2004.

Ingliz tilida

11. Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010.
12. Copleston F. A History of Philosophy. –Vol.1-8. – N.Y., London, 2003-2004.

Rus tilida

13. Антология мировой философии в 4-х томах.Т.1.Ч.1. – М.,1969.
14. Асмус В.Ф. История античной философии. –М.: Мысль,1985.
15. Асмус В.Ф. Античная философия. –М.,1982.
16. Асмус В.Ф. Демокрит. –М.,1960.
17. Аристотель. Сочинения в 4-х томах. –М., 1975-1983.
18. Великие философы. -- М., 1998.
19. Вольтер Ф. Боги и люди. В 2-х томах. –М.,1961.
20. Гегель Г.В. Энциклопедия философских наук. –М., 1974-1977.
21. Гриненко Г.В. История философии. Учебник. –М.: Высшее образование., 2009.
22. Гулыга А.В. Немецкая классическая философия. –М., 1986.
23. Дарно Антисери и Джованни Реале. Западная философия от истоков до наших дней. –М.,2001.
24. Жеймс У. Прагматизм. –М., СПб., 1910.
25. Жеймс У. Зависимости веры от воли. –М., СПб., 1904.
26. Западная философия. Итоги тысячелетия.–Екатеринбург,1997.

27. История философии. Под.ред. Ч.С. Кирвеля. Учебник. Г.:Минск,2001.
28. История философии. –М.:ПРИОР,1997.
29. История философии. Для студентов вузов. – Ростов на Дону, 1998.
30. Камю А. Избранное. – М., 1969.
31. Камю А. Бунтующий человек. –М.б 1990.
32. Кант И. Критика чистого разума. –Ростов на Дону: Феникс, 1998.
33. Кузнецов В.Н. Немецкая классическая философия второй половины XVIII начало XIX века. –М.: Высшая школа, 1989.
34. Кессиди Ф.Х. Сократ. –М.:Наука,1984.
35. Лосев А.Ф.История античной эстетики. Софисты, Сократ, Платон. –М.:Мысль,1984.
36. Лосев А.Ф.История античной эстетики. Поздний эллинизм.–М.,1980.
37. Лурье С.Я. Демокрит. –М.,1970.
38. Монтецье Ш. Избранные произведения. –М.,1959.
39. Нахов И.М. Философия киников. –М.,1982.
40. Надточав А.С.Философия и наука в эпоху античности. –М.,1990.
41. Нерсесянц В.С. Сократ. –М.:Наука,1984.
42. Ницше Ф. Сочинения в 2-х томах.– М., 1990.
43. Петрици И. Рассмотрение платоновской философии и Прокла Диадоха. --М.,1984.
44. Платон. Сочинения в 3-х томах. –М.,1968-1972.
45. Платон и его эпоха. –М.,1979.
46. Рожанский И.Д. Развитие естествознания и философии в эпоху эллинизма и Римской империи. –М.,1998.
47. Сартр Ж.П. Экзистенциализм - это гуманизм // Сумерки богов. –М., 1989.
48. Сартр Ж.П. Проблемы метода. –М., 1993.
49. Сенека. Нравственные письма к Луцилию. –М.,2006.
50. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. –М., 1989.
51. Фромм Э. Бегство от свободы. –М., 1990.

52. Фромм Э. Иметь или быть? –М., 1990.
53. Фромм Э. Человек для себя. – Минск, 1992.
54. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики //Перевод В.В.Бибихина // Вопросы философии, 1989, № 9.
55. Хайдеггер М. Разговор на проселочной дороге. – М., 1991.
56. Хрестоматия. От Шопенгауэра до Дерриды. –М., 1997.
57. Хрестоматия по философии. – М., Центр, 1998.
58. Чанышев А.Н. Аристотель. –М.,1987.
59. Шаловалов В.Ф. Основы философии. От классики к современности. – М., 1999.
60. Юнг К. Психологические типы.– М., 1998.
61. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1991.

Internet saytlar:

1. www.lex.uz.
2. www.gov.uz.
3. www.library.ziyonet.uz.
4. www.faylasuf.uz.
5. <http://booksss.ru> философия//Slovar_Philosof.rar
6. <http://znanium.com/> философия. Счастливцева Е.А. История философии. Учебное пособие. –Киров: Изд-во ВятГГУ, 2014.
7. <http://znanium.com/> философия. Зотов А.Ф. Современная западная философия. Учеб пособие. –М. : Проспект, 2012.
8. <http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=3853896>
Антисери Д., Реале Дж. Западная философия от истоков до наших дней. В четырёх томах. Перевод С.А.Мальцева. –С-Петербург:Пневма, 2002.
9. <http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=3562401>
Рассел Б. История западной философии. В двух книгах. –М.: Миф, 2010.
10. http://filosof.historic.ru/books/c0016_1.shtml
Алексеев П. В. История философии. Учеб. для студ. вузов, изучающих философию. –М. : Проспект, 2012.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

1-BO'LIM.

«G'ARB FALSAFASI» O'QUV KURSINING PREDMETI VA VAZIFALARI

2-BO'LIM.

QADIMGI DAVR YUNON-RIM FALSAFASI

1-bob. ILK ANTIK DAVR FALSAFASI

1.1. Milet falsafiy maktabi	26
1.2. Geraklit falsafasi	36
1.3. Pifagor va pifagorchilar ittifoqi.....	42
1.4. Eley falsafasi.....	47
1.5. Empedokli va Anaksagor falsafasi.....	56

2-bob. ANTIK DAVRNING KLASSIK FALSAFASI

2.1. Sofistlar va Suqrot falsafasi	73
2.2. Levkipp va Demokritning atomistik falsafasi	78
2.3. Platon falsafasi.....	83
2.4. Aristotel falsafasi	88

3-bob. QADIMGI DAVR ELLIN-RIM FALSAFASI

3.1. Epikur va Lukretsiy Kar falsafasi.....	101
3.2. Stoiklar va skeptiklar	110
3.3. Neoplatonizm.....	116

3-BO'LIM.

O'RTA ASR G'ARB FALSAFASI

ILK XRISTIAN FALSAFASINING

SHAKLLANISHI

4-BO'LIM.

UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI

5-BO'LIM.

5-bob. G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR FALSAFASI

5.1. Yangi davr falsafiy tafakkurining shakllana boshlashi....	172
5.2. XVIII asrda Angliyada falsafaning rivoji.....	211
5.3. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi va falsafasi.....	227
5.4. XVIII-XIX asr boshi nemis mumtoz falsafasi.....	253

6-BO'LIM

6-bob. XIX-XX ASRLARDA G'ARB FALSAFASI RIVOJI

6.1. Eng Yangi davr g'arb falsafasining shakllanishi.....	289
6.2. Neokantchilik.....	306
6.3. Pozitivizmni vujudga kelishi va yo'nalishlari.....	322
6.4. "Hayot falsafasi"	340
6.5. Pragmatizm	360
6.6. Ekzistensializm	370
6.7. Freydizm va neofreydizm	392
«G'arb falsafasi» o'quv kursi bo'yicha mustaqil ta'lim uchun xrestomatik material.....	415
«G'arb falsafasi» o'quv kursi bo'yicha yakuniy yozma ish savollari.....	461
«G'arb falsafasi» kursi bo'yicha talabalarni o'z-o'zini sinash uchun savol va topshiriqlar	463
«G'arb falsafasi» o'quv kursi bo'yicha referat mavzulari.....	466
Test savollari	469
Mavzular bo'yicha test savollarinig javoblari.....	488
Glossariy	489
Adabiyotlar hamda axborot manbalari	509

D.A. PO'LATOVA, G.M.RO'ZMATOVA

G'ARB FALSAFASI TARIXI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018

Muharrir:

Tex. muharrir:

Musavvir:

Musahhih:

Kompyuterda

sahifalovchi:

M.Hayitova

A.Moydinov

F.Tishabayev

Sh.Mirqosimova

N.Rahmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 29.11.2018.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 31,75. Nashriyot bosma tabog'i 32,25.

Tiraji 300. Buyurtma № 474.



«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

FAN VA 
TEKNOLOGIVALAR

ISBN 978-9943-11-928-4



9 789943 119284